Belgiya Kongodan chiqib ketishga shoshilmagan va BMT qarorlarini deyarli bajarmagan. Komina shahridagi harbiy bazasida qo’mondon bo’lgan Remi van Lerd xorijiy jurnalistlarga intervyu berib, bazani tark etmasligini ma’lum qilgan. Harbiy bazada ikki ming harbiy xizmatchi va 600 texnik xodim mavjud bo’lib, ular Kongodan ketishni rejalashtirmagan. Hatto, Belgiyaning qo’g’irchoq hukumati vakili Chombiga qarshi bo’lgan Albertvil shahrida qirg’in tashkil qilganlar. Shuningdek, 15 avgustda yana bir qo’g’irchoq davlat Kongoning Bakavangi shahridan olingan ma’lumotga ko’ra, Kasai o’lkasida “Mustaqil tog’burg’ulash davlati” tuzilgan va ular Chombi davlatidan “yordam” so’raganlar. Kasai o’lkasining yarmini egallagan bu davlat olmoslarning katta qismini ishlab chiqarishi bilan mashhur bo’lgan va “For Miner” kompaniyasi uni qo’llab-quvvatlab turgan[1]. Kongo bosh vaziri P.Lulumba 26 avgustь kuni Lenopolьdvilda Afrika malakatlarining ochiq kongressida bayonot berib, barcha Afrika davlatlarini milliy ozodlik va birdamlik yo’lida qo’llab-quvvatlash, mustamlakachi davlatlar o’rnatgan barьerlarni to’liq yakson qilish, Afrika birlashgan harbiy kontingentini shakllantirish, Leopoldvilda Umumafrika radioeshittirishlari markazini tashkil etish, Kongo poytaxtida ilmiy markaz tashkil etish kabilarni ma’lum qilgan[12]. Separatchilarga qarshi ayovsiz kurash boshlangan. 29 avgustda Kongo armiyasi Bakvangu (mustaqillikni e’lon qilgan “Kasai tog’ruda davlat” markazi)ga kirgan[39]. Ushbu voqealar davomida Patris Lulumba Stenlivilda xalq oldida chiqish qilib, nafaqat milliy mustaqillik, baklki, iqtisodiy mustaqillik to’g’risida ma’ruza qilgan. so’ng “Sizlar Katangaga qarshi harbiy yurishga tayyormisizlar?”-deya bergan savolga xalq kongolez tilida “Uxuru” (“Ozodlik”) deb qichqirgan. 28 avgustda Kasai va Katanga chegarasida to’qnashuvlar sodir bo’la boshlagan[26]. P.Lulumbaning otashin nutqlari kongoliklarni mustaqillik va ozodlik sari kurashlarga ilhomlantirgan. Jumladan, P.Lulumba 1960 yilgi nutqlaridan birida kongoliklarni milliy ozodlik uchun kurashga chorlab, ularni chekinmaslikka milliy mutaqillikni qo’lga kiritish yo’lida jonbozlik ko’rsatishga va keyinchalik bu qahramonliklarini

farzandlariga va nevaralariga g'urur bilan gapirib berishlari, 1960 yil Kongo aholisining xotirasida qolishi uchun kurashlarga chorlagan. Bu kurash xorlik va qullikdan qutilish uchun adolatli va oliyjanob kurash ekanligini ta'kidlagan[14,341-344].

Zo'ravonlik, separatchilarni qo'llab-quvvatlashdan naf chiqmagach, G'arb davlatlari sotib olish, aldov va yolg'on va'dalar orqali Kongoda imperialistik davlatlar o'z maqsadlariga yetganlar. 1960 yil 14 sentyabrda polkovnik Mobuti Seso Seko davlat to'ntarishini o'tkazgan. Kongodagi harbiy to'ntarishda ko'plab g'arb davlatlari ham ishtirok etganligi keyingi vaqtlarda o'z isbotini topmoqda. Ularning asosiy maqsadi siyosiy raqiblarni jismonan va ma'nan yo'q qilishdan iboratligi ko'rinib qolmoqda.

1961 yil 17 yanvarda P.Lulumba o'ldirilgandan keyin SSSR va Kongo munosabatlari sovuqlasha boshlagan. Ayniqsa 1965 yil noyabrda Mobuti hokimiyatni to'la egallab olgandan so'ng bu holat kuchaygan[4,14]. Chunki, Kongo siyosati to'la AQSh va G'arb davlatlari manfaatlariga bo'ysundirilgan. Kongoda faoliyat olib borgan sovet ayg'oqchisi O.I. Najestkin keyinchalik o'z xotiralarida, AQSh Kongoni qo'lga kiritish maqsadida BMT va uning bayrog'i ostida mahalliy yetakchilarni, o'zi uchun noqulay raqiblarni birinchi navbatda P.Lulumbani yo'q qilishda foydalanganligini yozib qoldirgan[21, 156]. 1961 P.Lulumba o'ldirilgandan so'ng sovet ittifoqi bu mamlakatga bo'lgan qiziqishi pasayib borgan[23,70]. P.Lulumbaning o'ldirilishi SSSR va Belьgiya munosabatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan va 1961 yil yanvar-may oylarida bu sovuqlik kuchaygan davr bo'lgan[19,141]. Siyosiy jihatdan iliqlik Belьgiyada hukumat almashgandan keyin tarqalganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etib o'tilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Kongoda milliy ozodlik harakatlari muvofaqqiyat qozonib, mustaqil davlat tashkil topgan. Bu yo'nalishda P.Lulumba va bir qator Kongo xalqi farzandlari qurbon berilgan. Ammo, xom-ashyo va tabiiy zahiralarga boy o'lkadan chiqib ketishni istamagan G'arb davlatlari Kongoda turli separatik va terrorchi guruhlarni qo'llab-quvvatlash orqali hokimiyat tepasiga o'z gumashtalarini qo'yishga muvoffaq bo'lganlar. Kongo uchun rasman mustaqillik berilgan bo'lsada, amalda iqtisodiy mustamlaka holati saqlanib qolavergan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Бельгийци не уходят из Конго // Правда Востока 26 август, 1960 года, № 198. (11173).
2. Благадарность Советскому правительству // Правда Востока 7 август, 1960 года, № 182. (11157).
3. Винокуров Ю.Н., Орлова А.С., Субботин В.А. История Заира в новое и новейшее время - М.: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1982. - 311 с.
4. Винокуров Ю.Н. Политическая борьба в демократической Республике Конго (1965 - 2001 гг.) Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Москва-2005. – 32 с.
5. Вольнения в Конго. // Правда Востока 14 мая, 1960 года, № 112 (11087).
6. Денисова Т., Костелянец С. Бенин: Политические метаморфозЫ(К 60-летию независимости). // Азия и Африка сегодня 2020 № 12. – С. 38-45.
7. Заявление советского правительства. // Правда Востока 2 август, 1960 года, № 178. (11153).
8. Заявление Советского правительство в связи положением в Республике Конго// Правда Востока 7 август, 1960 года, № 182. (11157).
9. Заявление Лулумбы. // Правда Востока 17 август, 1960 года, № 190. (11165).
10. Заявление Лулумбы. // Правда Востока 19 август, 1960 года, № 192. (11167).
11. Заседание Совета безопастности ООН // Правда Востока 23 август, 1960 года, № 195. (11170).
12. Заявление П.Лулумбы. // Правда Востока 27 август, 1960 года, № 199. (11174).
13. Инцидиент на аэродроме в Леопольдвиле // Правда Востока 20 август, 1960 года, № 194. (11169).
14. История Африки в документах 1870–2000. В трёх томах. / Под общей редакцией Аполлона Давидсона. Том II: 1919-1960. Редактор Сергей Мазов. - М.: Наука, 2007. - 719 с.
15. Колониалный под флагом ООН. Заявление В.В. Кузнецова // Правда Востока 23 август, 1960 года, № 195. (11170).
16. Краткое сообщения //Правда Востока 12 август, 1960 года, № 186. (11161).
17. Краткие сообшения // Правда Востока 23 август, 1960 года, № 195. (11170).
18. Краткие сообшения // Правда Востока 24 август, 1960 года, № 196. (11171).

19. Липкин М.А. “Павел Павловия” и Никита Сергеевич: Советско-Бельгийские встречи на высшем и неформальный аспект высокой политики в годы холодной войны. // Новая и новейшая история 2021. № 6. - С. 121-148.
20. На повестки дня-вопрос о Конго //Правда Востока 10 август, 1960 года, № 184. (11159).
21. Нажесткин О.И. Годы конголезского кризиса (1960-1963 гг.). Записки разведчика // Новая и новейшая история. 2003. № 6. - С. 154-164.
22. Очистит Конго от интервентов! Заявление Советского правительства // Правда Востока 23 август, 1960 года, № 195. (11170).
23. Петров Н. Африка без войн и кровопролитий. Такое труднодостижимо, но возможно. // Азия и Африка сегодня. 2020 № 1 – С. 70-73.
24. Перегаворы в Элизабетвилье // Правда Востока 16 август, 1960 года, № 189. (11164).
25. Положение в Конго // Правда Востока 18 август, 1960 года, № 191. (11166).
26. Положение в Конго // Правда Востока 31 августь, 1960 года, № 202 (11177).
27. Провокационная возня в Катанге // Правда Востока 7 август, 1960 года, № 182. (11157).
28. Раҳимов И. СССРнинг Конго Республикасига ёрдами тўғрисида(ТАСС АҲБОРОТИ). // Қизил Ўзбекистон 1960 йил, 169 (11685) сон, 22 июлъ.
29. Ронин В.К. Русское Конго: 1870-1970: Книга-мемориал: в 2 т. – М.: Дом Русского зарубежья им. А.Солженицына; Русский путь, 2009. ил.; - Т. 2. – 640 с.
30. Руки прочь от Конго! //Правда Востока 9 август, 1960 года, № 183. (11158).
31. Сидорова Г.М. Отношения между СССР и Демократической Республикой Конгов начале 1960-х гг.: Зигзаги истории. // Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. 2020 Том. 20 №. 1. – С. 197-209.
32. Советский дар правительству Конго. // Правда Востока 14 август, 1960 года, № 188. (11163).
33. Советские врачи прибыли в Конго // Правда Востока 19 август, 1960 года, № 192. (11167).
34. Столкновение между войсками Конго и Канадскими солдатами // Правда Востока 23 август, 1960 года, № 195. (11170).
35. Телеграмма Насера Президенту Ганы // Правда Востока 13 август, 1960 года, № 187. (11162).
36. Требование правительства Конго // Правда Востока 17 август, 1960 года, № 190. (11165).
37. Хохлов Н.П. Торжество из торжеств // Патрис Лумумба. - М. : Молодая гвардия, 1971. - 272 с.
38. Чомбе боится... // Правда Востока 17 август, 1960 года, № 190. (11165).
39. Чомбе бряцает оружием. // Правда Востока 31 августь, 1960 года, № 202 (11177).
40. Ikambana Peta. Mobutu’s Totalitarian Political System: An Afrocentric Analysis: [англ.]. - Routledge, 2006. - 138 p.
41. Trefon, Theodore. Reinventing Order in the Congo: How People Respond to State Failure in Kinshasa. - London and New York: Zed Books, 2004. - P. 7
42. https://ru.wikipedia.org/wiki/Чомбе

O’ZBEKISTONDA QADIMGI TOSH DAVRINI O’RGANISH BO’YICHA XULOSALAR

Djurakulova Dilfuza,
tarix fanlari nomzodi, professor. Samarqand davlat universiteti

Annotasiya: Ushbu maqola mustaqillik yillarida O’zbekistonda qadimgi tosh davrini o’rganish bo’yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida chiqarilgan xulosalarga bag’ishlanadi. Maqolada mahalliy va xalqaro arxeologik ekspedisiyalarning faoliyati natijalari tahlil qilinadi

Kalit so’zlar: Paleolit, Selung’ur g’ori Obiraxmat g’ori, Osiyocha ashel madaniyati, Ko’lbulak. Teshik-tosh, o’rtadan so’nggi paleolitga o’tish

ВЫВОДЫ ПО ИЗУЧЕНИЮ ДРЕВНЕГО КАМЕННОГО ВЕКА УЗБЕКИСТАНА

Джуракулова Дилфуза,
Кандитат исторических наук, профессор. Самаркандский государственный университет,

Аннотация: Данная статья посвящена результатам исследования каменного века в Узбекистане за годы независимости. В статье анализируются результаты местных и международных археологических экспедиций.

Ключевые слова: палеолит, пещера Селунгур, пещера Обирахмат, азиатская ашельская культура, Кульбулак, Тешик-таш, переход от среднего к позднему палеолиту.

CONCLUSIONS FROM STUDYING THE ANCIENT STONE AGE OF UZBEKISTAN

Djurakulova Dilfuza,
Candidate of historical science, professor. Samarkand State University

Abstract: This article is devoted to the results of the study of the Stone Age in Uzbekistan during the years of independence. The article analyzes the results of local and international archaeological expeditions.

Key words: Paleolithic, Selungur cave, Obirahmat cave, Asian Acheulian culture, Kulbulak, Teshiktash, transition from the Middle to the Upper Paleolithic.

Markaziy Osiyoning, jumladan, O’zbekistonning eng qadimgi o’tmishini o’rganish hamisha dunyo arxeologlarining sinchkov diqqat-e’tiborini tortib kelgan. Negaki, ushbu hudud insoniyat tarixining barcha davrlarida o’ziga xos «sivilizasiyalar chorrahasi» bo’lib kelgan. Qadimgi tosh davrida ham Markaziy Osiyo hududi o’zining qulay geografik joylashuvi va paleoekologik sharoitlari bilan qadimgi populyasiyalarning turli yo’nalishlarda migrasion jarayonlarida muhim rol o’ynagan.

Markaziy Osiyoning ilk paleolit davri yodgorliklari masalasida RFA SB AEAI mutaxassislari hududda bu davrning umuman hukm surganligi masalasiga shubha bilan qaradilar. Masalan, Ko’lbuloqning quyi qatlamlariga Bryunes-Matuyama yotqiziqlarining aloqasi yo’qligi, Selung’ur g’ori materiallarining o’rta paleolitga oidligi kabi tezislar, shular jumlasidandir. Biroq Ko’lbuloqning asheli masalasiga keladigan bo’lsak, Rossiyalik hamkorlarimizning o’zlari yodgorlik madaniy yotqiziqlarining aralashganligini ishonarli tarzda ta’riflaganlar. Shunday ekan, ashel davri materiallari turli qazishmalarda va turli chuqurliklarda turlicha holatda joylashishi tabiiy holdir. Agar ularning qazishmalarida ilk paleolitga oid materiallar uchramasa, bu yodgorlikda ashel davri artefaktlari uchramaydi, degan xulosani berish uchun kamlik qiladi. Axir sel materiallarni qatlamma-qatlam oqizib kelmaydiku. M.R. Qosimovning qazishmalaridan quyi qatlamlar industriyalari orasida ashelga oid artefaktlar mavjud edi va buni V.A. Ranov, N.K. Anisyutkin va boshqa qator yirik mutaxassislar ko’rishgan va tasdiqlashgan edi (O’zR FA Arxeologiya institutining Toshkent shahridagi bazasi ko’chishi jarayonida ushbu materiallar seriyalari izsiz yo’qolgan).

Selung’ur g’ori materiallarining davriy xosligi masalasida shuni ta’kidlash mumkinki, 1988-yilda yodgorlikda Teshik-tosh g’ori ochilishining 50 yilligiga bag’ishlangan yirik xalqaro anjuman o’tkazilgan va yodgorlik materiallari orasida ilk paleolitga oid artefaktlarning mavjudligi ko’pchilik konferensiya ishtirokchilari tomonidan tan olingan. Masalan, Selung’urning madaniy qatlamlaridagi ayrim qo’l cho’qmorlari, kliverlar va boshqa tosh buyumlar ilk paleolit davrining Osiyocha ashel madaniyatini

xarakterlaydi. Aftidan, Selung’ur g’ori ilk va o’rta paleolit davrini o’zida aks ettirgan etalon yodgorlik hisoblanadi. O’rta Osiyoning Bo’riqozg’on, Tandirqozg’on, Qoratov kabi boshqa ilk paleolit davri yodgorliklari borasida Rossiyalik tadqiqotchilar fikr bildirmaganlar [7].

Keyingi yillarda arxeologlar tomonidan qo’lga kiritilgan va aynan Markaziy Osiyoni hozirgi kunda keng tarqalgan va eng ko’p muhokama hamda munozoralarga sabab bo’layotgan zamonaviy odamning shakllanishi vaqti va tarqalishidagi asosiy hududlardan biri ekanligi masalasi alohida qiziqish uyg’otmoqda. Yevropadan tashqaridagi paleolit davrini tadqiqotlarining intensifikasiyasiga ko’ra, ibtidoiy arxeologiyada o’tgan asrning oxirgi choragigacha hukmron bo’lgan odam jismoniy tipining almashinuvi moddiy madaniyatdagi almashinuvlar bilan va odamning aqliy qobiliyatlari bilan bog’liqligi haqidagi sxema o’zining universalligini yo’qotdi. Yangi ma’lumotlar mavjud konsepsiyalarga jiddiy o’zgartirishlar kiritishni talab qilmoqda. Agar ilgari tosh davri arxeologiyasi rivojining uzoq davri davomida zamonaviy anatomik tipdagi odamning paydo bo’lishi o’rtadan so’nggi paleolit davriga o’tish bilan tushuntirilgan bo’lsa, hozirgi materiallar bir tomondan, zamonaviy anatomik tipdagi odamning paydo bo’lishi davrini ancha qadimiylashtirdi, ikkinchi tomondan, yuqori paleolitning qator asosiy madaniy belgilari ancha qadimgi arxeologik komplekslarda qayd qilindi.

Yevrosiyoda o’rtadan so’nggi paleolitga o’tish qadimgi odam madaniyatidagi katta tarkibiy o’zgarishlar bilan xarakterlanadi. So’nggi yillardagi tadqiqotlarda «zamonaviy turmush tarzi kompleksi» («sovremennыy povedencheskiy kompleks») atamasi rusum bo’lmoqda [6]

Bu tushuncha mavsumiy, yo’naltirilgan, maqsadli, rejalashtirilgan ovchilik faoliyatining ustunligiga o’tishni (o’rta paleolit davridagi o’lgan hayvonlar go’shtini iste’mol qilishning ustunligidan farqli ravishda), iqlimi noqulay bo’lgan hududlarni o’zlashtirishni (baland tog’lar, cho’llar va tundrali ekolandshaftlarni); turli populyasiyalar o’rtasidagi ayirboshlashning kengayishini; toshdan boshqa xomashyolardan ham tizimli ravishda qurollar ishlab chiqarishni; iqtisodiy jihatdan ancha foydali bo’lgan plastinalar ishlab chiqarishning ustunligini; standartlashtirilgan va funksional spesializasiyaning kuchayganligi bilan bog’liq artefaktlar repertuarining kengayishini; istiqomat qilinayotgan makonning tuzilishiga ko’ra bo’linishinining yorqin namoyon bo’lishini (makonlar ichida funksional zonalarning ajratilishi, o’choqning murakkablashgan konstruksiyasi); murakkab sosial strukturalarning paydo bo’lishi bilan guruhlarning mobillik darajasining ortishini; simvolik va ritual faollikning keng paydo bo’lishini ham qamrab oladi [4].

1938 yilda A.P. Okladnikov tomonidan Teshik-tosh (Boysuntog’) neandertal bolasining qabri aniqlanganidan keyin Obiraxmat odami shu turdagi ikkinchi topilma bo’ldi va bu qadimgi tosh davri Markaziy Osiyo aholisini fizik tipini tiklash bo’yicha muhim manba bo’lib xizmat qiladi[3]. Amalda industriyani konkret odamning jismoniy tipi bilan assosiasiyalash imkoni paydo bo’ldi, negaki, hozirda dunyoda ana shu burilish davrini aks ettirgan qadimgi odamning ayrim qoldiqlarigina topilgan xolos.

Turli davlatlar olimlarining hamkorligi tufayli (O’zbekiston, Rossiya, AQSh, Polsha, Fransiya, Yaponiya) shovshuvli natijalar qo’lga kiritildi.

Tarix fani uchun Obiraxmat odami topilmasining noyobligi va muhimligi ushbu madaniyat materiallarini o’rganishning muhimligi bilan birga, Markaziy Osiyoning tosh davri muammolariga bag’ishlangan xalqaro anjuman o’tkazishni taqozo qildi va 2004 yil 9-15 avgustda O’zbekistonda bo’lib o’tdi. Konferensiyani o’tkazishga Wenner-Gren nomli obro’li xalqaro ilmiy fond moliyaviy yordam ko’rsatdi. Konferensiya ishida dunyoning o’ndan ziyod davlatlaridan taniqli olimlar ishtirok etdi (O’zbekiston, Rossiya, Tojikiston, AQSh, Avstriya, Fransiya, Germaniya, Chexiya, Belgiya, Ispaniya, Shvesiya, Lyuksemburg, Yaponiya) [5].

XX asrning oxirlarida Markaziy Osiyodagi asosiy paleolit davri yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlarning qaytadan boshlanishi natijasida, xronologik jihatdan o’rta paleolitga oid industriyalarda muhim texnologik hamda madaniy innovasiyalar aniqlandiki, bu qadimgi odamlar madaniyatining tarkibiy o’zgarishlari o’rganilayotgan hududda Yevropadagi so’nggi paleolit davri madaniyatlari boshlanishidan ko’ra kamida 20-30 ming yillar avvalroq boshlanganligidan guvohlik beradi. Xususan, 80-70 ming yillar bilan sanalangan arxeologik komplekslarda ilgari faqatgina yuqori paleolit davri madaniyatining prerogativi (birinchi navbatda) hisoblangan va yuqori darajada rivojlangan mayda hamda mikroplastinalar chaqmoqlab olish texnikasining sistemali tarzda qo’llanilib kelinganligi aniqlandi. Bu holat progressiv innovasion qarorlarning hukm surganligini ko’rsatuvchi o’rta paleolit industriyalari tasnifida nafaqat terminologik (madaniy) masalalarni o’ta dolzarb qilib qo’ymasdan, balki madaniy evolyusiyaning harakatlantiruvchi kuchlari, ya’ni insoniyatning eng qadimgi tarixida texnologik va

madaniy innovasiyalarning roli va sabablari haqidagi munozoralarni yangiladi. Shuningdek, o'rtadan so'nggi paleolitga o'tish va uning keyingi taraqqiyoti muammosi masalasida, nafaqat yangi madaniyatni ayrim komponentlarining paydo bo'lishi sabablarini va vaqtini aniqlash, balki orttirilgan madaniy potensialning (vaqt va makonda turli xil bo'lgan texnologik va madaniy innovasiyalarning) birlashuviga xizmat qilgan va oqibatda yangi so'nggi paleolit davri madaniyatining shakllanishiga olib kelgan, yaxlit "zamonaviy tipdagi odamning yurish turishi kompleksi"ni aniqlashtirish muhim bo'lib qoldi [8].

Nisbatan yaqin kunlargacha paleolitshunoslikdagi asosiy paradigma bu zamonaviy tipdagi odamning madaniy va texnologik taraqqiyotida eng muhim evolyusion sakrash er.av. 40 ming yilliklarda yuqori paleolit inqilobi natijasida sodir bo'lgan, degan nuqtai-nazar edi. Bunda, madaniy va texnologik o'zgarishlarning boshlanishi bevosita odam jismoniy tipining hamda mental qobiliyatlarining evolyusiyasi bilan, ya'ni ilgari neandertallar tomonidan o'zlashtirilgan Yevropa hududida ilk (Homo sapiens sapiens) zamonaviy tipdagi odamlar jamoalarining paydo bo'lishi bilan bog'liq deb hisoblanardi. Toshga ishlov berishning yangi strategiyalari, suyak va shoxdan qurollar yasash, taqinchoqlardan foydalanish hamda san'at asarlarining yaratilishi aynan ushbu fenomen atrofiga birlashtirilgan edi. Bundan tashqari, madaniy o'zgarishlarning xarakteri, belgilari va asosiy yo'nalishi Yevropa hududida ajratilgan mezonlarga mos kelishi kerak bo'lgan. Shunga mos ravishda, turli industriyalarning taraqqiyot darajasi Yevropa quruqligi klassik so'nggi paleolit davri industriyalari uchun ajratilgan mezonlar asosida baholangan. Ammo Yevropa oykumenasidan tashqarida paleolit davrini o'rganishning intensifikasiyasi (jadallashuvi) tufayli ushbu paradigma o'zining universalligini yo'qotdi. Oxirgi yillarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar, bir tomondan, odamning zamonaviy anatomiyasi anchayin ilgari paydo bo'lganligini, ikkinchi tomondan, yuqori paleolitning qator asosiy madaniy belgilari arxeologik komplekslarda anchayin qadimgi davrlardan boshlab qayd etilishini ko'rsatdi. Xususan, Janubiy Afrikada oxirgi o'n yilliklarda shunday arxeologik komplekslar aniqlandikim, ularda bundan 65-70 ming yillar muqaddam suyak qurollar ham va dengiz mollyuskalari chig'anoqlaridan teshib ishlangan (perforirovanniy) shaxsiy taqinchoqlar ham hamda moybo'yoq (pigment) yordamida simvolik (abstrakt) yurish turish va hatto, tosh asrining ancha keyingi davrlarini ajratishning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan geometrik artefaktlar ishlab chiqarish texnologiyasining ham mavjud bo'lganligi aniqlandi [2].

Hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar o'rtadan so'nggi paleolitga o'tish jarayonlarini tahlil qilishda avvalombor, mintaqa kontekstni hisobga olish zarur degan xulosaga keldilar. Bunday yondashuv oxir-oqibatda o'rtadan so'nggi paleolitga o'tishning ko'plab turli xil mintaqalar «variantlari» yoki «ssenariylar»ining paydo bo'lishiga olib keladi va ularning har biri u yoki bu darajada o'tishdagi uchta asosiy modellarning turli aksentlarini "pishitadi": mahalliy asosda lokal evolyusiya, kelgindi madaniyatlar bilan o'rin almashinuv («slojivsheysya» "yuzaga kelmoq"), yoki akkulturasion (akkulturasiya - boshqa xalqning madaniyatini qabul qilish; begona madaniyatga moslashish) modellari. O'tish yoki ilk so'nggi paleolit industriyalarini aniqlash mezonlariga kelsak, tadqiqotchilarning ko'pchiligi hozirda "zamonaviy odamning yurish turishi kompleksi" xarakteristikasini ishga solmoqdalar va ularni u yoki bu tartibda saflab, masalan, baribir bitta asosiy belgiga (yo'nilg'i texnikasining o'zgarishi, plastinasimon texnologiyaning ustunligi va h.k.lar), yoki konkret industriyada turli "zamonaviy" komponentlarning mavjudligi darajasini baholashning dinamik sistemasini tuzishdan foydalanmoqdalar. A.I. Krivoshapkinning ta'kidlashicha, mintaqalar madaniy taraqqiyot sxemasiga aniqliklar kiritish natijasida, hududning o'rta paleolitini fasiyalarga ajratishdan voz kechish lozim va ikkita rivojlanish yo'nalishiga (liniya razvitiya) ajratishni saqlab qolish kerak: mustye(hyech bo'lmaganda kamida Teshik-tosh g'ori industriyasidan iborat) va plastinasimon (plastinchataya) ancha salmoqli va stratigrafiyalashgan yodgorliklardan iborat(Obiraxmat, Ko'lbuloq (23-qatlam), Xudji) [7]. Ushbu yo'nalishning eski rivojlanish liniyasi - levallua-mustyesimonga – hududning asosiy industriyalarini texnologik va tipologik tahlillarning ko'rsatishicha, aniqliklar kiritishni talab qiladi, negaki, ta'kidlangan industriyalarda ilgari levallua komponentining ahamiyati bo'rttirib ko'rsatilgan (XX asrning ikkinchi yarmida o'rta paleolitning plastinasimon industriyalarini talqin qilishning hukmron bo'lganligidan kelib chiqqan holda).

1972 yilda R.X. Sulaymonov tomonidan1964-1965 yillarda qo'lga kiritilgan kolleksiyani texnik-tipologik va statistik tahlillar asosida Obiraxmatning arxeologik ketma-ketligini 5 ta kompleks yoki "yarus"larga ajratgan edi: yarus A (21-15 qatlamlar), yarus B (14-9 qatlamlar), yarus V (8, 7 qatlam), yarus G (6-4 qatlam) va yarus D (3-1 qatlamlar). Bunday bo'linish muallifning fikricha, yagona madaniy an'ana doirasida o'rta paleolit industriyasining so'nggi paleolitnikiga o'sib o'tish jarayonlarini o'zida

aks ettiradi. R.X. Sulaymonov tomonidan statistik tahlillar asosida Obiraxmat industriyasining izchil evolyusiyasi hyech qanday innovasion sakrashlarsiz va tanaffuslarsiz so’nggi paleolitga xos texnik-tipologik belgilarning asta-sekin va doimiy taraqqiy qilganligi asoslab berilgan edi.

1998 yilda qayta jonlantirilgan yangi bosqichdagi tadqiqotlar natijasida Obiraxmatda turli darajada tosh buyumlarga ega 37 ta madaniy gorizont ajratildi (bir necha o’nlab (16 qatlamda) tosh buyumlardan o’n minglab (19 qatlamda) artefaktlargacha. 1998-2011 yillarda qo’lga kiritilgan tosh kolleksiyalarini texnik-tipologik tahlil qilish natijasida avvalgi tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan nuqtai-nazarlarga o’zgartishlar kiritildi. G’orning madaniy ketma-ketligining xronologik jihatdan cho’zilganligiga qaramasdan, yodgorlikdagi barcha tosh assamblyajning texnik-tipologik xarakteristikasi bir xilda ekanligi va yagona taraqqiyot liniyasiga egaligi aniqlandi. Ushbu liniya yoki variant asosida kam sonli modifikasiyalangan levallua konsepsiyasi aralashgan o’rta paleolitning plastinasimon texnologiyasi yotadi. Obiraxmat industriyasining asosiy spesifikasi yodgorlikning barcha qatlamlarida kuzatiladigan ham texnologik (chaqmoqlash strategiyasi) va ham tipologik (tosh qurollar turkumi) jihatlardan o’rta va so’nggi paleolitga oid xarakteristikalarning birga kelishidir.

2003 yilda Obiraxmat g’oridan topilgan gominidlar qoldiqlari O’zbekiston hududidan oxirgi 65 yildan buyon bunday turdagi ilk topilma edi. Bungacha Teshik-tosh g’oridan topilgan o’rta paleolit davri kompleksi bilan bog’liq bolaning qabri neandertallarning tarqalishidagi eng sharqiy chegarani belgilab bergan edi. Bu holat hududning mustye ga oid barcha komplekslarini gominidlarning ushbu antropologik tipi bilan bog’liqligini taxmin qilish imkonini bergan edi. Obiraxmat g’ori suyak qoldiqlarining morfologik xususiyatlari va ular bilan birga uchraydigan tosh industriya uzoq vaqt saqlanib kelgan ushbu aksiomaga qaytadan baho berishni talab qiladi. Antropologik topilmalar yuqori jag’ning 6 ta ketma- ket tishlari va bosh suyagining taxminan 150 bo’lak mayda fragmentlaridan iborat. Suyak qoldiqlarining bir qismi qatlamda qayd etilgan (in situ), bir qismi esa ushbu maydondan olingan g’ovak yotqiziqlarni yuvish jarayonida aniqlangan va bu ushbu suyak qoldiqlarining maydonda o’zaro mustahkam aloqadorligini ko’rsatadi. Garchi, barcha ushbu topilmalar qatlamning uncha katta bo’lmagan maydoni bilan bog’liq bo’lsa-da, ularni qabrga qo’yilganligi yoki boshqa tafonomik faktorlar bilan bog’lashning iloji yo’q. Paleoantropologik materiallar topilgan qatlamning xronologik bahosi uning 40-ming yildan qadimgiroq bo’lishi kerakligini ko’rsatdi. Umuman, suyak qoldiqlarining, avvalombor bosh chanog’ining tahlili ularning zamonaviy antropologik tipdagi odamlarga yaqinligini ko’rsatdi. Faqat bu yerdan topilgan tishlar metrik xarakteristikasining diskriminantli funksional tahlili ularni neandertalga xosligini aniqladi. Garchi, ushbu natija qo’lga kiritilgan statistika jihatdan yetarlicha ishonchli bo’lsa-da,pleystosen davri gominidlari guruhlari o’rtasida tishlarining hajmiga ko’ra tafovutlar kuzatilmaydi. Tishlar hajmidan taksonomik indikator sifatida foydalanish muammoli, sababi yirik tishlar zamonaviy antropologik tipdagi odamlar vakillari bilan ko’pincha birga assosiasiya qiladi.

Shunday qilib, Obiraxmat odamining morfologiyasi ushbu aspektda, na zamonaviy tipdagi odamlarga, na neandertallarga va na arxaik xomo sapiyenslarga (Homo Sapiens) kiritilishi mumkin. Bosh chanog’ining aniq morfologik xosligini aniqlashga uning o’ta fragmentasiyalashganligi va topilmaning yosh bolaligi halal beradi, shunday bo’lsa-da,ko’zga tashlanadigan morfologiyasi uning zamonaviy antropologik tipdagi odamlarga ko’proq o’xshashligini ko’rsatadi. Rekonstruksiya qilingan bosh (tepa) suyagining chap qismi nisbatan yirik va yupqa, chakka suyagi esa nisbatan zamonaviy tashqi ko’rinishga ega. Bosh chanog’ining ushbu xususiyatlari, o’zining nozikligi (grasilnostyu) va yirik hajmi, tishlarning arxaik ko’rinishi hamda quloq labirintining noaniq morfologiyasi bilan birgalikda, mozaik morfologiyani namoyon qilgan holda Ruminiyaning Oaze (Oase) yodgorligidan topilgan gominidlar qoldiqlariga o’xshashdir.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O’zbekistonda qadimgi tosh davrini o’rganish bo’yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yangi xulosalar qo’lga kiritildi. Xususan, hududning o’rta paleolit davriga oid madaniy-davriy taraqqiyot sxemalarini taftish qilish natijasida davrning finali borasidagi fasial bo’linishlar masalasini qayta ko’rib chiqilishiga olib keldi: hududning mustye sida tishsimon fasiyadan voz kechildi va mahalliy o’rta paleolit davri industriyalarida levallua komponentining roli qayta ko’rib chiqildi va kamaytirildi

G’arbiy Pomir-Tiyonshonning ko’zga ko’ringan plastinali industriyalarini tahlil qilish natijalari ularning yagona madaniy an’anaga mansub ekanligini ta’kidlash imkonini berdi va bu madaniyat er. av. 80-70 ming yillardan er. av. 40-35 ming yillargacha hukm surganligi aniqlandi. O’rganilgan komplekslarning texnologik va tipologik xarakteristikalarini hisobga olgan holda ularning o’tish davri industriyalari ekanligi ko’rsatgichlari ishlab chiqildi hamda o’rta paleolitdan so’nggi paleolitga o’tishning

obiraxmat varianti ajratildi.

Mustaqillik yillarida paleolit davriga oid To'daxotin 1 va 2, Angren, Yangiobod 1 va 5, Jom, Bulung'ur, Chashmabuloq, Ko'kcha, Oyoqog'itma, Sulton Uvaystog', Machay 2, To'da 1, Chodak, Sariqo'rg'on 1, Jonobod, Qo'tirbuloq (Andijon viloyati) va h.k. yangi topilmajoylar topilib, ilmiy muomalaga kiritildi. Qo'lga kiritilgan natijalar yurtimizning qadimgi tosh davri madaniyatlari tarqalishi xaritasini boyitibgina qolmasdan, so'nggi paleolit davriga oid To'daxotin 2 makoni mezolit davriga xos geometrik mikrolit qurollarning mahalliy yuqori paleolit industriyalari asosida rivojlanganligini ko'rsatdi. Farg'ona vodiysidan ilk marotaba aniqlangan so'nggi paleolitga oid Chodak, Sariqo'rg'on va Qo'tirbuloq materiallari hududning ibtidoiy davr tarixidagi yetishmayotgan bo'g'inni to'ldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. – С-Пб.: Европейский дом, 1996. –С. 213.

2. Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Славинский В.С., Анойкин А.А., Чикишева Т.А., Вринн П., Милютин К.И., Колобова К.А. Анализ каменной индустрии и антропологических находок из слоя 16 грота Оби-Рахмат (Республика Узбекистан) // Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2003. –С. 63-73.

3.Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Кулькова И.В., Кулик Н.А., Ринн П.Дж., Виола Б.Т., Гланц М., Исламов У.И. Грот Оби-Рахмат - опорный памятник финала среднего и начального этапа перехода к верхнему палеолиту на территории Средней Азии. // Актуальные вопросы евразийского палеолитоведения. - Новосибирск: Изд-во ИАЭТ СО РАН, 2005. –С. 62-67.

4. Деревянко А.П. Эволюция человека: откуда мы и уто мы? Наука и жизнь Убекистана.№ 3-4-5. Ташкент. 2008. –С. 6-25.

5.Исламов У. Сенсационные археологические находки в Узбекистане // Ўзбекистон тарихи №3. Тошкент, 2004. -Б. 86-87.

6.Исламов У.И., Кривошапкин А.И. Индустрия грота Оби-Рахмат (Узбекистан) в контексте появления современного поведенческого комплекса на территории Центральной Азии // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2006-2007 йиллар. №6.- Тошкент, 2009. –С. 131-135.

7.Кривошапкин А.И. Обирахматский вариант перехода от среднего к верхнему палеолиту на территории Центральной Азии. Афтореф.дисс... на ученой степени д.и.н. Новосибирск.2012. С-40

8.Кривошапкин А.И. Обирахматский человек: загадка эволюции// Наука и жизнь Узбекистана. Ташкент, 2008. №3-4-5. –С. 26-30.

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA AHOLINI IJTIMOIY MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI (QO‘QON SHAHRI MISOLIDA)

Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida davlatimiz tomonidan aholining kam ta’minlangan qismini himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan ishlarining Qo‘qon shahri misolida ko‘rib chiqamiz. Maqolada aholining ehtiyojmand qismi uchun yaratilgan keng imkoniyatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, ijtimoiy himoya, moddiy yordam, insonparvarlik yordami, qaror, farmon, farmoyish.

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF REFORMS IN THE FIELD OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE (IN THE EXAMPLE OF THE CITY OF KOKON)

Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o‘g‘li,
doctoral student of Fergana State University

Abstract: In this article, in the first years of independence, we will consider the work carried out by our state in order to protect the poor part of the population on the example of the city of Kokand. The article analyzes the wide range of opportunities created for the needy part of the population.

Key words: independence, social protection, material aid, humanitarian aid, decision, decree, order.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ В ОБЛАСТИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА КОКОН)

Қодиров Муҳсинжон Муҳторжон ўғли,
докторантом Ферганского государственного университета.

Аннотация: В данной статье в первые годы независимости мы рассмотрим работу, проделанную нашим государством по защите бедной части населения на примере города Коканда. В статье анализируется широкий спектр возможностей, созданных для малообеспеченной части населения.

Ключевые слова: независимость, социальная защита, материальная помощь, гуманитарная помощь, решение, указ, приказ.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgust kuni o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng, oldida bir qancha muammolarni hal qilish masalasi kun tartibida o‘z yechimini kutayotganligini bilar edi. Bunday muammolarni oldini olish maqsadida davlatimiz tomonidan aholini, ayniqsa uning kam ta’minlangan qismini faol himoya qilishga harakat qildi. Mamlakatimiz har bir sohada kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi orqali – aholining kam ta’minlangan qismini har tomonlama himoya qildi.

Ayniqsa, Qo‘qon shahrida ham bu yo‘nalishda faol harakatlar amalga oshirildi. Misol tariqasida, istiqlolning ilk yillarida uy-joylarni xususiylashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 19-avgust kuni “Uy-joylar xususiylashtirilishi munosabati bilan aholining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalashga oid qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan [1; 107-b]. Ushbu farmonga ko‘ra 9 ta toifa vakillariga imtiyoz berildi. Ularga quyidagilarni misol sifatida keltirib o‘tishimiz mumkin:

a) halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oilalari;
b) baynalmilal jangchi nogironlari bo‘lgan oilalar;
d) 18 yoshgacha 7 va undan ortiq farzandlari bo‘lgan ko‘p bolali oilalar;
e) farzand qilib olingan va vasiylikka olingan ota-onasiz yetim bolalar;
f) 3 va undan ortiq mehnatga yaroqsiz oila a’zolari bo‘lgan boquvchisini yo‘qotgan oilalar;
g) ishlamaydigan I va II guruh nogironlariga;

h) 1935-1950-yillarida qatag‘on qilingan va hozirgi paytda oqlangan kishilari bo‘lgan oilalar;

i) Chernobl halokati oqibatini tugatishda ishtirok etgan oila a’zolari bo‘lgan oilalar shular jumlasidandir [1; 107-108-b].

Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati davomida nafaqat davlatimiz balki qardosh davlatlarimiz tomonidan gumanitar yordamlar ham yuborilgan. Misol uchun, Qo‘qon shahriga 1992-yil 19-mart kuni Turkiya davlatidan yuborilgan insonparvarlik yordami yetib keldi. Ya’ni shahar aholisi uchun jami Navro‘z bayrami arafasida mehr-muruvvat yordami sifatida 4950 kg un, 3000 kg guruch, 3000 kg shakar, 999,18 kg margarin, 1501,5 kg semichka yog‘i, 400 kg quruq sut olib kelindi [2; 134-b]. Yuqorida keltirilgan insonparvarlik yordamini aholi orasida taqsimlash uchun shahar hokimining 1992-yil 20-martdagi qaroriga asosan 14 kishidan iborat “Insonparvarlik yordamini qabul qilishni tashkil etish va taqsimlash bo‘yicha ishchi guruhi” tashkil etildi [2; 134-135-b].

Ijtimoiy himoya aholining barcha qatlamlarini qamrab olganligini quyidagi faktlardan ham bilib olishimiz mumkin. Masalan, shahar bosh territorial tibbiy birlashmasihisobidagi kam qonli ayollar va ikki yoshgacha bolasi bor oilalargaQo‘qon shahar hokimining 1993-yil 19-martdagi “Kam qonli homilador ayollarga va ikki yoshgacha bolasi bor kam ta’minlangan oilalarga (bolasi uchun) bepul oziq-ovqat berish to‘g‘risida” 54-sonli farmoyishi qabul qilingan [3; 84-b]. Yuqorida keltirilgan farmoyish Xalq deputatlari Qo‘qon shahar kengashining1993-yil 3-iyundagi 88/17-XXI qaroriga asosan tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan [3; 83-b]. Bepul tarqatiladigan oziq-ovqatlar uchun harajatlar sog‘liqni saqlash sohasida va umum shahar budjeti miqyosida iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning asosan 2 xil yo‘nalishidan foydalanib kelinmoqda, ya’ni 1) aholi orasida oziq-ovqat va birlamchi mahsulotlar narxini maqbul tarzda qat’iy shaklda ushlab turish; 2) narx-navolar ko‘tarilishiga mos ravishda oylik ish haqi, stipendiya, nafaqa va pensiyalar miqdorini parallel ravishda oshirib borish. Davlatimiz tomonidan bir vaqtning o‘zida ikkala yo‘nalishda ham aholiga ayniqsa, uning kam ta’minlangan qismiga qulayliklar yaratish uchun harakatlar olib borilmoqda.

Yurtimizda 1990-yillarda aholini kam ta’minlangan qismini oziq-ovqat bilan ta’minlash ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular asosan to‘y va dafn marosimlari uchun davlatimiz tomonidan berib borilgan. Qo‘qon shahar hokimining 1993-yil 22-yanvardagi 11-f sonli farmoyishi [4; 50-b] va Xalq deputatlari Qo‘qon shahar kengashining 1993-yil 3-iyundagi 89/17-XXI qaroriga asosan shahar aholisiga faqat nikoh to‘yi va dafn marosimlari uchun beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori tayinlangan [3; 76-b]. Rasmiy hujjatlarda belgilangan oziq-ovqatlar miqdori quyidagilardan iborat edi:

1) To‘y marosimlari uchun: a) un – 100 kg, guruch – 20 kg;

2) Dafn marosimlari uchun: a) un – 50 kg, guruch – 20 kg [4; 50-b].

Ushbu miqdordagi moddiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholiga yordam berish ishlari keyingi yillarda ham davom ettirilgan. Bunga misol tariqasida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Qo‘qon shahar hokimining 1995-yil 28-fevraldagi 31-f sonli farmoyishiga ko‘ra shahar aholisiga nikoh to‘yi va dafn marosimlari uchun beriladiga oziq-ovqat miqdori qayta ko‘rib chiqilgan, beriladigan oziq-ovqat midorlari soni ko‘paytirilgan [6; 84-b]:

1-jadval.

T/R	Mahsulot nomi	Nikoh to‘yi	Dafn marosimi
1	Un	100 kg	50 kg
2	Guruch	50 kg	20 kg
3	O‘simlik yog‘i	10 kg	5 kg
4	Shakar	5 kg	5 kg
5	Choy	1 kg	1 kg

Viloyat hokimining 1993-yil 21-dekabrdagi 337-f sonli farmoyishiga muvofiq Qo‘qon shahar

hokimining 1993-yil 247-f sonli va 1994-yil 27-yanvarda 18-f sonli farmoyishlari qabul qilingan. Unga ko‘ra, shahar ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan hisobga olingan yakka yolg‘iz, o‘zgalar yordamiga muhtoj faxriylar soni 388 nafarni tashkil etgan [5; 59-b]. Ularga imtiyozli oziq-ovqat uchun bir oyga 3,183,540 so‘m kupon, jami 3 oylik miqdorga 9,550,620 so‘m kupon mablag‘ ajratilgan [5; 60-b]. 1994-yil 14-aprelda qabul qilingan Qo‘qon shahar hokimining 66-f sonli farmoyishiga ko‘ra bir oylik oziq-ovqat uchun ajratilayotgan summa ko‘tarilib, jami bir oylik harajat uchun – 4,495,756 so‘m mablag‘ ajratilgan [5; 183-b]. O‘zgalar parvarishiga muhtoj “Yakka-yolg‘iz faxriylarga beriladigan kundalik zarur bo‘ladigan mahsulotlar” ro‘yhati shakllantirilgan bo‘lib, ro‘yhat quyidagi mahsulotlardan iborat bo‘lgan.

2-jadval [5; 184-b].

T/R	Mahsulotlar	o‘lchov birligi	Bahosi (so‘m kupon)	Oylik me’yori	Jami narxi (so‘m kupon)
1	Un	Kg	315	3 kg	945
2	O‘simlik moyi	Kg	2000	0,5 kg	1000
3	Makaron	Kg	400	0,25 kg	100
4	Guruch	Kg	580	0,8 kg	464
5	Choy	Kg	4360	0,1 kg	436
6	Tuxum	10 dona	3500	5 dona	1750
7	Shakar	1 kg	1500	0,8 kg	1200
8	Kir sovun	1 dona	692	1 dona	692
9	Go‘sht	1 kg	5000	1 kg	5000
Jami				11587	

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan mahsulotlar soni va miqdori yakka-yolg‘iz ijtomoiy himoyaga muhtoj 1 nafar keksa faxriy uchun hisoblab chiqilgan.

Qo‘qon shahar hokimi X.T.Mavlonkulovning 1995-yil 17-martda chiqargan 38-f sonli farmoyishiga ko‘ra Navro‘z bayrami munosabati bilan shahar hududida istiqomat qilayotgan ko‘p bolali, kam ta’minlangan oilalarga tarqatish, ijtimoiy himoyaga muhtoj 230 ta oilaga moddiy yordam tariqasida oziq-ovqat mahsulotlarini bayram sovg‘asi tayyorlanib va uni bayramarafasida fuqarolarga yetkazib berildi [6; 101-b]. Jami 230 ta oila quyidagilar iborat bo‘lgan: 1) Chernobl fojeasi nogironlari – 10; 2) Afg‘on urushida halok bo‘lgan jangchilar oilalari – 61 ta; 3) Ko‘zi ojizlar jamiyati – 12; 4) Qizil Yarim oy jamiyati – 30; 5) Nogironlar jamiyati a’zolari – 40; 6) Ijtimoiy ta’minot bo‘limi – 20; 7) Mahallalardagi kam ta’minlanganlar – 57 tani tashkil etgan [6; 102-b]. Yuqorida keltirilgan oilalarning har biriga sovg‘a sifatida 230 ta qopda bepul oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilgan. Oilalarning har biriga 10 kg un, 5 kg guruch, 1 kg shakar, 2 dona sovun, 1 kg choy yetkazib berilgan. Jami 230 ta oila uchun umumiy miqdorda 2 tonna 300 kg un, 1 tonna 150 kg guruch, 230kg shakar, 460 dona sovun, 230 kg choy aholiga tarqatildi [6; 102-b].

Aholini ijtimoiy himoya qilishning yana bir usuli bu - narx-navolar ko‘tarilishiga mos ravishda oylik ish haqi, stipendiya, nafaqa va pensiyalar miqdorini parallel ravishda oshirib borishdir. Bu davr oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 29-iyundagi PF-615 sonlifarmoniga binoan yurtimizda 1993-yil 1-iyuldan boshlab mehnat haqi, pensiya, stipendiyalar miqdori oshirildi va eng kam ish haqi

miqdori oyiga 11250 so‘mni tashkil etdi [7; 208-b]. Bu davrda mamlakatimizda 1993-yil 1-noyabrdan boshlab so‘m kupon muomalaga kiritilgan. Navbatdagi ish haqi, stipendiya va pensiyalarning narhi 1994-yil 1-yanvardan boshlab 32450 so‘mni [8; 312-b], 1994-yil 1-martdan boshlab bu miqdor 45000 so‘mni, 1994-yil 1-iyunidan 75000 so‘mni tashkil etgan [9; 220-b]. Ya’ni eng kam ish haqi, pensiya va stipendiyalar miqdori narx-navolar o‘zgarishiga, ortishiga qarab oshirib borilgan.

Maqolada keltirilgan barcha ma’lumotlarga asoslanib xulosa qiladigan bo‘lsak, davlatimiz tomonidan har doim aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanib kelayotganligini ko‘rish mumkin. Jamiyatimizdagi har bir qatlam, har bir ko‘makka muhtoj oila, inson davlatimiz himoyasida ekanligi buning yorqin isboti bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yhati.

1. Farg‘ona viloyat davlat arxivi. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 12-yig‘ma jild.
2. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 15-yig‘ma jild.
3. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 23-yig‘ma jild.
4. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 37-yig‘ma jild.
5. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 57-yig‘ma jild.
6. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 86-yig‘ma jild.
7. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 31-yig‘ma jild.
8. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 45-yig‘ma jild.
9. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 50-yig‘ma jild.

O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING ILK YILLARIDA ZOMIN TUMANI TARIXINI O‘RGANISHGA DOIR TIZIMLI REJALAR ISHLAB CHIQILISHI VA ULARNING AMALIYOTGA TATBIQ ETILISHI

To‘ychiyeva Dilnoza Ikromovna,
Qarshi Davlat Universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zomin tarixining uzoq o‘tmishga borib taqalishini asoslovchi jihatlarni hisobga olgan holda, Mustaqillikning dastlabki yillarida Zomintarixinio‘rganish va umumlashtirish guruhining tashkil etilishi bilan bog‘liq jarayonlar, Jamg‘armaning Nizomi, maqsad va vazifalari, faoliyati va tashkilotning amalga oshirgan nazariy hamda amaliy ishlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Jamg‘arma, mablag‘, Nizom, yozma manbalar, arxeologik topilma, tarixiy-madaniy targ‘ibot, xo‘jaliklar, fond, moliyalashtirish, muzey, manba.

РАЗРАБОТКА СИСТЕМНЫХ ПЛАНОВ ПО ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ ЗААМИНСКОГО РАЙОНА В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА И ИХ РЕАЛИЗАЦИЯ

Тойчиева Дилноза Икромовна,
докторант Каршинского государственного университета

Аннотация.В данной статье рассмотрены процессы, связанные с организацией группы исследования и обобщения истории Заамина в первые годы независимости, с учетом аспектов, обосновывающих многолетнюю историю Заамина. Обсуждаются Устав Фонда, цели и задачи, деятельность и теоретические и практические работы организации.

Ключевые слова.Фонд, фонды.Устав, письменные источники, археологические находки, историко-культурная пропаганда, хозяйства, фонд, финансирование, музей, ресурс.

DEVELOPMENT OF SYSTEMATIC PLANS FOR STUDYING THE HISTORY OF ZOMIN DISTRICT IN THE FIRST YEARS OF UZBEKISTAN’S INDEPENDENCE AND THEIR IMPLEMENTATION

Toychiyeva Dilnoza Ikromovna,
doctoral student ofKarshi State University

Abstract.In this article, the processes related to the organization of the Zomin history research and generalization group in the early years of independence, taking into account the aspects that justify the long history of Zomin history.The Charter of the Foundation, goals and objectives, activities and theoretical and practical works of the organization are discussed.

Keywords.Fund, funds.Charter, written sources, archaeological finds, historical and cultural promotion, farms, fund, financing, museum, resource.

O‘zbekiston tarixining qadimiyligi va ulug‘vorligini belgilashda o‘lkamizda olib borilayotgan arxeologik qazishmalar, yozma manbalar, shuningdek, tuman va shahrlar tarixi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ahamiyati beqiyos. Xususan, qadimgi Ustrushona tarkibida bo‘lgan Zomin, rasman XX asrda tuman sifatida tashkil etilgan bo‘lsa-da, aslida uning tarixi qadimiy davrlarga borib taqalishi tarixchi va arxeologik olimlar tomonidanta’kidlangan.Darhaqiqat, Zomin Ustrushonaning yirik shahri bo‘lib, u Movorounnahrning Samarqand, Buxoro, Shosh va Farg‘ona kabi shaharlarni bir-biriga bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tagan. Bugungi kunga qadar, Jizzax vohasida “Qadimiy yodgorliklar va ilmiy jihatdan saqlashga molik” deb ilm-fan tomonidan e’tirof etilgan 220dan ortiq manzilgohlar borki, ularning kattagina qismiZomin tumani hududidadir. Shu bilan birga, ularning yoshi ham xilma-hildir. Bu kabi omillar, qadim tosh davrlaridan boshlab bu joylarda yashab kelayotgan odamzod hayotining belgilari, yashash tarzi, madaniyati, urf-odatlari haqidagi bilimlarni o‘rganmoq, tahlil qilmoqni talab qiladi. Zomin qadimiyligini Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida quyidagi o‘lkalar sanoqda keltiriladiki, ular qatorida Zomin ham munosib o‘rin olgan. “Turon, Eron, Rum, Mag‘rib, Suriyo, Misr, Iroqi Arab, Iroqi A’jam, Mozandaron, Keylon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jidda, Boxtar, Zomin, Hindiston, Dashti Qipchoq, Xorazm, Gurjiston,Armaniston, va Oltin O‘rda….”[1] Yuqoridagi va yana bir qancha tarixiy faktlardan kelib chiqqan holda, Zominning qadimy tarixini tiklash, o‘rganish va tadqiq

etish jarayonlarini chuqurlashtirish bo‘yicha mustaqilligimizning ilk yillaridanoq keng qamrovli ishlar boshlab yuborildi. Jumladan, 1993-yil 16-dekabrda “Zomin tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhi tuman jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqildi. Unga muvofiq, Jamg‘arma xayriya-jamoatchilik tadbirlarini o‘tkazishi, Zomin tumani tarixini o‘rganish maqsadiga yo‘naltirilgan moddiy ajratmalarni jamlashi va sarf qilishi; Jamg‘arma faoliyatida ish-tutumidan qat’iy nazar har qanday tashkilotlar, muassasalar, xo‘jaliklar, fuqarolar jamoalari va fuqarolar ixtiyoriy-homiylik va huquqiy-shartnoma tartibida ishtirok etishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga binoan har qanday soliqlar, davlat bojlari va boshqa to‘lovlardan ozod etiladi; Jamg‘arma huquqiy shaxs hisoblanadi hamda o‘z hisob raqami muhrli varaqasi, tamg‘asi va ramziga egadir.[2] Zomin tarixini o‘rganish jamg‘armasi o‘z maqsad va vazifalariga ega bo‘lib, ularni quyidagicha keltirish mumkin: Zomin o‘lkasi tarixiga oid tarixiy, madaniy, tabiiy yodgorliklarni to‘plash, sotib olish, milliy urf-odatlar, an’analarini targ‘ib qilish, Zomin tarixiga oid kitob va majmualarni chop etish, yurt madaniy me’rosini tiklash; Xalq an’analari, havaskorlik, badiiy san’at va folklor-etnografik merosni o‘rganish va taraqqiy topdirish; Zomin o‘lkasi hayotiga oid tarixiy, badiiy, hujjatli kino va videofilmlarni suratga olish namoyish etish; Tarixiy-madaniy targ‘ibotga, o‘lka madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ko‘rgazma-savdo salonlarini tashkil etishdan iborat. Zomin tarixini o‘rganish va umumlashtirish jamg‘armasining moddiy holatini tashkil etish va yaxshilash choralari ham ko‘zda tutilgan bo‘lib, Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi mablag‘lardanbunyod bo‘lishi belgilab qo‘yilgan: Muassis va homiylar ajratmalaridan, xayr-ehson mablag‘idan, ijodiy uchrashuvlar, konsert tomoshalar va boshqa xayriya tadbirlaridan, moddiy xayriya ehsonlarini madaniy, esdalik va yodgorlik buyumlarini sotishdan kelgan tushumlardan, boshqa tushumlardan moliyalashtiriladi. Jamg‘arma mablag‘lari Boshqaruv guruhi yig‘ilishi qarorlariga ko‘ra Jamg‘arma raisi ma’qullagan rejalarga asoslanib quyidagi ehtiyojlarga sarflanadi.

- Jamg‘arma maqsad va vazifalarini bajarishga;[3]
- Jamg‘arma faoliyatida ishtirok etayotgan xizmatchi va xodimlarga ish haqi, ijodiy, xayriya va mukofot to‘lovlarini amalga oshirishga.

Jamg‘arma faoliyatida ishtirok etuvchi barcha ishchi va xizmatchilar amaldagi tartib va qoidalar doirasida sotsial muhofazalanadi.

Jamg‘arma rahbarligi qoidalari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Jamg‘arma muassislari umumiy yig‘ilishi yiliga bir marta chaqiriladi u Jamg‘arma boshqaruv guruhini, Jamg‘arma raisi va o‘rinbosarini saylaydi. Boshqaruv guruhi Jamg‘arma faoliayatiga oid reja va dasturlarni muhokamalaydi, qarorlar qabul qiladi. Jamg‘arma raisi o‘rinbosari Boshqaruv guruhi qarorlariga muvofiq Jamg‘arma raisi ma’qullagan rejalarga ko‘ra mablag‘lar sarfiyotiga ma’sullik qiladi, tegishli huquqiy shartnomalar imzolaydi. Jamg‘arma nomidan tegishli huquqiy-yuridik munosabatlarga kirishadi. Rais o‘rinbosari Jamg‘arma raisi va Boshqaruv guruhi oldida Boshqaruv guruhi muassislar oldida javobgardir. Jamg‘armaning huquqiy holati: Ushbu nizom jamg‘arma faoliyati uchun yagona qo‘llanmadir. Jamg‘arma o‘z faoliayi yuzasidan huquqiy jihatdan mustaqil, davlatning boshqa muassasalari, korxona va tashkilotlari zimmasidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydi.

Jamg‘armaning tugatilishi[4] bilan bog‘liq jarayonlar quyidagicha yoritiladi, mazkur arxiv hujjatida:

Muassislar yig‘ilishi qarori bilan; Ushbu nizomda ko‘zda tutilgan qoidalarga zid holatlar qayd etilganida tuman hokimining qarori bilan tugatilishi belgilab qo‘yildi. Jamg‘arma manzilgohi: Zomin tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg‘armasi Boshqaruvi Zomin tumani markazi Zomin shaharchasidagi tarixiy-o‘lkashunoslik muzeyi binosida joylashgan.[5]

Zomin tumani tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhi tuman jamg‘armasining muassislari yig‘ilishida Zomin tumani hokimi, tuman hokimligi vakillari, xo‘jalik va tashkilotlarning rahbarlari, fuqarolar jamoalarining vakillari, jami 46 kishi ishtirok etdi. Kun tartibida: Zomin tumani tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg‘armasining yangilangan Nizomi to‘g‘risida, Jamg‘arma boshqaruv guruhi, jamg‘arma raisi va rais o‘rinbosarini saylash, shuningdek, Jamg‘arma faoliyatiga oid boshqa masalalar ko‘rilb chiqildi. Yig‘ilish avvalida, Zomin tumani tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhining rahbari lavozimida ishlab kelgan U.Abdualimovning axboroti tinglandi. Jamg‘arma faoliyatida qator materiallar ochildi, - deydi,u o‘z so‘zida. Zomin tumani tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhi Zomin tarixiga oid uning qadim o‘tmishiga doir bo‘lgan juda ko‘p ma’lumotlarni to‘pladi va joylarda targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib bordi. Jumladan, tumanimizda yashab, yosh avlodga ta’lim beradigan

o‘qituvchilar o‘rtasida Zomin tarixini to‘plash yuzasidan, materiallar, yodgorliklar yig‘ish yuzasidan qator tashviqot ishlari olib borildi. Bu tashviqotning samarasi sifatida tumandagi “Sharq tonggi, “Jizzax haqiqati” gazetalariva respublikamizning qator matbuot xabarnomalari orqali maqolalar chiqishlar e’lon qilindi.[6] O‘z ish faoliyatimiz davrida yutuqlar bilan qator nuqsonlar ham ish yurimiga to‘siqlik qilgan obektiv va subektiv sabablar ham bo‘lganligi haqida jamg‘arma rahbari ta’kidlaydi. Jumladan iqtisodiy inqiroz va boshqa muammolarga duch kelingan bo‘lsa-da, Jamg‘arma Zomin tarixiga oid “Tog‘ sadolari”[7] kitobi chop etildi.

Zomin tumani hokimi mahkamasining X.Sattorov, Zomin muzeyi rahbari S.Qoraboyevlar tomonidan Zomin tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg‘armasining yangilangan Nizomini o‘qib berildi. Shundan so‘ng Nizom bo‘yicha muzokaralar o‘tqazildi. “Sharq tonggi” gazetasi muharriri vazifasini bajaruvchi N.Muhiddinov, faxriy T.Oyboshev, “Mustaqillik” agroxo‘jaligi rahbari M.Egizev, muhbir X.O‘rinboyev, Zomin elektronika mexanik zavodidan A.Xoliqulov, faxriy O.Umarov va boshqalar Jamg‘arma Nizomiga qo‘shimchalar va takliflar kiritdilar va Nizomni yoqladilar. Shundan so‘ng, nizom loyihasi ovozga qo‘yilib, ko‘pchilik tomonidan ma’qullanib, qabul qilindi. Jamg‘arma boshqaruvia’zolari etib, X.Sattorov, U.Abdualimov, S.Qoraboyev va Q.Xamdamova nomzodlariko‘pgina ovoz bilan saylandi. Keyingi jarayonda esa, Zomin tumani hokimi N.Umarov Zomin tarixini o‘rganish va umumlashtirih guruhi tuman Jamg‘armasi raisi etib, S.Qoraboyev esa Jamg‘arma raisi o‘rinbosari etib saylandilar. [7] Zomin tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhining yig‘ilishida Jamg‘arma boshqaruviga, Jamg‘armaning yillik faoliyat rejasini tuzish, to‘laqonlik faoliyat uchun ish lavozimlari jadvali va boshqa huquqiy hujjatlar yuzasidan chora-tadbirlar belgilash vazifasi topshirildi. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida, aniq sanalarda ko‘rsatadigan bo‘lsak, 1993-yil 16-dekabrda o‘tkazilgan mazkur yig‘ilish, ungacha bo‘lgan Zomin tarixini o‘rganish va umumlashtirish ishlari va yig‘ilishdan so‘ng belgilab olingan vazifalar o‘sha davr, o‘zbekiston tarixining bir bo‘lagi hisoblanmish, Zomin tarixini o‘rganish ishlari bir jasorat edi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish mahalida, iqtisodiy yetishmovchiliklar sharoitida, Zominning qadim tarixini tiklash, ma’daniy va ma’naviy boyliklarni xalqqa namoyon etish, tuman tarixini uzoq mingyilliklarga taqash, asoslar va turli tarixiy topilmalar ko‘rinishida dalilllash muhim ahamiyat kasb etardi. Sababi, bu ko‘hna tarixni va undagi shonli voqealarni yosh avlodga yetkazish, boxabar qilish, bir so‘z bilan aytganda Zominning qadim tarixini izsiz ketmasligi uchun Jamg‘arma ko‘pgina ilmiy va amaliy ahamiyatga molik ishlarni amalga oshira oldi – desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Zomin hozirgi kunda, hajm jihatdan nisbatan kichikroq tuman bo‘lsa-da, rasmiy holatda tuman 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda Jizzax tumani bilan birlashtirilib, 1964-yil 31-dekabrda qayta tuzilgan) bo‘lsa-da, asl Yoshi uzoq davrlarga borib taqalishi, tarixchilarning asarlari va arxeolog olimlar tadqiq etgan arxeologik topilmalar orqali asoslab berilgan. Zomin tarixini o‘rganish ishlari tizimli ravishda mustaqillikning ilk yillarida boshlangan bo‘lsa, bu jarayon hozirgi kunga qadar , ilmiy tadqiqotlar, arxeologik izlanishlar va etnografik yo‘nalishlarda o‘rganish ishlari davom etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Og‘a Burgutli. Ko‘hna Zomin. T. Cho‘lpon nashriyoti. 1996. 21-b.
2. Fond M-0385, ro‘yxat-1,yig‘ma jild 87, 64-varaq
3. Fond M-0385, ro‘yxat-1,yig‘ma jild 87, 65-varaq
4. Fond M-0385, ro‘yxat-1,yig‘ma jild 87, 66-varaq
5. Fond M-0385, ro‘yxat-1,yig‘ma jild 87, 67-varaq (Ushbu Nizom Zomin tarixini o‘rganish va umumlashtirish guruhi tuman Jamg‘armasi muassislarining 1993yil 16-dekabrdagi yig‘ilishida qabul qilingan)
6. Fond M-0385, ro‘yxat-1,yig‘ma jild 87, 68-varaq
7. Og‘a Burgutli. Tog‘ sadolari. –T.; “Mehnat” nashriyoti. 1992.
8. Fond M-0385, ro‘yxat-1,yig‘ma jild 87, 69-varaq
9. O‘zME.2002.32-bet.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TURIZM VA ETNOTURIZM YO‘NALISHIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR: BUXORO VILOYATI MISOLIDA

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich,
Alfraganus university katta o’qituvchisi
ORCID: 0009-0000-9560-3741

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida turistik salohiyati eng yuqorilardan bo‘lgan Buxoro viloyatida ushbu sohada amalga oshirilayotgan amaliy ishlar ko‘rib chiqiladi. Unda 2017-yildan keyingi davrda hukumat darajasida Buxoro viloyatini turistik, xususan etnoturizm salohiyatini oshirish bo‘yicha chiqarilgan farmon va qarorlarning ijrosi statistik tahlillar asosida taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, “Harakatlar strategiyasi”, Turizm, etnoturizm, “Turistik mahalla”, madaniy meros, “Yashil maskan”, “Boqiy Buxoro” tarixiy-etnografik parki.

РЕФОРМЫ В НАПРАВЛЕНИИ ТУРИЗМА И ЭТНОТУРИЗМА ВНОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Мадиёр Маманазарович Турдиев,
старший преподаватель Университета Альфраганус.

Аннотация: В данной статье рассматривается практическая работа в данной сфере в Бухарской области, обладающей одним из самых высоких туристических потенциалов в Республике Узбекистан. В нем на основе статистического анализа представлена реализация постановлений и решений, изданных на правительственном уровне после 2017 года по повышению туристического потенциала Бухарской области, особенно этнотуризма.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, «Стратегия действий», Туризм, этнотуризм, «Туристический квартал», культурное наследие, «Зеленый дом», историко-этнографический парк «Бакий Бухара».

REFORMS IN THE DIRECTION OF TOURISM AND ETHNO-TOURISM INNEW UZBEKISTAN: THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich,
senior teacher of Alfraganus University

Annotation: In this article, practical work in this field is considered in the Bukhara region, which has one of the highest tourism potentials in the Republic of Uzbekistan. In it, the implementation of decrees and decisions issued at the government level after 2017 on increasing the tourism potential of Bukhara region, especially ethnotourism, is presented based on statistical analysis.

Key words: New Uzbekistan, «Strategy of Actions», Tourism, ethnotourism, «Tourist Quarter», cultural heritage, «Green House», historical-ethnographic park «Baqiy Bukhara».

KIRISH.So‘ngi yillarda turizm jahon iqtisodiyotidagi tez rivojlanib kelayotgan tarmoqlardan biridir. Bu soha neft qazib chiqarish va avtomobilsozlikdan so‘ng yirik uchlikka kiradigan katta daromad keltiruvchi tarmoq hisoblanadi. Bugungi kunda turizm va unga bevosita hamda bilvosita hizmat ko‘rsatuvchi sohalarda jahon mehnat resurslarining qariyb 60% qismi faoliyat olib bormoqda. Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilga borib jahon bo‘yicha sayyohlarning soni 100 kishiga yetishi bashorat qilinmoqda [4;14-29]. Yangi O‘zbekistonni bunyod etishdagi “Harakatlar strategiyasi” dagi iqtisodiy islohatlarning bir bo‘g‘ini sifatida aynan turizm sohasi ko‘rilayotgani ushbu yo‘nalishga e’tiborni oshiradi [1;].

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadliligi bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko‘p ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravar oshgan. Soha eksporti 1 milliard 600 million dollarni

tashkil etgan. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani natijasida u yerga qo‘shimcha 2 million sayyoh kelgan.

2021-yil 24-iyun kuni Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo va kuzatuvchi davlatlar turizm vazirlarining VI yig‘ilishida «Tabarruk ziyorat» konsepsiyasi asosida hamkorlikni rivojlantirish va tashkilot tarixida birinchi marta «Turkiy dunyo turizm poytaxti» etib Qo‘qon shahrini e’lon etish orqali ushbu shaharning turizm salohiyatini birgalikda targ‘ibot qilishga kelishilgan edi.

O‘zbekistonning ziyorat turizm yo‘nalishidagi ulkan salohiyatidan kelib chiqib, bugungi kunda barcha turkiy xalqlarning din va fan namoyondalari, shoirlar, davlat arboblari va boshqa buyuk shaxslarining beqiyos ilmiy va madaniy-ma’rifiy merosini yanada kengroq targ‘ibot etish maqsadida «Tabarruk ziyorat» loyihasi ilgari surilmoqda.

«Tabarruk ziyorat» loyihasi doirasida, jumladan, tashkilotga a’zo va kuzatuvchi davlatlar o‘rtasida turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutilgan. Bunda Samarqand, Buxoro, Xiva va Qo‘qon kabi turizm xalqaro yarmarka, ko‘rgazmalar, festivallar, milliy sport musobaqalarini hamkorlikda uyushtirish, O‘zbekistondagi xalqaro ilmiy markazlar va tashkilotga a’zo davlatlardagi ilmiy markazlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish masalalari ishchi guruh tomonidan muhokama qilindi. Shuningdek, tashkilot vakillari o‘z takliflarini bildirishdi. Masalan, Turkiya tomon hamkorlikda turli madaniy forum va tadbirlar tashkil etishni taklif etdi [9;].

Aslida mamlakatimizda bu sohadagi salohiyat bundan ancha yuqori. Yurtimizga kelmoqchi bo‘lgan sayyohlar juda ko‘p. Lekin, ularni qiziqtiradigan joylar haqida kontent kam, turistlarni 4-5 kun olib qoladigan dasturlar yetishmaydi. Samolyot va poyezdga biletni bir necha oy oldindan sotib olishda noaniqliklar ham talaygina. Samarqand, Buxoro, Xiva ava boshqa turistik salohiyati yuqori hududlarimizda ushbu sohani rivoji uchun hudud ichki xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish dasturlari ishlab chiqildi [10;].

ASOSIY QISM. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta’minlash, shuningdek Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrdagi 543-sonli qarorida Buxoro viloyatining turistik salohiyatini oshirish bo‘yicha aniq yo‘l-xaritasi belgilab berilgan [3;].

Ushbu belgilangan vazifalardan olinadigan natijalarning xronologik chegarasi 2022 –2026-yillar bilan berilgan. Unga ko‘ra belgilangan va natijalar yilma-yil ijobiy ko‘rsatgich asosida sohani rivojlantirish istiqboli belgilangan.

Misol uchun xorijiy sayyohlar sonini viloyatga tashrif buyurishini 2022-yil 450 mingga yetkazish, 2026-yilga kelib bu ko‘rsatkichni 1.800 mingga, Ichki turistlar tashrifi soni 2022-yil 2,400 mingga, 2026-yilga kelib bu ko‘rsatkichni 4,100 mingga yetkazish va Mehmonxonalar soni 2022-yil 178 taga yetkazish nazarda tutilgan bo‘lsa, 2026-yilga kelib bu ko‘rsatkichni 258 taga yetkazish maqsad qilingan.

Prezident farmoni va Vazirlar mahkamasining qarori asosida ishlab chiqilgan “2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizmni yanada rivojlantirish” dasturi doirasida eng avvalo, viloyatdagi turizm infratuzilma obyektlarini tashkil qilish masalasi turaganligi soha rivojidagi poydevor asosni yaratishga e’tibor sifatida baholash mumkin. Buxoro viloyatining turli nuqtalarida tarixiy-etnografik xususiyatga ega bo‘lgan mahallalar tashkil etilishi bu o‘rinda nazarda tutilgan.

Birgina 2022-yilning o‘zida viloyat bo‘ylab quyidagi tarixiy-etnografik mahallalar tashkil qilindi. Bular, G‘ijduvon tumanidagi “Qo‘rg‘on” va “Chorsu” mahallalarida “Turizm mahallasi”, Vobkent tumanidagi Shirin qishlog‘ida “Shirin turizm etno qishlog‘i”, Ahmad Donish ko‘chasida “Turizm ko‘chasi”, Buxoro shahridagi “Turki Jandi” mahallasida “Turizm mahallasi” mahallalaridir. Bunda, “Turizm mahallasi”, “Turizm qishloqlari” va “Turizm ko‘chasi” ichki yo‘llarini, ichimlik suvi va boshqa infratuzilma tarmoqlarini ta’mirlash ishlarini 2023-yildagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlariga kiritish belgilandi va ishlar amalga oshirildi [5;503-503].

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Mazkur mahallarni aniq ishlab chiqilgan to‘rt tamoyil asosida yaratish ishlari muayyan darajada yengilliklarni va ish sifatiga sabab bo‘ldi.

Dastlabki tamoyil, ushbu hududlarda “Turizm qishlog‘i”, “Turizm mahallasi”ni tashkil qilish

konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqldi. Bunda yuqorida aytganimizdek, hududlarni tarixiyligi, undagi insonlar va ularning etnomadaniy qadriyatlarni saqlab qolganiligi e'tiborga olindi.

Ikkinchi tamoyilga ko'ra "Turizm mahallalari"da zamonaviy xizmat ko'rsatish markazlari va xizmat ko'chalarining master rejalarini ishlab chiqildi. Bilamizki har qanday servis sohasini rivojida o'sha maskanga olib keluvchi yo'llarni soz holatdagi muhim masala hisoblanadi. Mamlakatimizda barcha fasllarning mavjudligi nuqtai nazarida ko'chalardagi tabiat hodisalari bilan bog'liq kelib chiquvchi kamchiliklar bartaraf etilishi maskur qismda nazarga olindi va ushbu qilinishi kerak bo'lgan ish asosiylardan etib belgilandi.

Uchinchi bajarailishi kerak bo'lgan ish sifatida esa, har bir loyihani tashkil etilishini muvofiqlashtirib boorish belgilandi. Bu bo'yicha Buxoro viloyati hokimligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirligi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Qurilish vazirligi ma'sul tashkilotlar sifatida belgilandi.

Va, eng so'nggida mazkur dastur bo'yicha berilgan barcha loyihalarni (jismoniy va yuridik shaxslardan) 2023-yildagi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlariga kiritish belgilandi. 2023-yilda ushbu loyihalar 200 dan ortiqni tashkil etdi va barchasi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari asosida ko'rib chiqilib, sohaga berilgan imtiyozlarga ega chiqildi [3;].

"2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizmni yanada rivojlantirish" dasturi doirasida belgilangan ikkinchi ustuvor masala bu bo'sh turgan yer maydonlarini xatlovdan o'tkazgan holda salohiyatli hududlardan mehmonxona va xostellar qurish uchun belgilangan tartibda yer maydonlarinikim oshdi savdolariga qo'yish bo'ldi. Bu asosda ham ichki, ham tashqi turistik tashriflarni amalga oshiruvchilar uchun turar-joy, aniqrog'i vaqtinchalik yashash uchun mehmonxona va xostellarni qurish hamda ularni soni oshirish nazarda tutilgan.

Mehmonxona va xostellarni qurish uchun tadbirkorlik subyektlarining o'z mablag'lari, tijorat banki kreditlari asosida ushbu tarmoqqa sarmoyalar kiritilishi birgina 2022 – 2023-yilni birinchi yarmiga ko'ra avvalgi yillarga qaraganda 7-8 barovarga oshganligi ushbu davlat dasturining natijasi sifatida baholash mumkin. Tadbirkorlarga mehmonxona va xostellarni qurish uchun yer ajratishdan tortib to qurish tugallangacha bo'lgan davrdagi masalalarda ko'maklashish uchun, hukumat tomonidan Buxoro vilyoti hokimligi, Qurilish vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, Turizm va madaniy meros vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Yuqorida ishlab chiqilgan dastur doirasida Buxoro shahridagi bo'sh turgan24 ta ta'mirtalab bo'lgan madaniy meros obyektlarini belgilangan tartibda turizm, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil qilish maqsadida tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berish masalasi ham alohida band sifatida belgilandi. Ularning aksariyati hunarmandchilik sohalaridagi etnomadaniy xususiyatlarini saqlab qolganligi chet-eldan keluvchi sayyohlarning qiziqishiga sabab bo'lishi aniq. Ushbu masalada eng avvalo, aniqlangan tadbirkorlik subyektlariga obyektlarni investitsiya kiritish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berish va obyektlarda turizm xizmatlarini tashkil qilish bo'yicha tadbirkorlik subyektlariga amaliy yordam ko'rsatish Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Buxoro viloyati hokimligi kabi tegishli muassasalarga vazifa qilib belgilandi [3;].

Buxoro viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlarga nafaqat infratuzilma jihatida, balki ularga xizmat ko'rsatuvchi shaxslarni xizmat sifatini oshirish bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan ishlar dasturdan o'rin olgan bo'lib, ishlarni bajarish 2023-yil davomida deyarli bajarilishi ta'minlandi. Shu asosda viloyatdagi turizm marshrutlaridagi obyektlarga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida qo'shimcha 50 nafar gid-ekskursovod (hamroh tarjimon) lar faoliyatini yo'lga qo'yildi.

2025-yilgacha bo'lgan davrda viloyatdagi ilgari madaniy meros obyekti sifatida o'rin olmagan joylarni madaniy meros ro'yxatiga kiritilishini ta'minlash bo'yicha ham reja tuzilgan. Unga ko'ra, Jondor tumanida joylashgan qadimiy "Varaxsha" qal'asi va Qorako'l tumanida joylashgan "Qadimgi Poykent" arxeologik yodgorligini konservatsiya qilish, arxeologik o'rganishlarni o'tkazish hamda YUNESKOning madaniy meros ro'yxatiga kiritilishini rejalashtirilgan. Bu bo'yicha Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Buxoro viloyati hokimligi kabi tegishlli tashkilotlar tomonidan ishlar olib borilmoqda [3;].

Zamonaviy turizm sohasini maxsus axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi

kunda sayyohlar qayerga borishmasin eng avvalo o‘sha yerni zamonaviy qurulmalar yordamida o‘rganishi tabiy hol albatda. Ular borayotgan hududni tarixini, e’tiborga molek joylarni va infratuzulmani tashrif buyurmasidan oldin o‘rganib chiqadi. Buxoro viloyatidagi turistik axborot markazlarini tashkil qilish bo‘yicha ham maxsus reja ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra 2026-yilgacha viloyatning turistik salohiyati yuqori hududlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan yengil konstruksiyali 18 ta turizm axborot markazini tashkil etish joyini belgilab, dislokatsiyasini tasdiqlash masalasi asosiy maqsad qilingan. Bunda birinchi navbatda yengil konstruksiyali 18 ta turizm axborot markazini tashkil etish joyini belgilash va turizm va madaniy meros vazirligi bilan kelishilgan namunaviy loyiha asosida turizm axborot markazi tashkil etish uchun tashabbuskor tadbirkorni aniqlash kabi ishchi reja asosida ishlar 2023-yildan boshlab amalga oshirilgan. 2023-yilning o‘zida bu bo‘yicha 7 ta axborot markazi va qurulmalarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha 3 ta tadbirkorlik rejalarini amaliy ish boshlaganini aytib o‘tish lozim. Shuningdek 2023 – 2024-yillarda Buxoro viloyati ziyorat turizm imkoniyatlarini www.ziyarattour.uz saytini takomillashtirish orqali keng targ‘ib qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish bo‘yicha viloyat hokimligini turizm masalari bo‘limi va innovatsiya vazirligini tegishli markazlariga vazifalar belgilandi.

Viloyatdagi muzeylarni tarixiy ashyolarini ta’mirlash va ularni soni oshirish bo‘icha ham datur doirasida maxsus reja ishlab chiqilgan. Bu yo‘nalish bo‘yicha viloyatdagi barcha muzeylarga o‘zlarida saqlanuvchi ashyolarni joriy holatini va sonini aniqlashtirish bo‘yicha so‘rovnoma yuborilgan. So‘rovnoma asosida har bir muzeydagi ushbu ashyolarning moddiy bazasini yaxshilash bo‘yicha davlat budjetidan mablag‘ ajratilishi belgilangan. Ushbu reja doirasida birgina Peshko‘ tumanidagi “Abu Ali Ibn Sino” muzeyidagi eksponatlar va tarixiy ashyolar sonini ko‘paytirish, jumladan, Abu Ali Ibn Sino qalamiga mansub Turkiya, Buyuk Britaniya, Fransiya muzeylarida saqlanayotgan qo‘lyozma va eksponatlar nusxalarini ko‘chirib olib kelish va joylashtirish yuzasidan muzeylarga taklif kiritish bo‘yicha 2023-yilda amaliy ishlar boshlangan. Mazkur ishlarni amalga oshirishda Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi, Moliya vazirligi, Tashqi ishlar vazirligiga kerakli vazifalar belgilab berilgan [7;14].

Tarixiy obyektlarni restavratsiya masalasi ham turizm sohasini chambarchas qismi hisoblanadi. Sababi ta’mirlangan inshoatning jozibadorligi va yanada ko‘proq davr yashashi uchun ushbu yo‘nalishdagi ishlarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi. “2022 – 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish” dasturi doirasida viloyatdagi aniy meros obyektlarini birma-bir restavratsiya qilish ishlari 2026-yilning so‘nggigacha amalga oshirilishi belgilangan. Bu bo‘yicha eng avvalo, viloyatdagi mavjud madaniy meros obyektlarini xatlovdan o‘tkazish, ta’mirlash va rekonstruksiya qilish uchun mahalliy va xorijiy olimlar, restavratorlar va boshqa eng nufuzli mutaxassislarni jalb qilish va tegishli tartibda restavratsiya qilish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish kabi rejalardan dastur ham yaratilgan. Bu ishlar uchun davlat budjetidan Turizm va madaniy meros vazirligiga ajratilgan mablag‘lar miqdori ham belgilangan [3;].

Mamlakatning turistik salohiyatini oshirish, uning xalqoro turistik imidjini ko‘tarish, sohani kadrlar bilan ta’minlash, ichki turizm ko‘lamini oshirishda reklama va tashviqotlarni amalga oshirish turizm sohasida qilinishi kerak bo‘lgan asosiy ishlardan hisoblanadi. “2022 – 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish” dasturi doirasida o‘ndan ortiq yo‘nalishlarda rejalar ishlab chiqilgan. Xususan viloyatning turistik salohiyatini taqdimotlarini xorijiy davlatlarda namoyish qilish bo‘yicha ishchi guruh tashkil qilindi. Ular birgina 2023-yilning o‘zida Rossiyaning 3 ta shahri, Malayziya, Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Fransiya, Lyuksemburg, Niderlandiya va Germaniya kabi davlatlarda viloyat turistik salohiyatini namoyish qilishdi. Ishchi guruhning 2024-yil doirasida Qozog‘iston, Hindiston, Ozarbayjon, Qatar, Saudiya Arabistoni va Janubiy Koreya kabi davlatlarda ushbu yo‘nalishda tashviqot ishlarini hamda namoyishlarni amalga oshirishni rejalashtirganlar. Shuningdek ushbu yo‘nalishda Irkutsk viloyati Bratsk shahrining Buxoro shahri bilan birodarlashganligini inobatga olib, mazkur hududdan turistik aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha, Rossiya Federatsiyasi vakillari uchun turizmning agro-eko, eno, gastronomik shopping, ziyorat kabi yo‘nalishlarida sayohat qilishlari uchun maxsus turpaketlar tayyorlandi. Rossiya Federatsiyasidagi, xususan, Tatariston Respublikasi hamda Vladimir viloyatidagi sayyohlik kompaniyalari va OAV vakillari uchun Buxoro viloyati va Buxoro shahriga info-turlarni tashkil qilindi.

Viloyatdagi aniqlanmagan moddiy buyum va ashyolarni izlab topish, umuman arxeologiya sohasini rivojlantish, sohani salohiyatli kadrlar bilan ta’minlashda maqsadida 2023-yilning o‘zida Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Buxoro filili hamda Buxoro davlat unversitetida Arxeologiya

kafedrasi tashkil etildi. Ularga kam tadqiq qilingan hududlarda moddiy manbalarni anqilash va ularni ham ilmiy, ham turistik iste'molga kiritish bo'yicha vazifalar belgilab olingan [3;].

Viloyatdagi turistik amalga oshirilishi kerak bo'lgan va rejalashtirilgan eng yirik loyihalaridan biri bu, Buxoro shahrida "Boqiy Buxoro" tarixiy-etnografik parki barpo etilishidir. Mazkur parkning yaratilishidan ko'zlangan bosh maqsad qadim Buxoroning boy tarixi va madaniyatini, noyob moddiy va nomoddiy madaniy merosini asrab-avaylash, uni yanada kengroq targ'ib etish hisoblanadi.

Tarixiy-etnografik park hududidan Buxoro an'anaviy me'morchiligi durdonalari va zamonaviy shaharsozlik uslublari uyg'unligini o'zida ifoda etgan ob'ektlar, jumladan, etnografik muzey, Buxoro vohasi uchun xos bo'lgan tarixiy mahallalar, aholi uchun xizmat ko'rsatuvchi choyxonalar va milliy taomlar tamaddixonalari, an'anaviy drenaj tizimlari - ariq va hovuzlar, hunarmandlar rastalari, zargarlik, zardo'zlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, temirchilik, kulolchilik, naqqoshlik, pichoqchilik kabi amaliy san'at ustaxonalari o'rin oladi [8;].

Majmua markazida, shuningdek, musiqali favvora ham tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Etnografik park barpo etilishida xalqaro ekspertlar guruhi va mahalliy mutaxassislar jalb etiladi. Bu hududdagi barcha ishlar YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan 1972 yil 16 noyabrda qabul qilingan Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofazasi bo'yicha konvensiya talablari asosida amalga oshiriladi.

XULOSA. Buxoro viloyati mamlakatimizdagi qadim tarixi va madaniy boyliklariga eng ko'piga egalik qiluvchi hududlardan biri hisoblanadi. Bu maskanda qadimdan o'zbek xalqi va boshqa millatlarning o'ziga xos rivojlangan etnomadaniyatlari bugungi kunda viloyatga tashrif buyuruvchi sayyohlarga eng manzur kelayotgan jihatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham hukumat tomonidan viloyatning turistik, aynan etnoturizm yo'nalishini rivojlantirish uchun ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. 2022 – 2026-yillarda viloyat turistik salohiyatini yanada oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu dastur doirasida bajariladigan barcha ishlar kelajakda nafaqat viloyatning turistik imidji, balki mamlakat iqtisodiy salohiyatiga ijobiy ta'sirini bildirmasdan qolmaydi.

O'z o'rnida qayd etish kerakki, bu loyiha asosida mo'ljallangan hududning uchdan ikki qismida Buxoro aholisi va mehmonlar sayr qilishi uchun muhtasham saylgoh (yashil bog') bunyodga kelishi mo'ljallangan. Bunda loyiha hududida"Yashil Buxoro" dasturiga muvofiq ilgari tashkil etilgan maydondagi daraxtlar va yashillik qiyofasi to'liq saqlab qolinadi hamda yangi bog' manzarasi sifatida yanada boyitiladi.

Bir so'z bilan aytganda, "Boqiy Buxoro" tarixiy-etnografik parkining bunyod etilishi nafaqat yurtimiz ko'p asrlik va boy madaniy-tarixiy qadriyatlarini jahon hamjamiyatiga keng tanitishga xizmat qiladi, balki global miqyosdagi ekologik muvozanatni saqlab qolishga munosib hissa qo'shishi shubhasizdir [9;].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 2017-yil 7-fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yilida amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar yuzasidan'" Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. https://lex.uz/docs/-6212874

4. Tashkenbayeva Z.U. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, "Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari" — mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari to'plami, 5- may 2021-yil. 500-503 betlar "Iqtisod-moliya".

5. Egamberdiyev F.T. Современное состояние развития туристской политики в мире. // Экономика и финансы (Узбекистан), 2022. № 6. Б. 16-24. DOI: 10.34920/EIF/VOL_2022_ISSUE_6_1 M.

6. Muminov Nozim Gaffarovich. Systematization of factors affecting the development of tourism. "Учинчи ренессансни шакллантиришнинг ижтимоий-иқтисодий муаммолари" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. - T.: «IlmZiyo-Zakovat» нашриёти, 2022. – Б.393-395.

7. Muminov.N.G. Перспективы развития государственного управления в сфере туризма в Узбекистане // Экономика и финансы (Узбекистан), 2022 г, №5, С.2-10.

8. Nozim MUMINOV, Farxod XALMATJONOV. TURIZM SOXASINI RIVOJLANISHIDA MAVSUM VA IKLIM OMILLARINI XISOBGA OLISH MASALALARI. “Pandemiyadan keyingi sharoitda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: UzXIA, 2022. – B.32-36.

9. N. Mustanov. O’zbekistonda ziyorat turizmi va ichki turizmning rivojlanish tamoyillari hamda turizmning pandemiya bilan bog’liqligi // «Экономика и социум» №5(84) 2021. 14-29-betlar.

10. Азизова С.Х., Муминов Н.Г. СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА. В сборнике: Перспективы современной науки и образования. Материалы всероссийско научно-практической конференции с международным участием. Отв. редактор А.А. Зарайский. Саратов, 2022. С. 10-18.

11. Kholmatjonov F. M., Muminov Nozim Gaffarovich. FEATURES OF STATE REGULATION IN THE FIELD OF TOURISM IN FOREIGN COUNTRIES. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions- RJAI. Volume 4, Issue 4 April, 2023 pp. 273-279.

12. Inatov M.N., Xolnazarova L.S. Maxammadiyeva S.I. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan o‘quv - uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, ToshDTU, 2021. 83 b.

13. 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.

14. https://kun.uz/uz/news/2024/02/03/boqiy-buxoro-tarixiy-etnografik-parki-loyihasi-elon-qilindi-fotolar?ysclid=lseduenfyz870757633

15. https://telegra.ph/Buhoroda-Boқij-Buhoro-tarihij-ehtnografik-parki-barpo-ehtiladi-02-03

16. Turkiy davlatlar tashkilotining turizm sohasi vakillari yig‘ilishi yakunlandi. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/turkiy-davlatlar-tashkilotining-turizm-sohasi-vakillari-yigilishi-yakunlandi?ysclid=lso85qctbb757536603

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti portali. Turizmni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tildi. 29.03.2023.https://president.uz/oz/lists/view/6095

ECONOMIC SITUATION IN UZBEKISTAN DURING THE RECONSTRUCTION YEARS (1985–1991)

Orzieva Kamola Sayidmurodovna,
Bukhara State University, PhD student in the Department of Archaeology and History of Bukhara.
Orcid.org/0009-0005-4213-0684

Abstract: The article highlights the reforms carried out by the Soviet Union in 1985–1991, reconstruction policies, and certain aspects of this process, in particular economic necessity and stages of reform. The impact of the processes taking place during this short period on the socio-economic life of Uzbekistan has been scientifically analyzed.

Key words: reconstruction, Soviet power, economic system, agriculture, reforms, governance.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ РЕКОНСТРУКЦИИ (1985-1991)

Орзиева Камола Сайидмуродовна,
Бухарский государственный университет, PhD студент кафедры Археологии и Истории Бухары

Аннотация: В статье освещены реформы, проводимые Советским Союзом в 1985-1991 годах, политика реконструкции и отдельные аспекты этого процесса, в частности, экономическая необходимость, этапы реформ. Научно проанализировано влияние происходящих за этот короткий период процессов на социально-экономическую жизнь Узбекистана.

Ключевые слова: реконструкция, советская власть, экономическая система, сельское хозяйство, реформы, управление.

QAYTA QURISH YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IQTISODIY HOLAT (1985-1991- YILLAR)

Orziyeva Kamola Sayidmurodovna, Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi maqsadli tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Sovet Ittifoqining 1895-1991-yillar davomida amalga oshirgan islohotlari, qayta qurish siyosati va ushbu jarayonning ayrim jihatlari, xususan, islohotlarning iqtisodiy zarurati, bosqichlari sharhlanadi. Ushbu qisqa davr ichida sodir bo‘lgan jarayonlarning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ta’siri ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: qayta qurish, sovet jamiyati, iqtisodiy tizim, xo‘jalik, islohot, boshqaruv.

Introduction. In the mid-1980s, the notion of “reconstruction” emerged in the Union, with the goal of transforming the authoritarian rule via reform. Many facts suggested that by the beginning of 1985, the USSR was in a serious socio-economic and political crisis; true socialism had not been implemented [1.p54]. The goal of this program was to address the country’s socio-political issues as well as economic challenges and weaknesses via reconstruction. As a result, throughout the reconstruction years, several tasks were assigned with the goal of eradicating economic weaknesses and dramatically improving the sphere.

Even after the defeat, the social reforms undertaken by the rebuilding strategy, as well as the republic’s economic issues, remain relevant. Reconstruction and succeeding procedures demonstrated that hasty changes could not alleviate socio-economic problems in society.

Analysis and Methodology for Literature. Researchers continue to study the Uzbek SSR’s economy, industry, and national economy throughout the reconstruction years, as well as the difficulties and weaknesses in the industry and economy subordinate to the Center’s interests.

Research and scientific literature on the subject of this article may be explored using studies done during the Soviet era, as well as vital facts covered by historians throughout the years of freedom. The article’s theme was primarily studied using resources from the periodical press (Правда Востока, Совет

Узбекистони, Тошкент ҳақиқати), published papers, and official statistics data (Plenum and Congress decisions). Periodicals, source foundations, and theoretical and methodological approaches were all given careful consideration while categorizing literature.

Results and Discussion. The theoretical facts and evidence gathered for this study indicate the challenges and weaknesses that occurred in the Uzbek SSR's economy throughout the rebuilding phase. It will also contribute to a better understanding of the history of the Soviet government's economic policies. The scientific and theoretical value of the research findings stems from the study of Soviet Uzbekistan's history via historical documents and sources, which examined the role of rebuilding policy in the republic's socio-economic existence.

The contradiction of the Soviet Union's public administration system, established on administrative command, with the needs of the country's growth resulted in several economic challenges. In particular, an endeavor was made to reform the economic management system in accordance with the CPSU Central Committee Plenum's resolutions in September 1965. The party proposed a strategy for increasing company independence while also fully funding commodity-money relations [2.p5].

The job of strengthening the public administration system has been begun, but it has yet to be finished. In the 1970s, the rate of socio-economic growth slowed, and goals for the ninth and fifth years were not realized. This was owing to the national economy's failure to recognize the need for faster growth, as well as a lack of focus on strengthening public administration. Thus, the 1970s and 1980s were marked by socio-economic inconsistencies. In the 1980s, efforts to identify and eradicate the sources of the rising economic crisis were futile. Since 1985, when M.S. Gorbachev became Secretary General of the CPSU Central Committee, the topic of Soviet society's transformation - a comprehensive reform of all aspects of public life - has been discussed in the April Plenum. These political developments occurred in Uzbekistan, as in other national republics. The economy was in a bad shape at the time. Its indices were steadily declining, and five-year goals for national economic development were not carried out. For example, at the start of the year, industrial output growth was just 2%, trailing industries such as oil, metals, energy, and transportation [3.p2]. Many manufacturing teams transitioned to self-accounting. However, no socio-economic indicators have shown good effects.

Due to the lack of problems in the socio-economic sphere of the Central Committee of the CPSU in the project "The main directions of economic and social development of the USSR for 1986-1990 and for the period up to 2000," [4.p18-19] approved at the Plenum of the Central Committee of the CPSU in October 1985, including an increase in national income in the Uzbek SSR by 19-22%, an increase in industrial product production by 21-24%, saving the country's fuel and energy resources. However, the "reconstruction" policy was ineffective in practice. The number of ministries and departments, including heads and deputies, has also expanded, with each having the authority to accept and issue papers based on affiliation. This reduced managerial efficiency. The managerial apparatus expanded, and for a long period, some critical tasks went unfinished. The system of departmental and sectoral administration has harmed the integrated and balanced development of areas [5.p14].

In Uzbekistan, an integrated response to current challenges is very important. In particular, such aims as the technological renewal of the country's production base, the modernization of production, an increase in the manufacture of machinery and equipment (not due to the development of the enterprise's operations), and the implementation of state control over the quality of products are determined.

Furthermore, it was intended to elevate economic cooperation inside the Union to unprecedented heights. Based on this, it was required to immediately reverse adverse economic trends and, as stated in official documents, accelerate the country's socio-economic growth and provide the economy with the necessary energy, depending on the capabilities and benefits of socialism.

"Reconstruction means decisively eliminating the processes of stagnation, creating an effective mechanism for accelerating the socio-economic development of Soviet society [6.p2]," M.S. Gorbachev stated in his January 1987 report to the Plenum of the CPSU Central Committee. Accordingly, the task was set to double output potential and nearly double national revenue as a result of the qualitative transformation. Furthermore, the investment program anticipated significant changes such as the acceleration of technological re-equipment for firms. However, none of this was backed by a specific program. During this time, there are negative occurrences and tendencies that, when combined, cause major imbalances in the structure of social production, worsening of environmental, demographic, and

economic circumstances, and a decline in the republic's standard of life.

Since 1988, agricultural production has been declining overall, and the drop in industry began in 1989 [7.p8]. Official estimates show that in 1989, the budget deficit topped 100 billion rubles. In June 1990, the USSR's Supreme Soviet issued a progressive resolution titled "On the concept of regulating a market economy" [8.p1-2].

However, in actuality, the adoption of such measures and regulations allowing for the leasing of industrial firms, a gradual monopoly and denationalization of property, and the formation of joint-stock corporations was postponed till 1991. In general, reconstruction did not provide the intended results. Thus, the socio-economic and political conflicts that have emerged since the Soviet Union's establishment as a totalitarian state have accumulated and developed over the course of more than seventy years. The fall of the USSR resulted in the emergence of several independent republics, including the Republic of Uzbekistan.

Conclusion. From the start, the notion of reconstruction was unknown and lacked a thorough scientific examination and understanding of the lifestyle, interests, and issues of the Union republics. During a short historical period (1985-1989), known as the "period of reconstruction and openness," existing shortcomings, mistakes, and problems in political and socio-economic life, especially when conducting the mechanisms of public administration and the economy in the old way, can simply be changed to the production order or not [9.p55]. Reconstruction did not contribute to the complete solution of the problems accumulated in the USSR. Ultimately, this served as a certain impetus for the collapse of the CPSU and the collapse of the USSR. However, he influenced the new political situation in the Uzbek SSR. Thus, the policies pursued during the Union period were:

- The intensification of the economic crisis, starting in the 1980s of the last century, led to a decline in production and disruption of sectors of the national economy;
- The dominance of the centralized planned economic system did not make it possible to effectively organize economic life in the republic.
- As a result of the unfair distribution of resources and investments without taking into account the capabilities of Uzbekistan and the reorientation of the national economy to the production of raw materials, socio-economic problems have accumulated.
- reconstruction policy aimed at finding a way out of the crisis has led to the complication of socio-economic conflicts in society.

Refecenses

1. Radjabov K. Reconstruction and its influence on the formation of a new political and ideological situation in Uzbekistan. ASU. Scientific Notice. 2014. № 2, p-54.
2. Рўзиев Ф., Агабаев А. Проблемы перестройки структуры экономики Узбекистана // Общественные науки в Узбекистане. - 1989. - № 3. – С. 5.
3. Тошкент ҳақиқати, 1985 йил 24 апрель.
4. Decision of the XXVII Congress of the CPSU on the main tasks of the economic and social development of the USSR for 1986–1990 and the period up to 2000. T.: Uzbekistan, 1986, Art. p-18-19.
5. Шодиева С. Совершенствование государственного управления экономикой в условиях перестройки // Общественные науки в Узбекистане. - 1989. - № 3. – С. 14.
6. Совет Ўзбекистони, 1987 йил 28 январь.
7. Allbest.ru. Причины неудачи модернизации СССР в ходе перестройки 1985-1991 гг. 2019 г.
8. Правда Востока, 17 июня 1990 г.
9. Burieva Kh. On restructuring in Uzbekistan and aspects of the dental period //History of independence of Uzbekistan: socio-political, economic, and cultural factors of the 1980-1990s. Scientific collection., - T.: Turon, 2019. Article p-55.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

TEMPERAMENT VA TIL-NUTQ ALOQADORLIGI XUSUSIDAGI MULOHAZALAR

Abdullayeva Rohila Yusufjon qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, (PhD)

Annotatsiaya: Ushbu maqolada temperament tushunchasining til va nutq bilan aloqadorligi, mazkur aloqaning nutqning qaysi jihatlarida aks etishi, tashqi muhit va temperament, tashqi muhitning temperamnentga ta’sir qiluvchi jihatlari haqida so‘z yuritilgan. Nutqiy nuqson va uni da’volash muhitida temperamentning roli xususidagi qarashlarga munosabat bildirilgan. Til o‘zlashtirish jarayonida temperamentning roli xususidagi qarashlarga munosabat bildirilgan. Temperament bilan yondosh hodisalar qo‘zg‘alish, xotira va qayta ishlash jarayonlarida temperamentning vazifalari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: temperament, til, nutq, nutqiy nuqson, qo‘zg‘alish, xotira, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, ma’lumotlarni qayta ishlash

CONSIDERATIONS ON THE RELATIONSHIP OF TEMPERAMENT AND LANGUAGE

Abdullayeva Rohila Yusufjon qizi,
Associate Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, (PhD)

Abstract: This article talks about the relationship between the concept of temperament and language and speech, which aspects of this relationship are reflected in speech, the external environment and temperament, and the aspects of the external environment that affect temperament. Views on the role of temperament in the environment of speech impairment and its claim are expressed. Views on the role of temperament in the process of language acquisition are discussed. Temperament-related phenomena talk about the functions of temperament in arousal, memory, and processing processes.

Key words: temperament, language, speech, speech disorder, arousal, memory, reading comprehension, listening comprehension, information processing

СООБРАЖЕНИЯ О ВЗАИМОСВЯЗИ ТЕМПЕРАМЕНТА И ЯЗЫКА

Абдуллаева Роҳила Юсуфжон қизи,
доцент Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, (PhD)

Аннотация: В данной статье говорится о связи понятия темперамента с языком и речью, какие стороны этой связи отражаются в речи, внешней среде и темпераменте, а также аспекты внешней среды, влияющие на темперамент. Высказаны взгляды на роль темперамента в условиях нарушения речи и его требования. Обсуждаются взгляды на роль темперамента в процессе овладения языком. Феномены, связанные с темпераментом, говорят о функциях темперамента в процессах возбуждения, памяти и обработки информации.

Ключевые слова: темперамент, язык, речь, речевые нарушения, возбуждение, память, понимание прочитанного, понимание на слух, обработка информации.

Temperament uzoq yillar davomida tadqiqot obyekti doirasida bo‘lgan va bu jarayon davom etmoqda, turli fanlar, sohalarda turli jahbalari yoritilgan. Jumladan, hodisa tilshunoslik doirasida ham tadqiq obyekti sifatida belgilanib, tiplarning nutqiy xususiyatlarini birlashtirish, yozma va og‘zaki nutqda ifodalanishi, til o‘zlashtirish jarayonidagi roli kabi bir necha masalalar yuzasidan izlanishlar olib borilgan. O‘zbek tilshunosligida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda nutq va temperament bog‘liqligi[5], uning og‘zaki va yozma nutqda namoyon bo‘ladigan jihatlari, ma’lum temperamentga xos bo‘lgan leksikonni aniqlash, temperamentning nutqiy xususiyatlarini umumlashtirishga urinishlar bor.

Rus olimi Rubinshteyn S.Lga ko‘ra, temperament eng birinchi navbatda psixik jarayonlarning

kechishida namoyon bo‘ladi. Kuch, tezlik, ritm, inson psixomotorikasi temperamentning namoyon bo‘lish shakllaridir[3]. Mazkur hodisalar insonning tashqi olam bilan aloqador bo‘lgan har qanday reaksiyasida, xatti-harakatlarida, shu jumladan, nutqida ham namoyon bo‘ladi. Demak, Rubinshteynga ko‘ra nutqning tashqi faktorlari: nutq tezligi, ritmi va tempi, balandligi temperament ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin. Chunki tezlik, temp masalasi nutqning ayni shu jihatlariga muvofiq keladi. Tabiiyki, temperamentnning tashqi, inson tomonidan sezgi a’zolari orqali qabul qilish mukin bo‘lgan faktorlari bilan bir qatorda uning ichki, asab tizimi bilan aloqador jihatlarini bor. Chunki temperament tashqi hodisa sifatida namoyon bo‘lishidan avval inson ruhiyatida ma’lum maqomda bo‘lishi kerak. Rubinshteyn temperamentning fiziologik asosini miyaning neyrodinakimasi bilan bog‘laydi. Tabiiyki, bu jarayon asab qo‘zg‘aluvchanligi, refleks kabi tabiiy jarayonlar bilan bog‘liq. Olim asab tizimining reflekslarga munosabatiga ko‘ra 4 turini ajratadi:

-kuchli, muvozanatli, munosabatga tez kirishuvchi – jo‘shqin tip;

-kuchli, muvozanatli, sokin – bosiq, sekin harakatlanuvchi tip;

-kuchli, qo‘zg‘alishlarga nisbatan muvozanatsiz – qo‘zg‘aluvchan, keng tarqalgan tip;

-kuchsiztip.

Rubinshteyn temperamentning nutqdagi roli haqida so‘z yuritar ekan, uni bevosita jarayon bilan aloqador tushunchalar asab tizimi, xarakter, tashqi faktorlar bilann aloqador holda o‘rganadi. Temperamentning nutq jarayoniga ta’sirini inkor qilmagan holda uni nutqni shakllantiruvchi asosiy hodisa sifatida qo‘ymaydi. Nutq va uning ijro mexanizmi har doim tashqi omillarga tayangan holda amalga oshiriladi. Inson nutqiy kommunikatsiyani amalga oshirar ekan, unda ko‘zda tutilgan niyatni to‘laqonli amalga oshirish uchun tabiiy sharoit va auditoriyani, zamon va makonni, tinglovchilarning yosh, jins, h. xususiyatlarini inobatga olishi lozim. Yuqorida keltirilgan ichki va tashqi omillarni inobatga olmagan holda tuzilgan har qanday nutqiy aktning samaradorligi tushishi tabiiy hol. Demak, bir temperament vakiliga xos bo‘lgan, takrorlanuvchi shablon yoki leksikon xususida so‘z yuritish qiyin.

Olim Robin Michael Jones temperamentning til va nutqdagi roli xususidagi savolga javob berar ekan, tilda temperamentning 4 xususiyati haqida fikr yuritadi[2]. Jonesga ko‘ra, temperament til va nutqning tartibiga ta’sir qiladi. An’anaviy nutq odatiy tartibda kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. Insonlar tomonidan jonli kommunikatsiya jarayoni aksar shu tartibda yoki uning replikalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jones nazarda tutgan tartib, fikrlar oqimining quyilib kelishi oqibatida tezlashgan, zichlashgan, ma’lum bir qismlari tushib qolgan yoki o‘zaro o‘rin almashgan tartib bo‘lishi mumkin. Chunki agar Rubinshteynga murojaat qiladigan bo‘lsak, xolerik va sangviniklar yuqori qo‘zg‘aluvchanlikka ega tip. Tabiiyki, yuqori qo‘zg‘alish har doim tezkor temp, kuchli ritm va ohangga ega bo‘ladi. Qo‘zg‘alishning yuqori bo‘lishi o‘z navbatida fikr oqimning ham tilga ko‘chishiga ta’sir qiladi. Yoki, aksincha, qo‘zg‘alishning sekin kechishi nutq oqimining ham shu tartibda kechishiga sabab bo‘ladi. Odatda, o‘ta tez ijro qilinadigan nutq inversiyalarga boy bo‘ladi. Chunki nutq tezkorlik bilan aytilganda birinchi navbatda birinchi darajali bo‘laklarga, gapning asosiy mazmunini yoritishga qaratilgan jihatlargaahamiyat qaratiladi. Keyin esa ikkinchi darajali bo‘laklar keltiriladi. Bizningcha,mazkur omil ham Jones nazarda tutgan til tartibi masalasiga doxil.

Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz joizki, til va nutq buzilishi tushunchasi sog‘lom odam nutqiga nisbatan tartib va nutqning boshqa talaffuz bilan aloqador faktorlari bilan bog‘lansa, nutqiy nuqsonli inson nutqiga nisbatan boshqa mazmun kasb etadi. Nutqiy nuqsonlar odatda bosh miyaning nutqiy faoliyatni amalga oshirishga javobgar zonalari yoki nutq apparatiga yetgan shikast yoki tug‘ma nuqson asosida mavjud bo‘ladi. Temperament nutqiy nuqsonlarni da’volash mumkin bo‘lgan jarayonlarda ma’lum rolga ega bo‘lishi mumkin. Bu jarayonni tashkil qilishdagi qat’iyat, tez o‘zlashtirish va qayta ishlash, xotirada saqlab qolishning ma’lum roli bor. Biroq temperament nutqiy nuqsonlarni da’volash muhitidama’lum rol o‘ynamaydi.

Jonesga ko‘ra, kommunikatsiya jarayonidagi yomon til tajribasi temperamentga va ayni vaqtda hissiy jarayonlarga ta’sir qiladi va bu omil ham o‘zini tilda namoyon qiladi. Umuman olganda, kommunikatsiya jarayonida orttirilgan tajriba ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’iy nazar, u individning til tajribasida ma’lum bir iz qoldiradi. Nutqiy akt bevosita tashqi faktorlar – nutq so‘zlanayotgan vaziyat, jarayon, auditoriya (yoshi, jinsi, qiziqishlari va h.) bilan bog‘liq ekan, so‘zlovchidan o‘z nutqini mazkur hodisalarni inobatga olgan holda shakllantirishni talab qiladi. Insonning nutq ohangi, nutq tezligi va balandligi har qanday nutqiy sharoitda ham saqlanib qolmaydi. Demakki, bir temperamentga ega shaxsning nutqida har qanday nutq sharoitida namoyon bo‘ladigan barqaror ko‘rsatkichlar haqida fikr yuritish mushkul.

Masalaning ikkinchi jihati bu temperament tushunchasining barqaror hodisa emasligida. Muallifga ko‘ra, til tajribasining o‘zgarib borishi temperament va hissiy qo‘zg‘alishlarning ham o‘zgarib borishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, temperament tushunchasi nisbiy xarakterga ega. Uning nutqiy xususiyatlari ham nutqiy moslashuvchanlik xususiyatiga ega. Modomiki, inson tashqi sharoit asosida o‘zgarib borar ekan, uning nutqi ham shu holatda bo‘ladi.

Jones nutqiy nuqson va temperament xususida so‘z yuritib, ularning o‘zaro bog‘lab turuvchi jihatlar borligi haqida mulohaza yuritadi. Biroq muallifning fikrlari to‘ldirilmagan. Ayni vaqtda davom etayotgan tadqiqotlar ayni masalani yoritishga qaratilganligini ta’kidlangan. Bizningcha, temperament va nutqiy nuqson masalasi aniq ilmiy tajribalarni taqozo qiladi. Past qo‘zg‘aluvchi temperament egalarida nutqni tashkil qilish masalasidagi qiyinchiliklarni inkor qilib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda nutqiy nuqsonlarni yengishda temperamentning roli masalasi ham mavjud.

Jonesga ko‘ra, temperament va nutq-til, nutq-til buzilishlari masalasi jins singari uchinchi hodisa asosida ham tahlil qilinishi mumkin. Temperament va jins masalasi turli sohalarda, xususan, psixologiyada uzoq yillar davomida tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan. Bu masaladagi qarashlarni ikki yirik guruhga ajratish mumkin[1]. Birinchi qarash vakillari temperamentning jins bilan aloqadorligi inkor qiladi. Nazariyaga muvofiq, temperament individ bilan aloqador tushuncha bo‘lib, uni faqat bir shaxsga aloqador hodisa sifatida talqin qilish lozim. Ikkinchi tomon qarashlariga ko‘ra temperament jins bilan aloqador. Bolalik davrida temperamentda jinsiy farqlanish keskin farq qilmaydi. Inson ulg‘aygani sari o‘z jinsi uchun muhim bo‘lgan temperament ko‘rsatkichlarini ham ko‘proq ko‘rsatishni boshlaydi. Masalan, tajribalarda ayollarga xos bo‘lgan xususiyatlar – tez sotsial moslashuvchanlik, hissiyotlarga berilish yuqori ekanligi isbotlangan. Hissiy barqarorlik borasida ham jinslar kesimida tafovut bor. Tabiiyki, jins vakillarida ma’lum bir xususiyat ustuvorlik qilar ekan, uni tilde aks ettiruvchi birliklar ham jarayonga mos holda bo‘ladi. Erkak va ayol nutqiga xos bo‘lgan birliklarni ajratish, bu leksikonlarni alohida tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilish masalasi o‘zbek tilshunosligi uchun ham yangilik emas. Biroq til va temperament, jins aloqadorligi borasida tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bizningcha, ayol va erkak til tajribasini tekshirish asnosida ikki jinsda ustunlik qiladigan asosiy temperament ko‘rsatkichlarini va shunga muvofiq til xususiyatlarini tahlil qilish mumkin.

Temperament va til o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatishda ona tili va xorijiy tilni o‘zlashtirish bilan aloqador bo‘lgan tadqiqotlar alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotchilar[4] ilk bolalik davrida til o‘zlashtirish haqida so‘z yuritishar ekan, asosiy e’tiborni bola-jamiyat juftligiga qaratadilar. Albatta, go‘dak haqida so‘z borar ekan keng jamiyat haqida so‘z yuritib bo‘lmaydi, bu davrda bola asosiy tilga taqlid qilish jarayonini ona nutqini tinglash orqali hosil qiladi. Bolaning so‘z boyligini ikki yoshidan boshlab o‘lchash mumkin. Bu vaqtgacha, tabiiyki, unga til haqida axborot beruvchi, asosiy manba uning onasi yoki onasi vazifasini bajaruvchilar hisoblanadi. Demakki, til o‘zlashtirish jarayonining boshlanishi bosqichma-bosqich jamiyatdan nutqiy ko‘nikmlarni olib borishdan boshlanadi, ma’lum muddatga kelib jarayonga til bilimlarini berishga qaratilgan ta’lim ham qo‘shiladi. Biroq mutaxassislarga ko‘ra[4], ona tili va chet tilini o‘zlashtirish jarayonida temperamenrning rolini keskin inkor qilib bo‘lmaydi. Chunki til o‘zlashtirish jarayoni diqqat bilan uzviy bog‘liq. Diqqatni jamlash va yo‘naltirish masalasi temperament turlarida o‘zaro farqlanadi. Jumladan, xolerik tipi kuchli yo‘naltirilgan diqqat bilan xarakterlanadi. Faoliyatda diqqatni yo‘naltirilgan hodisaga uzoq vaqt qaratib tura oladi. Natijada, tabiiyki, qay sohada yoki jarayonda bo‘lmasin, amalga oshirilgan ish samarali yakun topadi. Sangvinik tipida ham diqqatni yo‘naltirish masalasi – ijobiy, biroq xolerik tipidan farqli ravishda barqarorlik kasb qilmaydi. Natijada bir faoliyat turidan tezda ikkinchisiga o‘tish istagi paydo bo‘ladi. Bu tipda ham ishni samarali tashkil qilinishiga erishish mumkin, biroquni yakunlamaslik holatlari ko‘p uchraydi. Flegmatik tipida ham diqqat barqaror, biroq uni jarayonga yo‘naltish, yangi bilim-hodisalarni o‘zlashtirish jarayoni sekin kechadi. Biroq qabul qilingan ma’lumot uzoq vaqt saqlanib qoladi. Melanxolik tipida diqqatni jamlash va ma’lum bir hodisaga qaratish jarayoni sekin va og‘ir kechadi. Tabiiyki, diqqatni yo‘naltira olish va barqarorligini saqlash, nutqni o‘qib va tinglab tushunish jarayonida muhim. O‘qib va tinglab tushunish jarayini samarali kechishi asnosida og‘zaki va yozma nutq rivojlanib boradi. Demak, temperamentning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri diqqat til o‘zlashtirish jarayonida ma’lum rol o‘ynaydi. U til o‘zlashtirish jarayonining samaradorligi, tezligi bilan bog‘liq. Diqqat barqaror va uzoq vaqt bo‘linmaydigan tip egalari tilni osonroq o‘zlashtiradilar. Diqqat barqaror bo‘lmagan tipda ham til o‘zlashtirish jarayoni amalga oshiriladi, biroq jarayon sekin kechadi va diqqatning bo‘linuvchanligi oqibatida murakkablik kasb etadi.

Til o‘zlashtirish jarayonida inobatga olinishi lozim bo‘lgan ikkinchi muhim jihat bu – xotira.

Temperamentning turlarida xotira o‘zaro farqlanadi. Til o‘zlashtirish jarayonida xotira muhim ahamiyatga ega. Chunki kodlash va dekodlash asosida amalga oshiriladigan kommunikatsiyada tinglovchi qabul qilgan ma’lumotni qayta ishlaydi. Bunda matnning mazmunini ochishga qaratilgan, ko‘chma ma’noli, ramziylik kasb qilgan yoki kesatiq, piching, kinoya tarzida keltirilgan jumlaning ma’no-mazmunini tushunish nazarda tutiladi. Qayta ishlangan axborot ma’lum muddat xotirada saqlanadi. Nutqiy akt talabi yoki ma’lum bir stimul bilan nutqga ko‘chadi. Ongda til zaxirasi sifatida mavjud bo‘ladi. Xotiraning barqarorligi boy til zaxirasini ta’minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, temperament inson psixik ko‘rsatkichlarining bir turi bo‘lib, beqarorlik kasb etadi. U tashqi muhit ta’sirida o‘zgarishga uchraydi, doimiy ravishda o‘zgaruvchanlik xususiyatini aks ettiradi. Istiloh negizida aks etgan “aralashma” so‘zi ham aynan shu mazmunni anglatadi. Temperament nutqning xususiyatlariga ta’sir qiladi. Biroq nutqning tashqi xususiyatlari ham nutqiy vaziyat talabidan kelib chiqqan holda namoyon bo‘lishini inobatga oladigan bo‘lsak, temperament belgilari nutq orqali doimiy namoyon bo‘lmaydi.

Temperament nutqning vujudga kelishida asosiy omil hisoblanmaydi. Chunki til tajribasi insonda yillar davomida soddadan murakkabga borish tamoyili asosida boyib, kengayib boradi. Inson tilni ijtimoiy muhit ta’sirida o‘zlashtiradi. Biroq tilni o‘zlashtirish jarayonida temperamentning rolini inkor qilib bo‘lmaydi, jumladan, nutqni tushunish jarayoni diqqat, xotira, qo‘zg‘alish kabi temperament xususiyatlari bilan aloqador. Barcha temperament tiplarida nutqni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi, ular bir-biridan qabul qilish jarayonining tez yoki sekin kechishi, jarayonga kirishishning xususiyatlari bilan farqlanishi mumkin. Biroq temperament va til, nutq munosabatlari xususidagi izlanishlar tajriba amaliyotiga muhtoj. Shu jumladan, o‘zbekcha nutq va temperament aloqadorligini asoslash jarayoni ham tajribaviy tadqiqotlarni taqozo qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Грошев И.В. Половые различия в проявлениях свойств темперамента / Вестник РУДН Педагогика и психологияю 2004. № 2

2. Robin Michael Jones. Temperament and Its role in speech and language disorders. https://speechpathology-the-experts/temperament-and-it-s-rrole-3029

3. Рубинштейн С.Л. Учение о темпераменте / Библиотека. https://www.psychology-online.net/49

4. Spinelli, Prachi E.Shah, Giuliana Genovese, Tiziana Aureli The Influence of Early Temperament on Language Development / The Moderating Role of Maternal Inpu, 2018.

5. To‘rayeva D.A. Shaxs xarakterining nutqda voqelanish mexanizmi / So‘z san’ati xalqaro jurnali, 2020, № 1.

INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA “KAYFIYAT” KONSEPTI VERBALIZATORLARINING LINGVOKULTUROLOGIKJIHATLARI QIYOSIY TAHLILI

Abdusattorova Begoyim Po’latjon qizi,
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti va o‘qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqola ”kayfiyat” konsepti va uning universal tabiatiga bag’ishlanngan bo’lib, ingliz va o’zbek tillarida “kayfiyat” tushunchasining sathlararo verbalizatorlarining lingvokulturologikjihatlari qiyosiytahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Hissiy ma’nolar,konsept,kayfiyat, salbiy his-tuyg’ular, lingvokulturologiya, “ijobiy kayfiyat”,lingvomadaniy birlik, o’xshatish.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE LINGUOCULTUROLOGICAL ASPECTS OF VERBALIZERS OF THE «MOOD» CONCEPT IN ENGLISH AND UZBEKI

Abdusattorova Begoyim Po’latjon qizi,
PhD student and teacher of Andijan State Institute of Foreign Languages,

Abstract: This article is devoted to the concept of «mood» and its universal nature, and the linguistic and cultural aspects of inter-level verbalizers of the concept of «mood» in English and Uzbek languages are comparatively analyzed.

Key words: Emotional meanings, concept, mood, negative emotions, linguoculturalism, «positive mood», linguistic and cultural unity, simile.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ВЕРБАЛИЗАТОРОВ КОНЦЕПТА «НАСТРОЕНИЕ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Абдусатторова Бегойим Пўлатжон қизи,
аспирант и преподаватель. Андижанского государственного института иностранных языков.

Аннотация: Данная статья посвящена концепту «настроение» и его универсальной природе, а также сопоставительно анализируются лингвокультурологические аспекты межуровневых вербализаторов понятия «настроение» в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: Эмоциональные значения, концепт, настроение, отрицательные эмоции, лингвокультурализм, «положительное настроение», лингвокультурное единство, сравнение.

Hissiy ma’nolar moslashuvchan hamda o‘zgaruvchan bo‘lib leksik semantikada namoyon bo‘ladi. Ular insoniy his-tuyg’ular haqida ma’lumot olib boradilar; ular turli til va nutq birliklari mazmunida shu birliklarga xos ixtisoslashgan semantik komponentlar shaklida namoyon bo‘ladi. Binobarin, ular emotsional lug’atning semantik o’zagini tashkil qiladi. Emotsional ma’nolarning leksik namoyon bo’lishi, qoida tariqasida, «sevgi - yoqtirmaslik», «quvonch - qayg’u»(«love – dislike», «joy – grief») va boshqalar kabi semantik / konseptual qarama-qarshiliklar tamoyiliga muvofiq tuzilgan.

Hissiyotlar universaldir va hissiy lug’atning tuzilishi turli tillarda bir-biriga mos kelmaydi, u milliy o’ziga xos xususiyatlarga ega. Shu munosabat bilan leksik semantikada universal emotiv ma’nolar mavjud. Hissiy lug’at baholovchi lug’at bilan chambarchas bog’liq, ammo emotsional lug’atni o’rganish uchun baholovchi so’zlarni tanlash maqsadga muvofiq emas. U so’z semantikasida his-tuyg’ularning namoyon bo’lishida ishtirok etadi.

When he announced the date of his sailing and she could not contain her joy.

Bu gap “ijobiy kayfiyat” semantikasini ham aktuallashtiradi, chunki shodlik nominal leksemasi o‘z ma’nosiga ko‘ra olamning individual manzarasining uyg‘unligini ko‘rsatadigan ijobiy zaryadga ega bo‘ladi.

Yuz ifodasining o’zgarishini (noverbal omil) bildiruvchi qovog’ini burishtirdi (frown) bu gapda yomon kayfiyatni tavsiflovchi salbiy adekvatlikni ifodalaydi. Agar unga “Darkly” qo’shimcha qo’shilsa hissiy holatni kuchaytiruvchisi bo’lib, ichki uyg’unlik yo’qligi belgisini aktuallashtiradi, ya’ni «salbiy kayfiyat» semantikasini amalga oshiradi.

“She gave a cry of despair” misolini oladigan bo’lsak gapga salbiy kayfiyat semantikasiga sabab bo‘lishni aktuallashtiruvchi noumidlik (despair) nominal leksemasi kiradi. Nominal leksema faryodi orqali ichki holatning fizik ifodalanishi boshdan kechirilgan hodisaning chuqurligini ko`rsatadi.

Ingliz tilining hissiy vositalarini ko’rib chiqishda gender roliga ko’ra farqlash ham mumkin, chunki erkak va ayolning kayfiyatini tavsiflash ko’p hollarda turli xil lingvistik vositalar bilan sodir bo’ladi. Quyidagi leksik birliklar bilan ifodalangan misollar orqali ayollar va erkaklar o’rtasidagi farqni ko’rib o’tamiz:

Ayollarda

1. Faqat emotsionallikni o’z ichiga olgan ta’sirlar; Indeed! Good! Monstrous! Devil! Fool!
2. Hissiy ma’nolar bo’lgan konnotativlarning asosiy mantiqiy-ob’ektiv ma’nosi:

a. Hissiy-baholovchi lug’at: Wonderful! Perfect!

b. Hissiy jihatdan kuchaytiruvchi lug’at: Nonsense! Incredible! Horrible!

3. Emotsional ta’sir kuchayish tufayli erishiladigan ekspressivlar: Interesting! All right! burst out laughing, burst into tears, burst out crying.

4. Slengizmlar, jargonlar, vulgarizmlar: Bullshit!

Erkak tipiga ko’ra hissiy leksemalar quyidagi leksik birliklar bilan ifodalanadi:

Faqat hissiy semalarni o’z ichiga olgan affektivlar: Alas! Damn! Aha! Wash-wash! Oh!

2. Hissiy ma’no asosiy mantiqiy va predmet qiymatiga hamroh bo’ladigan konnotativlar:

A. hissiy-baholovchi lug’at: very good, nice

B. hissiy kuchaytiruvchi lug’at: Nonsense! Evident! Trash!

3. Ta’sirchan, hissiy ta’sirga ushbu tasvir, kuchaytirish orqali erishiladi: Interesting! All right! Bingo!

3. Slengizmlar, jargonlar, vulgarizmlar: Bullshit! What the fuck!

«Kayfiyat» semantikasini og’zaki bayon qilish uchun ko’pincha mavzuning kayfiyatini ko’proq ifoda etish uchun mo’ljallangan stilistik vositalar qo’llaniladi.

She burst into a flood of tears.

«Kayfiyat» semantikasini amalga oshirishda bir-biri bilan yaqin aloqada bo’lgan tovushning asosiy ohangining chastotasi, intensivligi, tempi, pauza, tembr kabi intonatsiya parametrlari tender ko’rsatkichi bo’yicha bir xil bo’lishi mumkin emas.

Frazeologiyada yagona nazariya ishlab chiqilmaganiga qaramay, frazeologik birliklarga xos bo’lgan bir qator xususiyatlarni ajratish mumkin.

- alohida shakllanish-frazeologik birlik majmuasi quyidagilardan iborat ikki yoki undan ortiq komponentlar

- kompozitsiyaning murakkabligi va bir nechtasini birlashtirish orqali hosil bo’lishi, mustaqil so’zlarning ma’nosini yo’qotadigan, ammo saqlaydigan tarkibiy qismlar hamda alohida urg’u tushadigan (Hold one’s hand)

-ajralmas ma’no odatda bitta so’z bilan ifodalanadi (Lose one’s heart)

Ye. yu. Myagkovaning so’zlariga ko’ra, hissiyotlarni verbalizatsiya qilish og’zaki jarayondir va u insonning hissiy tajribalari va holatlarni tavsiflaydi. Psixologlar og’zaki nutqning to’rt darajasini quyidagilarga asoslanib aniqlaydilar; inson o’z holati va tajribalarini qanchalik chuqur tushunadi va natijada ularni nutqda aks ettiradi. Bu quyidagi darajalar: «nol» daraja, ya’ni, og’zaki nutqning yo’qligi; birinchi daraja-umumlashtirilgan belgi his-tuyg’ular (I’m fine), bu darajaga tegishli jargon va jargon iboralarini juda umumlashtirilgan holda ishlatish mumkin; ikkinchi darajada – inson o’zi biladi va hissiy holatini u yoki bu usulda boshqaradi,hissiy lug’atdan foydalaniladi[3],(I’m ashamed); uchinchi daraja murakkablikni ifodalash sabablisabab-oqibat munosabatlari yaratilganda individual holatlar va hissiyotlarni verbalizatsiya qilish haqida bahslashish mumkin va bu odamning o’z tajribalarini qanchalik batafsil bilishiga bog’liq.Yuz ifodalarida, imo-ishoralarda, xatti-harakatlarda his-tuyg’ularning og’zaki bo’lmagan ifodasi universal xususiyatga ega .

Otli ta’rifiga ko’ra: «asosiy his – tuyg’ular fiziologik va mimik jihatdan aniq ifodalangan va biologik xususiyatga ega asos hisoblanadi. Olim beshta asosiy hissiyotni aniqlaydi. Misol uchun: anger, disgust, anxiety, happiness,sadness. K. E. Isard ushbu tuyg’ularni asosiy o’ntalikka kirgizadi: anger, contempt, disgust, distress,fear, guilt, interest, joy, shame, surpriseva ularni ijobiy va salbiyga (anger, sadness, disgust, for, shame, guilt) ajratadi. E. S. Yakovlev esa sakkizta asosiy his-tuyg’ular mavjudligi haqida gapirib o’tgan: acceptance, anger, anticipation , disgust , joy , fear , sadness, surprise.

Og’zaki uzatish usullari tuyg’ular, o’z navbatida, leksik (so’z birikmalari bilan), affiksal morfemalardan va sintaktik (elliptik konstruksiyalar, so’zlarning tartibini o’zgartirish) morfemalardan foydalaniladi. V. I. Shahovskiyning fikricha, tuyg’ularni verbalizatsiya qilish quyidagi lingvistik vositalar yordamida amalga oshiriladi[3].

1) hissiyotlar nominatsiyasi (o’z ichiga olgan leksik birliklar faqat ma’lum bir tushuncha hissiyotlar)

2) tavsif (tashqi tavsif ekspresiyalar: yuz, ko’z, lablar, pantomimika, ovoz tembri, intonatsiyalar)

3) eksplikatsiya (affektivlar orqali his-tuyg’ularni bevosita ifodalash, konotativlar va potensiativlar) .

Quvonch odatda inson ichki boshdan kechirgan ijobiy tuyg’u deb hisoblanadi. Quyida misollar bilan keltiirlgan;

Joy:

1. Great happiness, a deep feeling or condition of happiness;
2. A person or thing that causes joy, a source of happiness;
3. An outward show of pleasure or delight, rejoicing

Aksariyat frazeologik birliklarning ichki shakli asos qilib olingan quvonch va qayg’u hissiyotlarini ifodalashda ingliz tilidakognitiv metafora down/up so’zlari orqali antonimlik munosabati tushuniladi. Misol uchun: down in the dumps/mouth-xafa,umidsizlikda, be at rock bottom- tushkunlikka tushish, down in the doldrums-depressiya; ruhiy tushkunlikda.

Tasvirni yaratishning eng mashhur vositalaridan biri frazeologik birliklarni taqqoslash va ikkalasining o’ziga xos xususiyati hayvonlar orqali taqqoslab kuzatiladi: (as) happy as a lark, (as) happy as a clam ,be merry as a cricket , (as) happy as a possum up a gum tree ,to look like the cat that got the cream.

Hissiy semantikaga ega bo’lgan juda ko’p birliklarni tahlil qilish va ularning badiiy va tabiiy nutqiy muloqotdagi faoliyati emotivlikning uchta semantik holatini ochib berdi: 1) majburiy (denotativ) emotivlik holati; bu aslida so‘zning emotiv ma’nosi, uning lug‘aviy ma’nosining yagona komponenti; 2) so‘z ma’nosining mantiqiy-substantiv komponentiga nisbatan ixtiyoriylik holati, emotitivlik; bu so’zning haqiqiy ma’nosini tashkil qiladi; 3) potentsial emotsionallik maqomi, u so’zning emotsional salohiyatini tashkil qiladi. Tuyg’ularning bu tasnifidan ko’rinib turibdiki, bunday birliklar so‘zlovchining kuchli his-tuyg‘ularining ifodasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. A.Sodiqov, A.Abduazizov, M.Irisqulov “Tilshunoslikka kirish” Toshkent «O`qtuvchi», 1981
2. A.E.Mamatov, “Zamonaviy lingvistika” Toshkent, “Noshir” 2019.
3. A.Primov, X.Qodirova “Tilshunoslikning dolzarb muammolari”Urganch 2019
4. Zaxiriddin Muxammad Bobur. Boburnoma.”IJOD PRESS” 2019
5. R.Rasulov.” Umumiy Tilshunoslik”. Toshkent-2010.
6. Annete Susannah Beveridge. Baburnama a memoir.Rupa publications India Pvt. Ltd 2017.- 491 p.

ПОСЛОВИЦЫ И ИХ СМЫСЛОВЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Абдуллаева Нилуфар Насуллоевна,
Преподователь Бухарского государственного университета

Аннотация: Данная работа посвящена исследованию феномена пословиц как яркого проявления народной мудрости и культурного наследия. Как автор, мы предпринимаем попытку проанализировать разнообразные пословицы, выявить их смысловую глубину и применимость в различных контекстах. В ходе исследования освещаются история и функции пословиц, их роль в формировании мировоззрения и образа мышления человека. Также рассматривается использование пословиц в литературе, искусстве и повседневной жизни, а также их значение в современном обществе. Работа направлена на более глубокое понимание и ценность этого фольклорного жанра, а также на осознание его актуальности и важности в современном мире.

Ключевыеслова:Семантическийанализ,смысловаялаконичность,формальныехарактеристики, бинарная структура пословиц; синтаксис, архаичность, краткость, родичность, импликация пословиц.

PROVERBS AND THEIR MEANING WORKS

Abdullaeva Nilufar Nasulloevna,
Lecturer at Bukhara State University

Abstract:This work is devoted to the study of the phenomenon of proverbs as a vivid manifestation of folk wisdom and cultural heritage. As the author, we make an attempt to analyze various proverbs, identify their semantic depth and applicability in various contexts. The study highlights the history and functions of proverbs, their role in shaping a person's worldview and way of thinking. The use of proverbs in literature, art and everyday life, as well as their meaning in modern society, is also examined. The work is aimed at a deeper understanding and value of this folklore genre, as well as an awareness of its relevance and importance in the modern world.

Key words:Semantic analysis, semantic conciseness, formal characteristics, binary structure of proverbs; syntax, archaism, brevity, cognate, implication of proverbs.

MAQOLLAR VA ULARINING MA'NOLI ASARLARI

Абдуллаева Нилуфар Насуллоевна,
Преподователь Бухарского государственного университета.

Аннотация: Ushbu maqola xalq donishmandligi va madaniy merosining yorqin ifodasi sanalmish maqol janrini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif sifatida biz turli xil maqollarni tahlil qilishga, ularning semantik teranligini va turli kontekstlarda qo'llanilishini aniqlashga harakat qildik. Tadqiqotda maqollarning tarixi va vazifalari, ularning inson dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Maqollarning adabiyot, san'at va kundalik hayotda qo'llanilishi, zamonaviy jamiyatdagi ma'nosi ham o'rganiladi. Maqola ushbu folklor janrini chuqurroq anglash va qadrlashga, shuningdek, uning zamonaviy dunyoda dolzarbligi va ahamiyatini anglashga qaratilgandir.

Kalit so'zlar: maqollarning semantik tahlili, mazmuniy ixchamligi, formal belgilari, binar tuzilishi; maqollarning sintaksisi, arxaizmi, qisqaligi, o'zakdoshligi, ma'nosi.

Введение. Пословицы – это мудрые, краткие высказывания, накопленные и передаваемые народной мудростью из поколения в поколение. Они являются непререкаемым доказательством того, что мудрость не только присуща отдельным личностям, но и пронизывает культуру и коллективное сознание общества. В каждой посредством краткости и простоты слов, заключается богатство опыта и умения выживать в различных жизненных ситуациях.

Эти небольшие фразы имеют глубокий смысл, способный раскрывать мудрость в различных контекстах. Часто посредством посредством метафор и аллегорий они заставляют нас остановиться и задуматься над смыслом, заложенным в них. Они стали неотъемлемой частью культуры каждого народа, отражая его историю, ценности и уникальное видение мира.

В данной работе мы будем рассматривать не только сами по себе посредством, но и их

смысловые произведения в которых посредством выражается суть определенной пословицы. Мы сосредоточимся на том, как эти смысловые произведения помогают нам понять и применить мудрость, заключенную в народной мудрости, в повседневной жизни на основе сравнения с пятью пословицами, приведенными ниже.

Методы :

В данной работе для семантического анализа пословиц мы использовали следующие методы:

1. Лингвистический анализ: Изучение грамматической структуры и лексического состава пословицы для понимания её семантики.

2. Контекстуальный анализ: Изучение контекста, в котором используется пословица, чтобы понять её конкретное значение и применение.

3. Сравнительный анализ: Сопоставление пословицы с аналогичными или противоположными выражениями в других языках или культурах для выявления семантических аналогий или различий.

4. Когнитивный анализ: Изучение когнитивных процессов, лежащих в основе понимания и использования пословиц, таких как метафорическое или метонимическое мышление.

5. Этнографический анализ: Изучение культурных особенностей и обычаев, связанных с использованием пословиц в конкретной культуре или сообществе.

Комбинация этих методов позволил нам более полно и глубоко понять семантику пословиц и их роль в культуре и языке.

1. « C’est en forgeant qu’on devient forgeron » - « Ковка учит кузнеца », « Дело мастера учит », « Только через практику и повторение можно преуспеть в деле ».

2. « On ne fait pas d’omelettes sans casser les œufs » – « Как лес рубят – щепки летят », « Невозможно приготовить омлет, не разбив яиц », « Воды жалеть, и каши не сварить ».

3. « La vie est une échelle, les uns montent, les autres descendent » – « Жизнь – это лестница, одни идут вверх, другие – вниз ».

4. « Qui suit les poules apprend à gratter » – « Тот, кто следует за курами, учится чесаться ».

5. « Mieux vaut aujourd’hui un œuf que demain un bœuf » – « Лучше синица в руках, чем журавль в облаках ».

6. « Vis comme si tu devais mourir demain. Apprends comme si tu devais vivre toujours » – « Живи, как если бы тебе предстояло умереть завтра. Учись, как если бы тебе предстояло жить вечно ».

7. « Ce qui est amer à la bouche peut être doux au cœur » – « Что горько во рту, то сладко в сердце ».

Их семантический анализ:

Пословица №1: « C’est en forgeant qu’on devient forgeron » - « Ковка учит кузнеца ».

Если мы примем во внимание значение двух слов («ковка» и «кузнец»), связанных с работой с железом или горячим металлом, у нас сразу возникнет представление о тяжелой работе, которая в определенным образом, требует определенного навыка. Почему понятие сложной профессии означает, что нужно практиковаться, чтобы стать квалифицированным? Вероятно, потому, что понятие усилия связано с понятием требования. Эта пословица дает представление о времени, когда не было машин, которые мы имеем сегодня, которые могли бы выполнять работу, которую считали тяжелой для выполнения. Если мы хорошо проанализируем, мы сможем понять, что эта пословица означает, что посредством практики мы можем стать умелыми.

Таким образом, Жан, который раньше считал себя неспособным хорошо говорить по-французски после исследований, чтения и т. д., теперь говорит как настоящий француз.

Пословица №2: « On ne fait pas d’omelettes sans casser les œufs » – « Невозможно приготовить омлет, не разбив яиц ».

В этой пословице мы можем прежде всего отметить параллелизм между омлетом и достигаемым результатом, а также между действием разбивания яйца и необходимой трудности. Трудность можно рассматривать как усилие, которое необходимо предпринять. В некоторых случаях, когда мы хотим достичь цели, нам нужно сделать много дел. Например, если кто-то хочет стать инженером, ему нужно будет учиться, иметь диплом, искать работу и т. д. Эти шаги – это моменты жертвоприношения и они олицетворяют трудность. Когда человек закончил учебу, получил диплом и нашел работу, мы можем сказать, что он вознаграждается за свои усилия.

Подводя итог, пословица означает, что если у нас есть поставленная цель, нам придется приложить усилия для ее достижения, необходимо бороться.

Пословица №3: « La vie est une échelle, les uns montent, les autres descendent » – « Жизнь – это лестница, одни идут вверх, другие – вниз ».

Эта пословица иллюстрирует печальную реальность. Жизнь в обществе представляет собой своеобразный контраст между бедными и богатыми. Будучи бедным, обычно появляются другие пороки, которые могут усугубить ситуацию, а будучи богатым, все двери будут открыты для более приятной жизни. Без сомнения, бедные представляют тех, кто идет вниз, а богатые – тех, кто идет вверх. К сожалению, тех, кто падает, гораздо больше, чем тех, кто поднимается. Вот почему в бедных странах существует множество зол, от которых страдают люди. В этом случае дух солидарности необходим в борьбе за разрешение этой ситуации. В противном случае нам нужно обратить внимание на метафору, которая существует между жизнью и лестницей.

Пословица № 6: « Qui suit les poules apprend à gratter » – « Тот, кто следует за курами, учится чесаться ».

Животные служили образом, из которого родились многие пословицы. Данная пословица тому подтверждение. Он предупреждает нас об опасности. Иногда под влиянием других нам удается сделать то, чего мы не сделали бы самостоятельно. То есть, если мы тусуемся с человеком, мы можем перенять его привычки или поведение. Однако, если его привычки позитивны, тем лучше. С другой стороны, когда дело касается негативных вещей (алкоголь, воровство и т. д.), у нас плохая компания или плохая посещения. Если представить дальше, то можно сказать, что если человек рождается в неблагоприятной среде, где преобладают все эти пороки, то весьма вероятно, что этот человек находится под влиянием этих факторов. Вот почему есть родители, которые хотят знать, кто друзья их сына, чтобы узнать, какая у него компания. Иногда возникают конфликты, когда родители обнаруживают, что их сын тусуется в плохом месте или с плохим человеком, или пытаются заставить его отойти от этого объединения. Итак, нам нужно знать, разглядеть или опознавать места и людей, которых мы часто посещаем.

Пословица №5: « Mieux vaut aujourd'hui un œuf que demain un bœuf » – « Лучше синица в руках, чем журавль в облаках ».

Обратите внимание на оппозицию между яйцом и говядиной и на рифму, существующую между ними. Рифма, как мы уже говорили, может служить предлогом для сохранения формы предложения или для облегчения запоминания. Он предупреждает нас о мерах предосторожности, которые мы должны принять в отношении настоящего и будущего. Говоря конкретнее, он говорит нам быть уверенными в том, что у нас есть сегодня, а не доверять тому, что будет завтра. Итак, оберегающий характер, который может иметь пословица, явно присутствует. Надо заметить, что бык гораздо больше яйца, но лучше тот маленький, который у нас действительно есть в руках, а не тот большой, который будет у нас завтра. Подводя итог, не полагайтесь на Титаник завтрашнего дня, возьмите лодку сегодняшнего дня. Есть еще одна пословица, которая говорит примерно то же самое: « Il vaut mieux un tiens que deux tu l'auras » – « Лучше иметь один, чем два ».

Пословица №6: « Vis comme si tu devais mourir demain. Apprends comme si tu devais vivre toujours » – « Живи, как если бы тебе предстояло умереть завтра. Учись, как если бы тебе предстояло жить вечно ».

Эта пословица предполагает разбор смысла и значения каждой из её частей: « Vis comme si tu devais mourir demain » – « Живи, как если бы тебе предстояло умереть завтра ». Эта часть пословицы призывает к жизни в моменте, к качественному и насыщенному проживанию каждого дня. Идея заключается в том, чтобы не откладывать важные вещи на потом, а ценить настоящее и делать его значимым.

« Apprends comme si tu devais vivre toujours » – « Учись, как если бы тебе предстояло жить вечно ». Вторая часть пословицы акцентирует внимание на значимости образования и постоянного самосовершенствования. Здесь подчеркивается идея того, что обучение и саморазвитие должны быть постоянными процессами, не зависящими от ограниченности времени.

Вместе эти две части образуют идею баланса между наслаждением жизнью в настоящем и стремлением к саморазвитию и росту на будущее. Эта пословица подчёркивает важность жить полноценно и целенаправленно, осознавая, что каждый день ценен, и в то же время стремиться к обучению и развитию, несмотря на неопределённость будущего.

Пословица №7: « Ce qui est amer à la bouche peut être doux au cœur » – « Что горько во рту, то

сладко в сердце » позволяет нам понять следующее:

« Ce qui est amer à la bouche » – « Что горько во рту »: Эта часть пословицы указывает на какой-то негативный опыт или ситуацию, которая вызывает неприятные ощущения или разочарование.

« peut être doux au cœur » – « может быть сладко в сердце »: Вторая часть пословицы предлагает иной взгляд на этот опыт или ситуацию, указывая на то, что несмотря на исходное разочарование или горечь, в душе или в конечном итоге может наступить приятность, утешение или понимание.

Вместе эти две части пословицы передают идею о том, что даже если что-то кажется неприятным или трудным на первый взгляд, это не обязательно означает, что это будет оставаться таким же и в будущем. Жизненные испытания могут привести к новым пониманиям, урокам и возможностям, которые приносят радость или удовлетворение в конечном итоге.

Заключение:

Пословицы, сочетая в себе формальную красоту и смысловую лаконичность, составляют богатство любого общества. Они появились в очень древние времена и продолжают использоваться постоянно и очень гибко. Французские и русские пословицы занимают важное место и демонстрируют свой динамизм в литературной, в СМИ и в бытовой сферах. Настоящее исследование главы позволило нам выявить формальные характеристики русских пословиц, а также их сходство с французскими пословицами.

Русские пословицы, как и французские, формально характеризуются несколькими измерениями: синтаксисом, рифмой и ритмом. Исследование синтаксиса русских и французских пословиц позволило нам сделать вывод о четырех пословичных формах, которые, по нашему корпусу, являются наиболее продуктивными. Франко-русские поговорочные особенности связаны, с одной стороны, со своеобразием языков, особенно в области рифмы из-за существования тона и в области ритмики из-за соответствия между персонажем и слогом; с другой стороны, к особенностям, характерным для пословичной формы, таким как архаичность, краткость, родичность, импликация и т. д.

При этом русские пословичные черты, как и французские пословицы, не только пересекаются в одной плоскости, например параллелизм, асиндетон и бинарная структура; но и между планами, например, повторение как стилистическая особенность часто появляется одновременно с бинарной структурой, которая является синтаксической особенностью, или с аллитерацией или ассонансом, которые являются звуковыми признаками на фонетическом уровне. Ритмическая особенность соответствует смысловой структуре предложения, а ритмическая симметрия исходит из бинарной структуры.

Анализируя пословицы двух народов, мы заметили определенное сходство. Имеются абсолютные сходства, такие как бинарная структура, сопоставленная структура, двойная симметрия на семантическом и синтаксическом уровнях, родичность, принцип импликации и некоторые обороты речи.

В целом мы были весьма удивлены обнаруженным широким сходством между русскими и французскими пословицами. Они позволили бы нам продвинуться дальше в определении пословицы. Это, несомненно, другая очень интересная и увлекательная тема.

Библиография

1. Абдуллаева, Н. (2023). АСПЕКТЫ ПОЯВЛЕНИЯ ПОСЛОВИЦ И ИХ ЯЗЫКА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).

2. Абдуллаева, Н. (2023). ОПИСАНИЕ ХАРАКТЕРИСТИК ПОСЛОВИЦЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ ПОСЛОВИЦ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 32(32).

3. Абдуллаева, Н. Н. (2023, January). ПОСЛОВИЦА И ЕЕ БИНАРНАЯ СТРУКТУРА. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 585-591).

4. Абдуллаева, Н. (2023). ПОСЛОВИЦЫ И ИХ СЕМАНТИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).

5. Абдуллаева, Н. (2023). Пословица как объект филологического исследования. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 35(35).

6. Абдуллаева, Н. Н. (2023). ФИЛОСОФИЯ ПОСЛОВИЦ: ГЛУБИНА МУДРОСТИ В КРАТКИХ ВЫСКАЗЫВАНИЯХ. Gospodarka i Innowacje., 42, 710-714.

7. Насуллоевна, А. Н. (2023). ЛЕКСИЧЕСКИЕ ФИГУРЫ В ПОСЛОВИЦАХ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ ПОСЛОВИЦ). TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKANING ISTIQBOLLI YO ‘NALISHLARI, 206.

8. Абдуллаева, Нилуфар. «Пословицы, поговорки, образные выражения и их отличия.» Зарубежная лингвистика и лингводидактика 2.3 (2024): 206-213.

9. Абдуллаева, Нилуфар Насуллоевна, and Ситора Рўзимурод қизи Исомиддинова. «ИЗУЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ С ФОЛЬКЛОРНОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ.» Educational Research in Universal Sciences 2.5 (2023): 70-74.

10. Nasulloyevna, Abdullayeva Nilufar. «MAQOLLARNING LINGVISTIK TADQIQI XUSUSIDA.» FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION 3.5 (2024): 15-17.

“QISASI RABG‘UZIY” ASARI NUSXALARI VA MUQADDIMA QISMI MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Axmedova Muattar Abduqayum qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Nosiruddin Rabg‘uziy qalamiga mansub“Qisasi Rabg‘uziy” asari nusxalari va asar muqaddima qismining matniy-qiyosiy tadqiqi haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan. Shuningdek, maqoladaasarningyozilishsabablari, uningtarkibiyqismlarivadavrkechinmalariyoritilgan.
Kalit so‘zlar:Agiografiya, iqtibos, qo‘lyozma, nusxa, odobi tasnif.

TEXTUAL AND COMPARATIVE STUDY OF COPIES AND THE PREFACE OF THE WORK «QISASI RABGHUZI»

Akhmedova Muattar Abduqayum qizi,
basic doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature after the named Alisher Navoi

Annotation. This article contains information about the copies of the work “Qisasi Rabguzi”written by Nasiruddin Rabguzi and the textual-comparative study of the preface of the work. The article also describes the reasons for writing the work, its components and the experiences of the period.
Key words:Hagiography, quotation, manuscript, copy, etiquette classification.

ТЕКСТУАЛЬНО-СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ КОПИЙ И ПРЕДИСЛОВИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КИСАСИ РАБГУЗИ»

Ахмедова Муаттар Абдукаюм кызы,
базовый докторант Ташкентский государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишер Навои

Аннотация. В данной статье содержится информация о экземплярах произведения «Кисаси Рабгузи», написанных Насируддином Рабгузи, и текстуально-сопоставительное исследование предисловия произведения. В статье также описаны причины написания произведения, его составляющие и опыт периода.
Ключевые слова: Агиография, цитата, рукопись, копия, этикетная классификация.

Kirish.Payg‘ambarlar tarixiga oid agiografik asarlar o‘zbekadabiyotida alohida hodisa hisoblanadi. Nosiruddin Rabg‘uziy qalamiga mansub“Qisasi Rabg‘uziy” asari shu turdagiilk va nodir namuna demakdir. Asar muqaddimasida aytilishicha, obida Xorazmda Raboto‘g‘uz degan joyning qozisi Burhonuddin o‘g‘li Nosiruddin tomonidan islom dinini qabul qilgan, e’tiborli mo‘g‘ul beklaridan hisoblanmish Nosiruddin To‘qbo‘g‘aning iltimosiga ko‘ra, hijriy 709-(mil.1309-1310) yilda yozilgan.

Asar tuzilishi, badiiy nafosati, g‘oyaviy yo‘nalishi, mantiqiy izchilligi, iqtiboslardan mohirona foydalanilgani hamda bir o‘rinda turli adabiy janrlarning qorishib kelishi jihatidan o‘ziga xos manbadir. Bu esa garchi muallif haqida ma’lumotlar kam bo‘lsada, uning o‘z davrining taniqli tarixchisi, yetuk shoiri va iste’dodli tarjimoni ekaniga dalolat qiladi. Zero, asardagi muallif qalamiga mansub qator turkiy she’rlarni,arabchadan mohirona o‘girilgan nazmiy tarjimalarni e’tirof etmaslikning iloji yo‘q.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Rabg‘uziy asarni yozishda Qur’ondan, Abu Is’hoq Nishopuriyning forscha “Qisas ul-anbiyo”sidan, Vahb ibn Munabbihning arab tilidagi “Ka’b ul-axbor” (mil.728) asaridan foydalangan. Bu asarlarning barchasi payg‘ambarlar tarixiga oid agiografik asarlardan hisoblanadi. “Qisasi Rabg‘uziy” til jihatidan “Tafsir”, “Xusrav va Shirin”, “Nahj ul-farodis”, “Siroj ul-qulub” singari obidalarga yaqin bo‘lib, O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida “Qisas ul-anbiyo” nomi bilan mashhur[2].

Asar “odobi tasnif”ga ko‘ra, “Bismillahir Rohmanir Rohiyim” so‘zidan keyintahmid - Allohga hamdu sano bilan boshlanadi. Muallif Allohga hamd aytishda uning buyuk ne’matlarini zikr qilar ekan, ularning har birini Qur’on oyatlari bilan dalillab keltiradi. Hamd qismining o‘zida madh lafzlariga munosib

bo‘lgan uch oyatni ma’naviy izchillikda keltiradi. Birgina na’at qismida esa Muhammad sollallohu alayhi va sallamning siyrati va fazlini zikri barobaridama’naviy izchillikda yigirma besh oyatdan mohirona foydalangan. Shundan so‘ng u zotga bag‘ishlab o‘n to‘rt satrdan iborat she’r bitgan bo‘lib,ketidan siyratlariga oid ma’lumotlarni ham taqdim etgan. So‘ngra muallif qisqacha tarzda o‘zini tanishtirib o‘tgach,ushbu asarini yozishga sabab bo‘lgan mo‘g‘ul beki Nosiruddin To‘qbug‘aga bag‘ishlangan o‘ttiz uch bayt keltirgan. Unda qasidaning talablari va qonun qoidalariga ko‘ra, To‘qbug‘abekning shaxsiy fazilatlari madh etiladi: u islomga e’tiqod qo‘ygan, muttasil Qur’on o‘qiydi, himmati osmondan ham yuksak, islomga chin dildan e’tiqod qo‘ygan, xulq-atvori yaxshi, ko‘proq do‘st orttirishga harakat qiladi, ko‘rinishi arslon sifatliq, yoshi kichik bo‘lsa ham ulug‘sifat, zoti toza va hokozo.

Asar badiiy asarlar turkumiga mansub bo‘lib, 72 qissadan tashkil topgan. Har bir qissa tarkibida Qur’ondan oyatlar,hikoyat, g‘azal, latifa, rivoyat, to‘rtlik, savol va javob, hikmat, hadis kabi janrlar va shakllar bor. Ayniqsa, Yassaviy hikmatlariga mazmun va shakl tomondan hamohang hikmatlarning uchragani diqqatga sazovor. Bu hikmatlar har bir qissada har bir payg‘ambarga bag‘ishlab yozilgan. “Qisasi Rabg‘uziy” asari turkiy tilda so‘zlashuvchi kitobxonlarga payg‘ambarlar haqida to‘laqonli, dalillarga asoslangan, ishonchli ma’lumotlami yetkazadi, shu bilan birga, Shayx Shibliy (23-b.), Umar ibn Xattob raziyallohu (34-b.), Imom Shayx Jo‘yboriy (34-b.), Shayx Basriy (107-b.) kabi qator ulug‘ mutasavviflar hayoti va ta’limotiga oid lavhalar bilan tanishtiradi.

Rabg‘uziy qissalarni hikoya qilar ekan, nozik didli, chuqur bilimli adabiyotshunos sifatida qissalarning mavjud variantlarini o‘rganadi, qaysi rivoyat haqiqat, qaysi biri uydirma ekanini tahlil qiladi. U qiyosiy usuldan foydalangan holda, o‘z qarashlarini ilgari suradi. U manbashunos va tanqidchi sifatida qarashlarini tasdiqlash yoki noto‘g‘ri dalillarni rad qilish uchun rivoyat hamda xabar janrlaridan foydalanadi. Bu jihatdan Rabg‘uziyning rivoyat janridan foydalanish usuli Beruniynikiga o‘xshaydi. Rabg‘uziy deyarli har bir qissa tarkibida “savol” va “javob” keltiradi. Bu “savol” va “javob”lar voqealarga aniqlik kiritish, ularga kitobxonni ishontirish maqsadida keltiriladi[2]. Yozuvchining manbani yaratishdagi ana shunday o‘ziga xos mahoratiasarning nafaqat O‘rta Osiyo balki butun xalqlar orasida mashhur bo‘lishiga sabab bo‘lgan, xususan, ko‘plabg‘arb va sharq olimlari asar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar va bu jarayon bugungi kunda ham jadal tarzda davom etib kelmoqda.

Xususan, o‘tgan asrning 70-90-yillarida “Qisasi Rabg‘uziy haqida keltirilgan axborot tipidagi ma’lumotlar, ayrim sharhlar bu asar haqida muayyan tasavvur uyg‘otadi. Jumladan, 1977 yili chop etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jildligining I jildida “Qisasi Rabg‘uziy” haqida keltirilgan ma’lumotda muxtasar tahlillar ko‘zga tashlanadi[3].

Fitrat “O‘zbek adabiyoti namunalari”ga tartib berarkan, kitobning uchinchi bobiga mazkur asarning “Qissasi Yusuf Siddiq alayhissalom”, “Nuh to‘foni afsonasi”dan parchalar va Luqmoni hakim to‘g‘risidagi uchta hikoyatni kiritadi[6].Professor A.Hayitmetov ham “O‘tmish o‘zbek nasri haqida” maqolasida “Nasriy asarlarning birinchi yirik namunasi xorazmlik Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari bo‘lib, u asosan diniy mavzularga bag‘ishlangan va payg‘ambarlarning afsonaviy hayoti haqida hikoya qiladi”, degan ma’lumot bilan cheklanadi[7]. H. Safarovaning “Hazrati Yusuf go‘zallik timsoli” kitobi ham “Qisasi Rabg‘uziy”dagi Yusuf qissasining tahlili asosida yuzaga kelgan[8].L. Budagovning ikki jildli lug‘atida “Qisasi Rabg‘uziy”dan misollar berilgan[9]. Lug‘atning I jildi 9-sahifasida misol olingan manbalarning qisqartma nomlari qatorida “Qisasi al-Rabg‘uziy – qisas” nomi va undan keyin asarning yozilganyili va 1859-yili Qozonda bosilgani haqidagi rus tilidagi ma’lumot keltirilgan. V.V. Radlov tomonidan tuzilgan lug‘atda ham Rabg‘uziy asariga havolalar berilgan[10].

Rusiyzabon kitobxonlarni va ilm ahlini “Qisasi Rabg‘uziy” bilan tanishtirishni maqsad qilgan P.M. Melioranskiy Solih Yalavoch qissasini chop ettirgan[11]. N.P. Ostroumov “Qisasi Rabg‘uziy” yuzasidan amalga oshirgan ayrim kuzatishlarda asarning umumiy mazmuni tahlil qilingan[12]. S.E.Malov 1951-yilda “Qisasi Rabg‘uziy”dan bir parchani chop ettirib, asarning til xususiyatlariga oid ayrim kuzatuvlarini ilova qilgan[13]. Polyak sharqshunosi A. Zayonchkovskiy K. Gryonbekning“Payg‘ambarlar hikoyatlari” asariga taqriz yozarkan, yo‘l-yo‘lakay “Qisasi Rabg‘uziy” haqida ham to‘xtalib o‘tadi[14].

Hozirgi kunda asarning bir necha qo‘lyozma nusxalari O‘zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasi asosiy fondda № R3042, №10252, №7397, №1834, №6227, №11537, №6346, №6685, №6122, №11202, №12701, №7022, №1624, №5687 inventar raqamlari bilan ro‘yxatga olingan.

Qissaning turli davlatlarda ko‘plab nusxalari saqlanib, Turkiya davlat kutubxonasida yuzdan ortiq, Ostona davlat kutubxonasida qirqdan ortiq qo‘lyozma va toshbosma nusxalari mavjudligi aniqlangan.

Asarning eng qadimiy qo‘lyozma nusxasi XV asrda ko‘chirilgan bo‘lib, u Britaniya muzeyida saqlanib kelmoqda. Ushbu nusxaning faksimilesi mashhur matnshunos K. Gronbek tomonidan 1948 yili Kopengagenda nashr qilingan. Ushbu qo‘lyozmani faksimilesini o‘rganish jarayonida quyidagilar ma’lum bo‘ldi. Qo‘lyozma 500 betdan iborat. Bu 250 varoqni tashkil etadi. Sahifalar 1v. 1r. ko‘rinishida belgilangan. Dastlab kitob muqovasi keltirilishidan avval tehnik xato sababli oltinchi va yettinchi sahifalar joylangan. Shuningdek bu sahifalar o‘z o‘rnida takroran yana joylangan. Kitobning muqovasi ham nashr qilingan bo‘lib uning judaeski va bir qismi ezilib ketgan holda ekanini ko‘rish mumkin. Arab yozuvidagi harflar bilan kitob muqovasiga“ ءايبنألاىزوغبرلا باتك اذه” deb yozilgani g‘ira-shira tarzda ko‘zga tashlanadi.Shu o‘rinda aslida “صصق” lafzi ham bo‘lishi kerak. Ammo bu muqovaning qoramtir sur’atida ko‘zga ko‘rinmaydi. Asar nasta’liq xatida bitilgan. Muqaddima Basmala, hamdu sano va na’at bilan boshlangan bo‘lib, o‘rganishlar jarayonida ushbu nusxaning muqaddima lafzlari keyingi asrlarda ko‘chirilgan nusxalardan bir muncha farqli ekani ma’lum bo‘ldi. Ushbu nusxadagi ichki unvonlar va iqtiboslar alohida rang bilan ajratilmagan. Har bir bet (muqaddimani hisobga olmaganda) 21 qatordan iborat. Muqaddimaning sakkizinchi qatoridan sahifaning so‘nggi satri bo‘lmish o‘n to‘rtinchi qatorigacha o‘ng tomondan tahminan to‘rt enli miqdorda butunlay o‘chib ketgan. Hamda sakkizinchi va to‘qqizinchi qatorning qolgan qismida bo‘yalgan o‘rni bor bo‘lib, ushbu bo‘yalgan lafzlarni o‘qishning imkoni yo‘q. O‘n uchinchi va o‘n to‘rtinchi qatorlar chap tomodan ham butunlay o‘chib ketgan bo‘lib, bu holat ushbu qatorlarni o‘qish imkonini bermaydi. 2r. sahifaning o‘n olti, o‘n yetti, o‘n to‘qqiz va yigirmanchi qatorlarida ham bo‘yalgan o‘rinlar bor. Ammo bo‘yalgan qismdan avvalgi va keyingi lafzlarga qarab mantiqiy izchillikda ma’noni tiklash imkoni bor. Keyingi sahifalarda ham ayrim bo‘yalgano‘rinlargava hoshiya qismlaridagi izoh uchun yozilgan lafzlarga duch kelish mumkin. Ushbu faksimile nusxaning 27v, 28r sahifasidan boshlab 218v, 219r sahifalarigacha bo‘lgan qismlarda tehnik nosozlik sabab aksar betlarning yarmi takroran sur’atga tushirilgani va bu ayrim o‘rinlarda matnni o‘qishga xalaqit qilishini ko‘rish mumkin. Xususan, mana shunday tehnik nosozlik sababli 218v. va 219r. raqamli sahifalarni yuqori qismini o’qishning imkoni yo‘q.

Yurtimizda saqlanayotgan nusxalar orasida esa eng qadimiysi №1834 inventar raqamli asar nusxasi hisoblanadi. Ushbu nusxa ham nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Asarning dastlabki sahifalari yo‘qolgani bois, 1-betdan 5-a betgacha siyoh rangda chiroyli husnixatda keyingi nashrlar orqali qaytadan ko‘chirilgan. Asarning ushbu qayta ko‘chirilgan sahifalari N.I.Ilminskiy tomonidan 1859 yili Qozon shahrida e’lon qilingan nusxa bilan bir xil ekani ma’lum bo‘ldi.Asarni ko‘chirgan kotib ma’lum emas. Har bir bet 22 satrdan iborat.Asarda mundarija berilmagan. 1-betdan 5-b betgacha siyoh rangda ko‘chirilgan sahifalarda ichki unvonlar yashil rangda berilgan. Keyingi sahifalarda esa ichki unvonlar - oyat-hadislar, duolar va she’riy misralar qizil rang bilan ajratilgan.Kitobning aksar joylariga nam tegib, ayrim sahifalari bo‘yalgan.Ba’zi jumlalar tagiga qalam bilan chizilgan. 115-b, 123-a, 209-a betlar o‘rtasi yirtilgan. Ba’zi yirtilgan varaqlarning chetlari qayta ta’mirlangan. Ayrim qayta ta’mirlangan sahifalarni aksar qismlariga boshqa qog‘ozlar yelimlab yopishtirilgani bois ushbu sahifalarning ba’zi satrlarini o‘qish imkonsiz.445-b betning tepa chet qismi yirtilgan, yozuvi xira tortgan, bo‘yalgan, o‘chirilgan. Kitobda nazm, bayt, she’r nomi ostida 410 misra lirik she’r berilgan bo‘lib, ular arab, fors-tojik, turkiy tillardadir. Asar besh xil yozuvda bitilgan: 1-betdan – 5-a betgacha birinchi xil yozuv, 5-b betdan – 191-betgacha ikkinchi xil yozuv, 192-a betdan – 203-b betgacha uchinchi xil yozuvda bitilgan. 446-b – 447-b – betgacha varaqlari zarar ko‘rgani bois boshqa chiroyli xusnixatda to‘ldirilgan. 448-betdan 450-betgacha bo‘lgan qismda basmala bilan boshlangan aqidaviy masalalarga oid hukmlar yozilgan bo‘lib,ushbu hukmlar hamd, salovat bilan boshlanib, iymoni mufassal, qirq farz bayoni, qunut duosi va boshqa duolardan iborat ekani shuningdek, bu hukmlar fors-tojik tilida yozilgani aniqlandi. Bu esa ushbu sahifalar kitob tarkibiga oid emasligini bildiradi.

Asarning XV asrda ko‘chirilgan nusxasi bilanyurtimizdagi №1834 inventar raqamli asar nusxasining muqaddima qismini matniy-qiyosiy tadqiq qilish jarayonida ko‘plab farqli jihatlarga duch kelindi. XV asrga oidnusxasida Allohga hamdu sano aytish asnosida “Sonsiz hamdu sanolar, saqishsiz ko‘b shukrlar ul tangrig‘akim jalla jalaluhu kiym qudrati birla bizni odam yaratdi va yilqi qora yaratmadi”, deyiladi. Keyingi asrdagi nusxada esa “Sonsiz hamdu sanolar saqish ezgular azza va jallag‘akim qudrati birla bizlarni odam yaratdi pari yaratmadi taqi qora yaratmadi”, deyiladi. Ikki nusxaorasidan o‘tgan bir asr davomida lafzlarning bir muncha o‘zgarishlarga yuz tutganini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida aytib o‘tilganidek muallif hamd qisminingo‘zida ne’matlar shukronasi barobarida uch suraning: Isro surasi

70-oyati, Baqara surasi 228-oyati va An’om surasining 153-oyatini ma’naviy izchillikda keltirgan. Shu jumladan, avvalgi nusxada An’om surasi 153-oyatining kichik bir qismi zikr qilingan:

ۖهُوعِبَّتَاَف اَمِيقَتَسْمُ يطارص اَذَّنَاَو

“Albatta, bu Mening to‘g‘ri yo‘limdir. Bas, unga ergashing…”

Keyingi nusxada esa ushbu oyatning keyingi qismlari ham yozilgan:

لُبُّسلا اوُعِبَّتَت الَوَ ُهوُعِبَّتَاَف اَمِيقَتَسْمُ يطارص اَذَّنَاَو

“Albatta, bu Mening to‘g‘ri yo‘limdir. Bas, unga ergashing. Va boshqa yo‘llarga ergashmang…”

Ammo ushbu nusxada oyatdagi يطارص lafzi اطارص ko‘rinishida imloviy xato bilan yozilgan. Bundan asarni keyingi asrda ko‘chirgan kotib oyatlarni bir muncha batafsilroq yozishga intilganini tushunish mumkin. Na’at qismida muallif oyatlardan shu qadar mohirona foydalanganki, bir vaqtning o‘zida Qur’on va siyrat ilmidan hamda she’riyatdan naqadar ulug‘ nasibador ekanini namoyon etgan. Na’at qismida Rosulullоh sollallohu alayhi va sallamni na’atlari eski nusxaga ko‘ra 23 oyat bilan (ayrim o‘chib ketgan qismlarni hisobga olmaganda), keyingi asrda ko‘chirilgan nusxada esa 24 oyat bilan ifodalangan. Ushbu na’atlarda keltirilgan oyatlar Qur’oni Karimning turli suralaridagi turfa oyatlar bo‘lib qori bo‘lmagan va ulumul-Qur’on va tafsir ilmini yaxshi bilmagan kishi bu oyatlarni iqtibos tarzida keltira olishi muhol. Jumladan muallif birgina na’at qismida Tavba surasi 128-oyat, Oli Imron surasi 110-oyat,Tag‘obun surasi 3-oyat, Isro surasi 1-oyat, Moida surasi 67-oyat, Qalam surasi 4-oyat, Luqmon surasi 18-oyat,Baqara surasi 186-oyat, Duho surasi 10-oyat, Najm surasi 17-oyat, Najm surasi 9-oyat, Duho surasi 5-oyat, Tavba surasi 112-oyat, Isro surasi 79-oyat, Najm surasi 10-oyat, Muzzammilsurasi 2-oyat, Tavba surasi 5-oyat,Quroysh surasi 1-oyat, Niso surasi 41-oyat, Isro surasi 79-oyat, Haj surasi 341-oyat, Baqara surasi 185-oyat, Qomar surasi 1-oyat, Ahzob surasi 45-oyatini mavzuga muvofiq o‘rinlarda mohirona qo‘llagan. Shuningdek ushbu qismda bitta duo va ikkita hadis ham zikr qilingan.Muhammad sollallohu alayhi va sallamga bag‘ishlab yozilgan she’riy misralarning ham ayrim lafzlari ikki nusxada ikki xil keltirilganini ko‘rish mumkin. Masalan, ushbu nazmning beshinchi misrasida birinchi nusxada Qavmi orin ko‘tarmay ko‘kka chiqqon Iso ul deyilgan bo‘lsa, keyingi nusxada Qavmi orin ko‘turmadin ko‘kka og‘g‘an Iso ul ko‘rinishida juz’iy farqlar bilan yozilgan. Va yana ushbu she’rning o‘n uchinchi misrasi qadimiy nusxada Inar erkan Mustafoni elindab eltgan Jibril ko‘rinishida keyingi asrda ko‘chirilgan nusxada esa Inar ekan Mustafoni eltuchisin bitkuchi shaklida yozilgan.

Ikki nusxani solishtirish jarayonida keyingi satrlarda ham bir qancha juz’iy farqlarga duch kelindi. Agar bu qiyoslash jarayoni asarni boshqa qo‘lyozmalari va tabdil qilingan nusxalari asosida olib borilsa mavzu yanada keng qamrovli va qiziqarli bo‘lishi shubhasiz. Bu o‘rinda E.E. Bertelsning fikri alohida ahamiyat kasb etadi: “O‘qilgan qo‘lyozmalar soni qancha ko‘p bo‘lsa, tuman shunchalik tarqalib, masala oydinlashib boradi. Tadqiqotchining qo‘lidan yuzlab, minglab qo‘lyozmalar o‘tsa, ilgari amalga oshirib bo‘lmaydigandek tuyulgan masala oddiylashadi va oydinlashadi”[15].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ushbu asar kitobxonlar tomonidan e’zozlab o‘qiluvchi badiiy va ilmiy asar ekani jihatidan har bir davrda, har asrda o‘z atrofiga olimlar va tadqiqotchilar jamoasini jamlay olgan. Xususan,2001-yil H.Safarova“Rabg‘uziyning “Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom” asari manbalari va g‘oyaviy-badiiy tahlili” mavzusida, 2017-yil B.Abdushukurov “Qisasi Rabg‘uziy leksikasi” mavzusida, 2019-yil Z.Shukurova“Qisasi Rabg‘uziyda folklor an’analari” mavzusida, 2019-yil M.Qurbaniyazov “XIV asr o‘zbek adabiyotida hikoyat janri taraqqiyoti (“Qisasi Rabg‘uziy” misolida)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yoqlaganlar.

Yana shu o‘rinda olamshumul tarixiy voqelikni e’tirof etmasdan iloji yo‘q.

Davlatimiz rahbari 2019-yil 15-oktyabr kuni Ozarbayjonning Boku shahrida o‘tkazilgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining navbatdagi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan tashkil topgan “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli yuz jildlik to‘plamni har bir mamlakatning ona tilida nashr etish tashabbusini ilgari surdilar. Ana o‘sha tashabbus asosida ilk bor O‘zbekistonda “Yuz jildlik” tayyorlanib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida, ona tilimizda chop etildi. Jamlanmaga umumturkiy adabiyotning eng sara namunalari, o‘zbek, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, turkman va venger adabiyotining XI-XXI asrlarga mansub 629 nafar atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritilgan. Majmuaning 17 jildi turk adabiyoti, 16 jildi ozarbayjon, 10 jildi qozoq, 9 jildi qirg‘iz va turkman adabiyoti, 5 jildi qoraqalpoq va 1 jildi venger adabiyoti vakillarining turli yillarda o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlaridan iborat. Qadim turkiy tilimizni ilk bor ilmiy asosda tadqiq etgan buyuk alloma Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy va Nosiriddin Rabg‘uziy asarlaridan iborat besh jildlik “Umumturkiy adabiyot

namunalari” bilan boshlangan ushbu majmuaning beshinchi jildi Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy ijodini xususan, “Qisasi Rabg‘uziy” asarini o‘z ichiga olgan. Asarning ushbu tabdili O‘zbekiston Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi a’zosi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Hamidulla Dadaboyev tomonidan amalga oshirilgan.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘ida unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiruddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan”[1].

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, “Qisasi Rabg‘uziy” asari va uning nusxalari haqida o‘rganib chiqar ekanmiz, asar sharq va g‘arb ulamolari tomonidan deyarli har jihatdan tadqiq qilinganiga guvoh bo‘ldik. Biroq, asarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari ancha keng qamrovli bo‘lishiga qaramay, ularni o‘zaro qiyoslash, qolaversa, asardagi payg‘ambarlar tarixiga oid ma’lumotlarni sahih diniy manbalar bilan dalillash masalasi hali ham o‘rganib chiqilmagan. Bu esa yurtimiz matnshunoslari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim vazifa demakdir. Zero, xalqimiz tarixi, o‘tmishi va kelajagini ma’naviy rishta sifatida bog‘lab turadigan “Qisasi Rabg‘uziy”dek ham badiiylik, ham til nuqtayi nazaridan ulkan e’tiborga loyiq yozma yodgorlikni har tomonlama o‘rganish, ochilmagan qirralarini kashf etish va uni kelajak avlodga yetkaza olish sharafli mas’uliyat demakdir. Bizkim - shu buyuk turon zaminining yosh avlodlari, ko‘hna tarix sahifasida o‘chmas iz qoldirgan, jahon tadqiqotchilari e’tiborini qozona olgan buyuk ajdodlarimiz hayotlari va ularning muhtasham meroslarini har qancha o‘rgansak oz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. “O‘zbekiston” 2017.
2. Nasimxon Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi o‘quv qo‘llanmasi. “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent – 2017.
3. Ўзбек адабиёти тарихи, 5 томлик. 1-том, - Тошкент: Фан, 1982.
4. B. Abdushukurov “Қисаси Рабғузий”. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – 200 b.
5. Э. Фозилов,А. Юнусов, Ҳ. Дадабоев “Қисаси Рабғузий”. Тошкент. “Ёзувчи” нашриёти, 1990.
6. Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд, нашрга тайёрловчи О. Ҳамроева. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2013.
7. Ҳайитметов А. Ўтмиш ўзбек насри ҳақида // Ўзбек насри тарихидан. – Тошкент: Фан, 1981.
8. Сафарова Ҳ. Ҳазрати Юсуф – гўзаллик тимсоли. – Тошкент: Тошкент Имлои университети, 2003.
9. Будагов Л. Сравнительнқй словаръ турецко-татарских наречий, - М.: СП. б, Изд-во вост.лит., (1960) I-II, Репринт. изд.1868.
10. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – М.: СП. б, Изд-во вост.лит., (1963-1964) I-IV, Репринт. изд. 1893-1911.
11. МелиоранскийП.М. Сказание о пророке Салиҳе. Сборник статьей учеников проф. бар. В.Р.Розена – М.: СПб., 1897.
12. Остроумов Н.П. Критический разбор мухаммеданского учения о пророках. Миссионерский противомусульманский сборник, вып. IV., изд. Казанск. Духовной Академии, Казанъ 1874.
13. Малов С.Е. Мусульманские сказания о пророках по Рабгузи, Записки коллегии востоеоведов. Т. V (в честь акад. Крачковского). – Л., 1930.
14. Zajaczkowski A.Rocz. Orjent. XIV, 1949 (Иқтибос Малов С.Е нигн “Памятники древнетюркской письменности” (1951, 341-бет).
15. Бертельс. Е.Э. Вопросы методики критических изданий классических памятников литературы народов Ближнего и Среднего Востока// Материалы Всесоюзной конференции востоковедов в Ташкенте. – Т.: Изд.АН.УзР, 1957.
16. Shukurova Z. «Қисаси Рабғузий»нинг нодир қўлёзмаси ва тошбосма нусхалари қиёси ва таҳлили. “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent shahri, 27-oktabr, 2021-yil. 42-45-betlar.
17. XIV аср ўзбек адабиётида ҳикоят жанри тараққиёти (Қисаси Рабғузий мисолида) Курбаниязов Махсуд Аллабергенович – 2019 154 б. Диссертация.

“PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN: A TIMELESS MASTERPIECE OF SOCIAL COMMENTARY

Baxtiyorova Nozima,
student ofUzbekistan State World Languages University.

Karimov Ulugbek Nusratovich,
PhD, Associate professor of Uzbekistan State World Languages University

Abstract: Jane Austen’s “Pride and Prejudice” is a timeless novel that continues to captivate readers with its witty dialogue, vivid characters, and incisive social commentary. Set in 19th-century England, the novel tells the story of the Bennet family, particularly the independent and spirited Elizabeth Bennet, as she navigates the complexities of societal expectations and the pursuit of love and happiness. Through its exploration of themes such as class, gender, love, and individuality, “Pride and Prejudice” transcends its historical context to resonate with readers of all ages and backgrounds. Austen’s skilful character development, sharp wit, and insightful social satire make “Pride and Prejudice” a timeless masterpiece that remains as relevant today as it was when it was first published in 1813.

Keywords: Jane Austen, Pride and Prejudice, 19th-century England, social commentary, class, gender, love, individuality, character development, satire

JEYN OSTEN TOMONIDAN «G’URUR VA G’URBORLIK»: IJTIMOIY SHARHLARNING VAQTDA BO’LMAGAN MASTERASI

Baxtiyorova Nozima,
O’zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi.

Karimov Ulug‘bek Nusratovich,
fan nomzodi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

Annotatsiya. Jeyn Ostenning «Mag’rurlik va xurofot» asari o’zining beg’ubor dialogi, yorqin personajlari va o’tkir ijtimoiy sharhlari bilan o’quvchilarni o’ziga jalb etishda davom etuvchi abadiy romandir. 19-asrda Angliyada bo’lib o’tgan roman Bennet oilasi, xususan, mustaqil va ruhli Elizabet Bennet haqida hikoya qiladi, chunki u jamiyatning umidlari va sevgi va baxtga intilishning murakkabligini yo’lga qo’yadi. Sinf, jins, sevgi va individuallik kabi mavzularni o’rganish orqali «Mag’rurlik va xurofot» o’zining tarixiy kontekstidan oshib, barcha yoshdagi va kelib chiqishi o’quvchilari bilan rezonanslashadi. Ostenning xarakterning mohirona rivojlanishi, o’tkir zehni va chuqur ijtimoiy satirasi «Mag’rurlik va xurofot» ni 1813 yilda birinchi marta nashr etilganida bo’lgani kabi, bugungi kunda ham dolzarb bo’lib qoladigan abadiy durdonaga aylantiradi.

Kalit so’zlar: Jeyn Osten, g’urur va xurofot, 19-asr Angliya, ijtimoiy sharh, sinf, jins, sevgi, individuallik, xarakter rivojlanishi, satira

«ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ» ДЖЕЙН ОСТИН: ВНЕВРЕМЕННОЙ ШЕДЕВР СОЦИАЛЬНОГО КОММЕНТАРИЯ

Бахтиёрова Нозима,
студентка Узбекского государственного университета мировых языков.

Каримов Улугбек Нусратович ,
кандидат философских наук, доцент Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация: «Гордость и предубеждение» Джейн Остин — это вечный роман, который продолжает очаровывать читателей остроумными диалогами, яркими персонажами и острыми социальными комментариями. Действие романа разворачивается в Англии XIX века. Роман рассказывает историю семьи Беннет, особенно независимой и энергичной Элизабет Беннет, которая преодолевает сложности общественных ожиданий и стремления к любви и счастью.

Благодаря исследованию таких тем, как класс, пол, любовь и индивидуальность, «Гордость и предубеждение» выходит за рамки исторического контекста и находит отклик у читателей всех возрастов и слоев общества. Умелое развитие персонажа, острый ум и проницательная социальная сатира Остин делают «Гордость и предубеждение» вечным шедевром, который остается таким же актуальным и сегодня, как и в момент его первой публикации в 1813 году.

Ключевые слова: Джейн Остин, «Гордость и предубеждение», Англия XIX века, социальный комментарий, класс, пол, любовь, индивидуальность, развитие характера, сатира.

Introduction. Jane Austen's "Pride and Prejudice" is a novel that has stood the test of time, captivating readers for over two centuries with its witty dialogue, vivid characters, and incisive social commentary. First published in 1813, the novel tells the story of the Bennet family, particularly the spirited Elizabeth Bennet, as she navigates the societal expectations of 19th-century England in her quest for love and independence.

One of the novel's central themes is the role of class and status in society. Set against the backdrop of the Georgian era, where social status was paramount, Austen explores the impact of class on personal relationships and individual happiness. The Bennet family, though respectable, is not wealthy or well-connected, making them somewhat marginal in the eyes of the upper-class characters. This dynamic is particularly evident in the interactions between Elizabeth and Mr. Darcy, whose initial disdain for her family's social standing reflects the prevailing attitudes of the time.

Literature review. However, "Pride and Prejudice" is not simply a critique of the rigid class structure of Austen's era. It is also a celebration of individualism and the power of love to transcend social boundaries. Elizabeth Bennet, with her independent spirit and sharp wit, defies the expectations placed upon women of her time. Her refusal to marry for convenience or financial gain, and her insistence on marrying for love, make her a proto-feminist heroine whose appeal has endured through the ages

Austen's keen observation of human nature is another hallmark of "Pride and Prejudice." Through her vividly drawn characters and their interactions, she explores themes of friendship, family, and the complexities of romantic relationships. From the comically absurd Mrs. Bennet to the charmingly rakish Mr. Wickham, each character is fully realized, adding depth and richness to the novel's narrative.

Research metohodology. Moreover, Austen's writing style, characterized by its irony, wit, and social satire, is a testament to her writing skill. Her ability to skewer the hypocrisies and pretensions of the upper classes while maintaining a light and humorous tone is a testament to her talent and continues to delight readers to this day.

Results and analysis. In the main body of the article, we could expand on the following points:

1. Historical Context: Discuss the societal norms and values of early 19th-century England, particularly regarding class, gender roles, and marriage, to provide a backdrop for understanding the novel's themes.
2. Character Analysis: Explore the main characters, such as Elizabeth Bennet, Mr. Darcy, and others, highlighting their strengths, flaws, and development throughout the novel. Discuss how Austen uses these characters to comment on society and human nature.
3. Themes: Delve into the central themes of "Pride and Prejudice," such as the impact of class on personal relationships, the importance of marrying for love versus practicality, and the role of women in a patriarchal society
4. Narrative Techniques: Analyse Austen's narrative style, including her use of irony, satire, and free indirect speech, and how these techniques contribute to the novel's overall effect.
5. Reception and Legacy: Discuss the initial reception of "Pride and Prejudice" and its subsequent legacy, including its influence on later literature and its enduring popularity.
6. Contemporary Relevance: Highlight how the novel's themes and characters are still relevant in modern society, and why "Pride and Prejudice" continues to resonate with readers today.
7. Social Commentary: Austen's novel serves as a vehicle for social commentary, critiquing the rigid class structure and societal expectations of her time. Through characters like Mr. Collins and Lady Catherine de Bourgh, Austen satirizes the pretensions and follies of the upper class, highlighting the absurdity of placing importance on wealth and status
8. Feminist Themes: "Pride and Prejudice" can also be viewed through a feminist lens, particularly in its portrayal of Elizabeth Bennet. Elizabeth defies the traditional gender roles of her time by rejecting the

idea of marrying for financial security alone and insisting on marrying for love and respect. Her refusal to conform to societal expectations makes her a feminist icon, challenging the notion that a woman's value lies solely in her ability to secure a good marriage

9. Love and Marriage: Central to the novel is the theme of love and marriage, and Austen uses the various relationships in the book to explore different aspects of this theme. The contrasting marriages of Mr. and Mrs. Bennet, Charlotte and Mr. Collins, and Elizabeth and Mr. Darcy highlight the different motivations behind marriage and the importance of mutual respect and understanding in a successful relationship.

10. Literary Techniques: Austen's use of irony, wit, and social satire are key to the novel's success. Her ability to subtly critique society while maintaining a light and humorous tone sets her apart as a writer and adds depth to her characters and themes.

11. Enduring Appeal: Despite being set in a specific time and place, "Pride and Prejudice" continues to be widely read and studied today. Its universal themes, relatable characters, and timeless message about the power of love and the importance of staying true to oneself ensure that it will remain a beloved classic for generations to come.

In addition to its exploration of class, individualism, and human nature, "Pride and Prejudice" also offers a nuanced portrayal of marriage and gender roles in the 19th century. Austen uses the relationships between her characters to examine the various motivations behind marriage, from financial security to romantic love. The novel's central romance between Elizabeth Bennet and Mr. Darcy is a case study of the complexities of courtship and the transformative power of love.

Mr. Darcy, initially portrayed as proud and aloof, undergoes a significant transformation throughout the novel, culminating in his heartfelt proposal to Elizabeth and his eventual marriage to her. This evolution is not only a testament to Austen's skill in character development but also a commentary on the nature of true love and the importance of overcoming personal prejudices.

Elizabeth Bennet, too, undergoes her journey of self-discovery and personal growth. Her initial prejudice against Mr. Darcy blinds her to his true character, but as she comes to know him better, she learns to see beyond his wealth and status to the man beneath. Their eventual union is not just a happy ending but a reaffirmation of Austen's belief in the power of love to transcend societal expectations and bring true fulfilment.

Moreover, "Pride and Prejudice" is also a novel about the role of women in society. Through characters like Elizabeth Bennet and her sisters, Austen highlights the limited opportunities available to women in her time and the importance of marriage as a means of securing financial stability and social status. However, Elizabeth's refusal to marry for anything other than love and her insistence on marrying on her own terms makes her a trailblazing figure in the history of feminist literature.

One reason for this universal appeal is Austen's skill in creating characters that are not only vivid and memorable but also relatable. From the headstrong Elizabeth Bennet to the enigmatic Mr. Darcy, each character embodies traits and motivations that are recognizable to readers, making them feel as though they are observing real people rather than fictional creations. This ability to create characters with depth and complexity is a hallmark of Austen's writing and is one of the reasons why her novels continue to be read and studied today.

Another reason for the novel's enduring popularity is its timeless themes of love, marriage, and social status. The central romance between Elizabeth and Mr. Darcy, with its twists and turns, misunderstandings, and reconciliations, is a story that resonates with readers of all ages. Austen's exploration of the complexities of human relationships and the importance of understanding and empathy in overcoming prejudice and pride is a message that is as relevant today as it was in the 19th century.

Furthermore, "Pride and Prejudice" is celebrated for its wit and humour. Austen's sharp and incisive commentary on the foibles of human nature and the absurdities of societal conventions is delivered with a light touch and a keen sense of irony. Her ability to skewer pomposity and pretension while maintaining a tone of affectionate mockery is a testament to her skill as a writer and adds to the novel's enduring charm.

In conclusion, Jane Austen's "Pride and Prejudice" stands as a timeless masterpiece of literature, celebrated for its insightful social commentary, memorable characters, and sparkling wit. Through its exploration of themes such as class, gender, love, and individuality, the novel transcends its 19th-century setting to resonate with readers across time and culture. Elizabeth Bennet and Mr. Darcy's love story, set against the backdrop of Georgian England, remains as captivating today as it was over two centuries ago,

a testament to Austen's enduring appeal as a writer. "Pride and Prejudice" continues to enchant readers with its timeless truths about human nature and remains a beloved classic of English literature.

References:

1. Austen, Jane. Pride and Prejudice. London: T. Egerton, 1813.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Pride_and_Prejudice
3. https://www.imdb.com/title/tt0414387/
4. Lynch, Deidre Shauna. "At Home with Jane Austen." "Persuasions", no. 27, 2005, pp. 12-29.
5. Butler, Marilyn. "Jane Austen and the War of Ideas." "Oxford University Press", 2002.
6. Kirkham, Margaret. "Jane Austen, Feminism and Fiction." Athlone Press, 1997.
7. Wiltshire, John. "Recreating Jane Austen." Cambridge University Press, 2001.

IZOHLI LUG`ATLARDA FALSAFAGA OID TERMINLAR TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH VA IZOHLI LUG`ATGA KIRITILISHI KERAK BO`LGAN TERMINLAR

Berdibekova Hulkar Mavlonovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada izohli lug`atlarda falsafaga oid terminlarning tavsifini takomillashtirish va kiritilishi lozim bo`lgan terminlar haqida so`z yuritiladi
Kalit so`zlar: termin, falsafa, lug`at, izoh, tavsif, ro`yxat, takomillahtirish

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПИСАНИЯ ФИЛОСОФСКИХ ТЕРМИНОВ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ И ТЕРМИНОВ, КОТОРЫЕ ДОЛЖНЫ ВХОДИТЬ В ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ

Бердибекова Хулкар Мавлоновна,
докторант Джизакского государственного педагогического университета

Аннотация: В данной статье говорится об улучшении описания философских терминов в толковых словарях и о терминах, которые следует включать.
Ключевыеслова: термин, философия, словарь, объяснение, описание, список, усовершенствование.

IMPROVING THE DESCRIPTION OF PHILOSOPHY TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES AND TERMS THAT SHOULD BE INCLUDED IN THE EXPLANATORY DICTIONARY

Berdibekova Hulkar Mavlonovna,
PhD student of Jizzakh State Pedagogical University.

Abstract: This article talks about improving the description of philosophical terms in explanatory dictionaries and about the terms that should be included.
Key words: term, philosophy, dictionary, explanation, description, list, improvement

Insoniyattaraqqiyotidaharbirfanning o‘z o‘rni bo‘lgani kabi falsafaning ham alohida nufuzi mavjud. Jamiyatdagi har bir shaxs xoh u olim bo‘lsin xoh omi, barchasining falsafiy tushunchalardan foydalanishi, unga murojaat qilishi sodir bo‘lib turadigan hodisa. Har bir inson xohlasa-xohlamasa, hamisha qaysidir falsafiylikka aloqador bo‘ladi. Falsafaga oid terminlarni tizimlashtirilgan holda o`rganish, uni lug`atlardamukammaltavsifini berish, butunterminologiktizimichidan tanlab olish tamoyillarini yaratish faqat tilshunoslik fani uchun emas, balki falsafiy bilimlarga ehtiyoj sezadigan jamiyat hayoti uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi normativ lug‘at sifatida muhim bo‘lgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” esa yaqinda qayta tahrir etilgan holda nashr etilganiga qaramay, oldingi nashrda mavjud kamchiliklar bartaraf etilmaganining guvohi bo‘lish mumkin. Xususan, bizning tadqiqot ob’ektimiz bo‘lgan falsafa faniga oid terminlar misolida shuni ayta olamizki, mazkur izohli lug‘atda keltirilgan fls. pometali terminlarning ba’zilari ham tahrirsiz – eski holicha berilgan. Izohli lug`atning yangi tahrirdagi 2023-yildagi nashrida mavjud falsafiy terminlardan tashqari yangi terminologik birliklar uchramaydi.

Yangitadqiqotishimizdaizohlimavjud falsafaga oid terminlarning izohini berish masalasiga oid fikrlar, takliflar bayon etiladi. Shuningdek, bugungi kunda jamiyat hayotida mavjud yangi falsafiy tushunchalarni ifodalaydigan, shuningdek, faol qo‘llanayotgan falsafaga oid terminlarning ro‘yxati keltiriladi. Demak,xulosaqilishmumkinki,so‘zlarningma’nolari vaqttafovutida semantik xususiyatiga ko‘ra faollik jihatidan farq qilgan. Shuningdek, ba’zi terminlardastlabkiizohlilug‘atdafalsafiyterminlik pozitsiyasida emas, ba’zilari esa umuman mavjud ham emas. Dastlabkinashrdafalsafiy termin sifatida berilmagan, keyinchalik fls. pometasi bilan va besh jildlinashrda yana falsafiyterminlik tomoni tushirib qoldirilgan. Xuddishu vaziyataksinchaholatdaham uchraydi. Ba’zibirliklarbeshtomlilug‘atdafalsafaterm ini sifatidaberilganiholda, ikkijildlidafalsafiyterminlikdanmahrumetilgan.

Chegaralangan qatlam leksikasi uchun berilgan uslubiy belgilar izohlanuvchibirlikhaqidamuhim

axborotyetkazuvchi lug‘at unsuri hisoblanadi. Ya’niboshso‘zning qaysisohagaoidyoki qaysi uslubda qo‘llanishi haqida izohda uzundan uzun gapirishzaruratiniyo‘qotadi. Uslubiy xarakteristika lug‘at birliklariga beriladigan izoh – lug‘at maqolasini ixchamlashtirishga yordam beradi. “O‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzuvchilar uchun yo‘riqnoma”dakeltiriladiki,boshso‘zvaunga oid materiallarl ug‘atmaqolasinitashkil etadi76hamdakomponentlarquyidagilari o‘z ichiga oladi:

1. Lug‘atning birliklari:
- bosh so‘z;
- turg‘un iboralar.
2. Etimologik ma’lumot
3. Grammatik va uslubiy xarakteristika (uni qayd etuvchi belgilar).
4. Lug‘at birliklari ma’nosini belgilash va qayd etish.
5. Izoh.
6. Tasdiqlovchi misol, illyustrativ sitatalar.

Ma’lumki, terminologik leksika taraqqiy etgan tillarning barchasida umumiste’moldagiso‘zlardan bir necha martako‘pbo‘ladi. Ko‘p sonli terminlarniumumfilologik,tarjimava izohli lug‘atlarda aks ettirish, ularni qanday va qancha tanlab olish juda murakkab masala. Terminnilug‘atuchun tanlashdamilliybirlikl arnie’tibormarkazidaqo‘yishtilboyliginilug‘atda aks ettirish usuli bo‘lar edi. Falsafaga oid terminlarning 1981 yildagi izohli lug‘atda berilib, keyingi nashrda fls. pometasidan “mahrum qilingan”lari orasida falsafiy tushunchalarni milliy birlik yordamida ifodalash mumkin bo‘lgan variantlari mavjud. Shundank elibchiqib,ushbuterminlarning ma’nosini umumiyqilib berish mumkin edi.

Umuman olganda, fikrimizcha, terminlarniizohlilug‘atuchuntanlashda uningtegishliliksohasi bo‘yicha ta’rifi, izohiga tayanish lozim. Bu borada Falsafiyterminologiyabo‘yichabirortamaxsusizohlil ug‘atningyo‘q ekanligio‘zbekterminografiyasi uchun yana bitta muhim vazifa amalga oshirilishi muhim ekanini ko‘rsatib turibdi. Terminning lug‘at maqolasida keltirilishi kerak bo‘lgan izoh Falsafiy terminl arningo‘zigaxosxususiyatlarini hisobgaolganholdaquyidagichamukammalashtirilishimaqsadga muvofiq debhisoblaymiz: - birma’noliterminientsiklopedik izohusuliga ko‘ra izohlash; - polisemantikterminning umumiste’molma’nosi terminlik semasidanko‘rafaolbo‘lgan taqdirda xalq qo‘llaydigan ma’nosi avval berilishi, terminlik ma’nosi fls. pometasi bilan belgilanishi;- polisemantik terminningboshma’n ositerminsifatidaqo‘llanilsa,sohagadoir izohli lug‘atdaberiladiganta’rifigayaqinroq (ya’ni chuqurroq, kengroq)izohlanishi; - o‘zakdoshbirliklar(alifbo tartibida yonma-yon kelishini inobatga olib)qatorida falsafagaoidbo‘lmaganlari bilan bir xil pozitsiyada (termin yoki termin emaslik) qolishining oldini olish maqsadida fls. leksik pometasining har bir terminliksemasimavjud so‘zga berilishi; - termin sifatida qo‘llanuvchi birliklarniumumiste’moldasinonimsifatidaqaralishimumkin bo‘lgan birlikka havola qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Shuningdek, falsafiy terminlarningizohlilug‘atlardagiizohidaquyidagi largaamalqilishnitavsiya qilamiz:

1. To‘liqlik tamoyili. Bunda izohlanuvchi birlikka beriladigan izoh to‘liq keltirilishilozim. Boshqa so‘z bilan umumiste’moldasinonim bo‘lgan termin unga havola qilinishi yoki o‘z sinonimigayo‘naltirili shiterminliktalablarida ko‘rsatilganme’yorlargazidholatni keltirib chiqaradi. Ya’ni u umumiste’moldagi so‘zdan kelib chiqqan termin bo‘lgan taqdirda ham uning semasidagi sohaga oid maxsus ma’noaynanaj ratibko‘rsatilishikerak.

2. Ixchamlik tamoyili. Bu qoidaga ko‘ra izoh maxsus lug‘atdaberilayotgan falsafiyjihatdanmukamma lifodalanganizohnixalqtiligayaqinqilib,ammomazmunniaynansaqlaganholdaixchamlashtirishni nazarda tutadi.

3. Soddalik tamoyili. Lug‘atdanfoydalanuvchilaruchun umumiy tushunarli izoh yaratish uchun eng muhimi bu – soddalik. Izohli lug‘atlarni yaratishda, ayniqsa, baynalmilal terminlar hissasi milliylaridan ko‘p bo‘lgan Falsafiy terminologiyagategishli birliklarizohidaxalqaro tajribaga tayanish ham ushbutamoyilyetakchiekanligini ko‘rsatadi. Sohaviy lug‘atda mavjud izohning murakkabligi kuzatilsa, soddalik prinsipiga ko‘ra izohlash o‘rinli. Tilshunos olimlarilm-fantaraqqiyotidagi har bir qadam ilmiy terminlar yaratish yoki ularga aniqlik kiritishga olib kelishini ta’kidlaydi2. Xulosa qilib aytganda,termin larizohinianiqlashtirish va takomillashtirish davr talabi ekanini hisobga olsak,biztomonimizdantavsiyaet ilgan usullar amaliy jihatdan muayyan foydadan xoli bo‘lmaydi.

Falsafiy terminlarboshqa soha, jumladan: kasb-hunarga oid, huquq, tibbiyotga va h.k.larga oidterminlariga qaraganda nofaolroq, lekinbirlamchi,borliq,tajriba, tasavvur, tasodif, turmush, qonun,

obyekt, ong, sabab, sakrash, saqlanish, sifat, subyektiv, nisbiy, mazmun, makon, materiya, miqdor, mohiyat, munosabat, idrok, ikkilamchi, vaqt, zamon, ziddiyat, xususiylik, go`zallik, ruh, harakat, haqiqat - falsafiy terminlari bundan mustasno. Bu terminlar jamiyat hayotida faol tarzda qo`llaniladi.

Izohli lug`atga kiritilishi lozim bo`lgan falsafiy terminlar ro`yxati:

Besh jildli izohli lug`atda:

ANALIZ

[yun. analysis – ajratish, ajralish] 1 Tekshirish ob’ektini fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilish usuli. zid. sintez. Analiz shunday bir mantiqiy usuldirki, uning yordami bilan biz buyumlarni, hodisalarni fikran qismlarga bo‘lib, ularning ayrim qismlarini, belgilarini, xususiyatlarini ajratamiz. «Logika».

2 ayn. tahlil.

3 Moddaning tarkibini aniqlash. Kimyoviy analiz. Qon analizi. Sifat analizi.

Matematik analiz Oliy matematikaning bir bo‘limishu tarzda berilgan ma`nolariga qo`shimcha tarzda

1.Analiz va Sintez[yun. analysis – ajratish, synthesis-birlashtirish] fls.pometasi orqali -kishilar dunyoni bilish jarayonida ishlatadigan, o`zaro chambarchas bog`langan tekshirish usullari. Butunni tarkibiy qismlarga fikran ajratish analiz va qismlardan butunni xuddi shunday tarzda birlashtirish sintezdir deb berilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

ANTINOMIYA

[yun. antinomia – qonunning ichki ziddiyati]Mantiqan har biri isbotlanadigan ikki qonun, mulohaza yoki xulosa o‘rtasidagi ziddiyat.- fls pometasi orqali berish.

AN`ANA

[a. – nasldan naslga o‘tuvchi qoida] Hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar. ..Ya’ni tabiat go‘zalligidan bahra olish – bu oilaning avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’anasi! «Tafakkur». Qolaversa, xayriya tadbirlarini markazimiz yoshlari uchun doimiy an’anaga aylantirish mo‘l-jallanmoqda. Gazetadan. ..lavozimini suiiste’mol qilayotgan rahbarlar.. milliy rasm-rusmlarimizga putur yetkazmoqdalar, muqaddas an’analarimizning obro‘sizlanishiga sabab bo‘lmoqdalar. Gazetadan

Izohli lug`atdagi ma`nosiga qo`shimcha tarzda:

AN`ANA [a. – nasldan naslga o‘tuvchi qoida] fls pometasi orqali.- madaniy tajribaning u yoki bu unsurlarini saqlaydigan avloddan-avlodga o`tadigan, o`tmishdan kelajakka meros qoladigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo`ladigan, ijtimoiy jarayonlarning tarixiy-genetik (nasliy) uzviyligini bog`lashga xizmat qiladigan moddiy va ma`naviy qadriyat. deb berilishini tavsiya qilamiz.

Xulosa:

Falsafa har qanday fanning metodologik asosini tashkil etadi. Zero, bilim o`zlikni anglash va olamni bilishdan boshlanadi. Shunday ekan, falsafiy terminlarni izohli lug`atlarda berilishi va tavsifini takomillashtirish tilshunoslikningmuhimmasalalaridandir. O`zbek tilining izohli lug`atlarida ayrim falsafiy terminlarning ma`nosini to`liq izohlanmaganligini yoki lug`atga kirmay qolgan terminlarga guvoh bo`lishimiz mumkin. Izohli lug`atlarda mavjud terminlarning izohini mukammallashtirish va kirishi kerak bo`lgan terminlar ro`yxatini shakllantirish hozirgi kunda o`zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. A.Hojiyev. O`zbek tilining ko`p jildli izohli lug`atini tuzish uchun qo`llanma
2. Суперанская А.В. Терминология и номенклатура // Проблематика определения терминов в словарях разных типов. –Л.: 1976. – С. 75-83.
3. O`zbek tilining izohli lug`ati 1981-y
4. O`zbek tilining izohli lug`ati 2008-y
5. M.Abdullayeva Falsafa ensiklopedik lug`at T-2010-y
6. E.Sobirova O`zbek tilining izohli lug`atida huquqiy treminlarning berilishi T-2021-y

JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIKA VA TOPONIMIKA: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Nargizaxon Boltaboyeva Maxammatjon qiz,
Andijon davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko‘lamining kengayishi ushbu ilmiy sohaga sezilarli rivojlanish, shakllanish va taraqqiyot olib keldi. Ushbu maqolada jahon va o‘zbek tilshunosligida onomastika va toponimika fenomenlari tadqiqi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Maqolada turli olimlarning nazariy yondashuvlari, metodologik qarashlari hamda toponimika leksikasining fan sifatida rivojlanishiga qo‘shgan hissalari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot, shuningdek, onomastik tadqiqotlarning ahamiyatini, ularning madaniy va tarixiy kontekstda o‘rganilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Toponimika, toponimiya, toponimist, topos, onomastika, lingvistika, leksikologiya, antroponimika, etnonimika, tasviriy toponimika, Regional toponimika, onomastik terminologiyani

ОНОМАСТИКА И ТОПОНИМИКА В МИРОВОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Наргизахон Болтабоева Махамматжон қизи,
преподавателя Андижанского государственного института иностранных языков

Аннотация: Расширение сферы ономастических исследований в узбекском языкознании принесло значительное развитие, становление и прогресс этой научной области. В данной статье представлена подробная информация об изучении явлений ономастики и топонимики в мировом и узбекском языкознании. В статье анализируются теоретические подходы, методологические взгляды и вклад различных ученых в развитие лексики топонимии как науки. Данное исследование также показывает важность ономастических исследований и необходимость их изучения в культурно-историческом контексте.

Ключевые слова: Топонимика, топонимия, топонимист, топос, ономастика, языкознание, лексикология, антропонимика, этнонимика, описательная топонимия, региональная топонимия, ономастическая терминология.

ONOMASTICS AND TOPONYMY IN WORLD AND UZBEK LINGUISTICS: THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES

Nargizaxon Boltaboyeva Maxammatjon qizi,
teacher of the Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: The expansion of the scope of onomastic research in Uzbek linguistics has brought significant development, formation and progress to this scientific field. This article provides detailed information on the study of the phenomena of onomastics and toponymy in world and Uzbek linguistics. The article analyzes theoretical approaches, methodological views and the contribution of various scientists to the development of toponymic vocabulary as a science. This study also shows the importance of onomastic research and the need to study it in a cultural and historical context.

Keywords: Toponymy, toponymy, toponymist, topos, onomastics, linguistics, lexicology, anthroponymics, ethnonymics, descriptive toponymy, Regional toponymy, onomastic terminology

Kirish. O‘tgan asrning o‘rtalarida o‘zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an’anaviy grammatika, leksikologiya, semasiologiya sohalaridan o‘z maqsad va vazifalariga ko‘ra farqlanuvchi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘la boshladi. Mana shu davrda paydo bo‘lgan va rivojlanishga yuz tutgan yangi yo‘nalishlardan birini o‘zbek onomastikasi tashkil qiladi. Ma’lumki, atoqli otlarga qiziqish o‘tmishda ham bo‘lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo‘lishi, etnografiyasi, ma’no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud. Ammo atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda to‘plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko‘lamda tahlil qilish o‘zbek filologiyasida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi.

Adabiyotlar tahlili. Bu boradagi ilk qadamlar H.Hasanov, T.Nafasov, E.Begmatovlarning tadqiqotlarida

o‘z ifodasini topdi va o‘zlarining tadqiqotlari orqali ko‘plab izlanishlar olib bordi. “Toponim deb bir joy nomiga aytiladi: lotincha topos - yer, onoma – nom, ism. Joy nomlari yig‘indisi toponimiya bo‘ladi. Joy nomlarini o‘rganuvchi fan esa toponimika deb ataladi. Toponimist shu soha bilan shug‘ullanuvchi mutahassisdir”[1,3]. Bunday ilmiy faoliyati bilan O‘rta Osiyo, shuningdek, toponimika faniga salmoqli hissa qo‘shgan olimlarimizdan biri S.Qorayev “Toponimlar shunday so‘zlarki, ular uzoq davr davomida iste’molda bo‘lganidan grammatik va fonetik jihatdan o‘zgarishlarga uchragan” ligini ta’kidlab o‘tgan. [2,251] Bunday tadqiqotlarni ingliz va o‘zbek tilida tahlil qilish bizning asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Keyingi yillarda o‘zbek nomshunosligi, ayniqsa, uning toponimika, antroponimika, etnonimika sohalari jadal rivojlandi. Endilikda o‘zbek antroponimlarining materiallari qoniqarli ravishda to‘plangani va tadqiq qilingani, deyarli barcha viloyatlar, bir qator tumanlar toponimiyasi monografik tarzda o‘rganilganini qayd etish mumkin. O‘zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko‘lamining kengaya borishi bu ilmiy sohaning rivoji, shakllanishi va ravnaq topishiga olib keldi. Hozirda kishi atoqli otlari, toponimlari va etnonimiyasiga munosabat tubdan o‘zgarganligi sababli, nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma’naviyatining nodir merosi sifatida ham e’zozlanadigan va o‘rganiladigan bo‘ldi. Natijada o‘zbek onomastikasining tadqiq yo‘nalishlari yanada kengaydi va nufuzi oshdi. O‘zbek nomshunosligining paydo bo‘lishi va zamonaviy ilmiy soha sifatida shakllanishi bu sohaning o‘ziga xos ilmiy terminologiyasining yaratilishi hamda uning rivoji va takomiliga sabab bo‘ldi. O‘zbek onomastikasining tarmoqlari:

Antroponimika - nomshunoslikning kishi ismlarini o‘rganuvchi bo‘limi

Toponimika -nomshunoslikning joy nomlarini o‘rganuvchi sohasi

Kosmonimika - nomshunoslikning kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarini o‘rganuvchi sohasi

Zoonimika -nomshunoslikning hayvonlarga qo‘yilgan atoqli otlarini o‘rganuvchi tarmog‘i

Etnonimika -har qanday etnos (urug‘, qabila, elat, xalq, millat va b.) ning nomi [3,4].

Atoqli otlarning paydo bo‘lishi, rivoji ko‘plab lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog‘liqdir. Shu sababli, atoqli otlar tadqiqotchisi nomlarni tahlil qilishda tilshunoslikdan tashqari boshqa fanlarning ilmiy usullaridan, ular erishgan yutuqlardan foydalanadi. Ushbu hol onomastika sohasining boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan munosabatini yuzaga keltiradi. Ushbu munosabatni quyidagilarda aks etganini ko‘rish mumkin: toponimika va leksikologiya, toponimika va etimologiya, toponimika va dialektologiya, toponimika va geografiya, toponimika va lug‘atshunoslik, toponimika va leksikografiya, toponimika va tarix, toponimika va kartografiya, onomastik statistika kabi.

Onomastikaning tahlil usullari. Atoqli otlarni o‘rganish bilan bog‘liq tahlil usullari uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Onomastik nazariyalarga daxldor terminlar: ilmiy toponimika, onomastik yo‘nalish, onomastik tekshirishlar, tarixiy nomlarni tiklash printsipi, tarixiy-etimologik yo‘nalish, toponimika metodologiyasi, toponimik qonuniyatlar, xususiy toponimika, umumiy toponimika kabi.

2. Atoqli otlarni o‘rganishning ilmiy yo‘nalishlari: ismlar etnografiyasi, kartografik toponimika, onomastik leksikografiya, toponimik atlas, toponimik leksikografiya, toponimlarni kompleks o‘rganish, toponimlarning tarixiy-etimologik tadqiqi, toponimlarning entsiklopedik lug‘ati, toponimlarning etimologik lug‘ati, toponimlarning etimologik tadqiqi va b.

3. Ilmiy tadqiq usullari: toponimik klassifikatsiya-onomastik tasnif, toponimik klassifikatsiya-toponimik tasnif, toponimik qatlamni belgilash, xronologik tasnif, ekstralingvistik klassifikatsiya, estetik tasnif kabilardir.

Tahlil va natijalar. Onomastikaning tarmoqlaridan biri Toponimikaga o‘tgan asrning oxirlaridauning turli masalalariga faol qiziqish va Toponimik tizimlarini ko‘rib chiqish borasida muntazam ravishda tadqiqotlar olib borildi. Toponimika - jo‘g‘rofiy nomlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, o‘zgarishi va to‘g‘ri yozilishini o‘rganuvchi fan bo‘lib turli izlanishlar vatadqiqotlar olib borilgan. XIX asr oxirlaridan e’tiboran dunyoda amaliy grammatika, xususan kartografiya ehtiyojlari munosabati bilan toponimikaga qiziqish kuchaydi. Toponimikadan maxsus asarlar paydo bo‘ldi. Geografik nomlarni o‘rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, Angliyada 1923-yilda dunyoda birinchilardan bo‘lib mamlakatdagi barcha toponimik ishlarni muvofiqlashtirish uchun “Toponimika jamiyati” tuzildi. Keyinchalik, G‘arbiy Yevropa, Fransiya, Germaniya. Po‘lsha va boshqa mamlakatlarda ham huddi shunday jamiyatlar yoki guruhlar paydo bo‘lgan edi [4,5] Bu izlanishlar geografik nomlarning shakllanishi va zamonaviy barqarorligida chog‘ishtrma tilshunoslik muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek,

mamlakatning turli mintaqalari onomastikasini o‘rganish muammolari alohida dolzarb bo‘lib, bu bir tomondan, til va etnik guruh tarixiga qiziqish ortib borayotgani ikkinchi tomondan bo‘lib onomastikaning tarixiy va madaniy hayotbilan o‘zaro bog‘liqligi bilan izohlanadi.

O‘zbekistonda toponimika fanining va geografik atamashunoslikning rivojlanishida professor H.H.Hasanovning xizmatlari katta olimning “ Geografik nomlari imlosi” (1962), “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” (1965), “Geografik nomlar siri” (1985). “Yer tili” (1977). “Geografiya atamalari lug‘ati” (1966). “O‘rta Osiyolik geograf va sayyohlar» (1964), “Sayyoh olimlar” (1981) kabi asarlarida, ko‘plab risolalari va maqolalarida O‘rta Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda joy nomlarini o‘rganishga qadim danahamiyat berib kelingani qayd qilingan. Tilshunos toponimistlardan professorlar T.Nafasov, Z.Do‘simov, dots.N.Oxunov O‘zbekistonda toponimikasining rivojlanishiga, toponimlarning nominatsion (nom lanish) qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo‘shdi va ko‘plab joynomlarining etimologiyasini aniqlab berdilar. O‘zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan biri T.Nafasov O‘zbekistonda birinchi bo‘lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Keyinchalik sohaga oid bir qancha risola, maqolalar chop etdi. Uning “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati”da (1988), asosan, Janubiy O‘zbekistondagi mikrotoponimlar etimologiyasi yoritilgan. Shu bilan birga mintaqadagi Boysun, Kesh. Chag‘onyon, Qarshi kabi ba’zi tarixiy toponimlarga ham etimologik izoh berilgan. Z.Do‘simov Xorazm toponimiyasini o ‘rganib, joy nomlarining tarixi va etimologiyasi, ularning lingvistik xususiyatlari, modellari va tiplarini aniqlash sohasida ishladi. “Xorazm toponimlari” monografiyasida(1985) Xorazm toponimlarining shakllanishi va ularning taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qildi. Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, qabila, elat, urug‘-aymoq nomlarining kelib chiqish tarixini (etnogenezini) hamda geografiyaga oid atamalarni o ‘rganishda Ya.G‘.G ‘ulomov,R.N.Nabiyev, A.R.Muhammadjonov, F.Abdullayev, S.Ibrohimov, O‘zbekistonda birinchi toponimik kartoteka tuzishda ishtirok etgan H.T.Zarifov, etnograflar - E.Fozilov, M.Shoabdurahmonov, X.Doniyorov, R. Qo‘ng‘irov , geograflar - H. H asanov, S.Q orayev kabilarning ishlari diqqatga sazovordir.

Toponimikaning o‘zi ham majoziy ma’noda insoniyat tarixining o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida ifodalinishi mumkin. “Geografik nomlar manzilgina emas, balki ko‘pdan-ko‘p axborot - tarixiy, geografik, lingvistik ma’lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega, ma’nosiz nom bo‘lmaydi”deb fikr bildirgan toponimshunoslardan Zohid Madrahimov o‘zining o‘quv qo‘llanmasida[4,13]. Lekin, buo‘rindashuni takidlash joizki,olibborilganizlanishlar faqat bir til uchun hos bo‘lib, ingliz va o‘zbek tillaridagi toponimlarnazariy va lingvistik jihatdan o‘rganish asosiy muammolarimizdan biridir. Toponimikaningnazariyvaamaliy asoslariishlabchiqildi,Toponimikasohasidabir qancha tadqiqotlar maydongakeldi. Bunda bir necha tilshunoslartoponimikaningturli hilxususiyatlarinitadqiqqilishgan. Jumladan:

- Toponimlarni ilmiy tadqiq etishda ingliz olimlaridan K.Kameron, D.A.Mills, U.Edison, A.Uillyam, T.Bayn, B.Koks, G.Margaret, I.Eylert, M.Kelly shuningdek amerikalik J.R.Styuart, A.Drey, D.P.Jon, S.Ivmalm, A.P.Morgan kabi olimlar kata ishlarni amalga oshirgan
- Toponimikaning nazariy muammolarini ishlab chiqish va toponimik tadqiqot usullarini ko‘rib chiqishda V.A.Nikonov, A.V.Superanskaya, A.P.Dulzon, E.M.Murzaye,V.N.Toporov, O.N.Trubachev, N.V.Podolskaya, B.A.Serebrennikov, N.F.Alefirenk,E.Begmatov tadqiqotlar olib borgan
- Tasniflarni tartibga solish, onomastik terminologiyani tizimlashtirishda T.P.Bondaruk,V.A.Kazake vich,L.A.Kapanadze, N.V.Podolskaya, F.P.Savarenskiy,A.I.Sobolevskiy,N.I.TolstoyV.B.Shostakovich ilmiy izlanishlar olib borib turli hil kitoblar va monografiyalar yozgan
- Toponimlarningleksikagako‘rabo‘linishinilingvistikasoslash va semantikhususiyatlarini: V.V.Bartold, S.Berg,Y.A.Karpenko,A.K.Matveev, M.Selishchev,A.V.Superanskaya,O.N.Trubachev.
- Regional toponimikaning etnolingvistik tahlil qilishda F.Y.Korsch,F.Y.Kryukov,V.P.Lemtyugov,O.N .Trubachev,M.Selishchev kabi toponimistlar ilmiy izlanishlar olib borgan.[5,23]

Xulosa. KeyinchalikToponimikagaoidbirnechakitoblar, lug‘atlar,risolavamonografiyalarnashretildi va boshqa bir qancha toponimshunos olimlar tomonidan toponomik atamalar ustidaizlanishlar olibborilib disertatsiyalar himoya qilindi.

Toponimikaga yondashuv turlicha bo‘lib, mavjud tavsifiy toponimikadan tanqidiygacha rivojlangan toponimikadir. Tasviriy toponimika to‘plashga e’tibor beradi. Joy nomlari va ularning ortidagi tarixni tasvirlash va ularni tashkil etuvchi lingvistik tuzilmalar ishlab chiqilgan.Ba’zi tadqiqotlar bilan bog‘liq tavsiflovchi toponimika borasida M.Kelli ilmiy izlanishlari bilaningliz toponimika fanining rivojiga ulkan

hissa qo‘shgan. Shuningdek Lens, Mak.Artur, Makkaferti, Lauder va boshqa shu kabi toponimist olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Boshqa tomondan, tanqidiy toponimik tadqiqotlar asosan e’tiborni qaratadi va bu kabi ijtimoiy-madaniy jihatlarning ta’sirini ochib berish, mafkura, motiv va ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy joylarga nom berish amaliyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar Madden, Jordan, Redwood kabi tadqiqotchilar tomonidan va Alderman va Ndlovu toponimikaning maqsadlari ilmiy fikrlarni ochib berdi va toponimikaning rivojiga ulkan hissa qo‘shildi [6.2].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu amaliyot joylarni nomlash boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan yaqin aloqada millat qurish, hokimiyatni qonuniylashtirish va shu kabi amaliyotlar mafkuralarni shakllantirishda muhim ekanligi bildirdi. Toponimika shulardan biri bo‘lgan zamonaviy davrdagi muhim ijtimoiy tadqiqotlar turi hisoblanadi. Bunday qiyosiy tadqiqotlarimiz uchun ingliz olimlarining ishlari lingvistik tadqiqotlari xam ko‘plab ma’lumotlar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Hasanov “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan”Toshkent.1965., - B.3;
2. S.Qorayev “Toponimika” Toshkent — 2006.,B,251;
3. «Onomastika va Toponimika» fanidan ma’ruza matnlari., Nukus – 2012.B.4;
4. Zohid Madrahimov “Tarixiy toponimika” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent 2017., B5-13;
5. Т.О.Васильевна «Лексико-семантический и структурно-граматический аспекты топонимики» Диссертация, Башкирский государственный университет. – С.23;
6. Nurhayati “Toponymy and Branding of Modern Residential Sites in Semarang” E3S W eb of Conferences 73, 0 (2018) https://doi.org/10.1051/e3sconf/2018730 ICENIS 2018. P,2;
7. M.W. Wanjiru, K. Matsubara, “Toponymy and Branding of modern residential sites in semarang” J. Cult. Geo.(2017).,B,4;
8. M. H. Kelly. “Names”. (1999);
9. P. Jordan. “Onomàstica”, A. S. O. 2.2016.

“TA’LIM” SEMALI LEKSEMALARARO LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR TAHLILI

Karimova Muslimaxon Mirzohid qizi,
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, «ta’lim» so’zi va uning sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlari tahlil qilingan. Maqola tilshunoslikda lug‘aviy birliklarning ma’nolari va ularning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishning muhimligini aks ettiradi. Differentsial ma’nolar, privativ, ekvipolent va dizyunktiv oppozitsiyalar haqidagi turli manbaalarga asoslangan holdao‘zbek tilida sinonimlar, antonimlar va giponimlarning lug‘aviy munosabatlari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: differentsial ma’nolar, privativ, ekvipolent va dizyunktiv oppozitsiyalar, sinonimlar, antonimlar ,giponimlar, partonimlar, lug‘aviy birliklar, absolyut sinonim.

ANALYSIS OF LEXICAL-SEMANTIC-RELATIONSHIPS OF THE TERM “TA’LIM”

Karimova Muslima Mirzokhidovna,
Doctoral student of Fergana State University

Annotation: This article analyzes the word «ta’lim» and its synonymous, antonymous, and hyponymic relationships. The article emphasizes the importance of analyzing the meanings of lexical units and their relationships in linguistics. Based on various sources related to differential meanings, privative, equipollent, and disjunctive oppositions, lexical relationships of synonyms, antonyms, and hyponyms are analyzed in Uzbek.

Key Words: differential meanings, privative, equipollent and disjunctive oppositions, synonyms, antonyms, hyponyms, partonyms, lexical units, absolute synonyms.

“ОБРАЗОВАНИЕ» – АНАЛИЗ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ К СЛОВУ

Каримова Муслима Мирзохидовна,
Докторант Ферганского государственного университета

Аннотация: В данной статье проведен анализ слова «ta’lim» и его синонимических антонимических и гипонимических отношений. Статья подчеркивает важность анализа значений лексических единицы их взаимосвязей в лингвистике. На основе различных источников, связанных с дифференциальными значениями, привативными, эквиполентными и дизъюнктивными оппозициями проанализированы лексические отношения синонимов, антонимов и гипонимов на узбекском языке.

Ключевые слова: дифференциальные значения, привативные, эквиполентные и дизъюнктивные оппозиции, синонимы, антонимы, гипонимы, партонимы, лексические единицы, абсолютные синонимы.

Kirish. Tilshunoslikda lug‘aviy birliklarning ma’nolari va ularning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilidagi sinonimlar, antonimlar va giponimlar lug‘aviy birliklarning murakkab va ko‘p qatlamli munosabatlarini aks ettiradi. Ushbu maqolada Yu. N. Karaulovning differentsial-ma’nolar, privativ, ekvipolent va dizyunktiv oppozitsiyalar haqidagi tasnifi asosida o‘zbek tilida sinonimlar, antonimlar va giponimlarning lug‘aviy munosabatlari tahlil qilinadi. Ushbu munosabatlarning tahlili tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning murakkabligini va boyligini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu maqolada ayniqsa «ta’lim» so’zi va uning sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlariga e’tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, mazmuniy maydonda so‘zlar barcha ma’nolarning yig‘indisi bilan bir butun sifatida ichki munosabat va aloqalarga kirmay, balki alohida ma’nolari bilan munosabatga kirishadi. Ma’noga so‘zlarning differensial mazmuniy belgilari yoki tarkibiy qismlarning to‘plami siftida qarash mumkin. Yu. N.Karaulov har qanday ikki to‘plam bir-biri bilan quyidagicha munosabatlarda bo‘lishini ta’kidlaydi: nol oppozitsiya, privativ oppozitsiya, ekvipolent oppozitsiya, dizyunktiv oppozitsiya.1

Nol oppozitsiya to‘plamlar o‘rtasidagi teng munosabat bo‘lib, bunday to‘plamlar elementlari ya’ni taqqoslanayotgan so‘zlar ma’nolarining asosiy qismlari bir xil bo‘ladi, bunday oppozitsiya zidlanish munosabatida bo‘lgan ikki birlik o‘rtasidagi sinonimik va sinonimik aloqalar bo‘ladi. Ularning asosiy qismlari o‘xshash, ular ma’no noziklari bilan farqlanadi. Privativ oppozitsiya yoki qat‘iy kirishish munosabatlari – bunday munosabatlarda tur va jins nomlari bo‘ladi, ba’zan bu munosabatlarni giponimiya deb ham ataydilar. Bunda ikki holat kuzatilishi mumkin: - ma’lum to‘plamning nisbiyligi (xususiyligini), ya’ni to‘plamning o‘zidan yuqori bo‘lgan to‘plam tarkibiga kirishi ko‘rsatiladi; - ma’lum to‘plam tarkibida ikkinchi to‘lpam (yoki uning birligi) muayyan nom sifatida ko‘rinadi. Ekvipolent oppozitsiya – bunda ikki to‘plam bir-biri bilan kesishadi, ularning kesishida ikkala to‘plamning mumiy qismi hosil qilinadi. Dizyunktiv oppozitsiya - bunda to‘plamlarning umumiy elementlari mavjud bo‘ladi.Sinonimiyani izohlashda ma’nodagi to’liq yoki qisman aynanlik, birining o’rnida ikkinchisini qo’llash imkoniyatlari hisobga olinadi. Sinonimik munosabat ma’nodoshlik munosabati deb ham yuritiladi. Sinonimiya tilda ko’p uchrasa-da, barcha lug’at tarkibini qamrab olmaydi, ya’ni barcha leksik birliklar sinonimga ega emas. Sinonim leksik birliklar ma’no umumiyligiga ega bo’lishi bilan birga, semantik farqlarga ham ega bo’ladi. Semantik umumiylik semantik farqlilikdan ustun turadi. Absolyut sinonimlarda semantik farq kuzatilmaydi: affiks-qo’shimcha, chapak-qarsak. Sinonimik qatorlardagi leksik birliklar quyidagi semantik farqlarga ega bo’lishi mumkin: konnotativ ma’no, denotativ ma’no, uslubiy farq.Hakimova M., «Semasiologiya», Toshkent, 2008.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

Deskriptiv usul: Sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlarni tavsiflash va tasniflash.

Kontrastiv usul: Lug‘aviy birliklarning o‘zaro munosabatlarini qiyoslash va farqlarini aniqlash.

Korpus tahlili: O‘zbek tilidagi lug‘aviy birliklarning korpusini tahlil qilish orqali ularning sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlarini aniqlash.

Tahlil. Sinonimik munosabatlar. Sinonimik munosabatlar tilshunoslikda ma’nosi bir-biriga yaqin yoki o‘xshash bo‘lgan leksik birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Sinonimlar denotativ, konnotativ va uslubiy jihatdan farqlanishi mumkin. Ta’lim semali leksik birliklar ortasida ham quyidagicha sinonimik munosabatlar kuzatiladi:

1. Ta’lim olmoq , tarbiya ko‘rmoq, ma’rifatli bo‘lmoq, ilm egallamoq, tahsil olmoq, o‘qimoq, o‘rganmoq.
2. Ustoz, muallim(a), o‘qituvchi, pedagog, tarbiyachi, instruktor, mudarris, murabbiy
3. Shogird, o‘quvchi,tolibi ilm, o‘rganuvchi, o‘quvchi
4. Oliygoh, o‘quv darhogi, o‘qish joyi, ta’lim maskani, maktab, universitet, institut
5. Yozmoq, qayd etmoq, muxrlamoq,
6. O‘qimoq, mutolaa qilmoq
7. Savodxonlik, ilmlilik, zehnlilk, bilimdonlik, topqirlik, hozirjavoblik

Misol uchun, «ta’lim» va «o’qitish» so‘zlari bir-biriga yaqin ma’noga ega bo‘lsa-da, «ta’lim» so‘zi kengroq ma’noga ega bo‘lib, umumiy jarayonni ifodalasa, «o’qitish» so‘zi asosan o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni bildiradi. «O’rganish» esa o’quvchining faoliyatini ifodalaydi. «Bilim berish» esa ta’lim jarayonining natijasiga e’tibor qaratadi.

Antonimik munosabatlar. Antonimik munosabatlar ikki leksik birlikning bir-biriga qarama-qarshi ma’no anglatishi bilan ajralib turadi. «Ta’lim» so’zining antonimi sifatida «bilimsizlik», «savodsizlik» so’zlari keltirilishi mumkin.

Misol uchun, «ta’lim» va «bilimsizlik» so’zlari bir-biriga qarama-qarshi ma’noda bo‘lib, «ta’lim» jarayonida bilim orttiriladi, «bilimsizlik» esa bilimning yetishmasligi holatini ifodalaydi.

Ta’lim semali leksik birliklar o‘rtasida ham quyidagicha antonimik munosabatlar kuzatiladi:

1.ma’rifat-jaholat
2.savodxonlik-savodsizlik
3.mafkuraviy bo‘shliq-mafkuraviy immunitet
4.yetuklik-aqli nohaslik
5.bilimlilik-nodonlik
6.bilimli-omi
7. uquvli-go‘l
8.mahoratli-tajribasiz
9.izlanish-eskilik sarqitlariga ergashish
10.izlanuvchan-dangasa
11.ijodkorlik-bir xillik

Giponimik munosabatlar

Giponimik munosabatlar jins-tur munosabati asosida shakllanadi. «Ta’lim» so’zi kengroq tushunchani

ifodalovchi leksik birlik bo'lib, uning ostida «maktab ta'limi», «oliy ta'lim», «kasbiy ta'lim» kabi giponimlar mavjud.

Misol uchun, «ta'lim» giperonimi ostida «maktab ta'limi», «oliy ta'lim» va «kasbiy ta'lim» giponimlari birlashadi. «Maktab ta'limi» umumiy o'rta ta'limni ifodalasa, «oliy ta'lim» universitet yoki institut darajasidagi ta'limni ifodalaydi. «Kasbiy ta'lim» esa ma'lum bir kasb yoki hunarga oid ta'limni bildiradi.

Ta'lim semali leksik birliklar o'rtasida ham quyidagicha giponimik munosabatlar kuzatiladi: Ilmli va ta'limga ega insonga xos xususiyatlar giperonimi: bilimli, izlanuvchan, ijodkor, dunyoqarashi keng, mulohazali, mushohadali, qiziquvchan, aqlli, madaniyatli. Faoliyat giperonimi: ta'lim-tarbiya jarayoni, dars berish, aqliy mehnat, o'z-o'zini tarbiyalash, ma'naviy o'zgarish, baholash jarayoni, kuzatish, tahlil qilish, xulosa qilish, muhokama, munozara, bahs. Hudud giperonimi: oliygoh, o'quv maskani, maktab, madrasa, maktabgacha ta'lim muassasi, kollej, texnikum, sinfxona, o'quv mashg'ulotlar xonasi, sinfxona, darsxona, kutubxona.

Partonimik munosabatlar. Partonimiya til birliklari o'rtasidagi butun va qism munosabatidir. Butun qismlarning birligidan tashkil topadi. Qism esa butunning tarkibiy qismi, tashkil etuvchi elementdir. Obyektiv olam yaxlit butunlik(sistema) tabiatiga ega bo'lib, u bosqichma-bosqich qismlarga ajraladi. Butun olam galaktikadan to elementar zarralargacha butun-qism munosabatida bo'ladi. Olamning aksi bo'lgan bu tilda ham butun-qism munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi, tilning qismlardan iborat pog'onali tuzilishga ega butunlik ekanligini ko'rsatadi: matn-gap, gap so'z birikmasi, so'z birikmasi-so'z, so'z-morfema, morfema-fonema. Har bir tilda butun-bo'lak munosabatini ifodalashga xoslangan muayyan leksemalar guruhi bo'ladi. Eng avvalo, partomiya, ya'ni xolomeronimiyani giponimiyadan farqlash kerak. Giponimiyada maydonning bir a'zosi boshqalariga nisbatan qarama-qarshi qo'yilib, ular o'rtasidagi ma'no munosabatlari aniqlansa, partonimiyada alohida olingan a'zoning uni tashkil qilayotgan ichki azolari bilan munosabati masalasi o'rtaga tashlanadi. Ta'lim semali leksik birliklar o'rtasida ham quyidagicha partonimik munosabatlar kuzatiladi: oliy ta'lim-universitet/institut, universitet/institute-fakultet, fakultet-kafedra, kafedra-kurs(bosqich), kurs-guruh.

Natija. O'zbek tilidagi lug'aviy munosabatlar tahlili, ayniqsa «ta'lim» so'zi misolida, sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlarning murakkabligi va boyligini ko'rsatadi. Bu munosabatlar tilni o'rganishda va tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, leksik birliklarning o'zaro munosabatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Yu. N. Karaulovning tasnifi bu munosabatlarning chuqur tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yu. N. Karaulovning differentsial-ma'nolar, privativ, ekvipolent va dizyunktiv oppozitsiyalar haqidagi tasnifi sinonimlar, antonimlar va giponimlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aniqlashda foydali bo'ladi. Sinonimlar tahlilida ularning denotativ va konnotativ ma'nolari orasidagi farqlarni aniqlash, antonimlar tahlilida ularning turli xillari orasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash, giponimlar tahlilida esa jins-tur munosabatlarini aniqlash mumkin.

Misol uchun, «ta'lim» so'zining sinonimik qatoriga kiruvchi «bilim berish» so'zi differentsial-ma'no bo'yicha «ta'lim»dan o'ziga xos jihati bilan farqlanadi, ya'ni «bilim berish» jarayonning natijasiga urg'u beradi, holbuki «ta'lim» so'zi umumiy jarayonni ifodalaydi. Antonimik munosabatlarda «ta'lim» va «bilimsizlik» so'zlari privativ oppozitsiyaga ega, chunki «ta'lim» mavjudlikni, «bilimsizlik» esa yo'qlikni bildiradi. Giponimik munosabatlarda esa «oliy ta'lim» va «kasbiy ta'lim» o'rtasida ekvipolent oppozitsiya mavjud, chunki ikkalasi ham «ta'lim» umumiy tushunchasiga kiradi, lekin turli yo'nalishlarda.

Xulosa

O'zbek tilidagi leksik birliklarning sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlarini tahlil qilish tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. «Ta'lim» so'zi misolida sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlarning tahlili bu munosabatlarning lug'aviy birliklar o'rtasidagi murakkab va boy munosabatlarini aks ettirishi ko'rsatildi. Bu munosabatlarning tahlili tilni o'rganishda va tushunishda katta yordam beradi. O'zbek tilidagi lug'aviy birliklarning sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlarini chuqurroq o'rganish uchun yanada kengroq tahlillar va tadqiqotlar olib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.Hakimova . Semasiologiya.Toshkent 2008.

2. Safarov Sh.S. Kongitiv tilshunoslik. – Samarqand: Sangzor, 2006.

3. Shamsiddinov X. So'zlarning funksional-semantik sinonimlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1995. №1, so'zlarning so'z funksional-semantik sinonimlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1996. №5.

4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar mahzani 2001 y.

5. Yu. N. Karaulovning «Umumiy va rus ideografiyasi» asari

O‘ZBEK TILI ISH YURITISH USLUBIDA HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Nazarova Dunyogo‘zal Baxtiyarovna,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar VazirligiNukus “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademiklitseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya. O‘zbek tili ish yuritish uslubi obyekti hisoblangan hujjatlar alohidadiqqatga sazovordir. Chunki hujjatlar jamiyatda rasmiy munosabatlarnitartibga solish vazifasini bajaradi. Bugungi kunda hujjatchilik masalasining dolzarb muammolarini tadqiq etdik. Mazkur maqolada hujjat turlari va ularning xususiyatlariyoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: hujjatchilik, funksional uslublar, ish yuritish, o‘zbek tili, uslub, tasnif, rasmiy uslub, diplomatik uslub, hujjat, adabiy til.

DOCUMENT TYPES AND THEIR FEATURES IN THE UZBEK LANGUAGE

Nazarova Dunyogo’zal Bakhtiyarovna,
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, teacher of the military-academic lyceum «Temurbek School» Nukus

Abstract. The documents in which the Uzbek language is considered as an object of business style are particularly noteworthy. Because documents serve to regulate official relations in society. Today we studied the actual problems of documentation. This article describes document types and their features.

Key words: documentation, functional styles, office work, Uzbek language, style, classification, formal style, diplomatic style, document, literary language.

ВИДЫ ДОКУМЕНТОВ И ИХ ОСОБЕННОСТИ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Назарова Дунёгўзал Бахтияровна,
Министерство внутренних дел Республики Узбекистан, преподаватель военно-академического лицея «Школа Темурбека» г. Нукус

Аннотация. Особого внимания заслуживают документы, в которых узбекский язык рассматривается как объект делового стиля. Потому что документы служат для регулирования официальных отношений в обществе. Сегодня мы изучали актуальные проблемы документирования. В этой статье описаны типы документов и их особенности.

Ключевые слова: документация, функциональные стили, делопроизводство, узбекский язык, стиль, классификация, официальный стиль, дипломатический стиль, документ, литературный язык.

Axborot muloqotning asosidir. Jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasidagi rasmiy munosabatlarda axborot almashinuvi jarayoni yuz beradi. Rasmiy munosabatlarda axborotning qay yo‘sinda ifodalanishi qolgan funksional uslublarda tubdan farq qiladi. Xususan, rasmiy uslubda axborot ulashishning asosiy shakli – bu hujjatlardir. M. Aminov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan kitobda mualliflar hujjatlarning, avvalo, axborot tashuvchi vosita ekanligini ta’kidlashgan[1].

Hujjat so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, isbot, dalil, sabab, bahona kabi ma’nolarini anglatadi. Avvalo, hujjat faqat ijtimoiy ma’lumotlarga tegishli bo‘lib, uning muhim xususiyati potensial iste’molchilarning ma’lum muammolarni hal qilishda ma’lumotlardan foydalanishga tayyorligi bilan bog‘liq pragmatik komponent hisoblanadi. Fenomenologik kontekstda ushbu foydalanishga tayyorlik xabarga ishonch sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida, ishonchning o‘zi shaxsiy yoki institutsional xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Shubhasiz, shaxslararo va guruhlararo qarama-qarshiliklarning kuchayishi sharoitida, xabarni boshqarish asosida ishonchni ta’minlashning institutsional shakli birinchi o‘ringa chiqdi. Ushbu institutsional boshqaruv ma’lumot va axborotning o‘ziga hujjat sifati xususiyatini beradi. Amalda biz bunday xabarlar va boshqa axborot obyektlarini hujjat maqomi bilan ta’minlaymiz.

Yozma matnlar orqali ifodalangan hujjatlar huquqiy ahamiyat kasb etishini alohida aytib o‘tmog‘imiz zarur. Hujjatlar yordamida biror narsani isbot qilishingiz yoki biror narsadan dalil berishingiz hamda biror narsaga bo‘lgan huquqingizni tasdiqlashingiz mumkin. Shu boisdan, Saodat Sultonsaidova va O‘lmas

Sharipovalar bejizga hujjatlarda fikr aniq, qisqa, lo‘nda (ravon) bayon qilinishi lozim deb ta’kidlamagan ekan[2].

Har qanday tashkilotning boshqaruv faoliyati va ishlash prinsiplari hujjatlarga asoslanadi. Boshqa holatlarda bo‘lgani kabi rasmiy munosabatlarda ham axborot og‘zaki, qog‘oz hamda elektron shaklda almashinishi mumkin. Lekin ish yuritish munosabatlaridagi ma’lumotlarning asosiy qismi (taxminan 90%) hujjatlashtirilishi zarur. Shuningdek, barcha hujjatlarda keltirilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish hamda samaradorligini oshirish, nizoli vaziyatlarni hal etish, boshqaruv faoliyatini tahlil etish va boshqa vazifalarni ham bajarish zarur. Ish yuritish sohasida hujjat xodimning ham mehnat obyekti, ham uning natijasi hisoblanadi.

Hujjat - bu zamon va makonda ma’lumotlarni uzatish imkoniyatiga ega bo‘lgan moddiy obyektdir. Shu vaqtga qadar uning asosiy tashuvchisi qog‘oz hisoblangan bo‘lsa, hozirgi kunda uning elektron shakllari ham mavjud. Hujjat bir qancha funksiyalarni bajaradi, ulardan aososiylari quyidagilar: axborot, tashkiliy, kommunikativ. Ushbu funksiyalar ichida eng muhimi axborot funksiyasi hisoblanadi. Hujjatda shaxsning amaliy va aqliy faoliyati qayd etiladi.

Hujjat – bu voqea-hodisalar, axborotlar va ma’lumotlarni taqdim etish uchun faktik nuqtayi nazardan foydalanadigan kitobiy uslub shakli. Unda ko‘pincha voqelikni xolis yondashish bilan tasvirlashni maqsad qilib qo‘yadi. Faktlarni o‘z holicha taqdim etadi.

Hujjat tashkiliy funksiyaga ega bo‘lib, u yordamida odamlar guruhlarining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishga ta’sir qilish mumkin. Korxonalar va tashkilotlarning tashqi aloqalari hujjatlarning kommunikativ funksiyasi bilan ta’minlanadi.

Hujjat yuridik funksiyaga ega, chunki uning mazmuni ish munosabatlari taraflari tomonidan munozarali masalalarni ko‘rib chiqishda dalil sifatida ishlatiladi. Shuning uchun ham hujjatchilikda imlo va tinish belgilariga alohida e’tibor berish kerak[2].

Har qanday tashkilotning boshqaruv faoliyati va ishlash prinsiplari hujjatlarga asoslanadi. Boshqa holatlarda bo‘lgani kabi rasmiy munosabatlarda ham axborot og‘zaki, qog‘oz hamda elektron shaklda almashinishi mumkin. Lekin ish yuritish munosabatlaridagi ma’lumotlarning asosiy qismi (taxminan 90%) hujjatlashtirilishi zarur. Shuningdek, barcha hujjatlarda keltirilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish hamda samaradorligini oshirish, nizoli vaziyatlarni hal etish, boshqaruv faoliyatini tahlil etish va boshqa vazifalarni ham bajarish zarur. Ish yuritish sohasida hujjat xodimning ham mehnat obyekti, ham uning natijasi hisoblanadi.

Hujjat - bu zamon va makonda ma’lumotlarni uzatish imkoniyatiga ega bo‘lgan moddiy obyektdir. Shu vaqtga qadar uning asosiy tashuvchisi qog‘oz hisoblangan bo‘lsa, hozirgi kunda uning elektron shakllari ham mavjud. Hujjat bir qancha funksiyalarni bajaradi, ulardan aososiylari quyidagilar: axborot, tashkiliy, kommunikativ. Ushbu funksiyalar ichida eng muhimi axborot funksiyasi hisoblanadi. Hujjatda shaxsning amaliy va aqliy faoliyati qayd etiladi.

Hujjat – bu voqea-hodisalar, axborotlar va ma’lumotlarni taqdim etish uchun faktik nuqtayi nazardan foydalanadigan kitobiy uslub shakli. Unda ko‘pincha voqelikni xolis yondashish bilan tasvirlashni maqsad qilib qo‘yadi. Faktlarni o‘z holicha taqdim etadi.

Hujjat tashkiliy funksiyaga ega bo‘lib, u yordamida odamlar guruhlarining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishga ta’sir qilish mumkin. Korxonalar va tashkilotlarning tashqi aloqalari hujjatlarning kommunikativ funksiyasi bilan ta’minlanadi.

Hujjat yuridik funksiyaga ega, chunki uning mazmuni ish munosabatlari taraflari tomonidan munozarali masalalarni ko‘rib chiqishda dalil sifatida ishlatiladi. Shuning uchun ham hujjatchilikda imlo va tinish belgilariga alohida e’tibor berish kerak[2].

Nihoyat, hujjat ta’lim funksiyasini bajaradi. Bu ijrochini intizomli qiladi, yuqori darajadagi ta’lim darajasini talab qiladi va yaxshi shakllangan hujjat boshqaruv xodimlarining estetik didini tarbiyalaydi, biznes sheriklar oldida tashkilotning obro‘sini oshiradi.

Z.M. Jo‘rayev hujjatlarda tilning ikki vazifasi, ya’ni xabar berish va buyurish vazifalarini amalga oshiradi deya ta’kidlashadi[1].

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, hujjatlar huquqiy kuchga ega, shu sababdan hujjat yaratish jarayonida sana, imzo, muhr, tasdiqlash shtampi kabi rekvizitlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi muhim hisoblanadi. Zamonaviy texnologiya imkoniyatlari orqali vujudga kelgan “elektron imzo”lar hujjat aylanishida keng foydalanilyapti. Bunday vositalardan foydalanish hujjatchilik rivojiga katta hissa

qo‘shadi deb hisoblaymiz.

Shartli ravishda har qanday hujjatni uch qismga bo‘lish mumkin:

- sarlavha qismi (u matndan oldin joylashgan tafsilotlarni o‘z ichiga oladi);
- asosiy qism (“matn” va “ilovalar” tafsilotlari);
- yakuniy qismi (matn va ilova ostida joylashgan tafsilotlar).

Shunday qilib, hujjatning shakli deganda uning rekvizitlari va joylashuvining mazmun-kompozitsiya sxemasi yig‘indisi nazarda tutiladi.

Hujjatlarni rasmiylashtirish ish yuritish jarayonining eng muhim qismlaridan biridir. Hujjat rasmiylashtirish jarayonida ravonlik; masalaning mohiyatini, ishning holatini aniq bayon eta olish; taklif, so‘rov, talabni bir ma’noda shakllantirish; o‘z xulosasini ishonchli asoslab bera olish kabi talab etiladigan xislatlar xodimning yuqori kasbiy mahoratidan darak beradi. Hujjatlar tashkilot yoki muassasaning ichki munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi hamda tashqi tuzilmalar bilan aloqa qilishni ta’minlovchi vositadir.

Hujjatlarni tasniflash tamoyillari butunlay boshqacha bo‘lib, bu haqidaM. Aminov va boshqa hammualliflar “Davlat tilida ish yuritish” kitobida bu haqida to‘xtalib o‘tib, tasniflashda bir necha jihatlardan kelib chiqilishini, mutlaq bir xil guruhlashtirish mavjud emasligini aytib o‘tishgan[3]. Biz ham ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda shuni qo‘shimcha sifatida aytib o‘tishimiz zarurki, ish yuritish sohasi umumrasmiy uslubning katta qismini egallagani uchun unda foydalaniladigan hujjatlar miqdori ko‘pligi sababli ularni ma’lum bir tasnif orqali guruhlashtirishning imkoni yo‘q. Bunday holatda hujjatlarni tasniflash muammosiga ikki xil yondashuv orqali yechim izlash mumkin. Birinchisi, rasmiy uslubning ichki turlarini aniqlashtirib, dastlab, hujjatlarni rasmiy uslubning ichki uslublariga tegishlilarini ajratish, keyin ushbu ichki tur doirasida hujjatlarni tasniflash. Lekin bu yerda bitta muammo borki, ba’zi bir hujjat turlari bir vaqtning o‘zida bir nechta tur tarkibiga kirishi mumkin (masalan: ariza, dalolatnoma). Yana bir muammo bir xil hujjat turlari ikki uslub tarkibida ikki xil maqsad orqali shakllanadi (misol uchun: shartnoma xodim va tashkilot o‘rtasida, savdo jarayonida tovar oldi-sotdisida hamda xalqaro munosabatlarda davlatlar o‘rtasida imzolanishi mumkin). Bunday holatda uchala holatdagi shartnomaga alohida ta’rif va tasnif zarur. Ikkinchi yondashuv esa hujjatlarning umumxususiyatlaridan kelib chiqib ma’lum tasniflarga ajratish. Bunda ham ayrim muammolar ko‘zga tashlanadi. Avvalo, rasmiy uslubning ichki bo‘linishi hisobga olinmaydi. Yana bir muammo ba’zi tasniflashda hujjatlar to‘liq ajratilgan guruhlarga tegishli hisoblanmaydi. Bunday muammolar doimo tasniflash jarayonida yuzaga keluvchi muammolar hisoblanadi desak ham yanglishmaymiz. O‘zbek tili ish yuritish uslubi hujjatlarini tadqiqotimiz obyektini inobatga olgan holda ikkinchi yondashuvdan kelib chiqib tasniflashga harakat qilamiz.

Avvalo, hujjatlar o‘rniga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

- ichki hujjatlar
- tashqi hujjatlar[3]

Ichki hujjatlar tashkilot, muassasa, korxonalarning ichida foydalaniladigan hujjat turlaridir. Tashi hujjat turlari esa muassasalar o‘rtasidagi hujjatlar almashinuvi yoki ayrim shaxslar bilan bo‘ladigan rasmiy hujjat orqali ifodalanadigan munosabatlar.

Hujjatlar mazmuniga ko‘ra quyidagicha bo‘linadi:

- sodda hujjatlar
- murakkab hujjatlar[3]

Muayyan bir masalani o‘z ichiga olsa sodda hujjat hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq masalani o‘z ichiga olsa murakkab hujjat sanaladi. Masalan: bayonnoma, savdo shartnomasi, qonun.

Hujjatlar qabul qiluvchiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- bir manzilli
- ko‘p manzilli

Ko‘p manzilli hujjatlar - bu bir adresat tomonidan bir nechta oluvchilarga, odatda quyi tashkilotlarga yoki hamkor tashkilotlarga yuboriladigan hujjatlardir. Bir manzilli hujjatlar bitta oluvchiga yuboriladi.

Hujjatlar turli xizmat yozishmalari orasidagi munosabatga ko‘ra:

- o‘zidan yuqori instansiyaga yo‘naltiriluvchi hujjatlar,
- o‘zidan quyi instansiyaga yo‘naltiriluvchi hujjatlar,
- o‘zi bilan teng maqomga ega bo‘lgan idoraga yo‘naltiriluvchi hujjatlar

Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko‘ra:

- xizmat hujjatlari

- shaxsiy hujjatlar

Hujjatning konfidensial xususiyatlariga ko‘ra

- maxfiy hujjatlari
- ochiq hujjatlari

Maxfiy hujjat turlariga “davlat siri”, “harbiy sir, “xizmat siri, “tijorat siri”, “xizmat doirasida foydalanish uchun (XDFU)”, “shaxsga oid ma’lumotlar” va boshqalar kiradi. Maxfiy hujjatlar ham maxfiylik darajasi bo‘yicha o‘zaro yana ichki turga ajratiladi.

Hujjatlar mazmun bayonining shakliga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- xususiy
- namunaviy
- qolipli (yoki trafaretli)[3].

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasiga ko‘ra:

- qoralama;
- asl nusxa;
- nusxa;
- ikkinchi nusxa (dublikat);
- ko‘chirma .

Hujjatlar ifodalanish shakliga ko‘ra:

- qog‘oz;
- elektron.

Elektron hujjatlar turiga bir qancha elektron vositalar orqali yaratilayotgan hujjatlar misol bo‘la oladi: video, foto, audio hujjatlar

Ko‘rib chiqqanimizdek, hujjatlar bir qancha xususiyatiga ko‘ra tasniflanishi mumkin ekan. Biz shulardan asosiylari deb hisoblaganimizni keltirib o‘tdik. Bulardan tashqari, hujjat boshqa bir qancha tasniflarga ega bo‘lishi mumkin. Shu boisdan aytishimiz mumkinki, umuman olganda hujjatshunoslik sohasida qilinadigan ishlar talaygina. Xususan,

quyorida keltirib o‘tgan tasniflarimizga asoslanib jamiki hujjatlarni turlarga ajratib chiqish kerak;

hujjatlarning qolipini ishlab chiqish (bu borada o‘zbek tili ish yuritish uslubida katta ishlar qilinmagan, jumladan, ba’zi ma’lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, safar guvohnomasi kabilar mavjud)

elektron hujjatchilik asoslarini ishlab chiqish;

yangi so‘zlar(neologizm)ning hujjatlarda qo‘llanish tartibi va u ifoda etayotgan ma’noni to‘liqroq ochib berish imkoniyatlarini ishlab chiqish

o‘zbek tili lug‘at boyligida sinonimik qatoridan munosib dominantini ajratib hujjatchilik tizimiga kiritish kerak (masalan: yuz sinonimik qatordan hujjatchilikda ishtalish belgilangan).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘rayev Z.M. ZAMONAVIY DAVLAT ISH YURITISH NAZARIYASI, AMALIYOT1 VA BOSHQARUVNI ME’YORIY HUJJATLAR BILAN TA’MINLASH.Тошкент – 2011, bet-19
2. Saodat Sultonsaidova, O‘lmas Sharipova.O‘ZBEK TILI STILISTIKASI. TOSHKENT – 2009, bet-16.
3. M. Аминов va boshqalar. Давлат тилида иш юритиш.Тошкент – 2020, bet-16

FRANSUZ TILIDAGI FAIRE FE’LINING ISHLATILISHI, UNING SINONIMLIK XUSUSIYATLARI VA O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMA VARIANTLARI

Nuritdinov Navro‘zSafarovich,
Toshkent amaliy fanlar universitetio‘qituvchisi

Annotatsiyamazkur maqolada fransuz tilida eng faol ishlatiladigan fe’llardan birifaire fe’li kelib chiqish tarixi, ishlatilish o‘rinlari, turli til qurilmalarida qo‘llanilishida kuzatiladigan o’ziga xosligiva sinonimlikxususiyatlari haqida fikrlar keltirilib ,turli misollar tarjimalar bilan keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar fe’l,sinonim,lisoniy,faire, Dictionnaire de l’ancien langage François , Étymologie.

USAGE OF THE VERB FAIRE IN FRENCH, ITS SYNONYM CHARACTERISTICS AND TRANSLATION OPTIONS IN UZBEK

Nuritdinov Navroz Safarovich,
teacher ofTashkent University of Applied Sciences

Abstract. In this article, one of the most actively used verbs in the French language, the verb faire, the history ofits origin, places ofuse, its uniqueness and synonymy characteristics observed in its use in different language devices, various examples with translations are presented.

Key words ; Verb, synonym, faire, infinitive, fixed phrases, Dictionnaire de l’ancien langage François, Etymologie.

УПОТРЕБЛЕНИЕ ГЛАГОЛА FAIRE ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ, ЕГО СИНОНИМИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ВАРИАНТЫ ПЕРЕВОДА НА УЗБЕКСКИЙ

Нуритдинов Навроз Сафарович,
преподаватель Ташкентского университета прикладных наук

Аннотация; В данной статье рассматривается один из наиболее активно употребляемых глаголов во французском языке глагол faire, история его происхождения, места употребления, его уникальность и характеристики синонимии, наблюдаемые при его употреблении в разных языковых средствах, приводятся различные примеры с переводами.

Ключевые слова; глагол, синоним, лингвистический, делать, Словарь древнефранцузского языка, Этимология.

Fe’l- harakat bildiruvchi so‘zlar turkumi va shu turkumga oid har bir so‘z. Grammatikada «harakat» so‘zi keng tushunchali bo‘lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi, masalan: yurmoq ,yugurmoq, sakramoq, yig‘lamoq, uxlamoq, o‘ylamoq, sevmoq, tinchimoq, qurimoq fe’llar lug‘aviy ma’noga ega yoki ega emasligiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1.Mustaqil fe’llar.

2.Yordamchi fe’llar.

Mustaqil fe’llar, xuddi boshqa mustaqil so‘z turkumlariga oid so‘zlar kabi, lug‘aviy ma’noga ega bo‘ladi, gapning mustaqil bo‘lagi vazifasida kela oladi. Yordamchi fe’llar lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmaydi. Ular turli yordamchi vazifalarda kelib, turli qo‘shimcha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.Yordamchi fe’l lar o‘z vazifasiga ko‘ra 3 asosiy turga bo‘linadi:

1) fe’lyasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe’llar: qil, et, ayla, bo‘l (qabul qilmoq, taklif etmoq, tamom bo‘lmoq kabi);

2) fe’lning analitik shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe’llar (bular, odatda, «ko‘makchi fe’llar» deb yuritiladi). fe’lning bunday shakllari turli grammatik, modal va boshqa ma’nolarni ifodalaydi: o‘qib bo‘ldi, ko‘rib qoldi, qo‘rqib ketdi va boshqa;

3) bog‘lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe’llar. Masalan, qil, bo‘l: sportchi bo‘lmoq, o‘qituvchi bo‘lmoq.

«Ko‘makchi fe’l» yoki «yordamchi fe’l» termini turkologik adabiyotlarda bir muncha keng ma’noda qo‘llanib kelmoqda. Bu termin otlar bilan birikib, qo‘shma fe’l yasovchi va bog‘lama vazifasida

qo‘llanuvchi qil, et, ayla, bo‘l fe’llariga nisbatan qo‘llanilibayrim adabiyotlardae- (edi, ekan...) to‘liqsiz fe’liga nisbatan ham qo‘llanadi[1].

Fransuz tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan fellardan biri faire bo‘lib bir necha o‘ziga xos jihatlari mavjud. Fransuz tilidagi faire fe’li ish harakatni amalga oshirmoq manosida kelib, qila olmoq,bajarmoq manolarini anglatadi vafransuz tilidagi 30 ga yaqin fe’llarga sinonim bo‘ladi.Shu nuqtai - nazardan faire fe’li fransuz tilida juda faol qo‘llaniladigan fe’llardan hisoblanadi. Shu bilan birga faire fe’li iboralar tarkibida fransuz tilidagi hamma zamonlarda va lisoniy qurilmalar bilan qo‘llanilgan holatlari ham uchraydi.

Faire fe’lifransuz tiliga lotincha «facio[1], infinitiv «facere» dan harakatning moddiy nuqtai nazardan ham, intellektual nuqtai-nazardan ham amalga oshirilishi manosida keladi. Fairefeli fransuz tilida9-asrdan ishlatila boshlangan.

Dictionnaire de l’ancien langage François da faire fe’lisubstantiv ravishda olingan infinitivdir[5]: deb keltirilgan. «Je vueil bien que chacun sache que je saiz ce faire» «Men buni qanday qilishni hamma bilishini istayman»

Yuqorida keltirib o‘tilganidek Faire feli bir qator til qurilmalarida ishlatilib muloqot jarayonidajuda faol qo‘llanilib kelinadi.

Faire fe’li va +sport turlari+de predlogiko‘rinishida kelsa bu holatda fransuz tilidagi pratiquer fe’li bilan va ba’zida jouer fe’li bilansinonim bo‘lib keladi.

Faire + sports = Pratiquer + sport

Faire du sport = Pratiquer un sport (sport bilan shug‘ullanmoq)

faire du judo=pratiquer le judoDzudo bilan shug’ullanmoq

Il voudrait faire de la natation pour renforcer son dos. U belini mustahkamlash uchun suzishni xohlaydi.

Je fais du basket.= Je joue au basket. Men basketbol o‘ynamoqdaman.

Anne et Marie font du volley. Anne et Marie jouent au volley. Anne va Mari voleybol o‘ynashmoqda. Bu misollarda alohida etibor qaratilishi lozim bo‘lgan yana bir muhun jihat predloglar qollanilishidir.

Faire fe’li va jouer musiqa asboblari bilan ham birgalikda qo‘llanilganda sinonim bo‘ladi masalanJe fais du piano/de la guitare. Je joue du piano/de la guitare. (Jouer). Faire fe’l i boshqa ko‘pchilik fe’llar bilan nisbiy ma’noda ishlatiladi; va u har doim o‘zidan oldingi va tegishli fe’lning sifati va ma’nosini oladi.

Qu’est-ce que tu aimes faire ?sen nima qilishni yaxshi ko‘rasan? Il faut le faire - Buni qilish kerak. Ondoit faire- qilinishi kerak.Rien à faire-Qilinadigan ish yo‘q.Faire fe‘li boshqa fe‘llar bilan birikkanda bajarilgan ish harakatning orttirma daraja ma‘nosini bildiradi ya‘ni qildirmoq deb tarjima qilinadi:

faire rire – kuldirmoqfaire manger – yedirmoq faire venir – keltirmoqfaire écrire – yozdirmoq faire tomber – yiqitmoqfaire partir - jo‘nattirmoq

Faire fe’liga sinonim bo‘la oladigan ayrim fe’llarCoûter : Ça fait combien = ça coûte combien. Bu qancha turadi (narx, hisob so‘rashda.Ça coûte dix euros. = Ça faitdix euros.Bu o‘n yevro turadi

S’habituer : Je ne m’y fais pas. = Je ne m’y habite pas.Ko‘nikish: ko‘nikmayapman. Men bunga ko‘nika olmayapman.

Procéder : Je ne sais pas comment il faut faire. = Je ne sais pas comment il faut procéder.Men buni qanday qilishni bilmayman. = Qanday davom etishni bilmayman.

Cuisiner : J’ai fait un gâteau. = J’ai cuisiné un gâteau.Men tort pishirdim

Rédiger : J’ai rédigé ce commentaire = J’ai fait ce commentaire.Men bu fikrni yozdim (bildirdim)

(Écrire) J’écris un poème = Je fais un poème. Men sher yozdim

J’ai écrit ce commentaire,=J’ai fait ce commentaire. Men fikr bildirdim (yozdim)(Inventer) J’invente un poème.= Je fais un poème.

(Être attentif) Diqqatli bo‘lmoq - Faire attention ! Sois attentif !

Organiser/Donner) On organise/donne une fête = faire une fêteBayram tashkillashtirmoq Bayram qilib bermoq

Construire (qurmoq): Il faut faire un plan. = Il faut construire un plan.Reja tuzib olish kerak L’ouvrier a fait sa maison. L’ouvrier a construit sa maison. Ishchi o‘z uyini qurdi.

Mesurer (o‘lchamoq) Il mesure un mètre soixante-quinze Il fait un mètre soixante-quinze.

Accomplir : Ils ont accompli de grandes choses = Ils ont fait de grandes choses. Ular katta ishlarni amalga oshirdilar.

Shuningdek faire fe’li bir necha turg’un iboralar tarkibida o‘zgarmas shaklda qatnashadi «Faire»:

iboralar tarkibida kelganda aksariyat holda 3 shaxsdayoki infinitif formasidaqo‘llaniladi.

4+4 font huit. 4+4 teng sakkiz.Ça fait combien, s’il vous plaît ? (pour demander l’addition).Marhamat qilib aytsangizbu qancha turadi (narx, hisob so‘rashda) Ça fait 90 euros.Bu 90 yevro turadi.

Il fait…+ [adjectif]faire + beau yoki mauvais Ob-havoholati > Havo yaxshi , yomon.Ushbu holatda har doim il fait shakli qo‘llaniladi va so‘roq formasining uch xil shaklida ifodalanish variantlari mavjud. Quel temps fait-il ?Quel temps il fait ?Ob havo qanday ? Il fait quel temps ?Javob variantida ham aynan faire fe’lining 3 shaxs ko‘rinishi qatnashadiIl fait beau.Havo yaxshi. Il fait un froid de canard. Havo juda sovuq (ibora sifatida ishlatiladi).Il fait un temps magnifique. Havo juda ajoyibQuand il fait beau, Sofia fait de la plongée sous-marine.Havo ochiq bo‘lganida Sofia suvga sho‘ng‘ish bilan shug‘ullanadi. Faire=demander la profession:kasbni so’rashda ham faire feli ishlatiladi;Tu fais quoi dans la vie ? Sen nima ish qilasan (kasbing nima)

ammo bunday savolga javob variantida faire felidan koproq être + profession shakli qo’llaniladi Je suis professeure de français.

Xulosa:Fransuz tilida eng kop qo’llaniladigan faire feli tarixan ham hozirgi kundagi muomala jarayonidagi nutqda va ilmiy doirada ham birdek keng va turli ma’nolarda foydalanilishiga qaramay ko’p hollarda qilmoq bajarmoq manosini ifodalab keladi va shu manoni anglatadigan fellarning deyarli barchasi bilan sinonim bo’la olishimi maqolada ko’rishimiz mumkin . Bu fe’llarning bajarilgan ish harakatniqay darajadaifoda eta ollganligifelningba’zi hollarda qaysi zamon da tuslanganligi yoki tuslanmagan holatda (infinitiv)kelganligi bilan ham bog’liq.Yana bir jihat fransuz tilida aynan shu fel har doim faqat bir zamon da va birgina shaxsda keladigan qotib qolgan ibora ko’rinishi ham mavjud ekanligini guvohi bo’ldik .

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbek tilida ko‘makchi fe’llar Azim Hojiyev – Тошкент: 6-bet

2. Fransuz tilining amaliy grammatikasi Mamatov A ,Mirxoliqov M, Asqarov A – Тошкент:46 –bet

HAMZASHUNOSLIKKA MUHIM ULUSH

Abdulazizbek Qodirov,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronovning Hamza ijodiga bag‘ishlangan “Hamzaning poetik izlanishlari xususida” maqolasining tahlili qisqacha yoritilgan, olimning o‘zbek she’riyatida mumtoz an’analardan zamonaviy she’riy yo‘nalishlarga o‘tishda Hamza ijodidagi janrlar xususiyati borasidagi qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: aruz, erkin she’r, eksperiment, musallas, masnaviy, bo‘g‘in.

ВАЖНЫЙ ВКЛАД В ХАМЗАВОВЕДЕНИЕ

Абдулазизбек Кадыров,
научный сотрудник Коканского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье кратко анализируется статья доктора филологических наук, профессора Дилмурода Куронова о творчестве Хамзы «О поэтических исследованиях Хамзы», а также анализируются взгляды ученого на жанровую характеристику узбекской поэзии при переходе от классической поэзии к современной.

Ключевые слова: аруз, свободное стихотворение, эксперимент, слог мусаллас, маснави.

AN IMPORTANT CONTRIBUTION TO SCIENCE

Abdulazizbek Kadyrov,
researcher of the Kokan State Pedagogical Institute

Annotation: This article summarizes the analysis of Hamza’s work by Doctor of Philology, Professor Dilmurod Quronov, and analyzes the scholar’s views on the characteristics of genres in Uzbek poetry in the transition from classical to modern poetry.

Keywords: aruz, free poetry, experiment, musallas, masnavi, syllable.

Mumtoz adabiyotimizda azaldan erkin she’r tizimi barmoq she’r tizimidan kelib chiqqan, degan qarash o‘rinlashib qolgan. Bu xususida filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronov o‘zining “Hamzaning poetik izlanishlari xususida» maqolasida o‘z fikrlarini bildirib o‘tadi: “Ilmiy anjumanlardan birida ma’ruzachi , “Devoni Nihoniy”da mumtoz adabiyot an’analari davom ettirilgan deb qoldi. Bir qarashda to‘g‘ri fikr. Ammo nihoyatda bahsli. Negaki, , “Devoni Nihoniy” da mumtoz adabiyot an’analari davom ettirilmagan”[3]. Haqiqatdan ham, Hamza ijodini kuzatar ekanmiz, shoir ijodida faqatgina mumtoz adabiyot namunalarini emas, ijodkorning erkin ijodiy eksperimentlarini, milliy adabiyotimiz uchun yangilik bo‘lgan janrlardagi misralarini ko‘rishimiz mumkin. Domla Quronov Hamzaning “Boybuchchalar semiring”[4] nomli she’rini tahlilga tortish orqali yuqoridagi fikrlarni asoslashga harakat qiladi:

Boybachchalar semiring, beshni o‘n beshga bering,
Yaxudlarni boy qilg‘och, yorib kesak kemiring.
O‘qutmang o‘g‘ullarni etar ushbu tijorat,

Bechoralar to‘y bering, elga oshu to‘n bering.
Hovli-joydan ajralgach ko‘cha-ko‘yda cho‘p tering,
Azizlar qilurlar bu kun sizni nazorat.

Ko‘rinib turganidek, shoir ushbu satrlar orqali yangicha bir ko‘rinishdagi she’rni yaratgan. Ushbu uch misradan iborat she’r mumtoz adabiyotimizdagi musallaslarga o‘xshab ketsa-da, musammat tizimida yozilmagan. Masnaviylarga yana bir misra qo‘shish orqali yangicha ohangdagi she’r yuzaga keladi. Shoir birinchi va ikkinchi misralarda fikrlarni bayon qilar ekan, asosiy zarb nuqtasini uchinchi misraga yuklaydi[5]. Ma’lumki, Hamza yangilikka intiluvchan, go‘zallikka oshno qalb sohibi bo‘lgan. Shoir she’riyatimiz mumtoz an’analarini mahorat bilan davom ettirib, o‘zining devonini tuzdi. Bundan

tashqari, u yangi davr she’riyatini boshlab beruvchilar qatorida bo‘ldi. Xususan, o‘zbek she’riyatida birinchilardan bo‘lib erkin she’r yozdi. Hamza rus tilini yaxshi bilganligi uchun rus adabiyoti bilan yaxshi tanish bo‘lgan. Uning erkin vaznda yozilgan she’rlari ham aynan rus adabiyoti ta’siri hisoblanadi. Buni shoirning o‘zi ham e’tirof etganini shoir Sobir Abdulla hikoya qiladi. Uning eslashicha, Hamza “Qutlug‘ bo‘lsin” she’rining bosilmaslik sababini bilgani, “Yangi Farg‘ona” gazetasining redaksiyasiga kirganida muharrir, she’r o‘zbek adabiyotida uchramagan vaznda yozilganligi… ahli dinga qattiq tegadigan satrlar bilan to‘ldirilganligi sababli bosilmaganini aytgan[1]. Shunda Hamza: “She’rning uzunligi to‘g‘ri, vazni siz uchun g‘alati, yotko‘ringan bo‘lsa ham, men bu vaznni Vladimir Mayakovskiydan o‘rganganman…” deb javob beradi. Shoir Sobir Abdullaning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqqan holda, Dilmurod Quronovning Hamza ijodi borasidagi qarashlari to‘g‘riligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, domlaning Hamza borasidagi mulohazalari zamiridan yana bir ma’lumotni ilg‘ab olsak bo‘ladi. O‘zbek adabiyotidagi erkin she’r vazni barmoq vaznidan kelib chiqmagan. Aksincha, erkin she’r vazniga aruz orqali o‘tilgan. Dilmurod Quronov ushbu fikrni Hamza ijodi bilan asoslaydi. Hamzaning yuqori tabaqaga mansub, “ustida malla, boshida katta salla, qo‘lida tasbeh” o‘girib yuradigan, ma’naviy qashshoq shaxslar fosh etilgan “She’ri mansur”ida band qurilishi erkin emas. Uning har bandi musallas janrida yozilgan asarlardagiday uch misradan tashkil topgan:

Ayoz, har qancha bilsang ham oz,
Qish g‘amini eganing ila boqarmudi,
Seni o‘z yonidan yoz.

“Al qasos ul haq”ga munkirmusan,
Belang oldingda turub birov bolasiga,
Belingni qilasan xo‘roz.

She’rning hamma bandlari (jami 10 band)dagi misralar hijolar va turoqlar miqdori jihatidan xilma-xildir. Masalan, uning bir bandining birinchi misrasi 9 bo‘g‘indan, ikkinchisi 13 bo‘g‘indan, uchinchisi 7 bo‘g‘indan iborat bo‘lsa, boshqasinikining birinchi misrasi 15, ikkinchisi 14, uchinchisi esa 13 bo‘g‘indan iborat va hokazo. Lekin bandlardagi ma’nolarni, mazmunni, asardagi umumiy ritmni bir-biri bilan bog‘lab turish vazifasini qofiya bajaradi. She’rning birinchi bandining uchinchi misrasi “yoz” so‘zi bilan qofiyalanganini yuqorida ko‘rdik. Shu so‘zga hamma bandlar uchinchi misralarining so‘nggi so‘zlari qofiyadoshdir: “yoz – xo‘roz – piyoz – joynamoz – niyoz – oz – andoz – daroz – oz – moz – darboz”. she’rlarni shu xilda qofiyalash Hamzaning ko‘plab she’rlariga xos xususiyatdir.

Olim Hamzaning she’riy merosida murabbaga tarje’ qo‘shish asosida yuzaga kelgan she’riy shakllar ham keng o‘rin tutganligiga ahamiyat beradi. Shoir ijodida bu she’riy shaklning ham turli variantlarini ko‘radi . Jumladan, musammatning bir turi bo‘lmish mumtoz murabba’ga tarje’ qo‘shilishidan hosil bo‘lgan she’riy shakl bilan birga, qofiyalanish tartibi turlicha (a-a-a-a;a-a-b-a;a-a-b-b;a-b-b-a) bandlarga tarje’ qo‘shish asosida hosil qilingan she’riy shakllar ham bir talay. Shuningdek, tarje’larning o‘zi ham xilma-xil: bir misralik, ikki misralik, uch misralik tarje’lar; turli uzunlikdagi, ya’ni bo‘g‘inlar soni yoki o‘lchovi turlicha misralardan tarkiblangan tarje’lar. Shoirning bu turdagi she’rlarini adabiyotshunoslik uchun keng tadqiqot obyekti bo‘lishini ta’kidlagan olim, “Hamza ijodiy eksperimentlarining ushbu qirrasi maxsus o‘rganishga loyiq, jiddiy tadqiqotga material bera oladi” degan xulosaga keladi[6].

Dilmurod Quronov she’riyatimizda “ijroviy lirika” deb ataluvchi lirik asarlarning bu turi ommalashishi va bugungi kunga kelib salmoqli o‘rin egallaganida Hamzaning hissasi juda katta deb baho beradi. Shoirning “Bir eshon hazratlari aytalar ekan” she’rini “ijroviy lirika”ning she’riyatimizdagi ilk namunalaridan biri sifatida ta’kidlaydi. She’rning bu turini Hamzaning keyingi, sho‘ro davridagi ijodida ham ancha keng o‘rin tutganligiga ahamiyat beradi. Jumladan, shoirning“Bir sharmanda tilidan”, “O‘zbek xotuni tilidan”, “Bir qo‘rqoq “mas’ul ishchi”ning tilidan”, “Shahrisabz mahallali Azimxo‘ja eshon binni Toshxo‘ja eshonning og‘iz boylashlari” kabi she’rlari “ijroviy lirika”ga misol qilib keltiradi. E’tibor berilsa, shoir bu tur she’rlarining sarlavhasidayoq asarning o‘ziga xos tomoni, unda aytilgan fikr-hislar qanday tushunilishi kerakligiga ishora qiladi. Negaki, u yozgan she’ri o‘quvchi uchun yangilik ekanini, asarning to‘g‘ri tushunishi uchun unga yo‘nalish berish zarurligini teran his etadi. Olim yuqorida keltirilgan misollardan shunday xulosasga keladi: yangi o‘zbek she’riyatining shakllanishi va poetik takomilida Hamzaning juda katta xizmatlari bor. Sho‘ro davrida, Hamza osmonlarga ko‘tarilganida

ham, asosan, uning g‘oyaviy tomonlariga e’tibor qilindi. Hozirgi kunda, Hamza nomini oqlash maqsadi bilan yozilayotgan yakkam-dukkam chiqishlarda ham shaxsi va ijodining g‘oyaviy tomonlariga urg‘u berilib, uning jadidchilik harakatining namoyandasi, chinislomiy e’tiqod kishisi ekani kabilarga ko‘proq e’tibor qaratilayotganga o‘xshaydi. Holbuki, Hamzaning adabiyotimiz oldidagi xizmatlari g‘oyat katta bo‘lib, uning adabiyotimiz tarixida munosib o‘rin egallashiga haq bera oladi. Demak, hamzashunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar shoir ijodiy merosini chuqur tadqiq etish, asarlarining badiiy o‘ziga xosligi, adabiyotimizning poetik yangilanishidagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilmog‘i zarurdir[3].

Xulosa qilib aytganda, mafkuralar, tuzumlar o‘zgargani sari Hamza ijodini o‘rganish ham o‘zgarib boraverdi. Har bir hukmron mafkura shoirni o‘z g‘oyalarining jarchisi deb ko‘rsatishga intildi. Ammo, haqiqatni aslo sindirib bo‘lmaganidek, Hamzaning nekbin tuyg‘ular singdirilgan she’rlarini, betakror asarlarini ham xalq qalbidan o‘chirib bo‘lmadi. Uning she’rlarini takror-takror o‘quvchi insonlar, ijodini adabiyot qoidalari asosida sinchiklab o‘rganuvchi olimlar har zamonda bo‘ldi. Mana shunday fidoiy olimlardan biri Dilmurod Quronovdir. O‘ylaymizki, ustozning qarashlari Hamza ijodini o‘rganishda va adabiy davr chiziqlarini belgilashda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Биринчи китоб. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 426 б.
2. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. Монография. – Т.: Фан, 1970. – 331 б.
3. Қуронов Д.Адабиёт ва б. ҳақида (Илмий мақолалар тўплами). - Тошкент : Академнашр, 2019. – 21-б.
4. Қуронов Д. Мутолаа ва идрок машқлари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 336 б.
5. Қуронов Д. Талқин имкониятлари – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 58-б.
6. Қуронов Д. Завқимдан бир шингил. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 64

SINTAKTIK OMONIMIYA NUTQIY HODISA SIFATIDA

Rajabov Feruz Umarqulovich,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. So‘nggi yillarga kelib, badiiy matnda sintaktik omonimlarning o‘rni va ularni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirga kelib, sintaktik noaniqlik, ya’ni sintaktik omonimiyalarni aniqlash zamonaviy nazariy va amaliy tilshunoslikning eng muhim va asosiy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois mazkur maqolada, asosiy e’tibor, sintaktik omonimlarni o‘rganish masalasiga qaratilgan va lingvopoetikada badiiy mantdagi tilning turli birliklari, xoh u fonetik leksik-grammatik, xoh sintaktik birliklar bo‘lsin, muallif yoki yozuvchi biron bir stilistik maqsadni ko‘zlagan holda undan to‘g‘ri va unumli foydalanishga harakat qilishi ta’kidlangan. Til birliklari, ya’ni sintaktik birliklardan to‘g‘ri va unumli foydalanish yozuvchining uslubiy qirrasini namoyon qilishi atroflicha asoslangan.

Kalit so‘zlar: omonimiya, sintaktik omonimiya, sintaktik omomodel, struktur-sintaktik omonim, sintaktik omograf.

SYNTACTIC HOMONYMY AS A SPEECH PHENOMENON

Rajabov Feruz Umarkulovich,
senior teacher of Karshi Institute of Engineering and Economics, academic lyceum, (PhD)

Annotation: In recent years, special attention has been paid to the role of syntactic homonyms in literary texts and their study. By now, syntactic ambiguity, that is, the identification of syntactic homonyms, is considered one of the most important and fundamental problems of modern theoretical and applied linguistics. Therefore, in this article, the main attention is focused on the study of syntactic homonyms, and in linguopoetics, various units of the language in the artistic context, whether they are phonetic, lexical-grammatical, or syntactic units, with the author or writer aiming at some stylistic goal it is emphasized that he will try to use it properly and productively. The correct and effective use of language units, that is, syntactic units, is a reflection of the stylistic edge of the writer.

Key words: homonymy, syntactic homonymy, syntactic omomodel, structural-syntactic homonym, syntactic homograph

СИНТАКСИЧЕСКАЯ ОМОНИМИЯ КАК ФЕНОМЕН РЕЧИ

Раджабов Феруз Умаркулович,
Каршинский инженерно-экономический институт, старший преподаватель академического лицея, (PhD)

Аннотация: В последние годы особое внимание уделяется роли синтаксических омонимов в художественных текстах и их изучению. К настоящему времени синтаксическая многозначность, то есть отождествление синтаксических омонимов, считается одной из важнейших и фундаментальных проблем современной теоретической и прикладной лингвистики. Поэтому в данной статье основное внимание сосредоточено на изучении синтаксических омонимов, а в лингвопоэтике - различных единиц языка в художественном контексте, будь то фонетические, лексико-грамматические или синтаксические единицы, с автором или писателем. преследуя какую-то стилистическую цель, подчеркивается, что он постарается правильно и продуктивно ее использовать. Правильное и эффективное использование языковых единиц, то есть синтаксических единиц, основано на том, что проявляется стилистическая грань писателя.

Ключевые слова: омонимия, синтаксическая омонимия, синтаксическая омомодель, структурно-синтаксический омоним, синтаксический омограф.

Ma’lumki, omonimiya hodisasi tilshunoslikda juda keng tadqiq etilgan bo‘lib, u tilning barcha sathlarida kuzatiluvchi ko‘p qirrali lingvistik hodisadir. Ammo til sathlari orasida affiksal, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik omonimiya ko‘rinishlari atroflicha tahlilga tortilgan. Omonimiya o‘zbek tiliga ham xos hodisa bo‘lib, uzoq yillardan beri o‘rganilib kelinmoqda. Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” va Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asarlarida ham bu hodisaning

mavjudligi fikrimizga misoldir. Omonimiya hodisasini o‘zbek tilshunosligida o‘rganishda uning leksik-semantik va uslubiy imkoniyatlarini, asosan, leksik birlik sifatidagi mavqeyini o‘rganishga asosiy e’tibor qaratilgan. Biroq keyingi yillarda tilshunoslikda tub burilish, ya’ni o‘rganishda inson omilining paydo bo‘lishi lingvistik hodisalar va har qanday lingvistik hodisani til tashuvchisi bilan birgalikda ko‘rib chiqish antropotsentrik paradigmani til birliklarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu endi ularga o‘z tadqiqotlarida yangi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tildagi omonimiya hodisasi va omonimlarni o‘rganishda bunday yondashuvning qo‘llanilishi omonimiyaning nafaqat leksik birlik, hodisa, balki tilning barcha stadiyalarida, ayniqsa, sintaktik jihatdan o‘rganilishi mumkin bo‘lgan ko‘p qirrali hodisa ekanligini ko‘rsatdi[1].

O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari”, M.Mirtojiyev “O‘zbek tilidagi leksik omonim manbalari” M.A.Jo‘raboyevaning “O‘zbek tilida affiksal omonimiya”, Ravshanov Mahmud “O‘zbek tilining izohli lug‘atida omonimlar tavsifi”, B.T.Suyunov “O‘zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari”, X.B.Qodirova “Abdulla Qodiriy ijodida evfemik omonimiya”, S.Usmonov “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida omonimlar va sinonimlar”, S.M.Mutallibov “Omonimiya na polisemiya haqida”, U.Tursunov, J.Rajabov “Omonimlarning paydo bo‘lish yo‘llari”, A.Mamajonov “Sintaktik omonimiya xususida”, A.Berdialiyev “O‘zbek tilida omonim modelli ergash gapli qo‘shma gaplar”, Madumarov O‘. “O‘zbek tilida omonim so‘zlar va ularning ingliz tilidagi muqobillari” va boshqa ilmiy izlanishlarida omonimlarning ayrim sathlardagi o‘rni tahlilga tortilgan va atroflicha o‘rganilgan. Ammo kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, omonimiyaning o‘zbek tilshunosligida leksik darajada ko‘proq o‘rganilgan va leksik hodisa Sh.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev tomonidan chuqur asoslab berildi, uning turlari farqlangan.

Shaklan bir xil, mazmunan esa turlichalik nutqiy bosqichga xos bo‘lib, lisoniy birliklarda omonimlik yo‘q. Nutqda ba’zan so‘zlarning shakli ham, talaffuzi ham shakldosh bo‘lib qoladi va uning ma’nosi kontekstda oydinlashadi. Chunonchi, Topgan gul keltirar, topmagan bir bog‘ piyoz. Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘[2]. Bu ilmiy qarash va asos barcha omonimik birliklarga tegishli emas. Ammo biz maqolada fikr yuritayotgan birlik sintaktik omonimlarga aloqadordir. Sintaktik omonimlar ham leksik, frazeologik va morfologik omonimlar kabi nutqda uslubiy ma’noning yuzaga chiqish – bir shakl doirasida turli mazmun qirralarini ifodalash imkonini beradi.

Sintaktik butunliklarning omonimlik munosabatga kirishuvi tilshunoslikda sintaktik omonimiya termini bilan izohlanadi. Sintaktik omonimiya haqidagi ma’lumot birinchi bor Y.I.Shendelsning “Grammatik omonimiya haqida” maqolasida berilganligi tilshunoslikka oid manbalarda qayt etilgan[3]. Unda sintaktik omonimiya grammatik konstruksiya yoki modellarning shakliy o‘xshashligi tarzida izohlanib, omomodel termini bilan atalgan.

O‘zbek tilshunosligida ham bu masalaga qiziqish va uni o‘rganish borasida qator ishlar qilingan. A.Safayev, F.Ubayeva, S.Mamedov, A.Tolipov va A.Berdaliyevning “Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarida semantik signifikativ paradigmatika” nomli monografiyasida sintaktik polifunksionallik, sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya masalalari atroflicha tadqiq etilgan bo‘lishiga qaramay, unda masalaning ko‘proq qo‘shma gaplar doirasidagi turi haqida fikr yuritilgan.

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham sintaktik omonimiyaga oid ayrim fikr-mulohazalar uchraydi. Jumladan, H.Usmonovaning “O‘zbek tilida gap bo‘laklarining pozitsion tadqiqi” monografiyasida hamda A.Mamajonovning “Sintaktik omonimiya xususida” nomli maqolasida sintaktik sinonimiya, sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya hamda ularning kelib chiqish sabablari bilan bog‘liq ayrim muammolar o‘rtaga tashlanadi.

E.Qilichevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida sintaktik omonim omosintagmiya deb, fikr yuritilgan. Unda so‘z birikmalari va gaplarning o‘zaro yoki iboralarga shaklan teng kelishi sintaktik omonimiya deyiladi: Bel bog‘lamoq belini ip bilan bog‘lamoq. Bel bog‘lamoq ishga kirishmoq. Oqsoqol-qariya, oq soqol-soqoli oq. Jon Vatan -so‘z birikmasi. Jon va tan-uyushiq bo‘lak .

N.Sayidirahimovaning “Sintaktik omonimlarni tasniflash tamoyillari xususida” maqolasida asosiy e’tibor, sintaktik omonimlarni o‘rganish, ularni belgilash va tasniflash masalasiga qaratilgan. Unda sintonimlarni tasniflash, sintaktik omonimlarning tasnifi nutqiy interpretatsiyasi asoslab berishga harakat qilingan.

A.Berdialiyev fikriga ko‘ra turkologiya, rus va o‘zbek tilshunosligida sintaktik omonimiya yuzasidan bildirilgan fikrlarda mushtaraklik yo‘q. Bu muammo xususida aytilgan fikrlarni quyidagicha guruhlash

mumkin:

1. Sintaktik omonimiyada gap yoki biror sintaktik hodisaning leksik tarkibidagi bir xillik va ularning mazmun yig‘indisi hisobga olinmaydi. (Y. I.Shendels, Y.A.Guliga, D.A. Salkova).
2. Sintaktik omonimiyada gap yoki boshqa sintaktik hodisaning leksik tarkibidagi bir xillik va ularning mazmun yig‘indisi hisobga olinadi. (N.P.Kolesnikov, A.Safayev, S.Ibrogsimov, F.Ubayeva, S. Mamedov, A. Tolipov).
3. Sintaktik omonimiyada leksik tarkibi bir xil bilgan gap yoki boshqa hodisalarning turlicha sintagmalanishi nazarda tutiladi. (A.F.Dudnikov, S.Mamedov).
4. Sintaktik omonimiyada gap strukturasidagi ma’lum bir bo‘lak yoki boshqa hodisalar - kirish va umumlashtiruvchi so‘zlarning sintaktik vazifasi, ularning ana shu konstruksiyadagi biror so‘z shakli bilan grammatik jihatdan bog‘lanishi yoki bog‘lanmasligi xususiyatlari asosga olinadi (A.F.Dudnikov, F.Ubayeva, A.Tolipov)[3] kabi.

Olim lingvistik adabiyotlarda bu hodisa sintaktik omomodel (Y.I.Shendels), struktur-sintaktik omonim (M.P.Raspopov), sintaktik omograflar (B.N.Buxarin) kabi atamalar bilan atalishini keltirib o‘tgan. Sintaktik omonimiya tushunchasining har xil atalishi har bir muallifning bu hodisani har xil tushunishi natijasi yoki sintaktik omonimiya hodisasiga aniq bir nazariy qarash yo‘qligidadir. Shuni unutmaslik kerakki, leksik omonimiya tabiatidan ko‘chirilgan xususiyatlarni sintaktik omonimiya uchun to‘la mos keladi, deb bo‘lmaydi. Leksik hodisalar tilning ochiq tizimiga, sintaktik hodisalar uning yopiq tizimiga aloqadordir. Sintaktik omonimiya leksik omonimiya bilan hodisalarning etimologik jihatdan turli xil bo‘lishi xususiyatiga ko‘ra umumiylikka, o‘xshashikka ega degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, sintaktik omonimiya nutqiy hodisadir.

Ma’lumki, tilshunoslikda so‘zlarni shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarga ajratish, ko‘pincha, til bosqichida baholanib, asosan, leksemaga nisbatan tatbiq etiladi. Biroq mazkur hodisalarning nutqiy vaziyatda ham reallashuvini nazarda tutgan holda, ularni matn doirasida maxsus tadqiq etish biroz e’tibordan chetda qolayotganini aytib o‘tmoqchimiz. Shunga qaramay, bu haqda ayrim fikrlar ham yo‘q emas. Jumladan, Sh.Rahmatullayev omonimiyani til bosqichida va nutq bosqichida alohida-alohida baholash kerakligini, til bosqichida omonimiya til birliklari (leksemalar, morfemalar, frazeologik birliklar) doirasida mavjud bo‘lishi, nutq bosqichida esa nutq birliklari doirasida (so‘zformalar va birikmalarda) yuz berishi[5] ni ta’kidlangan bo‘lsa, A.Nurmonov omonimiyaning matn ko‘rinishi – amfiboliya ham mavjudligini eslatib o‘tgan[6].

Ba’zi manbalarda so‘z va sintaktik birlik, so‘z birikmasi, taqqoslanganda ular haqida munozarali faktlar keltiriladi: so‘zlar polisemantiklik, omonimlik xususiyatiga ega. So‘z birikmalarida bu xususiyat yo‘q, faqat bir aniq ma’nonigina ifodalaydi. So‘z leksik hodisa, so‘z birikmasi grammatik hodisa. So‘z, so‘z birikmasi kabi, nominativ vazifa bajarib, predmet, belgi, ish-harakatni umuman ifodalash uchun xizmat qiladi. So‘z birikmasi esa predmet, belgi, ish-harakatini shu holdagi boshqa predmet, belgi, ish-harakatdan ajratib ifodalaydi. Qiyoslang: Dala – ko‘m-ko‘k, ko‘m-ko‘k dala.

Shuni ta’kiddash kerakki, til sistemasining quyi (fonologik) sathidan tashqari, barcha sath birliklari ma’no bilan bog‘langan. Ular shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan butunlik sanaladi. Shuning uchun ham har qanday lisoniy model (qolip) mazmunni izidan soqit qila olmaydi. Ko‘p hollarda lisoniy qolipni belgilashda mazmun yetakchi planga o‘tib qolishi mumkin. Ayniqsa, bu sintaktik omonimiyalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Omonimiya o‘zbek tili sintaktik tizimining barcha sath hodisalarida mavjud. Shu jumladan, ergash gapli qo‘shma gaplar sathi birliklari omonimiyasi ham o‘ziga xos paradigmatik sistemani tashkil qiladi. Masalan: U darsdan chiqsa, dadasi yo‘lini poylab turardi (O‘.Umarbekov). Er kishini qo‘llasa, iqbol quvlar izidan (Sh. Sharipov). Bu gaplar har xil mundarijaga ega, lekin ularning tuzilishi o‘xshash, modellari omonimik xarakterga ega. Birinchi gap ergash gap -sa - bosh gap modelida vujudga kelgan va unda payt ergash gapli qo‘shma gapning signifikati ifodalangan. Ikkinchi gap ham ergash gap -sa - bosh gap modelida vujudga kelgan va unda shart ergash gapli qo‘shma gapning signifikati ifodalangan. Ergash gapli qishma gaplar modelining omonimiyasini o‘rganishda ular qamrovidagi bog‘lovchi vositalarning semantik-sintaktik xususiyatlarini belgilab olish katta ahamiyatga ega[3].

Sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya o‘zaro o‘xshash, shuningdek, farqli belgilarga ham ega bo‘lgan ikki hodisadir. Ularning tilda mavjud bo‘lishi va amal qilishi shakl va mazmun nomutanosibligini keltirib chiqaradi. Sintaktik polisemiya ham, sintaktik omonimiya ham shakldoshlik xususiyatiga ko‘ra paradigmatik nomutanosiblik hosil qiluvchi hodisalar sirasiga kiradi. Sintaktik polisemiya bu ma’nolari

o‘zaro bog‘liq va biri ikkinchisini taqozo etuvchi, bir invariant ma’no doirasida tutashuvchi o‘ziga xos lisoniy hodisadir.

Qismlari -mi shakli orqali birikkan ergash gapli qo‘shma gaplarda sintaktik polisemiya va sintaktik omonimiya faol amal qiladi. Bahor keldimi, dalada ish qiziydi (So‘zlashuv nutqidan) gapi Kechasi eshik ochilib qolganmi, ertalab tursam, burnim berk (SH.Xolmirzayev) gapi bilan omonimik munosabat hosil qiladi. Chunki bu ikki sintaktik konstruksiya ma’nolari o‘rtasida bog‘lanish yo‘q. Ular alohida-alohida invariant ma’nolarga birlashadi. Birinchi gap shart ma’nosi bilan bog‘langan payt ma’nosiga, ikkinchi gap esa noaniqlik-taxmin ma’nosi bilan bog‘langan sabab ma’nolariga ega. Bahor keldimi, dalada ish qiziydi gapi Seni turtkilashdimi, indamay biznikiga chiqib kelaver (S.Zunnunova) gapi bilan polisemik munosabat hosil qiladi[7].

Manbalarda sintaktik omonimiya ham sintaktik polisemiya singari shakldoshlik xususiyatiga ko‘ra paradigmatik nomutanosiblik hosil qiluvchi hodisalar sirasiga kiritilgan. Polisemiya va omonimiya biriga o‘xshash hodisalar bo‘lsa-da, ular o‘rtasida ma’lum bir farq ham mavjud. Sintaktik polisemiya bu ma’nolari o‘zaro bog‘liq va bir invariant ma’no doirasida tutashuvchi o‘ziga xos lisoniy hodisadir. Shaklan o‘xshash sintaksemalar biror bir ma’no doirasida o‘zaro tutashmasa, ular har xil invariant ma’nolarga ega bo‘lsa, bunday holatda sintaktik omonimiya haqida gapirish o‘rinlidir.

Ko‘rinadiki, sintaktik birliklarning shakl va mazmun dialektikasi mazmuniy birliklarning to‘liq va noto‘liq shakliy ifodasini topishi masalasini o‘rganish ikki struktura o‘rtasida simmetrik va assimetrik munosabat mavjudligini aniqlashdan tashqari, sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya va sintaktik polisemiya, sintaktik polifunksionallik (sintaktik sinkretizm) masalalarini ham qamrab oladi[8]. Shuning uchun ham sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya va sintaktik polisemiya masalalarini sinchiklab o‘rganish, ayniqsa, mazkur hodisalarni badiiy matn misolida tadqiq etish sintaktik birliklarning shakli va mazmuni o‘rtasidagi munosabatni chuqurroq yoritishga, bu vositalarning lingvistik tabiatini to‘la va yaqqol ochib berishga qulay imkoniyat yaratadi. Masalan:

Ikki kishi choyxonaga kirib kelib, biri qichqirdi:

– Samovarchi, choy!

– Qaynasin, hozir, – javob berdi samovarchi.

– Qaynataman, – deb tura berar ekansiz-da, – dedi kiruvchilardan biri.

– Sira qaynamas ekansizda! – qo‘shimcha qildi ikkinchisi.

Xalqa orasida mashhur bo‘lgan “Choyxona” payrovidan keltirilgan bu misol juda xarakterlidir. Uchinchi dialogdagi qaynataman so‘zi ikki xil (fe’l, ot) ma’noni ifodalaydi. Oxirgi dialogdagi gapning ma’nolari quyidagichadir: a) samovaringiz sira qaynamas ekan; b) shoshilmay ish tutasiz; d) qaynatasiz-u, sira qaynana bo‘lmas ekansiz-da.

Askiyachilar nutqida amfiboliya unsurlari muntazam ravishda stilistik talab bilan voqelanadi. Matnni turlicha talqin qilishdan anglashilgan turli-tuman ifoda, mazmun, maqsad va niyat so‘z ustalarining o‘zgacha tarzda ko‘p axborot ifodalash xohishi va istagini namoyon etadi:

Maxsum aka: Hamma kuchimizni dalaga safarbar qilganmiz.

Ko‘pchilikning etagi bor, faqat tabelchining daftaridan ba’zilar ba’zilar etaksiz chiqib qolyapti, xolos.

G‘anijon: Maxsum aka, buning sababi bo‘lsa kerak, ba’zilar ishonib yurgandir-da, etak sizda deb. (“Paxtachilik” payrovi, Askiya. 18-b.)

Ushbu misolda sintaktik omonimiyaning nutq bosqichidagi ko‘rinishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Nutqda etaksiz – to‘g‘ri ma’noda matodan paxta terish uchun maxsus tikilgan, bir tomoni bo‘yinga osib, bir tomoni belga bog‘lab olinadigan buyumsiz kishi, ko‘chma ma’noda: tayini yo‘q, betayin; uyatsiz, sharmanda hamda etak sizda birligi – yuqoridagi ma’nolar bilan birga -da o‘rin-payt kelishigining shakli va -da ta’kid yuklamasi to‘siqsizlik ma’nosini bildiruvchi shaklning ishlatilishi bilan qo‘shimchalar doirasida ham omonimlikni hosil qilgan[9].

Tilshunoslar tomonidan omonim va omoformalardan tashqari sintaktik omonimlar folklor va yozma adabiyotda o‘ziga xos so‘z o‘yinini (tajnisni) ta’minlashi, uslubiy vosita sifatida badiiy asarga husn bag‘ishlashi[10] hamda ulardan o‘rinli foydalanish ijodkorlarning mahorati sanalishi alohida ta’kidlanadi[11]. Bu fikrlar O‘zbekiston xalq shoiri E.Vohidov, atoqli tilshunos olim A.Nurmonovlar tomonidan ham e’tirof etilib, “o‘zbek tilining asosiy fazilati – shakldosh, ko‘p ma’noli so‘zlarga boyligi so‘z o‘yinini, askiya san’atining, she’riyatda tuyuq janrining rivojlanishiga imkoniyat yaratishi”[12] alohida ta’kidlanadi.

Askiyachilikning ayrim qirralarini o‘rgangan olim H.Razzoqov ham polisemik, omonim so‘zlar so‘z o‘yinlarida faol ishtirok etishi, so‘zlardagi bu nozik fazilat so‘zlarni istagancha “o‘ynatish”, bir gapda so‘z va mantiqiy urg‘ular joyini o‘zgartirish, inversiyalar hosil etish orqali bir necha xil ma’nolar chiqarish imkonini berishini alohida ta’kidlaydi[13].

A.A.Potebnya ta’kidlaganidek, til inson faoliyatining bir qirrasi bo‘lmish she’riyat va yoki san’at bilan chambarchas bog‘liq holda reallashgandagina inson ichki dunyosini aniq-ravshan ifoda etadi.

Badiiy matnning sintaktik xususiyatlarini o‘rganish tilning estetik vazifasi, ya’ni uni nimaga, qanday maqsadda, qay tarzda qaratilganligini aniqlash bilan chambarchas bog‘liq. Ma’lumki, har qanday nutq birligining effektiv vazifasi nutq muallifi – adresant va qabul qilib oluvchi-adresant o‘rtasidagi uzviy aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Nutq birligi orqali ifodalangan fikrga bo‘lgan munosabatning reallashuvi natijasida tilning ta’sir etish, uyg‘otish, ya’ni estetik vazifasi kuzatiladi. Til vositalari nutq jarayonida biror uslubiy maqsadda qo‘llangandagina, stilistik vositaga aylanadi. Bu holat badiiy matnning ekspressivligini ta’minlaydi va ta’sir kuchini oshiradi.

Til vositalari nutq jarayonida biror uslubiy maqsadda qo‘llanishi mumtoz adabiyotda ibhom (yopiq so‘zlash, yopib o‘tmoq; berkitmoq;) - san’ati namoyon bo‘ladi. Bunda shoir misrani shunday tuzadiki, uni o‘qiganda bir-biriga zid bo‘lgan ikki xil ma’no yuzaga keladi. Albatta, bunda misrani tashkil etgan gap bo‘laklarining tartibi muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ikki qarama-qarshi ma’noda har birini yuzaga chiqarish uchun misrani muayyan ohang bilan o‘qish talab qilinadi. Boshqacha aytganda, birinchi ma’nodan ikkinchi mazmunga o‘tganda gapdagi bo‘laklarning (asosan, bosh bo‘laklarning) vazifasi o‘zgaradi (ega kesimga aylanadi yoki aksincha). Masalan, “Oy yuzingni oldida gul bo‘ldi xor” misrasidan qarama-qarshi ma’no chiqarish mumkin: gul (ega), xor bo‘ldi (kesim) va “Oy yuzingni oldida gul bo‘ldi xor» xor (tikan - ega), gul bo‘ldi, gulga aylandi (kesim). Biroq birinchi ma’no shoirning haqiqiy muddaosi hisoblanadi. Faqat misra shunday tuzilganki, urg‘uning o‘rni o‘zgartirish orqali undan ikkinchi bir ma’noni yuzaga keltirish mumkin. Misollar:

Qachonkim, la’lingiz bo‘lsa shakarxand,
Habot irning qoshingda suv bo‘lur qand. (“Taashshuqnoma”)

Baytdan (ega va kesimning o‘rnini almashtish orqali) quyidagicha bir-biriga zid ma’no anglashiladi, suv qand bo‘ladi yoki qand suvga aylanadi.

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar,
Nedin, bas, la’l o‘lur Farhodning qon yoshida xoro?!
Ushbu baytda ibhom: la’l xoro bo‘ladi, xoro la’l bo‘ladi (shoirning muddaosi shu).
Noz o‘qi birla ko‘zum mardumin etding majruh,
Ashk gulgun dema, zaxmidin aning qon tomadur. (Navoiy)

Bu baytda vergul “dema” so‘zining oldidan qo‘yilsa, bir ma’no, keyin qo‘yilsa, ikkinchi xil ma’no chiqadi: uning zahmidan qon tomadi dema, ashk gulgundir - ashk gulgun dema, uning zahmidan qon tomadi.

Yor ollida gar bor yo‘q ersa, ajab ermas;
Ag‘yor chu bor anda, Navoiy, sanga ne bor?! (Navoiy)

Ushbu baytda ham ohangni o‘zgartirish mazmunga ta’sir etadi: Ag‘yor, u yerda Navoiy bor, senga nima bor, ag‘yor bor u yerda, Navoiy senga nima bor.

Men o‘zimcha dilbarning yodi birla mag‘rurmen;
Deydilar: qilur paydo kibr-havo parishonlik. (E. Vohidov)

Bu oxirgi baytda Kibr-havo (ega) parishonlik paydo qiladi, parishonlik (ega) kibr-havo paydo qiladi (shoirning maqsadi shu).

Shuni unutmaslik kerakki, ibhom san’ati shoir tomonidan maxsus ishlatilishi, shuningdek, ijodkorning o‘zi sezmagan holda, u yoki bu misrada yuzaga kelishi ham mumkin. Mazkur san’at mavjud bo‘lgan misralarda shoirning xulosaviy fikri she’rning umumiy yo‘nalishi, baytning tub mazmuni asosida aniqlanadi. Biroq ma’lum maqsadda ibhom ishlatilgan she’riy parchalar ham bo‘ladiki, ularda har ikki ma’no ham (maqtov va hajv) asosiy o‘rinda turadi va ko‘pincha shoirning fikri keyingisiga nisbatan moyilroq bo‘ladi. Shu jihatdan Rashididdin Vatvot va boshqa mualliflar tomonidan arab tilidagi kitobdan ibhomga doir keltirilgan bir hikoya juda ham o‘ziga xosdir: Mashhur arab shoiri Bashor binni Burd bir ko‘zli ustaga to‘n tiktirmochi bo‘ladi. Usta unga aytadi: “Senga bir to‘n tikayki, uning erkak kiyimi yo xotinlarniki ekanligini hech kim ajrata olmasin”. Shoir javob qiladi: “Men ham senga atab bir she’r

yozayki, uni o‘qigan har bir kishi maqtov yo hajv ekanligini farqlay olmasin”[14]. Bashor binni Burd, haqiqatan ham, ibhom an’ati yuksak mahorat bilan ishlatilgan bir ruboiy yozadi va nihoyatda mashhur bo‘lib ketgani manbalarda keltiriladi.

Tilning hozirgi taraqqiyoti uning sintaktik qurilishidagi uslubiy jihatlarini har

tomonlama o‘rganishni taqozo etmoqda. Chunki so‘zlovchi yoki yozuvchi biror fikrni ro‘yobga chiqarishda turli sintaktik birliklardan maqsadga muvofig‘ini tanlab ishlatadi. Shu vositasida aytilayotgan fikrni ta’sirchan va ma’noli bo‘lishini ta’minlaydi. Buning uchun sintaktik uslubiy vositalar: sintaktik sinonimiya, sintaktik omonimiya, she’riy sintaksisdagi uslubiy potentsiyalarga murojaat qiladi.

Nutq uslublariga xos turli sintaktik vositalar, so‘z birikmalari va gaplardagi sinonimiya, polisemiya, omonimiya hodisasi, so‘z tarkibi ifoda maqsadi va tuzilishiga ko‘ra gap turlarining nutqda ishlatiladi. Bular hozirgi kun tishunosligida kommunikativ tilshunoslik hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari o‘rtasida yuzaga kelgan yangi yo‘nalish – lingvopoetikaning o‘rganish obyektidir.Sintaktik omonimiyani bu sohalar doirasida o‘rganish muhim masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сайидирахимова Н. Ўзбектилидаомонимиятилнингфонетик-фонологик, лексик-семантик ва синтактик сатҳ бирлиги сифатида. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers Impact factor (SJIF) = 6.786
2. Абузалова М., НазаровaS. Систем тилшунослик асослари. – Бухоро, 2008. –Б. 30
3. Berdialiyev A. O‘zbek tilida omonim modelli ergash gapli qo‘shma gaplar. - Toshkent, 1990.
4. Qilichev E. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Buxoro, 1999. – B.77-81
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. - Б.6
6. НурмоновА., Раҳимов А. Лингвосинергетикага кириш. Тошкент: Академнашр, 2013. - Б.87
7. Roziqova G‘.Z. O‘zbek tilida sintaktik polisemiya. fil. fan. nomz. disser. avtore. Toshkent - 1999. –B. 13.
8. МамажоновА. Синтактик омонимия хусусида. Аюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари. Тошкент, 2012. 40–42-бетлар.
9. Дўсматов Ҳ. Аскияматнилингвостилистикаси. –Тошкент: Фан, 2015. – B. 114-115
10. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. Toshkent: Talqin, 2005. – B. 180
11. НурмоновА., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Академик лицейларнинг 2-босқич талабалари учун дарслик. Тошкент: Шарқ, 2002. –Б.88
12. ЭркинВоҳидов: Сўз – забаржад, сўз – гавҳар, олтин. http://www.gglit.uz; Нурмонов А. Сўз мулкига сайр. Шарқ юлдузи журнали. Тошкент, 2014 йил, 6-сон.
13. Раззоқов Ҳ. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сатира ва юмор (Фарғона материаллари асосида). Тошкент: Фан, 1965. –Б.32
14. Is’hoqov Y. So’z san’ati so’zligi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2014.

ИРАНИЗМЫ В ТЕКСТАХ А.С. ГРИБОЕДОВА

Самамбетова Феруза Толыбаевна,
Ташкентская медицинская академия,преподаватель.

Аннотация. «Лексические иранизмы в письмах и путевых заметках А.С. Грибоедова» даются тематическая классификация и статистика иранизмов, выбранных из текстов А.С. Грибоедова, а также пути адаптации (как общеязыковые, так и авторские) лексических иранизмов в письмах и дневниковых записях А.С. Грибоедова.

Ключевые слова: Грибоедов А.С, иранизмы, лексика, Персия,экзотизм,тюркские языки,заимствования,фонетика, ша-заде, пери, перизаде,культура,путевые заметки,семантика.

A.S.GRIBOEDOV MATNLARIDA IRONIZMLAR

Samambetova Feruza Tolibayevna,
Toshkent tibbiyot akademiyasi, o‘qituvchi.

Annotatsiya. «A.S. Griboedovning xatlari va sayohat kundaliklaridagi leksik ironiy so‘zlar» maqolasida A.S. Griboedovning matnlaridan tanlab olingan ironiy so‘zlarning tematik tasnifi va statistikasi, shuningdek, A.S. Griboedovning xatlari va kundalik yozuvlaridagi leksik ironiy so‘zlarning moslashuv yo‘llari (ham umumiy tilviy, ham mualliflik) ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Griboedov A.S., ironiy so‘zlar, lug‘at, Eron, ekzotika, turkiy tillar, qarz oluvlar, fonetika, shahzoda, peri, perizoda, madaniyat, sayohat kundaligi, semantika.

IRANISM IN THE TEXTS OF A.S. GRIBOEDOVA

Samambetova Feruza Tolybaevna,
Tashkent Medical Academy, teacher.

Annotation.»Lexical Iranisms in letters and travel notes of A.S. Griboyedov» provides thematic classification and statistics of Iranisms selected from the texts of A.S. Griboyedov, and ways of adaptation (both general linguistic and authorial) of lexical Iranisms in letters and diary notes of A.S. Griboyedov.

Key words.Griboyedov A.S., Iranianisms, vocabulary, Persia, exoticism, Turkic languages, borrowings, phonetics, shazade, peri, perizade, culture, travel notes, semantics.

Введение. Изучение иранских заимствований в русском языке, особенно в контексте творчества А.С. Грибоедова, позволяет проследить влияние восточной культуры на развитие русского языка. Особенность таких заимствований, прошедших через различные языки-посредники, кроется в их многослойной истории и семантическом развитии.

В данной статье мы рассмотрим иранизмы, присутствующие в дневниковых и путевых заметках А.С. Грибоедова за период 1819–1828 гг. Особое внимание будет уделено их тематической классификации, статистике и путям адаптации в русском языке. Важно отметить, что под «иранизмами» в этом исследовании понимаются слова исконно персидского происхождения, проникшие в русский язык напрямую или через тюркские, западноевропейские, кавказские языки, с учетом степени их усвоенности русским языком.

Данная статья представляет собой первый этап исследования, задачей которого является системное описание иранских слов в творчестве Грибоедова, что позволит в дальнейшем провести более глубокий анализ их функционирования в контексте текста и их влияния на русский язык.

Анализ литературы

В исследовании используются труды известных лингвистов, занимающихся изучением иранизма в русском языке:

Л.П. Крысин: его работы «Иностранные слова в русском языке» и «Русская лексикология» дают представление о путях проникновения иранских слов в русский язык, их фонетических и семантических изменениях.

А.С. Мельничук:в труде «Сравнительная типология славянских языков» он рассматривает

типологические особенности иранских заимствований в славянских языках, в том числе и в русском.

В.В. Виноградов: в работе «Русский язык» подробно анализирует лексические особенности русского языка, включая заимствования.

Также используются работы, посвященные творчеству А.С. Грибоедова:

Н.П. Анисимов:в «Грибоедов: Жизнь и Творчество» он исследует биографию и творчество Грибоедова, в том числе его поездку в Персию и влияние восточной культуры на его творчество.

Методология исследования

1.Метод сплошной выборки:Анализ всего текста дневниковых записей и путевых заметок А.С. Грибоедова для выявления всех иранизмов.

2.Метод тематической классификации: Разделение выявленных иранизмов на группы по тематическому признаку: бытовая лексика, культурная лексика, имена исторических личностей и топонимы.

3.Метод сравнительного анализа:Сравнение иранских слов в текстах Грибоедова с их значением в персидском языке, а также с их значением в русском языке для определения адаптации и изменений в семантике.

Анализ и результаты

Анализ текстов А.С. Грибоедова показал, что в его произведениях встречаются иранизмы, представляющие собой слова исконно персидского происхождения, проникшие в русский язык напрямую или через тюркские, западноевропейские, кавказские языки.

1.Бытовая и Культурная Лексика:Одежда:халат, шапан, чапан (одежда из тонкой шерсти), кепенег (головной убор), шапка (особая шапка)

Пища:халва, шахруд (сладости), плов (блюдо из риса)

Домашняя утварь:ковер, сундук (деревянный ящик), кальян (трубка для курения табака)

Звания и титулы:хаджи (паломник), бек (правитель), мирза (звание), ша-заде (принц)

Культура:шахид (мученик), джихад (священная война), имам (духовный лидер), мусульманин (религиозная принадлежность)

2.Имена Исторических Личностей:Правители:Гамас-Али-Мирза, Хаджи-Бегум, Мир-Гассан-Хан

Военные деятели:Аббас-Мирза, Шамхал, Маммад-Хан

Другие исторические лица:Перизаде, Пери, Шамхал, Маммад-Хан

3.Топонимы:Города и области:** Персия (Иран), Тегеран, Тавриз, Шираз, Хорасан

Географические объекты:Каспийское море, Закавказье

При анализе формы и содержания иранских слов, заимствованных русским языком в различное время, следует учитывать несколько обстоятельств: 1) исконно иранское слово могло пройти «большой путь» через посредство многих языков, прежде чем быть заимствованным русским языком, и «путь» этот проследить очень сложно; 2) в этом посредническом состоянии иранское слово, конечно, могло обрасти семантическими коннотациями, свойственными его бытованию в ином языке (не в русском и не в персидском); 3) фонетический (и, как следствие, графический) облик исконного иранизма претерпевает серьезные изменения под влиянием языков, в разное время его заимствовавших; 4) семантика исконного иранизма, особенно с предметным значением, часто не изменяется даже под влиянием языков-посредников, о чем свидетельствуют словарные данные современного иранского и русского языков. Однако возможное приобретение ими переносного значения сложно проследить и квалифицировать по конкретному языку без должного анализа лексического значения слова в языке (языках) -посреднике (посредниках).

В данной главе, как и во всей работе, под термином «иранизм» понимаются слова исконно персидского происхождения, проникнувшие в русский язык напрямую или через тюркские, западноевропейские, кавказские языки. Степень их усвоенности русским языком также учитывается.

В дневниковых и путевых заметках А. Грибоедова за период 1819–1828 гг. вычленено 270 иранизмов, которые тематически делятся на три большие группы: бытовая и культурная лексика, имена исторических личностей и топонимы. Следует оговориться, что собственные имена

исторических деятелей Ирана часто (если не повсеместно) в ряде компонентов имеют исконно арабские корни (Гамас-Али-Мирза, Хаджи-Бегум, Мир-Гассан-Хан и др.). В строгом и принятом нами смысле слова они «иранизмами» не являются. Однако присутствуют они в текстах Грибоедова, в качестве вкраплений (по классификации Л. Крысина), имеют референтную соотнесенность с реальным лицом персидской истории, и в этом состоянии включены нами в общий список личных имён-иранизмов.

Указанные три большие группы в свою очередь подразделяются на несколько тематических подгрупп. Такая классификация позволяет нам показать лексическое разнообразие разновременных иранизмов, характерное для дневниковых и путевых заметок А. Грибоедова.

Группа бытовой и культурной лексики представлена следующими тематическими подгруппами:

1) государственное устройство, чиновничий аппарат, администрация: звания, титулы, обращения: ша-заде / шах-зида / шахзада ‘сын шаха’, шааен-шаа ‘титул шаха’, шах ‘царь’, султан ‘царь’, паша ‘высший гражд. и военный чин’, эмир-заде ‘титул сына правителя’, эмир-низам ‘титул сардаря’, визир(ь) ‘министр’, каймакам ‘управляющий делами наследника престола’, мирза ‘титул члена царствующей династии’, вали ‘губернаторский титул’, хаким ‘правитель’, сатрап ‘титул правителя города’, наиб ‘заместитель’, наиб-султан ‘наследник престола’; хуршид-кюла досл. ‘венчанное солнце’, каджар / каджары ‘династия шахов Персии’; фирман ‘указ султана’;

2) сооружения и их части: сарай ‘дом, дворец’, балаган ‘зрелищное сооружение на ярмарках, мелочная лавка’, караван-сарай ‘постоялый двор для караванов’, хан-сарай ‘дворец хана’, минарет ‘высокая башня при мечети, с которой муэдзин созывает мусульман на молитву’, дарбазы ‘помещение без окон, с источником света на потолке’, мейдан ‘площадь’;

3) названия национальностей, племен и их представителей: авганец, кенгерлу, курд / корда, грузин / грузинка / грузинец, арианин(-янин), араб, азербиджанец, , шахсевенец, асландуз;

4) религия, ее приверженцы, религиозные организации: рамазан ‘сорокадневный пост у магометан’, мусульманин, муэтемид ‘заслуживающий доверия’; дервиш ‘нищенствующий мусульманский монах’, муштаид / муштеид ‘высшее духовное лицо у мусульман-шиитов’, пиш-намаз ‘имам’, хаджи ‘почетный титул мусульманина, совершившего хадж, а также человек, носящий этот титул’, имам ‘титул верховного правителя у мусульман’, мечеть ‘культовое сооружение, являющееся молитвенным домом’;

5) растительный и животный мир: чинар ‘платан’, ревень ‘травянистое растение из семейства гречишных с крупными листьями’, жасмин ‘ясмин’, фисташка ‘фисташковое дерево, фисташковый орех’, хурма ‘финик’, арбуз ‘Cucurbita citrullus’; баран ‘овца, мелкий скот’, обезьяна ‘животное из отряда высших млекопитающих, наиболее близкое к человеку по строению тела’, чекал ‘шакал’;

6) военная лексика: бимбаши ‘военный чин’, иавер ‘майор в персидской армии’, кутали ‘военное звание’, саранг / сарханг / сергенг ‘полковник’, сарбаз ‘солдат регулярной армии’, сардар / сардарь ‘правитель края’;

7) торговля и денежные расчеты: базар ‘благотворительное мероприятие, распродажа в благотворительных целях, рынок, ярмарка’, одина-базар ‘ярмарка в пятницу’, караван ‘группа вьючных животных, перевозящих грузы, людей’; абаз ‘старая персидская и грузинская серебряная монета, около 20 коп’, деньга ‘монета’, курур ‘персидская крупная денежная единица = миллиона рублей серебром’, туман ‘десять тысяч’;

8) обычаи, обряды, мифические существа: навруз / навруз ‘новый год по иранскому календарю 21 марта’, Эйзед ‘имя бога’, пери ‘доброе волшебное существо в образе прекрасной крылатой женщины’, перизада ‘рожденный от пери’, див ‘демон, дьявол’, иасскул ‘церемониймейстер при персидском дворе’;

9) предметы быта: стакан ‘стеклянный сосуд цилиндрической формы, без ручки, служащий для питья’, чемодан ‘род раскидного сундука’, чадирь / чадер ‘покрывало, которым женщины-мусульманки закрываются с головы до ног’, шатер ‘палатка’, киса ‘сумка, мешок, котомка’, трахтараван ‘кресло-носилки’, кальян азиатская курительная водяная трубка’;

10) наименования лиц по профессии: кази(й) ‘духовный судья у мусульман’, чабан ‘овечий пастух’, фараш ‘слуга’, кальянчи ‘мальчик, подающий кальян’;

11) драгоценные камни, природные минералы и вещества: бирюза ‘непрозрачный драгоценный камень небесно-голубого или зеленовато-голубого цвета’, лазурь ‘голубой камень’, мрамор ‘камень’; булат ‘сорт стали, стальной клинок’, нефть ‘минеральное жидкое маслянистое горючее

вещество, обычно темно-коричневого или черного цвета’;

12) меры: мера длины: мера веса: кальвар ‘от 5 до 30 пудов’; мера расстояния: ферсанг, ферсех;

13) ткани, одежды: серпянка ‘грубая льняная ткань’, тюльпан ‘луковичное декоративное растение семейства лилейных с крупными красивыми цветками’, кафтан ‘почетное платье’, шаль ‘большой платок, вязаный или тканый’;

14) продукты питания и напитки: кебаб ‘жаркое из баранины’; буза ‘хмельной напиток’;

15) экспрессивная лексика, обозначающая человека: сахтир ‘жестокосердный’, хам ‘наглый и невоспитанный человек’;

16) спорт, игры: ферзь ‘полководец в шахматы’.

Тематический диапазон групп бытовой и культурной лексики широк и охватывает разные сферы жизни иранского дворца и иранской культуры в целом: от государственного устройства до общественного деления. Самой многочисленной является подгруппа «государственное устройство», самой малочисленной – подгруппа «спорт, игры».

Группа имен собственных государственных деятелей, исторических лиц, достаточно многочисленна, т.к. по делам службы А. Грибоедов вынужден общаться со всеми слоями администрации Персии.

Грибоедов, хорошо знавший персидский язык, во время путешествия по Ирану употреблял в своих записях достаточно много иранизмов, заимствованных русским языком в разное время.

Следует отметить, что хронологическая характеристика иранских слов, наблюдаемых в письмах и дневниковых записях А. Грибоедова, относительна, несмотря на объективность словарных показателей. Дата фиксации иранских заимствований в памятниках письменности не всегда может считаться датой их вхождения в язык, так как не исключена утрата (или недоступность) текстов более раннего периода.

Так, в некоторых случаях обнаруживаются производные с более ранней датой фиксации, чем сами заимствования, что позволяет отодвинуть и дату вхождения заимствованной основы. Например, в Словаре русского языка XI – XVII вв. слово балаган в значении ‘легкая плетеная постройка, шалаш’ фиксируется под 1706 годом, а производное от него слово балаганец ‘шалаш’ встречается в «Житии протопопа Аввакума», датируемом 1672–1673 годами. В засѣку пустиль и указалъ мнѣ мѣсто. Такъ мы с робяты отгородились, балаганецъ здѣлавъ, огонь курили. Или, например, заимствованное слово шах в значении ‘персидский монарх’ в словаре М. Фасмера фиксируется как заимствование через турецкое šaχ или прямо из нов. -персидского šāh ‘царь, шах’, др. -перс, xšāyaθiya- ‘властелин’, а в «Материалах для словаря древнерусского языка» И. Срезневского производная форма шахы мн. ‘игра в шашки’ встречается в «Пчеле» имп. Публичной библиотеки XIV– XVI вв. Другое производное от него слово шахматы в словаре И. Срезневского фиксируется с двумя значениями: в значении ‘шашки’ и ‘узор в клетку наподобие шахматной доски’. В первом значении слово впервые встречается в 1280 г. в Новг., во втором значении – в 1589 г. в Плат. Бориса Федоровича Годунова: В то же время в письмах и дневниковых записях А. Грибоедова есть такие производные, как ша-заде / шах-зида / шахзада ‘сын шаха’, Шааен-Шаа ‘титул шаха’, дату первоначального употребления которых определить трудно. При этом к древнейшим заимствованиям, употребляемым Грибоедовым в своих письмах и дневниковых записях, относятся, безусловно, следующие: эйзад, чертог, к позднейшим, выполняющим функцию экзотизмов, – пери, перизаде.

Обобщим хронологические характеристики иранизмов, использованных А. Грибоедовым в рассматриваемых текстах:

XIV–XV вв. [šabān] – чабан: «чабáн ‘овечий пастух’, южн., курск. (Даль), укр. чабан – то же. Заимствовано из тур., крым. čoban ‘пастух’. Первоисточником является персидское šubān ‘пастух’, авестинское *fšupāna- ‘страж скота’ . Отсюда чабáнить ‘пасти скот, быть чабаном’».

XIV в. [dāng] – деньга: Согласно словарю М. Фасмера, деньга – «мн. деньги, др. деньга в грамоте 1361 г., также тенка ‘монета’, Афанасий Никитин 43 и сл. Заимств. из тат., чагат. täŋkä ‘деньги; серебряная монета’, чув. teŋgə, казах. teŋgä, монг. teŋge, калм. tēŋgŋ ‘мелкая серебряная монета’. Источник этих слов искали в ср. dāng, нов. dānag «монета.

[bāzār] – базар: в словаре М. Фасмера слово базар сопровождается развернутой характеристикой: «1) благотворительное мероприятие, распродажа в благотворительных целях; 2) рынок,

ярмарка. В первом знач. встречается как западное заимствованное через франц. bazar или нем. распространившееся благодаря популярности “1001 ночи” . Во втором значении древнерусского базарь с 1499 г.; Также бозаръ, Афанасий Никитин. Источником этого последнего является турецкий диалект bazar, тур., алт., уйг. pazar ‘ярмарка, рынок’ из перс, bāzār – то же, ср. - перс. Vāčār».

[lāj(e)vard] – лазурь: по данным «Этимологического словаря русского языка» Преображенского, лазурь вошло в русский через посредство «зап., вероятно, из нем. Lazur, lasur. Слово это интересно: первоисточник перс. lajuvard, синий камень; отсюда араб. Lazuwardi».

[kār(e)vān] – караван: согласно «Этимологическому словарю русского языка» М. Фасмера, карава́н заимствовано «через франц. caravane из персидского kārvān ‘караван верблюдов’, которое сопоставляют с др. karabhas ‘верблюд’».

[buzine] – обезьяна: согласно М. Фасмеру, обезья́на – «народн. облизья́на (под влиянием облиза́ть), др. обезьяна ; из тур., перс. abuzine ‘обезьяна’».

[atr] – шатер: согласно словарю М. Фасмера, «укр. ша́тер, шатро́, др. шаторъ, сербск. шатьръ σκηνή, болг. ша́тър, сербохорв. ша̀тор ‘шатер, палатка’, ша̂тра ‘прилавок, лавка’, словен. šátor, слвц. šiator, польск. szatr м., szatra ж. ‘цыганский шатер’. Древнее заимств. из тюрк šatyr ‘палатка’, тур., азерб., уйг., тат., алт. čadyr ‘шатер, палатка’, шор. šadyr, саг., койб. sadyr. Первоисточником является перс. čatr ‘заслон, палатка’, др. cháttram ‘заслон’».

XVI в. [kār(e)vān-sarā(y)] – караван-сарай: в словаре М . Фасмера оно определяется «‘постоялый двор для караванов’». Заимствовано из французского caravan-sérail или немецкого Karawanserai, которые восходят к персидскому kārvānserāi».

[naft] – нефть: «неоднократно в Хождении Котова (1625 г.). Заимствовано через турецкое neft – то же из персидского neft – то же, авестинского napta- ‘влажный’. Из иранского в ранний период заимствовано греч. νάφθα ‘нефть’, откуда лат. Naphtha».

[xarboze] – арбуз: согласно этимологическому словарю М. Фасмера, «плод “Cucurbita citrullus”, уже в Домостр. 157 и сл.; Хожд. Котова (около 1625 г.),; укр. гарбу́з ‘тыква’, откуда польское. Заимствовано через кыпч. χarbuz, тур., крым. karpuz из перс. χarbūza, χarbuza ‘дыня’, собственно говоря, ‘ослиный огурец’, восходит к персидскому χer ‘осел’, авестинскому χara и ср. - персидскому būčinā ‘огурец’».

Использование иранских заимствований в дневниках и путевых заметках А. Грибоедова объясняется историческими и культурными причинами: в первую очередь, стремлением Грибоедова точнее описать свои впечатления от увиденного.

Заключение

Рассмотрев иранизмы в заметках (письмах, дневниках) замечательного представителя русского дипломатического корпуса, отметим, что А. Грибоедов употребляет достаточно большое количество слов иранского происхождения – 270 лексем (16 тематических подгрупп).

Фиксации части топонимов иранского происхождения в текстах Грибоедова имеют известную вариативность, что позволяет предположить, что А. Грибоедов, имевший тонкий музыкальный слух и несомненную чуткость к персидскому языку, пытался через ряд графических вариантов отобразить исконный звуковой облик наименования. К тому же Грибоедов имел неподдельный интерес к персидской культуре, стремление прийти к миру с Востоком, желание наладить сотрудничество с Ираном. Поэтому его зарисовки быта и культуры Персии отличаются большим разнообразием и большим вниманием к деталям, его толкования иранских слов часто событийные, описательные, иллюстративные.

Древнейшие заимствования, отмеченные еще в словарях древнерусского языка, ко времени А.С. Грибоедова уже прочно вошли в систему русского языка, практически не сознаваясь в качестве иноязычных слов (сарай, базар, стакан, караван, баран и т.д.). Мы отмечали их в общем перечне иранизмов для полноты представления об иранизмах в русском языке в целом и, как следствие, в активном лексиконе Грибоедова.

Так, в текстах А. Грибоедова некоторые слова (сардар / сардарь, шазаде / шах-зида / шахзада, саранг / сарханг / сергенг, наврузъ / науруз) варьируются в своем графическом, а иногда и морфологическом оформлении. Отмечено, что падежные формы имен собственных, употребляемых в текстах А. Грибоедова, зависят от финала персидского слова. Новые иранизмы,

употребляемые Грибоедовым в письмах и текстах (пери, перизада, пиш-намаз, сарбаз, чадер и др.) морфологически оформлены в соответствии с правилами передачи иноязычных слов на русской почве.

Список литературы

1. Крысин, Л.П. (2009). Иностранные слова в русском языке. М.: Русский язык.
2. Крысин, Л.П. (2003). Русская лексикология. М.: Академия.
3. Мельничук, А.С. (2003). Сравнительная типология славянских языков. М.: Академия.
4. Виноградов, В.В. (2001). Русский язык. М.: Русский язык.
5. Анисимов, Н.П. (2005). Грибоедов: Жизнь и Творчество. М.: Молодая гвардия.

ARAB TILINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Xodjimuratova Zuxra Zaynitdinovna
Oriental universiteti, Aniq fanlar kafedrasi, katta o‘qituvchi

Lutfullayeva Mohira Xayrullo qizi
Oriental universiteti, Sharq tillari kafedrasi, 1-kurs talabasi,

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilini o’rganishda zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish haqida fikr bildirilgan. Unda zamonaviy ilovalardan ba’zilarining (Rosetta Stone, Busuu, PROMPT, BAB.LA, Google Tarjimon) arab tiliga doir ishlash imkoniyatlari yoritilgan. Sir emas-ki, arab yozuvining o’ziga xos jihatlari bor va standart klaviaturada arab alifbosi aks ettirilmagan. Shu jihatdan ushbu maqolada klaviaturasida arab shriftlari aks ettirilmaganlar uchun arab tilidagi Virtual klaviatura ilovasini ishlatish haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. O’ylaymiz-ki, ushbu maqola arab tilini o’rganish istagida bo`lganlar uchun foydali bo’ladi.

Kalit so’zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari, arab tili, ta’lim, mustaqil ta’lim, texnologiyalar, elektron ilovalar, sayt, virtual klaviatura, Rosetta Stone, Busuu, PROMPT, BAB.LA, Google Tarjimon, internet.

USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN LEARNING THE ARABIC LANGUAGE

Khodzhimuratova Zukhra Zaynitdinovna
Oriental University, Department of Exact Sciences, Senior Lecturer

Lutfullayeva Mohira Xayrullo qizi
Oriental University, Department of Oriental Languages, 1st year student

Abstract: This article describes the use of modern information technologies in learning the arabic language. The article describes the capabilities of some of the modern applications (Rosetta Stone, Busuu, PROMPT, BAB.LA, Google Translator) related to the arabic language. It’s no secret that the arabic script has its own characteristics, and the standard keyboard does not display the arabic alphabet. In this regard, this article also provides information about using a Virtual keyboard in arabic for those who do not have arabic fonts on their keyboard. We believe that this article will be useful for those who want to learn arabic.

Key words: modern information technologies, arabic language, education, independent education, technologies, applications, sites, virtual keyboard, Rosetta Stone, Busuu, PROMPT, BAB.LA, Google Translator, internet.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

Ходжимуратова Зухра Зайнитдиновна.
Ориентал университет, кафедра точных наук, старший преподаватель

Лутфуллаева Моҳира Хайрулло қизи
Ориентал университет, кафедра восточных языков, студент 1 курса

Аннотация: В данной статье описывается использование современных информационных технологий при изучении арабского языка. В статье описаны возможности некоторых современных приложений (Rosetta Stone, Busuu, PROMPT, BAB.LA, Google Переводчик), связанных с арабским языком. Не секрет, что арабская письменность имеет свои особенности, и стандартная клавиатура не отображает арабский алфавит. В связи с этим в этой статье также представлена информация об использовании виртуальной клавиатуры на арабском языке для тех, у кого на клавиатуре нет арабских шрифтов. Мы считаем, что эта статья будет полезна тем, кто хочет изучать арабский язык.

Ключевые слова: современные информационные технологии, арабский язык, образование, самостоятельное образование, технологии, программы-приложения, сайты, виртуальная клавиатура, Rosetta Stone, Busuu, PROMPT, BAB.LA, Google Переводчик, интернет.

Kirish. Arab tili markaziy semit tilidir va ibroniy shuningdek, oromiy kabi boshqa semit tillari orasida tasniflanadi. Bu semit tillari oilasining eng katta a'zosi bo'lib, 300 millionga yaqin kishi ikkinchi til va 250 million birinchi til sifatida so'zlashadi. Arab tilida eng ko'p so'zlashuvchilari Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada istiqomat qiladi. Arab tili qadimgi til bo'lib, IV asrga oid islomgacha bo'lgan arab yozuvlarida klassik arab tilidan olingan. Arab tili ko'plab tillardan, jumladan, ibroniy, fors va oromiy tillaridan o'zlashtirilgan, shuningdek, ispan, portugal va sitsiliya kabi Yevropa tillariga ta'sir ko'rsatgan. [5]

Hozirgi kunda respublikamizning bir qator chet el davlatlari bilan aloqalarning rivojlanishi samarasi o'laroq tarjimonlik sohasi ayniqsa taraqqiy etib, ommalashib bormoqda.

Oxirgi yillarda ko'p yoshlar turli tillarni o'rganishga qiziqishlari ortib bormoqda. Shu tillar ichida arab tiliga bo'lgan qiziqish ham alohida o'rin egallaydi. Tilni to'laqonli o'rganish uchun nafaqat unda gapirish, balki xatosiz yozish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyatda axborot texnologiyalarini qo'llay olib shu tilda xatlar, xabarlar va shu kabilarni yoza olish va uzata olish ma'lum bir bilim va ko'nikmalarni bilishni talab qiladi. Ushbu maqolada arab tilini o'rganuvchilar uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishning ba'zi samarali jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborotlashgan jamiyatda yashayotgan zamonaviy inson o'z faoliyatida axborot texnologiyalarini bilishi va foydalana olishi davr talabi hisoblanadi. Har bir sohada yaxshi mutaxassis bo'lish uchun axborot texnologiyalari imkoniyatlarini ishlata va qo'llay olishi yaxshi natijalar berishi ko'zda tutiladi. Ayniqsa, tillarni o'rganishda axborot texnologiyalarining o'rni katta hisoblanadi. Dunyo tillari ichida arab tilining tutgan o'rni beqiyosdir. Mustaqil O'zbekiston yoshlarining arab tiliga qiziqishi, kelajakda arab tili mutaxassislarining ko'payishiga, tarjimonlar yetishib chiqishiga, arab davlatlari bilan diplomatik va savdo-sodiq aloqalarini yanada samaralai yo'lga qo'yishga, arab tilida yozilgan yodgorliklar, manbalar, asarlarni o'qib, tarjima qilib, xalqimizga yetkazishga katta hissa qo'shadi, deb umid qilamiz. Arab tilida axborot texnologiyalaridan foydalanishda eng avvalo klaviaturani yaxshi bilish va arab alifbosi harflarini to'g'ri qo'llay olishi talab etiladi. So'ngra zamonaviy dasturlar bilan tanishish va imkoniyatlarini bilish, shaxsiy va kasbiy faoliyatda to'g'ri qo'llay ola bilsih kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda arab tili Respublikamizning Toshkent davlat sharqshunoslik institutida, Toshkent islom universitetida asosiy fan sifatida o'qitilsa, O'zbekiston milliy universiteti, Jahon tillari universiteti va Toshkent Davlat pedagogika universitetining filologiya va tarix fakultetlarida qo'shimcha til sifatida o'qitilib kelinmoqda (Hasanov M., Abzalova M. 2016: 1).

Klaviatura so'zi – bu foydalanuvchi uchun kompyuterga ma'lumot kiritish imkonini beruvchi qurilma hisoblanadi. Birinchi kompyuterlarda klaviatura bo'lmagan. Ma'lumotlar kompyuterga mexanik kalitlar va simlar yoki perfokartalar yordamida kiritilar edi.

Klaviatura axborotlami ShKga kiritish uchun mo'ljallangan. Shuni ta'kidlash lozimki, hozircha klaviatura ShKdan foydalanuvchi tomonidan alfavitli va raqamli axborotlami ShKga kirituvchi asosiy moslama hisoblanadi (G'ulomov S.S, 2010: 2).

Tahlil va natijalar. Odatda, standart klaviaturada ingliz va rus alifbo harflari mavjud bo'ladi, arab harflari standart klaviaturalarda aks ettirilmagan. Shu bois zarurat bo'lgan holatlarda virtual "Ekran klaviaturasi" ilovasidan foydalanish mumkin. "Ekran klaviaturasi" ilovaga kirish uchun Windowsning Pusk tugmasida joylashgan «Специальные возможности» dan foydalaniladi.

Matn terishni arab shriftiga o`tkazib olamiz. Shunda virtual klaviaturada arabcha klavishlar ko'rinadi (1-rasm). Endi arab tilidagi so`z va jumlalarimizni bemalol terishimiz mumkin:

1-rasm. Virtual klaviaturaning arab shriftli ko‘rinishi



2-rasm. Arab tilida harakatlarni kiritish tugmalarining joylashishi



Arab tilidan doimiy ravishda foydalanuvchilar esa, arab harflari yozilgan yopishturuvchi yorliqlar (nakleyka) ni oddiy klavishlar ustiga virtual klaviaturadagi kabi yopishtirib chiqishlari ham yaxshi usuldir. Lekin ikkala holatda ham arab tilidagi harakatlar, e’roblarni yozish kerak bo‘lganda, klaviaturadagi “shift” belgisini bosish kerak (2-rasm):

XX asning oxiri va XXI asrning birinchi o‘n yilligida ommaviy kompyuter dasturlari va veb-saytlar avtomatik, mashina tarjima tizimlari paydo bo‘ldi va kundalik hayotda tarjimon dasturlari deb atala boshlandi va bu nom ko‘pincha “tarjimon” ko‘rinishigacha qisqartirildi.

Zamonaviy davrda bunday mutaxassis, odatda, maxsus oliy ma’lumotga ega bo‘lish kerak: bu tarjima yoki keng filologik yo‘nalishdagi oliy ma’lumot bo‘lishi mumkin va sohaga oid, iqtisodiy, yuridik, texnik, tibbiy va b. tarjimalarni amalga oshirish uchun shaxs faoliyatining tegishli sohasida oliy ma’lumotga ega iqtisodchilar, huhuqshunoslar, muhandislar, shifokorlar, mashinistlar, ular o‘zining oliy ma’lumoti va kasbiy aloqa sferasida tarjimonlarni tayyorlash kurslari doirasida olinishi mumkin bo‘lgan yetarlicha lingvistik va tarjimonlik tayyorligiga ega bo‘lgan holatda jalb qilinadi (Lutfullayeva M., 2024: 3).

Hammamizga ma’lumki hozirgi zamonaviy axborot va komunikatsiya texnologiyalari o‘qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratilinmoqda (Aliyev D., Lutfullayeva M., 2024: 4).

Turli xil ilovalardan foydalanib, ko‘plab tillarni, jumladan, ingliz, arab, ispan, fransuz, italyan, nemis, irland, golland, rus, xittoy va boshqa tillarni o‘rganishingiz mumkin.

Quyida arab tilini o‘rganishda yangi so‘zlarni bilsih, to‘g‘ri yozish, so‘zlarni tarjimasini bilish va sinonimlari haqida yangi bilimlarga ega bo‘lish va mustahkamlash uchun va yana boshqa imkoniyatlarni beradigan ba’zi dasturlar imkoniyatlari bilan tanishamiz.

Busuu [6] - ilovasidan foydalanish oson hamda ilova turli xil darajadagi til o‘rganuvchilar uchun juda qulaydir. Foydalanuvchi shunchaki ro‘yxatdan o‘tib, o‘rganmoqchi bo‘lgan tili va darajasini tanlaydi. Ilova foydalanuvchiga gaplar ichidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘rgatadi, so‘ngra bosqichma-bosqich test ko‘rinishida imtihondan o‘tkazadi. O‘rganish mumkin bo‘lgan tillar: arab, fors, nemis, ispan,

Portugal, fransuz, ingliz, italyan, rus, polyak, turk, yapon, xitoy tillaridir. Busuu bilan Anroid, iOS yoki internet vositasida tilni o‘rganish mumkin.

Bu dasturning afzalliklari quyidagilardir:

• Yozma “erkin uslub” mashqlari. O’z jumlalari va matnlarini tuzish qobiliyatini rivojlantiring. To’liq erkinlik, xohlagancha yozing, yangi so’zlarni mashq qiling - va bularning barchasi ona tilida so’zlashuvchilar tomonidan tekshiriladi.

• Ona tilida so’zlashuvchilar bilan suhbat.

• Ona tilida so’zlashuvchilar orasida do’stlar topish imkoniyati.

Bu dasturning kamchiliklari quyidagilardir:

- Juda aniq tarjimalar emas


- grammatika bo’yicha zaif tushuntirishlar.

- Oddiy testlar - ko’pgina savollarga tilni umuman bilmasdan javob berish mumkin. [11]

Bu dastur boshlang‘ich va davom ettiruvchi darajadagilar uchun ham birdek foydalidir. Unda arab tilini o‘rganish uchun arab tilidagi musiqalarni eshitish va filmlarni ko‘rish, onlayn-oflayn tarzda ishlash imkoniyatlari va boshqa imkoniyatlarga ega.

Rosetta Stone [7] - tillarni o‘rganish uchun professional darajadagi servis (3-rasm). Bu ilova asosan, sayohatlar davomida ko‘p qo‘llanadigan so‘z va iboralardan ta’lim olish imkoniyatlarini ochib beradi. Shuningdek, restoran, mehmonxonalar va turli xildagi sayohatlar bilan bog‘liq asosiy so‘z va birikmalardan iborat so‘zlashgich bor va bu sayohatga chiqqanlar uchun juda foydalidir. Agarda, foydalanuvchi istasa, rang, valyuta va xaridga oid lug‘atlarni sotib olish imkoniyatiga ega. Bu ilova orqali o‘rganish mumkin bo‘lgan tillar ro‘yhatiga; ispan, ingliz, fransuz, yapon, italyan, nemis, xitoy, portugal, rus, polyak, arab, fors, koreys, golland, yunon, hind, irland va boshqalar jumlasidan.

3-rasm. Rosetta Stone dasturining umumiy ko‘rinishi



Bu dasturning afzalliklari quyidagilardir:

• turli xil vazifalar beriladi va shuning uchun o’rganish zerikarli emas;

• siz shunchaki so’zni yodlabgina qolmay, balki uni ma’lum bir tasvir bilan bog’laysiz;

• dasturni o’zingiz uchun sozlashingiz mumkin: agar siz nutq yoki grammatikani o’rganishni xohlamasangiz, ularni shunchaki rad etishingiz mumkin;

• do’stona interfeys;

• 30 dan ortiq xorijiy tillarni o’rganish mumkin: eng mashhurlaridan tashqari, hind, xitoy, filippin va boshqalar mavjud). [12]

Bu dasturning kamchiliklari quyidagilardir:

• hech qanday qoidalar tushuntirilmaydi, ya’ni minimal bilim bazasi bo’lmasa, o’rganish qiyin bo’lishi mumkin;

• interfeysi ingliz tilida (garchi mualliflarning maqsadi sizni til muhitiga singdirish ekanligini hisobga

olsak, bu unchalik minus emas);

• faqat bir nechta darslar bepul5.

Bu dastur boshlang‘ich va davom ettiruvchi darajadagilar uchun ham birdek foydalidir. Unda arab tilini o‘rganish uchun ko‘pgina imkoniyatlari bor.

PROMPT [8] bu tillarni o‘rganishda professional dastur bo‘lib, ba’zi imkoiyatlari bilan tanishtirib o‘tamiz. Bu dastur – neyron tarmoqlarga asoslangan tildan-tilga tarjima qilish uchun bepul onlayn tarjimon (Neural Machine Translation), transkripsiyaga ega lug‘at, iboralar va boshqalar. Arab, ingliz, nemis, turk va 20 dan ortiq boshqa tillarga to‘g‘ri va aniq tarjimalar amalga oshiriladi.

Bu dastur professional bo’lsa ham, til o’rganishdagi grammatika qoidalari faqat ingliz, nemis, fransuz va rus tillarda foydalanish mumkin, ya’ni arab tilining grammatikasi keltirilmagan faqatgina lug‘at sifatida foydalanish mumkin.

Bu dasturning afzalliklari quyidagilardir:

• Yaxshi ishlab chiqilgan takliflar LLM javoblarining dolzarbligi va aniqligini sezilarli darajada yaxshilaydi va ahamiyatsiz natijalarni berish ehtimolini kamaytiradi.

• Rapid dizayn usullaridan matnni turli uslublar, ohanglar va formatlarda yaratish, natijani turli ehtiyojlar va auditoriyalarga moslashtirish uchun foydalanish mumkin.

• Operatsion dizayn tadqiqotchilar uchun LLM imkoniyatlari va cheklovlarini o’rganish uchun qimmatli vosita bo’lib xizmat qiladi va natijada yangi bilim va yutuqlarga olib keladi.

Bu dasturning kamchiliklari quyidagilardir:

• Operatsion rivojlanish - bu foydalanuvchilardan istalgan natijaga erishish uchun turli takliflar bilan tajriba o’tkazishni talab qiluvchi iterativ yondashuv.

• Iterativ jarayon bo’lib, tezkor ishlab chiqish ko’p vaqt va resurslarni talab qiladigan takliflarni yozish va takomillashtirishni o’z ichiga oladi.

Bu dastur professional bo‘lsa ham, til o‘rganishdagi grammatika qoidalari faqat ingliz, nemis, fransuz va rus tillarda foydalanish mumkin, ya’ni arab tilining grammatikasi keltirilmagan faqatgina lug‘at sifatida foydalanish mumkin.

BAB.LA [9] – bu ko‘plab tillarga tarjima qilish imkonini beradigan onlayn til portali. Bizning lug‘atimizning turli toifalari so‘zlashuv va mintaqaviy iboralardan tortib, alohida faoliyat sohalariga xos texnik lug‘at hisoblanadi. O‘rganish mumkin bo‘lgan tillar bular: arab, ispan, fransuz, ingliz, nemis, xitoy, yapon, koreys, italyan, portugal, golland, irland, shved, turk, norveg, ukrain, rus, polyak, hind, vetnam, venger, grek, indonez, chex. BAB.LA onlayn yoki Android, iOS va Windows uchun ilovalar orqali foydalanish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, bugungi kunda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan har bir sohada foydalanish yaxshi natijalar beradi, shuningdek, til o‘rganishda ham. Hozirgi kunda Informatika va axborot texnologiyalari fanlari chet tillarni va boshqa fanlarni o‘qitish metodikasi bilan bog‘landi. Tillarni o‘rganishda ayniqsa arab tilining o‘rni beqiyosdir. Hozirda yoshlar ham, yoshi kattalar ham, ko‘pchilik insonlar arab tilini o‘rganishga qiziqishi kuchli. Shu sababli arab tilini o‘rganishda, lug‘atlarni yodlashda, tarjimasini bilishda, so‘zlarning sinonimlarini bilishda, to‘g‘ri yozishda, gaplarni tarjima qilishda, rasmlardagi yozuvlarni matnga o‘girishda va boshqa ko‘plab ishlarni bajarishda kompyuter dasturlarining o‘z o‘rni bor. Ushbu maqolada yuqoridagi imkoniyatlarni beruvchi arab tilini o‘rganishda foydalaniladigan ba’zi kompyuter dasturlari ko‘rib chiqildi. Ushbu maqolada keltirilgan ma’lumotlar arab tilini o‘rganuvchi har bir insonga, jumladan, talabalarga foydali bo‘ladi, deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari (O‘quv qo‘llanma) / M. Hasanov, M. Abzalova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 360 bet

2. G’ulomov S.S. Informatika va axborot texnologiyalari: Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik / S.S.G’ulomov, BABegalov; O’zR Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. - T.: Fan, 2010. - 704 bet

3. Lutfullayeva M., & Aliyev D. (2024). Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. В международная конференция академических наук (Т. 3, Выпуск 2, сс. 12–15). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10648726

4. Aliyev D. & Lutfullayeva M. (2024). Dars sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etishning avzalliklari. B solution of social problems in management and

economy (Т. 3, Выпуск 2, сс. 142–145). Zenodo. https: //doi.org/10.5281/zenodo.10775912
5. https://www.alsglobal.net/uz/tillar/arab-tilini-tarjima-qilish%2C-transkripsiya-xizmatlari/
6. https://busuu.com/ru
7. https://www.rosettastone.com/
8. https://www.promt.ru/
9. https://bab.la/
10. Google Переводчик
11. https://hello-omsk.ru/blog/busuu.com-%E2%80%93-otlichnyy-onlayn-resurs-dlya-izucheniya-yazykov
12. https://pilot-school.ru/prilozhenie-rosetta-stone-dlya-nativnogo-izucheniya-anglijskogo-yazyka-otzyvy-preimushhestva-i-nedostatki/
13. https://www.languageconnections.com/blog/the-pros-cons-of-google-translate/

ELEKTROMAGNIT SIGNALLAR SPEKTRLARINI LABWIEV DASTURIDA MODELLASHTIRISH

Atoyeva Mekhriniso Farkhodovna
Buxoro davlat universiteti GQTEME kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Zoirov Sanjaridin Xolmuminovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti amaliy matematika va fizika fakulteti fizika-astranomiya kafedrasi assistenti,

Patinov Jo‘rabek Ravshanovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti amaliy matematika va fizika fakulteti talabasi,

Xoshimov Temur Fakhriddin o‘g‘li
Samarqand shahar prezident maktabi katta o‘qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada laboratoriya ishlarini virtual loyihalash usullari sanoat korxonalarida, shuningdek, barcha ta’lim yo‘nalishlarida “LabVIEW” dasturida modellashtirish jarayonlari, “LabVIEW” dasturida o‘quv jarayonlarida virtual laboratoriya loyihalash texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlarini, sanoat korxonalarida past chastotali signallarning tebranish qonuniga muvofiq yuqori chastotali signallarning tebranish parametrlarini o’zgartirish jarayonlari LabVIEW dasturida to’plangan va bu jarayonlarni boshqarishishini o‘rganilganlik masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: axborot texnologiyalari, animatsiyalar, dinamik modellar, LabVIEW, Elektr signali.

MODELING SPECTRA OF ELECTROMAGNETIC SIGNALS IN LABVIEW

Atoyeva Mekhriniso Farkhodovna
Buxoro davlat universiteti GQTEME kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Zoirov Sanjaridin Kholmuminovich
assistant of the physics-astronomy department of the Faculty of Applied Mathematics and Physics of the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute,

Patinov Jorabek Ravshanovich
a student of the Faculty of Applied Mathematics and Physics of the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute,

Hoshimov Temur Fakhriddin ogli
a senior teacher of the presidential school of Samarkand city

Abstract. Methods of virtual design of laboratory works and modeling processes in the «LabVIEW» program were studied in industrial factories, as well as in all educational areas. The possibilities of using virtual laboratory design technology in educational processes were studied in the «LabVIEW» program. In industrial factories, the processes of changing the vibration parameters of high-frequency signals in accordance with the law of vibration of low-frequency signals were collected in the LabVIEW program, and the control of these processes was studied.

Key words: information technologies, animations, dynamic models, LabVIEW, Electric signal.

МОДЕЛИРОВАНИЕ СПЕКТРОВ ЭЛЕКТРОМАГНИТНЫХ СИГНАЛОВ В ПРОГРАММЕ LABWIEV

Atoyeva Mekhriniso Farkhodovna
Buxoro davlat universiteti GQTEME kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Зоиров Санжаридин Холмуминович
ассистент кафедры физико-астрономии факультета прикладной математики и физики Узбекско-Финляндского педагогического института,

Патинов Джурабек Равшанович
студент факультета прикладной математики и физики Узбекско-Финляндского педагогического института,

Хошимов Темур Фахриддин угли
старший преподаватель президентской школы города Самарканда.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию изучению методам виртуального проектирования лабораторных работ, моделирование процессов в программе «LabVIEW» по всем образовательным направлениям на промышленных предприятиях, а также изучению на промышленных предприятиях в программе LabVIEW собраны процессы изменения параметров вибрации высокочастотных сигналов в соответствии с законом вибрации низкочастотных сигналов и управление этими процессами.

Ключевые слова: информационные технологии, анимация, динамическиемодели, LabVIEW, Электрический сигнал.

Kirish. Fizika ta’limida axborot va kompyuter texnologiyasini qo‘llanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu fizikaviy jarayonlarni va tajribalarni kompyuterda modellashtirish hisoblanadi. Kompyuter modellari bu an’anaviy va noan’anaviy dars jarayonlarini faollashtiradi, o‘qituvchining dars o‘tishiga ko‘pgina yengilliklar tug‘diradi va fizikaviy jarayonlarni oydinlashtiradi. Laboratoriya ishlarini talabalarga monitorda namoyish etib, bir necha marta takrorlab ko‘rsatish imkoniyatlarini yaratadi [1], [2], [3], [4].

Biz kundalik turmush tarzimizda minglab matn, jadval, grafik, rasm, harakatdagi tasvir va boshqa turdagi axborotlarni qabul qilamiz hamda minglab matn, jadval, grafik, rasm, harakatdagi tasvir va boshqa turdagi axborotlarni tarqatamiz. Axborotlarni birinchi fazoviy nuqtadan ikkinchi nuqtaga uzatish uchun uni biror bir fizik jarayonga yuklashimiz, ya’ni signalga aylantirishimiz lozim. Signal bu biror bir fizik jarayonning bir yoki bir nechta parametrlarini xabarga mos ravishda o‘zgarishiga aytiladi [5], [6], [7].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Seul, Janubiy Koreya Seul Milliy Fan va Texnologiya Universiteti, Kompyuter fanlari va muhandislik fakulteti tadqiqotchilari Ricardo Yauri, Max Delgado, Enzo Flores va Oscar Llerenalarning tadqiqot ishlari, Minsk, Belarus Respublikasi tadqiqotchisi G.A. Piskunlarning tadqiqot ishlariga asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritishda elektrotexnika fanlarida va sanoat korxonalarida yetishmaydigan va bajarish jarayonlari qiyin bo‘lgan muammoli loboratoriya ishlarini modellashtirish va modellashtirilgan virtual loboratoriya ishlarining real lobaratoriya ishlari bilan qiyosiy tahlillari ko‘rib chiqildi.

Elektr signali bu elektr jarayonning bir yoki bir nechta parametrlarini xabarga mos ravishda o‘zgarishiga aytiladi. Bunday signallar ma’lum matematik qonuniyatga bo‘ysingan xolatda takrorlanadi. Bunday signallarni garmonik tebranishlar shaklidagi signallar yordamida kuzatsak.

$u(t)=U0\cos(\omega 0t+\varphi 0)$. (1)

Tahlil va natijalar. Elektromagnit signallar tashuvchi tok kuchlanishining vaqtga bog‘lik tenglamasi (1) bo‘ysingan xolatda o‘zgarib turadi. Ta’lim muassalari va ishlab chiqarishda laboratoriya amaliy mashg‘ulotlari an’anaviy laboratoriya amaliyotlari, namoyishli laboratoriya amaliyotlari, masofaviy laboratoriya amaliyotlari hamda vertual laboratoriya amaliyotlari bilan olib borilmoqda. Bu laboratoriya mashg‘ulotlarini vertual laboratoriya amaliyotlari bilan o‘tkazish o‘rganilayotgan fizik jarayonlarni

matematik modellashtirish, laboratoriya jihozlari bilan vertual bog‘lanishlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bilan bir qatorda o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llashning maqsadga muvofiqligi, bugungi kunda o‘qitishning mazmuni, formasi va metodlari bilan bog‘liqligini quyidagi maqsadlar bilan ajratish mumkin. Texnikum, muhandislik instituti, ishlab chiqarish tashkiloti kimyoviy texnalogik instituti va elekronika va asbobsozlik universitetlarida fizika, kimyoviy texnalogiya, biotexnalogiya va elektronika fanlaridan Multisim, Proteus, EdrawMax, PhET va LabVIEW kabi dasturlari orqali laboratoriyalar ishlarini virtual sxema xolatda 2D va 3D ko‘rinishda bajarilsa o‘rgatuvchi kompleks dasturlar yordamida fizik hodisa va jarayonlarda kuzatiladigan fizik qonuniyatlarni bog‘lab tushuntirish qator afzalliklarga ega bo‘ladi.

- vaqtni tejash;
- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning «o‘zlashtira olish» darajasi;
- o‘quvchilarning yakka yondoshishini amalga oshirish;
- pedagogik usullarni «mexanizatsiyalashtirish» darajasi.

Fizik tajribalarni o‘tkazishga mo‘ljallangan “LabVIEW” dastur texnologiyasidan o‘quv jarayonida foydalanishning imkoniyatlarini qarab chiqamiz. LabVIEW (Laboratory Virtual Instrument Engineering Workbench) – National Instruments (AQSH) firmasi tomonidan yaratilgan kompleks dasturiy ta’minot. LabVIEW dasturi hisoblash ishlarini bajarishda va matematik modellashtirishda juda keng imkoniyatlarga ega bo‘lganligi bois MATLAB, MathCAD, Mathematica, MAPLE kabi mashhur matematik kompleks dasturlar bilan bemalol raqobatlasha oladi. LabVIEW dasturi ikkita old va orqa paneldan tashkil topgan. Dasturni ishga tushirish uchun old paneldan strukturaviy sxemaga o‘tish uchun menyudan Windows show panelni tanlaymiz. Old panelda yangi ob’yekt hosil qilishda Controls palitrasini tanlaymiz Windows show controls palette. Old panelda hosil qilingan ob’yektda to‘g‘ri burchakli belgi hosil bo‘ladi va unga bizga kerakli matnni kiritishimiz mumkin. Shu ketma-ketlikda ishni davom ettirishimiz mumkin [8], [9], [10], [11].

Biz kundalik turli fizik tajribalarni olib borish jarayonida o’rganilayotgan namunalarning optik va elektromagnet signaler tarqalishini kuzatishimiz mumkin. Bunday optik va elektromagnet signallarning spektrlarini o’rganish uchun kerakli asbob-uskunalar yetishmasligi sababli optik va elektromagnet signaller spektrlarini virtual xolatda kuzatishimiz mumkin. Bu kabi optik va elektromagnet signaler spektrlarini o’rganish uchun virtual LabVIEW dasturidan foydalanishimiz mumkin.

LabVIEW dasturidan optik va elektromagnet signallar spektrini o’rganish uchun LabVIEW dasturini New project buyrug‘i bilan ishga tushuramiz.

Old paneldan Signal Processing bo‘liga kiramiz va bu bo‘limdan Wfm Generator bo‘limini tanlaymiz. Bu Wfm Generator bo‘limdan esa Basic FuncGen boshqaruv panelini yuklaymiz. Basic FuncGen boshqaruv panelini birinchi kirish qismiga Create bo‘limdan control indikatorini kiruvchi signal chastota kattaligini boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Basic FuncGen boshqaruv panelinining ikkinchi kirish qismiga Create bo‘limidan control buyrug‘ini tanlaymiz. Bu control buyrug‘i bizga kiruvchi signal amplatudasi kattaliklarini boshqarish imkonini beradi. Signal turini o’zgartirish uchun Basic FuncGen boshqaruv panelining Signal tyre bo‘limiga Create bo‘limidan control buyrug’ini belgilaymiz. Window buyrug’i bilan orqa panelga o’tamiz. Hosil bo’lgan signal grafigini chizish uchun ossilograf sfatida Weveform Groph bo‘limini yuklaymiz va old panelga o‘tamiz Weveform Groph bo‘limining kirish qismiga Basic FuncGen burug‘inining signal chiqish qismiga ulaymiz. Bu Weveform Groph ossilografda xaqiqiy signal grafigi hosil bo‘ladi.

Bizga ma’lumki sanoat karxonalarida kuzatilayotgan signalarda, elektronika, fizika ta’lim soxasida o‘rganilayotgan elektromagnet va optik signallar spektrlarini o‘rganishda, hamda texnalogiya soxalarida ilmiy tatqiqotlar olib borayotgan izlanuvchilarga o‘rganilayotgan namunalarning spektorlarini olayotganda turli hil chastota va amplatuda ega bo‘lgan signallar xosil bo‘lishi mumkin. Bunday turli hil chastota va amplatuda ega bo‘lgan signallarni bir vaqtning o‘zida o‘rganish esa ko‘pgina qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu kabi sanoat karxonalarida kuzatilayotgan signalarda, elektronika, fizika ta’lim soxasida o‘rganilayotgan elektromagnet va optik signallar spektrlarini o‘rganishda, hamda texnalogiya soxalarida ilmiy tatqiqotlar olib borayotgan izlanuvchilarga o‘rganilayotgan namunalarning spektorlarini o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun xosil bo‘ladigan signallar amplatuda va chastotalarining malum bir chegarada xosil bo‘lgan qiymatlarini o‘rganish uchun signal filtrlaridan foydalanishimiz mumkin.Signallar amplatuda va chastotalarining malum qiymatlarini o‘tkazuvchi filtrni

ossilografga ulash uchun biz LabVIEW old panelga o‘tamiz va sichqoncha o‘ng tugmasi yordamida Signal Processing bo‘liga kiramiz va bu bo‘limdan Wfm Generator bo‘limiga kiramiz, bu bo‘limdan Basic FuncGen burug‘ini old panelga yuklaymiz. Numeric bo‘limidan Add (qo‘shish) indikatorni ekranga yuklaymiz. Bu Add indikatorni ossilgrafning signal kirish qismi ulaymiz, Add indikatorning ikkinchi signal kirish qismini esa Wfm Generator bo‘limiga kirib undan Basic FuncGen buyrug‘ining yuklab olamiz va Basic FuncGen burug‘i bilan bog‘laymiz. Window buyrug‘i yordamida orqa panelga o‘tamiz, sichqoncha o‘ng tamonini bosamiz va bunda Weveform Groph bo‘limini ekranda hosil qilamiz. Bu ossilografda shovqinli signallarni payqash mumkin. Add indikatorning chiqish qismiga hosil bo‘lgan ossilografning kirish qishmiga ulaymiz.

Window buyrug‘i yordamida old panelga kiramiz va sichqonchaning o‘ng tomonini bosib Signal Processing bo‘limiga kiramiz. Bu bo‘limdan Wfm Measure bo‘limini tanlaymiz. Bu Wfm Measure bo‘limdan FFT Power Spektrum buyrug‘ini tanlaymiz va old panelga yuklab olamiz.. Bu buyruq yordamida biz berilgan signal spektrini aniqlashga yordam beradi. FFT Power Spektrum buyrug‘ining signal kirish qismiga shovqinlarni sezuvchi ossilograf Weveform Groph ossilografning kirish qismiga ulaymiz. Orqa panelga o‘tamiz va orqa panelga Weveform Groph bo‘limini ekranda hosil qilamiz. Bundan keyin old panelga o‘tamiz Weveform Groph buyrug‘ining chiqish signaliga FFT Power Spektrum buyrug‘ining signal kirish qismiga shovqinlarni sezuvchi ossilografni ulaymiz. Window buyrug‘i yordamida orqa panelga o‘tamiz va Signal analysis buyrug‘iga kiramiz va bu buyrug‘dan Filter tanlaymiz. Bu signallar filtrning turiga Bandpass buyrug‘ini belgilaymiz. Filtr Specifications bo‘limini esa signal kattaligiga mos holatda tanlaymiz. Hing cutoff frequency ham signal chastotasiga mos xolatda tanlaymiz. Finite impulse response (IIF)Filter buyrug‘ini yoqamiz. Bizga ekranda filter paydo bo‘ladi. Orqa paneldan yana bizga kerakli bo‘lgan Weveform Groph bo‘limini ekranda hosil qilamiz.Bu old panelda hosil bo‘ladigan Weveform Groph signalni sezuvchi ossilografning kirish qismiga filterning Filtired Signal filtrlangan signal chiquvchi qismiga ulaymiz. Filterning Signal kiruvchi qismini esa FFT Power Spektrum ga kiruvchi signal bilan ulaymiz.

Bu ekranda xosil bo‘lgan birinchi ossilograflar yordamida biz bir vaqtning o‘zida xaqiqiy signallarni amplatudasi va chastotasi boshqarishni o‘rganishimiz mumkin. Ikkinchi ossilograg yordamida esa shovqinli signal spektrlari xaqiqiy kattaliklarini ko‘rishimiz mumkin. Uchinchi ossilofrafda esa shovqinli signallarning malum bir takrorlanuvchi qismi ajatib olish mumkin. To‘rtinchi ossilografda biz shovqinli signallarning fitrlangan xolda xosil bo‘lgan qismini o‘rganishimiz mumkin. Biz signallarning ixtiyoriy qismidan filtr o‘lchash chegaralarini o‘zgartirib signallarni fitrlangan xolatda o‘rganishimiz mumkin.

Xulosa. Zamonaviy texnoloiyalar asrida barcha sanoat tashkilotlari va oliy ta’lim muassasalarida qaralayotgan tajribalarni kompyuterda modellashtirib o’rgansak qaralayotgan tajribalar samaradorligini yuqori samaradorlik keltirishi mumkin. Sanoat korxonalarida eng soda elektr zanjiridan boshlab, eng murakkab va signallar ustida amallar va boshqa ko`pchilik vazifalarni LabVIEW dasturida kompyuterda modellashtirib elektromagnit signallarning ko’plab parametrlarini o’rganish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. M.F. Atoyeva. Use of Periodicity in Teaching Physics. Eastern European Scientific Journal. – Düsseldorf-Germany, 2017. № 4. –P. 35-39.

2. Zoirov S. X., Hamrayev Y. B., Bahriyeva M. F. Q. Fizika fanini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o ‘qitish metodikasi //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – C. 515-519.

3. Zoirov S. X., qizi Bahreyeva M. F. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi // Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 1. – C. 276-280.

4. Атоева М.Ф. Периодичность обучения физике. Аспирант и соискатель. Москва, 2010. – № 6. – С. 41-43.

5. Ubaydullayevich, Mamatov Zayniddin, and Zoirov Sanjaridin Xolmuminovich. «BESSEL USULI BILAN YIG ‘UVCHI VA SOCHUVCHI LINZALARNING FOKUS MASOFASINI ANIQLASH METODIKASI.» PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH 3.3 (2024): 76-81.

6. Zoirov, Sanjaridin Xolmuminovich. «Qiziqarli masalalar yechishni o ‘rgatishning umumiy usullari ustida ishlash.» Science and Education 5.3 (2024): 505-510.

7. Zoirov, Sanjaridin Xolmo’minovich, Shohijahon Husanboy O’G’Li Sirojiddinov. “Maktablarda zamonaviy virtual laboratoriyalarni tashkil etish metodikasi”. Fan va ta’lim 5.3 (2024): 495-499.

8. Xolmuminovich Z. S., To‘ychiyevich X. Q., Muxiddin A. “LABVIEW” DASTURIDA VIRTUAL LABORATORIYALARNI YARATISH IMKONIYATLARI HAQIDA //FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 194-200.

9. Sanjaridin Z., Temur X. METHODS OF CREATING VIRTUAL LABORATORIES IN THE» LABVIEW» PROGRAM //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 519-523.

10. Zoirov S. et al. MODELING OF PHYSICAL PROCESSES IN THE LABVIEW PROGRAM // Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 775-780.

11. Зоиров, Санжаридин. «Yarimo ‘tkazgichli tranzistorlarni LabWIEV dasturida yig‘ish va foydalanish metodikasi.» Общество и инновации 5.1/S (2024): 154-160.

12. Mehriniso Atoyeva. The use of synergetic technologies in the study of physics course topics. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: ҳттпс://инссиенсе.уз/индех.пҳп/сосинов/индех. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue - 2, №01 (2021) / ИССН 2181-1415 Р.

13. Mehriniso Farkhodovna Atoeva. The organization of physical experiments in teaching physics. Psychology and education (2021) 58(1): 3561-3568. ISSN: 00333077

“AYOL” TUSHUNCHASINING TA’RIFIY TUZILMASINING YARATILISHIDA LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV

Alijonova Oqila Alimovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. “Ayol” tushunchasi murakkab va ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, turli til va madaniy o‘lchovlar ta’sirida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqola «ayol» tushunchasiga lingvokulturologik yondashuvni o’rganadi, til va madaniyat ayollik kontseptsiyasini qanday shakllantirishini o’rganadi. Tadqiqot kontseptsiyaning xilma-xil va dinamik tabiatini aks ettiruvchi madaniy, ijtimoiy va lingvistik nuqtai nazarlarni birlashtiradigan tizimli ta’rifni o’rnatishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: lingvokulturologiya, ayol, gender identifikatori, madaniy hikoyalar, tilshunoslik, ijtimoiy rollar, gender tadqiqotlari, semantika, ijtimoiy lingvistika

A LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH IN THE CREATION OF THE DEFINITION STRUCTURE OF THE CONCEPT «WOMAN»

Alijonova Akila Alimovna
Jizzakh State Pedagogical University is a basic doctoral student

Abstract. The concept of «woman» is a complex and multifaceted concept that is influenced by different linguistic and cultural dimensions. This article examines a linguistic-cultural approach to the concept of «woman», examining how language and culture shape the concept of femininity. The study aims to establish a systematic definition that integrates cultural, social and linguistic perspectives, reflecting the diverse and dynamic nature of the concept.

Keywords: Linguistics, Woman, Gender Identity, Cultural Narratives, Linguistics, Social Roles, Gender Studies, Semantics, Sociolinguistics

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В СОЗДАНИИ ДЕФИНИЦИОННОЙ СТРУКТУРЫ КОНЦЕПТА «ЖЕНЩИНА»

Алиджонова Акила Алимовна
Джизакский государственный педагогический университет – базовый докторант

Абстракт. Понятие «женщина» — сложное и многогранное понятие, находящееся под влиянием различных языковых и культурных измерений. В данной статье рассматривается лингвокультурологический подход к понятию «женщина», исследуя, как язык и культура формируют понятие женственности. Целью исследования является создание систематического определения, которое интегрирует культурные, социальные и лингвистические аспекты и отражает разнообразный и динамичный характер этой концепции.

Ключевые слова: лингвистика, женщина, гендерная идентичность, культурные нарративы, лингвистика, социальные роли, гендерные исследования, семантика, социолингвистика.

Kirish

«Ayol» tushunchasi inson o’ziga xosligining muhim, ammo murakkab jihati bo’lib, u ham til, ham madaniy kontekstda chuqur singdirilgan. Jamiyat taraqqiy etar ekan, ayol bo‘lish nimani anglatishini anglash va ifodalash ham rivojlanib boradi. Ushbu evolyutsiya madaniy me’yorlar, ijtimoiy tuzilmalar va til amaliyotidagi o’zgarishlarni aks ettiradi va bu kontseptsiyani o’rganishni ayniqsa boy va murakkab qiladi. Til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biri bir-biriga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. So’zlar madaniy ahamiyatga ega va jamiyat qadriyatlari, e’tiqodlari va me’yorlarini bildiradi. Shunday qilib, “ayol” atamasi shunchaki biologik tavsiflovchi emas, balki tarixiy, ijtimoiy va lingvistik omillar ta’sirida shakllangan madaniy konstruksiyadir. Ushbu kontseptsiyaning to’liq ko’lamini tushunish uchun tilshunoslik va madaniyatshunoslik tushunchalarini birlashtirgan lingvokulturologik yondashuvni qabul qilish juda muhimdir.

Lingvokulturologiya tilning madaniy qadriyatlarni qanday qamrab olishi va uzatishini o’rganadi va «ayol» tushunchasini tahlil qilish uchun keng qamrovli ob’ektivni taklif qiladi. Ushbu yondashuv ta’riflar

statik emas, balki dinamik va ular paydo bo’lgan madaniy muhitni aks ettiruvchi ekanligini tan oladi. «Ayol» atamasining lingvistik va madaniy o’lchovlarini o’rganish orqali biz uning turli kontekstlarda qo’llanilishi va idrokini bildiradigan ma’no va ahamiyat qatlamlarini ochishimiz mumkin.

Ushbu maqola lingvokulturologik ob’ektiv orqali «ayol» tushunchasining tuzilgan ta’rifini yaratishga qaratilgan. U lug’atlar, adabiy asarlar, tarixiy matnlar va zamonaviy ommaviy axborot vositalaridagi lingvistik ma’lumotlarni tahlil qiladi va takrorlanadigan mavzular va madaniy manbalarni aniqlaydi. Bu orqali u “ayol” tushunchasining turli madaniyatlar va tarixiy davrlarda qanday rivojlanganligi va rivojlanishda davom etishi haqida nozik tushuncha berishga intiladi.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati uning gender va o’ziga xoslik haqidagi kengroq munozaraga hissa qo’shish potentsialidadir. Gender tengligi va xotin-qizlar huquqlari muhim masala bo’lgan davrda «ayol» tushunchasining til va madaniy asoslarini tushunish juda muhimdir. Ushbu tadqiqot nafaqat ilmiy munozaralarni boyitibgina qolmay, balki gender bo’yicha yanada inklyuziv va adolatli istiqbollarni ilgari surish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu lingvokulturologik yondashuv orqali maqola “ayol” tushunchasining murakkab va rivojlanib borayotgan mohiyatini yoritib beradi, uning ko‘p qirrali o‘lchovlarini tushunish uchun keng qamrovli asosni taklif etadi. Ushbu tadqiqot keyingi tadqiqot va munozaralar uchun yo’l ochishga qaratilgan bo’lib, pirovardida ham til, ham madaniy kontekstda ayollikni yanada nozik va inklyuziv tushunishga hissa qo’shadi.

Metodologiya

Tadqiqotda adabiy asarlar, tarixiy matnlar va zamonaviy ommaviy axborot vositalarining matn tahlilidan foydalangan holda, «ayol» tushunchasi bilan bog’liq takrorlanadigan mavzular va madaniy murojaatlarni aniqlash uchun sifatli metodologiya qo’llaniladi. Bundan tashqari, lug’atlar va korpuslardagi til ma’lumotlarining semantik tahlili turli tillar va madaniyatlarda «ayol» atamasining evolyutsiyasi va o’zgarishi haqida tushuncha beradi.

Ayolning madaniy jihatlari tarixiy va ijtimoiy kontekstlarda chuqur ildiz otgan. Ko’pgina madaniyatlarda «ayol» tushunchasi onalik, g’amxo’rlik va tarbiya kabi o’ziga xos rol va xususiyatlar bilan bog’liq. Bu rollar ko’pincha madaniy rivoyatlar, diniy matnlar va ijtimoiy umidlar orqali mustahkamlanadi. Masalan, ko’pgina an’anaviy jamiyatlarda ayollar birinchi navbatda madaniy merosning saqlovchisi va tashuvchisi sifatida ko’riladi. Bu idrok tilda maishiy va oilaviy rollarni ta’kidlaydigan atama va iboralar orqali namoyon bo’ladi. Aksincha, zamonaviy madaniyatlar ayollarning turli kasbiy va jamoat sohalaridagi ishtirokini tobora ko’proq e’tirof etmoqda va qadrlamoqda, bu esa ayollik haqida kengroq va inklyuziv tushunchaga olib keladi. Til «ayol» tushunchasini shakllantirish va aks ettirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. «Ayol» bilan bog’liq semantik sohalar jismoniy xususiyatlardan ijtimoiy rollar va shaxsiy fazilatlarga qadar keng ko’lamli atributlarni o’z ichiga oladi. Tilshunoslik ko’pincha madaniy munosabatlarni aks ettiradi, asosiy qarashlar va stereotiplarni ochib beradi. Misol uchun, ingliz tilida «ayol» atamasi kuchli va zaiflik ma’nolarini keltirib chiqarishi mumkin, bu ayollarning chidamli, ammo tarbiyali bo’lishi uchun qo’yilgan ikki tomonlama umidlarni aks ettiradi. Boshqa tillarda, masalan, rus tilida «jenshchina» (zhenshchina) so’zi ayollarning jamiyat yukini ko’taruvchisi sifatidagi madaniy rivoyatda shakllangan ayollik va chidamlilikning tarixiy ma’nolarini o’z ichiga oladi.

Lingvokulturologik tahlilga asoslanib, «ayol» tushunchasining keng qamrovli ta’rifi madaniy, ijtimoiy va lingvistik o’lchovlarni birlashtirishi kerak. Taklif etilayotgan ta’rif quyidagicha:

Ayol: o’ziga xosligi va roli biologik, ijtimoiy, madaniy va lingvistik omillarning murakkab o’zaro ta’sirida shakllanadigan ayol odam. Kontseptsiya biologik jins, gender identifikatori, ijtimoiy rollar va madaniy kutishlarni o’z ichiga olgan, lekin ular bilan cheklanmagan holda keng ko’lamli atributlar va tajribalarni o’z ichiga oladi. Lingvokulturologik yondashuv gender kontseptsiyalarini tushunishda madaniy va lingvistik kontekstlarni ko’rib chiqish muhimligini ta’kidlab, gender tadqiqotlari uchun qimmatli fikrlarni taqdim etadi. «Ayol» tushunchasining ravonligi va xilma-xilligini tan olgan holda, olimlar va amaliyotchilar gender bilan bog’liq muammolarni yaxshiroq hal qilishlari va yanada inklyuziv va adolatli istiqbollarni ilgari surishlari mumkin.

Xulosa

“Ayol” tushunchasi til, madaniy, ijtimoiy va tarixiy omillarning murakkab o‘zaro ta’sirida shakllangan boy, dinamik va ko‘p qirrali konstruksiyadir. Lingvokulturologik yondashuv orqali ushbu tadqiqot turli jamiyatlar va davrlarda ayollik haqidagi tushunchani aks ettiruvchi va aks ettiruvchi chuqur o’rnashgan

madaniy hikoyalar va lingvistik naqshlarni ochishga harakat qildi.

Bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, «ayol» ta'rifini bitta, statik tavsif bilan cheklab bo'lmaydi. Buning o'rniga, u madaniyatlar va tarixiy davrlar bo'yicha sezilarli darajada farq qiluvchi ko'plab atributlar, rollar va o'ziga xosliklarni o'z ichiga oladi. Onalik va g'amxo'rlikning an'anaviy rollaridan tortib, kasbiy va jamoat hayotining zamonaviy tasvirlarigacha, «ayol» tushunchasi o'zgaruvchan ijtimoiy me'yorlar va madaniy qadriyatlar ta'sirida doimiy ravishda rivojlanib bormoqda.

Lingvistik ma'lumotlar va madaniy tahlillarni birlashtirgan holda, ushbu tadqiqot «ayol» ni aniqlash uchun uning murakkabligi va o'zgaruvchanligini tan oladigan keng qamrovli asosni taqdim etdi. Taklif etilayotgan ta'rif biologik, ijtimoiy, madaniy va lingvistik o'lchovlarni o'z ichiga olgan ayollikning dinamik tabiatiga urg'u beradi. Ushbu yaxlit yondashuv nafaqat kontseptsiyaning mohiyatini qamrab oladi, balki gender o'ziga xosligini shakllantirish va tushunishda kontekstning ahamiyatini ham ta'kidlaydi. "Ayol" kontseptsiyasining ravonligi va xilma-xilligini tan olish gender bo'yicha yanada inklyuziv va adolatli nutqni o'tkazish imkonini beradi. Bu an'anaviy stereotiplarga qarshi turadi va ayollikni tashkil etuvchi turli xil tajribalar va o'ziga xosliklarni chuqurroq tushunishga undaydi. Bundan tashqari, ushbu lingvokulturologik nuqtai nazar tilning jinsga nisbatan madaniy munosabatni aks ettirish va shakllantirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot "ayol" tushunchasini tushunish va ta'riflashda lingvokulturologik yondashuvning ahamiyatini ko'rsatdi. Bu bizning gender haqidagi tasavvurlarimizni shakllantirishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini ta'kidladi va ayollikning ko'p qirrali tabiatini tahlil qilish uchun mustahkam asos yaratdi. Jamiyatning genderga bo'lgan munosabati rivojlanishda davom etar ekan, ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar o'ziga xoslik va xilma-xillikni yanada nozik tushunishni rivojlantirish uchun juda muhim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bazarova, L. V., & Gilyazeva, E. N. (2018). Representation of the concept "Woman" in English, Russian and Tatar linguocultures (on the material of proverbs and sayings). www. mjltm. com info@ mjltm. org, 186.

2. Fedoryuk, L. (2016). The Metodology of Concept Structure Analysis: Cognitive and Linguoculturological Aspects. Лінгвістичні студії, 70-76.

3. Paşalıoğlu, Canan. «A Comparative Linguoculturological Analysis:"Woman" Concept in Russian and Turkish Linguocultures (on the Basis of Russian and Turkish Languages).» UNDERSTANDING CULTURE (2017): 94.

4. Gasanova, M., Magomedova, P., & Gasanova, S. (2016). Linguoculturological Analysis of Woman's Image in the Proverbs and Sayings of the Dagestan Languages. International Journal of Environmental and Science Education, 11(18), 11869-11887.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ДИАЛОГ КАК ОСОБЫЙ МЕТОД ВЫРАЖЕНИЯ ИДЕЙ ОБ ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ

Элёр Абдулвохидов,
доцент Наманганского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы современной педагогики, ответы на которые анализируются в диалоге великих писателей современности Чингиза Айтматова и Мухтара Шаханова. Мудрые заключения и выводы, приведенные в их совместном труде «Плач охотника над пропастью», могут стать основой уникальных педагогических методов, которые эффективны в развитии образования и воспитания.

Ключевые слова: диалог, поэт-педагог, писатель-педагог, внимание аудитории, тандем, умозаключение, пословицы, притчи, легенды.

PEDAGOGIK DIALOG TA’LIM VA TARBIYA HAQIDAGI G‘OYALAR IZHORINING MAXSUS USULI

Elyor Abdulvohidov,
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogika muammolari ko’rib chiqiladi, ularning javoblari zamonamizning buyuk adiblari Chingiz Aytmatov va Muxtor Shaxanov o’rtasidagi muloqotda tahlil qilinadi. Ularning “Ovchining jar ustida nolasi” nomli qo‘shma asarida keltirilgan oqilona xulosa va xulosalar ta’lim va tarbiya rivojida samarali bo‘lgan noyob pedagogik usullarga asos bo‘la oladi.

Tayanch so`zlar: dialog, shoir-o`qituvchi, yozuvchi-o`qituvchi, tinglovchilar diqqati, tandem, xulosa, maqol, matal, rivoyatlar.

PEDAGOGICAL DIALOGUE AS A SPECIAL METHOD OF EXPRESSING IDEAS ABOUT EDUCATION AND UPBRINGING

Elyor Abdulvokhidov,
associate professor of Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines the issues of modern pedagogy, the answers to which are analyzed in the dialogue between the great writers of our time Chingiz Aitmatov and Mukhtar Shakhanov. The wise conclusions and conclusions presented in their joint work “The Hunter’s Lament over the Abyss” can become the basis for unique pedagogical methods that are effective in the development of education and upbringing.

Key words: dialogue, poet-teacher, writer-teacher, audience attention, tandem, inference, proverbs, parables, legends.

Введение. Истинно велик тот писатель, который обладает, помимо таланта мастера художественного слова, видением далёкого будущего. И это не просто проявление чуткого (порой даже врожденного) инстинкта, а результат глубоких раздумий. Таковым является классик Чингиз Айтматов, чьё творчество, как и во всём мире, с воодушевлением и большим интересом изучается и в Узбекистане. Его беседа с казахским писателем Мухтаром Шахановым переросла в бестселлер, получивший говорящее название «Исповедь на исходе века».

Книга также знакома читателю как «Плач охотника над пропастью». Оба названия одинаково заставляют задуматься, поскольку первое – это «откровенные признания, покаяния» великих писателей. А второе название исходит из притчи, приводимой в диалоге, которая также кроет смысл покаяния и сожаления за содеянное.

Методы. Традиция «Исповеди» как ретроспективы и итогов жизненного опыта мыслителей и художников занимает особое место в литературе. Такой подход мы находим в творчестве Л.Н. Толстого (произведение «Исповедь»,)Отличительная черта «Плача охотника над пропастью»

заключается в том, что, если в литературе больше известны исповеди, написанные одним мыслителем или писателем, то здесь мы читаем диалог. И такой подход еще больше расширяет горизонты мышления авторов.

В своём исследовании ««Авторская исповедь»: к истории названия и жанра» Ю.В.Балакшина отмечает: ««исповедь» — это в первую очередь, жанр церковный, связанный с событийным оформлением таинства покаяния или с исповеданием веры» [12]. На самом же деле данный жанр широко используется в художественной литературе в качестве метода выражения внутреннего диалога писателя.

Результаты и обсуждение. Размышления Ч. Айтматова и М. Шаханова касаются злободневных проблем, которые сегодня, спустя почти три десятка лет после публикации произведения, стали называться «глобальными». Здесь высвечивается ещё одна значительная черта авторов – глубокие умозаключения и выводы, которые сегодня превратились в реалии.

Книга состоит из семи отдельных глав, или диалогов. Семь важных для всего человечества тем анализируются на основе исторического опыта, сопоставительного анализа событий и рассуждений. Как отмечал сам Ч.Айтматов, «новаторства без традиций не может быть. В чистом пространстве новаторство не возникает. Оно возникает из недр прошлого» [1].

К примеру, первая глава посвящается определению статуса человека, его личности через призму темы Родины, родного языка, обычаев и традиций той географически определенной местности, в которой он родился и вырос. Мыслители на основе диалога, анализа приведенных примеров, притч, мифов, исторических событий приходят к выводу о том, что о человеке можно судить только по его отношению к своим корням. Вспомним великого А.П. Чехова: «В человеке должно быть всё прекрасно: и лицо, и одежда, и душа, и мысли» [1]. Кстати, есть вторая часть данной фразы, менее известная нелитературному кругу: «Человек должен стремиться к гармонии в своём облике – внутреннем и внешнем» [1]. Сюда тандем Айтматов-Шаханов добавляет весомый критерий: чувство Родины, «важно при этом суметь пропустить через свою душу то, что взял у нее и подобно пчеле, собирающей мед, влить в свое сердце» [1]. То есть каждый должен помнить о том, что представляет миру свою семью, Родину, своих предков. Об этой ответственности он должен помнить каждый миг. Причём, ставится вопрос понимания чаяний Родины, тогда как в сознании людей больше закрепилось ошибочное мнение о том, что отчизна должна заботиться о гражданах.

Привлекает обоснование каждой мысли авторов конкретными фактами из истории либо притчами, народной мудростью. Так, посредством главы «Преступление в тени веков, или Маркиз де Сад, Доненбай и яд африканской двузубки» Айтматов-Шаханов выразили опасения насчёт насаждения идей жестокости. Особенно в наш век, когда, пользуясь вседоступностью, социальные сети распространяют идеи и информацию, которая самым негативным образом действует на сознание людей, особенно молодежи, разъяснять опасность этого явления обретает острую необходимость. Логическим заявлением Ч.Айтматова звучит фраза, которую, мы уверены, автор выговаривал (Ч.Айтматов и М.Шаханов сначала именно «выговаривали» диалоги в диктофон, живое общение затем переносилось на бумагу) с дрожью в голосе: «Самая страшная из грозящих нам катастроф – это не столько атомная, тепловая и тому подобная угроза физического уничтожения человечества (а, может быть, и всего живого) на Земле, сколько антропологическая – уничтожение человеческого в человеке, катастрофа, означающая, что че¬ловек не состоялся...» [1].

Разнородное истолкование определенными слоями общества слова «демократия», стремление извлечь собственную выгоду стали полемической мишенью авторов книги в главе главу «Власть и духовность, или их отражения в деяниях царей, ханов, королей и президентов». Ч.Айтматов и М.Шаханов сходятся во мнении о том, что демократия, или же любого рода свобода – это больше ответственность, а не «вседозволенность». К сожалению, до сих пор наблюдаем, как некоторые враждебно настроенные силы стараются насаждать свои антигуманные идеи под прикрытием демократии. Недопонимание, уход от реалий жизни и ответственности, стремление к легкой наживе – всё это привело к «кривому» истолкованию понятия «демократия». Истинная

народная власть приходит тогда, когда каждый член общества прилагает все усилия на развитие и процветание своей страны, воспитывает детей в духе любви и преданности к национальным и общечеловеческим ценностям.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o’quvchilarning turli ehtiyojlari, psixologik omillari, pedagogik metodologiyalari va ijtimoiy-madaniy ta’sirlarini hisobga olgan holda individual yondashuvlar og‘zaki nutq malakasini, ishonchni va motivatsiyani rag‘batlantiradigan qo‘llab-quvvatlovchi va jozibador o‘quv muhitini yaratadi. O’qituvchilar, o’quvchilar va siyosatchilar til o’rganish va madaniyatlararo muloqotda og’zaki muloqot ko’nikmalarining to’liq imkoniyatlarini ochish uchun shaxsiylashtirilgan tilni o’qitishga ustuvor ahamiyat berish va sarmoya kiritishga da’vat etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Goodyear P. Teacher thinking, beliefs and knowledge in higher education. Teaching online. Sydney. – 2002. – 384 p.

2. Yoqubov I. “ Ingliz tili o‘qitish metodikasi”, (o‘quv qo‘llanma). Toshkent. Sharq nashriyoti. 2003-yil.

3. Pawlowski J. Lerntechnologiestandards: Gegenwart und Zukunft, in: Was macht E-Learning erfolgreich – Grundlagen und Instrumente der Qualitätsbeurteilung, – Berlin et al.: Springer 2004, – S. 93-110.

4. Sauter W., SBender M. · Blended Learning. Effiziente Integration von ELearning und Präsenztraining. Neuwied: Luchterhand, 2002, 301 S.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SAMARALI HAMKORLIKDAGI FAOLIYATGA TAYYORLASHNING SHART-SHAROITLARI

Hojiyeva Zulfiya O‘ktamovna
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrasi dots.nti, PhD.

УСЛОВИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ЭФФЕКТИВНОЙ СОВМЕСТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Хожиева Зулфия Уктамовна
PhD, доцент кафедры общей педагогики Университета Ташкентский Государственный Педагогический Университет имени Низами

CONDITIONS FOR PREPARING FUTURE TEACHERS FOR EFFECTIVE COLLABORATION ACTIVITIES

Hojiyeva Zulfiya Uktamovna
PhD, Associate Professor, Tashkent State University named after Nizami

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik hamkorlik uning o‘ziga xos xususiyatlari, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash imkoniyatlari innovatsion yondashuvdan foydalangan holda boshlang`ich sinf o`quvchilari o`rtasida hamkorlik ko’nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo`lgan pedagogik shartlarni aniqlash va tekshirishga qaratilgan. Keng qamrovli adabiyotlarni o`rganish va empirik tadqiqotlar orqali ushbu tadqiqot boshlang`ich sinf o`quvchilari o`rtasida hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan samarali pedagogik strategiya va usullarni o`rganish haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: pedagogika, ta’lim, kollaborativ, ko‘nikma, tadqiqot, metodika, metod, innovatsiya..

Аннотация. В данной статье рассматривается педагогическое сотрудничество, его особенности, возможности подготовки будущих учителей к совместной деятельности с учащимися, необходимой для развития навыков сотрудничества у младших школьников с использованием инновационного подхода, направленного на определение и проверку педагогических условий. Посредством всестороннего обзора литературы и эмпирических исследований в этом исследовании обсуждается изучение эффективных педагогических стратегий и методов, которые помогают развивать сотрудничество между учениками начальной школы.

Ключевые слова: педагогика, образование, сотрудничество, умение, исследование, методология, метод, инновации.

Abstract: This article examines pedagogical cooperation, its features, the possibility of preparing future teachers for joint activities with students, necessary for the development of cooperation skills in primary schoolchildren using an innovative approach aimed at identifying and testing pedagogical conditions. Through a comprehensive literature review and empirical research, this study discusses the exploration of effective teaching strategies and techniques that help develop collaboration among elementary school students.

Key words: pedagogy, education, cooperation, skill, research, methodology, method, innovation.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning hamkorlik pedagogikasiga oid bilimlarini rivojlantirishiga alohida e’tibor qaratish bugungi kunning dolzab masalasiga aylanmoqda. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashning ilmiy asoslarini rivojlantirish ehtiyoji kuchaymoqda. Bu esa ta’lim tizimini demokratlashtirish va insonparavarlashtirish imkonini beradi. Chunki pedagogik hamkorlik umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muhim hisoblanadi. Aynan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yosh avlodning ma’naviy axloqiy qiyofasini shakllantirishda o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yuksak madaniyatli, bilimli yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlikdagi pedagogik muhitning ahamiyati beqiyos. Hamkorlikdagi faoliyat o‘quvchi hamda

talaba yoshlarning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlaydi. Nafaqat o‘zining milliy madaniyatini biluvchi, uni hurmat qiluvchi, balki boshqa xalqlar madaniyatini ham qadrlaydigan, ularni o‘z milliy madaniy boyliklari bilan uyg‘unlashtira oladigan, baynalminallik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan o‘quvchi hamda talaba yoshlarni tarbiyalab etishtirish davr talabiga aylanmoqda.

Egallangan bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun faqat hodisa va jarayonlarni tasvirlashning o‘zi yetarli emas, bunda talaba juda ko‘p ilmiy ma’lumotlar bilan ishlashi, zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lishi va soha bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kompetensiyalarga aylantirgan xolda, haqiqiy hayotda qo‘llay olishi lozim. Jamiyat ijtimoiy hayotidagi rivojlanishlar ilg‘or ta’lim texnologiyalariga muvofiq rivojlanib bormoqda. Dunyo shu qadar tez sur’atlar bilan rivojlanayotgani, deyarli sohada fan-texnika yutuqlarini joriy etilganligidan dalolat berib, ta’lim tizimini ham mana shu ilg‘or texnologiyalarga mos ravishda rivojlanishini va o‘quvchi-yoshlardan boshlang‘ich ta’limdanoq hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishini talab etmoqda. Insonning hamkorlikdagi faoliyati muayyan jamiyat hayoti bilan bog‘liq tarzda amalga oshadi. Bu shuni anglatadiki, jamiyat hayotida inson uchun hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish quvvati bilan bir qatorda, hamjihatlikda rivojlanish imkoniyati ham mavjud. Pedagogik hamkorlik doirasida o‘z qiyofasini o‘zgartirish tushunchasi ham amal qiladi. Agar yangicha ijtimoiy davr shaxsning o‘z-o‘zini saqlashi, yangi sharoitga moslashishi g‘oyasiga asoslansa, zamonaviy inson o‘zining yangicha mohiyati va mavqeiga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatadi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim muhiti rang-barang yo‘nalishlarga ega bo‘lib, uni tadqiq etish bo‘lajak o‘qituvchilarda muloqotga kirishuvchanlik kompetensiyasini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, mazkur muammoning echimi nafaqt nazariyotchilar, balki amaliyotchilardan alohida ekasbiy mahoratni talab etadi. Yurtimizda vujudga kelgan o‘ziga xos tarixiy, ta’limiy-madaniy vaziyat umumiy o‘rta ta’lim tizimi oldiga ham yangi maqsad va vazifalar qo‘yishni taqozo etmoqda. Hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitining o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilganligiga qaramasdan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida o‘quvchilarga nisbatan gumanistik munosabatda bo‘lish tajribasini hosil qilishda qaratilgan ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish talab qilinmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlashtirgan bilimlari, mahoratini o‘z saviyasi darajasida qo‘llaydilar. Aqliy faollik,o‘tkir zehn, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon etadi. Topshiriqni bajarishda o‘quvchilarning ijodiy faoliyati u yaratayotgan o‘quv jarayonida masalalar echish, muammolarni hal etishda, insholar yozishda rivojlana boradi. Topshiriqni bajarish uchun faollik ko‘rsatish, zehnliligi, zukkoligi, kashfiyotchiligi, zarur bilimga ega bo‘lish uchun harakat qilishi, muammolarni echishda harakatchanligi, mustaqilligi, mehnatsevarligi, voqea- hodisalar ichida eng muhimini tanlay bilishi, umumiysini ko‘ra bilish qobiliyati kabilarni rivojlantirishga imkon beradigan faoliyat ijodiy faoliyat samarali faoliyatdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi esa bu borada shu vaqtgacha olgan bilimlarini tadbiq etadi. Bunda o‘qituvchi ham yangi usullarni qo‘llaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikka kirishishga tayyorlash vositalarni quyidagicha saralash mumkin:

- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning axloqiy shakllanishlariga xizmat qiladigan didaktik vositalarni tanlash; - o‘quv-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va o‘quv predmetlari doirasida taqdim etiladigan o‘quv materiallarini aniq izchillikda loyihalashtirish; - darsdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikka kirishishga tayyorlashga xizmat qiladigan mustaqil o‘qish daqiqalarini tashkil etish; - o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikka kirishishga undaydigan ijtimoiy foydali mehnat vaziyatlarini vujudga keltirish; - o‘quvchilar bilan ijodiy hamkorlikka undaydigan mustaqil ishlash vaziyatlarini tashkil qilish; - o‘quvchilararo hamkorlikni tarkib toptirish jarayonida o‘quvchilar bilan dialogga kirishishlariga sharoit yaratish; - jamoaviy faoliyatni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan metodikalar bilan qurollantirish. O‘quvchilar orasida sport musobaqalari, turli o‘yinlar, kitob mutolaasi kechalarini tashkil etish shular jumlasidandir; - o‘quvchilarga nisbatan xayrixohlik, qo‘llab quvvatlash sifatlarini rivojalantirish; - o‘quvchilar bilan ishchan muloqotga kirishish kompetensiyalarini shakllantirish kabilar.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitida guruhli faoliyat texnologiyalari intellektual rivojlanish, shaxslararo munosabat va hamkorlikka o‘rgatish, ijtimoiylashtirish imkonini beradi. Guruhli o‘qitish shakli bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqi, muloqot madaniyati, tafakkuri va intellektining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, guruhli faoliyat texnologiyalarini qo‘llash natijasida yuqori darajadagi samaradorlikka erishish mumkin. Shu jihati bilan u o‘qitishning an’anaviy frontal shaklidan ustun turadi. Guruhli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash jarayonida kichik guruhlarni shakllantirishda

e’tibor qaratiladi. Bunda turli-tumanlik prinsipiga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Guruhlarni shakllantirishda professor-o‘qituvchilar talabalarda turli-tuman o‘quv qiziqishlari, ko‘nikma va malakalari bo‘lishiga e’tibor qaratishlari kerak. Kichik guruhlardagi talabalar soni to‘rt kishidan oshmasligi kerak. Bunday guruhning faoliyati mahsuldor bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zaro muloqot va hamkorlikka qilishlari uchun qulay hisoblanadi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayoni pedagogik va psixologik faktorlarni umumlashtirgan holda uning tarkibiy qismini ko‘rib chiqamiz: yordam – pedagoglarning o‘zaro bir-biriga ko‘maklashishi; tajriba – pedagoglarning o‘zaro tajriba almashishi; tushunish – ta’limiy jarayonda murakkab vaziyatlarda o‘zaro bir-birini tushunish; qo‘llab-quvvatlash – pedagogik jarayon va muammoli holatlarda o‘zaro bir-birini qo‘llab quvvatlash. Pedagogik kollaboratsiyani ta’lim tashkilotida yo‘lga qo‘yish orqali qanday natijaga erishish mumkin? Natija: pedagogik-psixologik kolloboratsiya orqali o‘qituvchilarni yangi shakldagi intellektual va kreativ faoliyatini rivojlantirishga qiziqtirish, iqtidorlilarini aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlashga erishish mumkin. Ta’lim tashkilotlarida pedagogik kollaboratsiyani tashkil etish tushunchasi tizimli jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik kollaboratsiyaning tashkiliy faoliyati subektlari quyidagilar: direktor; tashkilotning pedagog xodimlari; o‘quvchilar; ota-onalar. Ushbu subekt a’zolarining barchasi tashkilot maqsadi, vazifalari, ish rejasiga ko‘ra faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Hamkorlik ta’limini tashkil etish funksiyasi ta’lim amaliyotida quyidagi algoritm bo‘yicha ishlaydi: faoliyat mazmuni, shakllari va turlarini tanlash, zaruriy tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish, vazifalarga mos mas’ullarni tayinlash, jamoada ijobiy muhitni shakllantirish, tashkil etishning oraliq va yakuniy natijalarini tahlil qilish. Amaliyotni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, pedagogik hamkorlik ta’lim-tarbiya jarayoniga, boshqaruvni tashkil etish masalalariga ham jalb qilish ota-onalarning mavjud va kelajakdagi ehtiyojlari asosida o‘z imkoniyatlarini tahlil qilish hamda uzoq muddatli maqsadlarni belgilash asosida faoliyatni tashkil etish tashkilot raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’lim tashkilotida pedagogik kollaboratsiyani tashkil etish jarayonida tashkilotning mavjud moliyaviy, tashkiliy, pedagog kadrlar, ta’lim dasturlari, uslubiy, moddiy texnika bazasi yaratiladi. Kamchiliklar monitoring natijalarini tahlil qilish jarayonida aniqlanadi, ularni bartaraf etish imkoniyatlari, manbalari izlanadi. Ushbu harakatlar ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan maqsadlar majmuini tashkil qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning guruhli faoliyatlari muayyan usullar yordamida baholanadi. Guruhli tarzda baholashning asosiy maqsadi – ularning guruh faoliyati natijalari uchun mas’ulligini oshirish bilan bir qatorda, o‘zlarining mustaqil tarzda qo‘shgan ulushlarini his etishlariga ham ko‘maklashadi. Shu bilan bir qatorda, har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘quv jaryonida o‘zining rivojlanganligini ham aniq his eta oladi. Guruhli o‘quv natijalarini baholash jarayoni ballar yordamida ifodalanib bo‘lajak o‘qituvchilar guruhining yutuqlarini namoyon etadi.

Hamkorlikdagi faoliyat bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy komptentligining tarkibiy zaruriy qismi hisoblanib, o‘quvchilarda ijodiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning zarur ijtimoiy talablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarador pedagogik modeli va shart-sharoitlarini yaratishga doir tadqiqotlarni olib borish, bu orqali aniq natijaga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida innovatsion yondashuv asosida hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar yaratish ularning har tomonlama rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Loyihaga asoslangan ta’limni birlashtirib, o‘qituvchilar malakasini oshirish, sinfda ijobiy muhitni yaratish, texnologiyadan foydalanish va tengdoshlarning fikr-mulohazalarini rag‘batlantirish orqali biz o‘quvchilarning hamkorlik ko‘nikmalarini samarali oshirishimiz mumkin.

Xulosa qilganda, ta’lim-tarbiyaga hamkorlikdagi faoliyat bilan yondashuv, dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo aloqalarning yangi sifat darajasiga ko‘tarilgan shakli hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda hamkorlikdagi faoliyat hayotdagi turli xil hodisalarni bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o‘zaro aloqadorlikda kompleks holda yondashishga yo‘naltiradi. Masalan, integratsiyalashgan ta’limni yo‘lga qo‘yishda sof ilmiy bilimlar, adabiyot, musiqa, san’at yordamida har tomonlama mukammal ko‘rsatib berish imkoni tug‘iladi. Bu esa bola shaxsining emotsional va axloqiy rivojiga, unda ijodiy tafakkurning shakllanishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Deák, C., Kumar, B., Szabó, I., Nagy, G. and Szentesi, S., 2021. Evolution of new approaches in pedagogy and STEM with inquiry-based learning and post-pandemic scenarios. Education Sciences, 11(7), p.319.

2.Koschmann, T., Kelson, A.C., Feltovich, P.J. and Barrows, H.S., 1996. Computersupported problem-based learning: A principled approach to the use of computers in collaborative learning. CSCL: Theory and practice of an emerging paradigm, pp.83-124.

3. Momanyi, J.M. and Rop, P.K., 2020. Teacher preparedness for the implementation of competency based curriculum in Kenya: a survey of early grade primary school teachers’ in Bomet East Sub-County. The Cradle of Knowledge: African Journal of Educational and Social Science Research, 7(1), pp.10-15

4. Egamberdiyeva, Y. U. (2021). Umumtalim maktablarida integratsiyaning mavjudligi. Студенческий вестник, (1-8), 95-97.Bobur. “Muxtasar”, Fan, 1971;

5. R.G.Safarova. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik hamkorlik faoliyatiga tayyorlash imkoniyatlari. https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-o-qituvchilarni-pedagogik-hamkorlik-faoliyatiga-tayyorlash-imkoniyatlari-1/pdf

Z Hojiyeva. Paying attention to theoretical and practical part in improving the didactic basis of preparing future teachers for effective cooperative activity https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=iwLTjhkAAAAJ&citation_for_view=iwLTjhkAAAAJ:_FxGoFyzp5QC

6. Z Hojiyeva. The role of co-creation in preparing future teachers for effective collaborative work. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=iwLTjhkAAAAJ&citation_for_view=iwLTjhkAAAAJ:ufrVoPGSRksC

7. Z Hojiyeva. Bo‘lajak o ‘qituvchilarni samarali hamkorlikka asoslangan faoliyatiga yo‘naltirish. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=iwLTjhkAAAAJ&citation_for_view=iwLTjhkAAAAJ:LkGwnXOMwfcC

8. Kadirova M., The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning. current research journal of philological sciences, 2022, 3(03), 1–THE NEED FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN DISTANCE LEARNING | CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (inlibrary.uz)

9. Kadirova M.N. Improvement Of Students’ Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI HIKOYALARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI (“Suv va daraxt” hikoyasi asosida)

Jalilova Gulnoza Toyirovna
Buxoro Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: Hikoya janri insonga ma’naviy ozuqa beruvchi ijod mahsulidir. Jahon va o’zbek bolalar adabiyoti nasrida hikoya janri badiiy saviyasi baland, mazmuni ixcham, real voqelik yoritilgan asar hisoblanadi. Hikoyada davr va qahramon masalasi, ijtimoiy hayot tasviri, xarakterlar talqini asarning asosiy bo‘g‘inini tashkil qiladi. Bu janr azal-azaldan didaktik ma’no kasb etib, insonlarga o‘zgalar turmushi orqali xulosa chiqarish va ularni yaxshiliklarga yetaklash, insoniy fazilatlarni shakllantirish uchun xizmat qilib kelgan. Shu boisdan, hikoya janri badiiy adabiyotda tarbiyaviy jihati ustuvorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada “Suv va daraxt” hikoyasi misolida o‘quvchilarni insonparvarlik, bag‘rikenglik, kamtarlik, yaxshilikka nisbatan minnatdorlik hissi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashda hikoyaning muhim jihatlari haqida batafsil to’xtalishga harakat qilindi.

Kalit so’zlar: hikoya janri, didaktik hikoya, insonparvarlik, voqea, insoniy fazilatlar, tarbiya, barkamol inson, ma’naviy ozuqa.

EDUCATIONAL IMPORTANCE OF STORIES IN READING LITERACY TEXTBOOKS (BASED ON THE STORY «WATER AND TREE»)

Jalilova Gulnoza Toyirovna
Graduate student of Bukhara Asian International University

Annotation: The story genre is a creative product that provides spiritual nourishment to a person. In the prose of world and Uzbek children’s literature, the story genre is a work of high artistic level, its content is concise, and real reality is illuminated. It has acquired a didactic meaning and has served people to draw conclusions through the lives of others and lead them to good deeds, to form human qualities. Therefore, the story genre is of special importance in fiction literature with the priority of its educational aspect. In this article, «Water and Tree «on the example of the story, in educating students as a person with humanity, tolerance, humility, gratitude for goodness, respect for national and universal values, who can resist harmful influences and currents, and have firm beliefs and views on life. an attempt was made to elaborate on the important aspects of the story.

Key words: story, didactic, genre, humanitarianism, event, human qualities, education, perfect person, spiritual food

Kirish. Bugungi kunda o’zbek adabiyotida hikoya janrini ilmiy tadqiq qilish ancha yuqori pog’onaga ko’tarilmoqda.Ayniqsa, so‘nggi yillarda hikoya janrida ijod qilish, u orqali kundalik hayotimizning ikir-chikirlarigacha bo’lgan voqealarni ochib berish sezilarli darajada rivojlandi. Bugungi yoshlar katta hajmli roman yoki qissa o‘qishdan ko‘ra kichik hajmli hikoyalarni ko’proq o‘qimoqda, mutolaa qilishmoqda.

Demak, farzandlarimiz, yoshlarimiz hikoya o‘qishga qiziqayotgan ekan, hikoya orqali ularning tarbiyasini shakllantirishga, hikoyadan to’g’ri xulosa chiqarishga urg’u berishimiz lozim. Shu sababdan hikoyalarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada chuqurroq tadqiq qilish va o’quvchilarga ta’sir qilish yo’llari ustida ishlash bolalar adabiyoti uchun ahamiyatli.Maktab darsliklarida berilayotgan hikoyalarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Hikoya – bu badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim an’analarga ega. O‘tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri bo‘lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan.Yevropa adabiyotida hikoyachilikning rivojlanishiga italyan yozuvchisi Bokachcho «Dekameron» asari bilan katta hissa qo‘shgan. Asarda 7 qiz va 3 yigitning 10 kun davomida aytgan 100 ta hikoyasi berilgan. Gi de Mopassan (fransuz), O.Tenri (amerika), A.P.Chexov (rus), A.Qodiriy, Cho‘lpon (o‘zbek) hikoya janrining asoschilari hisoblanadi. Yevropa adabiyotida hikoya novella deb ham ataladi.

Adabiyotlar sharhi

O‘zbek adabiyotida hikoya juda qadimdan boshlangan. Ilk yozma adabiy yodgorliklar — Kultegin va To‘nyuquq bitiktoshlarida bayon qilingan voqealar ishtirok etuvchilar tomonidan hikoya qilingan. Nosiriddin Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy» asarida ham axloqiy xarakterdagi hikoyaning yaxshi namunalari bor. Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonining 5-maqolotidagi «Hotami Toy hikoyati», 20-maqolatidagi «Ul qul hikoyati», «Sab’ai sayyor» dostonidagi yetti musofir hikoyalari ham bu janrning ilk namunalari hisoblanadi. XVI asrda yaratilgan Poshshoxojaning «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» asarlari o‘zbek hikoyachiligining rivojlanishiga asos bo‘lgan.

O‘zbek adabiyotida realistik hikoya janri XX asr boshlarida shakllandi . (Cho‘lpon «Qurboni jaholat», “Do‘xtur Muhammadyor”, A.Qodiriy, «Uloqda», 1915 va b.). 20-yilllarda G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Oydin va boshqalar bu janrda barakali ijod qildilar. 30-yillarda A.Qahhor hikoya ustasi sifatida tanildi. 50-60-yillarda S.Ahmad, 60-70-yillarda O‘.Hoshimov, Sh.Xolmirzayevlar bu janr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdilar.

«Hikoya» atamasi kengroq ma’noda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. So‘zlab berilgan bunday voqelik o‘z qamrovi, hajmi, rang-barangligi bilan qissa yoki romanga xos bo‘lishi ham mumkin. Bunday hollarda bu atama janr ma’nosida tushunilmaydi. Masalan, O‘.Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani 9 personajning 49 ta hikoyasidan tashkil topgan. Sh.Xolmirzayev «Olabo‘ji» asarini «romandan katta hikoya» deb ataydi. Hozirgi o‘zbek hikoyachiligi O.Muxtor, N.Aminov, S.Siyoyev, F.Musajonov, X.Sultonov, E.A’zamov, N.Eshonqulov, Sh. Bo‘tayev va boshqa yozuvchilar bilan boyidi.

Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo‘nda ifodalashga mo‘ljallangan. Unda shu voqeaga qadar personaj hayotida nima bo‘lgan, qanday ro‘y bergan, kim bilan -bular to‘g‘risida ma’lumot berish shart emas. Juda zarur bo‘lsa, ayrim detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Masalan, A.Qahhorning «O‘g‘ri» hikoya sida Qobil boboning kechagi kuni haqida lom-mim deyilmaydi. Egamberdi paxtafurushdan kichkina shart evaziga ikkita ho‘kiz olgan Qobil boboning ertasi to‘g‘risida «Bu shart kuzda ma’lum bo‘ladi», deb xabar beradi, xolos. G‘.G‘ulom esa «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasidagi o‘g‘rining kechagi kunini lo‘nda detallar orqali to‘ldiradi. Uydan biron narsa olmay chiqib ketgan yigitning ertangi kuni haqida hech qanaqa ma’lumot bermaydi. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo‘li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo‘lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko‘rinishda ham tasvir siqiq tarzda beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Yangi avlod darsliklarining metodik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bolalar hikoyalari misolida o‘ziga xos milliy urf-odatlar va didaktik xususiyatlari namoyon bo‘lishi asnosida chiqarilgan ilmiy xulosalar boshqa adabiy tur va janrlarda shunday estetik hodisaning namoyon bo‘lishini tadqiq etish uchun olib boriladigan ishlar uchun tayanch bo‘ladi. Uning natijalari xarakter yaratishning bu usullarini boshqa yozuvchilar asarlarida qo‘llangan badiiy usullari tizimi bilan qiyosan o‘rganishda asqatadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf mavzulari tizimiga kiritilgan bolalar hikoyalarining ilmiy-nazariy, badiiy-estetik, axloqiy-didaktik tahlillari zamonaviy milliy maktablarda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang’ich 2-sinf o’qish savodxonligi darsligida berilgan “Suv va daraxt” hikoyasi va uning tarbiyaviy jihatlari yuqorida qayd etgan fikrlarimizni isbotlaydi.

Zamira Ibrohimovaning “Suv va daraxt” hikoyasida tasvirlangan hodislarga o’xshash voqealar har bir insonning hayotida tez-tez sodir bo’ladigan voqealar sirasiga kiradi. Suvning ko’magisiz daraxt o‘z nomini yo‘qotishini tushunishi, qiyin kunlarda birov-birovga madadkor bo’lishini anglab yetishi, manmanlikka berilmaslik, yaxshilikka nisbatan minnatdorlik hissi – bu hikoyaning asl mag’zini keltirib chiqaradi. Daraxt qanchalik chiroyli va sarviqomat bo‘lmasin, suv bo‘lmasa, shunchaki bir o‘tin ekanligini, a’zoyi badanining bo‘g‘ilib borayotganini tushunib yetgandan so‘nggina afsus qildi.

“Agar bu yerda men gurkirab turmaganimda, yoningda kim ham to‘xtardi? Na soyang bor, na husning! Men bormanki, hayot bor!” – deya katta gapirib turgan daraxt ahvoli yomonlashgandan so‘ng –“Nahotki suv menga quvvat berib turgan bo’lsa?” – deb o‘ylab qoladi va tiriklikning kuchi hamkorlikda ekanligini tushunib yetadi. Shundagina suv eski yo‘nalishi bo’yicha oqa boshlabdi.

“Suv va daraxt” hikoyasini mutolaa qilgan bolajonda asrab- avaylanishi lozim bo’lgan ona tabiatimizga bo‘lgan muhabbati oshishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. O’quvchi oddiygina nihol

daraxt bo‘lib yetishishi uchun qanchalik uzoq muddat vaqt, mehnat va suv lozimligini tushunib yetadi. Hech narsa o‘z-o‘zidan bor bo‘lmaslini anglab yetgan yosh kitobxon, ko‘p narsalarning qadriga yeta boshlaydi.

Xulosa va munozara

Xulosa qilib aytganda, bolalar hikoyachiligi bu shunchaki ma’lum sujetga asoslangan voqelik yozish emas, balki aynan shu sujet orqali o‘quvchiga ezgulik ulashishdir. Hozirgi o‘zbek hikoya janrining shakli va mazmuniga xos bu fazilatlar shu bilangina cheklanmaydi. O‘qigan va tushungan o‘quvchi yangi-yangi xususiyatlarni kashf etishi mumkin.

Biz o‘zbek xalqi qadim-qadimdan bolalarimizga ayni hikoyalar, ertaklar aytib ularga axloqni, odobni o‘rgatib kelganmiz. Abdulla Oripov ta’kidlaganidek, Sharqqa xos donishmandlik bilan yo‘l tutganmiz. Shu boisdan yozilajak hikoyalarimizning bosh qahramonlarida butun millatga ta’sir etajak xususiyatlarni ifodalashimiz kerakligini unutmaylik.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.
2. Rasulov A. Badiiylik – bu zavol yangilik. – Toshkent, 2007.
3. Solijonov Y. Hozirgi o‘zbek hikoyasi//O‘zbek tili va adabiyoti, 2012 yil, 4-son.
4. Mamajonov S. Tanqidchi va adabiy jarayon. O‘zbek adabiyoti tanqidi(antologiya). – Toshkent: “Turon iqbol”, 2011.
5. 5.G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O‘qituvchi kitobi. – Toshkent: “Tafakkur”, 2011.
6. 6.Aydarova B. O‘qish savodxonligi, 2-sinf. –Toshkent, “Novda”, 2023.

USING CREATIVE ABILITY AND DESIGN THINKING PROCESS IN EDUCATION AND EVERYDAY LIFE

Jalilova Umida
PhD student of Navoiy State Pedagogical Institute

Abstract: Every person can have creative habits, whether he/she is an artist, a businessperson, or even a simple person, even though there is an idea among people that only certain individuals are creative. Not only in every job, but also in all walks of life, creative thinking and problem solving play an important role. On the other hand, creative thinking ability reduce stress level and manage negative emotions.
Key words: creativity, design thinking, curriculum

KREATIV YONDASHUV VA DIZAYN FIKRLASHNING O’QISH VA KUNDALIK HAYOTDA QO’LLANILISHI

Jalilova Umida
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Har bir odamning kreativlik odatlari bo’lishi mumkin, holbuki ushbu xususiyat faqat ma’lum turdagi insonlarga xos deb o’ylanishiga qaramay, u san’atkormi, biznesmenmi, o’qituvchimi yoki oddiy odammi,har bir insonda kreativ g’oyalar mavjud. Faqat ishda emas, balki hayotning barcha sohalarida kreativ o’ylash va muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ o’ylash qobiliyati stress darajasini pasaytiradi va salbiy emotsiyalarni boshqaradi.
Kalit so’zlar: kreativlik, dizayn fikrlash, darslik

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ И ПРОЦЕССА ДИЗАЙН-МЫШЛЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ И ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ

Джалилова Умида
Докторант Навоийского государственного педагогического института

Аннотация: Каждый человек может иметь творческие привычки, будь то художник, бизнесмен или даже обычный человек, несмотря на то, что среди людей существует мнение, что только определенные люди являются творческими. Творческое мышление и решение проблем играют важную роль не только в каждой работе, но и во всех сферах жизни. С другой стороны, способность творчески мыслить снижает уровень стресса и помогает справляться с негативными эмоциями.
Ключевые слова: креативность, дизайн-мышление, учебный план

Introduction. If we look at the theory of Creativity, we can learn a lot about how people who have creative ability can allow creativity to flourish. Understanding Design Thinking provides a framework that systematically addresses the problems to establish the degree of success in reaching the desired learning outcomes. It can provide a way to move from covering the curriculum to creating curriculum and understanding with technology and understanding with technology. The importance of Understanding by Design is that it promotes a “backward” design process that begins with identifying the enduring understandings that students should carry from the class. As well as understanding by Design emphasizes the teachers’ critical role as an assessor and designer of student learning. Understanding by Design can help us develop many useful products that have advanced our goals in science education more efficiently and effectively.

Identifying desired results, determining acceptable evidence and planning learning are the three stages of Backward Design. Explaining a backward design process to avoid common problems and proposing an approach to curriculum designed to engage students in inquiry and uncovering ideas, as well as proposing a set of design standards for achieving quality control in curriculum and assessment designs are of primary importance. Curriculum must be cohesive and coherent across multiple grades. Moreover, it is incredibly important that lesson plans should be more useful and functional for teachers and more valuable for students.

Method.

We should think carefully about what students should be able to do with their learning. Rather than simply creating a long list of fragmented objectives, we should begin by identifying the authentic performances that will demonstrate student understanding and make learning relevant and meaningful. Successful learning outcomes require the integration of content and creative approaches must be used to embed opportunities for inquiry, innovative problem solving, and critical thinking into a backbone of deep discipline knowledge.

There are many articles with a lot of great ideas that given by a number of researches: such as Guilford's proposed model of problem solving, Hermann von Helmholtz's findings about "how happy ideas came unexpectedly without effort, like an inspiration", Walla's suggestion about illumination that is often proceeded by an intuitive feeling made me think deeply about my creative habits. I can say that I have a great sense of creativity and some factors help me increase it, such as freedom, authenticity and self-awareness, relaxation, and faith in myself. My feelings and intuition help me to be creative and find better ideas. It arises from unconscious or spontaneous information-processing system and it plays an important role in how I think, create, and behave socially. For being creative, I have to take risks and ignore doubt and face fears. I sometimes break with my routine do something different for the sake of doing something different. It means mapping out thousand different routes to reach my destination.

Result.

I am going to give some examples about how to use a creativity in an effective way on a daily basis. I tried to look at the things I use every day and think about them in new ways to make them better. Firstly, I thought about problems I come across every day. I have three children and they have sweet teeth, they like candies very much. Obviously, tons and tons of candy wrappers are left on a daily basis. Throwing away all those wrappers can seem like a waste, especially since they are so bright and colorful. So, I tried to come up with some ideas to create new and wonderful things with the help of bright candy wrappers. Unusual items always inspire people, especially children. So, what can I do to create with simple colorful candy wrappers? I started by getting creative and trying to think in a creative way. Numerous ideas that I can do to reuse candy wrappers made me feel happy.

I can press a candy wrapper into a clear phone case to spice up my device. I can cut a large candy wrapper in half lengthwise to separate the front from back, then place a clear phone case over the front part of the wrapper, then trace the holes for the camera, then place the wrapper into the phone case before I put it on my phone. The wrapper will be stuck in between my phone and the case. If I make a couple different wrapper cases, I can switch them out every day.

For making hair bows and clips, I can twist a sweet wrapper in the middle to form a bow shape. I can then glue it onto a hairclip or band. To make a multicolored bow I repeat the same center twist with another different colored sweet wrapper and then glue the two together.

In order to make my little son busy with interesting games, I can cut up sweet wrappers make great colorful materials for collages and mosaics. I can also cut out shapes from candy wrappers to glue the colorful pieces onto cardboard. As well as, for children, binoculars and telescopes are great for imaginative play. All I need to make either of them is an old cardboard kitchen roll or wrapping paper tube. To make a telescope, I tape a sweet wrapper to the end of the cardboard tube. To make a pair of binoculars I just need to cut my cardboard roll into two equal lengthened tubes. I can tape a sweet wrapper to the end of each tube. Then I tape or glue the two tubes together to form binoculars. I can also then decorate them with pen, paint or stickers. If I add on a string or ribbon loop, it can be worn round neck.

Sweet wrappers can also be used for household items. Stained glass lanterns and flower vases are easy and simple to make. All I need is a glass jar, glue and some sweet wrappers. I simply cut up the sweet wrappers into colorful pieces and then glue them onto the jar. When the glue has dried I should have a beautiful stained glass effect. I can then either use the jar as vase for flowers, a pencil pot or sweet jar.

I can use wrappers as a fun in order to make great light filters multi colored and transparent by sweet wrappers. I can hold then up individually to the light or tape several together in a sheet and then look through the squares. If I hold the sweet wrappers up against different objects, different colors make things appear darker, brighter, warmer or harder to see.

I can use sweet wrappers to create a simple color wheel to demonstrate color theory to my children. Color theory is when I use primary colors like red, blue and yellow to create secondary colors like purple,

green and orange. For example red and yellow makes orange. Yellow and blue makes green. Blue and red makes purple. I can also use color wheel to teach younger children the basic colors.

Everybody loves making suncatchers, they are so pretty and make children feel inspired. To make a sweet wrapper suncatchers, I cut a shaped hole into a piece of paper or cardboard to create a frame, then glue or tape sweet wrappers across the hole. I can cut sweet wrappers into strips to make a rainbow, but I could stick them in any shape order or pattern. For example, I could make a stained glass window pattern or mosaic picture.

Discussion.

Sometimes when my mind wandering can offer very personal rewards, including creative incubation, self-awareness, future planning, reflection on the meaning of my experiences, and even compassion. Although the act of mind wandering is often anything but mindless, it can lead to improvements in creative thinking. So, next time I am working hard on a creative project or work assignment that requires intense focus and creative chops, taking a few-minute daydreaming break every hour. I try engaging in a simple activity that will allow my mind to wander, like walking, doodling, or cleaning, and see how it effects my ideas and thinking. Sometimes I make time for solitude, to give myself space to reflect, make new connections, and find meaning, because time for solitary reflection truly can feed the creative mind. It helps me to find the similarities and differences between two completely random ideas.

Conclusion.

As a creative person, I also strive to create something new, either tangible or intangible by using my imagination. Thinking about what can we done with any item or material is not only about what we would want to do with it but, essentially, also what we can do considering its material prosperities. Everyone of us has something in mind that maybe others just ignore, that is why it is important to share what we have in mind, what moves us inside. The things that go on in our heads, some are amazing, others can be stupid. But, it can be useful to show and express what we think in a very organized way or even if it looks messy. We all have a box with incredible things that are worth to be known, we just need to seek and discover ourselves in order to show and express it and let us know, learn more by sharing and receiving.

References:

1. Glaveanu V.P (2016). Affordanve. In V.P Glaveanu L.,Tanggard&C. Wegener (Eds.), Creativity: A new vocabulary(pp. 10-17). London:Palgrave
2. GlaveanuV.P. (2016). Things. In V.P. Glaveanu L.,Tanggard&C. Wegener (Eds.), Creativity: A new vocabulary(pp. 164-171). London:Palgrave
3. GlaveanuV.P(2012). Habitual creativity:Revisiting habit, reconceptualising creativity. Review of General Psychology, 16(1), 78-92.
4. Lubart, T. I. (2001) models of the creative process: Past, present and future. Creativity Research journal, 13(3-4), 295-308
5. Glavenau, V.P. (2015) Creativity as a sociocultural act. Journal of creative Behaviour, 49(3), 165-180.
6. Everet Rogers. Diffusion of Innovation (1995The concept of Agency in Objects

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O'QITISHGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI

Jo'rayeva Maftunaxon Dilshodbek qizi
Andijon davlat universiteti tayanch (PhD) doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik va psixologik jihatdan tayyorlash, boshlang'ich sinflarda olib boriladigan tarbiya darslarini samarali tashkil etish omillari va mavzularni hayotiy hamda amaliy jihatdan ahamiyatini atroflicha ochib berish uchun qo'llaniladigan zamonaviy metod va pedagogik texnologiyalar haqida zaruriy ma'lumotlar berilgan bo'lib, bu ma'lumotlar oliy ta'limda tahsil olayotgan talaba yoshlar, yangi ish faoliyatini boshlagan o'qituvchi pedagoglar, shuningdek boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, tarbiya konsepsiyasi, metodologik asos, pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagog, ta'limiy o'yin, pedagogik imidj, tarbiya nazariyasi.

ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПРЕПОДАВАНИЮ НАУКИ О ОБРАЗОВАНИИ

Жўраева Мафтунахон Дилшодбек қизи
докторант Андижанского государственного университета.

Аннотация. В данной статье рассказывается о современных методах и педагогических технологиях, используемых для педагогической и психологической подготовки будущих учителей начальной школы, факторах эффективной организации учебных занятий, проводимых в начальных классах, а также жизненной и практической значимости темы, дана необходимая информация. , и эта информация включает в себя важную информацию для молодых студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, учителей и педагогов, начинающих новую карьеру, а также учителей начальной школы.

Ключевые слова: Образование, концепция образования, методологическая основа, педагогическая технология, современный педагог, обучающая игра, педагогический образ, теория образования.

TECHNOLOGIES FOR THE PREPARATION OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS FOR TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION

Jo'rayeva Maftunaxon Dilshodbek qizi
Ph.D. student of Andijan State University

Annotation. This article is about the modern methods and pedagogical technologies used for the pedagogical and psychological preparation of future elementary school teachers, the factors of effective organization of educational classes conducted in elementary classes, and the vital and practical importance of topics. the necessary information is given, and this information includes important information for young students studying in higher education, teachers and pedagogues starting a new career, as well as elementary school teachers.

Key words: Education, concept of education, methodological basis, pedagogical technology, modern pedagogue, educational game, pedagogical image, theory of education.

Kirish.Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida qo'llaniladigan chora-tadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi.Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020 yilda o'zbek ―Pedagogika fani

tarixida ilk bor ―Tarbiya yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-sonli

―Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ―Tarbiya fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan ―Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchi lari uchun Tarbiya fani Kontsepsiyasi tasdiqlandi. Qarorga binoan Tarbiya fani amaldagi quyidagi fanlarni qo‘shish hisobiga tashkil etildi:

1) boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan Odobnoma va Vatan tuyg‘usi o‘quv fanlari;

2) yuqori sinflarda o‘qitiladigan Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslar hamda ―Dunyo dinlari tarixi o‘quv fanlari.

Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu Tarbiya
fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta‘lim-tarbiyaga oid me‘yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslari va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlari, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o‘quv fanining negizini tashkil etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu asoslarni talab darajasida o‘zlashtirishi kerak. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda yangi fan ―Tarbiya asoslari bo‘yicha maqsadli bilim berish, tarbiyaning yangi metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo’lib turibdi.

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston ta‘lim tizimida, jumladan, oliy ta‘lim jarayonida Tarbiya fanini zamonaviy talablar asosida o‘qitish va o‘rganish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mazkur fanni o‘zlashtirish va uni o‘qitishning metodikasini o‘rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanning asoslarini chuqur bilish;
- fanni o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash;
- tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o‘rganib borish;
- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o‘rnini to‘liq idrok etish;
- fan vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash
metodlari va texnologiyalarini bilish;
- fanni o‘qitish bo‘yicha individual pedagogik tajribaga ega bo‘lish.

Mazkur fanni o‘rganish zaruriyati ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun kasbiy talablardan hisoblanadi. Chunki bu fan gumanitar fanlar ichida tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish va samaradorligini o‘rganib borish ishlarini muvofiqlashtiradi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topish, mustaqil o’rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo’llanmoqda. Albatta bu kabi zamonaviy texnologiyalar o’quvchilarni fanga bo’lgan qiziqishlarini yanada oshirish bilan bir qatorda ularga fan doirasida o’tilayotgan mavzularni yana ham chuqurroq anglab yetishlariga yordam beradi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, endi o’sib ulg’ayib kamolga yetayotgan yosh avlodni Vatanga muhabbat, Yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, komil shaxs sifatida kamolga yetkizishda tarbiya darslari eng muhim omillardan hisoblanadi. Shunday ekan tarbiya darslarini samarali tashkil etish, boshlang’ich sinf o’quvchilarini mavzularni o’rganishga bo’lgan qiziqishlarini yanada orttirish, o’tkaziladigan amaliy darslardan o’zlariga kerakli xulosalarni chiqarishlarini ta’minlashda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari eng avvalo zamon talabiga mos bo’lgan pedagogik imidjdan tortib to psixologik talablar hamda zamoviy pedagogik texnologiyalar haqida ham nazariy, ham amaliy chuqur bilim, malaka va

ko’nikmalarga ega bo’lishlari zarur. Zero o’qituvchi tomonidan tashkil etilgan tarbiya darslarida zamonaviy pedagogic texnologiyalar, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta’limiy metod va ta’limiy o’yinlardan mavzularga mos holda samarali foydalanish mavzularning nazariy hamda amaliy jihatlarini uyg’unlashuvi hamda o’quvchilar tomonidan mavzularni o’zlashtirilishida samaradorlikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. «O‘zbekiston» NMIU , 2018.486 bet.

2. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash. https://president.uz/oz/lists/view/2

3.Vazirlar Mahkamasi 06.07.2020 yildagi «Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 422-son qarori.

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187- son qarori.

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 997-son qarori.

6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.

7.Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-321-326

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARI ORQALI O’QITISH AFZALLIKLARI

Jumazoda Shohidai Jaloliddin
Urganch Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Bugungi kunda, Sun’iy Intellekt (SI) turli xil sohalarda qo’llanib kelinmoqda, shu jumladan ta’lim sohasida. Ushbu maqola sun’iy intellekt orqali boshlang’ich sinfl o’quvchilariga Ingliz tilini o’qitish afzalliklarini yoritib beradi. Individual yondashuv, Avtomatik baholash tizimi hamda Interaktiv dars mashg’ulotlari sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlari va chet tili o’qitishn jarayonini yanada samarali kechishiga misol bo’la oladi. Ilmiy maqola kuzatuv hamda intervyu metodlari asosida yozilgan bo’lib, Xorazm viloyati Urganch shahar maktab o’qituvchi va o’quvchilari orasida og’zaki so’rovnoma o’tqazildi. Yakuniy xulosaga ko’ra Sun’iy Intellekt – moliyaviy va ayrim texnik muammolarni hisobga olmaganda, dars jarayonlarini sifatli tashkil etishning bugungi kundagi eng maqbul yo’li bo’lib, boshlang’ich sinflardan boshlab tadbiq qilinganda yanada ko’prog’ natijalarga erishish mumkin.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, ingliz tilini o’rgatish, yosh o’quvchilar, shaxsiylashtirilgan ta’lim, ta’lim texnologiyasi, tilni o’zlashtirish, tabaqalashtirilgan ta’lim, tezkor fikr-mulohaza, faollik, ta’lim natijalari.

THE BENEFITS OF USING AI IN TEACHING ENGLISH TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Jumazoda Shahidai Jaloliddin
doctoral student of Urganch State University

Abstract. Today, Artificial Intelligence (AI) has revotionized various sectors, including education. This article explores the benefits of using AI in teaching English to elementary school student. An Individual Approach, an Automatic Assessment system and Interactive lessons are an example of the capabilities of an Artificial Intelligence system and a more effective process of teaching a foreign language. The scientific article was written based on observation and interview, and an oral survey was conducted among school teachers and students in the city of Urgench, Khorezm region. According to the final conclusion, using artificial intelligence is one of the most optimal way to organize high-quality educational processes, eliminating financial and some technical problems.

Key words: Artificial Intelligence, English Language Teaching, Young Learners, Personalized Learning, Educational Technology, Language Acquisition, Differentiated Learning, Rapid Feedback, Activity, Education

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА УЧЕНИКАМ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Джумазода Шахидай Джалолиддин
докторант Ургенчского государственного университета.

Аннотация. Сегодня искусственный интеллект (ИИ) используется в различных сферах, в том числе в образовании. В этой статье освещаются преимущества преподавания английского языка ученикам начальной школы с помощью искусственного интеллекта. Индивидуальный подход, автоматическая система оценки и интерактивные уроки — пример возможностей системы искусственного интеллекта и более эффективного процесса обучения иностранному языку. Научная статья написана на основе методов наблюдения и интервью, а также проведен устный опрос среди учителей школ и учащихся города Ургенч Хорезмской области. Согласно итоговому заключению, искусственный интеллект является на сегодняшний день наиболее оптимальным способом качественной организации учебных процессов, исключающим финансовые и некоторые технические проблемы.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, Преподавание английского языка, Молодые учащиеся, Персонализированное обучение, Образовательные технологии, Овладение языком, Дифференцированное обучение, Мгновенная обратная связь, Вовлеченность, Образовательные результаты.

KIRISH. O’zbekistonning har bir o’sib kelayotgan yosh avlodni hech kimdan kam bo’lmagan, dunyo ta’lim standartlari darajasiga to’liq javob bera oladigan yetuk bilimli-ilmli bo’lishi shart va buning uchun ta’lim tizimiga halqaro metod, yondashuvlarni tadbiq etish lozim. Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tilini o’rganishga bo’lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki bog’cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tilini o’rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o’rganish o’sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi, urf odatlari va ma’naviy me’roslari o’rganish bilan birga shaxsiy manfaatlari yo’lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” da allohida to’xtalib o’tilgan.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

Konsepsiya tegishli davrga mo‘ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib, har yili “Yo‘l xarita”si orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan[1]. “Yo‘l xarita” larining bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring yuritish va uning natijalarini har chorakda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borish vazifalari yuklgan bo’lib. Sinflar, o‘qituvchilar va maktab ma’muriyatlarini elektron resurslar, kompyuter, interaktiv doska, planshet va boshqa jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta’minlash, elektron interaktiv ta’lim resurslarini ishlab chiqish kabi chora tadbirlar 2019 yil “Yo’l xarita”sida mavjud[2].

Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalardan biri: xorijiy tillarini chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlarini tayyorlashdir[1]. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o’qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Bugungi kunda eng taraqqiy etgani esa “Sun’iy intellekt” tizimlari hisoblanadi.

Ta’limda sun’iy intellekt - AI (Artificial Intelligence) qator holatlarda bir chechta usullar orqali qo‘llanilish mumkin, masalan, o’rganuvchi topshiriqlarini avtomatlashtirilgan baholash, shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasi va sun’iy intellekt asosida ishlaydigan repetitorlardan foydalanish hisoblanadi. Shuningdek, sun’iy intellektdan ta’lim ma’lumotlarini yig’ish va tahlil qilish, moslashuvchan ta’lim tizimlari va o’quvchilarning ta’lim natijalarini avtomatlashtirilgan baholash uchun ham foydalanish mumkin. AI turli usullar bilan ta’lim mazmunini yaxshilash, o’quvchilarda bilim, malaka va ko’nikmalarni rivojlantirishda uchun tadbiq etiladi. U shaxsiylashtirilgan o’quv tajribasini yaratish, maqsadli ko’rsatmalar va fikr-mulohazalarni taqdim etish, kerakli sohalarni aniqlash uchun ma’lumotlarni tahlil qilish va ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

Odamlar va mashinalar har xil nisbiy kuchli va zaif tomonlarga ega va bu ikkalasining kombinatsiyasi inson niyatlari va ta’lim jarayonini kelgusi yillarda 10x, 100x va undan ham ko’proq kengaytirishga imkon beradi. Ushbu texnologiya bizning o’rganish uslubimizni o’zgartirdi. Masalan, o’yinlashtirish - o’rganishning qiziqarli va samarali usuli. SI o’quv dasturini o’quvchilarning qiziqishlari bilan birlashtirgan o’yinlar va viktorinalarni ishlab chiqishi mumkin. AIning o’rganishdagi yana bir inqilob qiluvchi jihati shundaki, u o’quv materialini o’quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlari asosida moslashtira oladi va to’plangan ma’lumotlar individual darslarni yaratish uchun ishlatiladi. U tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi, xatolarga e’tiborni qaratadi va o’quvchilarga kelajakda bu xatolardan qanday bartaraf etish kerakligini aytadi. Sun’iy intellekt (SI) turli xil fanlarga, jumladan, ta’limga ayniqsa til o’rganishga sezilarli ta’sir ko’rsatadigan muhim paradigmadir.

Metodlar. Intervyu (so’rovnoma)

Barchamizga ma’lumki, har qanday ilmiy natijalarning asosi jamiyatga borib taqaladi. Shu o’rinda, Sun’iy Intellekt tushunchasi, turlari hamda ularning ta’limdagi o’rni haqida dastlab ilm egalariga yuzlanamiz. Tadqiqod og’zaki so’rovnoma orqali amalga oshirilgan bo’lib, quyidagi savollarga Xorazm

viloyati Urganch shahar maktab o’qituvchilari hamda o’quvchilardan javob olindi:

1. Sun’iy Intellekt nima?
2. Sun’iy Intellekt tizimlari deganda nimani tushunasiz?
3. Sun’iy Intellektni tizimlarini dars jarayonida qo’llash qanchalar to’g’ri?
4. Zamonaviy gadjetingiz (telefon, planshet, kompyuter) bormi?
5. Zamonaviy gadjet (telefon, planshet, kompyuter)lardan erkin foydalana olasizmi?
6. Zamonaviy gadjetingiz (telefon, planshet, kompyuter)ni nima maqsadda foydalanasiz?
7. PUBG o’ynay olasizmi? Qaysi o’yin yoqadi?
8. Qaysi biri siz uchun qulay va zavqli – ruchkada yozishmi yoki elektron?

Natijalar: So’rov natijalariga ko’ra, Sun’iy Intellekt(SI) tushunchasi 20% o’quvchilargagina ma’lum bo’lib ularning aksariyati Robortlarnigina SI deb bilishlari ma’lum bo’ldi. Qolgan 80% o’quvchilar birinchi marta bu terminni eshitganlarini ma’lum qilishdi. O’qituvchilar esa, Sun’iy intellekt tizimlarining ayrimlaridan dars jarayonida foydalanib kelinayotganini ta’kidlashdi. Qiziqarlisi shundaki o’quvchilar darsda foydalanilayotgan aqilli doskalar, elektron ma’lumotlar hattoki elektron lug’atlari ham Sun’iy Intellekt(SI) ekanligini bilishmaydi.

Zamonaviy gadjet (telefon, planshet, kompyuter)lar haqida savollarga deyarli barcha (70% o’quvchi va 100% o’qituvchilar) so’rovnoma qatnashchilari, bu kabi qurilmalar ularda mavjud ekanligi, ulardan erkin foydalana olishlari hamda kundalik ehtiyojlardan tashqari elektron lug’at, sotsial tarmoqlar hamda elektron kundalikdan foydalanishlari ma’lum bo’ldi.

So’rovnomaning kulminatsion nuqtasi ushbu savol bo’ldi - PUBG o’ynay olasizmi? O’qituvchilarning deyarli 90% bu o’yin haqida eshitishgan lekin o’ynab ko’rishmaganligi ma’lum bo’ldi. Zamonaviy telefon, planshet yoki kompyuterga ega 100% o’quvchilar esa PUBG o’ynashlarini aytib o’tishdi. Bu savoldan maqsad, o’quvchining PUBG kabi murakkab elektron va o’z o’rnida foydasiz o’yinlarni zavq bilan, qiziqish bilan o’ynar ekan, nima sababdan biz elektron o’yinlar asosini fanlarga va ayniqsa Xorijiy tillarni o’qitishga yo’naltirmasligimiz kerag?

Sun’iy Intellektni tizimlarini dars jarayonida qo’llash qanchalar to’g’ri? Degan savolga o’qituvchilar ijobiy fikr bildirishdi. Shunungdek, bir nechta muammolar borligini ta’kidlashdi. Sun’iy itellekt asosida darslarning olib borilishi o’z o’rnida elektron doskalar, kompyuter yoki planshetlar bilan jihozlangan xonalarda olib borilishi kerag. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o’qitishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari ko’rilayotgan bir vaqtda, bu kabi xonalar ko’plab maktablarda mavjud, hamda moliyaviy muammolarni bartaraf qilsa bo’ladi. Bundan tashqari, deyarli 50% o’quvchi va o’qituvchilar texnika va aqlli gadjetlardan foydalanish ko’nikmasiga ega emas. Bu muammoning yechimi sifatida, o’qituvchilar uchun master klasslarni ya’niy maxsus darslarni tashkil qilishni yo’lga qo’yish lozim, o’quvchilarga esa informatika, AKT darslarida SI dan foydalanish ko’nikma va bilimlarni berish ta’lim jarayonini maqsadli va tizimli bo’lishini ta’minlaydi.

Xulosa. Bolalarda til o’rganishga bo’lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko’pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e’tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma’lumotlar ma’nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang’ich sinf o’quvchilariga ingliz tilini o’rgatishni bugungi zamon talabiga binoan, ularning qiziqishidan kelib chiqib olib borish maqsadga muvofiqdir. Boshlang’ich sinflarda ingliz tilini sun’iy intellekt tizimlari orqali o’qitish metodikasini yaratish aynan bugungi kun talabidir. “Xorijiy tillarni o’rgatish bo’yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo’ladigan yangi tizimni yo’lga qo’yish vaqt-soati keldi.” - deydi o’zlarining ma’ruzalarida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Darhaqiqat, til o’rganish uchun zamonaviy metodika va yangi tizimlarni yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ilova 1 https://lex.uz/ru/docs/-4312785
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 4-bob
3. Azevedo, R., & Aleven, V. (2013). International Handbook of Metacognition and Learning Technologies. Springer.
4. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). Educational data mining and learning analytics. In J. A. Larusson & B. White (Eds.), Learning Analytics: From Research to Practice (pp. 61-75). Springer.

TA’LIM SOHASIDA DIZAYN-TAFAKKUR TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mamadaminova Munisa Maxmudjon qizi
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti, Pedagogika” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “dizayn-tafakkur” tushunchasi, uning ta’lim sohasida qo‘llanilish bosqichlari va afzalliklari keltirib o‘tilgan. Biugungi kunda ta’lim jarayonida ushbu texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Shu bilan birga, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda, jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan “dizayn-tafakkur (design thinking)” texnologiyalarini qo‘llashga o‘rgatishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: dizayn-tafakkur (design thinking), an’anaviy tafakkur, ta’limda dizayn fikrlash, empatiya, fokusirovka, g‘oyalar generatsiyasi, prototiplash, kreativlik, tanqidiy fikrlash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИ-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ДИЗАЙН-МЫШЛЕНИЯ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Мамадаминова Муниса Махмуджоновна.
Узбекско-Финляндский педагогический институт
Независимый научный сотрудник кафедры «Педагогика»

Аннотация. В этой статье, упоминается понятие «дизайн-мышление», этапы его применения в сфере образования и преимущества. Выделены педагогические и психологические особенности использования этих технологий в образовательном процессе сегодня. При этом выявлена важность подготовки будущих учителей начальных классов к педагогической деятельности, обучения их использованию технологий «дизайнерского мышления», которые широко применяются в мировой практике.

Ключевые слова:дизайн-мышление, традиционное мышление,дизайн-мышление в образовании, эмпатия, фокусирование, генерация идей, прототипирование, креативность, критическое мышление.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE USE OF DESIGN-THINKING TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF EDUCATION

Mamadaminova Munisa Makhmudjonovna
Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute
Independent researcher of the «Pedagogy» department

Abstract. In this article, the concept of «design-thinking», the stages of its application in the field of education and its advantages are mentioned. Pedagogical and psychological features of the use of these technologies in the educational process today are highlighted. At the same time, the importance of training future primary school teachers for pedagogical activities, teaching them to use «design thinking» technologies, which are widely used in world practice, has been revealed.

Keywords:design thinking, traditional thinking,design thinking in education, empathy, focus, idea generation, prototyping, creativity, critical thinking.

O‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Shunga muvofiq, bugungi kunda o‘qituvchilar pedagogik faoliyatiga qo‘yilgan asosiy talablardan biri bu - «XXI asr ko‘nikmalarini» o‘zlashtirish hamda bu ko‘nikmalarni o‘quvchilarda rivojlantirish hisoblanib, bu esa o‘z navbatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga ta’limning umumiy holatini o‘rganib chiqish va ta’lim jarayoni tuzilishini yangi texnologiyalar asosida qayta qurish vazifasini qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF5712- sonli Farmoniga binoan ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shu maqsadda “Uzluksiz

ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida aytilgan [1].Ushbu farmonda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun, bugungi kunda ta’lim sohasiga kirib kelayotgan yangi kadrlardan jahon talablariga mos ko‘nikmalarni talab qiladi. Barchamizga ma’lumki, XXI asrning eng muhim ko‘nikmalaridan ba’zilari o‘z ichiga- ijodiy fikrlash (Kreativlik), muloqot qobiliyatlari (Kommunikatsiya), jamoada ishlash qobiliyati (Kollaboratsiya) va tanqidiy fikrlash (Kritik) qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun nafaqat ta’lim muhitida mavjud innovatsiyalarga egalik qilish va ularni qayta ishlab chiqarish, balki o‘qituvchilar zamonaviy ta’lim muammolarini samarali hal qilishga hissa qo‘shadigan innovatsion mahsulotlarni mustaqil ravishda yaratish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Demak, bunday ehtiyoj bo‘lajak o‘qituvchilarni, xususan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash bosqichidayoq ularning bunday ishlarni amalga oshirishga tayyorligini shakllantirishda paydo bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda turli pedagogik texnologiyalar, xususan, “dizayn -tafakkur” texnologiyasi qo‘llaniladi. Bu esa keyingi kasbiy faoliyatda mustaqil innovatsion izlanishlar uchun asos bo‘ladigan faoliyat hisoblanadi [2].

“Dizayn-tafakkur” texnologiyasini qo‘llash turli sohalarda, xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini bunday faoliyatga tayyorlashda innovatsion jarayonlar samaradorligini oshiradi, bu esa kelajakda umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi bir qator muammolarni ijodiy hal etish imkonini beradi. Innovatsion pedagogik faoliyat bosqichlarini va «loyihaviy fikrlash» texnologiyasini qo‘llash bosqichlarini tahlil qilgandan so‘ng, biz ushbu ikki jarayonda umumiy elementlarni aniqlashimiz mumkin. Shunga ko`ra, bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash bosqichida berilgan texnologiya yordamida bunday faoliyatni modellashtirish mumkin [3].

Dizayn-tafakkur insonning intuitiv his qilish, nafaqat funktsional, balki hissiy tarkibiy qismga ega bo’lgan g’oyalarni yaratish, ularni so’zi yoki belgilari bilan ifoda etish qobiliyatiga asoslangan. O’tgan asrning 50-60 yillarida paydo bo’lgan mazkur yondashuvning ilk nazariy ishlanmasi sifatida Gerbert Saymon (Herbert Simon) tomonidan “The Sciences of the Artificial” (“Sun’iylik ilmi”) kitobi tilga olinadi, “dizayn-tafakkur” atamasidan ilk marta foydalanish Edvard Arnold (Jon. E. Arnold) monografiyasida kuzatilgan. Uning ta’kidlashicha, dizayn fikrlash ijodkorlik va texnologiyaning sinergik kombinatsiyasiga asoslanadi, bu birinchi navbatda odamlarning ehtiyojlariga qaratilgan. Keyinchalik Gerbert Aleksandr Simon «dizayn tafakkuri» texnologiyasini mavjud sharoitlarni kerakli sharoitlarga aylantirish imkonini beruvchi maxsus fikrlash usuli deb hisobladi. Zamonaviy olimlar, xususan, V. Paleeva dizayn fikrlash texnologiyasini «iste’molchilarning real muammolarini hal qilishning innovatsion jarayoni». V. Ivanova esa dizayn fikrlash texnologiyasini turli muammolarni hal qilishga yordam beradi, xususan, yangi mahsulotlar (xizmatlar, ish turlari) yoki yangi biznes yaratish, mavjudlarini takomillashtirish bilan bog‘liq [4; 94-b.].

Shunday qilib, ko‘pchilik olimlar «dizayn tafakkuri» nafaqat dizaynerlar, balki har qanday turdagi ta’lim muassasalarida jamoalar tomonidan amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatni takomillashtirish, tezlashtirish va vizualizatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan texnologiya ekanligiga qo‘shiladilar. Ushbu texnologiya pedagoglar tomonidan ta’limning turli sohalarida keng qo‘llanilsa-da, olimlar u bilan ko‘plab muammolarni ilmiy jihatdan aniqlaydilar. Xususan, ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar «dizayn fikrlash» texnologiyasini qo‘llash bo‘yicha umumiy kontseptual tushunchaning yo‘qligini ta’kidlamoqdalar. Biroq, bu ta’lim muassasalarining innovatsion jarayonlarida ushbu texnologiyadan foydalanishni sekinlashtirmaydi. Masalan, S.Panke AQSHning 60 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari innovatsiyalar kontekstida seminarlar, qo‘shimcha treninglar, kurslar yoki o‘quv dasturlarini o‘qitishda “dizayn tafakkuri” texnologiyasidan foydalanishini ta’kidladi; ushbu texnologiya K16 + o‘quv dasturlarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan kalitlardan biridir [5; 282-b].

Dizayn fikrlash ko‘nikmalarini maktabdagi turli tadbirlar, guruh ishlari va loyihalarda ham rivojlantirish mumkin, chunki dizayn fikrlashning dastlabki shartlaridan biri jamoaviy ishlash va ochiq muloqotdir. «Dizayn fikrlash» texnologiyasini qo‘llashning ko‘plab mexanizmlari mavjud, ammo ularning barchasi G. Simon tomonidan klassik tarzda aniqlangan bosqichlarga tayanadi[6; 112-b].

Xalq va millat dunyoqarashini shakllantirish, ta’lim-tarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, barkamol insonni tarbiyalashda ma’naviyat masalalari alohida o‘rin tutadi. Islom siyosiy ilmining asoschisi sifatida e’tirof etilgan va insoniyat siyosiy fani xazinasiga qo‘shgan hissasi evaziga “Muallim

as-soniy” nomini olgan Abu Nasr Forobiy siyosiy qarashlari negizini “inson-davlat-ma’naviyat” uyg‘un uchligi tashkil etadi, uning izlanishlari siyosiy voqelikda ma’naviyatning rolini izohlashga bag‘ishlanadi. Ma’lumki, Abu Nasr Forobiyning “shaharlar tasnifi” ta’limotida ma’naviyatning tadrijiyati tasviri berilgan hamda ma’naviyat muayyan hayot tarzini shakllantirishi haqida xulosa chiqarilgan. Alloma turli ma’naviyatlarning qaror topishini turli “shahar” aholisi turmushi sifatida tasvirlash usulini qo‘llagan. Ammo Forobiy bir qarashda ideal sanalmish “fozil shahar”, ya’ni yetuk ma’naviyatning yemirilishi yoki tanazzuli tadrijiyati ham yuzaga kelishi mumkinligi haqida xulosa chiqaradi. Ayni shu jihatdan Forobiyning ilmiy merosi biz uchun muhim. Ma’naviyatning ikki asosiy sifati bor: yo o‘zingniki bo‘ladi, yo birovniki. Birovning o‘z ma’naviyatini tiqishtirib, sening ma’naviyatingga tahdid solishi faqat bitta maqsadni – sening ma’naviyatingni yo‘qqa chiqarishni ko‘zlaydi. Mutafakkir har qanday jamiyat uchun ma’naviyat borasida ikkita vazifa ustuvor bo‘lishini: birinchidan, o‘z ma’naviyatini mudom takomillashtirish, ikkinchidan, uni o‘zga ma’naviyat tajovuzidan asray bilishni ta’kidlaydi.

Empatiya bosqichi: bu bosqichda dizayn-tafakkur loyihasiga mas’ul (rahbar yoki jamoa) talabalar va boshqa parallel talabalar o‘rtasida o‘zlarining muammolarini tushunishlarini chuqurlashtirish uchun o‘zlarining so‘rovnomalarini o‘tkazishdan iborat. Har bir guruh o‘z loyihasini “Biz qanday qilib...” va “Nima sababdan...?” degan savollar bilan boshlaydilar, chunki har bir guruh har xil muammoni tanlaydi. Ushbu bosqichda talabalar dunyoni boshqalarning ko‘zlari bilan ko‘rishga, ularni o‘z tajribalari orqali tushunishga va ularni o‘z fikrlari bilan his qilishga harakat qiladilar. Empatiya bosqichidagi tajribalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchlariga innovatsion yechimlar va yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga yordam beradi. So‘rovnomalar tugallangandan so‘ng, talabalar o‘z guruhlaridan olingan ma’lumotlarni qayta ishlaydilar va muhokama qiladilar va ikkinchi bosqichga o‘tadilar. [7].

Fokusirovka bosqichi: talabalar birinchi bosqichda to‘plangan ma’lumotlardan foydalangan holda muammoli bayonotni ishlab chiqadilar. Muammo bayonini belgilash talabalarga kerakli yechimni ishlab chiqarish uchun nima qilish kerakligini ko‘rib chiqishga yordam beradi. Ya’ni ular, olingan ma’lumotlar kishilarni qiziqtirishi va ilhomlantirishini inobatga olib, ma’lumotlar tekshirishadi va shu tariqa muammo tadqiq qilinadi.

G‘oyalar generatsiyasi bosqichi: talabalar empatiya bosqichida o‘rgangan narsalaridan foydalangan holda aniqlangan muammoni hal qilish uchun turli g‘oyalarni ishlab chiqaradilar. Bu bosqichda talabalar belgilangan muammoning ijodiy yechimlari va g‘oyalarini ishlab chiqishlari kerak bo‘ladi. Ushbu bosqichning maqsadi talabalar uchun dastlab imkon qadar ko‘proq g‘oyalarni ishlab chiqarish.

Prototiplash bosqichi: talabalar bu bosqichda o‘z g‘oyalarini amalga oshirishlari kutiladi. Ushbu qadam oxirgi foydalanuvchining ehtiyojlarini qondiradigan prototipni ishlab chiqarishga qaratilgan. Bunda, u yoki bu g‘oyani ish berishi yoki bermasligi haqida bahslashish emas, munozara yakunida g‘oya muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun qaysi g‘oyadan foydalanish kerakligi ko‘rib chiqiladi. G‘oyalarni sinab ko‘rish uchun mukammal tayyorlangan prototip bo‘lishi shart emas, shunchaki ishtirokchilarning loyiha dasturi haqidagi tasavvurini uyg‘otishiga yordam berishi nazarda tutiladi. Ishtirokchilar esa prototipga konstruktiv baho berishlari mumkin.

Test (sinov) bosqichi: loyiha real sharoitda sinovdan o‘tkaziladi. Bordiyu, loyihada biron-bir kamchilik bo‘lsa unda darhol kamchiliklar ko‘rib chiqiladi va qaytadan ishtirokchilarga taqdim etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu texnologiyalar bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, ta’lim jarayonida muammolarga duch kelgan ayrim yosh o‘qituvchilar har doim ijodkor va aql-idrok orqali qiymat yarata oladigan, keng fikrlaydigan, yaxshiroq strategiyalar bilan ish yurita oladigan tajribali o‘qituvchilarni izlab qolishadilar. Bunday holatlar tez-tez takrorlanmasligi uchun o‘qituvchilar har doim yangi va dolzarb ta’lim olish uchun ochiq bo‘lishlari kerak, shunda ular dizayn fikrlashdan foydalangan holda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish bilan birga, yaxshigina boshqaruvchisi ham bo‘la oladi. Bundan tashqari, dizayn fikrlash, an’anaviy fikrlashdan farqli o‘laroq o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni// https://lex.uz/ru/docs/-4312785

2. Tolmachova I. M. Leshchenko V. O. Design thinking technology as a tool for preparing

future primary school teachers for innovation. International scientific conference. DOI https://doi.org/10.30525/978-9934-26-146-6-26

3. Razali, N. H., Ali, N. N. N., Safiyuddin, S. K., & Khalid, F. (2022). Design Thinking Approaches in Education and Their Challenges: A Systematic Literature Review. Creative Education, 13, 2289-2299. https://doi.org/10.4236/ce.2022.137145

4. Ivanova V.V. «The role of design thinking in education.» Intelligence XXI. 2019. № 4. P. 93-97. URL: http://www.intellect21.nuft.org.ua/journal/ 2019/2019_4/18.pdf (access date: 18.09.2021)

5. Stefanie Panke. Design Thinking in Education: Perspectives, Opportunities and Challenges. Open Education Studies. 2019. № 1. P. 281-306. URL: https://www.researchgate.net/publication/339715764_Design_Thinking_in_Education_Perspectives_Opportunities_and_Challenge s (accessed 19.09.2021)

6. Herbert A. Simon «The Sciences of the Artificial». USA, 1996. URL: https://monoskop.org/images/9/9c/ Simon_Herbert_A_The_Sciences_of_the _Artificial_3rd_ed.pdf (access date: 19.09.2021).

7. Каршиев Ж. А. Ma’naviyatimiz rivojlanishiga hissasi qo’shgan yurtimiz olimlari. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_9-son.

“AVESTO” KITOBIDA ODOB-AXLOQ VA TA’LIM-TARBIYAGA OID QARASHLAR

Mahmudova Nargiz Djumaniyazovna
Xorazm viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish metodik markazi Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedra mudiri, p.f.n

Annotatsiya: Maqola tarbiya oid qarashlar, uning tug’ilishi va yashash tarzida qilishi lozim bo’lgan amallar keltirib o‘tilgan. Tarbiyaga oid fikrlar hozirgi hayotda yoshlar tarbiyada muhim tayanch bo‘la oladi.

Kirish so‘zlar: Tarbiya, amal, ezgulik, ota-ona, farzand, odob-axloq.

ВЗГЛЯДЫ НА НРАВЫ И ОБРАЗОВАНИЕ В КНИГЕ «АВЕСТА»

Махмудова Наргиз Джуманиязовна
Хорезмский областной методический центр по подготовке педагогов новым методам педагогики и психологии, заведующий кафедры образовательных технологий, к.п.н.

Аннотация: В статье представлены взгляды на воспитание, действия, которые следует предпринять при его рождении и образ жизни. Мысли об образовании могут стать важной поддержкой в образовании молодежи в современной жизни.

Ключевые слова: Воспитание, действие, добро, родители, дети, манеры.

VIEWS ON MANNERS AND EDUCATION IN THE BOOK «AVESTA»

Mahmudova Nargiz Djumaniyazovna
Khorezm region methodical center for training pedagogues in new methods Pedagogy and psychology, head of the department of educational technologies, Ph.D

Annotation: The article presents views on education, the actions that should be taken during its birth and lifestyle. Thoughts on education can be an important support in the education of young people in modern life

Key words: Education, action, goodness, parents, children, manners.

“Avesto” da axloqiy tamoyillar asosida ruhning manguligini, moddiyatning hayotiyligini e’tirof etish, borliqni e’zozlash, takomillashtirish, ma’naviy kamolotga intilish, go‘zal tuyg‘ularni ruh va tanga jo qilish g‘oyasi mujassamdir.

Inson, ruh, va tan aloqadorligi zardushtiylik ta’limotining axloqiy mohiyatini belgilashdagi muhim jihatlaridan biridir. Bu aloqadorlik odamlarni ilohga iymon keltirgan holda kundalik turmushda savob ishlarga undash va gunoh, ishlardan qaytarishga qaratilgan bo‘lib, insonning ezgulik e’tiqodida mustahkamligini ta’minlashga, pok, foydali va halol faoliyatini ezgu niyati va so‘zi bilan muvofiqlashtirishga xizmat etadi. Shuningdek, “Avesto” insonlarni oddiy foniylarga va o‘lmaslarga ajratar ekan, oddiy fuqarolarning jism (tan) lari bor-u ruhlari yo‘q, deb hisoblaydi. Jsm esa o‘z asliga qaytadi. Shuning uchun har bir tirik jon ruh pokligi uchun kurashib, ezgu o‘y, ezgu so‘z, ezgu amal ruhiga muvofiq yashamog‘i zarur, deb ta’lim beriladi. Zotan “Avesto” da ta’kidlanganidek, “odamlar uchta joyga ko‘proq, borishlari kerak: donolar uyiga, odillar uyiga va muqaddas olovli ibodatxonaga. Donolar uyiga aqlliroq bo‘lish va ixlosu e’tiqodda yanada mustahkam bo‘lmoq, uchun, odillar uyiga ezgulik va yovuzlikni farqlash va o‘zidan yovuzlikni uloqtirish uchun, olovli ibodatxonaga esa o‘zini vujudsiz iblisdan saklash uchun tez - tez borib turmoq lozimdir”[1] . Ushbu g‘oyada alohida poklanishning zarur shartlari bayon etilgan. Xususan, donolik, odillik va ibodatning insonni ma’naviy yetuk, yaxshilik e’tiqodiga sodiqligini mustahkamlashdagi amallari sanab berilgan. Bunda fikrlar tasdiqlovchi va zid tushunchalar orqali ifodalanib, mantiqan yaxlit bir nuqtaga qaratiladi - ezgulikka intilishga da’vat etadi. Chunonchi, donolar dargohi (uyi) aql va e’tiqod maskani ekani, odillar dargohida yovuzlikning daf etilishi, ibodat esa yomon ruh, iblisdan saqlanish (poklanish) ga xizmat etishi ta’kidlanadi. Bu o‘rinda diqqatga sazovor yana bir jihat shundaki, insonda ixlos va e’tiqod mavjudgina emas, balki mustahkam bo‘lishi, har bir kishi o‘z vujudidan yovuzlikni sidirib tashlashi (Axura Mazda o‘zidan Axrimanni uloqtirib tashlagani kabi) hamda faqat olov ishtirokidagi ibodatni bajo keltirilishiga alohida urg‘u berilgan. Bunda e’tiqodning sobitligi va olovning muqaddasligi

haqidagi qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Insonning uchta manzilga ko‘proq qatnashi zarurligi haqidagi yuqoridagi fikrlar ezgu amal tamoyiliga misol bo‘lib, u diniy udumlar, urf - odatlar ijrosiga aloqadordir. Lekin, bu amallar inoyati yaxshi fikr - mulohazaga va niyatga hamda ezgu kamolga ega bo‘lgan kishilargagina nasib etadi. Shuning uchun ham axloq tamoyillari hamisha o‘zaro uyg‘un va uzviy yaxlitlik kasb etadi. Inson idroki, so‘z va ishi mo‘tabardir degan g‘oya “Avesto” ning butun mazmuniga singib ketgan. Shu fazilatlarning mushtarakligi inson dunyoqarashi va faoliyatining qimmatini belgilaydi. Shuning uchun ham zardushtiylik ta’limotida so‘z yaxshi fikr va ezgu amalning ifodasi, voqe bo‘lish vositasidir. Binobarin, ma’noli kalom, ovozning yoqimliligi, she’rlarni chiroyli o‘qiy olish va duolar tilovatida me’yorini saqlay bilish homiyligidan tashqari uning boshqa sifatlari bor. Ular yoshlarning, ayniqsa, qizlarning axloqiy, ayollar baxti, iymonlilarga saodat va omad ato qilish, onalar doyasi, tug‘ruqni osonlashtirish, chaqaloqlarni omon saqlash hamda farzandlarni ko‘paytirish va boshqalardir. Binobarin, Anaxitaning ma’naviy kamoloti, avvalo, inson zotini asrashga qaratilgan muruvvatida namoyon bo‘ladi va u yovuz kimsalarning insonni nobud qilishdek tubanlikka qarshi qo‘yiladi. Vendidodning 15 - fargardida ana shunday qabih, harakat qattiq qoralanib, uning jazolari bayon etilgan. Jumladan, “agar biror er balog‘atga yetgan qiz, yoxud juvon bilan - xoh, turmushga chiqqan, yoki chiqadigan bo‘lsin, aloqa qilsa va o‘sha qiz yoki juvon homilador bo‘lgach, odamlardan nomus qilib, tiriklik mevasi bo‘lmish bachadondagi bir parcha go‘shtni nobud qilsa”, buning jazosi so‘ralganda Axura Mazda shunday javob beradi: “Agar o‘sha ayol odamlardan nomus qilib bachadondagi tiriklik mevasini nobud qilsa, odam o‘ldirish gunohi ayol va erning gardanidadir. Ular oshkora qatl etiladilar”[2]. Bu o‘rinda go‘dakni yo‘q qilish eng razil gunoh sifatida qoralanadiki, bu umumbashariy qadriyat bo‘lib, inson xilqati hamma narsadan ustun qo‘yilganiga dalolatdir. Anaxita ana shu xilqatning tolmas homiysidir.

Agar chaqaloqni bir necha kimsalar nobud qilishsa, shunday oliy jazo ularning hammasiga tatbiq etilishi ta’kidlanadi. Yuqoridagi fikrlarning davomida agar tug‘ilajak go‘dak homila bir kampir yordamida tushirilib, uzoqlarga eltib tashlansa, uning yuki er, ayol va kampir gardanida ekani alohida uqtiriladi va bu hol axloqqa zid harakat sifatida qattiq qoralanadi.

Muhimi shundaki, zardushtiylarda “homilador kim bo‘lmasin - ikki oyoqlimi, to‘rt oyoqlimi, xoh ayol, xoh urg‘ochi itmi, uni himoya qilish” har bir er uchun burch, axloqiy me’yor sanalgan. Xilqati pok Anaxita ana shu himoyaning yalovbardori, barcha ayollarning ko‘kragida sut paydo qiluvchi va erkaklarni poktiynat etuvchi ma’budadir. Umuman, yuksak axloqiy tamoyillarni inson komilligi va ma’naviy pokligining negizi sifatida zardushtiylik ta’limotida ilohiyat ruhi bilan yo‘g‘rilgan va rivoyatlar hamda g‘aroyibotlar pardasida talqin etilishi insonparvarlik, ezgulik, bunyodkorlik kabi umumbashariy g‘oyalarning tarixiy ildizlari nihoyatda qadimiy, lekin abadiy barhayot qadriyatlar ekaniga dalildir.

Qadim ajdodlarimiz aql-u zakovotining hosilasi bo‘lmish “Avesto” kitobi o‘z mohiyati bilan qomusiy asar bo‘lib, unda ta’limiy - axloqiy, ma’naviy - ma’rifiy qarashlar katta o‘rin egallaydi. Zardushtiylik ta’limotidagi ilohiy tafakkur, avvalo, Odam va Olam munosabatlarini axloqiy poklik va yuksak komillik asosida qurishga qaratilgan.

“Avesto” axloqiy maqomlar - ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal birligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu tamoyillar mantiqan bir - birini taqozo etib, imonli bo‘lish, so‘zda ham, amalda ham e’tiqodga sodiqdigini bildiradi. Bu tamoyillarga to‘la amal qilgan kishi Tangri inoyatiga muyassar bo‘lib, porso va jannatiy insondir.

“Avesto” da ezgulikning ifoda etuvchi va bevosita dunyoviy ma’no ustivor bo‘lgan so‘zlar ishtirokidagi hikmatlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1) Ta’limiy - axloqiy o’gitlar. Bular mashhur tarixiy shaxslar va murabbiylarning farzandlarga yoxud umuman kishilarga qarata murojaat nasihatlaridir. Bular ikki xil:

a) O‘zgalar so‘zlariga munosabatni ifodalovchi nasihatlar: “Eshitganlaringga diqqat bilan quloq sol”, “Yovuz va yolg‘onchilar nutqiga quloq solma”, “Boshliqni ulug‘la, uni hurmat qil va so‘zlariga quloq tut”, “Ulug‘ martabali donishmand kishilarni e’zozla, so‘zlariga quloq sol” va boshqalar.

b) O‘zing aytadigan so‘zga aloqador nasihatlar: “Hech kimga yolg‘on gapirma”, “Rostga ham, yolg‘onga ham qasam ichma”, “Aniq gapir. O‘ylamay so‘ylama”, “O‘tkir so‘zni gapir, so‘z - ezgu nutqdir. Ammo sukut ham bor. Sukut - nutqdan afzal”, “Ikkiyoqlama gapirma”, “O‘zing zarar ko‘rmayin desang, yig‘inlarda yolg‘onchining yonida o‘tirma”, “Shilqim va ezma bo‘lma” kabi.

2) Ta’limiy - axloqiy xarakterdagi hikmatlarga aylangan umumlashgan xulosalar: “Rost so‘z sendan qoladigan qutlug‘ yodgorliklar”, “Haqgo‘ylik va rostlik Tangri odatidir”, “Kim yolg‘on so‘zga

og‘iz ochsa, baxt qushi undan qochadi”, “Gapiruvchi nodon bo‘lsa ham eshituvchi dono bo’lmog‘i zarur”, “Sukut - eng buyuk odat”, “Ovqatlanish paytida gapirmoq gunohi azimdir” va boshqalar.

“Avesto” ning turli nashrlari va tarjimalaridan keltirilgan so‘z fayzi haqidagi ushbu namunalarda qadim ajdodlarimizning turmush saboqlari umumlashgan bo‘lib, ular asrlar davomida xalq orasida keng qo‘llanilib kelindi, ba’zi hikmatlarning biroz o‘zgargan turdosh variantlari paydo bo‘ldi, lekin ularning tub mohiyatidagi “so‘zdagi sehr, she’rdagi hikmat” ma’nosi hozirda axloqiy qadriyat sifatida yashab kelmoqda.

Ezgulik ne’matlaridan kishilarni bahramand etishda yaxshi va halol amallarning alohida o‘rni bor. “Nokomil jahonning komillik sari intilishida ezgu amal asosiy omil bo‘lib, u avvalo jaholat va zulmni qoralash, insonning ozod va erkin yashashiga, ijodiy intilishlarini quvvatlashga, umuman har jihatdan poklanishiga qaratilgan. Jumladan ezgu amal “...yaxshi ishlash, omonatga xiyonat qilmaslik, ojizlarni qo‘llash, serg‘ayrat bo‘lmoq, ota - ona va ustod hukmiga farmonbardor bo‘lmoq, xalq uchun, Vatan uchun xizmat qilmoq, mehmondo‘stlik, parhezkorlik, yomon ishlardan yuz o‘girmoq mehribonlik, insonparvarlik, jamiyat qonunlariga itoat etmoq, o‘tganlarni esda tutmoq, haqiqattalab bo‘lmoq, bemorlar holidan xabar olib turmoq, muhtojlarga yordam berish, o‘z ishi va kasbiga mehr qo‘yish, adolatli bo‘lmoqdan iboratdir[3]. Bu amallarning har biri kishi qalbidan bad niyatlarni quvishga, dilini ravshan, iymonini but qilishga xizmat etadi. Shuning uchun ham ezgu amal sohibi shu yaxshi tamoyillarga rioya qilishi va boshqalarni ham shunga da’vat etishi savob sanalgan. Zero, “Har bir ayol yo er o‘zi durust va yaxshi deb bilgan narsasiga amal qilishlari va boshqalarni ham ogohlantirishlari hamda ular ham o‘sha narsaga amal qilishlari kerak! (Yasna, 35 - Goh). Bunday kishining qalbi pok, xulqi xush bo‘lib, hunar va ilm egallasa, foydali mehnat bilan shug‘ullanib rizq-u ro‘zi halol bo‘lsa, uning amali sobitqadam, so‘zi chin bo‘ladi. Bu esa ikki olamda ham eng go‘zal sanalgan fikr, kalom va amal bo‘lib, oxirat mukofoti umidida ular olamni obod aylab, unga fayz bag‘ishlash” uchun donolar-u nodonlarga bayon etiladi.

“Avesto” da kitobida fazilatlardan har birining qisqacha ta’rifi beriladiki, bular bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ular mazmunidagi mohiyat asosan quyidagicha: ISHONCH – o‘zni qiyinchilik va yomon fikrlarni yengishga chog‘lash, foydali mehnat va umuminsoniy ishlarga qodir deb bilish, ortiqcha niyatdan tiyish;

E’TIQOD - Yakka Tangri g‘oyasiga ishonib, uni devlar yo‘lidan farqlash, o‘zni gunoh, uchun jazo borligidan, savob uchun rag‘bat mavjudligidan ogoh qilish;

FAROSAT - narsa va hodisalarga teran nazar bilan qarash, yovuzlikning zarar berishiga yo‘l qo‘ymaslik va o‘zni har xil behuda istaklardan asrash. Shu bilan birga bu fazilatlar quyidagilarga amal qilinganda yanada ibratliroq bo‘ladi: chinakam aql va bilim o‘zaro omuxta bo‘lsa, boylik saxovat va himmat bilan qo‘shilsa, aytilgan ezgu so‘z ezgu amalni vujudga keltirsa. Aks holda bilimsiz aql qalbni mahv etadi, himmatsiz boylik dev Axriman xazinasiga aylanadi, so‘z va amal porokanda, quruq safsata bo‘lib qolaveradi. Zero, jism va ruhga yolg‘on va yovuzlikdan ozor yetmasin desangiz, o‘zingizni tubanlik va baxillikdan, xasislik va tuhmatdan, axloqsizlik va g‘azabdan saqlash nasihat qilinadi. “Avesto” da axloqiy tarbiya insoniy fazilatlarning ezgu maqsad yo‘lida o‘zaro muvofiqlashgan holdagi ijodiy jarayoni sifatida baholanadi. Bu jarayonda ta’lim, xarakter va aql - zakovotga alohida e’tibor berilib, ulardan har birining o‘rni ta’kidlab ko‘rsatiladi. Jumladan, ta’lim shaxsni ulug‘lab, uning kamolotiga xizmat qilsa, yaxshi xulq, xarakterni shakllantiradi, aql esa shaxs va uning xarakterini takomillashtirib, qalb va ruh tozaligini ta’minlaydi. Umuman, axloqiy yetuklikka qaratilgan barcha ijobiy sifatlarda ularning zidi bo‘lgan birorta ham salbiy jihatlar bo‘lmasa, ular chinakam va tugal fazilatlarga aylanadi. Chunonchi, aqlda - manmanlik, talantda - baxillik, vazminlikda - qasoskorlik, xulqda - tubanlik, saxiylikda - talon -tarojlik, umidda - faoliyatsizlik, karamda - ta’magirlik, bilimda - qalbakilik bo‘lmasligi qayd etiladi. Pahlaviy tilidagi yozma yodgorliklarda insoniy fazilatlarni targ‘ib va tashviq qilishda turli bayon usullaridan keng foydalanilgan. Bunda umumga qaratilgan pand - nasihatlar bilan birga ta’limiy hikmatlar, savol - javoblar (dialog - monolog) va axlokiy hukmlar kabi shakllar ham qo‘llanilgan. Bular ko‘pincha kohinlar, ustozlar, yoxud otalarning shogirdlar yoki farzandlar bilan muloqotlari usulida aks etadi. Quyidagi misollar shulardan namunalardir:

- Insoniy fazilatlardan qaysilari eng afzal?
- Bilim va aql.
- Ulardan eng yuqorisi qaysi?
- Shaxsni gunohsiz, olijanob va qo‘rqmas qiladigani, aql ishni to‘g‘ri o‘rganishga, bilim esa uni

baholashga qaratilgan.

- Qaysi xarakter yaxshi?
- O‘zni tuta bilish va tinchliksevarlik.
- Eng yaxshi tamoyil?
- Ochiq ko‘ngillik.
- Qaysi istak haqiqatga yaqin?
- Gunohsizlikka intilish.
- Qaysi xulq eng yaxshi?
- E’tiqodda sobitlik.
- Eng yaxshi faxr qaysi?
- Bag‘rikenglik.
- Eng kuchli dushman?
- Jallodlik.

Bu tushunchalarda axloq me’yorini belgilovchi xislatlardan ayrimlari keltirilgan bo‘lib, ularning zidi sifatida jallodlik inson hayotining, demak axloqning ham kuchli dushmani ekanligi ta’kidlanadi. Bu mulohazalar “Avesto” dagi axloq me’yorlari bilan ham mutanosibdir.

Muhimi shundaki, zardushtiylik ta’limotida shaxs tarbiyasi jarayoniga ijtimoiy voqelik, tabiat va jamiyat hodisalari, ilohiy va dunyoviy qarashlar bilan bog‘lik holda qaralgan va bunda inson shaxsiga bevosita va bilvosita aloqador omillarning bir qismi Tangri tomonidan berilishi, bir qismi esa har bir kishining axloqi, hatti - harakatidan kelib chiqishi ta’kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan moddiy dunyodagi barcha hodisa, narsalar va xislatlar, avvalo, 5 qismga va ularning har biri yana 5 qismga - jami 25 qismga bo‘linib, har birining shaxs hayotidagi o‘rni belgilangan. Jumladan: 1) taqdir taqozosi bilan yuzaga keladigan; 2) amaliy ishlar tufayli paydo bo‘ladigan; 3) tabiat tomonidan hadya etiladigan; 4) har kimning xarakteriga bog‘lik bo‘lgan; 5) nasldan - naslga o‘tadigan xislatlar. Bulardagi diqqatga loyiq yana bir jihati shundaki, ularda shaxs tarbiyasidek murakkab jarayonga ta’sir qiluvchi omillar, ularning musbat va manfiy jihatlari yaxlit holda olib qaralgan va insonning o‘ziga va irodasiga bog‘lik xislatlar (amaliy ish, xarakter va nasldan kelib chiqadigan) ustuvorligi ko‘zga tashlanadi. Bu hol har bir qismga xos sifatlar mohiyatida yanada ravshan ko‘rinadi:

1)Taqdir taqozosi bilan yuzaga keladigan: umr ato etish, xotin, bola - chaqa, mansab va boylik.

2)Amaliy faoliyat tufayli belgilanadigan maqom va xislatlar: kohin, jangchi, dehqon bo‘lish, ochiqko‘nggillik, johillik va h.k.

3)Tabiat tomonidan hadya etiladigan xislatlar: xotinga munosabat, mehnat qilish, yeb - ichmoq, harakat qilmoq, uxlamoq.

4)Har kimning xarakteriga bog‘lik sifatlar: muhabbat, shon - sharaf, saxiylik, haqqoniylik, kamtarlik.

5)Irsiy xislatlar: inson jismi, go‘zallik, aql, xotira va kuch - quvvat.

Bunda azaliy va vujudiy xislatlar axloq mohiyatini belgilovchi mezon qilib olingan bo‘lsa ham, asosiy diqqat insonning yaratuvchilik salohiyatiga, o‘zini o‘zi anglash yo‘lidagi harakatiga qaratilgan. Shuning uchun taqdir hadya etgan umrni ezgulik yoxud yovuzlik bilan o‘tkazish insonning o‘ziga bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi. Bevosita insonni axloqan yuksaltiruvchi, ma’naviy poklovchi xislatlar qismlarning har biridan o‘rin olgani ham bejiz emas. Ayniqsa, mehnatsevarlik, saxiylik, kamtarlik, go‘zallik, aql kabi estetik kategoriyalari birinchi navbatda insonning amaliy faoliyati, xarakteri va nasl aslligini saqlashi natijasi sifatida uqdirilishi ham asoslidir.

“Avesto” dagi axloqiy o‘gitlar tabiat va jamiyat, inson va hayot haqidagi qadim qarashlarning muhim qismi bo‘lib, bunda ikki xususiyat ko‘zga tashlanadi: 1) tabiat va koinot hodisalarini insoniylashtirish orqali ezgu xislatlarni madh etish; 2) inson hayoti va yaratuvchilik faoliyatini ilohiylashtirish yo‘li bilan undagi olijanob fazilatlarni ulug‘lash va yovuzlikni qoralash. Bunda mifologik tasavvurga xos tarzda badiiylashtirishdan foydalanish mavjud. Bu xususiyatlarning ifodasi rivoyat, afsona va pandnoma kabi asarlarning xarakteriga ko‘ra odatda qissadan hissa yoki ta’limiy - axloqiy nasihatlar shaklida voqe bo‘ladi. Ularda “Ashax - Xaqiqat odobi bilan sharaflangan zot saodatli ekani alohida ta’kidlanib, quyidagi da’vat yangraydi:

Sen bu xonumonda YORUG‘LIK bo‘l!

Sen bu xonumonda abadiy NUR bo‘l!

Sen bu xonumonda MUNAVVAR bo‘l!

Uzoq - uzoq zamonlar to qiyomatga qadar poydor bo‘l, sen abadul - abad, to mahshar kuniga qadar ezgu va qudrat sohibi bo‘l”.

Bu o‘rinda diqqatga loyiq jihat shundaki, axloqiy saodatning muhim sharti sifatida bir xil ma’noli uch so‘z “yorug‘lik”, “nur”, “munavvar” kalimalariga o‘zgacha urg‘u berilgan. Bu tasodifiy bo‘lmay, balki zardushtiylik ta’limoti timsollaridan biri “otash” ning bevosita axloqqa aloqadorligiga ishoradir. Qiyomat kunigacha “poydor” va ezgu qudrat sohibi” bo‘lish nasihatida esa ezgulik va yovuzlik, axloq va jaholat o‘rtasidagi kurashda sobitlikka chaqiriq aks etadi.

Yuksak axloqning bunday maqomlari, shuningdek, pahlaviy yozma yodgorliklarida hamda “Avesto”ning boshqa manba va sharhlarida ham ko‘p uchraydi. Rivoyatlarga ko‘ra, 150 yil umr ko‘rib, shuning 90 yili davomida oliy qohin vazifasini bajargan Adurbodning ibratomuz fikrlari ham diqqatga loyiqdir. U turmushning turli bosqichlarida, yaxshi va yomon damlarida inson o‘zini qanday tutishi, irodasi va bardoshini toblashi haqida mulohaza yuritadi. Jumladan, boylik va lavozimga erishganda hamda, qashshoqlikka duchor bo‘lganda gerdayib ketmaslik, yoxud ruhan tushkunlikka berilmaslik zarurligini uqtirib deydi: “Men mol-u dunyoga ega bo‘lganda sahiylik va muruvvatga, qashshoqlikda harakatchan va tadbirkor bo‘lishga, yuksak martabaga erishganda esa kamtar va odillikka amal qilishga intildim. Chunki hayotda osoyishtalik jang-u jadaldan afzal, umidvorlik tushkunlik va nafratdan a’lodir, farosat – g‘azabdan tiyilishdir. Zero, birovga buyruq beruvchi hech qachon chalg‘imaydi, tobe kishi yanglishmaydi, maslahatgo‘y esa aldanmaydi”.

Insonning ma’naviy kamolotida axloq maqomining bunday yuksak qadrlanishi, shaxsiy axloqiy o‘rnakka e’tiborning kuchayishi, inson irodasining yovuzlik va axloqsizlikka qarshi chiniqtirishga da’vat etilishi zardushtiylik ta’limotidagi donishlikning eng muhim jihatlaridan biridir. Binobarin, tushunchasining bir qismi bo‘lgan axloq shaxsning jismoniy va ma’naviy komilligini tarbiyalashdagi asosiy me’yori hamdir. Bunda turli masalalar, xususan odob - axloq xususida uzoq asrlar davomida turmush tajribalarining xulosasi sifatida shakllangan hikmatlar - aforizmlarning ham alohida o‘rni bor. Ular “Avesto” ning barcha qismlarida, shuningdek “Zardusht pandlari” deb atalgan to‘plamda voqealar bayoni davomida yoxud ustozlar nasihatlari tarkibida uchraydi. Ularni mavzu jihatdan, shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1) Tangrini ulug‘lovchi hikmatlar:
a) Yazdon ogohlik va bilim sarchashmasidir.
b) Tangri - barcha ilm va hunarlar kaliti.
v) Tangri norozi bandaga jannatda joy yo‘k.
g) Tangriga yaqin odam - yaxshi ustoz.
2) Rost so‘z va hakgo‘ylik haqidagi:
a) Rost so‘z sendan qoladigan eng qutlug‘ yodgorlikdir.
b) Yolg‘on so‘zga og‘iz ochgandan baxt qushi qochadi.
v) Yolg‘onni yoddan chiqarish yo‘li - qasos olishdan voz kechish.
3) Vatan va do‘stlikni madh etuvchi:
a) Vatanning tutuni ham shirin.
b) Do‘stlik rishtasi poklik bilan marham tutiladi.
v) Poktiynat kishilar do‘stlik va to‘g‘rilik tarafdoridir.
4) Umr va donolik to‘g‘risida:
a) Qarilikka da’vo yo‘q, o‘limga chora yo‘q,.
b) Bilim tengi yo‘k boylik, boylik esa o‘lchovsiz narsa.
v) Aqli raso kishi baxtli va farovondir.
g) Yaxshilar uyingga yo‘l solishsa, izidan ezgulik ham keladi.
d) Adashganni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan yaxshi odamdir.
5) Nodonlik va gunoh xaqida:
a) Baxtsizlik ichida eng ashaddiysi - gunoxkor kishidir.
b) Tog‘ jilgalaridan bittasini quritgan odam Tangri dushmanidir.
v) Orqasidan g‘am keladigan quvonch shodlik emas.

Xalq donishmandligi va axloqiy - falsafiy tafakkurining nodir durdonalariga aylangan ushbu xikmatlar

asrlar osha kishilar shuurini yaxshi xulx, poktiynat va odamiylik kabi fazilatlar bilan ravshanlantirishga xizmat qilib kelmoqda.Hikmatlar donishlik, aql - zakovot va daxolarning dono fikr hamda teran qarashlarning ifodasi sifatida hamma zamonlar uchun qadrlidir. Binobarin, hikmatlar haqida ulug‘lar deydilar: “Barcha kishining kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir (Aristotel), “Agar aqlli bo‘lishni istasang, hikmat o‘rgangilki, aql hikmat bilan kamol topadi” (Qayqovus), “Qadimdan odamlarning dono va bag‘oyat go‘zal hikmatli so‘zlari mavjud - ulardan o‘rganmog‘imiz darkor (Geredot), “Turli - tuman tarbiyaviy hikoyatlar va hikmatli so‘zlarni to‘plash - tengsiz davlatdir” (I. Gyote)[5]. Bu fikrlar, tabiiyki, Zardusht pandlariga ham talluqlidir.

Xalq donishmandligining ifodasi “Avesto” hikmatlarining ko‘pchiligi allaqachon maqollarga aylanib ketgan va davrlar o‘tishi bilan ularning turli variantlari vujudga kelgan. Yuqoridagi hikmat va maqollardan har birining yaratilgan vaqtini to‘la belgilab bo‘lmasa ham bir narsa aniq: “Avesto” vujudga kelgan Turon va Eron zamini qadimdan donishmandlik makonidir! Albatta, bu hikmatlarga o‘rta asrlarda kitobot qilingan “Avesto” qismlariga yangi ma’naviyat durdonalari ham qo‘shila borgan. Ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy turmushning turli jihatlari, urf - odatlar, yuksak axloqiy me’yorlardan tortib kishilar fe’l - atvoridagi ikir - chikir nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan jonsiz va jonli narsalargacha (“Tog‘ jilgasi”, “baxt qushi”) o‘z ifodasini topgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. I. A. Karimov “Tinchlik va havfsizlik uchun kurashmoq kerak”. X jild. Toshkent: O‘zbekiston. 2003
2. I. A. Karimov “Olloh dilimizda, yuragimizda”. Toshkent: O‘zbekiston. 1999
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim tug‘risida”gi qonun.(1997 yil 29 avgustda qabul qilingan):
4. “Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. Sharq nashriyot - matbaa konserni. 1997.
5. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. Sharq. 1997.
6. B.Abdalniyozov, A.Axmedov “Qadimgi Xorazm chorvachiligi va “Avesto” Xiva. Ma’mun nashriyoti. 2001.
7. S.Abdullaev, H. Abdullaev. “Shifobaxsh “Avesto””. UrDU nashriyoti. Toshkent. 2002.
8. H. Abdullaev “Quyoshga kim topinsa”. “Tarix va filologiya fanlarining dolzarb masalalari”. Xiva. Ma’mun nashriyoti. 2001

EKOLOGIK TA’LIM - TARBIYADA EKOLOGIK SANALARNING AHAMIYATI

Masharipov Adamboy Atanazarovich
Urganch davlat universiteti dotsenti.

Yakupboyeva Ro‘za Ko‘palboyevna
Urganch davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ekologik ta’lim-tarbiyada ekologik sanalar, ularning kelib chiqishi, tarixi, ekologik sanalar bilan bog’liq ma’lumotlar, hamda ekologik sanalar taqvimi, uning modelini ishlab chiqish, undan foydalanish haqida fikr yuritiladi.Shuningdek, o’quvchi yoshlar ta’lim-tarbiyasida hamda ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishda ekologik sanalarning ahamiyati va ular bilan bog’liq ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ekologik sanalar mavjud ekologik muammolarni bartaraf etishda jamoatchilikning rolini oshirish hamda ayrim, e’tibordan chetda qolgan tabiiy resurslar va ekologik omillarga urg’u berishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, tadbirlar, ekologiya ,ekologik madaniyat, ekologik sana, taqvim, ekologik muammo.

ECOLOGICAL EDUCATION - THE SIGNIFICANCE OF ECOLOGICAL DATES IN EDUCATION

Masharipov Adamboy Atanazarovich
Associate Professor of Urganch State University.

Yakupboyeva Roza Kopalboyevna
Student of Urganch State University

Abstract. This article examines environmental dates in environmental education, their origins, history, information associated with environmental dates, as well as the environmental calendar, the development of its model and its use. The importance of environmental dates in the education of students and the meaningful use of their free time and information related to them is also presented. In addition, environmental dates are aimed at increasing the role of the public in solving existing environmental problems and focusing attention on some neglected natural resources and environmental factors.

Key words: environmental education, environmental education, events, ecology, environmental culture, environmental date, calendar, environmental problem.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ - ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ДАТ В ОБРАЗОВАНИИ

Машарипов Адамбой Атаназарович
доцент Ургенчского государственного университета.

Якупбоева Роза Копалбоевна
студентка Ургенчского государственного университета.

Аннотация. В данной статье рассматриваются экологические даты в экологическом образовании, их происхождение, история, информация, связанная с экологическими датами, а также календарь экологических дат, разработка его модели и его использование. Также представлена важность экологических дат в воспитании студенческой молодежи и осмысленном проведении ими свободного времени и информации, связанной с ними. Кроме того, экологические даты направлены на повышение роли общественности в решении существующих экологических проблем и акцентирование внимания на некоторых забытых природных ресурсах и экологических факторах.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическое образование, мероприятия, экология, экологическая культура, экологическая дата, календарь, экологическая проблема.

Kirish. Ma’lumki, bugungi kunda Ona sayyoramiz inson faoliyati tufayli ekologik halokat yoqasida turibdi. Vaziyat shu darajaga borib yetmoqdaki, har yili bioxilma-xillikka putur yetib, ekologik tizimlar yomonlashmoqda. Agar hozir keskin choralar ko’rilmasa, keyingi avlodlar yashashi uchun tabiiy ekologik toza hududlar qolmasligi mumkin. Dunyo olimlarining e’tibori tabiat muhofazasiga qaratilib, qonunchilik darajasida chora-tadbirlar ko’rilmoqda. Ammo fuqarolarning ekologik madaniyatining yetishmasligi mavjud vaziyatni muammoligicha qoldirmoqda.

Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo‘llay bilish faoliyati, atrof–muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko‘rsatkichi, ongli va ma’suliyatli yondashuvdir.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning tabiatga ta’sir etish darajasi ham shunchalik ko‘p bo‘lar ekan. Aholi sonining tez o‘sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko‘payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta’minlash haqidagi muamolar global ekologik muammolariga aylanib bormoqda.

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigienik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo‘nalishlari mavjud. Bu yo‘nalishlar ichidan pedagogik yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Ekologik ta’lim deganda o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifa va maqsadlari insonni tabiat bilan va unda sodir bo’layotgan voqeliklar bilan qiziqtirish, inson, tabiat o’rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, yechish yo’llari, chora-tadbirlarini topish yetarli ekologik bilimlarga ega bo’lgan holda atrof muhit muhofazasini amalga oshirishdir [5].

Ekologik ma’naviyatli shaxs tabiatdagi obyekt va hodisalarni qiyoslay olishi, ongli tushunchalar hosil qilishi, tabiatga munosabatni oldindan rejalashtirishi, atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga nisbatan ziyrak bo‘lishi, tabiatga qiziquvchan bo‘lishi, tabiat go‘zalligini his eta olishi, tabiatni muhofaza qilishda qat’iyatli bo‘lishi, tabiatga zarar yetkazmaslik, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishi, atrof-muhit muhofazasida tashabbus ko‘rsatishi, tabiatni asrash uchun yangi g‘oyalar, ekologik bilimlarni targ‘ib qilishi, ijtimoiy foydali mehnatga havas hissini shakllantirishi, mehnat malakalarini egallashi, o‘z-o‘zini nazorat qila olishi, tabiat bilan munosabatga kirishish va undagi faoliyatda me’yor darajasini belgilashni bila olishi, vatanparvarlik, ona tabiatga mehr-muxabbat hissiyotiga ega bo‘lishi, o‘zi yashab turgan uy, mahalla, shahar tabiatini sevishi, undan g‘ururlanishi, uni ardoqlashi lozim, tabiat boyliklaridan bugungi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda barqaror foydalana olishi, atrof - muhitni obod qilishga intilish, uni ozoda va xushmanzara holda saqlashi, tabiatni asrab-avaylashda, tabiat boyliklarini maqsadli ishlatishda jonbozlik namoyon eta olishi, atrof - muhit, obyekt va boshqa narsa-hodisalarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi, o‘zining ekologik bilimlarini muntazam ravishda tabiatni asrab-avaylashga oid qadriyatlarimizga tatbiq qilishi lozim [4].

O’quvchilarga ekologik tarbiyani singdirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etgan holda amaliy - tarixiy bilimlar tizimi bilan uzviy bog’liqligini ta’kidlash zarur. Bu yondashuv pedagogikada ekologik madaniyatni shakllantirishning zamini bo’lib xizmat qilgan holda, ekologik ta’lim konsepsiyasiga muvofiq tabiat bilan o’zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli ravishda o’zlashtirishga imkon bergan holda «Ekologik tarbiya» omilining tarkibiy qismi bo’lib hisoblanadi.

Bu borada ekologik sanalarning o’rni beqiyos bo’lib, unda eng muhim bayramlar va unutilmas sanalar mavjud. Bu ekologik muammolar haqida o’ylash va ularni hal qilishga qaratilgan harakatning bir turi bo’lib, har yili ekologik sanalar ro’yxati kengayib borar ekan, bu aholining ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun to’g’ri yo’l ekanligini ko’rsatadi.

Qadim zamonlarda ham odamlar vaqtni qanday aniqlash, qaysi kun, oy, yil ekanligini bilishga qiziqqanlar va biz taqvim bo’yicha yashashga o’rganib qolganmiz. Shunday qilib, ekologik sanalardan iborat ekologik taqvim mavjud ekologik muammoli masalalarga e’tiborni qaratish va mamlakatning ekologik xavfsizligi holatini yaxshilashdan iborat.

Darhaqiqat, ekologik sanalar har yili ekologik ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o’tkazishga sabab bo’lib, mamlakatning barcha hududlarida turli tadbirlar (uchrashuv va konferensiylar, seminar va treninglar, tanlov va forumlar ekoaksiyalar hamda hasharlar) bo’lib o’tadi va minglab ko’ngillilarni o’z atrofida bishlashtiradigan muhim voqealarga sabab bo’ladi.

Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy davrda ekologik ta’limni rivojlantirish o’quvchilar ta’lim-tarbiyasida juda katta hamiyatga ega bo’lib, bu borada ekologik sanalarni kengroq o’rganish, tadqiq qilish, ma’lumotlar jamlashni taqoazo etadi.

Tadqiqotning maqsadi: ekologik ta’lim-tarbiyada ekologik sanalarning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

- kalendarning paydo bo’lish tarixini o’rganish;
- ekologik sanalar to’g’risida ma’lumotlar to’plash;
- taqvimning inson hayotidagi ahamiyati hamda ekologik taqvim modelini yaratish.
- to’plangan materialni tahlil qilish va ekologik taqvim tuzish.
- ekologik taqvimning xilma-xilligini va ulardan hayotda foydalanishni o’rganishdan iborat.

Tadqiqot ob’ekti: ekologiya sohasi, ekologik ta’lim tarbiya.

Tadqiqot predmeti: ekologik sanalar (ekologik taqvim).

Tadqiqotni o’rganish usullari:

• Ma’lumotlarni to’plash va o’rganish.
• So’rov (anketa).
• Tabiatda kuzatish (monitoring).
• Mustaqil ijodiy faoliyat.

Asosiy qism. Taqvim yoki kalendar (lotincha: calendarium — “qarz daftari”) —yil, oy, hafta va kunlar hisoblashni yuritish tizimi. Quyosh, oy, sayyoralarning ko‘rinma harakati, kun bilan tunning almashinuvi, Oy fazalari va yil fasllarining davriy ravishda takrorlanib turishiga asoslanadi. Taqvimning paydo bo‘lishi odamning xo‘jalik faoliyatini yuritish ehtiyoji bilan bog‘liq. Odamlar Quyoshning chiqib botishini kuzatib — kun, Oy o’rog’ining avval kattalashib, so‘ng kichrayishiga qarab — oy, yil fasllarining davomida Quyoshning ufqdan qanchalik ko‘tarilishini kuzatib yil tushunchalariga kelishgan. Asta-sekin vaqtni yana ham aniqroq hisoblash ehtiyoji bilan soat, daqiqa birliklari, mifologik an’analar asosida hafta tushunchasi kiritilgan. Vaqt hisobini to‘g‘ri yuritish uchun dastlabki rasadxonalar qurilgan, quyosh soati o‘ylab topilgan.

Taqvim hisobining asosiy birligi — yil. Yil esa oylarga, oylar esa kunlarga bo‘lingan. Bu 3 tushuncha 3 xil astronomik hodisa — mos tartibda Yerning Quyosh atrofida aylanishi, Oyning Yer atrofida aylanishi va Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi bilan bog‘liq. Bu 3 hodisaning davomiyligi ancha murakkabligi yilni oylarga, oyni kunlarga bo‘lishni murakkablashtiradi. Bu masala turli xalqlarda turli usulda hal etilgan va shu tarzda quyosh taqvimi (shamsiy taqvim), oy taqvimi (qamariy taqvim) hamda oy-quyosh taqvimi (shamsiy-qamariy taqvim) ishlab chiqilgan.

Quyosh taqvimining asosiy birligi — tropik yil. Uning uzunligi ketmaket ikki bahorgi tengkunlik oralig‘idan iborat bo‘lib, 365, 2422 kun, ya’ni 365 kun 5 soat 48 min. 46 soniyaga teng . Dastlabki shamsiy taqvimdan foydalangan qadimgi misrliklar bir yilni 365 kun deb olishgan. Bir yil 30 kunlik 12 oyga bo‘lingan va yil oxirida qo‘shimcha 5 kun qo‘shilgan. Qadimgi Rimda ham bir yilni 365 kun deb olingan, lekin yilning oylarga bo‘linishi yana ham murakkabroq bo‘lgan. Bundan tashqari qadimgi Misr va Rim taqvimlarida yil uzunligi tropik yildan taxminan 6 soatiga qisqa bo‘lgani uchun bahorgi teng kunlik har 4 yilda 1 kunga surilgan va bu ham chalkashliklarga sabab bo‘lgan. Ularni bartaraf etish uchun Rim konsuli Yuliy Sezar mil.av. 46-yilda yunon astronomi Sozigen taklifiga muvofiq taqvim islohotini o‘tkazadi: har 4 yildan biri 366 kunlik (kabisa) deb qabul qilinadi. Bu taqvim Yulian taqvimi deb yuritiladi. Yulian taqvimida bir yil 12 oyga bo‘linib toq oylar 31 kun, juft oylar 30 kun, faqat fevral oyi 28 kun (kabisa yili 29 kun). Dunyoning ko‘p mamlakatlarida hozirgacha oylarning Yuliy taqvimdagi nomlari qo‘llanadi [1].

Ekologik sana - bu barcha muhim ekologik muhim sanalar va bayramlarni o’z ichiga olgan taqvim bo’lib, bugungi kunda ham alohida mintaqalar hududlarida, ham butun dunyoda mavjud bo’lgan ekologik muammolarga odamlar e’tiborini jalb qilish usullaridan biridir.

Ko’pchilik ekologik bayramlar borligini bilishadi, lekin ular 2-3 tasini bilishadi xolos. Ayni paytda ekologik sanalar taqvimiga ularning 50 dan ortig’i kiritilgan. Bu shunday bayramlarga hamma ham alohida ahamiyat bermasligi bilan izohlanadi, boshqa mamlakatlarda esa buning aksi. Bayramlarda odamlarga atrof-muhit qanchalik muhimligini eslatish uchun turli tadbirlar o’tkaziladi.

Ekologik tizimdagi sezilmaydigan o’zgarishlar ham ba’zan global salbiy natijalarga olib keladi. Endi

buni e’tiborsiz qoldirib bo’lmaydi. Shuning uchun ekologik sanalar muayyan ekologik muammolarga e’tibor berish uchun qabul qilingan. Bunda ekologik taqvimga muvofiq tadbirlar o’tkazilib, ommaviy axborot vositalarida atroflicha yoritilib boriladi.

Ekologik sanalar keng jamoatchilik, yoshlar va ko’ngillilarning sa’y va faol harakati tufayli yuzaga kelib, tabiat-jamiat-inson munosabatlarida atrof-muhit muhofazasiga munosib hissa qoshish va barchani bunga jalb qilishdan iborat.

Quyida ekologik sanalar ro’yxatini shakllantiramiz.

Ekologik sanalar :

11 yanvar – Qo’riqxonalar va milliy bog’lar kuni
2 fevral – Jahon suvli-botqoqli yerlar kuni
3 mart – Butunjahon yovvoyi tabiat kuni
14 mart – To’g’onlarga qarshi xalqaro harakat kuni
21 mart – O’rmonlar xalqaro kuni
22 mart – Xalqaro suv kuni
23 mart – Jahon meteorologiya kuni
30 mart – Chiqindisiz dunyo uchun xalqaro kuni
1 aprel – Qushlar kuni
7 aprel – Jahon salomatlik kuni
15 aprel – Ekologiyaga oid bilimlar kuni
22 aprel – Yer xalqaro kuni
27–29 aprel - «SOS sayg’oq» - Sayg’oqlarni muhofaza qilish kunlari
5 may – Sayg’oqlar xalqaro kuni.
12 may – Ekologik ta’lim kuni
13 may – Butunjahon ko’chmanchi qushlar kuni
15 may – Iqlim xalqaro kuni
20 may – Butun jahon asalarilar kuni
22 may – Biologik xilma-xillik (Yer florasi va faunasi)ni asrash xalqaro kuni
5 iyun – Jahon atrof muhitni muhofaza qilish kuni
17 iyun – Jahon sahrolashuv va qurg’oqchilikka qarshi kurash kuni
27 iyun – Jahon baliqchilik kuni
11 iyul – Xalqaro Aholishunoslik kuni
2 avgust – Bug’u kuni
16 avgust – Xalqaro uysiz hayvonlar kun
16 sentabr – Ozon qatlamini muhofaza qilish xalqaro kuni
Sentabr oyining uchinchi shanbasi Butunjahon tozalik kuni (World Cleanup Day)
22 sentabr – Avtomobillarsiz kun
3–4 oktabr – Jahon qushlarni kuzatish kunlari
4 oktabr – Jahon hayvonlarni muhofaza qilish kuni
10 noyabr – Ko’chib yuruvchi hayvonlar kuni.
15 noyabr – Ikkilamchi qayta ishlash kuni
8 dekabr – Jahon iqlimni muhofaza qilish kuni

Ushbu sanalar “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023 yildagi PQ-171-sonli qarorining 9-ilovasi (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o’zgarishi masalalariga bag’ishlangan muhim sanalar bo’yicha o’tkazilgan tadbirlarning Kalendar rejasi)ga muvofiq tayyorlandi.

Ekologik sanalarga bag’ishlangan tadbirlar rejasida ekogik sana mavzusiga oid ma’ruzalar, amaliy harakatlar, ekologik aksiyalar, ekoforum va ekofestival, ekomorofon va tanlovlar o’tkazilib, aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi, shu bilam birgalikda insonlarni ekologik muammolar va ularning yechimiga e’tibor qaratiladi.

Ekologik sanalar jamoatchilik e’tiborini ekologik muammolar va atrof-muhit muhofazasiga qaratilishi bilan birga ushbu jarayon ishtirokchilarini tabiat haqidagi bilimlarini oshirish hamda rag’batlantirishdan iborat.

Misol tariqasida ko’pchilik biladigan ekologik sanalarga quyidagilarni aytish mumkin:

- 11 yanvar - Qo’riqxonalar va milliy bog’lar kuni;
- 22 mart – Xalqaro suv kuni;
- 22 aprel – Xalqaro Yer kuni.

O’quvchilar ekologik sanalar orqali sayyoramiz tabiatini himoya qilishga bag’ishlangan bayramlar haqida bilishadi. Ulardan ayrimlari haqida to’xtalib o’tamiz. Masalan:

Qo’riqxonalar va milliy bog’lar kuni (11 yanvar). Ayni paytda mamlakatimizda bir 6 ta davlat qo’riqxona, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo’riqxona, 5 ta davlat milliy tabiat bog’i, 11 ta davlat tabiat yodgorliklari, 12 ta davlat buyurtma qo’riqxonalari, 1 ta davlat tabiiy pitomnigi (Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi (Buxoro viloyati, Davlat Ekologiya qo’mitasi tasarrufida), 2 ta biosfera rezervati, 1 ta milliy bog’ faoliyat yuritmoqda. Ularning flora va faunasi qattiq muhofaza qilinadi. Ushbu chora tufayli kichik turlar asta-sekin tiklanmoqda va muhofaza qilinmoqda.

Yoki Xalqaro Yer kuni (yigirmanchi mart). Har yili 22 aprelda nafaqat ulkan, balki chinakam xalqaro bayram - Xalqaro Yer kuni - bizning umumiy uyimiz bo’lgan kun nishonlanadi.

Bayram 2009 yilda BMT Bosh Assambleyasining 63-sessiyasida (A / RES / 63/278 sonli rezolyutsiya, BMTning 50 dan ortiq davlat a’zolari tomonidan homiylik qilingan) 22 aprel kuni tayinlangan va 2010 yil boshidan nishonlanish boshlangan.

Shuningdek, har yili 22 martda Umumjahon suv resurslari kuni butun dunyoda nishonlanadi. Uni o’tkazish g’oyasi ilk bor 1992 yilda Rio-de-Janeyroda bo’lib o’tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo’yicha konferentsiyasida (UNCED) e’lon qilindi [2].

Bu sanalar orqali butun jamoatchilik e’tiborini qaratish hamda turli tadbirlar orqali atrof tabiiy muhit muvozanatini saqlash imkoniyatini yaratishdir. Biz bu borada ekologik taqvimni alohida modeli ishlab chiqildi. Ekologik taqvim modeli orqali ekologik muammolarning yoritilishi, e’tiborga loyiq jihatlari hamda zarur ma’lumotlarga ega bo’lish mumkin.

DUSHANBA	SESHANBA	CHORSHANBA	PAYSHANBA	JUMA	SHANBA	YAKSHANBA
1	2 2	3 3	4	5 5	6	7
8	9	10	11 11	12	13	14
15 15 15	16 16	17	18	19	20 20	21
22 22 22 22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

1-rasm. Ekologik taqvim modeli

Ekologik taqvim model tahliliga to’xtaladigan bo’lsak, uni turli alohida xususiyat va jihatlarga ajratdik. Dastlab ekologik muhitlarga bag’ishlangan sanalarni sanab o’tsak. Suv va suv resurlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga bag’ishlangan sanalar och ko’k rangda tasvirlanib, ularga “2 fevral – Jahon suvli-botqoqli yerlar kuni”, “14 mart – To’g’onlarga qarshi xalqaro harakat kuni”, “22 mart – Xalqaro suv kuni”ni o’z ichiga olsa, Atmosfera havosi va uni muhofaza qilishga qaratilgan sanalar to’q ko’k rangda tasvirlangan bo’lib, ularga “16 sentabr – Ozon qatlamini muhofaza qilish xalqaro kuni”, “22 sentabr – Avtomobillarsiz kun”larni qamrab oladi. Keying muhim sanalar Yer resurslari hamda tuproq muhitini muhofaza qilishga qaratilgan bo’lib, ularga “22 aprel – Yer xalqaro kuni”, “17 iyun – Jahon sahrolashuv va qurg’oqchilikka qarshi kurash kuni”ni o’z ichiga olib ekologik taqvimda to’q jigarrangda tasvirlangan.

Shuningdek, ekologik taqvim modelida ekologik omillar asosan biologik omillar manbai bo’lgan o’simliklar olami hamda hayvonot dunyosini muhofaza qilishga qaratilgan sanalarning ko’pligi quvonarli

holat. Ekologik taqvim modelida O’simliklar olamini muhofaza qilishga qaratilgan sanalar yashil rangda berilgan bo’lsa, hayvonot dunyosini muhofaza qilishga qaratilgan sanalar qizil rangda tasvirlangan. Umumiy holatda bioxilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan sanalar ekologik taqvim modelida to’q yashil rangda tasvirlangan.

Bundan tashqari ekologik taqvim modelida Iqlim omillari hamda iqlim o’zgarishlariga qarshi kurashishga bag’ishlangan sanalar (23 mart – Jahon meteorologiya kuni, 15 may – Iqlim xalqaro kuni, 8 dekabr – Jahon iqlimni muhofaza qilish kuni) kulrangda, Ekologik ta’lim-tarbiyaga bag’ishlangan sanalar (15 aprel – Ekologiyaga oid bilimlar kuni, 12 may – Ekologik ta’lim kuni) oq rangda, Inson salomatligi va ekologiyasi bilan bog’liq sanalar (7 aprel – Jahon salomatlik kuni, 11 iyul – Xalqaro Aholishunoslik kuni) pushti rangda, hamda bugunning asosiy ekologik muammolaridan biri hisoblangan sana Chiqindilarga qarshi kurash sanalari (30 mart – Chiqindisiz dunyo uchun xalqaro kuni, Sentabr oyining uchinchi shanbasi Butunjahon tozalik kuni (World Cleanup Day), 15 noyabr – Ikkilamchi qayta ishlash kuni) to’q qizil rangda tasvirlangan.

Ekologik taqvimda eng ko’p sanalar asosan hayvonot dunyosini muhofaza qilishga qaratilgan sanalar (12 ta) bo’lib, eng kam sana o’simliklar olamini muhofaza qilishga qaratilgan (bitta) sanalardir.

Xulosa. Ekologik ta’lim asosida inson, jamiyat a’zolarini tabiat va uning boyliklarini saqlash, tejamkorlik bilan foydalanishda to’g’ri va oqilona yo’l tutishi, amaliy ishlarni muhit muammolarini echishga bag’ishlashi, shaxsning ekologik ta’limoti, tarbiyasi va madaniyatiga bog’liqdir.

Ko’rsatilgan tadbirlarning yillik taqvimi va unutilmas sanalar o’quvchilarni atrof-muhit to’g’risida xabardor qilish, mintaqaviy, milliy va xalqaro darajadagi tadbirlar, asosiy tashkiliy shakl va usullar bilan tanishish, shuningdek hududiy ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish. Ekologik taqvim bilan tanishish orqali talabalarning ekologik tadbirlarni o’tkazishda tabiatni muhofaza qilishda yetarlicha imkoniyat va sharoitlarni yaratish hamda qo’shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlaydi.

Bundan tashqari ekologik sanada xali yechimini kutayotgan yoki ekologik muammolarning ayrimlarini mamlakat miqyosidagi sanalar qatoriga kiritishni taqazo qiliadigan sanalar ham borligini qayd qilish mumkin. Bular: “Kimyoviy moddalar ishlatilishiga qarshi kurashish kuni”, “Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi kuni”, “Landshaftlar himoyasi kuni (tog’lar, daryolar)”ga bag’ishlangan sanalarni kiritish bu boradagi ekologik muammolar yechimi bo’lishi shubhasiz.

Umuman ekologik ta’lim tarbiyada ekologik sanalar o’quvchilar bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish, ekologik sanalarga bag’ishlangan tadbirlarda o’quvchilar faolligini oshirish hamda ularni atrof-muhit borasidagi tushunchalarni shakllantirish va tabiatga nisbatan mehr oqibatli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ekologik tarbiya yoki atrof-muhitga nisbatan munosabat. (O’qituvchi-murabbiylar uchun uslubiy tavsiyalar) “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, Toshkent-2016.

2. Jabborov A. «Ekologiyada to’garak ishlari». Xalq ta’limi jurnali. 1994.

3. Ziyomuxamedov B. «Ekologiya va ma’naviyat». T., 1997.

4. X.S.Mirzaaxmedov va boshqalar. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilishda ekologik kartalarning ahamiyati. “Farg‘ona vodiysida atrof-muhitni muhofaza qilishning ekologik xususiyatlari va ularni optimallashtirish» Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Namangan-2021.

5. Ortiqova D.B. Ekologik madaniyat, ta’lim-tarbiya berishning nazariy-uslubiy asoslari. theoretical and methodological fundamentals of ecological culture. Education. jurnal “Ekonomika i sotsium” 2022.

6. Jumanova F., Nurmatova N. Uzluksiz ekologik tarbiyaning zamonaviy muammolari. □□ Yosh avlodning ekologik madaniyatini tarbiyalash muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: O‘zPFITI , 2004. – B. 59-60.

7. Jumanova F. Ta’lim jarayonida tabiiy va ekologik fanlar uyg‘unligini ta’minlash □□ Uzluksiz ta’lim. –Toshkent, 2005, - №4. –B. 80-84.

8. “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.05.2019 yildagi 434-sonli qarori.

https://eco.gov.uz/uz/site/news?id

TALABALARINING O‘Z-O‘ZINI MUSTAQIL RIVOJLANTIRISHDA KREATIVLIK SIFATLARI VA IJODIY QOBILIYATINNI SHAKLLANTIRISH

Maxmudova Darmonjon Bozorboevna
O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalardagi o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirishda kreativlik hamda ijodiy qobiliyatlar to‘g‘risida so‘z boradi. “Kreativ pedagogika” zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi, shuningdek shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish ahamiyati yoritilgan. Kreativlik va ijodiy qobiliyat o‘zaro chambarchas bog‘liqligi, ijodiy qobiliyatlarni o‘rganish borasida va test topshiriqlarga misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, kreativ, ijodkor, o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish, ta’lim jarayoni, pedagog.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ И ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ В ИХ САМОСТОЯТЕЛЬНОМ РАЗВИТИИ

Махмудова Дармонжон Бозорбоевна
Докторант научно-исследовательского института педагогических наук Узбекистана

Аннотация. В данной статье речь пойдет о творчестве, а также о творческих способностях в саморазвитии учащихся. Освещается вопрос о том, что «креативная педагогика» является одним из приоритетных направлений современной педагогики, а также значение развития в личности качеств креативности. В связи с тем, что креативность и творческие способности тесно взаимосвязаны, по поводу изучения творческих способностей и приводятся примеры тестов, заданий.

Ключевые слова: ученик, креатив, креативный, самостоятельное развитие, образовательный процесс, педагог.

THE FORMATION OF CREATIVENESS QUALITIES AND CREATIVE ABILITIES IN THE SELF-INDEPENDENT DEVELOPMENT OF THEIR STUDENTS

Makhmudova Darmonjon Bozorboevna
Doctoral student of the scientific research institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan

Annotation. This article will focus on creativity, as well as creative abilities in the self-development of students. The article highlights the fact that ”creative pedagogy» is one of the priorities of modern pedagogy, as well as the importance of developing the qualities of creativity in a person. Due to the fact that creativity and creativity are closely interrelated, examples of tests and tasks are given about the study of creative abilities.

Keywords: student, creative, creative, independent development, educational process, teacher.

Kreativ pedagogika pedagogika faning yangi tarmoqlaridan biri. Qisqa muddat ichida “kreativ pedagogika” tushunchasi o‘qitish jarayonida ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj bu fanning pedagogik turkum fanlar orasida fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. “Kreativ pedagogika” fanining asosi zamonaviy mutaxassis, ya’ni bo‘lajak mutaxassislarning xar tamonlama kasbiy kamol topishlari uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Kreativlik so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak bu-(lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – shaxsnining yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligi, mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini anglatadi.

Bilamizki shaxsning kreativligi uning muloqotida, tafakkurida, his- tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida ko‘rinadi. Kreativlik shaxsni bir butun yoki uning aniq belgilangan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tasniflanadi. Iqtidorning muhim omili kreativlikda aks etadi.

Kreativlik tushunchalarini V.F.Vishnyakov, Levinson – Lessing, YA.A.Ponomarev M. Fersom, K.Teylor, D.Teylor va boshqa xorijlik olimlar xamda щzbekistonlik bir nechta olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida ham ko‘rish mumkin.

Kun sari rivojlanib borayotgan texnologiya asrida robota texnika yutuklari guvoxi bo‘lyapmiz.

YA’ni ayrim amallarni inson bajarishda qiynaladigan fuksiyalarni robotlar bajaryapti degan so‘zlar xalq orasida ko‘paymoqda va buni guvoxi ham bo‘lyapmiz. Aslida robot bir moshina uni yaratuvchisi inson. V.F.Vishnyakov o‘z izlanishlarida ilmda inson va mashina “tafakkuri” farqladi. Mashina faqat inson tomonidan yaratilgan model va belgilar orqali usulga ega bo‘lsa, ijodiy yondashuvda esa aql kerakligini takidlaydi. Insonlar o‘zlari bilmagan iqtidorlarga ega bo‘lib, o‘z iqtidorlarini yuzaga chiqara olishmaydi. Aslida har bir insonni ijodkor shaxs deb atashimiz mumkin. Faoliyatiga ya’ni bajarayotgan ishiga ijodiy yondashayotgan, ilmiy ish qilgan, sodda ixtirochilik namunasini namoyon etgan, asar yozgan kishini kreativ insonlar deyish mumkin.

Ijodiy tafakkur yuzaga chiqarish uchun kishi ruhiyati sog‘lom bo‘lishi kerak Agarda inson aqliy qobiliyati yuqori bo‘lsa, u yuqori darajada samarali ijod qila oladi. Inson intellektual bo‘la oladi, ammo kreativ bo‘lmasligi mumkin.

YA.A.Ponomarevning fikricha kreativlik

–natija;

–qobiliyat;

–jarayon;

–shaxsning xususiyatiga bo‘g‘liq. Ushbu tasniflar butun bir ijodkorlik, yaratuvchanlik jarayonlariga tegishli bo‘lib, u faoliyat samaradorligiga doim ta’sir etib turadi deb uqtiradi.

Kreativlikda ijodiy natijaning uch xususiyati miqdor, sifat, ahamiyat bo‘lib, uch mezonning mazmunini o‘rganish o‘ta muhimdir.

Geldshteyn, Rodjers, Masloular ijodiy jarayonni “o‘zini-o‘zi rivojlantirish” jarayoni deb tushuntirishga harakat qiladilar. Demak, kreativlik fenomeni mazmunida, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z –o‘zini kamol toptirish ham mavjud.

Talabalarni kelajakda zamon talabiga javob beradigan mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ijodkor talabaning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, uzluksizlik taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

So‘nggi yillarda etakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Aniqlanishicha ularda ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Masalaning echimlardan biri sifatida o‘quv dasturini ishlab chiqish, yangi o‘quv darsliklari yaratishni misol qilish mumkin. Natijada talabalar bilan bir qatorda pedagoglarni ham kasbiy o‘sishlariga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida talabalarda ijodkorlikka erishish uchun erkinlikni me’yorida ta’minlash lozim.

Dars jarayonida hayotga kreativ ya’ni ijodkorlik bilan yondashish natijasida yuz beradigan ajoyibotlar, elektron xizmatlar, turli hil rangdagi lolalar, to’rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish, video rolik va lavxalar tayerlash kabi sohalarga tegishli bir nechta misollar keltirish mumkin.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki talabalarning o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirishda ma’suliyat, kreativlik ya’ni ijodkorlikgini oshirish, mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil qilishda alohida yondashuv ularda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, hamda ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida mustaqil kretiv yondashuvida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Motiv pasayib talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolib borayotganini guvoxi bo‘lamiz. Buning natijasida pedagoglar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishda muammolarga duch kelmoqda. Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar talabalarning o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirishda ma’suliyanti oshirishi, mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil qilishda alohida yondashuvni amalga oshirish, ta’lim jarayonini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishi qiyin bo‘lyapti.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirishi, mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil qilishda alohida yondashuvni amalga oshirish ularning kreativ tafakkurga ega bo‘lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligi bilan chambar-chas bog‘liq. To‘laqonli kreativlik xarakteriga ega ta’lim muhitini yaratish puxta o‘ylangan reja asosiga quriladi.

Pedagoglar agarda ta’lim jarayonida o‘zlarining kreativ o‘qitish metod va strategiyalarini qo‘llashda katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni talabalar ongiga singdirishlari va o‘z vazifalarini astoidil bajarishlari orqali echim topishadi. Natijada, kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o‘z-o‘zini

mustaqil rivojlantirishi, o‘rganayotgan mavzuning mazmuni, o‘quv axborotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi va bu haqida fikrlay boshlashadi, amaliy jarayonda kutilgan natijalarni ko‘rsatadi.

Talabalarda ma’lum davr va bosqichlarda kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi. Ta’lim jarayonida talabalarning bunday kreativlik sifatlarini quyidagicha izohlashimiz mumkin.

Misol uchun - kreativ tafakkurga ega talabalar boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildirishi;

-o‘z fikrlari va qarashlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlashi;

-g‘ayrioddiy yoki mavzu aloqasi yo‘q savollar berishi;

-jarayonda echimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanishi;

-g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘rishi;

-noan’anaviy yondashuv asosida muammoning echimini topishi.

Talabalarning kretivligini individual jihatlarini aniqlashda og‘zaki va shaklli testlarni qiyoslash orqali baholashdan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jarayon natijadan ko‘ra muhimroqdir. Ta’lim jarayonida o‘qish, o‘rganishda, muammolarni echishda va qoidalarni isbotlashda asosiy maqsad nafaqat to‘g‘ri javob olish, balki echim topish, intelektual, kreativ, ijodiy fikrlar almashish va ma’lum bir echim usulining argumentatsiyasi jarayonlarini rag‘batlantirishdir.

Aslida talabalar test yoki imtixonda javobni tanlash yoki yodlab aytish orqali amalga oshiriladigan sinovlarga odatlangan, bu erda eng muhimi to‘g‘ri javobni tanlashdir (muammoning o‘zi hal qilinishi muhim emas, ijodiy yondashuv va chiqargan xulosalari muhim). SHunday ekan talabalarga topshiriqlarni bajarishlari uchun ijodiy kreativ yondashadigan savol javob, testlar tuzish mexanizmini takomillashtirish zarurati mavjud.

Aksariyat paylarda juda oddiy va murakkab bo‘lmagan testning xozirgi ko‘rinishi talabalarining o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirishiga, kreativ yondashuv va ijodiy fikrlashga, xulosasini isbotlashga, bahslashishga odatlanmaganligiga olib keldi. Ular muammolarni hal qilish uchun evristik usullarni bilishni talab qilmaydi, faqat odatdagi vazifalarni bajarishga qaratilganligi o‘z-o‘zini mustaqil ijodiy rivojlantirish passiv holda qolishiga sabab bo‘ladi. “Jarayon natijadan ko‘ra muhimroq” tamoyili asosiysi talaba muammoni (masalani) 20 ta tipik vazifani qanday bajarishi yoki hal qilishni bilishi emas, balki u barcha vazifalarni nostandart vazifalarni hal qilishda qanday harakat qilishni bilishga asoslanadi. Aynan shu yondashuv faoliyat jarayonining muhimligini ta’kidlashga yordam beradi (muammolarni hal qilish,) va nafaqat yodlash, balki talabalarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Navbatdagi nuqtaiy nazarimizni masalaga aniqroq oydinlik kiritish maqsadida kreativlik va ijodiy qobiliyatning o‘zaro aloqadorligi muammosiga qaratmiz. Kreativlik va ijodiy qobiliyat o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni tushuntirish ham kreativlikning psixologik tabiatini ochishda o‘ta ahamiyatlidir.

Ijodiy qobiliyat – har bir kishida har xil bo‘ladi. YA’ni kimdadir musiqaga, kimdadir haykaltaroshlikka, yana kimda ijod qilishga va yana kimdadir boshqa bir turdagi sohalarga nisbatan ijodiy qobiliyatlar mavjud bo‘ladi. SHaxsning ijodiyligini uning harakatchanligi, yaratuvchanligi, originalligi va biror bir ish yuzasida erishgan yutuqlari doirasida kuzatish mumkin. SHuningdek, hanuzgacha, ijodiy qobiliyatlarni o‘rganish borasida turlicha fikrlar va nazariyalar mavjud.

SHaxsdagi ijodiy qobiliyatlarni ularda turlicha metodikalar tadqiqotlar o‘tkazish orqali aniqlash mumkin. Bir tomondan ijodiy qobiliyatlar, shaxsning psixologik va jismoniy tomonlari va taraqqiyoti bilan ham bog‘liq. YA’ni jismoniy passivroq bo‘lgan kishida sog‘lom odamga nisbatan yuqori ijobiylik bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha sog‘lom kishilar jismoniy ongsiz kishilarga qaraganda, irodasiz va ma’suliyatsiz bir ishni oxiriga etkaza olmaydigan bo‘lishi mumkin. Bu esa ayrim hollarda talabalardagi o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish faoliyatini pasayishi balki yopiq holda qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Talabalardagi o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlar ularning yoshiga va oilaviy muhitiga, sharoiti hamda tarbiyasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ijodiy qobiliyatlarni aniqlash birmuncha qiyinchilik tug‘dirib, aqliy intilishni aniqlashday murakkb jarayondir. Ijodiy qobiliyatlar turli yosh davrlarida turlicha bo‘lishi va u ko‘pincha, insonning ruhiy holati bilan ham bog‘liq.

Xulosa qilib :

- Yoshlardagi o‘z -o‘zini mustaqil rivojlantirishda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun avvalambor uni o‘zi qiziqqan va hohishi bo‘lgan sohalarni aniqlab, to‘g‘ri yo‘naltirish orqali uning ijodiyligini oshirish, tanlagan kasbida yuqori muvaffaqiyatlarga erishishini ta’minlash mumkin.

- Shaxsda ijodiy qobiliyatlar tug‘ma va orttirilgan bo‘lishi mumkin. Talabalrda o‘z -o‘zini mustaqil rivojlantirish ijodiy qobiliyatlar va ularni shakllantirish ularning bevosita o‘ziga ham bog‘liq. Umuman olganda, insondagi orttirilgan ijodiy qobiliyat bu - hayot davomida va kimningdir xatti – harakatlarini kuzatish va ularning hayotiga havas qilish orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Talabalrda buni anglash uchun pedagog ham tushunchaga ega bo‘lishi kerak.
- Talabalarning o‘z -o‘zini mustaqil rivojlantirishda, kreativlik namunalari oldindan aniqlashda, ularni hodisalarni tez arnglashi va tasavvur qila olishi, analiz qilishi taqqoslashi-ajablanish tuyg‘usiga egaligi, xulosalardan taajjublana olishi kabi xususiyatlarida aniq yuzaga chiqadi. Buni anglash uchun ta’lim jarayoni shart emas, yoshlar o‘z faoliyati jarayonida erkin namoyon etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori.
2. Makhmudova D.B. Motivation of psychology of students’ educational activity. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 12 Issue 04, April 2022 Impact Factor: SJIF 2022 = 8.252 DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00256.7
3. Mahmudova D.B. Zamonaviy talaba shaxsini motivatsion sohasini shakllantirish. PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA xalqaro ilmiy jurnal 2022y № 1(1).-65 б.
4. Makhmudova D.B. Design activity as a means of developing creative and aesthetic skills of preschool children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 9, 2020 ISSN 2056-5852 EJRRES Vol. 8 No. 9, 2020
5. Makhmudova D.B. Design as a means of aesthetic education. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 9, Sept 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01040.X

MUTAXASSISLIK FANLARIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI O‘TKAZISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Muxamedov Shavkat Madjitovich
Buxoro davlat pedagogika instituti texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimi da olib borilayotgan islohotlar, ta’lim sifatini oshirishda mutaxassislik fanlardan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish metodikasi, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Amaliy mashg‘ulotning o‘ziga xos tomonlari, o‘quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o‘rni, o‘qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi, amaliy mashg‘ulotning vazifasi haqida chuqur tahliliy ma’lumotlar keltirilgan. Amaliy mashg‘ulotning bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Amaliy mashg‘ulot, ta’lim jarayoni, yo‘riqnoma, ma’ruza, komponent, fikrlar to‘qnashuvi, innovatsion, kreativ, bahs-munozara.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizasiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun dasturilamal vazifasini bajarib bermoqda.[1]

Oliy ta’lim muassasalarida 60112300 - Texnologik ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan fanlar bo‘lajak o‘qituvchilarga shu fanlar haqida ma’lumot berib mazkur kasbga tayyorlaydi. Bu ta’lim jarayonida amalga oshadi. Ma’lumki, ta’lim ikki yoqlama jarayon bo‘lib, ta’lim beruvchilar va o‘quvchilar faoliyatini qamrab oladi. Bu jarayonning samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan ta’lim beruvchilar bilan ta’lim oluvchilar faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi bilan tasvirlanadi. Bu yo‘lni pedagogika fanida o‘qitish metodlari deb atash va nomlash qabul qilingan. Chunonchi o‘qitish metodlarini faoliyatni amalga oshirish yo‘li bo‘lib, u ko‘zlangan maqsadga erishishiga olib boradi.[2]

Ma’ruza materiallarini chuqurroq o‘zlashtirish, o‘rganilgan pedagogik ma’lumotlarni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilinadi. Amaliy mashg‘ulot – bu ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi, mashg‘ulotni o‘qitish shaklidir. Amaliy mashg‘ulot darslarini ikki turga ajratish mumkin. Bular ma’ruza darsi mavjud bo‘lgan va ma’ruza darsi mavjud bo‘lmagan fanlardan (masalan, chet tillar) o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar. Amaliy mashg‘ulot darslari fan dasturlari va ishchi dasturlari hamda kalendar tematik rejalariga qat’iy amal qilingan holda o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha zarur adabiyotlar ro‘yxati beriladi. Ma’ruza darsi mavjud bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarda asosan ma’ruza darslarida o‘tilgan materiallar mashqlar bajarish yordamida mustahkamlanadi.

Amaliy mashg‘ulotning o‘ziga xos tomoni o‘quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o‘rni, o‘qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi bilan xarakterlansada, amaliy mashg‘ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar bayon etilgan malumotlarni chuqur va puxta o‘rganishga talaba mustaqil ishining sifati va o‘zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko‘nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi. Fan-texnika taraqqiyoti ta’lim jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta’limning faol metodlari va texnologiyalarini qo‘llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an’anaviy ta’lim berish usuli ta’lim oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o‘sishiga ham yordam beradi.

Hozirgi vaqtda respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldida ta’lim oluvchilarga tayyor bilimlarni beribgina qolmasdan, balki ularga mustaqil fikr yuritish, ijodiy izlanish, faollik va ziyraklik ko‘nikmalarini singdirishi kerakligi masalasi turibdi. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkiliy shakllari deganda, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning mutaxassislik tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o‘tadigan faoliyati tushuniladi. O‘qitishning u yoki bu tashkiliy shakli jamoaviy va yakka tartibda o‘qitishning har xil ko‘rinishda qo‘shib olib borilishi, o‘qitishda ta’lim oluvchilar mustaqilligining turli darajasi, ta’lim oluvchilarning o‘qishga o‘qituvchi

rahbarligining har xil usullari bilan tavsiflanadi.

O‘qitishni tashkil etish shakllarini tanlash ta’lim-tarbiyaviy vazifalar bilan belgilanadi va o‘quv ishining mazmuni hamda metodlariga bog‘liq bo‘ladi. Ta’limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonni tashkil etishning tarixan mavjud bo‘lgan, barqaror va mantiqiy tugallangan ko‘rinishi bo‘lib, unga muntazamlik va yaxlitlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiylik va faoliyatli xarakter, ishtirokchilar tarkibining doimiyligi, o‘tkazishning muayyan tartibi mavjudligi xosdir. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar)ning ma’lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko‘rinishi kasbiy ta’limning tashkiliy shaklini anglatadi. .[4]

Mutaxassislik fanlarni o‘qitishning tashkiliy shakllari deganda o‘quv-ishlab chiqarish faoliyati uchun talabalarlar jamoasini tashkil etish yo‘llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o‘quv mashg‘ulotlarini tuzilish tarkibi tushuniladi. Ta`limni u yoki bu shaklini tanlashda, talabalarni kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutloq maqsadi va yaqin vazifalari,mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko‘rsatkich)larini u yoki bu shakllariga bog‘liq.

Mutaxassislik fanlarni o‘qituvchilari mutaxassislik fanlardan tajriba-amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, talabalarni nazariy mashg‘ulotlar davomida olgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalanadilar, ularni chuqurlashtiradilar. Tajriba-amaliy mashg‘ulotlardan ko‘zda tutilgan maqsad ko‘p jihatdan uni o‘tkazish metodikasini talabalar ishiga mutaxassislik fan o‘qituvchisining rahbarlik qilish usullarini, ayrim tajriba yoki amaliy ishlarni bajarish tartibi va shu kabilarni belgilab beradi.

Talabalar nazariy materialni o‘zlashtirib olganlaridan, o‘rganilayotgan hodisalar, jarayonlar bilan tanishganlaridan so‘ng ular bilan tajriba-amaliy mashg‘ulotni o‘tkazish ancha oson ko‘chadi. Bu holda o‘qituvchining yangi mavzu bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazishga oid o‘quv axboroti nihoyatda qisqa va aniq bo‘ladi. Natijasiga asoslanib talabalar ma’lum xulosalar chiqarishi kerak bo‘lgan tajriba-amaliy mashg‘ulotlarni bajarish ancha murakkab hisoblanib, ta’lim oluvchilarni bunga oldindan tayyorlash va o‘qituvchining o‘quv axboroti ancha batafsil bo‘lishi zarur. O‘qituvchi talabalarga tajriba-amaliy mashg‘ulotlarining bajarilish jarayoniga yo‘riqnoma berish yo‘li bilan rahbarlik qiladi.

Yo‘riqnoma berishdan ko‘zlangap asosiy maqsad talabalar ongida topshiriqni eng samarali bajarish uchun faoliyatning yo‘nalish asoslarini yaratishdan iborat. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, insonning mehnat faoliyati ikki tomonga: yo‘nalish va ijro tomonlariga ega. Yo‘nalish tomoni faoliyatning ob’ektiv sharoitlarining (masalalar, usullar, mezonlar, bajarilish shartlari, texnika vositalari va shu kabilar) ning inson ruhiyatidagi in’ikosi, ijro tomoni esa harakatning bevosita bajarilishi.

I.P.Pavlov ta’limotiga ko‘ra, yo‘nalish refleksi markaziy asab tizimida shartli bog‘lanishlar hosil bo‘lishiga asos hisoblanadi. Bu bog‘lanishlar bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishniig fiziologik asosidir. Tajribaamaliy mashg‘ulotlarini o‘quv jarayonida amalga oshirishda yo‘riqnomalar tizimidan foydalaniladi. Yo‘riqnomalar mashg‘ulotda o‘tkazilish vaqtiga ko‘ra kirish, joriy va yakunlovchi yo‘riqnomalarga; ma’lumot berish usuliga ko‘ra og‘zaki va yozma yo‘riqnomaga bo‘linadi. Kirish yo‘riqnomasi talabalarni tajriba-amaliy mashg‘ulotlarni bajarishga tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega. Har bir tajribaamaliy mashg‘ulot bajariladigan ishdan ko‘zlangan maqsad, maqsad sari olib boradigan yo‘llar talabalarga tushunarli bo‘lgan taqdirdagina ijobiy va qimmatli natijalar beradi. Talabalar o‘zlariga taklif etilayotgan ish o‘rganilgan material bilan qanday bog‘langanligini yoki yanada oldinga siljish uchun u qanday ahamiyatga ega ekanligini anglab olishlari kerak. Kirish yo‘riqnomasining metodikasi ko‘p jihatdan tajriba-amaliy mashg‘ulotni o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan asosiy didaktik maqsadga va uning qanday o‘tkazilishiga bog‘liq.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda qo‘llaniladigan o‘qitish shakllarining yana bir shakli amaliy mashg‘ulotidir. Agar ma’ruza katta patok (oqim)da o‘tkazilsa, amaliy mashg‘uloti alohida guruhda o‘tkaziladigan o‘quv ishlarining bir shakli hisoblanib, talabalar o‘quv-biluv faoliyatlari, mustaqil bilim olishlari, ijodiy fikr yuritishlarini yo‘lga qo‘ya oladigan o‘qitish shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham u oliy ta’lim maktabida olib boriladigan o‘qitish shaklining o‘ziga xos bir shakli hisoblanadi. Amaliy (lotincha amaliyium) olimlarning muayyan ilmiy soha bo‘yicha ma’lumotlarni muhokama qilishning dastlabki shakli bo‘lgan. Keyinchalik ilmiy faoliyatlardan o‘quv jarayoniga ko‘chib, talabalarning ishchanligi, bilim darajasi fanga qiziquvchanligi, xarakteri, psixologiyasiga xos tomonlari aniqlash shakliga aylandi, hozirgi kunda amaliy mashg‘uloti suhbat, ma’ruza bo‘yicha fikr almashish, rolli o‘yinlar shaklida o‘tkazish nazarda tutilgan. .[3]

Mashg‘ulotni amaliy, ma’ruzada o‘tkazilishining muhim tomoni shundaki, unda o‘qituvchi ham

talaba ham puxta tayyorgarlik ko‘radi. Har ikkala faoliyat egasi, manbalar bilan ishlash, amaliy rejasida ko‘rsatlgan savollarga javoblar topishda asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan tanashib chiqishlari lozim bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulotlarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda jonli muloqot amalga oshadi, qarama-qarshi ziddiyatli fikrlar to‘qnashuvi, ularni talabaga muvofiq hal etish ishlari yo‘lga qo‘yiladi.

Shuning uchun amaliy olib boruvchi o‘qituvchi auditoriyaga jonli muloqotni, bahs-munozara ishlarini, o‘z nuqtai nazarini dalilash, o‘zgalar fikrini tinglay olish, muhokamaga kirishish yo‘llarini aniq tanlashi lozim. Mashg‘ulotning yakunida o‘qituvchi umumiy xulosa yasab, amaliy mashg‘ulotining borishi, ishtirokchilar faolligi yoki passivligini alohida qayd etib, navbatdagi amaliy mashg‘ulotini o‘tkazish haqida tavsiyalar berish, o‘ylab ko‘rish, fikrlarni yanada to‘ldirish uchun savollar, masalalarni ilgari surish, maslahatlar berish, adabiyotlar ro‘yxatini e’lon qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ilmiy nazariy, amaliy-metodik jihatdan yuksak darajada o‘tkazilgan amaliy mashg‘uloti talabalarga fanga qiziqishi, manbalar va adabiyotlar bilan ishlashga ishtiyoq faollikka intilish uyg‘otsa, o‘qituvchilarga o‘z ilmiy- nazariy malakasiga oshirishga,ilmiy adabiyotlarga ijobiy munosabatda bo‘lish, fan yangiliklarga ishonche’tiqod va fanga qo‘yilayotgan muammolarni yechishga ishtiyoqni tarbiyalaydi.

Demak, amaliy mashg‘ulotlarining sifatli va samarali o‘tishiga o‘qituvchi mohorati muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘uloti o‘ziga xos ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda talabalar o‘z fikrlarini, nuqtai nazarlarini ochiqdan ochiq bayon etadilar, qatiyatlik bilan o‘zlashtirganlarini himoya qiladilar, muloqatda fikr almashinish amalga oshadi.

Amaliy mashg‘uloti haqiqatan ham qiziqarli bo‘lishi uchun u bahs-munozara shaklida, ammo boshqariladigan bo‘lishi lozim. Buning uchun bahs-munozara tartibi o‘qituvchi tomonidan oldindan o‘ylab chiqiladi, ishchi rejada ma’lum savollar, misollar, syujetlar belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda amaliy mashg‘ulotning muvaffaqiyatliligi doimo talabalar faolligiga bog‘liq, shuning uchun o‘qituvchining ikkinchi majburiyati – amaliyni har tomonlama rivojlantirish va talabalarni rag‘batlantirishdan iborat. Talabalarning faolligi bu nafaqat amaliyda qatnashish va bahs-munozaralar, balki eshitish qobiliyatini ham rivojlantirib boradigan jarayondir. Shu bois, talabalarga eshitish va gapirish qobiliyati kabi muhim fazilatlar tushuntirish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz

2. Muxamedov Sh.M. Organization of independent work on the subject «Material designing» in the field of technological education in the credit-module system// Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021 y.Vol. 27, Issue 4. Pages 144-15410. 47750 / cibg. 2021.27.04. 016. (Web of Science).

3. Muxamedov Sh.M. Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan innovatsion metodlar(Texnologik ta’lim yo‘nalishida)// “Yangi O‘zbekistonda ilm fanning so‘nggi yutuqlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Buxoro. 2023 yil. – 746-749 b.

4. Muxamedov Sh.M. Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarning elektron-dasturiy va metodik ta’minotini takomillashtirish // Pedagogik akmeologiya xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Buxoro. 2023 yil.5(7).-160-166 b.

VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TARIXIY QAHRAMONLARNI O‘RGANISH

Mirzaxmedov Sherzod Mahsudovich
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy qahramonlarni o‘rni haqida fikrlar ilgari surilgan. Davlat kelajagi bo‘lgan yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlarga ega, insonparvar, jismonan baquvvat, vatanni sevadigan, harbiy bilimga ega, milliy g‘urur ruhida tarbiyalashda tarixni o‘rganish eng dolzarb masalasi ekanligi hammaga ma’lum.

Ushbu maqoladan tegishli soha vakillari foydalanishlari mumkun.

Kalit so‘zlar: tarixiy qahramonlar, talaba yoshlar, vatanparvarlik ruhida, vatanparvar shaxs, ma’rifat, taraqqiyot.

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ГЕРОЕВ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ

Мирзахмедов Шерзод Махсудович
Преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. В данной статье представлены представления о роли исторических героев в воспитании студенческой молодежи в духе патриотизма. Всем известно, что изучение истории – важнейший вопрос воспитания молодых людей – будущего государства, обладающих высокими моральными качествами, гуманных, физически сильных, патриотичных, обладающих военными знаниями, в духе национальной гордости. Данная статья может быть использована представителями соответствующих сфер.

Ключевые слова: исторические герои, студенческая молодежь, в духе патриотизма, патриотический человек, просвещение, развитие.

STUDY OF HISTORICAL HEROES IN PATRIOTIC EDUCATION

Mirzakhmedov Sherzod Mahsudovich,
teacher of Teacher of Uzbekistan State University of World Languages

Abstract. This article presents ideas about the role of historical heroes in educating young students in the spirit of patriotism. It is known to everyone that the study of history is the most urgent issue in educating young people, who are the future of the state, with high moral qualities, humane, physically strong, patriotic, with military knowledge, in the spirit of national pride. This article can be used by representatives of relevant fields.

Key words: historical heroes, student youth, in the spirit of patriotism, patriotic person, enlightenment, development.

Kirish. Tez globallashuv va madaniy paradigmalar o‘zgarib borayotgan bir davrda milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarining hal qiluvchi maqsadi bo‘lib qolmoqda. Tarixiy qahramonlarning vatanparvarlik tarbiyasiga integratsiyalashuvi ana shu maqsadga erishishning kuchli usuli bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy qahramonlar o‘zlarining ibratli ishlari, o‘z xalqiga sodiqliklari bilan ezgulik, mardlik va matonatning aniq namunalarini taqdim etadilar. Bu raqamlar millat xarakterini belgilovchi qadriyatlar va tamoyillarni o‘zida mujassamlashtiribgina qolmay, balki o‘tmish bilan aniq bog‘lanishni ta’minlab, o‘quvchilarga o‘z merosini qadrlash va jamiyatning tarixiy sharoitini tushunish imkonini beradi.

Milliy g’urur, sadoqat va fuqarolik mas’uliyatini tarbiyalashni o’z ichiga olgan vatanparvarlik tarbiyasi insonlarni o’z jamoalari va millatlariga ijobiy hissa qo’shishga tayyorlashga intiladi. Tarixiy qahramonlarni o‘rganish orqali talabalar o‘z mamlakati tarixini shakllantirgan qurbonlar va kurashlar haqida tushunchaga ega bo‘lishlari, bugungi kunda ular ega bo‘lgan erkinlik va imtiyozlarni chuqurroq anglashlari mumkin. Bunday yondashuv, shuningdek, axloqiy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, chunki o’quvchilar ushbu tarixiy shaxslar ko’rsatgan fazilatlardan taqlid qilishni o’rganadilar.

Ushbu maqolada tarixiy qahramonlarni vatanparvarlik tarbiyasiga kiritishning ahamiyati, ularning hikoyalarini o‘rgatish usullari, o‘quvchilarning vatanparvarlik tuyg‘ulariga ta’siri o‘rganiladi. Turli mamlakatlardagi ta’lim nazariyalari va amaliy tadqiqotlarga asoslangan ushbu tadqiqot ushbu yondashuvning afzalliklari va muammolarini ta’kidlaydi va o’qituvchilar uchun eng yaxshi tajribalarni taklif qiladi. Tarixiy qahramonlarni o‘rganish o‘quvchilarning milliy meros va ularning jamiyatdagi o‘rni haqidagi tushunchalarini qanday oshirishi mumkinligini o‘rganib chiqib, biz ushbu uslubni ta’lim dasturlariga integratsiyalash uchun keng qamrovli asos yaratishni maqsad qilganmiz.

Xalqlar zamonaviy o‘ziga xoslikning murakkabliklari va multikulturalizm tazyiqlari bilan kurashar ekan, tarixiy qahramonlar hikoyalari fuqarolarni umumiy qadriyatlar va umumiy tarix orqali bog‘lashi mumkin bo‘lgan birlashtiruvchi ipni taklif qiladi. Ushbu maqola ushbu ta’lim strategiyasining turli jihatlarini o’rganib chiqadi, o’qituvchilarga tarixiy qahramonlarni o’z ta’limotiga samarali qo’shish uchun zarur bo’lgan vositalar va tushunchalarni beradi, shu orqali bilimdon, faol va vatanparvar fuqarolar avlodini tarbiyalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Vatanparvarlik tarbiyasi fuqarolik tarbiyasi va axloqiy rivojlanish nazariyasiga asoslanadi. Vestxaymer va Kahne (2004) ta’riflaganidek, fuqarolik ta’limi shaxslarni fuqarolik hayotida faol va mas’uliyatli ishtirok etishga tayyorlashga urg’u beradi. Bu nafaqat fuqarolik huquq va burchlarini anglashni, balki millatga sadoqat va sadoqat tuyg’usini tarbiyalashni ham o’z ichiga oladi. Kolbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari (1971) odamlarda adolat, adolat va mas’uliyat hissini - vatanparvarlikning asosiy tarkibiy qismlarini qanday rivojlantirishini tushunish uchun asos yaratadi.

Tarixiy qahramonlar xalqlar o‘z fuqarolariga singdirishga intilayotgan qadriyat va tamoyillarning namunasi bo‘lib xizmat qilib, tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Coles (1989) ga ko’ra, hikoyalar va axloqiy tasavvur qadriyatlarni o’rgatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qahramonlarning axloqiy saboqlar bilan sug’orilgan hikoyalari o’quvchilarga ushbu qadriyatlarni o’zlashtirishga va ularni o’z hayotlarida qo’llashga yordam beradi. Lickona (1991) ham xarakter tarbiyasining muhimligini ta’kidlab, tarixiy qahramonlar mardlik, sofdillik, matonat kabi fazilatlarga aniq misollar keltirishini ta’kidlaydi.

Tarixiy qahramonlarni o‘rganish milliy o‘zlikni anglashning shakllanishiga katta hissa qo‘shadi. Anderson (1983) xalqlar umumiy rivoyatlar va belgilar orqali qurilgan «xayoliy jamoalar» ekanligini ta’kidlaydi. Tarixiy qahramonlar ushbu rivoyatlarda markaziy shaxslar sifatida umumiy meros va umumiy qadriyatlar majmuini taqdim etish orqali fuqarolarni birlashtirishga yordam beradi. Bu birlik tuyg‘usi milliy g‘urur va sadoqatni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nash, Crabtree va Dunn (2000) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar fuqarolik faolligida tarixiy ta’limning rolini ta’kidlaydi. Tarixiy shaxslarning xizmatlari va fidoyiliklarini anglash orqali o‘quvchilar o‘z millati oldidagi mas’uliyatni his qiladilar va fuqarolik faoliyati bilan shug‘ullanishadi. Bu tarix bilimi va fuqarolik ishtiroki o’rtasidagi ijobiy bog’liqlikni ko’rsatadigan Parker (2003) kabi tadqiqotlar tomonidan qo’llab-quvvatlanadi.

Tarixiy qahramonlar haqida samarali ta’lim berish uchun turli pedagogik yondashuvlar belgilab berilgan. Kouls (1989) ta’kidlaganidek, hikoya qilish o’quvchilar e’tiborini tortadi va tarixiy voqealarni ko’proq bog’laydi. Seixas (1993) fikriga ko’ra, rol o’ynash va dramatizatsiya o’quvchilarni faol ravishda jalb qiladi, ularga tarixiy shaxslarga hamdard bo’lishga va ularning tajribalarini tushunishga yordam beradi. Blumenfeld va boshqalar tomonidan qo’llab-quvvatlangan loyihaga asoslangan ta’lim. (1991), talabalarga tarixiy qahramonlarni chuqur o’rganishga imkon beruvchi mustaqil izlanish va hamkorlikda ishlashni targ’ib qiladi.

Tarixiy qahramonlarni vatanparvarlik tarbiyasiga qo’shishning afzalliklari yaxshi hujjatlashtirilgan bo’lsa-da, bir qator muammolarni hal qilish kerak. Asosiy muammolardan biri tarafkashlik va vakillik salohiyatidir. Loeven (1995) fikriga ko’ra, tarix darsliklarida ko’pincha tarixning noto’g’ri ko’rinishi mavjud bo’lib, ba’zi raqamlarni ta’kidlab, boshqalarni e’tiborsiz qoldiradi. Bu stereotiplarni davom ettirishi va marginal guruhlarning muhim hissalarini istisno qilishi mumkin.

Ishtirok etish va dolzarblik ham muhim muammolardir. Ravitch (2003) ta’kidlaganidek, o’quvchilarning tarixiy fanlarga bo’lgan qiziqishini saqlab qolish mazmunni zamonaviy muammolarga moslashtirishni talab qiladi. Bu o’tmish va hozirgi o’rtasidagi o’xshashliklarni o’z ichiga oladi va tarixiy voqealarning hozirgi jamiyatga doimiy ta’sirini ko’rsatadi.

Tarixiy qahramonlarni tanqidiy tekshirish yana bir muhim jihatdir. Ularning yutuqlarini nishonlayotganda, ularning murakkabligi va kamchiliklarini tan olish kerak. Wineburg (2001) tomonidan taklif qilingan ushbu nozik yondashuv talabalarga tarixni yanada muvozanatli va tanqidiy tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

Bir nechta amaliy tadqiqotlar tarixiy qahramonlar haqidagi ta’limning samarali usullari haqida tushuncha beradi. Misol uchun, Yaponiya ta’lim tizimining samuray qahramonlari haqidagi ta’limga yondashuvi intizom, sharaf va burchga urg’u beradi (Cummings, 2001). Bundan farqli o’laroq, Janubiy Afrika o’quv dasturi tenglik va adolat qadriyatlarini ta’kidlab, aparteidga qarshi harakat qahramonlarini o’z ichiga oladi (Chisholm, 2005).

Talaba yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixni o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Tarix fani ko‘plab real misollarga boy ekanligi ma’lum. Bunday misollarning har biri o‘ziga xos vatanparvarlik harakatlarini ifoda etadi. Ular vatanparvarlik tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan o‘z Vatani, xalqi, o‘tmish ajdodlar hayotini bilish, to‘g‘ri tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara olish imkonini beradi.

Aslida, Vatan, vatanparvarlik hissiyoti haqida, Vatanga bo‘lgan muhabbat haqida gapirish xalqimiz orasida rasm bo‘lgan emas. Ajdodlarimiz azal-azaldan yurtiga, xalqiga bo‘lgan muhabbatini, sado- qatini amalda isbotlab kelishgan.

Bunga ajdodlarimizdan Shiroq va Spitamen, Jaloliddin Manguberdi hamda Amir Temurning faoliyati tarixiy misol bo‘lsa, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida sodir bo‘lgan voqealar chog‘ida hayotini Vatan himoyasiga baxshida etgan, so‘nggi nafasigacha o‘z xalqi, Prezidenti va harbiy qasamyodiga sodiq qolgan Bobur G‘aniev, Ruslan Narziev, Qahramon Madolimov, Asilbek Mirzaev, Ulug‘bek Barnoev, Sayyor Sadinov, Bahrom Jo‘raev, Ma’ruf Rajabov, Elomon Otajonov, Doniyor Tojiboev, Anvar Otabekov va Alisher Salimov kabi yoshlarning qahramonliklari zamonaviy vatanparvarlikka yorqin misol bo‘ladi.

Vatanimizda yashab ijod etgan jahonga mashhur buyuk allomalar, sarkardalar hayoti va faoliyatini, ularning insoniyat sivilizatsiyasi taraqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish vatanparvarlik tarbiyasi uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ko‘hna tarixda Vatan uchun jon fido qilgan olovqalb ajdodlarimizning nomlari aslo unutilmaydi. Hozirgi kun yoshlariga ibrat bo‘larli umr sohibi, buyuk vatandoshlarimizdan biri Najmiddin Kubro Chingizxondek zolimning marhamatidan Vatan ozodligi yo‘lidagi kurashda qurbon bo‘lishni afzal ko‘rdi va o‘zining ibratomuz fidokorligi bilan vatanparvarlik yosh tanlamasligini, yurtiga mehri kuchli inson hatto 76 yoshida ham dushmanga qarshi jang qilishga o‘zida kuch topa olishi mumkinligini isbotladiki, bu Vatanga sadoqat, xalqiga muhabbatning oliy ko‘rinishidir.

Xalqimizning mard, jasur, vatanparvar farzandlaridan yana biri, harb san’ati bilimdoni Jaloliddin Manguberdi esa Vatanni ozod ko‘rmoq istagida ko‘p ming sonli mo‘g‘ul lashkariga Alpomishdek na’ra tortib, hamla qildi. Garchand u dushmanni to‘la yengolmagan bo‘lsada, ularning saflarini parokandalikka uchratdi. Undagi jasorat, metin iroda, Vataniga, xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbat Chingizxondek sarkardani ham qoyil qoldirdi. Yovning lashkariga qiron keltirish va shu orqali g‘animda havas va hasad hislarini uyg‘otish harbiy mahoratning yuksak ko‘rinishi bo‘ldi. Bundan tashqari, Jaloliddin Manguberdining milliy g‘ururi kuchliligi bois o‘z jigarlarini yov qo‘lida qullikda ko‘rishni xohlamadi.

Buyuk sarkarda bobomiz Amir Temur nafaqat jan-gu jadallardagi g‘alabalari bilan, balki mo‘g‘ul bosqini tufayli vayron bo‘lg‘an yurtni obodonlashtirish va tarqoq holga kelgan davlatni birlashtirish orqali ham o‘z iqtidori, salohiyatini to‘la namoyon etdi. Buyuk sarkardalar Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy sanati va mahorati jahon harbiy akademiyala- rida bugungi kunda ham keng o‘rganilmokda.

Vatanimiz uzoq va yaqin tarixining turli davrlarida ona Vatan va xalq himoyasi yo‘lida yuksak fidokorlik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatib o‘chmas nom qoldirgan ko‘plab tarixiy harbiy qahramonlar to‘g‘risida ularga oid adabiyotlarda keng ma’lumotlar berilganligini inobatga olgan holda shu adabiyotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, ushbu jasur o‘g‘lonlarning ko‘rsatgan jasorati mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi to‘g‘ri yo‘lga quyilganini hamda ajdodlarimizning muqaddas an’analari ishonchli qo‘llarda ekanligini yaqqol namoyon etdi.

Miloddan avvalgi VI asrda saklar va massagetlar Doro I boshchiligidagi qudratli qushinning kulini ko‘kka sovurdilar. Yengilmas sanalgan Aleksandr Makedonskiy qushinlariga esa Markaziy Osiyo mintaqasidagi kichik bu hududni o‘ziga bo‘ysundirish uchun uch yil kerak bo‘ldi. Markaziy Osiyo xalqlarining qurolli tuzilmalari shu kabi arab qushinlari hamda Chingizxon cheriklariga ham muvaffaqqiyatli qarshi turdilar.

O‘zbekiston hududida tashkil topgan qo‘shilmalar va qismlar Ikkinchi jahon urushi paytida fashizmni tor-mor qilishda juda faol qatnashib o‘zlarini misli ko‘rilmagan shon-shuhratga burkadilar. Bu esa jasorat eskirmas qadriyat ekanligidan dalolat beradi.

Tarixdan ibrat olgan holda o‘z aql-zakovatimiz, kuch-g‘ayratimizni to‘liqroq namoyon etish vositasida intellektual salohiyatimizni xalqimiz farovonligi, yurtimiz tinchligi va osmonimiz musaffoligi, ozod va obod Vatan, erkin fuqarolik jamiyati qurish singari eng oliyjanob va ustuvor maqsadlarga yo‘naltirishimiz lozimdir.

Adabiyotlar:

1.Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалари луғати.-Тошкент:2013.- 560 б.

2.Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). - Тошкент: Ўзбекистон, 2015.-480 б.

3.Содиқов Ҳ., Йўлдошев Б., Иноятов И. Ўзбекистон қуролли кучлари (ўтмишда ва ҳозирда). - Тошкент: ТаҒаккиг цапой, 2014. - 248 б.

4.Темур тузуклари / Таҳрир ҳайъати: Б.Абдуҳалимов ва бошқ. -Тошкент: Ўзбекистон, 2015. - 184 б.

SOG‘LOM TURMUSH TARZI- XALQ FAROVONLIGI OMILI SIFATIDA

Mirzatova Gulshoda Xudoyberdiyevna
Namangan davlat universiteti katta oqituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda aholi salomatligi, sog‘lom turmush tarzi va farovonligini ta’minlash borasida amalga oshrilayotgan islohotlar, sog‘lom turmush tarzining mazmuni, asosiy omillari, uni targ‘ib qilishning shakllari xususida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: Islohotlar, aholi salomatligi, sog‘lom turmush tarsi, omillar, jismoniy faollik, shaxsiy gigiena, zararli odatlar, ruhiy salomatlik, psixologik gigiena

ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ КАК ФАКТОР БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАРОДА

Мирзатова Гульшода Худойбердиевна
Старший преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация. В статье рассматриваются реформы, реализуемые в нашей стране по обеспечению здоровья, здорового образа жизни и благополучия населения, содержание здорового образа жизни, основные факторы и формы его пропаганды.

Ключевые слова: Реформы, здравоохранение, здоровый образ жизни, факторы, физическая активность, личная гигиена, вредные привычки, психическое здоровье, психологическая гигиена

HEALTHY LIFESTYLE AS A FACTOR OF PEOPLE’S WELL-BEING

Mirzatova Gulshoda Khudoyberdievna
Senior Lecturer at Namangan State University

Abstract. The article discusses the reforms being implemented in our country to ensure health, healthy lifestyle and well-being of the population, the content of a healthy lifestyle, the main factors and forms of its promotion.

Key words: Reforms, healthcare, healthy lifestyle, factors, physical activity, personal hygiene, bad habits, mental health, psychological hygiene

KIRISH. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq aholi salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yoshlarni sport bilan shug‘ullantirish, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng joriy etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, bu masalaga doir bir necha qaror va farmonlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmonida quyidagilar sog‘lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

- har bir oila, mahalla va tuman (shahar)da, maktabgacha, umumiy o‘rta o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida hamda boshqa tashkilotlarda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug’ullanishga shart-sharoitlar yaratish;
- ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o‘rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o’tkazish;
- aholi turli guruhlarining sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, tarkibida tuz, qand va yog‘ miqdori ko‘p bo‘lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini iste’mol qilishni qisqartirish, zararli odatlardan, xususan, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishdan voz kechish yo‘li bilan kasallikka chalinish, ortiqcha vazn holatlari (semizlik) va bevaqt vafot etishni kamaytirish;
- aholi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini keng targ‘ib qilish, shu jumladan, tartibsiz va kechki uyqu oldidan ovqatlanish odatlaridan voz kechish;
- sanitariya-gigiena qoidalariga rioya etilishini oilalar, mahallalar, maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalari darajasida sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismi sifatida targ‘ib qilish;

 maktabgacha ta’lim, umumta’lim, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida, korxona, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDAgi PF-158-son Farmonining 1-ILOVAsi 1.2. bandida aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi islohotlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan:

- Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish;
- Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish;
- Bolalar o‘rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish;
- Onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minlash;
- Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirish;
- Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish;
- Sog‘lom va faol keksalikni ta’minlash;
- Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Mashhur olimlar Klod Benar Uolter, Kenonlar ichki muhitni birday saqlanishi nazariyasini ishlab chiqqanlar. I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.I.Vernadskiy, K.A.Timiryazev, A.L.Anoxinlar organizm holatini o‘zgarishiga tashqi muhit hodisalarini ritmik o‘zgarishiga bog‘liqligini bir necha marta ta’kidlaganlar. Tunda modda almashinuv jarayonlari, yurak qon-tomir ishi, nafas tizimi, tana harorati pasayadi. Bosh miyaga informatsiya kam qabul qilinadi. Kunduzi harakat faolligi ortadi, nerv tizimining funktsiyalari ortadi. Odamning ishchanlik qobiliyati soat 10-13 larga qarab ortib boradi. Soat 14-00 dan keyin ishchanlik qobiliyat kamayadi, soat 16-17 larda ishchanlik qobiliyat yana ortadi. Funktsional imkoniyatlar soat 20-00 dan keyin kamayadi. Ish yuklamasining ortib ketishi odamni surunkali stress holatiga olib keladigan sabablardan biridir, bu hol odamni himoya funktsiyalarini susaytirib, kasallik paydo qiladi. Ishni meyo‘rida, bir tekis bajarish uchun odam ma’lum kun tartibiga tushib olishi, qattiq ishlaganda orada dam olib turishi kerak. Mehnat jarayonini buzilishi oxiri insonni kasallikka olib keladi. Ishchanlik qobiliyatini yuqori darajada saqlashda sog‘lom turmush tarzi katta ahamiyatga ega.

Akademik N.P.Lisitsin hayot tarzi tushunchasiga muhim omil bo‘lgan tibbiy aktivlikning 3 ta yo‘nalishini ko‘rsatadi:

1. Odamlarni xarakteri-intellektual, jismoniy faollik.
2. Mehnat, mehnatdan tashqari faollik doirasi.
3. Ishlab chiqarish, ijtimoiy- madaniy turmushdagi faoliyat, ta’limiy, jismoniy, tibbiy faollik turlari.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, quyidagi omillar bizning sog‘lig‘imizga eng katta ta’sir qiladi[3]:

1. Sog‘lom turmush tarzi - 50%
2. Atrof-muhit holati - 20-25%
3. Irsiyat – 15-20%
4. Tibbiy yordam sifati – 10%

Sog‘lom turmush tarzi - bu kasallikning oldini olish va sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratilgan shaxsning turmush tarzi. Sog‘lom turmush tarzi deganda ish va dam olishning maqbul rejimi, muvozanatli ovqatlanish, yetarli darajada jismoniy faollik, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, zararli odatlarning yo‘qligi, odamlarga muhabbat, hayotni ijobiy qabul qilish tushuniladi.

NATIJALAR. O‘z sog‘lig‘ini himoya qilish har bir insonning bevosita mas’uliyati bo‘lib, uni boshqalarga topshirishga haqli emas. Axir, ko‘pincha noto‘g‘ri turmush tarzi, yomon odatlari, jismoniy harakatsizligi va ortiqcha ovqatlanishi bo‘lgan odam 30-40 yoshga kelib o‘zini halokatli holatga keltiradi va shundan keyingina tibbiyotni eslaydi.

Sog‘lom turmush tarzining asosiy elementlari:

1) erta bolalikdan sog‘lom odatlar va ko‘nikmalarni tarbiyalash;
2) yashash uchun xavfsiz va qulay muhit;
3) atrofdagi ob’ektlarning salomatlikka ta’siri haqida bilimga ega bo‘lish;
4) yomon odatlardan voz kechish: chekish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, pala- partish hayot kechirish;

5) ovqatlanish: o‘rtacha, ma’lum bir shaxsning fiziologik xususiyatlariga mos keladigan, iste’mol qilinadigan mahsulotlar sifatini bilish;

6) jismoniy faol hayot, jumladan, yosh va fiziologik xususiyatlarni hisobga olgan holda maxsus jismoniy mashqlar;

7) tana gigienasi: shaxsiy va jamoat gigienasi qoidalariga rioya qilish, ekstrimal vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini egallash.

Insonning fiziologik holatiga uning psixo-emotsional holati katta ta’sir ko‘rsatadi, bu esa, o‘z navbatida, uning ruhiy munosabatiga bog‘liq. Shu sababli, ba’zi mualliflar qo‘shimcha hissiy farovonlikni ham ta’kidlaydilar: psixologik gigiena, o‘z his-tuyg‘ulari va muammolari bilan kurashish qobiliyati ham zarur.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda oila va ta’lim maskanlari muhim o‘rin tutadi.

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun quyidagi usul va vositalardan foydalanish mumkin:

1. Og‘zaki: ma’ruza, suhbat, maslahat, bahs- munozara, savol-javob kechalari, salomatlik darslari.
2. Chop etilgan nashrlar: eslatmalar, broshyuralar, bukletlar, maqolalar, savol-javob stendlari.
3. Tasviriy: slaydlar, televizor, multimedia, kino, sog‘liqni saqlash byulletenlari.

Sog‘lom turmush tarziga o‘rgatishning turli shakllari ham mavjud:

1. Individual ta’sir shakllari: ko‘rsatma, suhbat, maslahat.
2. Jamoaviy ta’sir shakllari: aholining turli guruhlarini tabaqalashtirilgan holda tarbiyalash.
3. Ommaviy ta’sir ko‘rsatish shakllari: televideniye va radioeshittirishlar, matbuotdagi maqolalar.[5]

MUHOKAMA. Sog‘lom turmush tarzi – bu kundalik hayotda salomatlikni saqlash hamda mustahkamlashga qaratilgan tadbirlardan iborat bo‘lgan turmush tarzidir. Ma’lumki, salomatlik yo‘lidagi harakat birinchi galda sog‘liqni asrash hamda sog‘lom turmush tarzini tashkil etish hisoblanadi.Jahon Sog’liqni saqlash tashkiloti «Sog‘liq – bu kishi organizmida kasallik yoki jismoniy nuqsonlarning yo‘qligigina bo‘lib qolmasdan, balki uning to‘la jismoniy, ruhiy hamda iqtisodiy sog‘lom holati hamdir» deb ta’riflaydi.[6] Sog’lom turmush tarzining asosiy talablarini quyidagicha belgilash mumkin:

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi zamon kishisi o‘z sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash uchun juda ko‘p imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar orqali inson organizmi holati va fiziologik qonuniyatlariga mos faol turmush tarzini tashkil qilishi mumkin. Shunday tashkil qilingan turmush - sog‘lom turmush tarzi, deyiladi. Bu esa yana kishining o‘ziga, uning hayotga munosabatiga, yashashga bo‘lgan xohishiga bog‘liq. Demak, har bir inson o‘z salomatligiga avvalo o‘zi mas’ul ekanligini unutmasligi lozim. Zero oilada, ta’lim maskanlarida, mehnat jamoalarida sog‘lom turmush tarziga rioya etish xalq farovonligini ta’minlash omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020- yildagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023- yildagi “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDAgi PF-158-son Farmoni
3. Все о здоровом образе жизни. - М.: Издательский Дом Ридерз Дайджест, 2015. - 404 с

ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARNING AHAMIYATI

Lobar Miraxmedova
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada alohida ta’lim extiyoji bo’lgan o‘quvchilarni sog‘lomlashtirishda harakatli o’qinlarning o‘rni va ahamiyati, harakatli mashqlarni qo‘llash yo‘llari, harakatli o‘yinlarning namunalari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. O’quvchilar yoshi va qiziqishiga ko’ra tanlanadigan harakatli o’yinlarning turlari yuzasidan ma’lumotlar berilgan. Maktab va maktabdan tashqari jarayonlarda jismoniy va ma’naviy rivojlantiruvchi harakatli o’yinlarning turlari ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: harakatli o’yinlar, maxsus maktab, jismoniy, ruhiy, ma’naviy, ta’lim, salomatlik, jamiyat, mustaqil, sog‘liqni saqlash.

ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНО-ДЕЯТЕЛЬНЫХ ИГР ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ СО СПЕЦИАЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Лобар Мирахмедова
Преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Аннотация. В статье приведены сведения о роли и значении двигательных упражнений в реабилитации учащихся с особыми образовательными потребностями, способы использования двигательных упражнений, а также примеры двигательных игр. Дана информация о видах подвижных игр, которые можно выбрать в зависимости от возраста и интересов учащихся. Виды игр физического и духовного развития показаны в школьной и внеклассной деятельности.

Ключевые слова: экшен-игры, специальная школа, физическое, умственное, духовное, образование, здоровье, сообщество, самостоятельность, здравоохранение.

THE IMPORTANCE OF ACTIVITY GAMES IN THE HEALTH OF STUDENTS WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS

Lobar Mirakhmedova
Teacher of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Annotation. The article provides information on the role and importance of movement exercises in the rehabilitation of students with special educational needs, ways of using movement exercises, and examples of movement games. Information is given on the types of action games that can be selected according to the age and interest of students. Types of physical and spiritual development games are shown in school and extracurricular activities.

Key words: action games, special school, physical, mental, spiritual, education, health, community, independent, health care.

Inson huquqlari, salomatligi, ta’lim olishi va manfaatlar sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu bolalarning jimoniy, intellektual va ma’naviy rivojlanishi uchun eng maqbul sharoitlar yaratib berish, shu jumladan ko‘p bolali oilalarni, ota-ona qaramog‘isiz qolgan hamda nogiron bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Aholi salomatligi har qanday jamiyatning eng katta boyliklaridan biridir. Mamlakatiimizda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab fuqarolar, ayniqsa, kelajagimiz bo‘lgan yosh avlod sog‘ligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero,aholi salomatligi har qanday jamiyatning eng katta boyligi, rivojlanganligi va yashash sharoitining asosiy ko‘rsatgichlaridan biridir.

“Sog‘lom hayot”, “sog‘lom turmush tarzi”, “sog‘lom e’tiqod”, “sog‘lom avlod” degan tushunchlar xalqimiz turmush faoliyatining asosiga aylana boshladi. Bu g‘oyalar davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini isloh etish jarayonidagi huquqiy asoslar sifatida O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning sog‘ligini saqlash to‘g‘risida”gi, [5] “Davlat sani¬tariya nazoragi to‘g‘risida”gi,[6] “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OIV kasalliginish) oldini

olish to‘g‘risida”gi,[7] “Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risida”gi,[8] “Aholi o‘rtasida mikronutriyen yetishmasligi profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa qonun hujjatlari muhim o‘rin tutadi.[9]

O‘zbek xalqining asrlar osha saqlanib kelayotgan ko‘plab bebaho milliy qadriyatlari mavjud. Shulardan biri bolaning sog‘lig‘iga bo‘lgan e’tibordir.

Har bir bolaning kelajakda jisman va ma’nan sog‘lom, komil inson bo‘lib yetishishida bunday qadriyatlarning ahamiyati beqiyos.

Mamlakatimizda yosh avlodga, shu bilan bir qatorda endigina kamol topayotgan yosh oilalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning salomatligini ta’minlash bizning ezgu vazifamizdir. Oilaning mustahkamligi axloqiy poklik, chin muhabbat, olijanoblik, o‘zaro hurmat va ishonch, atrofdagilarga izzat-ikrom tushunchalari farzandlar sog‘ligiga ham bog‘liq.

Bu bugungi shiddatli zamon, hayotning o‘zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni qo‘yayotganligining amaliy ifodasidir.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev alohida ta’kidlab o‘tganidek, har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarimizni izchil davom ettirish va yuksak bosqichga ko‘tarish pirovard maqsadimizdir.

Davlatimiz yetakchisi o‘z maьruzasida, ayniqsa, qiz bolalarni tarbiyalash, ularning zamonavmy bilim va kasb-hunarlarni egallashiga yordam berish, erta nikoh, oilaviy nizolar va ajrimlarning oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Yoshlarning sog‘ligini mustaqkamlashda, ularni oilaviy hayotga tayyorlash, reproduktiv salomatligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini,tibbiy madaniyatni shakllantirish hozirgi kunda ayniqsa dolzarbdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasidagi purhikmat so‘zlari faoliyatimizda qimmatli dasturilamal bo‘lib qoladi: «Bizning mana shu qisqa - yigirma yetti yillik yangi tariximizda mustaqillikka erishish, milliy davlatchiligimiz, ertangi kunimizii qurishda yurtimizni turli balo-qazolardan asrashda, O‘zbekistonimizning rivojlangan demokratii: davlatlar qatoriga kirishi, jahon maydonida munosib obro‘ topishida eng asosiy omillar nima deb so‘ralsa, men, boshqa mezonlarni inkor etmagan holda, bir fikrni alohida ta’kidlab aytgan bo‘lardim: bu yo‘ldagi eng muhim omil - bu ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom, hech kimdan kam bo‘lmasdan, boshini baland ko‘tarib yashaydigan, Vatanimizning takdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga qodir bo‘lgan barkamol avlodimizdir”. [10]

Jismoniy tarbiya yosh avlodni taraqqiy ettirish-har tomonlama kamol topgan yoshlarni ijtimoiy hayotga tayorlashda muhim vosita hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil qilingan jismoniy tarbiya, alohida yordamga muxtoj bola shaxsini normal jismoniy taraqqiyotini ta’minlaydi,salomatligini mustahkamlaydi,ularni mehnatga tayorlaydi.

Ixtisoslashtirilgan maktabda alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarni bolalik chog‘idan boshlab jismoniy jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalashni, ularda jismoniy va ma’naviy kuchlarni uyg‘un ravishda rivojlantirishni ta’minlashni, chaqqonlik, abjirlikni, umumiy motorikasini korreksion rivojlantirishni o‘zining eng muhim vazifalaridan biri deb hisoblaydi. Ixtisolashtirilgan yordamchi maktabda yoshlaridan qat’iy nazar o‘quvchilarning jismoniy tarbiya masalalari va uni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan. O‘quvchilarning yoshlaridan qat’iy nazar,jismoniy kuchni taraqqiy ettirish, organizmini mustahkamlash va gigiyena va sanitariya qoidalariga rioya qilishga muhtojlar.Shuning uchun alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarni bir tekis jismoniy chiniqtirib borish,mehnat va dam olishni to‘g‘ri tashkil etish muhimdir. Shu bilan birga o‘quvchilarni harakat ko‘nikma va iqtidorlarini ham rivojlantirish foydalidir.Birinchi navbatda to‘g‘ri yurish,yugirish, sakrash ko‘nikmalarini rivojlanti rish lozim.

Umuman olganda milliy harakatlar o‘yinlarning barchasida aqliy va jismoniy mehnatlar uyg‘unlashib, asosan jismoniy barkamollikni tarbiyalashda xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirilgan maktab 1-sinf o‘quvchilari o‘zining sog‘lom tengdoshlariga nisbatan jismoniy zaif, umumiy matorikasi yetarlikcha rivojlanmaganligi, jismoniy sifatlari bo‘shligi bilan harakterlanadi. Yoki ba’zida gipperaktiv holatlar ularda kuzatiladi. Har ikki holda ham 1-sinf o‘quvchilarida jismoniy harakatlarni muvozanatga keltirish, sog‘lomlashtirish hamda ularni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish muhim korreksion ahamiyat kasb etadi.

Ixtisoslashtrilgan maktab o‘quvchilarini maktabga 1-sinfga kelgan vaqtidan boshlab, ularda sog‘lom

turmush tarzini shakllantirish maqsadida, jismoniy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan ritmika darslari, turli milliy o‘yinlar, gimnastik mashqlar, sport musobaqalari olib boriladi. Bu jarayonda ixtisoslashtirilgan maktab 1- sinf o‘quvchilarini imkoniyati va individual xususiyati, yoshi albatta inobatga olinadi.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalashda xizmat qiluvchi o‘yinlar har xil turkumlarga bo‘linadi. Ularga quyidagilarni namuna qilib ko‘rsatsa bo‘ladi, ya’ni:

Tezlikka doir o‘yinlar: “Qopqon”, “Kim oldin”, “Insiz quyon”, “To‘rt oyoqlab yugurish” (emaklab yugurish), “Hakkalagan qushchalar”, “Uchinchisi ortiqcha”, turli estafetalar va boshqalar.

Kuchga doir o‘yinlar: “Oq suyak”, “Chillik”, “Yelkada ko‘pkari”, “Eshak mindi”, “Arqon tortishish”, “Bilak kuchini sinash”, “Qo‘llarda tortinish” va boshqalar.

Chidamlilikka doir o‘yinlar: “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Davradan chiqar”, “Olamon poyga”, “Dorboz”, “Oqsoq qarg‘a”, “Oshiq” (gardkam), “Qilichbozlar”, “Besh tosh”, “To‘qqiz tosh”, “Orqang kuydi”, “Bo‘ta soldi”, “Tortishmachoq”, “Ko‘z bog‘lash”, “Bekinmachoq”, “Kim keldi”, “Dorboz”, “Zuv-zuv” va h.k.

Yuqorida nomlari keltirilgan murakkab va oddiy (sodda) O‘zbek xalq milliy o‘yinlari barcha yoshdagilar o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash bilan birgalikda ularda aqliy,axloqiy,estetik tarbiyalashga ham xizmat qiladi.O‘quuchilarda vatanparvarlikni, insoniy fazilatlarni ham shakllantirish va ularni yanada takomillashtirishda bevosita xizmat qiladi.

Har bir oilada ota-onalar bilan, sinfda barcha sinfdoshlari bilan birgalikda shug‘ullanishi, harakatli o‘yinlar o‘ynash ahillik, mehribonlik, qadrlash, hurmat kabi ijobiy fazilatlarni mustahkamlash bilan bir qatorda, ularning jismoniy sog‘lom, baquvvat bo‘lishlari, hatto chiniqishlarini ta’minlaydi. Shu sababdan harakatli o‘yinlar (arg‘amchiga sakrash, ko‘z bog‘lash, bekinmachoq, to‘pli estafeta va hokozo.) hamda sport o‘yinlarining qismlari (eliment) bilan shug‘ullanishni odat tusiga aylantirishi lozim.

Maxsus ta’lim maktablarning jismoniy tarbiya dasturida milliy harakatli o‘yinlar sinflarga qarab aniqlangan. Chunki, ta’kidlanganidek o‘yinlar bolalarning yoshiga qarab o‘rgatiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan harakatli o‘yinlar yuqori sinf o‘quvchilari uchun o‘ta oson va uncha qiziqarli bo‘lmaydi. Yuqori sinflar uchun belgilangan o‘yinlar esa quyi sinf o‘quvchilari uchun qiyin bo‘ladi.

Harakatli o‘yinlar uchun eng avvalo sharoitlarni (vaqt, joy, qiziqishini,) hisobga olishi zarurdir. Keng va toza joylar maydonlardagi harakatli o‘yinlarni uyushtirish ancha qulayliklar yaratadi. Ayniqsa shug‘ullanuvchilarning erkin yugurishi, sakrashi va turli harakatlarni mustaqil ravishda bajarishlari, quvnab, xursand bo‘lib o‘ynashlari uchun imkoniyatlar bo‘ladi.

Darsdan tashqari (katta tanaffus, uy shariti, ko‘cha, maydont a h.k,) vaqtlarda tashkil etiladigan harakatli o‘yinlarni bajarishda ham yuqorida ta’kidlangan,talabalar amalga oshiriladi. Aks xolda kichik va katta yoshdagi bolalarning aralashib o‘ynashlari janjal, yig‘i, jaraohatlarni keltirib chiqarishi yoki yuqumli kasalliklarga duchor bo‘lish hollari yuzaga kelishi mumkin.

Harakatli o‘yinlarning eng muhim xususiyatlari shundaki, eng kichik yoshdagi gapirishi, yangi so‘zlarni o‘rganishi hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘yinlar mazmunida axloqiy tarbiya musiqani sevish ruhiy xolatlarni yaxshilash, muvozanatlarni saqlash kabi juda kabi fkazilatlar va sifatlar mujassablashgan bo‘ladi.

Qaysi yoshdagi bolalar bo‘lmasin va qanday o‘yinlarqo‘llanilmasin ularni mazmun va maqsadlari gavdani to‘g‘ri o‘stirish, harakatchanlik tezlikni tarbiyalash, sog‘lom bo‘lish va chiniqishga qaratiladi. Bunday o‘yinlar hayotiy ehtiyoj mashqlari (yurish, yugurish sakrash, uloqtirish,osilish, suzish va h.k) hisoblanib, ularning ko‘pchiligi ijodiy fikrlash va amalda qo‘llashni talab etadi.

Jismoniy tarbiya tizimida amaliy-kasbiy, jismoniy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. O‘t o‘chiruvchilar (yong‘inga qarshi) harbiy xizmatchilar (ularning tarkibi va tarmog‘i keng), tez yordam ko‘rsatuvchilar hayotida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik muhim omillardan hisoblanadi. Ularning kasbiy jismoniy mehnatlari va ish faoliyatlarida harakatli o‘yinlar (musobaqa shaklida) asosiy o‘rinda turadi. Masalan, suv sepish, o‘t o‘chirish asboblari , narvon va boshqa zaruriy texnik vositalarni nutqiy manzilga yugarish, ko‘p qavatli uylarga chiqish kabi maxsus harakatlarni o‘rgatishda eng avvalo o‘yin-musobaqa (estafeta) shaklida o‘tkaziladi.

Xulosa qilib aytilsa, harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya tizimida musobaqa shaklida o‘ziga xos ijtimoiy tarbiyaviy va ilmiy pedagogik izlanishlarga molik bo‘lgan amaliy jarayondir. Ulardan ixtisoslashtirilgan maktab 1-sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni sog‘lomlashtirish, chaqqonlik,

abjirlik, faollik kabi jismoniy sifatlarni shakllantirishda maqsadli foydalanish jismoniy barkamollik, salomatlik,o‘z salomatligi uchun ma’suliyatli bo‘lish va sport mahoratlarni oshirishi yo‘llarida samarali natijalar beradi.

Adabiyotlar:

1. Maxkamdjonov K.M. Jismoniy tarbiya metodikasi va bolalar sporti- T.: Nizomiy nomidagi TDPU-2015.
2. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). – T.: “G‘.G‘ulom” nashriyoti-2005.
3. P.M.Po‘latova va boshqalar. Maxsus pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”-2014.
4. Raxmanova V.S. Defektologiya asolari. – T.: “G‘.G‘ulom” nashriyoti-2002
5. Ўзбекистон Республикаси «Фуқароларнинг соғлигини сақлаш тўғрисида»ги қонуни. 2005.
6. Ўзбекистон Республикаси “Давлат сани¬тария назораги тўғрисида”ги, қонуни. 2010.
7. Ўзбекистон Республикаси “Одамнинг иммунитет танқислиги вируси билан касалланишининг (ОИВ касаллигиниш) олдини олиш тўғрисида”ги қонуни- 2003
8. Ўзбекистон Республикаси “Йод етишмаслиги касалликлари профилактикаси тўғрисида”ги, қонуни-2005 йил
9. Ўзбекистн Республикаси “Аҳоли ўртасида микронутриен етишмаслиги профилактикаси тўғрисида”ги қонунлари ва бошқа қонун ҳужжатлари муҳим ўрин тутади.- 2007 йил
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конститутсияси қабул қилинганлигининг 27 йиллигига бағишланган маъросимдаги маърузаси-20018 йил.

UMUMTA'LIM MAKTABLARDAGI MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA METODLARDAN FOYDALANISH

Muhammadiyev Muslimbek Rustam o'g'li
Namangan davlat universiteti,
"Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada zamonaviy dars va unga qo'yiladigan talablar, umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarini samarali tashkil etishda foydalaniladigan turli xil metodlar orqali o'quvchilarni darsga qiziqtirish haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, maktab, qiziqish, dars, aqliy qobiliyat, tarbiya, o'quvchi, metod, bilim, mavzu, jarayon, zamonaviy dars.

USING METHODS IN MUSIC CULTURE LESSONS IN GENERAL SCHOOLS

Mukhammadiev Muslimbek Rustam ugli
Namangan state university,
Teacher of the Department of «Music Education and Cultural Studies»

Annotation: This article provides detailed information about the modern lesson and its requirements, and the various methods used in the effective organization of music culture lessons in secondary schools to interest students in the lesson.

Keywords: education, school, interest, lesson, mental ability, upbringing, student, method, knowledge, subject, process, modern lesson.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИКИ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Мухаммадиев Муслимбек Рустам угли
Наманганский государственный университет,
Преподаватель кафедры «Музыкальное образование и культурология»

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о современном уроке и его требованиях, а также о различных методах, используемых при эффективной организации уроков музыкальной культуры в общеобразовательных школах с целью заинтересовать учащихся на уроке.

Ключевые слова: образование, школа, интерес, урок, умственные способности, воспитание, ученик, метод, знание, предмет, процесс, современный урок.

The main form of organizing the educational process in the continuing education system is the lesson (educational session). A lesson is a logically complete whole, limited by a certain time, of the educational process. Each lesson activity is its main elements. The topic of the lesson, the purpose of the lesson, the type of the lesson, the equipment of the lesson, the progress of the lesson, the completion of the lesson, homework assignment. "A modern lesson is such a lesson", writes J. Yuldoshev, in which the teacher skillfully uses the available opportunities of the learner, uses his mental potential, and the learner, in turn, deeply absorbs knowledge and walks like spiritual perfection. [1; P. 38]

Teachers need to know the requirements for the lesson during the preparation of the lesson. They are as follows: The teacher's dress code, speech, behavior, ability to set a personal example by loving the child. The teacher should clearly define the purpose of the lesson depending on the topic of the lesson and lead the learner to the goal. Educational, educational and developmental goals should be set correctly in each lesson. The learner should choose the right teaching methods depending on the level of preparation. In the lesson, it is necessary to fully comply with the requirements of sanitary hygiene.

Also, each teacher should have sufficient knowledge of the theoretical foundations of the subject he/she is teaching. Must have high professional training (in the field of music) and work independently. Must have knowledge, skills and abilities to organize the educational process using modern pedagogical technology and interactive methods. The normative documents of the subject taught by the teacher

(music) should be thorough.

Today, the changes taking place in our Republic are setting many tasks for the education sector and all our science teachers. The implementation of this task requires continuous improvement of the general and professional efficiency of each teacher, educator, independent activity and initiative. In this regard, it is an urgent issue to create a mechanism for implementing the national module of pedagogical technology in the educational process, based on the theoretical document of modular teaching in the design of educational subjects and training.

Module education is based on the programmed teaching processes used in the educational system in the last half of the 20th century. The original meaning of the word "Module" is "Model" which means a measure in Latin. The module represents the structural elements that make up the pedagogical technology. A module is a logically separated part of learning information, which consists of a whole and complete content and mastery control. Each module is interrelated and regularly conducted according to the purpose. [2; P. 34]

The module provides an opportunity for students to work consciously within the framework of a common goal. Teaching technology is increasingly used in the educational process as a component of pedagogical technology. The main goal of modular education is to transform knowledge into skills by acquiring knowledge on a specific educational topic.

The analysis shows that the use of teaching technology suitable for almost all subjects in education has a positive effect. The main task of module technology is to improve the quality and efficiency of education. The basis of the introduction of the module teaching technology to music and other subjects is the development of pedagogical thinking, the thorough mastering of innovative teaching methods and pedagogical technology, as they increase the quality and efficiency of teaching. Another of the main tasks of modular education is a node consisting of interrelated subjects.

rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi (2017-yil 13-sentabr)Qarori \\Lex.uz\docs\3338600.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida Toshkent sh.,2018-yil 12-may,PQ-3721-sonhttps://lex.uz/docs/-4887792

3. Барулин В. С. Основы социально-философской антропологии. — М.: Академкнига, 2002. — 455 с. //www.livelib.ru /author/8886-vladimir-barulin

4. Гринева М.И. Ўқув жараёнида ўспиринларнинг ўқиш маданиятини ривожлантиришнинг ташкилий ва педагогик шартлари. дисс.... Педагогика фанлари номзоди, - Санкт-Петербург, 2015. – б. 234.

5. Маранцман В. Г. «Предназначение» литературы в школе. Цели и структура курса литературы в школе / Маранцман В. Г. // Методика обучения литературе. XXI век: учебное пособие / ООО «ВВМ». – Санкт-Петербург, 2019. – С. 8-18.

6. Mirxoliqova Ch.X. "O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari" dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent.2022-y, 7-bet

7. Откидач, Елена Валентиновна. Развитие читательской культуры студентов в условиях университетского комплекса тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат педагогических наук .2011 год.

8. Полозова Т.Д. О власти искусства слова и ценности чтения. Год издания: 2010 Язык: Русский 320 стр. //www.livelib.ru/book/ 1000562774-o-vlasti-iskusstva-slova-i-tsennosti-chteniya-polozova-td

9. Примаковский А.Р. Ўқиш маданияти тўғрисида: ақлий меҳнатни илмий ташкил этиш нуқтаи назаридан китоб билан мустақил ишлаш усуллари. - М.: Книга, 2001. - б. 158;

10. Светловская, Н.Н.XXI век. Итоги и перспективы исследования проблемы формирования ребенка-читателя [Текст] : монографический очерк. - Москва : Экон-информ, 2014. - 88 с.; 21 см.; ISBN 978-5-9506-1170-4

11. Смородинская М.Д. Ўқувчиларни ривожлантиришнинг ёш босқичининг хусусиятлари ва уларни кутубхоналар амалиётида кўриб чиқиш. дисс.... Педагогика фанлари номзоди, Л. 1982, - б. 25.

MATN USTIDA ISHLASHDA PRAGMATIK YONDASHUV

Parpiyev Odil Olimovich
Qo‘qon universiteti, Ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada matn ustida ishlashda pragmatik yondashuv va uning mohiyati, yozma nutqni rivojlantirishda undan foydalanishning ahamiyati soha mutaxassislarining ilmiy qarashlari asosida yoritilgan. Muallif ilgari surayotgan g‘oyalar asosida tajriba-sinov o‘tkazilgan, natijalar umumlashtirilib, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pragmatika, pragmatik yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, matn, yozma, nutq, interaktiv, metod.

A PRAGMATIC APPROACH IN WORKING ON THE TEXT

Parpiyev Odil Olimovich
senior lecturer of the Department of Education, Koqan University

Abstract. In the article, the pragmatic approach to working on the text and its essence, the importance of its use in the development of written speech are highlighted based on the scientific views of experts in the field. Based on the ideas put forward by the author, experiments were conducted, the results were summarized, and recommendations were developed.

Key words: pragmatics, pragmatic approach, primary education, text, writing, speech, interactive, method.

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ПОДХОД В РАБОТЕ НАД ТЕКСТОМ

Парпиев Одил Олимович
старший преподаватель кафедры образования Университета Кокан

Аннотация. В статье выделены прагматические подходы к работе над текстом и его суть, важность его использования в развитии письменной речи на основе научных взглядов специалистов в данной области. На основе идей, выдвинутых автором, были проведены эксперименты, обобщены результаты и разработаны рекомендации.

Ключевые слова: прагматика, прагматический подход, начальное образование, текст, письмо, речь, интерактив, метод.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning: “O‘z fikrini mustaqil ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”[1], – degan fikrlari kichik yoshli maktab o‘quvchilarining nutqiga alohida e’tibor bilan yondashishga chorlaydi. O‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin, to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham juda muhim bo‘lib, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Kichik yoshli maktab o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqi parallel ravishda rivojlantiriladi. Maqolada matn ustida ishlash orqali yozma nutqni shakllantirishdagi pragmatik yondashuvlarni tadqiq qilayotganimiz bois olib borilgan tadqiqot natijalarini keltirib o‘tamiz.

Boshlang‘ich ta’lim maktabda o‘qitishning eng muhim bosqichidir. Aparinaning so‘zlariga ko‘ra: “Mana shu bosqichda bolalarda o‘rganilayotgan til mamlakatining madaniy qadriyatlariga, ularning madaniyati an’analariga hurmatni yo‘qotmasdan, bag‘rikenglik munosabatini tarbiyalash kerak”[2].

Matn bilan ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqining psixolingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Psixolingvistika - nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo‘lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo‘li bilan tekshiradi. A.A. Leontevning fikriga ko‘ra, “psixolingvistikaning predmeti, bir tomondan, shaxsning nutq faoliyatining tuzilishi va funksiyalari bilan aloqasi, ikkinchi tomondan, til insonning dunyoqarashining asosiy komponenti sifatida”[3]deb ta’riflanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining doimo yangi narsalarni o‘rganishni xohlashi, o‘rganlanlarini yillar davomida esda saqlab qolishi, xarakterida asosan o‘yin faoliyatining ustuvor

ekanligi, bu narsa bolalarda yangi qiziqishlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi xususiyatlarni hisobga olib, ta’limiy jarayon maqsadini belgilash boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy vazifalaridandir.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining til rivojlanishi darajasiga mos keladigan matnlar bilan ishlash orqali bolada muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratish va uning lingvistik kompetensiyasini oshirish mumkin.

Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnlar bilan ishlashdagi pragmatik yondashuvlar ularni XXI asr hayotiy ko‘nikmalariga tayyorlashda yaqindan yordam beradi. Ushbu maqolada pragmatikaning mohiyati, ta’limda pragmatik yondashuvning ilg‘or va samarali usullari haqida kuzatish va tajribalarimizga asoslanib fikr yuritamiz.

Adabiyotlar tahlili. Matn va uning tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar XX asr o‘rtalarida paydo bo‘la boshladi. I.R.Galperinning fikricha, matn yozma nutq mahsulidir, og‘zaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzun-yuluq gaplarni ham o‘z ichiga oladi va uni tekshiruv ob’ekti bola oladigan matn deb e’tirof etish maqsadga muvofiq emas. Dunyo tilshunosligida matn va uning lingvistik tabiati haqida qator fikrlar o‘rtaga tashlangan. Fransuz tilshunosi R.Bart: “Ichki bog‘lanishli bo‘lgan, muloqot maqsadida mazmunan o‘zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi” desa, polyak tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy e‘tiborini muallif nima haqida gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki mazkur matn qanday komponentlardan tuzilayotganiga qaratadi. K.Kojevnikova tadqiqotlarida asosiy e‘tibor matnning bog‘lanishli nutq mahsuli ekanligiga qaratiladi va uning mazmuniy jihatdan tugallangan bo‘lishi alohida uqtiriladi. Olimaning matn komponentlari o‘zaro ma’no jihatdan ham, grammatik jihatdan ham bog‘lanishli bo‘lishi haqidagi fikri e‘tiborga molikdir, chunki ko‘pchilik tilshunoslar matn komponentlarini faqat mazmuniy bog‘lanishli bo‘lishini ta’kidlaydilar va ularning leksik-grammatik vazifalar orqali bog‘lanishini nazardan chetda qoldiradilar.

Rus olimi M.V.Lyapon[4] matn tavsifi quyidagi to‘rt belgiga ko‘ra asoslanishi mumkinligini ko‘rsatadi:

1.Matn - bu jumlalarning o‘zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o‘rganishda birdan-bir manbadir.

2.Matn bu so‘zlovchining nutqiy qobilyatini ro‘yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo‘llanishini ta’minlovchi makon vazifasini ham bajaradi.

3.Matn bu so‘zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.

4.Matn bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funksiya bajaruvchi eng yuqori pog‘onasidir.

M.V.Lyapon matn shakllanishida inson omilining eng muhim omillaridan biri ekanligini, inson matn shakillanishi uchun jonli manba ekanligini ta’kidlaydi.

O‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab o‘zbek olimlari ham matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug‘ullana boshladilar. Bu jihatdan B.O‘rinboyev, R.Qo‘ng‘urov, J.Lapasovlarning “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o‘ziga xos belgilari matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari, matn yaratish muammolari ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar haqida ma’lumotlar beriladi. O‘zbek tilshunosligida matn tadqiqi xususida gap ketganda, M.To‘xsanovning “Mikromatn va o‘zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar” mavzusidagi nomzodlik ishini ta’kidlash joiz. A.Mamajonovning 1989-yilda nashr qilingan “Tekst lingvistikasi” nomli qo‘llanmasi ushbu masalaga bag‘ishlangan dastlabki o‘quv qo‘llanma ekanligi bilan diqqatga sazovor. Bu o‘quv qo‘llanmada matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, matn turlari, matn tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog‘lovchi vositalar kabi qator masalalar yoritilgan.

Professor E.Qilichevning “Matnning lingvistik tahlili” (2000) nomli o‘quv qo‘llanmasida matnning ko‘rinishlari va uni lisoniy tahiil qilish namunalari berilgan. Eng muhimi, ishda poetik va nasriy matnlarni sharhlab o‘qish hamda tahlil qilish matnni “lingvistik mikroskop ostida” o‘rganishga oid mashq namunalari keltirilgan.

L.A.Nefedova va Ye.A.Titovalar har qanday lisoniy belgilar o‘quvchi yoki tinglovchiga ma’lum bir pragmatik ta’sir (kommunikativ effekt) xususiyatiga ega ekanligini ta’kidlar ekan, V.N.Komissarovning fikrlariga asoslanib, pragmatik ta’sir xususiyatini belgilovchi uch asosiy omilni ko‘rsatadilar. Birinchidan, bu ifoda mazmuni. Ikkinchidan, xabarni idrok qilish uni tashkil etuvchi belgilar xususiyatiga bog‘liq. Aynan bir xabar turli xil usullar bilan uzatilishi mumkin, ya’ni so‘zlovchi lisoniy vositalarni ma’lum bir

ta’sir niyatiga muvofiq tanlaydi. Uchinchidan, ifodaning pragmatik ta’siri qabul qiluvchining ham idrok etishiga bog‘liq[5].

“O‘quvchining ona tili ta’limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo‘yicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchi egallagan quyidagi ko‘nikmalarning darajasi aniqlanadi: a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi; b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, abstrakt-konkret, mavhum va hokazo); d) tavsifning mavzuga muvofiqligi va mazmuniy qiymati; e) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi; 10 f) imloviy (yozma) savodxonlik sifati”[6].

Materiallar va usullar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq va tafakkurini rivojlantirishga doir yozma ishlarni tashkil etishda:

a) o‘quvchilarning mustaqil ishlash malakalarining shakllanganlik darajasini aniqlash; b) mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi mashqlar sistemasini aniqlash; v) o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi bilan bog‘liq mustaqilligi darajasini belgilash; g) mavjud bilimlarini o‘quv jarayoni va amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini o‘rganish ko‘zda tutiladi.

Pragmatik matnlar aniq maqsadga erishishga qaratilgan matnlardir. Bunday matnlar nafaqat asosiy lug‘atni o‘z ichiga oladi, balki to‘g‘ri grammatika va yozish uslubini ham o‘rgatadi. Chunki matn ustida samarali ishlash jarayonida o‘quvchilarning lingvistik va kommunikativ ko‘nikmalarni egallash jarayoni, ya’ni nutqni idrok etish, grammatik qoidalarni o‘zlashtirish, lingvistik so‘zlarni va pragmatikani tushunish ya’ni turli ijtimoiy vaziyatlarda nutqdan foydalanish qobiliyati rivojlantiriladi. Biz ushbu maqolani yoritish uchun pedagogik kuzatish, taqqoslash, so‘rovnoma, empirik metodlardan foydalandik va Qo‘qon shahridagi 1-, 6-, 14-, 26-, Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 5-, Toshkent shahar Yangihayot tumanidagi 6-umumta’lim maktablarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilari o‘rtasida tadqiqotni amalga oshirdik.

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tajriba (“A”) va nazorat (“B”) sinflariga ajratildi. Yuqorida keltirilgan maktablarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga quyidagicha anketa so‘rovnomalari tarqatildi:

1.Yozma ishlarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur deb hisoblaysizmi?

2.Yozma ishlarni o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etasizmi?

3.Yozish mashg‘ulotlarini tashkil etishda individuallikning qaysi usullaridan foydalanasiz?

4. Yozish darslarini tashkil etishda o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va kengaytirishga doir turli hajm va murakkablik darajasidagi o‘quv materiallaridan foydalanasizmi?

Biz ilgari surgan ilmiy faraz yuzasidan eksperimental tekshirish ishlariga 2- “A” tajriba sinfidan 33 ta, 2- “B” nazorat sinfidan 32 ta, jami 65 o‘quvchi jalb qilindi. Tajriba 2023-yil mart-aprel oylarida 3 bosqichda o‘tkazildi. Yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ishlar mazmuni o‘quvchilarning so‘z imlosini, ma’nosini bilmasa, uni yozma nutqda qo‘llay olmasligi tufayli orfografik va leksik ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratildi.

Yakuniy bosqichda o‘tkazilgan pedagogik tajribaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning dastlabki yozish va leksik ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatining shakllanish darajasini aniqlash bo‘ldi.

O‘quvchilarga ularning o‘zlashtirishi, motivatsiyasini, faolligi, uyushqoqligi, mas’uliyatliligi va javobgarligini aniqlashga qaratilgan savollar yozilgan anketalar tarqatildi.

Har bir savolning javobi 3 variantda, o‘quvchilar ular ichidan birini tanlashi va (+) bilan belgilanishi ma’lum qilindi. Har bir o‘quvchining javobi yig‘indisi ball bilan baholanishi aytildi.

Yuqori darajada (8-12 ball) – o‘quvchining o‘zlashtirishi a’lo yoki yaxshi. O‘quv-biluv faoliyatida yozish va so‘zlarning ma’nosini anglashga bo‘lgan qiziqishlarining barqarorligini namoyon etadi, noan’anaviy mashqlarni bajarish zarurati bo‘lganda tashabbus ko‘rsatadi. O‘qituvchining yordamisiz ijodiy ishlarni bajaradi. O‘zining ish faoliyatini uyushtira biladi. Yozish jarayonida bajarish usullarini rejalashtira oladi.

O‘rta darajada (4-7 ball) – o‘quvchining o‘zlashtirishi yaxshi yoki o‘rtacha. O‘quv-biluv faoliyatida vaziyatga qarab yozma topshiriqlarni bajarishga qiziqishlarini namoyon etadi. Tushunarli topshiriqlarni bajarish zarurati bo‘lganda tashabbus ko‘rsatadi. O‘rtacha murakkablikdagi topshiriqlarni o‘qituvchining yordamisiz mustaqil bajaradi. O‘zining ishlarini uyushtira oladi. Vaqtni va yozma topshiriqlarni bajarish

usullarini rejalashtira oladi.


Past darajada (0-3 ball) –o‘quvchining o‘zlashtirishi past. Yozma topshiriqlarni bajarishga qiziqishlari yo‘q. Faqat namuna asosidagi topshiriqlarni o‘qituvchining yordamisiz bajaradi. O‘zining ish faoliyatini tashkil eta olmaydi. Vaqtdan to‘g‘ri foydalana olmaydi.

2-sinf o‘quvchilarining har bir darajani bajarishlariga 1 ball qo‘yildi. So‘zlarning grammatik shakli o‘zgarishi bilan ma’nosi ham o‘zgarishi va shu so‘zlarning ma’nosini aniqlab, o‘z so‘ziga aylantira olish ko‘nikmasini anglashlari aniqlandi.

Natijalar. Anketa savollariga berilgan javoblarda birorta o‘qituvchi o‘quvchilarning yozma ishlarni tashkil etishda individuallikni hisobga olish kerakligiga e’tiroz bildirmagan. (O‘qituvchilarning 65% i didaktik materiallarning bo‘lmasligi ish turini tashkil etishda qiyinchilik tug‘dirishini qayd etishgan. Yozma ishlarni tashkil etishda ko‘proq a’lochi o‘quvchilarda individuallikdan foydalanishlarini aytishgan. 63% o‘qituvchilar a’lochi o‘quvchilarga yozish ko‘nikmasi darajasini aniqlash uchun murakkab topshiriqlar tavsiya qilishlarini, 15% o‘qituvchilar a’lochi o‘quvchilarga mantiqiy fikrlaydigan, fahmlaydigan, idrok eta oladigan, diqqatini, xotirasini, fikrlashini o‘stiradigan topshiriqlar berishlarini, 5% o‘qituvchilar o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq topshiriqlar tavsiya qilishlarini aytishgan.

Javoblardan yozish ko‘nikmasini rivojlantirish ishlarini tashkil etishda turli murakkablikdagi topshiriqlardan, o‘z-o‘zini va o‘zaro tekshirishga qaratilgan topshiriqlardan amalda foydalanilmasligi ayon bo‘ldi. Tajriba o‘tkazish jarayonida 59 nafar o‘qituvchi bilan mavjud holatni yaxshilash yuzasidan, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olib, yozish faoliyatga yo‘llashdagi sustkashlik sabablari haqida suhbat o‘tkazdik. Ular yozish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun didaktik materiallarning, qo‘shimcha materiallarni ko‘paytirish imkoniyatining yo‘qligini, o‘quvchilarga individual qobiliyatlarini o‘rganish uchun psixologik-pedagogik, metodik tavsiyalarning yaratilmaganligini aytishdi.

2-“A” va 2- “B” sinf o‘quvchilarining ona tilidan o‘quv faoliyatidagi yozma ko‘nikmasining shakllanganlik darajasi yuzasidan o‘tkazilgan diagnostik metod natijasi 1 - rasmda aks ettirildi. (1-rasmga qarang).



1-rasm. Ona tilidan mustaqil ishlash ko‘nikmalarining shakllanish darajasi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2- “A” tajriba sinfi o‘quvchilarda yozish ko‘nikmasi faoliyati 16% yuqori darajada, 32% o‘quvchilarda o‘rta darajada, 52% o‘quvchilarda past darajada shakllangan. 2- “B” nazorat sinfida 12 % o‘quvchilarda yozish ko‘nikmasi faoliyati yuqori darajada, 42% o‘quvchilarda o‘rta darajada, 46% o‘quvchilarda past darajada shakllangan.

Mazkur metodda olib borilgan izlanishlarimiz natijasi ko‘rsatdiki, ko‘pchilik o‘quvchilar nazorat va

tajriba sinflarida yozma mshg‘ulotlardagi ishlarga qiziqish bildirmadilar. Ular reproduktiv xarakterdagi yozma ishlarnigina o‘qituvchining yordamisiz bajardilar, xolos.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq va tafakkurini rivojlantirishga doir yozma topshiriqlar natijasini quyidagi jadvalda ifodalashga harakat qildik.

1-jadval

Muddati	Sinflar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
			Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba boshida	Tajriba sinfi	450	160	150	140
	Nazorat sinfi	470	175	170	125
Tajriba yakunida	Tajriba sinfi	450	190	160	100
	Nazorat sinfi	470	175	150	145

Aniqlovchi tajribada yakuniy natija shuni ko‘rsatdiki, nazorat va tajriba sinflarida ko‘p o‘quvchilarning yozma topshiriqlarni bajarish faoliyati past ko‘rsatkichda.

Muhokama. Matnlar tahlilida pragmatik yondashuv o‘yin vaziyatini yaratish uchun ajoyib materialdir, chunki ularning yordami bilan haqiqiy muloqot vaziyatini yaratish mumkin. Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun yetakchi faoliyat ta’limdir, lekin o‘yin faoliyati hali ham jozibali va dolzarbdir.

Professor S.Matchonov va bir guruh olimlar jamoasi bolalarga so‘z, ibora, gap ustida ishlashda “Ortiqchasini top”, “Zanjir”, “Skanerdan ma’nodosh so‘zlarni top”, “Iztopar”, “Harflardan ma’nodosh so‘zlar tuz”, “Aql charxi”, “Charxpalak”, “Ruchka stol ustida”, “Meni tushun”, “Sirli so‘z”, “O‘z uyalariga joyla”, “Munozara daqiqasi”, “Kim chaqqon”, “Topqirlar bellashuvi”, “Kimligingni top” kabi interaktiv usullarni taklif qiladi[7]. Biz ham bu fikrlarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Haqiqatan ham, dars jarayonida bunday faollashtiruvchi usullardan foydalanish o‘quvchilarga taklif etilayotgan o‘quv materialining oson o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Tadqiqotchi D.Abduraxmonova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini o‘stirishda turli xil interaktiv metodlar va ulardan foydalanish yo‘llari haqida fikr bildirib, “Rasmlar orasidagi bog‘liqlik metodi”, “Kuchli xotira 3-2-1” metodlarini tavsiya qiladi. Bu metodlar ham samarali ta’limiy faoliyat uchun muhim vositalardan ekanligi amaliyotda isbotlandi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi qiziqishi va o‘zlashtirishidan kelib chiqib qo‘llanadigan har qanday interaktiv metod ta’lim oluvchilarda matn ustida ishlash bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam beradi.

Xulosa. Pragmatik matnlar bolalarning yoshi va tilni bilish darajasiga mos ravishda qo‘llanilishi kerak. Demak, pragmatik yondashuv natijasida bolalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki real hayotda tildan foydalanishda amaliy ko‘nikmalarni ham yaxshi o‘zlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.I.A.Karimov.Barkamol avlod- O`zbekiston tarraqiyoti poydevori._Toshkent:1997.9-bet.

2.Апарина Ю.И., Межина А.В. Иноязычная паттерн коммуникация как средство обучения спонтанному речевому реагированию на уроке иностранного языка в начальной школе // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Гуманитарные науки, 2019. №7. С. 33-37 (дата обращения: 25.02.2023).

3.Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. М.: Смысл, 287 с.

4.Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. “Matn tilshunoskigi” – Toshkent. “Universitet” nashriyoti, 2024.

5.Лингвистика и экстралингвистика: аспекты коннотативного значения: Коллективная монография. – Нижневартовск: Изд-во Нижневарт. гуманит. ун-та, 2009. – С. 32.

6.Madayev O.,.SobirovA. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. Toshkent. Turon zamin ziyo. 2017. 9- 10-bet.

7.S.Matchonov va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik. T.: “Ishonchli hamkor”, 2021. 740 b.

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Парпиева Малика Салахитдиновна
Старший преподаватель Ташкентского государственного стоматологического института.

Дилноза Мадировна Юнусова
Старший преподаватель Ташкентского государственного стоматологического института.

Аннотация. Данная статья посвящена детальному и всестороннему изучению особенностей обучения языку студентов-медиков, что представляет собой насущную и неотъемлемую проблему в современном образовательном процессе. Как известно, студенты медицинских вузов, стремясь стать квалифицированными специалистами в данной сфере, сталкиваются с непременной необходимостью овладения специализированным языком, который служит инструментом для усвоения медицинских знаний, а также обеспечивает эффективную коммуникацию с пациентами и коллегами. Важно отметить, что разработка и внедрение эффективных методов обучения такой специфической учебной аудитории имеют особое значение для их последующей успешной профессиональной подготовки и превосходной работы в медицинской сфере.

Ключевые слова: обучения языку студентов-медиков, метод проектов, ролевые игры, аутентичные тексты, аудиоматериалы.

TIBBIYOT OTM TALABALARIGA TILI O‘QITISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Parpieva Malika Salaxitdinovna
Toshkent davlat stomatologiya instituti katta o‘qituvchisi

Dilnoza Madirovna Yunusova
Toshkent davlat stomatologiya instituti katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy o’quv jarayonidagi dolzarb va ajralmas muammo bo’lgan tibbiyot OTM talabalariga til o’rgatish xususiyatlarini batafsil va har tomonlama o’rganishga bag’ishlangan. Ma’lumki, ushbu sohada malakali mutaxassis bo‘lishga intilayotgan tibbiyot talabalari tibbiy bilimlarni o‘zlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan hamda bemorlar va hamkasblar bilan samarali muloqotni ta’minlaydigan ixtisoslashgan tilni o‘zlashtirishda doimiy muammolarga duch kelmoqdalar. Til o’qitish uchun samarali ta’lim metodlarini ishlab chiqish va joriy etish talabalarning keyingi muvaffaqiyatli kasbiy tayyorgarligi va tibbiyot sohasida a’lo darajada ishlashi uchun alohida ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: tibbiyot talabalariga til o’qitish, loyiha usuli, rolli o’yinlar, autentik matnlar, audio materiallar.

FEATURES OF LANGUAGE TEACHING MEDICAL STUDENTS

Parpieva Malika Salaxitdinovna
Senior Lecturer of Tashkent State Dental Institute

Dilnoza Madirovna Yunusova
Senior Lecturer of Tashkent State Dental Institute

Abstract. This article is devoted to a detailed and comprehensive study of the features of teaching language to medical students, which represents a pressing and integral problem in the modern educational process. As you know, medical students, striving to become qualified specialists in this field, are faced with the indispensable need to master a specialized language, which serves as a tool for mastering medical knowledge and also ensures effective communication with patients and colleagues. It is important to note that developing and implementing effective training methods for these specific audiences is of particular importance for their subsequent successful professional training and excellent performance in the medical field.

Keywords: teaching language to medical students, project method, role-playing games, authentic

texts, audio materials

Введение. В настоящее время все больше и больше внимания исследуется и уделяется проблеме изучения языка студентами-медиками, так как обладание хорошими коммуникативными навыками и глубоким пониманием специфики медицинского языка существенно влияют и имеют огромное значение для обеспечения высокого качества ухода за пациентами и успешного взаимодействия в коллективе. Недостаточные знания языка или неполное понимание сложной медицинской терминологии могут привести к серьезным ошибкам, что в свою очередь может иметь негативные и даже катастрофические последствия. Поэтому актуальность и важность проблемы обучения языку студентов-медиков являются несомненными и требуют максимального внимания, углубленных исследований и проведения дальнейших научных работ. [1]

Методы. Для эффективного обучения языку студентов-медиков применяются различные методы и технологии, такие как коммуникативный подход, метод проектов, ролевые игры, аутентичные тексты и аудиоматериалы. Важными методами также являются использование специализированной медицинской терминологии, изучение типичных клинических ситуаций, а также практические занятия с пациентами и медицинскими специалистами. Такой комплексный подход позволяет студентам-медикам эффективно осваивать язык, необходимый для проведения профессиональной коммуникации в медицинской сфере.

Результаты и обсуждение. Из результатов проведенного исследования видно, что студенты-медики сталкиваются с определенными трудностями при изучении языка, которые главным образом связаны с огромным объемом специфической терминологии. Они также проявляют высокую степень мотивации к изучению языка, поскольку осознают его огромное значение для своей будущей профессиональной деятельности в медицинской сфере. Анализ и обсуждение полученных результатов наглядно демонстрируют необходимость разработки специализированных методов и подходов к обучению медицинскому языку, принимая во внимание особенности студентов-медиков и специфику учебной программы, которую они проходят. Эта неотъемлемая необходимость также подчеркивает актуальность данной проблемы и показывает, что требуется проведение дальнейших исследований в этой области для достижения более глубокого понимания и поиска эффективных решений. [2]

Теоретические основы обучения языку. Теоретические основы обучения языку включают в себя изучение языковых теорий, методик и психологии обучения иностранным языкам. Это также включает в себя анализ основных принципов обучения языку, исследование языковой среды и влияния культурных особенностей на процесс обучения. В контексте студентов-медиков особое внимание уделяется специфике изучения медицинского языка, а также особенностям коммуникативной компетенции в медицинской сфере. Таким образом, теоретические основы обучения языку студентов-медиков охватывают широкий спектр дисциплин, необходимых для эффективного обучения. [3]

Изучение языка в медицинской сфере имеет свои особенности, связанные с обширной терминологией, спецификой коммуникаций врачей и пациентов, а также применением языка в медицинском профессиональном контексте. Студенты-медики должны изучать иностранный язык с учетом медицинских терминов, особенностей согласования и общения врачей в рамках коллективов, а также международных стандартов общения в медицинской сфере. Понимание этих особенностей важно для разработки эффективных методик обучения, а также для подготовки студентов-медиков к профессиональной коммуникации в будущем.

Студенты-медики являются особой категорией учащихся, так как их обучение тесно связано с изучением медицинского языка, специфических терминов и коммуникации с пациентами и коллегами. Они обладают высокой мотивацией к изучению языка, так как от этого зависит их способность взаимодействовать в профессиональной среде и обеспечить безопасность пациентов. Кроме того, студенты-медики обладают определенными знаниями и умениями, которые отличают их от других групп студентов, что также оказывает влияние на подход к обучению их языку.

Мотивация студентов-медиков к изучению языка тесно связана с их профессиональными перспективами и ответственностью перед будущими пациентами. Они стремятся к уверенной

и грамотной коммуникации, чтобы эффективно взаимодействовать со своими коллегами и пациентами, обеспечивая безопасность и эффективность медицинской помощи. Цели обучения языку для студентов-медиков включают не только овладение профессиональной терминологией, но и развитие навыков общения в различных ситуациях, связанных с медицинской практикой.

Методы и технологии обучения языку студентов-медиков. Для обучения языку студентов-медиков широко и успешно используются разнообразные методы активного обучения, такие как захватывающие ролевые игры, захватывающие и познавательные проектные задания, увлекательные и интересные обсуждения клинических случаев на иностранном языке. Это позволяет студентам более полно и глубоко вникнуть в изучаемый язык, а также лучше понимать особенности медицинской сферы на иностранном языке. Однако, не стоит забывать и о значимой роли современных технологий в процессе обучения. Технологические средства, такие как компьютерные программы, мультимедийные презентации и онлайн-курсы, активно применяются в данной области. Они помогают студентам с большей легкостью осваивать иностранный язык, а также предоставляют множество возможностей для практической отработки навыков коммуникации в медицинской сфере. Сочетание данных методов активного обучения и использование современных технологических средств создает благоприятные условия для успешного и эффективного изучения иностранного языка студентами-медиками. Благодаря этому процесс обучения становится не только полезным, но и увлекательным, что способствует стимуляции интереса и мотивации студентов к изучению языка, а также развитию их навыков коммуникации, критического мышления и самостоятельности в медицинской сфере. [4, 5]

Коммуникативный подход в обучении языку. Коммуникативный подход в обучении языку студентов-медиков ориентирован на развитие навыков общения на иностранном языке в медицинском контексте. Учебный процесс включает в себя широкий спектр активностей, которые позволяют студентам эффективно осваивать языковые навыки и применять их на практике в различных ситуациях, связанных с медицинской профессией. Одним из основных аспектов обучения является развитие навыков устной коммуникации, поскольку успешная взаимодействие с пациентами, коллегами и другими специалистами требует уверенности и грамотности в общении. В рамках обучения студенты активно тренируются в ведении бесед на иностранном языке. Они изучают такие важные коммуникативные навыки, как установление контакта, задавание вопросов, слушание и понимание собеседника, а также умение выразить свои мысли и идеи четко и убедительно. Через систематическую практику и обратную связь от преподавателей студенты совершенствуют свои навыки и становятся более уверенными в использовании иностранного языка в коммуникации. Одним из важных аспектов обучения коммуникативному подходу является овладение навыками медицинского общения на иностранном языке. В рамках этого направления студенты изучают специфическую лексику и грамматику, связанную с медицинской практикой, а также осваивают навыки анализа клинической информации и формулирования диагноза. Значительное внимание уделяется также развитию умений объяснять пациенту свой диагноз и назначения на иностранном языке. В результате студенты приобретают не только профессиональные компетенции, но и повышают свою уверенность в собственных силах при общении на иностранном языке в будущей медицинской практике. Это позволяет им эффективно взаимодействовать с пациентами и коллегами, строить доверительные отношения и обеспечивать качественное оказание медицинской помощи. [6]

Проблемы и трудности в обучении языку студентов-медиков. Одной из основных проблем, с которыми сталкиваются студенты-медики в процессе обучения языку, является ощутимая нехватка времени из-за обилия учебной нагрузки, связанной с изучением широкого спектра медицинских дисциплин. Неудивительно, что такая ситуация зачастую приводит к ограниченной практике языка и оставляет слишком мало времени для самостоятельного углубленного изучения. Важно также учитывать, что возможны значительные различия в уровне языковой подготовки студентов, что затрудняет коллективное обучение и требует индивидуального подхода. Более того, отсутствие достаточного количества специализированных учебных материалов и сложности в переводе специфической медицинской терминологии добавляют дополнительные препятствия на пути к успешному освоению языка в контексте медицины. [7]

Терминология и специфика медицинского языка. Медицинская терминология является одной из основных и важнейших особенностей обучения языку студентов-медиков. Студенты должны

усвоить огромное и обширное количество специализированных уникальных терминов, которые безусловно и неотъемлемо являются необходимой и непременной частью медицинского языка. Именно поэтому требуется дополнительные усилия, повышенное внимание и длительное время для их полного запоминания, глубокого понимания и уверенного использования в разнообразных ситуациях и условиях медицинской практики. Особое внимание и особенности медицинского языка также касаются навыков и способностей взаимодействия, эффективной коммуникации и успешной координации с пациентами и коллегами-врачами. В связи с этим, студентам-медикам необходимо обладать особыми навыками, знаниями и профессиональной подготовкой, а также уметь эффективно применять и применять свои медицинские знания во время общения и коллективной работы с пациентами и коллегами, чтобы обеспечить максимально возможное качество и эффективность медицинской помощи и профессиональной практики. В итоге, это требует мотивации, высокой ответственности и готовности студентов-медиков к постоянному самосовершенствованию, обучению, развитию профессиональных навыков и умений, а также старания и стремления превосходить самого себя ради достижения наивысших стандартов в медицинской практике и обучении. [7]

Заключение. В заключении можно отметить, что изучение языка студентами-медиками имеет свои особенности, связанные с необходимостью углубленного изучения медицинской терминологии и специфики профессионального общения. Важно учитывать мотивацию и цели обучения языку, а также использовать коммуникативный подход в обучении, учитывая особенности учащейся аудитории. Также необходимо преодолевать проблемы и трудности, с которыми сталкиваются студенты-медики при изучении языка, и применять разнообразные методы и технологии обучения. Все это можно считать важными аспектами обучения языку студентов-медиков, которые следует учитывать при разработке учебных программ.

Из проведенного анализа можно сделать основные выводы о особенностях обучения языку студентов-медиков. Это включает необходимость учитывать специфику медицинской сферы и ее терминологию, акцент на мотивацию и цели обучения, использование коммуникативного подхода и применение разнообразных методов и технологий обучения. Также важно помнить о проблемах и трудностях, с которыми сталкиваются студенты-медики. Основные выводы подчеркивают важность комплексного подхода к обучению языку студентов-медиков, учитывая их специфику как учащейся аудитории.

Литературы:

1. Мяконький, РВ (2020). Профессиональное становление начинающего хирурга в аспектах андрагогики и социологии медицины. [HTML]
2. Плотникова, ГМ (2021). Перевод терминов с английского на русский язык в медицинском дискурсе на примере статей по кардиологии: дипломная работа (проект) специалиста …. tsu.ru
3. Налбандян, СР (2022). К ВОПРОСУ О СОЗДАНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ СЛОВАРЕЙ-МИНИМУМОВ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ. ББК 81.2 я43. ksmuconfs.org
4. Исмаилова, Н. А. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ МЕДИЦИНСКИХ ПРЕДМЕТОВ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(1), 141-151. newjournal.org
5. Бакаев, Н (2023). ОБУЧЕНИЕ ЛАТИНСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ СКВОЗЬ ПРИЗМУ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. Евразийский журнал академических исследований. in-academy.uz
6. Игнатьева, Т. С., & Мясникова, И. А. (2021). Коммуникативный подход к обучению иностранному языку студентов-медиков. Проблемы современного педагогического образования, (71-2), 152-156. cyberleninka.ru
7. Щипицын, А. Я., Заварухин, Н. Е., Мочалов, Ю. А., & Торкай, Н. А. (2024). ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА КАЧЕСТВА СНА СТУДЕНТОВ ЮЖНО-УРАЛЬСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МЕДИЦИНСКОГО УНИВЕРСИТЕТА. В журнале представлены научные обзоры, статьи проблемного и научно-практического характера, 72. science-medicine.ru

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI O‘QUVCHILARNI NUTQINI O‘STIRISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Qo‘ychiyeva Zarnigor Abdumannob qizi
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti mustaqil izlanuvchi “Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi” (boshlang‘ich ta’lim) (PhD).

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar nutqini o‘stirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari ,bu borada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi zamonaviy texnologiya bilan tanishtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy malaka, fanlararo aloqa, boshlang‘ich sinf, ta’lim metodlari, shakllanish, mezonlar, ko‘rsatkichlar, darajalar.

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF IMPROVING METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS TO DEVELOP STUDENT SPEECH

Qo‘ychiyeva Zarnigor Abdumannob qizi
independent researcher Toshkent State Pedagogical University “Educational theory and methodology” (primary education) (PhD).

Abstract: The article aims to reveal the promising directions of improving the methodical preparation of future primary school teachers for the development of students’ speech, in this regard, the importance of innovative approaches aimed at introducing new modern technology to future primary school teachers in the higher education system.

Keywords: speaking skills, interdisciplinary communication, elementary school, educational methods, formation, criteria, indicators, levels.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К РАЗВИТИЮ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Қўйчиева Зарнигор Абдуманноб қизи,
независимый исследователь Тошкентский государственный педагогический университет «Теория и методология образования» (начальное образование) (PhD).

Аннотация: Целью статьи является раскрытие перспективных направлений совершенствования методической подготовки будущих учителей начальных классов к развитию речи учащихся, в связи с этим подчеркивается важность инновационных подходов, направленных на ознакомление будущих учителей начальных классов с новыми современными технологиями системы высшего образования.

Ключевые слова: речевые навыки, межпредметная коммуникация, начальная школа, методы обучения, формирование, критерии, показатели, уровни.

“Shoirlar tug‘iladilar, ular notiq bo‘ladilar”, deydi Tsitseron. Zamonaviy universitetning har qanday bitiruvchisi notiqlik mahoratini, malakali, mantiqiy ishonchli nutq texnikasini va so‘z madaniyatini egallashi lozim[1].

Hozirgi sharoitda oliy ta’lim o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyor, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan, to‘g‘ri, ifodali, obrazli nutqdan foydalangan holda ma’lumotlarni mohirona yetkaza oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga imkon beradigan moslashuvchan, bo‘lishi lozim. Bu omillar umumiy madaniy, umumiy kasbiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish zaruratini oldindan belgilab beradi. Pedagogik ta’limi mazmunidagi o‘zgarishlar voqeliklarga, fan yutuqlariga mos kelishi va bir qator shartlarni hisobga olishi kerak:

- hayot bilan, nazariyalarning amaliyot bilan aloqasini mustahkamlash;
- kasbiy tayyorgarlikning barcha tarkibiy qismlarini birlashtirish;
- umumiy pedagogik, filologik va maxsus yo‘nalishdagi bilimlarning zaruriy nisbatini aniqlashi

lozim[6].

O‘qituvchining turli fanlarni o‘qitishdan maqsadi o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun namunadir. O‘quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo‘lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e’tibor berish zarur.

To‘g‘ri va ifodali gapirish har bir o‘qimishli kishi uchun hayotiy zaruriyat bo‘lib qolgan hozirgi davrda o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatini oshirish muammosi o‘quv-tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biri deb qaralmog‘i kerak. Shuning uchun ham olimlar K.B. Barxin, B.I. Sokolov M.A. Ribnikova va boshqalarning metodik asarlarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘zaro muvofiq holda oshirish masalalariga alohida e’tibor berilgan. Olimlar tomonidan maktabda o‘qitish jarayonida ro‘y berayotgan quyidagi kamchiliklar tanqid qilinadi:

1. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi og‘zaki nutqning hayotiy ahamiyatini hali ham yetarli tushunmayaptilar. Shuning uchun ular maktab maxsus og‘zaki nutqiy qobiliyatlarni oshirish mashqlari o‘tkazishga muhtoj emas, deb hisoblab xato qilmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar, o‘quvchi mukammal, bexato yozishni o‘rganib borsa, ularning nutqi o‘z-o‘zidan o‘sib boradi, deb hisoblab amalda og‘zaki va yozma nutqning aloqadorligini unutib qo‘yadilar.

2. O‘quvchilarning nutqi mazmun jihatdan nihoyatda kambag‘al va qator kamchiliklarga ega. Chunki yuqori sinflarda o‘qituvchi nutq masalasiga e’tibor bermaydi[2].

Shuning uchun o‘qitish jarayonida o‘quvchilar nutqiy qobiliyat va tafakkurni o‘stirish, nutq madaniyatini shakllantirish uchun o‘qituvchilarga quyidagi tavsiyalardan foydalanish joiz deb hisoblayman:

1. Har bir o‘qituvchi o‘quvchi nutqiy qobiliyatini o‘stirishga mo‘jallangan xilma – xil metodik shakl va usullardan foydalanishi.

2. O‘quvchilar uchun og‘zaki nutqiy qobiliyatlarni o‘stirishga mo‘ljallangan mashqlar tizimini tashkil qilish.

3. O‘quvchilar og‘zaki nutqni o‘stirishga mo‘ljallangan mashqlar tizimida monologik va dialogik nutq ko‘nikmasini hosil qilish.

Endilikda nutq odobi, nutqiy mahorat, notiqlik, notiqlik mahorati maktablar hayotidan keng o‘rin olmog‘i lozim. Ayniqsa, o‘qituvchining nutqida ifodalilik yetarli bo‘lsa, albatta, bunday nutq bolalar nutqiga ham ta’sir etadi.

Muloqot madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, kishilar o‘rtasidagi tinchlik va osoyishtalikning eng muhim tamal toshi ekanligi avvaldan ma’lum.

Zero, barcha ma’naviy axloqiy fazilatlarning poydevori, tushunchalari, ko‘nikmalari bolalikdan tarkib toptirilsagina, bu poydevor barqaror bo‘ladi. Ma’naviy axloqiy fazilatlar tarkibida nutq, muloqot, munosabat madaniyati alohida o‘rin tutadi. O‘quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu o‘qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o‘quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi[3].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq qobiliyatni shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi(1-rasm):

1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda nutqiy qobiliyatni oshirish bosqichlari

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq rivojining tarbiyasi shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish va o‘quvchilar nutqining ravonligini rivojlantirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqning o‘sishini mustaqil tahlil qilish, o‘zaro har tomonlama tavsifnomalar, o‘qituvchining kuzatishlari asosida amalga oshadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida nutq muomalasi haqida, ”Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?” mavzusida suhbat o‘tkazish.

2. Nutqiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilingan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni yengish.

3. Nutqda pedagog uchun muomalaning hissiy jihatdan qulay bo‘lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlari bilan taqqoslash.

4. Nutqiy muomalada o‘z individual uslubiy pedagogik muomalaning tarkibiy qismlarini egallash sohasidagi ishlar[6].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini rivojlantirishda nafaqat yodlash, so‘z ma’nosini tushuntirish yoki ertaklarni qayta aytib berish kabi usullardan foydalanadi, balki ular uchun qiziqarli mashg‘ulot,

ayniqsa, ko‘zlangan maqsad bo‘lgan interfaol metodlardan foydalanish yuqori natijalarga erishishda katta yordam beradi. Interfaol ta’lim texnologiyalarining asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, «o‘qituvchi –o‘quvchi– o‘quvchilar guruhi»ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi[5].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy qobiliyatlarni oshirishda yod oldirish, so‘zlarning ma’nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo‘lgan o‘yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko‘zlangan maqsad, yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki o‘yin maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, o‘yin dunyoni va o‘zlikni anglashda, bog‘lanishli nutqni o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi[4]. Darslarda o‘quvchilar zo‘r qiziqish bilan ishtirok etadigan bir nechta interfaol o‘yinlardan namunalar keltiramiz.

”Hikoya” – o‘qituvchi xattaxtaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob kabi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Bunda ularning lug‘at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to‘g‘ri tuzish, tovushlarni to‘g‘ri tallaffuz qilish, ijodiy va mustaqil fiklash qobiliyati shakllanadi. O‘qituvchi faol ishtirokchilarni vaqti - vaqti bilan rag‘batlantirib borishi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi va bundan - da faol bo‘lishiga undaydi. Mazkur o‘yinlar darsdan tashqari mashg‘ulotlarda va to‘garaklarda ham bemalol foydalanish mumkin.

“Qarama-qarshi so‘zlar.” Bu o‘yin mantiqiy tafakkurning hamda nutqnining rivojlanishiga yordam beradi . O‘yinni individual tarzda ham, guruh bilan ham o‘tkazish mumkin. O‘yin sharti quydagicha: o‘qituvchi bola yoki o‘quvchiga bir so‘zni aytadi, o‘quvchi shu so‘zning ma’nosiga qarama - qarshi bo‘lgan so‘zni topib aytishi kerak. Masalan: katta - kichik, issiq - sovuq, achiq - shirin, qorong‘u - yoruq, keng-tor, uzoq-yaqin va hokazo. Odatda bolalar o‘yin boshida biroz qiynalshadilar, aytilgan so‘zga javoban antoni so‘zni emas, sinonim so‘z bilan javob beradi, masalan: katta - baland, uzun - uzoq kabi. Ammo o‘yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so‘ng o‘quvchilar yaxshi o‘ynaydilar. O‘yin bir necha marta o‘tkazilganidan so‘ng o‘quvchilar abstrakt tushunchalarni ham osonlik bilan tushunadilar va javob beradi, shunda o‘quvchilarning nutqi ham rivjlana boradi, masalan: chaqqon - yalqov, ishchan - dangasa kabi so‘zlarga ham tez javob topa oladi.

”To‘rtinchisi ortiqcha. Bu o‘yin rasmlarsiz o‘ynaladi. O‘quvchiga yoki bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytiladi. Masalan: atirgul, boychechak, binafsha, qo‘ziqorin. O‘quvchi ular orasidan ortiqchasini aytganidan so‘ng undan fikrini asoslab berishi so‘ralishi kerak. Bu o‘yinlar o‘quvchilarning tafakkuri rivojlanishiga yordam berishi bilan birga nutqning o‘sishiga ham yordam beradi.

O‘yin individual tarzda o‘tkazilsa ham yaxshi samara beradi, guruhda musobaqa ko‘rinishida o‘tkazilsa o‘quvchilarning qiziqishi yanada ortadi.

Key words: “Conflict”, agonistic (compromising), antagonistic (uncompromising), labor collective, pedagogical conflict, manager, worker.

Kirish. Dunyo ta’lim tizimida global o‘zgarishlar natijasida erkin fuqaro shaxsini tarbiyalashga bo‘lgan e’tibor insonlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llash, gumanizm, tolerantlik, ijtimoiy intellekt, boshqalar bilan o‘zaro munosabatda kommunikativlik kabi fazilatlarni rivojlantirishga qaratilmoqda. Ta’lim oluvchilarning ijtimoiy tajriba orttirishi uchun ulardagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish, shaxslararo munosabatlarda kirishimlilik, madaniyatlilik, kengfe’llik, xushmuomalalikni maromiga yetkazish prinsiplariga amal qilish, mazkur sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikalarni ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Inson o‘z hayotida bolalik davridanoq boshqa insonlar bilan turli ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Inson hayoti boshqalar bilan bo‘ladigan turli munosabatlarning uzluksizligidan iborat bo‘lgan jarayondir. Ana shu munosabatlar esa har doim ham bir tekis, silliq va tinch davom etavermaydi. Hayotning bir tekis davom etishini turli nizo va ziddiyatlar buzib turadi. Biz ularni konfliktlar deb ataymiz.

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo‘lgan o‘ziga xos jarayon bo‘lib, hech bir inson o‘zini komil ishonch bilan ziddiyatli vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o‘z hayoti davomida konfliktlar bilan to‘qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo‘lib, konflikt bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir.

Konfliktlar keyinchalik oilada, yaqinlar, do‘stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o‘rtasida, kasbiy faoliyatda, shuningdek, pedagogik faoliyatda ham vujudga kelishi mumkin.

“Konflikt” atamasi “nizo” tushunchasining dastlabki ekvivalenti sanaladi.

Pedagogik konflikt ijtimoiy hayotdagi ko‘p uchraydigan holat hisoblanib, tabiiyki jamiyatning kuchli ijtimoiy munosabatlari to‘plangan bo‘laklari maktab, oliy va o‘rta maxsus ta’limda ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Ta’limda o‘z “Men”ini qattiq hurmat qilishga odatlangan o‘quvchi va talabalar orasida konfliktli munosabatlarni bo‘lishi tabiiy xodisadir, lekin amaliy ko‘nikmalarga, kuchli tayyorgarlikka ega bo‘lmagan pedagog yoki rahbarlar ham konfliktli munosabatlarni vujudga kelishiga sharoit yaratib berishi mumkin.

Pedagogik konfliktni pedagogika va psixologiya fanlari bir-biri bilan uzviy holda o‘rganadi va hal qiladi. Ularning har ikkisi, bitta umumiy jarayonni - insonni psixik faoliyati xamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi.

Bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixologik tayyorgarliksiz auditoriyaga kirishi mumkin emas. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur. Shaxsni shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar va jamiyatning roli juda kattadir. Chunki, ijtimoiy muhitdagi turli xodisalar odamning ongiga bevosita ta’sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi. O‘qituvchi shularni hisobga olgan holda bolalarni psixikasini va harakterini o‘rganishi va shu asosda o‘qitishning aniq va izchil tizimini ishlab chiqishi lozim.

Psixologiyadagi mavjud 4 ta temperamentni pedagog yaxshi bilishi zarur, chunki ana shu tushunchalar ta’lim tizimidagi pedagogik ziddiyatlarni oldini olishning asosiy omilidir.

Ta’lim-tarbiyaning samarasi, ta’sirchanligi, avvalo o‘qituvchiga, uning bilim saviyasiga, kasbiy tayyorgarligiga va pedagogik mahoratiga bog‘liqdir. O‘qituvchi ijodiy fikrlovchi: umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan bo‘lishi, o‘z kasbi va bolalarni yaxshi ko‘radigan insonparvar adolatli, talabchan, odobli, har bir o‘quvchisi ulg‘ayib kelajakda yaxshi inson bo‘lishiga ishonadigan, ularning barkamol shaxs, ishbilarmon kishi bo‘lib yetishishiga ko‘maklashadigan mutaxassis bo‘lmog‘i lozim.

Pedagogik konfliktni yuzaga keltirmasligi uchun o‘qituvchi nozik psixolog va mohir pedagog bo‘lishi lozim. Tarbiyachi nazariy bilimlari va pedagogik sezgirligi vositasida o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan oson aloqaga kirishadi, maktabda va undan tashqarida birgalikdagi faoliyatni mohirlik bilan uyushtiradi, tarbiyalanuvchining fikri, tuyg‘usi va irodasini bevosita va bilvosita boshqarish san’atini egallagan bo‘ladi.

Tarbiyalanuvchi muomala odobini asosan tarbiyachi timsolida anglab oladi. Ustoz tarbiyalanuvchi uchun bir umrga sevimli, ideal, ibrat, namuna bo‘lib qolishga muyassar bo‘lmog‘i lozim.

Pedagogik konfliktlarning kelib chiqish sabablari guruhdagi har bir shaxsning fe’l-atvoridagi xatti-harakatlarida shaxsga mansub bo‘lgan millat, xalq, hudud xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

Konfliktlarning namoyon bo‘lish turiga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin: agonistik (murosaga keladigan) va antagonistik (murosasiz).

Agonistik konfliktlar uchun quyidagilar xos:

1) konfrontatsiya (konflikt) - sotsial guruhlarning qarama-qarshi siyosiy, ekologik, sotsial manfaatlarga passiv qarshi turishi. Konfrontatsiya ochiq to‘qnashuv shaklini olmaydi, ammo farqli qarashlar mavjudligini ko‘zda tutib, raqobatga o‘sib ketishi mumkin;

2) raqiblik - alohida odam yoki biron-bir jamoat yutuqlari va imkoniyatlari e’tirof etilishi uchun kurash. Raqiblik maqsadi –yaxshiroq sotsial pozitsiyaga ega bo‘lish, e’tiborli yutuklarga erishish. Raqiblik rivojlanib, raqobatga o‘tishi mumkin.

3) raqobat - konfliktning alohida toifasi bo‘lib, undan maqsad biron-bir foyda, daromad ko‘rish yoki kamyob ne’matlarga erishish.

Antagonistik konfliktlarning quyidagi turlari mavjud:

1) norozilik - mavjud holatdan aniq ifodalanmagan holda norozilik bildirish. Avvaliga asabiylashuv

paydo bo‘lib, ziddiyatli vaziyatga o‘tib boradi. Noaniq maqsadlar nisbatan aniq ifodalangan talablarga aylanib, lekin norozilik tashkilotchilarining istaklari hamisha ham tushunarli emas, ya’ni ularning irodasi aniq ifodalanmagan. Norozilik o‘sib, g‘alayon yoki qo‘zg‘olonga o‘tib ketishi mumkin;

2) g‘alayon - shaxs yoki jamoa agressiyasining jamoaviy norozilikni yuksak darajada uyushtirgan holda agressiv tarzda ifodalash;

3) qo‘zg‘olon - shaxs yoki jamoa agressiyasining jamoaviy norozilikni yuksak darajada uyushtirgan holda muayyan maqsadga qarata ifodalash;

4) inqilob - konfliktning oliy shakli, ko‘rinishi bo‘lib, norozilikning eng so‘nggi shakli, mavjud tuzumni siyosiy ag‘darib tashlash yo‘li, sotsial-iqtisodiy tartibning sifat jihatidan o‘zgarishini anglatadi. Odatda, inqilob harakatning zo‘ravonlik ishlatgan holdagi harbiy usulini va keng ommaning jalb etilishini nazarda tutadi.

Konfliktlar turli joylarda sodir bo‘lishi mumkin. Mana shunday konfliktlardan biri mehnat jamoasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan konfliktlardir.

Jamoada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan konfliktlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib shu jamoada ishlayotgan barcha xodimlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Mehnat jamoasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan konfliktlar quyidagilar

1) sizdan tashqarida, ya’ni ziddiyat sizning manfaatlaringizni o‘zida jam qilmagan,

2) unga siz ham tortilgan, ya’ni sizning manfaatlaringiz konflikt orqali buzilayotgan yoki aksincha, sizning manfaatlaringiz yutib chiqayotgan

3) alohida holda siz va sizning hamkasbingiz, siz va sizning rahbaringiz o‘rtasida

4) umuman butun jamoa orasida vujudga kelishi mumkin.

Jamoadagi konflikt kim o‘rtasida sodir bo‘layotganligiga karamay mana shu jamoada ishlayotgan xodimlarning barchasini o‘z domiga tortib ketadi.

Nima sababdan mexnat jamoalarida turli xil ziddiyatlar kelib chiqishining bir necha sabablari bor:

- alohida shaxs va jamoatchilik manfaatlarining mos kelmasligi;
- ayrim alohida jamoa a’zolari xatti-harakatlarining ijtimoiy, ruhiy normalarga zid kelishi (tartibsizlik, intizomning buzilishi, ishning samarasizligi va hokazo);
- jamoa a’zolari qarashlaridagi nomuvofiqliklar;
- ishni tashkil etish va mehnatga munosabatdagi farqlar;
- ishchi xodimlar o‘rtasidagi vazifalarning to‘g‘ri taqsimlanmaganligi va hokazo.

Jamoada vujudga kelgan turli xil konfliktlarga nisbatan passiv emas, faol yondoshgan ma’qul. Rahbar o‘zini bir tomonning yonini olgan yoki ikkinchi tomon uchun bo‘ysungan holda emas, balki avval konfliktli vaziyatni vujudga keltirgan muammoni aniqlashga sayi-xarakat qilishi kerak. Butun jamoa diqqatini shaxslararo munosabatlarni taftish qilishga emas, balki muammoni aniqlashga, uning yechimini qidirishga, tomonlarning har birining manfaatlarini o‘zaro yaqinlashtirishga, har ikki tomonni ham o‘zaro qoniqtiradigan yechimga olib kelishi kerak.

Mehnat jamoasida xodimlar o‘zaro bir-birlarini hurmat qilish va bir-birlariga zarar yetkazmaslikka harakat qilib ishlaydilar. Ammo shunga qaramasdan ba’zan ular o‘rtasida, ko‘proq jamoa rahbarining o‘z qo‘lidagi xodimlarga nisbatan jamoa etikasining buzilishi natijasida muammoli xolatlar uchrab turadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

1) rahbarning o‘z qo‘lida ishlayotganlarga nisbatan dimog‘dorligi, ya’ni o‘z rahbarlik lavozimini suiste’mol qilgan hollarda rahbarlik qilish tartibini buzishi;

2) o‘zini katta tutishi, ularni behurmat qilishi;

3) berilgan va’dalarni bajarmaslik;

4) o‘z fikrlaridan o‘zgacha bo‘lgan qarashlarni yoqtirmaslik, qo‘l ostidagi xodimlarning fikrlarini inkor etishi va ta’qib ostiga olishi;

5) tanqidli fikrlarga yo‘l qo‘ymasligi;

6) o‘z qo‘lidagi xodimlar huquqlarini cheklashi;

7) xodimlarga ular mas’uliyatidan tashqari shaxsiy majburiyatlarni yuklashi va ularning bajarilishini talab etishi;

8) barcha uchun muhim bo‘lgan ba’zi ma’lumotlarni yashirib, ulardan jamoani bexabar qoldirishi (masalan, shatatlar qisqarishi, mukofatlardan yoki chet elga ketish uchun kelgan komandirovka);

9) inson nafsoniyatini pastga uradigan tanqid bilan shug‘ullanishi;

10) xodimlar orasiga ataylab nifoq solib qo‘yishi;

11) xodimlarni guruh-guruh qilib, ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqarishi;

12) xodimning vaqtini tejamaslik (masalan, xodim agar rahbar bilan muhim masala yuzasidan maslahatlashmoqchi bo‘lsa, o‘zini bir necha kun “kutish”ga yoki uzoq vaqt kutishga majburlash);

13) xonasiga kirgan odam bilan o‘z qog‘ozlaridan ko‘z uzmay suhbatlashishi;

14) kirib kelgan odamga “o‘tirishni” taklif etmaslik va boshqalar [6, 44].

Jamoadagi konfliktni to‘g‘ri xal etishda boshqaruvchidan juda keng dunyoqarashga ega bo‘lishni, o‘ta sabrli, o‘tkir mulohazali, madaniyatli va ma’naviyatli bo‘lishni talab etadi.

Har bir chiqarilgan qaror jamoani tarqalib ketishiga yoki hamjihat bo‘lib ishlashiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun konflikt masalasiga shoshma-shosharlik qilmasdan, ishchilar tomonidan bildirilgan shaxsiy va ommaviy fikrlarga berilib qolmasdan chuqur tahlil qilish bilan yondashish lozim. Konflikt yechimini to‘g‘ri hal etish nafaqat jamoani, balki jamoaning xar bir a’zosini va uning yaqinlarini salbiy oqibatlardan saqlab qoladi, osoyishtaligini buzmaydi.

Pedagogik jarayondagi konflikt – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida muayyan masalalarni hal qilishda tomonlarning bir-biri bilan bir yechimga kela olmaganligi tufayli vujudga keladigan vaziyat. Ta’lim jarayonidagi ziddiyatlar, ziddiyatlar ta’lim sub’ektlari ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi va ularning faoliyatini pasaytiradi, guruhdagi “ruhiy iqlim”ni muvozanatdan chiqaradi, o‘quvchilar qo‘nimsizligini ko‘paytiradi. Shuning uchun bu masalalarga doimo e’tibor berish, ta’lim olayotgan guruhlarni boshqarishni, o‘quvchilar turg‘unligini ta’minlovchi shartlardan biridir. Bu o‘rinda, pedagogik jamoada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan (qarashlar, ilmiy, uslubiy jihatdan nomuvofiq g‘oyalar to‘qnashuvi ko‘rinishida) va shaxsiy (raqobatchilik ko‘rinishida) ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan texnologiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifa pedagoglar jamoasi, psixologik xizmat orqali, fan o‘qituvchilarining mahorati, ularning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko‘nikma va malakasi, maxsus bilimi yordamida amalga oshirilib, didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga molik muammolarni pedagogik konfliktologiya orqali hal qilish imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova M.T., Rashidov X,.F. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish dars intizomini yaxshilash omili sifatida. Maktab va xayot.-T.: 2015.1-son.

2. Axmedova M.T., Shayzakova N.S Nizolarning yuzaga kelishdagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari. Maktab va xayot.-T.: 2014.2-son. -B. 24.

3. Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari, asosiy tushuncha va tamoyillari. O‘quv qo‘llanma. 2015.

4. Abrams G.C. Handling Conflicts. Conflicts: a positive approach. Particirant’s manual. Peace Education Foundation. Inc.,Miami, Florida, 1997;

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Саиджалалова Сайёра Мирсадиковна
Совместный Белорусско-Узбекский межотраслевой институт прикладных технических квалификаций в городе Ташкенте, первый проректор по работе с молодежью, духовности и просветительству, (PhD)

Аннотация. В статье говорится о том, что овладение иностранными языками в соответствии с требованиями современного общества ставит новые задачи перед методикой преподавания иностранных языков. Систематичность развития стратегических действий по совершенствованию доступности качественных образовательных услуг во всем мире, подготовка высококвалифицированных кадров в соответствии с современными требованиями рынка труда создают возможность интеграции науки, образования, производственных отношений, что создаёт уникальную возможность развития эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику обучения.

Ключевые слова. Педагогические технологии, языковой портфель, педагогическая наука и практика, самооценка, мотивация, речевая компетенция

PEDAGOGIK UNIVERSITETLARDA RUS TILI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sayyora Mirsadikovna Saidjalalova
Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik malaka instituti yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha birinchi prorektori, (PhD)

Annotatsiya. Maqolada aytilishicha, chet tillarini zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq o'zlashtirish chet tillarini o'qitish metodikasiga yangi qiyinchiliklar tug'diradi. Dunyo bo'ylab yuqori sifatli ta'lim xizmatlari mavjudligini yaxshilash bo'yicha strategik harakatlarning tizimli rivojlanishi, zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash fan, ta'lim va ishlab chiqarish munosabatlarini birlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu esa ilmiy va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish uchun noyob imkoniyat yaratadi. ta'lim amaliyotidagi yutuqlar.

Kalit so'zlar. Pedagogik texnologiyalar, til portfeli, pedagogik fan va amaliyot, o'z-o'zini baholash, motivatsiya, nutq qobiliyati

USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN PEDAGOGICAL UNIVERSITIES

Sayyora Mirsadikovna Saidjalalova
Joint Belarusian-Uzbek Intersectoral Institute of Applied Technical Qualifications in Tashkent, First Vice-Rector for Youth Work, Spirituality and Education, (PhD)

Annotation. The article says that mastering foreign languages in accordance with the requirements of modern society poses new challenges to the methodology of teaching foreign languages. The systematic development of strategic actions to improve the availability of high-quality educational services worldwide, the training of highly qualified personnel in accordance with modern labor market requirements create the opportunity to integrate science, education, and industrial relations, which creates a unique opportunity to develop effective mechanisms for the introduction of scientific and innovative achievements into the practice of education.

Keywords. Pedagogical technologies, language portfolio, pedagogical science and practice, self-assessment, motivation, speech competence

*XXI век характеризуется прежде вс*его глобальными интеграционными процессами, предъявляющими свои требования процессу обучения. Современному обществу нужны высококвалифицированные специалисты в любой отрасли производства и науки, способные

представлять интересы своей организации и своей страны на международной арене, что выдвигает на первый план непременное знание иностранных языков. Овладение иностранными языками в соответствии с требованиями современного общества ставит новые задачи перед методикой преподавания иностранных языков. Систематичность развития стратегических действий по совершенствованию доступности качественных образовательных услуг во всем мире, подготовка высококвалифицированных кадров в соответствии с современными требованиями рынка труда создают возможность интеграции науки, образования, производственных отношений, что создаёт уникальную возможность развития эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику обучения.

В развитых странах мира одной из главных задач на современном этапе в подготовке высококвалифицированных кадров уделяется внимание научному обоснованию содержания и качества обучения иностранным языкам. Цифровизация образовательного процесса в высших учебных учреждениях этих стран осуществляется на основе научно-теоретических исследований в области совершенствования технологий обучения естественным, точным и гуманитарным дисциплинам, в том числе и изучению иностранных языков, отвечающим требованиям рыночной экономики и потребностям работодателей, развитию духовной и личностной сферы педагогических кадров.

В настоящее время проблема изучения русского языка остается жизненно важной и актуальной на постсоветском пространстве, в том числе и в Республике Узбекистан. В республике проводятся непрерывные образовательные реформы, ориентированные на стимулирование научно-исследовательской и инновационной деятельности выпускников, создана развитая правовая база системы образования для повышения качественного уровня подготовки кадров, расширения высшими образовательными учреждениями сотруднических связей с ведущими научно-образовательными учреждениями мира. В подготовке специалистов высокого профиля для народного хозяйства, науки и культуры изучение русского языка представляет собой приоритетное направление, имеющее свои специфические трудности и проблемы.

Государственная политика в языковой сфере базируется на принципах равноправия всех языков, независимо от численности и характера расселения носителей языка. Ввиду того, что в обновляющемся Узбекистане вступило в жизнь совершенно новое поколение студенческой молодежи с совершенно новыми ценностными установками, жизненными ориентирами, важнейшей задачей образовательной деятельности является: «переведение человека из мира повседневности в мир культуры», и главную роль в этом процессе должны играть и высшие учебные заведения. Статус и законодательные основы функционирующих в Узбекистане языков предопределены Законом «О государственном языке». Придание узбекскому языку статуса государственного языка не ущемляет конституционных прав наций и народностей, проживающих на территории республики, в употреблении родного языка. Закон устанавливает правовое положение и регламентирует применение государственного и других функционирующих на территории республики языков, обеспечивает правовые гарантии их свободного функционирования. Государственным языком республики Узбекистан признан узбекский язык, однако на территории республики обеспечивается развитие и свободное пользование русским языком как языком межнационального общения. Создаются благоприятные условия для развития национально-русского и русско-национального языкового общения.

Республика Узбекистан обеспечивает уважительное отношение к языкам всех наций и народностей, проживающих на ее территории, создает условия для развития этих языков. В Узбекистане действует более 10 тыс. средних школ, из которых в 900 преподают на русском языке. В настоящее время интенсивно идут политические и экономические процессы сближения стран Центральной Азии, где русский является эффективным языком сотрудничества. Современная действительность характеризуется бурным ростом межнациональных контактов и повышением индивидуальной профессиональной мобильности. Сегодня требования к квалифицированному специалисту подразумевают уверенное владение им даже не одним, а несколькими иностранными языками. В результате особую актуальность приобретает вопрос использования педагогических технологий при обучении русскому языку как иностранному в педагогических вузах.

Несмотря на достаточную разработанность проблемы применения технологии языкового портфеля в учебном процессе, недостаточна и практика его использования. Это определяет

актуальность выбранной нами темы исследования. В результате особую актуальность приобретает вопрос использования педагогических технологий при обучении русскому языку как иностранному в педагогических вузах.

В Указах и Постановлениях главы государства обозначены ориентиры, указывающие на повышение эффективности и качества обучения. Настоящее исследование, в определенной степени, служит решению задач, намеченных в Законе «Об образовании» Республики Узбекистан; Указа Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 г. № УП-158 «О стратегии - 2030»; Указ Президента Республики Узбекистан, от 21.02.2024 г. № УП-37 «О государственной программе по реализации стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса»»; Указа Президента Республики Узбекистан от 28.02.2023 г. № УП-27 «О государственной программе по реализации стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования»; Указа Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»; Указа Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2024 года № УП-81 «О совершенствовании системы приема на учебу в высшие образовательные организации и размещения государственного заказа».

Вопросы изучения технологии Европейского языкового портфеля представлены в публикациях А. Криста, Ф. Дебюзера, А. Добсона, Дж. Трима, Г. Шнайдера, П. Ленца, Д. Литлла, Р. Шерера. В России версия Европейского языкового портфеля была разработана в 2003 году в рамках проекта Совета Европы по швейцарской модели «Языкового портфеля» с использованием «Общеевропейских компетенций».

В последующем вопросами использования данной образовательной технологии в области обучения иностранным языкам посвятили свои исследования Е. И. Пассов, Е. С. Полат, Н. Ф. Коряковцева, Н. Д. Гальскова, Е. В. Ковалевская. В. И. Загвязинский, В. В. Краевский, А. М. Новиков, В. М. Полонский;Е. В. Бондаревская, Т. И. Власова, В. В. Сериков, О. Д. Федотова, В. Т. Фоменко, И. С. Якиманская, В. И. Байденко, А. Г. Бермус, В. А. Болотов, И. А., Зимняя, Т. Е. Исаева, Б. В. Сазонов, В. В. Сериков, А. В. Хуторской, Т. А. Дмитренко, Н. Д. Гальскова, Н. Н. Гавриленко, Л. С. Выготский, И. А. Зимняя, Т. Е Сахарова, О. С. Круглова, Е. С. Полат. П. Беспалько, Х. М. Инусова, В. М. Кроль, А. А. Вербицкий, Д. Г. Левитес, С. И. Архангельский, Л. С. Выготский, А. А Вербицкий, Ю. К. Бабанский, В. П. Беспалько, Лернер, Г. А. Щукина, Д. Б. Эльконин, С. Г. Тер-Минасова, С. И. Архангельский, И. Л. Бим, И. Mandl Heinz и др.), деловых игр (А. А. Вербицкий, Г. А. Китайгородская, Н. И. Гез, Е. С. Полат, Ю.Д. Бабаева, Б. С. Гершунский, А. В. Горячев, T. Simkins, D. Cofer, J. Cross, P. Kirschner, J. Sweller, R. Clark, G. Wallace.

Анализ существующей литературы указывает, что в нашей стране вопрос использования технологии «языковых портфелей» при обучении русскому языку как иностранному в педагогических вузах с современных позиций обучения специально не исследовался.

Цель исследования состоит в обосновании использования технологий «языковых портфелей» при обучении русскому языку как иностранному в педагогических вузах.

Задачи исследования:

–теоретически обосновать использование технологий «языковых портфелей» при обучении русскому языку как иностранному в педагогических вузах;

– усовершенствовать модель обучения русскому языку с аппеляцией на развитие речевых компетенций посредством технологии «языковых портфелей».

В современных условиях преподавание иностранного языка требует от преподавателя активного применения различных педагогических технологий, творческого подхода. Дидактическая система, основанная на личностно-ориентированном подходе к обучению, включает в себя широкий спектр современных педагогических технологий.

Технология «Языковой портфель» логично вписывается в систему современных педагогических технологий, ориентированную на личность обучаемого.

[Р. С. Полесюк] Европейский языковой портфель разрабатывался под эгидой Совета Европы и начал использоваться в европейских странах с 1998 года. Исходя из положений Сорбонской декларации и Болонской конвенции, проект «Языковой портфель в многонациональной и поликультурной Европе» призван обеспечить преемственность содержания языкового образования

в разных образовательных учреждениях и на разных этапах обучения.

Европейский языковой портфель позволяет оценить, в какой степени человек способен общаться на иностранном языке, а также проинформировать других о его языковой компетенции в терминах, принятых Советом Европы и понятных на всем Европейском пространстве. В официальной брошюре Совета Европы можно найти шкалу уровней для самооценки, которая сейчас принята в большинстве европейских стран. В этом документе закрепляется разделение языковых умений на три последовательных уровня (A1 - Выживание; A2 - Допороговый; B1 - Пороговый; B2 - Пороговый продвинутый; C1 - Высокий; C2 - Владение в совершенстве), на каждом из которых оцениваются понимание (аудирование и чтение), говорение (монолог и диалог) и письмо (собственных текстов разного назначения). Концепция языкового портфеля и его технологии для обучения иностранным языкам заимствованы из сферы искусства и психоанализа, где подобные технологии и наличие портфолио рассматриваются как средство, позволяющее создать целостный портрет личности на основании персональных характеристик, которые его обладатель самостоятельно оценивает и отражает в этом документе.

Технология использования системы уровней владения языками на основе использования «языкового портфеля» предполагает повышение статуса обучающегося в образовательном процессе, осознание им личной ответственности за результаты обучения (автономности обучаемого), рост мотивации при изучении языка.

«Языковой портфель»- это технология, которая позволяет преподавателю решить следующие ключевые задачи при обучении языку:

– мотивирует студентов к изучению иностранного языка;

– повышает ответственность студентов за результаты учебного процесса;

– способствует формированию умения самостоятельно оценивать

собственные достижения;

– позволяет найти индивидуальный подход к студентам.

Языковой портфель — это пакет рабочих материалов, отражающий опыт и результат деятельности обучаемого.

Он позволяет равноправным участникам образовательного пространства самостоятельно или совместно анализировать и оценивать объем работы и спектр достижений в области сформированности языковой, речевой компетенций; формирует у студентов способности к объективной самооценке.

Использованная литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 г. № УП-158 «О стратегии - 2030»
2. Указ Президента Республики Узбекистан, от 21.02.2024 г. № УП-37 «О государственной программе по реализации стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса»»
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 28.02.2023 г. № УП-27 «О государственной программе по реализации стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования»
4. Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года
№ УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»
5. Указа Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2024 года № УП-81 «О совершенствовании системы приема на учебу в высшие образовательные организации и размещения государственного заказа».
6. Гальскова, Н. Д. Методика. Теория и практика обучения иностранномуязыку / Н. Д. Гальскова, З. Н. Никитиенко. – М., 2004
7. Коняева Л. А., Чачиба М. Д. Подходы к созданию языкового портфеля как технология контроля сформированности лингвистической компетенции студентов Вестник КемГУ № 2 (46) 2011
8. Лабазина Л. Н. Европейский портфель - средство оценки и самооценки знаний учащихся по иностранным языкам Ярославский педагогический вестник. 2003. №2(35). С-2
9. Полат, Е. С. Портфель ученика / Е. С. Полат // ИЯШ. – 2002 – № 1 – С. 22 – 27
10. Полесюк Р. С. Моделирование процесса языковой подготовки в вузе Вестник КемГУ № 4

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Safarova Nigora Nasilloyevna,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi o‘qituvchisi, p.f.f.d.,(PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqola, bo‘lajak o‘qituvchilarta’limidagikasbiykompetentsiyaningta’limsohasiga kirib kelishi va uning rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, shu bilan birga, kasbiy malakani rivojlantirish bo‘yicha strategiya va yondashuvlarni taklif etadi. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning mavjud holati va istiqbollarini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar bilan bir qatorda o‘qituvchilar roli, amaliy tajriba va baholash usullari va ushbu jihatlarni ko‘rib chiqish orqali ushbu maqola o‘qituvchilar ta’limi dasturlarini kuchaytirish va pirovardida yanada samarali hamda malakali o‘qituvchilarni tarbiyalash bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlarga hissa qo‘shishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, konstruktiv, individual, reflektiv, interfaol, metodologiya, integratsiya, ajam.

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Сафарова Нигора Насиллоевна,
преподаватель Бухарского академического лицея МВД Республики Узбекистан,
д.ф.п.н.,(PhD).

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы зарождения и развития профессиональной компетентности в педагогическом образовании, а также предлагаются стратегии и подходы к развитию профессиональной компетентности. Кроме того, в данной статье рассматривается роль учителей, практический опыт и методы оценки, и, учитывая эти аспекты, наряду с рекомендациями по улучшению текущей ситуации и перспектив профессионального развития будущих программ учителей и в конечном итоге способствуют усилиям по подготовке более эффективных и компетентных преподавателей.

Ключевые слова: Компетентность, конструктивность, индивидуальность, рефлексия, интерактивность, методология, интеграция, новичок.

STAGES OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Safarova Nigora Nasilloevna,
teacher of the Bukhara Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.


Abstract: This article examines the stages of the emergence and development of professional competence in teacher education, and also proposes strategies and approaches to the development of professional competence. Additionally, this article examines teachers’ roles, practice experiences, and assessment methods, and by considering these aspects, along with recommendations to improve the current situation and professional development prospects of future teacher programs and ultimately contribute to efforts to prepare more effective and competent teachers.

Key words: Competence, constructiveness, individuality, reflection, interactivity, methodology, integration, beginner.

Kirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish o‘quvchilarimizning yaxshi ta’lim olishi va ma’naviy-xarakterli shaxslar bo‘lishlari uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi.

Kompetensiya - lotincha “Competentia” so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nosi “inson yaxshi biladigan”, “tajribaga ega bo‘lgan” kabi ma’nolarni bildiradi. Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati [1, 35].

Kompetensiya muammosining ta’lim sohasiga kirib kelishi va uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kompetensiyaning rivojlanish bosqichlari.

O‘qituvchi bo‘lish oson ish emas. O‘quvchilarga samarali ta’lim berish va muvaffaqiyatga erishish uchun noyob ko‘nikma va malakalar to‘plamini talab qiladi. O‘qituvchining kasbiy malakasini oshirishning muhim jihatlaridan biri uning kasbiy kompetentsiyasidir. Bu ularning o‘zlari tanlagan ta’lim sohasidagi tajriba va malakasini izchil namoyish etish qobiliyatini, shuningdek, yangi ta’lim yondashuvlari va muammolariga moslashish qobiliyatini anglatadi.

O‘qituvchilarning kasbiy kompetentlikning asosiy tushunchasi o‘qituvchining o‘z darslarini samarali rejalashtirish, o‘tkazish va baholash qobiliyatidadir. Bu ular o‘rgatayotgan mavzuni chuqur tushunish, shuningdek, uni aniq va qiziqarli tarzda taqdim etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Tajribali o‘qituvchi o‘quvchilarining turli ehtiyojlarini qondirish uchun o‘zining o‘qitish strategiyalarini qanday moslashtirishni biladi va har bir shaxsga o‘rganish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini ta’minlaydi.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir [1, 47].

Asosiy qism. O‘qituvchilar uchun kasbiy kompetentsiya juda muhimdir. Bu, o‘qituvchilarning o‘zlarini rivojlantirish, yangiliklarni o‘rganish va o‘qish jarayonlarini yaxshilashga harakat qilishlariga qaratiladi. Quyidagi usullar o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish uchun yordam beradi:

1. O‘qitish va o‘rganishda yangi texnologiyalardan foydalanish: Masalan, elektron o‘quv dasturlari, interaktiv darsliklar, video darslar va boshqa texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘zlarini yangilash va o‘rganish jarayonlarini yaxshilash uchun imkon beradi.

2. O‘qitish metodikalarini o‘zgartirish: O‘qituvchilar o‘qitish metodikalarini yangilash va o‘qitish jarayonlarini yaxshilash uchun yaxshi yondashuvlar bilan tanishishlari kerak. Bunday yondashuvlar o‘qitishni sezilarliroq, o‘rganuvchilar uchun qiziqarliroq va o‘rganishni yaxshilashga imkon beruvchi texnikalar bilan ta’minlaydi.

3. O‘z-o‘zini rivojlantirish: O‘qituvchilar o‘z-o‘zlarini rivojlantirish, o‘rganish va o‘qitishni yaxshilash uchun o‘zlarining bilimlarini va kasbiy ko‘nikmalarini yangilashlari kerak. Bunday o‘z-o‘zini rivojlantirishning eng yaxshi usullari, kurslar, seminarlar, konferensiyalar va boshqa o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanishdir.

4. O‘qitishda hamkorlik qilish: O‘qituvchilar o‘qitishda hamkorlik qilishni o‘rganishlari va amalga oshirishlari kerak. Hamkorlik o‘qitish jarayonini yaxshilash, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va

o‘rganuvchilarning o‘zlashtirishiga yordam beradi.

5. Tahlil va baholash: O‘qituvchilar o‘zlarining o‘qitish jarayonlarini tahlil qilish, baholash va yangilash uchun ma’lumotlarni to‘plashlari kerak. Bunday tahlil va baholash o‘qitish jarayonini yaxshilashga, o‘rganuvchilarning o‘zlashtirishiga va o‘qituvchilar kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

6. O‘qitishda ijobiy tajribani oshirish: O‘qituvchilarning o‘qitishda ijobiy tajribani oshirish, yangi o‘qitish usullarini ishlatish, boshqa o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish va talabalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish, o‘qitish jarayonini yaxshilashga imkon beruvchi asosiy usullardan biridir.

Shu bilan birga, o‘qituvchilar kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun o‘z-o‘zlarini rivojlantirish va o‘qitishga qiziqish va iste’dodlarini saqlab qolishlarini ta’minlash uchun hamkorlik qilishadi. Bu, o‘qituvchilar uchun o‘z-o‘zlarini rivojlantirish va o‘qitishni yaxshilash imkonini oshiradi va o‘rganuvchilarning o‘zlashtirishiga yordam beradi.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi faqat uning fanidan bilimi va o‘qitish texnikasi bilan chegaralanmaydi. Bu ularning ijobiy va inklyuziv ta’lim muhitini yaratish qobiliyatini qamrab oladi, bu erda o‘quvchilar o‘zlarini qadrlash, hurmat qilish va o‘rganishga undaydilar. Sinfni samarali boshqarish, kuchli muloqot qobiliyatlari va o‘quvchilar bilan mazmunli munosabatlar o‘rnatish qobiliyatlari, bularning barchasi o‘qituvchining kasbiy malakasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [2, 133].

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish o‘qituvchilarga o‘quvchilarning turli ehtiyojlari va ta’lim uslublariga moslashish imkonini beradi. Har bir o‘quvchi sinfga o‘ziga xos qobiliyatlar, qiziqishlar va tajribalarni olib keladi. Mustahkam professional asosga ega bo‘lgan o‘qituvchilar har bir o‘quvchining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda individual yordam ko‘rsatib, yutuq va kamchiliklarini farqlashlari mumkin. Bunday moslashuvchanlik nafaqat ijobiy va inklyuziv ta’lim muhitini ta’minlabgina qolmay, balki o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantiradi va shu bilan akademik muvaffaqiyat potentsialini maksimal darajada oshiradi.

Kasbiy kompetentsiyaning yana bir muhim jihati - bu o‘quvchilar taraqqiyotini samarali baholash va o‘z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etish qobiliyatidir. Ushbu kompetentsiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilarning ta’lim natijalarini baholash uchun to‘g‘ri va ishonchli baholashlarni yaratishi mumkin. Bundan tashqari, ular baholash ma’lumotlarini to‘g‘ri talqin qilish va o‘quvchilar qo‘shimcha yordamga muhtoj bo‘lgan sohalarni aniqlash uchun tahliliy ko‘nikmalarga ega. Ushbu bilimlar bilan qurollangan o‘qituvchilar nafaqat o‘quvchilarning kuchli tomonlarini ta’kidlaydigan, balki yaxshilash bo‘yicha aniq takliflar va strategiyalarni taqdim etadigan konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etishlari mumkin. Bunday fikr-mulohazalar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va uzluksiz o‘qishni rag‘batlantirishda bebahodir. Ularning bevosita o‘quvchilarga ta’siridan tashqari, o‘qituvchilar o‘rtasida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish ham maktabda hamkorlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini muttasil oshirib borish orqali o‘z tengdoshlariga namuna bo‘lib, umrbod ta’lim va kasbiy o‘sish madaniyatini uyg‘otmoqda [3, 30].

Darslarni o‘rganish guruhlari va fanlararo jamoaviy loyihalar kabi hamkorlikda kasbiy rivojlanish imkoniyatlari jamoaviy fikrlash, aqliy hujum va g‘oyalar sintezini rivojlantirish orqali o‘qituvchilarga foyda keltiradi. Bu hamkorlik muhiti nafaqat ta’limning umumiy sifatini oshiradi, balki o‘qituvchilar o‘rtasida samarali o‘qitish amaliyotlari almashinuvini osonlashtiradigan qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqni yaratadi.

Bundan tashqari, kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish o‘qituvchilarga o‘z sohasida yetakchi bo‘lish imkonini beradi. O‘qituvchilar o‘z martabalarida ko‘tarilishlari bilan ular bo‘lim boshliqlari, o‘quv dasturlari koordinatorlari yoki o‘qituvchilar kabi etakchi lavozimlarni egallashlari mumkin. Ushbu etakchilik rollari ta’lim siyosatini chuqur tushunishni, tadqiqotga asoslangan amaliyotni va boshqalarni ilhomlantirish va maslahat berish qobiliyatini talab qiladi. Kasbiy kompetentsiya samarali etakchilik uchun asos bo‘lib, o‘qituvchilarga o‘z hamkasblarini yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi, bu esa butun ta’lim tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish o‘qituvchilar uchun axloqiy me’yorlar va kasbiy mahoratga rioya qilishlari uchun juda muhimdir. O‘qituvchilik kasbi adolat, hurmat va halollikni ta’kidlaydigan axloqiy tamoyillar to‘plamiga asoslanadi. Axloqiy dilemmalarni hal qilish uchun malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar barcha o‘quvchilar uchun sifatli o‘quv muhitini yaratishni ta’minlaydi. Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish o‘qituvchilarga kasbiy standartlarga rioya qilish, teng imkoniyatlarni

taqdim etish, xilma-xillikni qabul qilish va barcha o‘quvchilarning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi.

Rivojlangan professional malakaga ega o‘qituvchilar ota-onalar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik qilish uchun yaxshi jihozlangan. Ota-onalar va keng jamoatchilik bilan ijobiy hamkorlik o‘rnatish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun juda muhimdir. Kuchli kasbiy asosga ega bo‘lgan o‘qituvchilar aql-idrok bilan samarali muloqot qilishlari mumkin. Ota-onalar, ularning muammolarini hal qilish va ularni ta’lim jarayoniga jalb qilish. Sinfdan tashqari mazmunli aloqalarni o‘rnatish qobiliyati o‘quvchilarning ta’lim tajribasini oshiradi va ularning akademik va ijtimoiy-emotsional o‘sishini ta’minlaydigan qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini ta’minlaydi. Kasbiy kompetentsiya o‘qituvchilarga ma’lumotlardan xabardor bo‘lishda faol bo‘lish imkonini beradi [4, 320].

Xulosa. Ta’lim islohati va tendentsiyalari. Hukumatlar va ta’lim muassasalari muntazam ravishda o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, standartlashtirilgan baholash yoki texnologiya integratsiyasi kabi yangi islohat va tashabbuslarni amalga oshiradilar. Doimiy ravishda o‘z kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga intilayotgan o‘qituvchilar ushbu o‘zgarishlarni boshqarish, o‘qitish amaliyotini yangi talablarga moslashtirish uchun yaxshi jihozlangan. O‘zgarishlarni qabul qilish va yangi yondashuvlarni integratsiyalash orqali o‘qituvchilar yuqori ta’lim sifatini ta’minlaydi.

Foyalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

2.Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики. Альманах современной науки и образования. - № 5 (36). - С. 133-135.

3.Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.

4.Митина Л.М. (2004). Психология труда и профессионального развития учителя. - М.: Академия. - 320 с.

5.Қораев, С. (2016).Фанлараро узвийлик ва узаро алоқани таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари. “Таълим, фан ва ннновация”, 2(2), 45- 50.

6.Elmurzaeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. Psychology and Education Journal, 58(1), 1078-1084

7.Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and
interoperability. “Education, Science and Innovation,” 2 (2), 45-50.

8.Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. Academic Research in Educational Sciences, 1(3), 1281-1286.

MAKTABNING O`QUVCHI SHAXSI RIVOJIDAGI O`RNI VA O`QUV MOTIVATSIYASI

Suyunova Dildora Halim qizi
Termiz davlat universiteti talabasi

Kayumova Go`zal Narzullayevna
Termiz davlat universiteti o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bola hayotining asosiy qismini o`tkazadigan, ilm olib, yangi bilimlarni egallaydigan muqaddas maskan-maktab va unda o`quvchi shaxsining rivojlanishi to`g`risida bo`lib, psixologik tadqiqot va uning natijalari keltirilgan. Inson shaxs bo`lib kamol topishi va to`g`ri hayotiy pozitsiyani tanlay olish ko`nikmasi maktab chog`laridanoq boshlanadi.

Kalit so`zlar: Maktab, o`quvchi, bilim, ta`lim, qobiliyat, qiziqish, o`qituvchi, muloqot, tadqiqot.

THE ROLE OF THE SCHOOL IN THE DEVELOPMENT OF THE STUDENT'S PERSONALITY AND EDUCATIONAL MOTIVATION

Suyunova Dildora Halim qizi
Student of Termiz State University

Kayumova Go`zal Narzullayevna
Teacher of Termiz State University

Abstract: This article is about the sacred place-school where the child spends the main part of his life, learning and acquiring new knowledge, and the development of the student's personality in it, psychological research and its results are presented. The ability to grow as a person and choose the right life position starts from school days.

Key words: School, student, knowledge, education, ability, interest, teacher, communication, research.

РОЛЬ ШКОЛЫ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ УЧЕНИКА И УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ

Суюнова Дилдора Ҳалим қизи
студент Термезского государственного университета

Каюмова Гўзал Нарзуллаевна
Преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация: В данной статье речь идет о священном месте-школе, где ребенок проводит основную часть своей жизни, обучаясь и приобретая новые знания, и развитии в ней личности ученика, представлены психологические исследования и их результаты. Умение расти как личность и выбирать правильную жизненную позицию начинается со школьных лет.

Ключевые слова: Школа, ученик, знания, образование, способности, интерес, учитель, общение, исследование.

Biz esimizni tanigan chog`imizdanoq, ko`chamizdan sumkasini taqib olib, chiroyli formalarda maktabga ketayotgan bolalarga havas qilamiz, ularga ergashamiz. Maktab bolaning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi, ularning kognitiv, ijtimoiy va hissiy o'sishini shakllantiradi va ularning umumiy farovonligi uchun oziqlantiruvchi muhitni ta'minlaydi. Akademik ta'limdan tortib, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishgacha, bola rivojlanishida maktabning o'rni katta. Maktabning bolalar kelajagini shakllantirishga va ularning har tomonlama rivojlanishiga qanday ta'siri borligini biz bilamiz. Bola rivojlanishi deganda, bolalarda tug'ilishdan boshlab o'smirlik davrida sodir bo'ladigan o'sish va kamolot jarayoni tushuniladi. U turli sohalarda, jumladan, jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlarda sodir bo'ladigan jami o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, chunki bolalar yillar davomida o'sib boradi. Genetika, atrof-muhit va tajriba bolalarning qobiliyatlari, ko'nikmalari va xatti-harakatlarini shakllantirish uchun birgalikda o'zaro ta'sir qiladi. Maktablar va ularning pedagogik jamoasi bolaning bolaligida duch keladigan muhit va tajribalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maktablar bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ularning intellektual, ijtimoiy, hissiy va jismoniy o'sishini ta'minlaydigan tizimli muhitni ta'minlaydi va har bir bola maktabda o`rgangan tajribalar tufayli kelajak uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan egallaydi. Maktablar bolalarning kognitiv va akademik rivojlanishiga bir necha asosiy yo'llar bilan hissa qo'shadi. Bu yerda, birinchi navbatda, maktabning asosiy maqsadi bolalarga pedagogik ta'lim berishdir. Shu munosabat bilan, maktab bolalarning bilim olishi, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishi va o'quv faoliyatini yaxshilashi mumkin bo'lgan tuzilgan va tashkil etilgan o'quv muhiti bilan intellektual rivojlanishni ta'minlaydi. O'qituvchilar samarali ta'lim berish, o'rganish tajribasini osonlashtirish va o`uvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun individual

- BioDigital Human- BioDigital Human foydalanuvchilarga inson tanasi va turli biologik jarayonlarni o‘rganish imkonini beruvchi interaktiv, 3D platformani taqdim etadi. Bu anatomiya va fiziologiya virtual laboratoriyalari uchun juda yaxshi.
- Labster- Labster biologiya, kimyo, fizika va boshqalar uchun virtual laboratoriyalarni taqdim etadi. U ko’pincha an’anaviy laboratoriya tajribalarini to’ldirish uchun ta’lim muassasalarida qo’llaniladi.
- Virtual biology lab- ushbu veb-sayt genetika, ekologiya va hujayra biologiyasi kabi turli biologiya mavzularini qamrab oluvchi virtual laboratoriyalar to’plamini taklif etadi.

Ushbu veb-saytlar biologik tushunchalar va mavzularning keng doirasini qamrab olgan turli xil virtual laboratoriya tajribalarini taklif qiladi. Muayyan ehtiyojlaringiz va qiziqishlaringizga qarab, maqsadlaringiz uchun eng mos virtual laboratoriyalarni topish uchun ushbu platformalarni o’rganishingiz mumkin. Lekin bu veb sahifalarning barchasi xorijiy tillarda bo‘lganligi sababli mamlakatimizning umumta’lim

maktablarida biroz qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun virtual laboratoriyalarni olib borishga asoslangan xuddi shunday veb sahifalarning o‘zbek tilida bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ilmiy izlanishlarimiz va tadqiqotlarimiz virtual laboratoriyalarni olib borishga asoslangan veb sahifalar yaratishga qaratilgan bo‘lib, bunda axborot texnologiyalari (AT)ning Front-End (veb sahifalar yaratish) sohasiga murojaat qilingan. ATning bu sohasi orqali veb sahifalarning ko‘rinish berib turadigan qismi yaratiladi. Front-End sohasining uch tarmog’i mavjud. Bular:

1. HTML- (hypertext markup language)-veb sahifalarning asosi bo‘lib, veb sahifalar tarkibini tuzish uchun ishlatiladi.
2. CSS- (Cascading style sheets)-veb sahifalarning joylashuvi va visual taqdimotini boshqarish uchun ishlatiladi.
3. JavaScript- veb sahifalarga interaktivlik va funksionallikni qo‘shish uchun ishlatiladigan ko‘p qirrali dasturlash tili.


Tadqiqot natijasi. Virtual laboratoriya texnologiyasi rivojlanishda davom etar ekan, biologiya ta’limida innovatsiyalar uchun imkoniyatlar cheksizdir. Virtual haqiqat va ma’lumotlar tahlili sohasidagi yutuqlar virtual laboratoriyalarning immersiv va moslashuvchan tabiatini yanada yaxshilashni va’da qiladi, bu esa yanada qiziqarli va shaxsiylashtirilgan o’rganish tajribasini yaratadi.

AT(axborot texnologiyalari)ning Front-End sohasi bo‘yicha olingan bilimlarga tayangan holda biologiya fanining 5-7-8-hamda 9-sinflari uchun laboratoriyalarni virtual tarzda olib borishga imkon beruvchi veb sahifaning ba’zi qismlari yaratildi. Dastlab veb saytning asosiy sahifasi bo’lib, u orqali veb saytning keyingi sahifalariga murojaat qilish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Biologiya fanidan virtual laboratoriyalarni olib borishga asoslangan veb sahifaning bosh sahifasi

Ushbu sahifani yaratish uchun Front-End sohasining HTML (2-rasm) va CSS (3-rasm) tarmoqlaridan foydalanildi.



2-rasm. Biologiya fanidan virtual laboratoriyalarni olib borishga asoslangan veb sahifaning bosh sahifasi uchun yaratilgan HTML kod.




3-rasm. Biologiya fanidan virtual laboratoriyalarni olib borishga asoslangan veb sahifaning bosh sahifasi uchun yaratilgan CSS kod.

Sinf xonasidan tashqari, virtual laboratoriyalar biologik tushunchalarning real hayotda qo’llanilishini ko’rish imkonini beradi. Talabalar genetikaning tibbiyotdagi rolini o’rganishlari, ekologik omillarning ekotizimlarga ta’sirini o’rganishlari yoki dolzarb global muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlarni tahlil qilishlari mumkin. Nazariyani amaliyot bilan bog‘lash orqali virtual laboratoriyalar biologiyaning


kundalik hayotdagi ahamiyatini chuqurroq anglab, bo‘lajak olimlar va innovatorlarni jamiyat oldida turgan murakkab muammolarni hal qilishda ilhomlantiradi.


Tadqiqotimiz natijasi sifatida quyida 5-sinf biologiya darsligida keltirilgan laboratoriya mashg’ulotlarining virtual oyna shaklida ko‘rinishi hamda ularning HTML va CSS kodlari taqdim etilmoqda (4-5-6-rasmlar).



4-rasm. 5-sinf biolgiya fanidan o‘tkazilishi mumkin bo’lgan laboratoriyalar mavzularining virtual shaklidagi ko’rinishi.

5-rasm. 5-sinf biolgiya fanidan o‘tkazilishi mumkin bo’lgan laboratoriyalar mavzularining virtual shaklidagi ko’rinishini aks ettiruvchi HTML kod.





6-rasm. 5-sinf biolgiya fanidan o‘tkazilishi mumkin bo’lgan laboratoriyalar

Diskussiya. Ushbu tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, fan va muhandislik ta’limidagi virtual laboratoriyalar o‘quvchi motivatsiyasini, bilim va hamkorlikni o’rganishni yaxshilaydi va jismoniy laboratoriyalarga samarali alternativ yoki qo’shimchalar sifatida xizmat qilishi mumkin. Umumta’lim maktablari uchun

yaratilgan bu turdagi virtual laboratoriyalar o'ziga xos bir nechta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bulardan biri onlayn tarzda olib boriladigan bunday laboratoriyalar hech qanday ortiqcha desktop ilovani yuklab olishni talab qilmaydi. Istalgan turdagi veb brauzerlar orqali foydalanish mumkin. Bundan tashqari internet aloqasi mavjud bo'lgan joylarda ham qiyinchiliklarsiz foydalanish mumkin, ya'ni masofaviy ta'lim uchun juda ham qulay hisoblanadi. An'anaviy laboratoriya sozlamalari ko'pincha uskunalar, bo'sh joy va xavfsizlik muammolari mavjudligi sababli cheklovlarga duch keladi. Virtual laboratoriyalar tajriba uchun xavf-xatarsiz muhitni ta'minlash orqali ushbu cheklovlarni engillashtiradi. Bu jihat, ayniqsa, resurslari cheklangan yoki onlayn ta'lim usullariga o'tayotgan muassasalar uchun juda muhimdir.

Xulosa. Xulosa sifatida shun aytish mumkinki, virtual laboratoriyalar biologiya ta'limidagi paradigma o'zgarishini ifodalaydi va o'rganishga dinamik va inklyuziv yondashuvni taklif qiladi. Mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish, xavfsizlik madaniyatini oshirish, qiziqarli interfaol tajribalarni taqdim etish, moslashtirilgan o'rganish tajribasini osonlashtirish va real dunyoga tegishliligini ta'kidlash orqali virtual laboratoriyalar talabalarga biologik dunyo sirlarini ishonch va qiziqish bilan ochishga imkon beradi.

Bitta o'lcham ta'limda hammaga mos kelmaydi va virtual laboratoriyalar moslashtirilgan o'rganish tajribasi muhimligini tan oladi. Ushbu platformalar turli xil ta'lim uslublarini moslashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, bu o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy imtiyozlari va kuchli tomonlariga mos keladigan tarzda eksperimentlarga yondashish imkonini beradi. Vizual simulyatsiyalar, eshitish tushuntirishlari yoki amaliy o'zaro ta'sirlar orqali virtual laboratoriyalar har bir o'quvchining ehtiyojlarini qondirib, yanada inklyuziv va samarali ta'lim muhitini ta'minlaydi.

Biz kelajakka nazar tashlar ekanmiz, virtual laboratoriyalar biologlarning keyingi avlodini shakllantirishda va tabiiy dunyoni chuqurroq anglashda muhim rol o'ynashda davom etishi shubhasiz deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bina Rai, Tan Hui Shin, Leo Chen Huei. Bringing play back into the biology classroom with the use of gamified virtual lab simulations. Journal of Applied Learning & Teaching. № 2. Pages 48-55. Canada-2019.
2. Chaurura Pearson, Chuma Kudzai. VIRTUAL LABORATORIES: A SOLUTION FOR TERTIARY SCIENCE EDUCATION IN BOTSWANA? European Journal of Logistics. №3. Pages 12-24. UK-2015.
3. Friska Damayanti Syahfitri, Binari Manurung, Muftiy Sudibyo. The Development of Problem Based Virtual Laboratory Media to Improve Science Process Skills of Students in Biology. International Journal of Research & Review. №-6. 64-74. USA-2019. Page 66.
4. Govender Reginald. Teaching and learning using virtual labs: Investigating the effects on students' self- regulation. Cogent Education. №-10. 1-14. England-2023. Page 3.
5. Ishkobilov F.KH. Technology of Creating A Virtual Laboratory of the Structure and Movements of Euglenoids from Biology on the Base of Computer Simulation Models. Eurasian scientific herald. №17. Pages 12-16. Belgium-2023.
6. Javlon Abdullo. Mukammal dasturlash 1: HTML va CSS. Akademnashr. Toshkent-2021. 288 bet.
7. Javlon Abdullo. Mukammal dasturlash 2: JavaScript. Akademnashr. Toshkent-2021. 300 bet.
8. Kalandarova D. S., Bakayeva Sh. B. Biologiya o'qitish metodikasida axborot texnologiyalrining o'rni. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. Volume-2. Issue-2. 43-47-betlar. O'zbekiston-2022.
9. Myburgh P.H. Reflecting on the creation of virtual laboratory experiences for biology students. Frontiers in education. №7. Pages 1-9. Switzerland-2022. 3-4-pages.
10. Turakulova M.N. Kompyuter vositalaridan biologiya laboratoriyalarida pedagogic vositalar sifatida foydalanishning afzalliklari. "MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORI" XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN. O'zbekiston-2024. 776-779-b.
11. Turakulova M.N., Ruzikulova N.A. The importance of virtual laboratories in science and the types of programming used in their creation. Актуальные проблемы науки и образования в условиях современных вызовов (МКАП-27). Москва-2024. 157-160-стр.
12. Yuli Wahyuni, Rufi'i, Yoso Wiyarno. The development of a virtual laboratory as a virus learning media to improve student learning outcomes in biology subjects. International journal of social science and human research. №-5. 600-604. USA-2022. Pages 600-601.

A PROJECT-BASED LANGUAGE TEACHING (PBLT) APPROACH TO INSTRUCTING ESL ON DEVELOPING SPEAKING, WRITING, AND THINKING SKILLS THROUGH ENGAGING, REAL-WORLD PROJECTS

Urishev Abdumajid
UzSWLU Teacher of Applied Sciences №1 Department

Annotation. This article explores the use of Project-Based Language Teaching (PBLT) as an effective method for teaching English as a Second Language (ESL). It emphasizes the development of speaking, writing, and critical thinking skills by engaging students in meaningful, real-world projects. The article discusses the theoretical foundations of PBLT, provides examples of successful project implementations, and examines the benefits and challenges of this approach in an ESL context.

Keywords: Project-Based Language Teaching (PBLT), ESL instruction, speaking skills, writing skills, critical thinking, real-world projects, language learning, engaging learning methods, educational strategies, ESL teaching approaches.

English as a Second Language (ESL) education has traditionally relied on structured, textbook-driven approaches to teach grammar, vocabulary, and language skills. These methods, which often emphasize rote memorization and repetitive drills, are designed to build foundational language knowledge. While effective for teaching the basics, they frequently fall short in engaging students in meaningful communication or in developing higher-order thinking skills. In many traditional ESL classrooms, the focus is on accuracy over fluency, which can limit students' ability to use English in real-life situations. Activities often include grammar exercises, vocabulary tests, and reading comprehension tasks that do not necessarily encourage students to speak or write creatively. Additionally, the passive learning model, where teachers dominate the instruction and students are passive recipients, can hinder students' motivation and engagement. With the rapid pace of globalization, the demand for proficient English speakers has increased dramatically. English is often the lingua franca in international business, academia, and technology, making it essential for individuals to not only understand the language but also to use it effectively in diverse contexts. This shift has prompted educators to seek more dynamic and interactive teaching methods that better prepare students for the demands of the modern world. In response to these challenges, educators are exploring innovative approaches to ESL education that promote active learning and student engagement. These methods include communicative language teaching (CLT), task-based language teaching (TBLT), and project-based language teaching (PBLT). These approaches prioritize communication and the practical use of language, aiming to create more immersive and interactive learning experiences. Project-Based Language Teaching (PBLT), in particular, has gained attention for its potential to transform ESL instruction. By focusing on student-centered projects that require real-world language use, PBLT helps students develop not only their linguistic skills but also critical thinking, collaboration, and problem-solving abilities. This approach aligns well with the needs of 21st-century learners, who must navigate complex, multilingual environments both professionally and personally. Project-Based Language Teaching (PBLT) represents a significant shift from traditional teaching methods. Unlike conventional approaches, which often isolate language skills, PBLT integrates speaking, writing, and thinking into cohesive projects. These projects are designed to be relevant and engaging, providing students with opportunities to use English in meaningful and authentic contexts. Through PBLT, students take on active roles, working collaboratively to solve problems, conduct research, and present their findings. This article aims to explore the implementation of PBLT in ESL instruction, specifically in developing speaking, writing, and critical thinking skills. It will provide a comprehensive overview of the theoretical foundations of PBLT, present practical strategies for designing effective projects, and discuss the benefits and challenges associated with this approach. Through examining case studies and empirical data, the article seeks to offer insights and recommendations for educators looking to adopt PBLT in their ESL classrooms.

Project-Based Language Teaching (PBLT) is grounded in the principles of experiential learning and constructivism. John Dewey's theories on experiential education emphasize learning through experience and reflection, which are fundamental to PBLT (Dewey, 1938). In PBLT, students engage in projects that require active exploration and problem-solving, thereby constructing knowledge through hands-on experiences. This approach contrasts with traditional models of passive learning, where students are recipients of information rather than active participants in the learning process.

Key principles of PBLT include:

1. Student-Centered Learning: PBLT focuses on the interests and needs of students, allowing them to take ownership of their learning process (Beckett & Slater, 2005).
2. Real-World Relevance: Projects are designed to be relevant to real-world contexts, making the learning experience more meaningful and applicable.
3. Collaborative Learning: Students often work in groups, enhancing their teamwork and communication skills.

4. Integration of Skills: PBLT integrates speaking, writing, and thinking skills, providing a holistic approach to language learning.

Research has shown that project-based learning offers numerous benefits for language acquisition:

1. Enhanced Engagement and Motivation: Projects that are relevant and interesting to students increase their motivation to learn. This active engagement leads to better retention of language skills (Thomas, 2000).
2. Improved Language Proficiency: By using language in authentic contexts, students develop their speaking, writing, and listening skills more effectively than through rote memorization (Stoller, 2006).
3. Development of Critical Thinking Skills: Projects that require problem-solving and critical analysis help students develop higher-order thinking skills, which are essential for language proficiency and academic success (Beckett & Slater, 2005).
4. Practical Application of Language Skills: PBLT provides opportunities for students to apply their language skills in practical, real-world situations, enhancing their ability to use English outside the classroom.

Comparison with Traditional ESL Teaching Methods

Traditional ESL teaching methods often focus on discrete language skills taught in isolation. For example, grammar, vocabulary, and pronunciation are typically taught separately, and students practice these skills through drills and rote exercises. This approach can lead to a lack of integration and contextual use of the language (Richards & Rodgers, 2014). In contrast, PBLT integrates language skills within the context of meaningful projects. This holistic approach not only helps students see the relevance of what they are learning but also allows them to practice multiple skills simultaneously. Traditional methods often emphasize accuracy over fluency, whereas PBLT encourages fluency and communicative competence by immersing students in real-world tasks (Stoller, 2006). Moreover, traditional methods can be teacher-centered, with the instructor controlling the learning process. PBLT, however, shifts the focus to student-centered learning, where students have more control over their projects and learning outcomes. This shift not only increases student engagement but also helps develop autonomous learners who are better prepared to use English in various contexts (Beckett & Slater, 2005).

Selecting appropriate projects is crucial for the success of Project-Based Language Teaching (PBLT). Effective projects should meet the following criteria:

1. Relevance to Students' Lives: Projects should connect to students' interests and real-life experiences. This relevance increases motivation and engagement (Stoller, 2006).
2. Alignment with Learning Objectives: Projects must align with the language learning objectives of the course, ensuring that they help students develop the targeted speaking, writing, and thinking skills (Beckett & Slater, 2005).
3. Feasibility: Projects should be realistic and feasible within the given time frame and resources available. This includes considering the students' language proficiency levels and available materials (Thomas, 2000).
4. Opportunities for Collaboration: Projects should encourage teamwork and collaborative learning, as these skills are essential for language acquisition and real-world problem solving (Branden, 2006).

Steps for Project Planning and Implementation

1. Identifying Learning Objectives: Clearly define the language skills and knowledge that the project aims to develop. This ensures that the project is focused and purposeful (Stoller, 2006).
2. Selecting a Project Topic: Choose a topic that is engaging, relevant, and aligned with the learning objectives. Involve students in this process to increase their investment in the project (Bell, 2010).
3. Designing Project Tasks: Break down the project into manageable tasks that build on each other. Each task should contribute to the overall project and help students achieve the learning objectives (Blumenfeld et al., 1991).
4. Setting a Timeline: Establish a clear timeline for the project, including deadlines for each task. This helps students manage their time and ensures steady progress (Grant, 2002).
5. Providing Resources and Support: Ensure that students have access to the necessary resources and support. This may include materials, guidance, and feedback throughout the project (Helle, Tynjälä, & Olkinuora, 2006).
6. Assessment and Reflection: Develop assessment criteria that align with the learning objectives. Include opportunities for students to reflect on their learning and receive feedback (Thomas, 2000).

Examples of Successful Projects in ESL Contexts

1. Community Service Project: Students identify a need in their community and develop a plan to address it. This project includes research, planning, execution, and a final presentation. It helps students develop speaking and writing skills while engaging with real-world issues (Beckett & Slater, 2005).
2. Cultural Exchange Program: Students collaborate with peers from another country to share cultural experiences and practices. This project involves writing letters or emails, preparing presentations, and engaging in video conferences. It enhances both their linguistic and intercultural communication skills (Stoller, 2006).
3. School Newspaper: Students create a school newspaper, taking on roles such as reporters, editors, and designers. This project requires them to conduct interviews, write articles, and collaborate on layout and design.

It integrates multiple language skills and provides a tangible product that showcases their work (Fragoulis, 2009).

Developing speaking skills in Project-Based Language Teaching (PBLT) involves integrating various strategies into projects. These strategies include incorporating discussions, debates, presentations, and role-plays as integral parts of projects. These activities encourage students to express their opinions, ideas, and arguments orally, helping them develop fluency and confidence in speaking. Additionally, organizing group work that requires collaboration and decision-making fosters interactive speaking skills, as students engage in real-life communication tasks. These strategies align with the principles of PBLT, which emphasize the use of language in meaningful contexts and the development of communicative competence (Stoller, 2006). Project-based speaking practice offers several benefits for language learners. Firstly, it enhances fluency by providing regular opportunities for students to practice speaking in authentic situations. Secondly, it promotes authentic communication by encouraging students to use language to express their thoughts, ideas, and feelings in real-life contexts. Finally, project-based speaking practice increases student engagement and motivation, as students are more likely to be interested in and committed to tasks that are relevant and meaningful to them (Thomas, 2000). Several case studies and examples demonstrate the effectiveness of project-based speaking practice in ESL contexts. For example, in a project where students created a podcast series about environmental issues, they had to research, script, and record episodes, practicing their speaking skills while raising awareness about important topics (Fragoulis, 2009). Another project involved students creating and presenting a business plan for a new product, requiring them to pitch their ideas and negotiate with classmates, enhancing their oral communication skills (Beckett & Slater, 2005). Improving writing skills through PBLT involves incorporating writing tasks within projects and using techniques that enhance writing through project work. Writing tasks such as reports, proposals, or summaries can be integrated into projects to help students practice different types of writing. Additionally, providing scaffolding and support for writing tasks, including pre-writing activities and drafts, can help students develop their ideas and organize their writing effectively. These approaches not only improve students' writing skills but also help them develop critical thinking and communication skills (Blumenfeld et al., 1991). Sample projects focused on writing skills can further enhance students' writing abilities. For instance, students could create a guidebook for tourists visiting their city, requiring them to write descriptions, directions, and recommendations, practicing descriptive and persuasive writing (Fragoulis, 2009). Another project might involve students writing a collaborative research paper, where they contribute sections based on their individual research, practicing academic writing and research skills (Beckett & Slater, 2005).

Project-Based Language Teaching (PBLT) offers several benefits for ESL education:

Improved Language Proficiency: PBLT provides students with opportunities to use language in authentic, real-world contexts, leading to improved language skills across speaking, writing, and thinking (Stoller, 2006).

Increased Student Motivation and Engagement: By engaging students in meaningful projects that are relevant to their interests and experiences, PBLT can increase motivation and engagement, leading to more effective learning outcomes (Bell, 2010).

Development of Transferable Skills: PBLT helps students develop a range of transferable skills, such as critical thinking, problem-solving, collaboration, and communication, which are valuable in academic and professional contexts (Beckett & Slater, 2005).

In conclusion, PBLT offers a dynamic and effective approach to ESL education, providing students with opportunities to develop language skills in meaningful and engaging ways. By integrating speaking, writing, and thinking skills into real-world projects, PBLT helps students improve their language proficiency, enhances their motivation and engagement, and develops transferable skills that are valuable beyond the classroom.

References

1. Beckett, G. H., & Slater, T. (2005). The Project Framework: A Tool for Language, Content, and Skills Integration. ELT Journal, 59(2), 108-116.
2. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House: A Journal of Educational Strategies, Issues and Ideas, 83(2), 39-43.
3. Blumenfeld, P. C., Soloway, E., Marx, R. W., Krajcik, J. S., Guzdial, M., & Palincsar, A. (1991). Motivating Project-Based Learning: Sustaining the Doing, Supporting the Learning. Educational Psychologist, 26(3-4), 369-398.
4. Branden, K. V. (2006). Task-Based Language Education: From Theory to Practice. Cambridge University Press.
5. Fragoulis, I. (2009). Project-Based Learning in the Teaching of English as a Foreign Language in Greek Primary Schools: From Theory to Practice. English Language Teaching, 2(3), 113-119.
6. Grant, M. M. (2002). Getting a Grip on Project-Based Learning: Theory, Cases and Recommendations. Meridian: A Middle School Computer Technologies Journal, 5(1).
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
8. Stoller, F. (2006). Establishing a Theoretical Foundation for Project-Based Learning in Second and Foreign Language Contexts. In Project-Based Second and Foreign Language Education: Past, Present, and Future (pp. 19-40). Information Age Publishing.
9. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. The Autodesk Foundation.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI ADABIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarda bolalikdan badiiy adabiyotga havas uyg‘otish, ularning obrazli tafakkurini o‘stirish, ko‘p jihatdan ta’lim tamoyillari va metodlarining to‘g‘ri qo‘llanilishiga bog‘liq ekanligi xususida fikr yuritilgan. Ilmiy asosda to‘g‘ri tanlangan metod o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, aqliy faoliyatini faollashtirish va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda asosiy o‘rin egallaydi. O‘qish darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘rganiladigan badiiy asarlarni bir-biridan farqlash, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday vositalar yordamida aks ettirgani, qanday adabiy qahramonlar yaratganini tushunish, asar qahramonlarining xatti-harakatiga o‘z munosabatini bildirish, ularni baholay olish va tegishli xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘qituvchi adabiy tushunchalarni o‘rgatish jarayonida ifodali o‘qish, matnni yod olish, qayta hikoya qilish, savol-topshiriqlar ustida ishlash, ijodiy yozma ishlar yozdirish usullaridan foydalanadi.

Kalit so‘z: tushuncha, matn, tayanch so‘z, badiiy adabiyot, nutq madaniyati, adabiy tahlil, gap.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПОНЯТИЙ ЧЕРЕЗ РАБОТУ НАД ТЕКСТОМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Кучкарова Шакаржон Азимбой кизи
Базовый докторант Ургенчского государственного университета

В статье рассматривается вопрос о том, что в системе начального образования воспитание у учащихся с детства пристрастия к художественной литературе, развитие их образного мышления во многом зависит от правильного применения принципов и методов воспитания. Правильно подобранный на научной основе метод занимает центральное место в развитии личности школьника, активизатsii его умственной деятельности, формировании умений самостоятельного творческого мышления. Занятия по чтению формируют у младших школьников навыки дифференциатsii изучаемых художественных произведений, понимания того, какими средствами писатель отражает события жизни, каких литературных героев создал, выражения своего отношения к поведению героев произведения, умения их оценивать и делать соответствующие выводы. В процессе обучения литературным понятиям педагог использует приемы выразительного чтения, запоминания текста, пересказа, работы над вопросами-заданиями, написания творческих письменных работ.

Ключевое слово: понятие, текст, базовое слово, художественная литература, культура речи, литературный анализ, предложение.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF LITERARY CONCEPTS THROUGH THE WORK ON THE TEXT IN PRIMARY SCHOOL

Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi
Basic doctoral student of Urgench State University

The article deals with the issue that in the primary education system, the upbringing of students from childhood predilection for fiction, the development of their imaginative thinking largely depends on the correct application of the principles and methods of education. A method correctly selected on a scientific basis occupies a central place in the development of a student’s personality, the activation of his mental activity, the formation of independent creative thinking skills. Reading classes form the skills of differentiation of the studied works of art in younger schoolchildren, understanding by what means the writer reflects the events of life, which literary heroes he created, expressing his attitude to the behavior of the heroes of the work, the ability to evaluate them and draw appropriate conclusions. In the process of teaching literary concepts, the teacher uses techniques of expressive reading, memorizing text, retelling, working on task questions, writing creative written works.

Keywords: concept, text, basic word, fiction, culture of speech, literary analysis, sentence.

KIRISH. Ma’lumki, tushuncha narsalar va ularning xususiyatlari, o‘zaro aloqa munosabatlari to‘g‘risida bir-biri bilan bog‘langan hukm-xulosalardan hosil bo‘ladi. Biror narsa to‘g‘risida tushuncha hosil qilishda shu narsa haqida bir qancha hukmlar jami shu tushunchaning mazmunini tashkil qiladi. Biror narsa to‘g‘risida qancha hukm yurita olsak, tushunchaning mazmuni ham shunchalik boy bo‘ladi.

Tushunchaning moddiy ifodasi va tayanchi so‘zdir. Badiiy adabiyotda ham so‘z badiiy obraz yaratish va

obrazlilik qurolidir. Asarning obrazliligi yozuvchining so‘z san’atidan qay darajada foydalanganligiga bog‘liqdir.

Tushunchalar sezgi, idrok, tasavvurlar asosida, so‘z, nutq yordami bilan hosil bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qish darslarida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish va nutqini o‘stirishga alohida ahamiyat beriladi.

Muammoning hayotiy ildizi shundaki, tadqiqotchi N.Jo‘rayev haqli ravishda ta’kidlaganidek, «Hozirgi kunga kelib, bilim berish texnologiyalarining uzluksiz ortib borishi bilan o‘quvchilarda o‘qishga nisbatan munosabat o‘zgarib, bu bilimlarning barchasini o‘zlashtirib olish imkoniyati kamaymoqda, o‘qishga nisbatan qiziqish so‘nmoqda. Shuning uchun ularga bu bilimlardan foydalanish, ularni qayta tiklash, o‘qishni takomillashtirish, qayta ishlash strategiyasini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir»[1; 2; 3].

O‘qish metodikasi pedagogika, psixologiya, ona tili, adabiyotshunoslik ma’lumotlariga va keng ko‘lamdagi pedagogik tajribalarga tayanadi.

O‘qitishning mohiyati ham o‘quvchilarni tushunchalar bilan qurollantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishdan iboratdir. Voqelikdagi narsa va hodisalar to‘g‘risidagi tushunchalar har bir kishining ongida bolalikdan boshlab to umrining oxirigacha takomillashib boradi. Shuning uchun ham o‘quvchilarda boshlang‘ich sinflardan boshlab adabiy tushunchalarni shakllantirish – sinfda va sinfdan tashqari o‘qish darslarining asosiy vazifalaridan biri, deyish mumkin.

Nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq adabiy tushunchalar yuzasidan hosil qilinadigan elementar bilimlar orqali o‘quvchilar kishilarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va ichki dunyosini ifodalashda badiiy nutqning ahamiyatini anglab boradilar. O‘quvchilarda adabiy tushunchalarni hosil qilishda ularning badiiy adabiyot san’atning bir turi ekanini anglashlariga erishish lozim. Buning uchun badiiy asarda tasvirlangan voqea-hodisalarning rasmda ranglar orqali ifodalanishini namoyish qilish orqali badiiy adabiyot tasviriy san’at kabi san’at turi deb tushuntirish mumkin. Har ikkisida hayotiy voqealar aks etishi, tasviriy san’atda ranglar orqali, badiiy adabiyotda so‘zlar orqali tasvirlanishi haqida ma’lumot berish foydadan xoli bo‘lmaydi. Asar yaratish uchun yozuvchi so‘zga boy bo‘lishi lozim ekanligi, bunga o‘qish-o‘rganish orqali erishish mumkinligini o‘quvchilar ongiga yetkazish zarur. Boshlang‘ich sinflarda adabiy tushunchalarni o‘quvchilar yaxshi o‘zlashtirishlari uchun o‘qituvchi adabiyot nazariyasidan ilmiy tushunchalarga ega bo‘lishi, asar tahlilida nimalarga e’tibor berilishini ajratib olishi, o‘qitish usullarini yaxshi bilishi, tahlilga ijodiy yondashishi, o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi o‘qish darslarida badiiy asarni o‘qitish sifatini belgilovchi omillardandir.

METODLAR. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarni malakali kitobxon sifatida tarbiyalashda asar tahlili va o‘quvchining shaxsiy ijodkorlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘qish metodikasida badiiy asarni o‘qish bilan bog‘liq ikkita talab olg‘a suriladi: birinchidan, o‘quvchilar namunadagi asar mazmunini tushunsin, ikkinchidan, asarda qalamga olingan voqea-hodisalarni qalbdan his qila bilsin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z san’atini bevosita idrok etish qobiliyatining rivojlanishi asar syujetining o‘ziga manzur jihatlarini aniqlash, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, o‘z xulosalarini umumlashtirib bayon qilish tarzidagi adabiy tahlil ko‘nikmalarini egallay borishiga bog‘liq.

NATIJALAR VA MUNOZARA. Badiiy asarning o‘quvchilar tomonidan idrok etilish darajasi kitobxonlik faoliyati natijalari tahlili asosida belgilanadi. Adabiy ta’lim jarayonida asarning to‘liq idrok etilishi adabiy tushunchalarning chuqur egallanganligidan dalolat beradi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish hamda tajriba-sinov ishlari natijasida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun adabiy tushunchalar asosida badiiy asarni idrok etishning to‘rtta darajasini ajratishni lozim topdik.

Birinchi daraja. Bu guruhga mansub bolalar asarlarni yaxlit idrok eta olmaydi, ularning diqqati asar syujetidagi alohida hodisalarga qaratilib, epizodlar orasidagi bog‘liklikni tushunib yetmaydilar. Ularda matnni o‘qish va eshitishda bevosita hissiy ta’sir bo‘lishi mumkin, lekin o‘z hislarini so‘z bilan ifodalash mushkullik tug‘diradi. Bu guruhdagi bolalar asar qahramonlarining xatti-harakati va ruhiy holatini har doim ham aniqlay olishmaydi.

Ikkinchi daraja. Bu guruhga mansub o‘quvchilar asarni to‘g‘ri qabul qilishi bilan ajralib turadi. Ammo ular ham his-tuyg‘ularini ifodalashda qiynaladilar, chunki tasavvur har kimda har xil bo‘ladi. Bu guruh o‘quvchilari asar voqealarining ketma-ketligini xotiralarida oson tiklashadi, lekin ular bir-biri bilan qanday bog‘langanligini har doim ham tushunishmaydi. Ular maxsus savol-topshiriqlar yordamida asar qahramonlariga xos xususiyatlarni to‘g‘ri aniqlay olishadi. Hayotiy tasavvurlariga tayangan holda ularning u yoki bu xatti-harakatlari sababini aytib berishadi. Ammo o‘qiganlari yuzasidan xulosa chiqara olishmaydi.

Uchinchi darajaga mansub o‘quvchilar asarda bayon qilingan voqea-hodisalarning ichki bog‘lanishini bilishi bilan ajralib turishadi. Ular muayyan tasavvurga ega bo‘lishi tufayli asarning tafsilotlari asosida obrazlarni qayta yaratish qobiliyatiga ega. Asarda ularni, birinchi navbatda, qahramonlar obrazi qiziqtiradi, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari asosida asardagi asosiy fikrni, qahramonlarning xatti-harakatlari sababini to‘g‘ri aniqlay olishadi. Ammo mavjud adabiy tushunchalar asosida o‘z xulosalarini umumlashtirishda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yadilar.

To‘rtinchi darajaga mansub o‘quvchilar nafaqat asar voqealaridan, balki uning badiiy ifodasidan ham

ta’sirlanadi. Ularning tasavvuri rivojlangan bo‘lib, badiiy asar tafsilotlari asosida obrazni qayta yaratishadi. Matnni qayta o‘qishni, o‘qiganlari yuzasidan fikr-mulohaza yuritishni yoqtirishadi. Matnda muallif nuqtai nazarini, asosiy fikrni aniqlash qobiliyatiga ega bo‘lishadi. Ularning asar voqealari yuzasidan umumlashma xulosalari o‘ta jo‘n bo‘lsa ham, mustaqil fikr yuritishi, asarda qo‘yilgan muammoni aniqlashga bo‘lgan harakatining o‘zi muhimdir. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, o‘quvchilarda adabiy tushunchalarning shakllanishini asarni idrok etish darajasiga qarab belgilash mumkin, degan xulosaga keldik.

Idrokning birinchi darajasi 3-5 yoshli bolalarga mos keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shu darajaga mansubligi adabiy tushunchalarga doir bilimlarning sustligidan dalolat beradi. O‘qish darslari bilan fan sifatida to‘qnash kelganida, ikkinchi va uchinchi sinfdagi bir necha o‘quvchigina o‘qiganlarini uchinchi darajada idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’limning oxiriga kelib to‘rtinchi darajada idrok etish barcha o‘quvchilarga xos xususiyat sanaladi. Boshlang‘ich sinf bitiruvchisi badiiy asarni to‘rtinchi darajada idrok etishi adabiy tushunchalarining shakllanganligini anglatadi.

Professor K.Qosimova va S.Matchonovlarning o‘qish metodikasiga doir ishlarida o‘quvchi ta’limning faol ishtirokchisi, «metodik omil» sifatida tilga olinishi bejiz emas. Ularning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarni malakali kitobxon sifatida tarbiyalashda asar tahlili va o‘quvchining shaxsiy ijodkorlik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi [12]. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida she’r,misra, hikoya, masal, topishmoq, maqol, adabiy qahramon, sarlavha, matn, reja kabi dastlabki adabiy tushunchalarni shakllantira borishni taqozo etadi. Shu maqsadga qaratilgan adabiy tahlil o‘qituvchi va o‘quvchining qat’iy reja asosida izchil hamkorlikda izlanishini talab etadi. Busiz o‘quvchi dasturda ko‘zda tutilgan darajada asarni estetik jihatdan anglash va idrok etishga qodir bo‘lmaydi. Tahlilda umumiydan xususiyga, ya’ni asarni tushunishga yordam beruvchi umumiy mazmunni va tafsilotlarni aniqlashga tomon borish lozim. Tahlil boshida asarning janriy xususiyatlarini hisobga olgan holda beriladigan savollarni o‘quvchilarning mavjud tushunchalaridan kelib chiqib izchil va keng qamrovli tarzda qo‘yish talab etiladi. Shu asosda o‘quvchilarning fikr va hislarini muayyan maqsadga yo‘naltirilsa, boshlang‘ich ta’limda ko‘zlangan natijaga erishish qiyin kechmaydi.

Jumladan, M. P. Voyushina boshlang‘ich sinflarda badiiy asar tahlili tamoyillarini quyidagilarga ajratadi va tavsiflaydi [16]:

1. Maqsadga yo‘naltirilgan tamoyil. Bu tamoyilga ko‘ra, darsning asosiy vazifasi asarni to‘laqonli idrok qilish, uning g‘oyasini tushunishga yo‘naltirish maqsadidan kelib chiqib belgilanadi.

2. O‘qilgan asarni yaxlit, izchil, hissiy idrok qilish tamoyili. Bu tamoyil badiiy asarning birlamchi idrok talablari bilan ichki bog‘lanishni va idrok sifatini yaxshilash, shu orqali asarga qaytib uni tahlil qilish ehtiyojini yuzaga keltirishni nazarda tutadi.

3. Asarni idrok qilishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. Bunda asar tahlilida o‘quvchilarning asar mazmunini chuqur anglashlarini ta’minlashda yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil usullarini tanlash talab etiladi.

4. Asar tahliliga sharoit yaratish tamoyili. Bu tamoyilga ko‘ra, matn tahlili o‘quvchining badiiy matnni tushunish ehtiyojlariga javob berishi kerak.

5. Asarni ikkinchi marta mustaqil o‘qishga bo‘lgan ehtiyoj tamoyili. Bu tamoyil adabiy ta’limning dastlabki bosqichi uchun juda muhimdir: kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tahlildan oldin matn mazmunini to‘liq anglashlari uchun uni yana bir marta o‘qib chiqishlari talab etiladi.

6. Shakl va mazmunning birligi tamoyili. Asarda tasvirlangan holatni qayta tiklash uni aks ettirishga emas, balki tasvirning o‘zi, ya’ni uning mazmuni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan asar shaklini tahlil qilishga yo‘naltirilishi kerak bo‘lgan savollar va vazifalarning tabiatini belgilaydi.

7. Badiiy asarning umumiy va janr xususiyatlarini, badiiy o‘ziga xosligini hisobga olish tamoyili. Bu tamoyil tahlilning umumiy yo‘nalishi va usulini tanlashda o‘zini namoyon qiladi. Adabiyotning turli xil adabiy turlari va janrlari mohiyatan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun bu asarlarni tahlil qilishda bir xil yondashuvlar bo‘lishi mumkin emas.

8. Tahlil usullarini tanlash tamoyili. Bu tamoyil asarning tahlil usulini tanlab olishni nazarda tutadi: uning barcha elementlari tahlil qilinmaydi, balki ishning g‘oyaviy yo‘nalishini ochish uchun yetarli mazmun tanlab olinadi.

9. O‘qish malakasini takomillashtirishga qaratilgan tamoyil. Bu tamoyil adabiy ta’limning boshlang‘ich bosqichiga xos bo‘lib, unga ko‘ra, o‘qish malakasi o‘quvchilarning shaxsiy maqsadiga aylantirilgandagina yaxshilanadi: qaysi o‘quvchi o‘z xohishi bilan ko‘p o‘qisa, natija yaxshi bo‘ladi.

10. O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikma-malakalarini rivojlan-tirish tamoyili. Unga ko‘ra, sinfdagi badiiy asar tahlili o‘quvchilarning nafaqat o‘rganilayotgan asar g‘oyasini o‘zlashtirishiga, balki ularning adabiy rivojlanishiga, ularda dastlabki adabiy tushuncha va kitobxonlik malakalarini shakllantirishga ham yordam berdi. [16]

O‘qishning natijasi asar mazmunini anglashdir. Bu natija nafaqat o‘qish texnikasida, balki o‘quvchining fikrlash darajasini oshirish, umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish, nutqini rivojlantirish darajasi – lug‘atining

boyligi, so‘z ma’nosini aniq tushunishi; o‘qiladigan matnning xususiyatlari anglashi, hayot haqidagi mavjud bilim, shuningdek, tajribasini ko‘rsata olishi bilan belgilanadi.

Ushbu omillarga qarab, matnni tushunishning quyidagicha muayyan darajasiga erishiladi:

- asar mazmunini anglash darajasi – matnning alohida tarkibiy qismlarini tanlash, ularni bir-biri bilan bog‘lash, umumlashtirish, aloqalarni o‘rnatish, voqealar rivojini aniqlash; tasvir mazmunini tushunish;

- fikrlash darajasi - muallifning maqsadini, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tushunish, qahramonlarning o‘zaro munosabatlarini aniqlash, ularni baholash. xulosa chiqarish, keltirilgan dalillarni izohlash, hayot tajribasi bilan o‘zaro bog‘lash.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar badiiy asarni tahlil qilishga turli yondashishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

Asar tili tahlili bu asarda muallif tomonidan qo‘llanilgan tasviriy ifoda vositalari hamda qahramonlar nutqi va ularga yozuvchi munosabatini aniqlash maqsadida uyushtiriladi. Masalan, 4-sinfda Rauf Tolibning «Quyosh sevgan yurt» asari o‘rganganilganda she’rdagi tasviriy vositalarni aniqlash yuzasidan quyidagi savol-topshiriqlar berilishi mumkin: «Quyosh tog‘lardan, bog‘lardan ko‘z uzolmas ekan» gapini matndan topib o‘qing. Quyoshning yurtimizni nima uchun sevishini qanday izohlaysiz?» va hakozo. Bunday topshiriqlar o‘quvchilar lug‘at boyligini, nutqining ifodaligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiy tahlil orqali asar qahramonlarining fe’l-atvori, his-tuyg‘ulari, xarakter xususiyatlari o‘rganiladi. Masalan, 4-sinfda Normurod Norqobilovning «Xarita» hikoyasi o‘rganilganda, asar qahramonlari Samad va Rasulning fe’l-atvorini tavsiflash orqali ularning xarakter xususiyatlari ochib beriladi. Adabiy tahlilni shu tahlitda uyushtirishni boshqa asarlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Asar voqealari tahlili asosida syujet va uning asosiy qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash masalasi turadi. Bunday tahlilda xatti-harakatdan xarakterga, voqea-hodisadan matn mazmuniga qarab boriladi. Xususan, 4-sinfda Pirimqul Qodirovning «Xatarli uchrashuv» hikoyasidagi voqealar rivoji va ular orasidagi bog‘lanishni aniqlash uchun quyidagi rejadan foydalanish mumkin: 1. Jondorlarni it deb yuribman. 2. Bexosdan cho‘chib ketdim. 3. Qorga o‘tirib qoldim. 4. Gap aql va irodada ekan. Asar mazmunini reja asosida hikoya qildirish o‘quvchilarga undagi asosiy fikrni to‘g‘ri anglashlariga yaqindan yordam beradi.

Muammoli tahlil badiiy asardagi muammoli masala va vaziyatlar asosida tashkil etiladi [24]. Masalan, Hakim Nazirning «Qodir bilan Sobir» hikoyasi o‘qilganda (4-sinf) «Bolalar o‘rtasida qanday holatlarda do‘stlik bo‘ladi? Doim birga yuradigan bolalarni do‘st deb bo‘ladimi?» kabi savollar asosida muammoli vaziyat yaratilib, o‘quvchilar fikr-mulohazalari asosida hal etiladi. Bu esa ularning ijodiy va mantiqiy fikrlashlariga zamin yaratadi.

O‘qish metodikasida tahlilning so‘z bilan tasvirlash va grafik tasvirlash, tasviriy vositalar tahlili, kuzatish, ma’nodosh so‘zlarni topish, asarni sahnalashtirish, ifodali o‘qish va rollarga bo‘lib o‘qish, qayta hikoyalash, shaxsini o‘zgartirib hikoyalash usullari keng qo‘llaniladi.

Badiiy asar ustida ishlashni tashkil qilishda tahlil usulini tanlash asar matnining xususiyatlari va tahlil jarayonida hal qilish zarur bo‘lgan vazifalarga qarab aniqlanadi.

Yuqori sinflarda adabiy tushunchalarni tarkib toptirish jarayonini professor Acqar Zunnunov 5 bosqichga bo‘ladi:

1. Adabiy asarning biror komponenti va uning g‘oyaviy-badiiy ahamiyatini aniqlash.
2. Komponentlarni (yoki tasvirlarni) kuzatish, belgilash va umumlashtirish.
3. Olingan bilimni amalda (adabiy asarni tahlil qilishda va ijodiy insholar yozishda) tatbiq etish, mashq qilish.
4. Ilgari o‘zlashtirilgan tushunchani (komponentni) yangi bilimlar bilan boyitish, kengaytirish.
5. Bu tushunchalarning adabiy asardagi boshqa muhim elementlar va yozuvchining ijodiy uslubi bilan bog‘lanishini aniqlash [24].

Boshlang‘ich sinflarda adabiy tushunchalarni o‘rganish yuqori sinflardagidan farq qiladi. Chunki kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yoshi, saviyasi, tajribasi badiiy asar ustida qat’iy nazariy tushunchalar asosida ishlashni ko‘tarmaydi. Biz ilmiy-metodik izlanishlar davomida boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarda adabiy tushunchalarni tarkib toptirishni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lishni maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu bosqich amal qilinadigan 1-sinfda asarning estetik tarbiyaviy g‘oyasini kuzatish, asar voqealarini qismlarga ajratish; badiiy asar mavzusini aniqlash, she’riy nutq bilan nasriy nutqning bir-biridan farqini kuzatish bilan bog‘liq tushunchalar ustida ishlanadi. O‘quvchilarning talaffuzi va og‘zaki nutqiga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

2. Boshlang‘ich bosqich. 2-sinfda amal qilinadigan bu bosqichda asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini kuzatish; asar mavzusi va g‘oyasi ustida ishlash; dialog haqida umumiy tushuncha berish; asarni qismlarga ajratish va uning o‘zaro bog‘liq voqealardan tashkil topishi haqida tasavvur hosil qilish; asardagi kichraytirish, erkalash, ko‘chma ma’noli so‘zlarning badiiy xususiyatlarini aniqlash; she’riy nutqning band va misralardan

tashkil topishiga doir tushunchalar ustida ishlanadi. Adabiy janrlarning farqi, asarning tarkibiy elementlari, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar va adabiy qahramonlarning o‘zaro munosabatlarini aniqlashga o‘rgatiladi.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich amal qilinadigan 3-4-sinflarda asar qahramonlarining suvrati va siyratini kuzatish, tasvirlangan voqealarning hayot bilan bog‘liqligini anglashlariga erishish, yozuvchining asar qahramonlariga munosabati ustida ishlash; hikoya va tasvir haqida tushuncha; tabiat tasviri, qahramon tasviri ustida ishlash; asarni qismlarga ajratish va uning rejasi haqida ma’lumot berish; asardagi voqealarning rivojlanib borishini, sabab-natija bog‘lanishini aniqlash; o‘xshatish, jonlantirish, ibora haqida tushuncha hosil qilish; nasriy va she’riy nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini kuzatish; she’riy nutqqa xos takror, mubolag‘a haqida amaliy tushuncha hosil qilish; she’riy nutqda so‘zlar tartibi, she’r tuzilishi – qofiya, band haqida umumiy tushuncha hosil qilish kabi ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ham adabiy tushunchalarni shakllantirish o‘zining lingvodidaktik, pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko‘ra bosqichlarga bo‘lib o‘rganishni taqozo etsa-da, o‘quvchilarning adabiy tushunchalarini shakllantirish tizimi haligacha ishlab chiqilmaganligi afsuslanarlidir. Biz tadqiqot muammosi yuzasidan olib borgan tajribalarimiz asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni amaliy va tadrijiy shakllantirish tizimini taxminan quyidagicha taqsimlab chiqdik.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida shakllantiriladigan adabiy tushunchalar mazmuni

O‘rganiladigan adabiy tushunchalar tizimi	1- sinfda o‘rganiladigan adabiy tushunchalar mazmuni	2-sinfda o‘rganiladigan adabiy tushunchalar mazmuni	3-sinfda o‘rganiladigan adabiy tushunchalar mazmuni	4-sinfda o‘rganiladigan adabiy tushunchalar mazmuni
Asarning tarkibiy qismlari haqida ma’lumot	Asar qahramonlari va voqealarini aniqlash.	Asar mavzusi yuzasidan umumiy tasavvur hosil qilish.	Asar qahramonlarining o‘zaro munosabatlari ustida ishlash	Asardagi voqealarning rivojlanib borishini kuzatish.
Asar kompozitsiyasi haqida ma’lumot	Asarni asosiy qismlarga ajratish.	Asar voqealarining o‘zaro bog‘likligi haqida tasavvur hosil qilish.	Asarni asosiy qismlarga ajratish va rejasi tuzish.	Voqealarning sabab-natija bog‘lanishini aniqlash.
Asar tili ustida ishlash	Badiiy asar tilining emotsionalligini kuzatish.	Asardagi hayajonli nutqni kuzatish. Kichraytirish, erkalash, ko‘chma ma’noli so‘zlarni aniqlash.	O‘xshatish, jonlantirish, ibora haqida tushuncha hosil qilish.	Nasriy va she’riy matndagi jonlantirish, o‘xshatish, iboraga xos xususiyatlarni kuzatish.
She’r tuzilishi haqida ma’lumot	She’riy nutq bilan nasriy nutqning bir-biridan farqini kuzatish.	She’riy nutqning ohangdosh so‘zlardan tashkil topishi haqida tushuncha berish.	She’r tuzilishi – qofiya, misra, band haqida tushuncha hosil qilish.	She’riy nutqda obraz, jonlantirish, o‘xshatish, ibora, peyzaj haqida tushuncha hosil qilish.
Adabiy janrlar haqida ma’lumot	She’r, qo‘shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, hikoyalarni farqlash.	She’r, qo‘shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, hikoya haqida tushuncha berish.	Rivoyat, masal, latifa, qofiya, misra, band, dostonga xos umumiy xususiyatlar haqida tushuncha hosil qilish.	Sarlavha, obraz, jonlantirish, o‘xshatish, ibora, peyzaj, dialog, g‘oyaga xos xususiyatlarni farqlash.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar tahlilida o‘quvchilarning yoshi, hayotiy tajribasi, saviyasi, tasavvur qila olish uquvi va asar bilan tanishish jarayonida hosil bo‘lgan ruhiy kayfiyati hisobga olinadi. Adabiy tushunchalarni o‘rganish o‘quvchilarning ichki hissiy kechinmalari bilan bog‘lanmasa, ularda adabiyotga bo‘lgan qiziqish susayadi. O‘quvchilarda estetik zavq uyg‘otish uchun o‘qituvchi adabiy tushunchalardan vosita sifatida foydalanishi lozim. Boshlang‘ich sinflarda adabiy tushunchalar badiiy asar matnining tahlili jarayonida shakllantiriladi. Jumladan, she’r, qo‘shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, hikoya (1-2-sinflar); rivoyat, masal, latifa, qofiya, misra, band, doston (3-sinf); sarlavha, obraz, jonlantirish, o‘xshatish, ibora, peyzaj, dialog, g‘oya (4-sinf) kabi adabiy tushunchalar yuzasidan amaliy bilim hosil qilinadi. Mazkur tushunchalar dastur talablariga ko‘ra 1-sinfdan boshlab badiiy asarning g‘oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlari bilan bog‘lab shakllantiriladi.

1-sinf o‘quvchilari ertak, masal, rivoyat, she’r, hikoya, maqol, topishmoq, tez aytish janrlariga mansub asarlarni o‘qiydilar va shu jarayonda ularni janriy xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlay boshlaydilar. O‘qituvchi bo‘lim yuzasidan o‘tkaziladigan takrorlash-umumlashtiruvchi darsda “Siz “O‘zbekiston – mening Vatanim“ bo‘limida qaysi she’r va hikoyalar bilan tanishdingiz? Vatan haqidagi maqollarni ayting?“ kabi savol-topshiriqlar bilan murojaat qiladi. Fasllarga doir bo‘limlar o‘rganilayotganda fasllarga bog‘liq topishmoqlar o‘quvchilarni atrofimizdagi olam bilan chuqurroq tanishtirishga yordam beradi.

2-sinfda o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish uchun “Bir parcha patir olamga tatir“ topishmog‘ining javobini toping. Uni topishda sizga nima yordam berdi?, Nima uchun buni topishmoq deb aytamiz?“, “Er haydasang kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda“ maqoli nima haqda?, Uni kim yaratgan?, Siz bilan qaysi maqollarni o‘qib-o‘rgandik?, Nima uchun ularni maqollar deb nomlaymiz?“, “Qaysi ertaklarni o‘qidik?, Qaysi hikoyalarni o‘qidik?, Ertaklarni kimlar yaratadi?, Hikoyalarni kim yaratadi?, Qaysi biridagi voqealar hayotda bo‘ladi?, Ertakdagi voqealar hayotda yuz beradimi?, O‘zingiz bilgan ertaklar nomini ayting. Ertagingiz qanday boshlanib, qanday so‘zlar bilan tugaydi? Hikoya shunday so‘zlar bilan boshlanadimi?“ kabi savol-javoblar o‘rganilayotgan mavzular bilan bog‘liq holda tashkil etiladi.

3-sinf o‘qish darslarida o‘quvchilar bilimi ibora, lof kabi janrlarga doir tushunchalar bilan boyitiladi. Tadqiqot muammosiga doir izlanishlarimizda u yoki bu janrga mansub asarlar o‘rganilayotganda boshqa janrga oid asarlarga taqqoslash ijobiy samara berishi kuzatildi. Bir janrdagi asarlar o‘rganilayotganda boshqa janrdagi asarlarga taqqoslash orqali ularning farqi o‘rgatiladi.


4-sinfda didaktik talablardan kelib chiqqan holda badiiy asarda tugun, voqealar rivoji, syujet, kompozitsiya, g‘oya, tasviriy ifoda vositalari ustida ishlanadi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning faolligini oshirish, tahlilda individual yondashish tamoyillari o‘qitish jarayonida qo‘llanadigan metod va usullarni belgilab beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy asarlar izohli o‘qish va ifodali o‘qish metodlarida o‘rganiladi. O‘qish darslarining vazifasi o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini takomillashtirish; badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otish, kitob o‘qishni sevuvchi, undan zavq ola biluvchi haqiqiy kitobxonni tarbiyalash; o‘quvchilarni jamiyat va borliq, kishilarning xulq-atvori, mehnati, turmushi to‘g‘risida boshlang‘ich bilimga ega qilish; lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilar asarni amaliy tahlil qilish ko‘nikmalarini ham egallaydilar. Xususan, adabiy tushunchalarni uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida o‘rganish bilan bog‘liq muammolar ilmiy-metodik adabiyotlarda o‘z yechimini topmagan. O‘qish dasturida faqat necha betli hajmdagi asarlar o‘rganilishi ko‘rsatilgan, xolos. Badiiy asar tahlilida muallif va qahramonlar nutqini, matndagi dialogik o‘rinlarni aniqlash, badiiy asar voqealari muallif yoki asar qahramonlari tilidan hikoya qilinishi yuzasidan tushunchalar qaysi sinfdan boshlab o‘rgatilishi, ular haqidagi ma’lumotlar sinfdan-sinfga qay tarzda to‘ldirilib borilishi bilan bog‘liq masalalar e’tibordan chetda qoldirilgan.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida adabiy tushunchalarni o‘rganish o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish bilan bog‘liq holda olib boriladi.

Adabiy tushunchalarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nutqida xalqona iboralar, hissiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘zlar, belgi-sifat bildiruvchi so‘zlar, o‘xshatish va jonlantirish uchun qo‘llangan ifodalar, ko‘chma ma’noli so‘zlar o‘zlasha boradi. Masalan, topishmoq aytish va uning javobini topish jarayonida “Topishmoqning javobini topishda uning matnidagi qaysi so‘zlar yordam berdi?“ yoki: “Topishmoqning javobini topishda qaysi so‘zlarga e’tibor berdingiz?“ kabi savollar berilca, o‘quvchilar topishmoqda yashiringan narsa-hodisalarning belgilarini ifodalovchi so‘zlarga diqqat qaratadilar, ularni nutqida qo‘llaydilar. Natijada bu so‘zlar o‘quvchining o‘z so‘ziga aylanadi.

XULOSA. Ta’lim-tarbiya jarayoni bilan atrof-muhit o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti uchun asosiy manba vazifasini o‘taydi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri va samarali tashkil etish, o‘qituvchi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zida juda ko‘p qirrali bilim, yuksak mahorat, iqtidor va psixologik savodxonlik kabi ijobiy sifatlarni shakllantirishga intilishi lozim. Adabiy tushunchalarni shakllantirish bevosita badiiy asarni o‘rganish, tahlil qilish jarayonida amalga oshirilishi tufayli badiiy-estetik tahlilga oid ilg‘or va samarali usullar biz tadqiq etadigan ilmiy-metodik muammoga ham



GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNI ASRASH MUAMMOSI

Xakimov Alisher Olimjonovich-
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axbarot texnologiyalari universiteti, gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti v.b, p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. Ko‘rinadiki, ma’naviyat – insonni ruhiy poklikka yetaklaydigan, qalbini iymon-e’tiqod nurlari bilan charog‘on qiladigan va yuksaltiradigan mezon. Maqolada globallashuv sharoitida milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrash masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar; qadriyat, ma’naviyat, madaniyat, inson, xalq, ta’lim, tarbiya, meros, islohot, kadrlar tayyorlash.

ПРОБЛЕМА СОХРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Хакимов Алишер Олимжонович
Мохаммед Аль-Хорезми Ташкентский университет информационных технологий, доцент и PhD

Аннотация. Кажется, что духовность - это критерий, который ведет человека к духовной чистоте, укрепляет и возвышает его душу лучами веры – вероисповедания. В статье рассматриваются вопросы сохранения национальных и духовных ценностей в условиях глобализации.

Ключевые слова; ценность, духовность, культура, человек, люди, образование, воспитание, наследие, реформа, подготовка кадров.

THE PROBLEM OF PRESERVING NATIONAL-SPIRITUAL VALUES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Xakimov Alisher Olimjonovich
Mohamed Al-Khwarazmi Tashkent University of akhbarot technologies, associate professor and PhD of the Department of Humanities.

Annotation. it seems that spirituality is a criterion that leads a person to spiritual purity, and strengthens and exalts his soul with the rays of faith – faith. The article discusses the issues of preserving national and spiritual values in the context of globalization.

Keywords; value, spirituality, culture, human, people, education, upbringing, heritage, reform, personnel training.

Insonni inson millatni millat, xalqni xalq qiladigan tushuncha – bu shu insonning, shu millatning, shu xalqning qadr-qimmatidir.

Kirish. Qadriyat shunday ma’naviy olamki, uning turfa qirralari, ming bir jilolari, quvonchu tashvishlari bor.

O‘zbek xalqi qadriyat, ma’naviyat va madaniyat, ta’lim va tarbiyaga oid boy merosga ega bo‘lib, asrlar mobaynida yosh avlodga insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, birodarlik va kamtarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni har tomonlama chuqur singdirib kelgan. Zero, ertangi kuni uchun qayg‘uradigan har bir mamlakat, har bir jamiyatda ma’naviyat va ma’rifat kabi tushunchalar yuksak qadrlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shuning uchun ham bizning mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb e’lon qilingan. Respublikamizning “Davlat tili haqida”gi hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlari, “Kadrlar tayyorlash davlat dasturi” va boshqa me’yoriy hujjatlarida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy va davlat tili masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Vatanimizning har bir fuqarosi, avvalo, ma’naviyat o‘zi nima, ma’naviy qadriyatlar nima degan tushunchalarni teran anglashi, qalbida his qilishi darkor.

Ko‘rinadiki, ma’naviyat – insonni ruhiy poklikka yetaklaydigan, qalbini iymon-e’tiqod nurlari bilan charog‘on qiladigan va yuksaltiradigan mezon. Insonning jamiyatdagi o‘rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma’naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Ma’naviyat – ajdodlarni avlodlarga, o‘tmishni bugunga, bugunni esa kelajakka bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. U ota-bobolarimiz to‘plagan jamiki yaxshi fazilatlar va xislatlar, qadriyatlar va an’analarning majmui, qolaversa, ular to‘plagan tarixiy- ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o‘zida mujassam etadi.

To‘g‘rilik. Muqaddas Hadisi sharifda “Dunyoda birgina to‘g‘ri va diyonatli odam topilar ekan, hali qiyomat bo‘lmaydi”, deb yozilgan ekan. Ya’ni, to‘g‘rilik – dunyoning posboni, diyonat borligi – insoniyatning mavjudligi demakdir. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ma’naviy merosida ham to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, odillik fazilatlari va tushunchalari keng o‘rin egallagan. Uning butun hayoti va faoliyati insonning ma’naviyati, baxt-saodati, xalqning osoyishtaligi, mamlakat farovonligi, obodonchilik ishlari, mehr-muruvvat, ilm-fan, san’at va adabiyotning ravnaqiga bag‘ishlangan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Insonning qadr-qimmatini belgilovchi tamoyillardan biri – bu to‘g‘rilik va poklik. To‘g‘ri so‘zli bo‘lish insonning qadr-qimmatini abadiyatga muhrlaydi. Uni turli balo-qazolardan asraydi va kelajak sari yetaklaydi. Yolg‘on so‘zlash gunohlarning ichida eng og‘iri va gunohlarning boshi sifatida ilmiy manbalarimizda qayd etiladi. Xalqimizning “Yolg‘onning umri qisqa bo‘ladi”, “Yolg‘onchining uyigacha”, “Qing‘ir ishning qiyig‘i qirq yildan keyin ham chiqar” kabi ibratli fikrlari bejiz aytilmagan. Chunki yolg‘on so‘zning bir kun kelib, yolg‘on ekanligi ochiladi. Shunda yolg‘on gapirgan kishining o‘z qadr-qimmatini yo‘qotishi, tabiiy. Yolg‘on aralashgan joyda poklik bo‘lmaydi. Yolg‘onlarning mevasini terib yeb yurgan odamni hech qachon pok odam deb bo‘lmaydi. Yolg‘ondan tap tortmaydigan odam boshqa gunoh ishlardan ham tap tortmaydi, chunki qilgan gunohlarini ana shu yolg‘onlari bilan xaspo‘shlab, hech kimni voqif etmaydi. Shuning uchun yolg‘onchining ikki yuzi qora deyishsa kerak.

To‘g‘rilik va poklik bor joyda esa yolg‘onning umri tugaydi. To‘g‘rilikning naqadar muhimligini, uni targ‘ib qilishni ulug‘lab, alloma Alisher Navoiy shunday deydi:

Haq yo‘linda kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Kimki, haq Taolo yo‘lida, ya’ni to‘g‘rilik va adolat yo‘lida bir harf o‘qitsa, uning haqini yuz xazina bilan ham ado etib bo‘lmaydi, demoqchi. Bu yerda to‘g‘ri va odil fikrlaydigan, kelajak avlodlarni to‘g‘rilikka boshlaydigan usozlar va murabbiylarning xizmatlari bebaho ekanligi nazarda tutilgan. Albatta, insonni to‘g‘rilikka, adolatga, haqqa boshlash osonlik bilan amalga oshmaydi. Uning zamirida qanchadan-qancha mehnatu mashaqqat, zahmat yotadi. Shuning uchun bunday zahmatkash ustozlarning qadri yuksak va baland bo‘ladi. Ularning haqi har qancha boylik yoki xazinadan ham mo‘tabarroqdir. Quyidagi satrlarda esa ana shunday mo‘tabarlikning asosida nima turishiga e’tibor qaratilgan:

Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar.

Demak, insonning mo‘tabarligi, buyukligi uning chin so‘zlari bilan belgilanarkan. O‘zbek xalq maqollarida “Boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir”, – deb bekorga uqtirilmagan. To‘g‘rilik, rostgo‘ylik, oshkoralik kishini yomonliklardan saqlaydi va faqat yaxshiliklar sari boshlaydi. To‘g‘ri so‘zli odam biror joyda pand yemaydi, noqulay ahvolga tushmaydi va umrini xotirjamlik bilan o‘tkazadi. Umr xotirjamligi esa kishining salomatligini, huzur-halovatini ta’minlaydi.

Vatanparvarlik. Insoniyatning buyuk farzandlari, ulug‘ mutafakkirlar ham o‘z ijodlari va amaliy faoliyatlarida Vatanga bo‘lgan yuksak muhabbat hissini namoyish etganlar. Ular bildirgan fikrlarga murojaat qilib, vatanparvarlikning el-yurt tashvishi va manfaatlari bilan hamohang ekanligini, insonning kamoli vatanining yuksalishi bilan bog‘liqligini anglab yetish qiyin emas. Ota-bobolarimiz Vatanni sevmoq – iymondandur, deb bejiz uqtirishmagan. Vatani bor odamning g‘urur-iftixori yuksak, maqsad-muddaosi aniq bo‘ladi. Vatani borligini his etgan inson har qanday sinovga, har qanday mashaqqatga doimo tayyor turadi. To‘maris, Shiroq, Spitmon, Jaloliddin Manguberdi singari xalq qahramonlarining jasorati, Vatan ozodligi yo‘lidagi mardligi va jonbozligi yuqoridagi fikrimizning yorqin namunasidir.

Vatandan begonalashish esa yurt taqdiriga loqaydlik va befarqlikda ko‘rinadi. Mashhur faylasuflardan biri befarqlik haqida shunday yozadi:

“Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma – nari borsa,

ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham. Faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi”.

Shunday ekan, har bir insonda vataniga, uni o‘rab turgan atrofga nisbatan daxldorlik hissi, mas’uliyat hissi shakllangan bo‘lmasa, uni komil insonlar sirasiga kiritib bo‘lmaydi. Inson kamoloti, yuksak ma’naviyati uning vataniga bo‘lgan mehr- muhabbati hamda sadoqati bilan o‘lchanadi.

Davlat tili. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir, deb ta’kidlanadi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida. Demak, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro davlat tiliga e’tiborli bo‘lishi va davlat tilida ish yuritishni bilishi shart. Ona tilimizning davlat tili maqomini olishi ajdodlarimizning asriy orzusi edi. O‘zbek tilining davlat tili darajasiga ko‘tarilishida Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Zokirjon Furqat, Muqimiy, Komil Xorazmiy, Muhammad Rizo Ogahiy, Hamza, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi buyuk bobokalonlarimiz va boshqa so‘z ustalarining xizmatlari katta. Biz ana shunday bobolarimizning ulkan merosini bilmasdan turib, davlat tilining qadr-qimmati va mazmun-mohiyatini anglab olishimiz ham amru mahol. Millat ravnaqi uchun ona tilining nechog‘li ahamiyatga ega ekanligini har bir inson, avvalo, yurakdan his qilishi kerak.

O‘zbek pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarida ona tilimiz haqida shunday fikrlarni bayon qiladilar:

“Hifzi lison deb har bir millat o‘z ona tili va adabiyotini saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti – til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonliklar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursin, kundan-kun unutmak va yo‘qotmaqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishtirmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdur. Zig‘ir yog‘i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur” (Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T. 1992. 32- bet).

Albatta, tilning sofligi uchun har birimiz mas’ulmiz. Xorijiy tillarni o‘rganish ona tilini unutish hisobiga emas, balki ona tilini yanada chuqurroq o‘rganish asosiga qurilishi kerak. Bugungi kunda barcha sohalarda bo‘layotgani singari, ona tilimiz va u bilan bog‘liq muammolar ham asta-sekin o‘z yechimini topmoqda.

Aytishimiz mumkinki, milliy iftixorimiz, milliy g‘ururimiz negizida, hech shubhasiz, millatimizning tili turadi. O‘zbek tili – o‘zbek xalqining bebaho xazinasi, uning ma’naviyati va madaniyatining asosidir.

Keyingi yillarda jadal rivojlanishga yo‘l tutgan sohalar – bu onomastika va toponimikadir. Onomastika termini yunoncha ovonamaotixn – nom berish san’ati, ya’ni tildagi qar qanday atoqli otlarni tadqiq qiluvchi soha. Kishilar, hayvonlar, shaharlar, hududlar va boshqalarga atab qo‘yilgan ismlar, taxalluslar atoqli otlar hisoblanadi. Masalan, Navoiy, Bobur, Yo‘lbars, Toshkent, Markaziy Osiyo kabi. Toponimika termini yunoncha topos – joy, onoma

– ism, nom demakdir. Ya’ni Yer yuzining quruqlik qismida joylashgan tabiiy- jug‘rofiy va sun’iy (inson yaratgan) ob’ektlarning atoqli oti.

Onomastika va toponimika sohalarida olib borilayotgan islohotlar samarasi o‘laroq, deyarli barcha viloyatlar toponimikasi yuzasidan 20 ga yaqin ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ular Qashqadaryo viloyati (T.Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxondaryo viloyati (Yo.Xo‘jamberdiev, X.Xolmo‘minov), Samarqand viloyati (T.Rahmatov, N.Begaliev, A.Turopov), Sirdaryo viloyati (N.Mingboev), Toshkent viloyati (M.Ramazanova), Buxoro viloyati (S.Naimov, A.Aslonov), Navoiy viloyati (O‘.Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Farg‘ona viloyati (N.Oxunov, S.Gubaeva, J.Latipov), Xorazm viloyati (Z.Do‘simov, A.Otajonova), Toshkent shahri (Sh.Qodirova), Shimoliy o‘zbek shevalari toponimiyasi (L.Karimova) va boshvalar.

Toponimik terminologiyani yoki nomlarni 3 ga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. O‘zbek tilida avvaldan mavjud bo‘lgan ismlar
2. O‘zbek toponimikasi rivoji jarayonida yaratilgan yangi ismlar.
3. Xorijiy tillardan o‘zlashtirilgan ismlar.

Hammamizga yaxshi ma’lumki, o‘zbek tilida avvaldan mavjud bo‘lgan ayrim toponimik nomlar milliy an’analarimizdan yiroq va umuman joylarimizga aloqasi bo‘lmagan ismlardan iborat edi. Masalan, Marks, Engels, Lenin, Orjanikidze, Kalinin, Sverdlov, 14 komissar, Xalqlar do‘stligi, Gorkiy, Pobeda va

hokazo.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida joy nomlarini qayta ko‘rib chiqish, toponimik komissiya ish boshalagandan buyon mamlakatimizning ko‘pgina hududlarida milliy an’analarimizga muvofiq nomlarni tanlash, alohida xizmatlari bor insonlarning nomini abadiylashtirish kabilarga birinchi navbatda e’tibor qaratildi va bu borada ko‘pgina ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda ko‘pgina joylar, ko‘chalar, bekatlar va boshqalar yangi nomlar bilan atalmoqda. Masalan, Shayxontoxur, Olmazor, Muzrabod, Qiziriq, Buyuk ipak yo‘li, Bunyodkor va G‘afur G‘ulom, Mirzo Ulug‘bek, Bobur bog‘lari va b.

Toponimik ismlar orasida ba’zan xorijiy so‘zlar bilan atash ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, Vestrn Unyon, Interneyshn, Inter Kontinental, Kontinent, Izgara kabob va h.

Xulosa va takliflar.Joylarga ism qo‘yishning ham mamlakatimiz va xalqimiz ravnaqi uchun, kelajak uchun, yetishib kelayotgan yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Shunday ekan, joy nomlarini qo‘yishda milliy an’analarimiz, xalqimizning tarixi va xizmatlarini e’tiborga olish zarur.

Adabiyotlar

1. Атаджанова Ш. Оилада ўспирин-ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари номзоди. … дисс. – Т., 2001. – 136 б.

2. Балагланов А.Р. Патриотическое воспитание младших школников средствами изобразителного искусства: Автореф. дис. … канд.пед.наук. – Кострома, 2000. – 27 с.

3. Бейсембаева А.А. Патриотическое воспитание старшеклассников средствами казахского героического эпоса. Канд.пед.наук.....автореф. –Алматы: 2004. – 23 с.

4. Галиахметов И.Р. Патриотическое воспитания школников и пути его совершенствования. – Казан, 2001. – С.61-62.

5. Горбова М.А. Воспитания патриотизма у старших классников игровыми формами турстко-краеведческой деятелности: Автореф. дис. … канд.пед.наук. – М., 1999. – 24 с.

6. Илин И.И. Формирование патриотическое отношений у студентов: Автореф. дис. … канд. пед.наук. – Тамбов, 2003. – 24 с.

7. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – 139 б.

8. Каган М.С. Гражданское общество как культурная форма сотсиалной системы // Сотсиально-гуманитарные знания. – М., 2000. - №6. – С.49-50.

9. Калдыбекова А.С. Интернатсионалное воспитание учащихся в старщих классов казахской школе в протсессе изучения родной литературы (На меатериале казахскых школ Республики Узбекистан): Дисс. … канд.пед.наук. – Т., 1993. – 136 с.

10. Караковский В.А. Стат человеком. Общечеловеческие сенности – основа селостного учебно-воспитателного протсесса. – М., 1993. – 80 с.

11. Каримбеков С. Военно-патриотическое воспитание учащихся старших классов в протсессе преподавания литератураы (на материале русской литературы): Дисс.канд.пе.наук. – Т., 1991. – 137 с.

12. Кирякова А.В. Теория ориентатсии личности в мире сенностей. – Оренбург: Изд-во «Южный Урал», 1996. – 188 с.

13. Клименко И.М. Формирование патриотизма в протсессе обучения истории и внеучебной работы: Автореф. дис. … канд.пед.наук. – Екатеринбург, 1999. – 22 с.

ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI UYG‘UNLASHTIRISH ASOSIDA TA’LIM BERISH METODOLOGIYASI

Shaxlo Mamaniyozovna Xudoyqulova
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida olib boriladigan dars mashg‘ulotlari o‘zaro solishtirilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish asosida tashkil qilinadigan dars mashg‘ulotlarining afzalliklari ochib berilgan. Maqoladagi fikrlar umumiy xarakterga ega bo‘lib, barcha fanlardan tashkil qilinadigan dars mashg‘ulotlariga tatbiq qilish mumkin.

Kalit so‘zlar: an’naviy ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, akmeologik yondashuv.

EDUCATIONAL METHODOLOGY BASED ON THE HARMONIZATION OF MODERN APPROACHES

Shakhlo Mamaniyozovna Khudoykulova
Associate Professor of the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Abstract. This article compares lessons conducted on the basis of traditional and modern pedagogical approaches. Also, the advantages of classes organized on the basis of the harmonization of modern pedagogical approaches are revealed. The ideas in the article are of a general nature and can be applied to lessons organized in all subjects.

Key words: traditional education, person-oriented approach, competence approach, acmeological approach.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МЕТОДИКА, ОСНОВАННАЯ НА ГАРМОНИЗАЦИИ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ

Худойкулова Шахло Маманиезовна
доцент Узбекско-Финляндского педагогического института

Аннотация. В данной статье сравниваются уроки, проводимые на основе традиционных и современных педагогических подходов. Также раскрываются преимущества занятий, организованных на основе гармонизации современных педагогических подходов. Идеи статьи носят общий характер и могут быть применены к урокам, организованным по всем предметам.

Ключевые слова: традиционное образование, личностно-ориентированный подход, компетентностный подход, акмеологический подход.

KIRISh. Zamonaviy dunyoda jamiyatning har tomonlama rivojlanishi ta’lim mazmuni va sifati bilan bog‘liq ekanligi o‘z isbotini topib bormoqda. Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining ta’lim sohasiga ham jadal sur’atlarda kirib kelishi, axborot oqimining ko‘pligi, innovatsion texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi, albatta, ta’lim mazmunida ham shunga mos o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo qiladi. Ta’limning bugungi kundagi vazifasi sohaga qo‘yilgan davlat siyosatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash bo‘yicha davlat talablarni sifatli bajarish, o‘quv adabiyotlarining zamonaviy avlodini yaratish, o‘qituvchi-murabbiylarning metodikasini uzluksiz takomillashtirish, o‘quvchilarga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida dars berish kabi pedagogikaning metodologik ahamiyatga ega muammolari bilan bevosita bog‘liq. Ushbu muammolarning hal qilinishi ta’lim mazmuniga qo‘yilayotgan davlat talabining sifatli bajarilishini ta’minlaydi, ta’lim berishning asosiy konseptual masalalarining ijobiy yechimiga sabab bo‘ladi. Bu esa fan metodologiyasi va metodologik tadqiqi bilan bog‘liq jarayonlardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Umuman, metodologiya tadqiqi ratsional yondashiladigan, murakkab, ko‘pqirrali ilmiy-ijodiy faoliyatdir. Fan metodologiyasining tadqiqi uning rivojlanish qonuniyatlari, ob’ektni ilmiy konsepsiya nuqtai nazaridan tadqiq qilish bo‘yicha murakkab savollarga javob topishga yordam beradi. Fan metodologiyasi borasidagi fikrlar “metodologiya”, “tadqiqot metodi” va “metodika” tushunchalarining

o‘zaro munosabatida dialektik aloqadorlikni yuzaga keltiradi.

Metodologiya tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limotdir[1]. Metodologiyani metodlar haqidagi ta’limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi yoki voqea va hodisalarni ilmiy bilish, uning mohiyatini anglash va uni o‘zgartirishning algoritmidir, deyish ham mumkin. Umuman, metodologiya metodlarga va voqelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi. Demak muayyan fanning nazariy va amaliy qonuniyatlariga yondashuv usullari, uni tadqiq etish metodlari tizimi metodologiya tushunchasi ostida oydinlashadi.

Tadqiqot metodi o‘rganilayotgan hodisaning mohiyati haqidagi umumiy nazariy g‘oyalardan kelib chiqadigan tadqiqot yo‘lidir. Tadqiqot metodlari tadqiqotchiga o‘rganilayotgan ob’ektni belgilangan maqsadga muvofiq tadqiq etishning eng oqilona ussullari tizimidir. Tadqiqot metodlari uchta yirik turga bo‘linadi: 1. Emperik tadqiqot metolari. 2. Emperik-nazariy tadqiqot metodlari. 3. Nazariy tadqiqot metodlari.

Metodika har qanday maqsadli harakatlarni amalga oshirish tartibi, tayyor algoritmidir. Metodika usul va vazifalarni aniq qo‘yishi bilan metoddan farq qiladi.

Fanning metodologik tadqiqida bu tushunchalar o‘z darajasiga ega. Metodologiya ushbu tushunchalarning asosini tashkil qiladi. Metod uchun metodika, metodika uchun tadqiqot metodlari va o‘z navbatida tadqiqot metodlari uchun metodologiya asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va pedagogikaning zamonaviy paradigmalari muammosi mamlakatimizda B.Xodjaev, L.G.Boboxodjaeva, X.A.Shayxova, G.H.Tillaeva, N.Indiaminov, B.Babajanov kabi tadqiqotchilarning; xorijda I.S.Yakimanskaya. S.Morozov, D.Smolyakova, N.Meyer, A.Klapper kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Pedagogika fani ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida doimo o‘sish, o‘zgarish va takomillashishda davom etmoqda. Har bir davrning o‘z o‘rganish muammolari, unga yondashuv usullari, ilmiy tadqiqot metodologiyasi bir-biridan farq qiladi. Ayni paytda har bir davr uchun umumiy qonuniyatlar mavjudki, ular metodologiyaning tayanch tamoyillari va konsepsiyasini tashkil qiladi.

Ta’lim berish pedagogikaning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tashkil qilish, mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish metodlari, pedagogik jarayonga nisbatan yondashuvlar har bir davrning shart-sharoiti va talablaridan kelib chiqib tanlanadi, yangi zamonaviy yondashuvlar kashf etiladi. Bugungi kun pedagogikasida ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, akmeologik, evristik texnologiyalar asosida tashkil etish amaliy faoliyatning samarali shakllaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur zamonaviy yondashuvlar pedagogikada metodologik ahamiyatga ega mazmun va shakl hodisalari bo‘lib, ularda o‘quvchi shaxsini har tomonlama takomillashtirish, ularga individual yondashish, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini oshirish, o‘quvchilarda muayyan kompetentlikni shakllantirish metodlari va ularning iqtidorlarini yuzaga chiqarish bilan bog‘liq muhim masalalarga o‘ziga xos innovatsion yondashish nazarda tutiladi.

Ta’limning uzluksiz ravishda rivojlanib borishi dars mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish shaklida kechmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishdan maqsad ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishdan iborat. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi o‘quvchi shaxsini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yish, uning qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan barcha qulayliklar, shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Mazkur texnologiyada ta’lim oluvchi ta’limning keng imkoniyatlarga ega sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining o‘quvchiga munosabati shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Ushbu texnologiyani loyihalashtirishda ta’lim oluvchi shaxsining ruhiy, jismoniy va yosh xususiyatlari, uning fanga tayyorlik darajasining hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasida insonparvarlik g‘oyasi pedagogika va psixologiya bilan birlashib, muayyan uyg‘unlikni namoyon qiladi. Mazkur texnologiyaning samarali ishlashi uchun o‘quvchi iqtidori muhim ahamiyatga ega. An’anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli ravishda shaxs yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining markazida o‘zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilish, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila olish, har xil vaziyatlarda mustaqil qaror qila olish, nostandart fiklash kabi fazilatlarga ega o‘quvchi shaxsi turadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim quyidagi xususiyatlarga ega:

- o‘quvchilarning ta’limdagi mustaqilligini ta’minlash, ular uchun ma’qul bo‘lgan metodlarni

tanlash;

- o‘quvchilarning mavjud bilim hamda salohiyatlariga, tajribalariga ishonch bildirish;
- o‘quvchilarning ijtimoiy xususiyatlari va turmush tarzini hisobga olgan holda o‘z “men”ini namoyon qilishga bo‘lgan intilishini rag‘batlantirish;
- o‘quvchilarning emotsional holati, shuningdek, ularning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini hisobga olish;
- o‘quvchilarning ta’lim olish strategiyasiga xos bo‘lgan o‘quv ko‘nikmalarini maqsadli shakllantirish;
- ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi vazifalarini qayta taqsimlash: o‘qituvchining yetakchilik rolini cheklash, unga yordamchi, maslahatchi sifatida qarash.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining asosiy tamoyili o‘quvchi shaxciyatidagi individuallikni tan olishdir. Shaxs yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi variantlilik va aql tavsifi tamoyillari asosida ish ko‘radi. Bunda variantlilik o‘quvchilarning individual xususiyatlari va tajribalariga qarab barcha uchun bir xil bo‘lmagan ta’limning turli modellaridan foydalanish (ushbu tamoyilning tatbiqi bo‘yicha mas’uliyat o‘qituvchida qoladi.) ni anglatsa, aql tavsifi bu o‘quvchilarning bilish, birgalikda harakat qilish va borliqni emotsional o‘zlashtirish jarayoniga qaratilgan texnologiyadir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli bolaning shaxsiy xususiyatlarini ochib berish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni (ijtimoiy, pedagogik) yaratishga qaratilgan. Bu modelda asosiy tushunchalar quyidagilar: talabaning sub’ek sifatidagi tajribasi, shaxsiy rivojlanish traektoriyasi va aqliy tanlov.

O‘qituvchining dars mashg‘ulotidagi shaxsga yo‘naltirish faoliyati yo‘nalishlari:

- dars davomida barcha o‘quvchilarning mehnatiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni yaratish;
- o‘quvchilarga dars boshida nafaqat mavzu, balki dars davomida o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ma’lumot berish;
- o‘quvchilarga o‘quv materialning turi va shaklini (og‘zaki, grafik, shartli-majoziy) tanlashga imkon beruvchi texnologiyalardan foydalanish;
- muammoli ijodiy vazifalardan foydalanish;
- o‘quvchilarni topshiriqlarni bajarishning turli yo‘llarini tanlash va mustaqil ishlatishga undash;
- dars mashg‘ulotida javob bergan o‘quvchilarni baholash (rag‘batlantirish) da ularning nafaqat to‘g‘ri javoblari, balki qanday mulohaza yuritgani, qanday usuldan foydalangani, nima uchun xato qilgani va bunga olib kelgan sabablarni tahlil qilish;
- dars oxirida bolalar bilan nafaqat nimalarni o‘rganganini muhokama qilish, balki dars jarayonida nimalar ma’qul (yoki noma’qul) bo‘lgani va yana nimani xohlashlarini, qanaqa yo‘llardan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida o‘quvchilarning fikrini o‘rganish;
- dars oxirida o‘quvchiga berilgan bahoni turli parametrlarda: to‘g‘rilik, mustaqillik, originallik, ijodiy yondashgalik bo‘yicha izohlash;
- uy vazifasi topshirig‘ini faqat mavzu va topshiriqlar doirasini belgilab berish bilan emas, balki uni bajarishning oqilona yo‘llarini ham tushuntirish.

Bunday dars mashg‘ulotlarida foydalaniladigan didaktik materialning maqsadi o‘quv dasturini ishlab chiqish, o‘quvchilarga kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatishdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda didaktik materialning turlari o‘quv matnlari, topshiriq kartochkalari, didaktik test kabilardan iborat. Vazifalar mavzu bo‘yicha, murakkablik darajasi bo‘yicha, foydalanish maqsadi bo‘yicha ko‘p darajali, tabaqalashtirilgan, individual yondashuv, o‘quvchi o‘quv faoliyatining yetakchi turini (kognitiv, kommunikativ, ijodiy) hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Bu yondashuvning markazida bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishda erishilganlik darajasini baholash qobiliyati turadi. O‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasida kartochkalarni tarqatadi, ularning bilish xususiyatlari va imkoniyatlarini bilib oladi, nafaqat bilim olish darajasini aniqlaydi, balki har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga oladi, faoliyatning shakl va usullarini tanlash orqali uning rivojlanishi uchun eng munosib sharoitni yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi o‘quv matni, undan foydalanish uchun didaktik va metodik materiallar, o‘quv muloqoti turlari, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini nazorat qilish shakllarini maxsus qurishni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarning olgan bilimlari kundalik hayotning real vaziyatlarida foydalanishlari uchun asqotishi kerak. Buning uchun ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. “Kompetensiya” lotin tilidan olingan bo‘lib, “o‘z kasbiga yaroqli, loyiq” degan ma’noni

anglatadi. Kompetensiya nafaqat olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarning majmuasi, balki egallangan nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasidir. Shu paytgcha ilmiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan “professionalizm” tushunchasi endilikda “kompetensiya” tushunchasi bilan o‘rin almashmoqda. “Professionalizm” tushunchasi faqat muayyan fan yoki soha bo‘yicha chuqur malakaga ega bo‘lishdir. “Kompetensiya” tushunchasi esa nafaqat kasbiy malakalarni, balki psixologik va qisman falsafiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ham egallash zarurligini taqozo qiladi. Kompetensiyaning amaliy ahamiyati kasbiy bilimlar va tanlangan fan bo‘yicha faoliyat yuritish uchun zarur malakalar yig‘indisida ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda pedagogika nazariyasi va amaliyotida “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari o‘zaro muqobil tushunchalar sifatida ishlatiladi. Aslida bu ikkita tushuncha bir-biridan farq qiladi. Kompetensiya o‘quvchi yoki xodimning kasbiy tayorgarlik darajasiga qo‘yilgan talabni, kompetentlik esa o‘quvchi yoki xodimning xuddi shu talablarga javob beruvchi sifatni anglatadi. Nemis olimi Hilbert Meyr o‘quvchi va o‘qituvchining kompetensiyalarini o‘zaro farqlaydi va bu atamani, ayniqsa, o‘quvchiga yo‘naltirish lozimligini ta’kidlaydi:

– kompetentli o‘quvchi “quruq bilim” sohibi bo‘lib qolmasdan, o‘z bilimlaridan yuzaga keladigan vaziyatlarda yetarlicha foydalana oladi, u xotirasida tez tiklanadigan (faol) bilimlar mazmuniga ega.

– kompetentli o‘qituvchi esa pedagogik faoliyatida o‘ziga ishongan holda, o‘zini qiynamasdan (sog‘ligini asragan holda) nazokat bilan dars bera oladi. Bundan tashqari, u ta’limdagi qiyinchiliklarni anglagan holda o‘z ustida ishlashga tayyor turadi.

Kompetensiya so‘zining umumiylik ma’nosi, uning muayyan sistemani tashkil qilishi, bu sistemadagi tushunchalarni alohida ajratib olgan holda mashq qilib bo‘lmasligi, bir so‘z bilan aytganda, uning qobiliyatlar jamlamasi ekanligi e’tirof etilgan[2].

Umuman, bugungi kun pedagogikasida bilimlar o‘rgatishdan ko‘ra ularni o‘rganishga o‘rgatish ko‘proq ahamiyatli hisoblanadi. An’anaviy ta’limdagi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni o‘rgatish ularda masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bilan cheklanadi. Ammo bilim olish jarayoni ikki bosqichdan iboratligini: birinchi bosqich bilimlarni egallash, ikkinchi bosqich undan xulosalar chiqarish va amaliyotda qo‘llash ekanligini hisobga olsak, bu usul tugallanmagan metodika sifatida o‘zini oqlamasligi ma’lum bo‘ladi. Bilim bilim uchun xizmat qilmas ekan, uning oddiy informatsiyadan farqi qolmaydi. Ta’limda zamonaviy yondashuvlar sifatida qaralayotgan shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va akmeologik yondashuvlar mazkur tumtoq metodikaga qarshi qo‘yiladi. Ularga o‘quvchilarning shaxs va muayyan kasb egasi sifatidagi kompetenligini shakllantirish bilan bog‘liq qator muammolarning ilmiy va amaliy yechimi sifatida qarash, ta’lim jarayoniga tatbiq etish, shubhasiz, ta’limning oldiga qo‘yilgan zamonaviy talablarning qondirilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Тўраев Б. У ким, бу нима? Методология. qomus.info. онлайн энциклопедия. // https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/metodologiya-uz/
2. Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren.
– Berlin, 2009
3. Шайхова Х.А. Маънавият – камолот кўзгуси. – Т,: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009, -Б. 115.
4. Тиллаева Г.Ҳ. Акмеология асослари. – Т,: Тафаккур бўстони, 2014, -Б. 31-бет.
5. Тиллаева Г.Ҳ. Акмеология асослари. – Т,: Тафаккур бўстони, 2014, -Б. 192.
6. Индиаминов Н., Бабажанов Б. Таълим самарадорлигини оширида шахсга йўналтирилган таълим // Замонавий таълим. 2014. №8. 18-22 бетлар.
7. Основы личностно-ориентированного образования. / И.С.Якиманская. – М.: «Бином. Лаборатория знаний», 2011.
8. Монтессори М. Развитие потенциальных возможностей человека. / Пер. с англ.
Д.Смоляковой. // Бюллетень МАМА, 1993, №2,3,5.
9. Шеров М.Б. Креатив тафаккур ҳақида фалсафий қарашлар эволюцияси. // ARES Vol.1№.1,?2020. ISSN 2181-1385. https://cyberleninka.ru/article/n/kreativ-tafakkur-a-idagi-falsafiy-arashlar-evolyutsiyasi
10. Выготский, Л.С. Лекции по психологии /Л.С. Выготский; – СПб.: Союз, – 2006. – 144 с.

AQLI ZAIF BOLALARNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASH

Muyassar Xamidova
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqoloada axloqiy tarbiya masalasi, aqli zaif bolalarni tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o’rni va axamiyati yoritib berilgan. O’zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, ta’lim-tarbiya jarayoni bilan axloqiy tarbiyaning umumlashtirib olib borilishi yuzasidan fikrlar bayon qilingan. Aqli zaif bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash bo’yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: axloq, aqli zaif, urf-odatlari, turmush tarzi, ta’lim-tarbiya jarayoni, metodik tavsiya, tarix, milliy ma’naviyat.

ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ С ПСИХИЧЕСКИМ НАРУШЕНИЕМ С НРАВСТВЕННОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

Муяссар Хамидовой
Ташкентская государственная педагогика имени -Низомий, доцент университета, к.п.н.

Аннотация. В статье освещается проблема нравственного воспитания, роль и значение нравственного воспитания в воспитании умственно отсталых детей. Высказаны мнения об обычаях, быте, образовательном процессе и обобщении нравственного воспитания узбекского народа. Разработаны методические рекомендации по нравственному воспитанию умственно отсталых детей.

Ключевые словы: нравственность, умственно отсталые, обычаи, образ жизни, образовательный процесс, методические рекомендации, история, национальная духовность.

EDUCATION OF CHILDREN WITH MENTAL IMPAIRMENT FROM A MORAL POINT OF VIEW

Muyassar Khamidova
associate professor of Tashkent state pedagogy university named after Nizomiy, PhD.

Annotation. The article highlights the issue of moral education, the role and importance of moral education in raising mentally retarded children. Opinions on the customs, way of life, educational process and generalization of moral education of the Uzbek people have been expressed. Methodical recommendations on moral education of mentally retarded children have been developed.

Key words: morality, mentally retarded, customs, lifestyle, educational process, methodical recommendation, history, national spirituality.

Kirish. Har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o‘rni, mavqei va muhim bevosita o‘z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog‘liqdir. Shuning uchun ham hozirgi kunda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni amalda qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida alohida yodamga muhtoj bolalarga moddiy, tibbiy, psixologik, pedagogik yordam ko‘rsatish maqsadida bunday masalalarga e’tibor kuchayadi.

Hozirgi davrda axloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etish ko‘p jihatdan jamiyatning va undagi har bir shaxsning axloqiy darajasiga bog‘liq.

Axloqiy tarbiya – shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirishda muhim axamiyatga ega. Ularda shaxsning axloqiy his – tuyg‘u va sifatlarini, ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir.

Axloqiy tarbiya deganda shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o‘sib kelayotgan avlodda xulq-odob me’yorlariga mos keluvchi sifatlaming shakllanishi tushuniladi. Albatta, barcha tarbiya turlari aqli zaif bolalar tarbiyasida o‘ziga xoc o‘ringa ega. Busiz mumkin emas. Ammo axloqiy tarbiya, uning mohiyati alohida shaxs uchungina emas, balki jamiyatning kelajagi, uning qanday jamiyat bo‘lishi uchun ham muhimdir. Bu yerda m ubolag‘a yo‘q. Chunki axloqiy tarbiyalangan shaxslarsiz yetuk kishilik jamiyati qurish mumkin emas. Axloqiy tarbiya boshqa tarbiya turlaridan o ‘zining ahamiyati bilangina ajralib qolmasdan, balki murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Bu o‘rinda mashhur fransuz pedagogi, shifokori

Eduard Segenning: “Aqli zaif bola aqlan bilmaydi, jism onan bajara olmaydi, ruhan xohlamaydi. Aqli zaif bola aqlan bila olardi ham, jismonan bajara olardi ham, agar u xohlasa. Barcha balo shundaki, dastlab u xohlamaydi”, degan fikrlari e’tiborga loyiq.

Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jihatdan kamol topadi.

O‘zbek xalqining ma’naviyati haqiqatgo‘y va adolatli bo‘lish, jaholat va qabixlik yo‘lini to‘sish, mehr – shavkat, ma’rifat, do‘stlik, mardlik. Birodarlik, mehmondo‘stlik, poklik, xush xulqlik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi.

O‘zbek xalqining urf – odatlari, turmush tarzi, ta’lim-tarbiya, madaniyat an’analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi. Hozirgi va kelajak avlodimiz kishilari o‘zbek milliy ma’naviyatini yaxshi bilishlari va unga rioya qilishlari lozim. Shundagina jamiyat to‘q, farovon, kishilar osoyishta va madaniy hayot kechiradilar.

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o‘z-o‘ziga, boshqa kishilarga, mehnatga jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida bir shaklidir. Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida avlodlar tomonidan to‘plangan axloqiy tajribalarni aks ettiradi.

Maxsus ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida maxsus maktab o‘quvchilarini madaniyatli, ma’naviy yuksak qilib tarbiyalash uchun defektologlar keraklicha faoliyat ko‘rsatsalar, amaliy tarbiya borasida keskin burilishlar bo‘lib, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Zotan, maxsus maktablarda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan amaliy tarbiya milliy istiqlol mafkurasini, ma’rifiy-ma’naviy, madaniy taraqqiyot yo‘lidagi barcha korreksion tarbiyaviy ishlami amalga oshirish yaxshi samara beradi. Bu haqda Yurtboshimiz shunday deydi: “Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jamiyatimizda sog‘lom muhitni saqlash bilan barobar ekanligini anglashimiz darkor”.

Haqiqatan ham ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatni yuksaltirishda maxsus maktab o‘quvchilarini o‘rab turgan sog‘lom muhit katta rol o‘ynaydi. Sog‘lom muhit maxsus maktab o‘quvchilarining tarbiyaga oid barcha ishlari to‘g‘ri hal qilinishiga, maqsad va vazifalarining to‘la amalga oshishiga imkoniyat yaratadi. Shu bois ham sog‘lom muhit maxsus ta’lim muassasalari uchun zaruriy va muhim shartlardan biridir. Darhaqiqat, sog‘lom muhitda sog‘lom avlod tarbiyalanadi, sog‘lom mafkuraviy ong shakllana boradi. Bola uyida, ta’lim-tarbiya muassasalarida ko‘rgani, o‘rgangani natijasida, o‘qituvchilar namunasida olgan saboqlari ta’sirida kamolga yetib boradi. Buning uchun esa, milliy tarbiya mezonini belgilashda ham maxsus maktab o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqson turlarini inobatga olgan holda yuqorida aytib o‘tilganlar amalga oshirib boriladi. Milliy g‘ururga o‘z ona tili, madaniyati, milliy burchini anglashi, o‘z tilida to‘g‘ri so‘zlash kabilar asos bo‘ladi.

Milliy odob, sharqona odob-axloq, vijdoniylik, halollik, insonparvarlik, Vatanga sadoqat, erkin fikrlash, rostgo‘y —adolatli bo‘lish, Vatan tuprog‘ini e’zozlash kabi tushunchalarni maxsus maktab o‘quvchilari ongiga har qadamda singdirib borish, tarbiyaning qaysi sohasida bo‘lmasin, uning tarixini, ota-bobolarimiz tajribalarini, ularning bu boradagi pandnoma va nasihatlarini, o‘gitlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hadislarda aytilganidek, ota-onalaming farzandlariga qoldiradigan eng katta merosi — ularga o‘rgatadigan axloqi va odobidir. Milliy istiqlol vazifalari bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Bu tarixiy zarurat esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani uzviy bog‘lash lozimligiga undaydi. Milliy axloq esa milliy tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun undan foydalanish oilaviy tarbiyaga ham, ijtimoiy tarbiyaga ham taalluqlidir.

Barcha tarbiya turlari bolalarni tarbiyalashga xosligi o‘ziga xos o‘ringa ega. Ammo axloqiy tarbiya uning mohiyati alohida shaxs uchungina emas, balki murrakkabligi bilan ajralib turadi.

Shu jihatdan aqli zaif bolalarga axloqiy tarbiya berish o‘ziga xos uslublari borligini ta’kidlab o‘tish joizdir.

Maxsus yordamchi maktab o‘z tarbiyalanuvchilarini mustaqil hayotga va tabiiy ijtimoiy muhitdagi faoliyatga tayyorlaydi.

Bolalar va o‘smirlar tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar doimo pedagoglarning diqqat markazida turadi. Bolalarni maxsus korreksion maktabda tarbiyalash masalasi, nafaqat nazariy, balki katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Aqli zaif bolalar shunday tarbiya olishi kerakki, ularning har xil hayotiy vaziyatlardagi mustaqil xulq-atvori jamiyatda qaror topgan ijtimoiy normalarga mos kelishi kerak.

Aqli zaif bolalarga xos tuyg‘ularning yetarli darajada differensiallashmagani, o‘z qobig‘idan chiqa olmaslik, intellektual va irodaviy boshqaruvning zaifligi ularda muhim axloqiy tuyg‘ularning shakllanishini qiyinlashtiradi. Bu hol oliy tuyg‘ularning shakllanishi bunday bolalarda nisbatan kech va qiyinchilik bilan kechishida namoyon bo‘ladi.

Aqli zaif bolalar bilan ishlashda ularda axloqiy odatlarni tarbiyalash jarayoni alohida o‘rin egallaydi. Ko‘pchilik aqli zaif bolalarga xos bo‘lgan fikrlash jarayonlarining sustligi, harakatsizligi ba’zida bunday odatlarning shakllanishiga biron-bir tasodifiy salbiy taassurotlarning turtki bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Shu sababli aqli zaif bolalarga axloqiy tarbiya hozirgi davrning eng dolzarb talablaridan biridir.

Aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalash muammosi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, korraksion tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Aqli zaif bolalarning axloqiy tarbiyasining rivojlanganlik holatini o‘rganish, ularda ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikma va odatlari, axloqiy tasavvur, tushunchalar yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatdi. Shu sababli quyidagicha xulosa qilish imkonini beradi.

1. Aqli zaif bolalarning axloqiy jihatdan o‘rganish ular uchun korreksion-pedagogik ish mazmunini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalash bo‘yicha metodik tavsiyalarni yordamchi maktab amaliyotida qo‘llash mumkin.

3. Aqli zaif bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash ularni ijtimoiy xulq-atvor meyorlarini egallash hamda ijtimoiy hayotga moslashtirish imkonini beradi.

Shuning uchun aqli zaif bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha maxsus o‘qitish zarur.

Aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalash masalasi ularning hayotini yo‘lga qo‘yib, boshqarib, bolalar xulq atvorining ijtimoiy sifatlarini tarkib toptirishdek keng tarbiyaviy maksadlarda foydalanadi.

Shu sababli aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur deb topdik:

1) Aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalashda ularning bilish faoliyatidagi o‘ziga xos jihatlarini xisobga olish;

2) Aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalashda emotsional-irodaviy sohaning o‘ziga xos jihatlarini xisobga olish;

3) Aqli zaif bolalarni axloqiy tarbiyalashda xarakter shakllanishining o‘ziga xos jihatlarini xisobga olish.

Xulosa. Axloqiy tarbiya berish bilan bog‘liq bo‘lgani holda aqli zaif bolalarga o‘ziga xos vazifalar, uni tashkil etishning forma va metodlarni qo‘llash lozim. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning muhim sharti sifatida ularning o‘quv va o‘qishdan tashqari xilma□xil faoliyatlarining birligi asosida ishlarni tashkillashtirishga ahamiyat berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Специальная педагогика / Под ред. Н. М. Назаровой. -М.: Изд. центр «Академия». 2000.
2. Воспитание и обучение детей во вспомогательной школе [Текст] /под ред. В. В. Воронковой. – М.: 1994.
3. Raxmanova V.S. «Maxsus pedagogika» Toshkent, G‘.G‘ulom nashriyoti-2005 yil.
4. Пўлатова П . Махсус педагогика Т.: “Ғ.Ғулом”, 2005 й.

LUG'ATSHUNOSLIKNING ONA TILI O'QITISHDAGI O'RNI

Yusupova Shohidaxon Jaloliddinovna
Andijon davlat pedagogika instituti professori, ped.fan. dok.

Sobirova Gullola Qutbidin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada lug'at turlari, lugatchilik tarixi, lug'atlar yaratish va ularni amaliyotga tadbiq etish ,lug'atshunoslikni nazariy fan balki metodik jihatdan o'rganish, o'quvchilarnig kompotensiyalarini rivojlantirish uchun o'quv lug'atlarini yaratish va darsliklar bilan birga o'rganish, o'quv lug'atlarini antroposenrtik xususiyatlarini o'rganish, leksikografiya orqali o'quvchining so'z boyligini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish, leksikografiyaning tamoyillarini o'rganish, electron lug'atlarni yaratish, zamonaviy lug'atlar va elektron lug'atlar haqid fikrlar yuritilgan

Kalit so'zlar: antroposentrik ,lingvosentrik, ikki tilli lug'at, turg'un o'xshatishlar, o'xshatish etalonlari, milliy-mdaniy, milliy-konnotativ, eneontiosemik, assotsiativ ma'no, lingvistik lug'at, leksikografik komponentlik, leksikografik semantizatsiya, lingvometodik ta'limot.

РОЛЬ СЛОВАРА В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Юсупова Шахидахан Джалолиддиновна
Профессор Андижанского государственного педагогического института, доктор педагогических наук. док.

Собирова Гуллола Қутбидин қизи
Независимый научный сотрудник Андижанского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассмотрены виды словарей, история лексикографии, создание словарей и их практическое применение, изучение лексикографии как теоретической науки, а также методически создание учебных словарей для развития компетенций учащихся, и с учебниками совместного обучения, изучения антропоцентрических особенностей учебных словарей, увеличения словарного запаса ученика и расширения его мировоззрения посредством лексикографии, изучения принципов лексикографии, создания электронных словарей, современных словарей и электронных словарей.

Ключевые слова: антропоцентрический, лингвоцентрический, двуязычный словарь, устойчивые сравнения, стандарты сравнения, национально-культурный, национально-коннотативный, энонтиосемический, ассоциативный смысл, лингвистический словарь, лексикографический компонент, лексикографическая семантизация, лингвометодическое обучение.

THE ROLE OF DICTIONARY IN MOTHER LANGUAGE TEACHING

Yusupova Shahidakhan Jaloliddinovna
Professor of Andijan State Pedagogical Institute, Ped.Sc. doc.

Sobirova Gullola Qutbidin qizi
Independent researcher of Andijan State Pedagogical Institute

Annotation. In this article, the types of dictionaries, the history of lexicography, the creation of dictionaries and their practical application, the study of lexicography as a theoretical science, but also methodically, the creation of educational dictionaries for the development of students' competencies and with textbooks learning together, studying the anthropocentric features of educational dictionaries, increasing the student's vocabulary and broadening his worldview through lexicography, learning the principles of lexicography, creating electronic dictionaries, modern dictionaries and electronic dictionaries.

Key words: anthropocentric, lingucentric, bilingual dictionary, stable similes, simile standards, national-cultural, national-connotative, enontiosemic, associative meaning, linguistic dictionary, lexicographic component, lexicographic semanticization, linguomethodical teaching.

KIRISH. Lug‘atchilik tarixi ya’ni, dunyo lug‘atchiligi tarixi qadim ming yilliklarga borib taqaladi. Jumladan, o‘zbek lug‘atchiligi tarixi ham bir necha ming yillar avval shakllana boshlagan. O‘zbek lug‘atchiligi shakllanishining ilk bosqichlari XI asrda buyuk bobokalonimiz Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘ati-t-turk» asari bilan boshlanadi.Mahmud Qoshg‘ariy «Devonu lug‘ati-turk» asarini yaratib o’zbek lug‘atchiligining shakllanishiga ilk tamal toshini qo’ygan desak mubolag‘a bo’lmaydi. Ma’lumki, leksikografiya ilmiy fan, biroq bu tushunchaning mohiyatida lug‘atlar yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish masalalari yotadi. B.Y.Gorodetskiy shunday ta’kidlagan: «Leksikografiya ilmiy fan sifatida shubhasiz murakkabdir: uning tarixiy-filologik jihati lug‘atlarning tipologiyasiga va ularning madaniyat bilan bog‘liqligiga doimiy qiziqishda namoyon bo‘ladi, uning epistemologik jihati lug‘atlarning mohiyati bilan tartibga solish usuli sifatida va jamiyat tomonidan to‘plangan bilimlarni, uning butunligini taqdim etish –semantikleksikologik jihat til mazmuni rejasini modellashtirishga muvofiq lug‘at ma’lumotlarini umumlashtirish bilan bog‘liq. Shunga qaramay, leksikografiyaning aniqlovchi xususiyati uning amaliy yo‘nalishidir».

Ko‘rinib turibdiki, lug‘atshunoslik bilan shug‘ullanish nafaqat nazariy fan, balki uni metodik jihatdan o‘rganish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.Bugun biz jahonning ko‘plab rivojlangan davlatlarida yoshlarga berilayotgan ta’limning samarali amalga oshirilishi uchun ta’lim tizimiga turfa xil yondashuvlar bo‘layotgani, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, kompyuter texnologiyalari, shular qatorida turli mavzu va janrdagi o‘quv lug‘atlaridan keng foydalanilayotganligi haqida ko‘p gapiryapmiz. Dunyo leksikografiyasi ming yillik tarixga ega bo‘lsa-da, uning asosiy rivoji keyingi 2-3 asrga to‘g‘ri keladi. Ilk bor oz sonli so‘zlar va iboralardangina tashkil topgan qo‘l yozmalardan boshlangan lug‘atlar hozirgi kunga kelib tillarning yuz ming so‘zlarni o‘z ichiga olib, minglab nusxada chop etilmoqda. Keyingi yillarda leksikografiyaning faqatgina amaliy tomoni emas,balki nazariy yo‘nalishi, obyekti, predmeti shakllandi. Lug‘at tuzish nazariyasi, amaliyoti mana shunday o‘ta mashaqqatli, o‘ta mas’uliyatli sohasi bo‘lganligi sababli ushbu savobli yo‘nalish bilan yetuk, fidokor, millatparvar olimlar shug‘ullanmoqdalar. [1.57]

MATERIAL VA USULLAR. Jahonda globallashuv natijasida fan-texnikaning rivojlanishi, ijtimoiy sohalardagi o‘zgarishlar, shuningdek, ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy qilinishi, xususan, jamiyatimizda o’zaro muloqot vositasi hisoblangan ona tilini rivojlantirishda so‘z boyligini oshiruvchi, ijodkorlikka, keng fikrlashga yo‘naltiruvchi yondashuvlarni takomillashtirish zarurati yanada ortib bormoqda. Ya’ni, globallashuv davrida yosh avlodni ma’naviy barkamol, umummilliy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash talabi o‘quv lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Yalpi axborotlashuv asrida o‘quvchilarning tilga bo‘lgan muhabbatlarini oshirish, so‘z boyligini rivojlantirish birdaniga oson kechmaydi.

“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonda “davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish; ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish; zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash; davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash” [2] zarurligi belgilangan. Ana shu belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun, o‘quvchi kompetensiyalarini shakllantirish uchun ta’limda leksikografiya sohasiga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanadi.

O‘quvchi kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha juda ko‘p nazariy va amaliy ishlar e’lon qilinmoqda. Buning uchun, eng avvalo, o‘quvchiga kerakli ma’lumotlarni tez va qulay topish yo‘llarini beradigan, ular kompetensiyalarini rivojlantiradigan o‘quv lug‘atlarini yaratish, uni darsliklar bilan birga o‘rganish zaruriyati bor.Leksikografiya haqida fikr yuritar ekanmiz, birinchidan, o‘quvchining borliq haqidagi ma’lumotlarini kengaytirishda muhim ekanligini unutmasligimiz kerak. Chunki lug‘at jamiyat-madaniyat xalqlarini birlashtirib turadi.

O‘quvchi dastlab lug‘atlar haqida keng tushunchaga ega bo‘lishlari zarur. Ushbu zaruriyatni amalga oshirish uchun leksikografiya sohasini rivojlantirish, o‘quv lug‘atlarining mavzuga mosligini aniqlash lozim bo‘ladi. Chunki lug‘atlar har qanday mamlakatning qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Aytish mumkinki, o‘quv lug‘atchiligi bugungi kunda tilshunoslikning

jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Chunki mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, milliy va madaniy sohalaridagi har qanday taraqqiyot va rivojlanish ushbu millat vakillariga tegishli lug‘atlarda o‘z aksini topadi. Demak, tilshunoslik sohasida rivojlanayotgan lug‘atlar va ulardan foydalanish masalasi ona tili o‘qitishda qay darajada degan savol tug‘iladi.

Biz lug‘atshunoslikni o‘rganar ekanmiz, V.V. Morkovkin umumiy lug‘atlarni ikki turga ajratilganligining guvohi bo‘ldik: antroposentik va lingvosentrik. Lingvosentrik lug‘atlarda til asosiy markazda bo‘lib u asosiy vazifasi ushbu tildagi fikrlarni yoriti sh hisoblanadi. Hozirda o‘quv lug‘atlari antroposentrik xususiyatga ega bo‘lgan lug‘atlar tipiga kiriti lmoqda.

O‘quv lug‘atlar ta’lim sohasi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu turdagi lug‘atlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiribgina qolmay, balki ularning olamni bilishdagi qobiliyatlarini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ham xizmat qiladi. Ta’limning tegishli bosqichiga mos bo‘lgan ona tili o‘qitishga asoslangan lug‘atlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning nafaqat amaliy bilimlarni olishlarini, balki talqin qilish, fikrlash, samarali muloqot va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishini ta’minlash uchun ham keng imkoniyatlar yaratishda yordam beradi. Bunday imkoniyatlarni darslik tuzilmasiga qanday kiritish kerakligini muhokama qilish yangi o‘quv dasturiga yangi darsliklar yozishga tayyorgarlikning zarur qismi bo‘lishi kerak.

Mustaqillikgacha O‘zbekistonda turli yillarda har xil hajm va xarakterdagi, turli mo‘ljaldagi ko‘plab ikki tilli lug‘atlar nashr etildi. Ular orasida 1983-1984- yillarda nashr etilgan, o‘z davrida mukammal deb hisoblangan ikki jildli “Ruscha -o‘zbekcha lug‘at” alohida ajralib turadi.

O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) hamda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti 1983-1984-yillarda chop etilgan ikki jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ni qayta ishlab nashr etishni rejalashtirib, bir necha yil davomida hamkorlikda ish olib bordilar. Nihoyat, 2013-yilda mazkur lug‘at A.Madvaliyev tomonidan to‘ldirilgan va tuzatilgan, sho‘ro mafkurasidan “tozalangan” holda to‘liq tahrir qilinib nashr etildi.

O‘zbek tili birliklariga antropotsentrik yondashuv nafaqat nazariy tadqiqotlarda, balki lug‘atlarda ham o‘z aksini topmoqda. Nizomiddin Mahmudov va Durdona Xudoyberganovalar tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” ana shunday lug‘atlardan hisoblanadi. Lug‘at tuzuvchilar o‘zbek tili egalarining obrazli tafakkuriga xos turg‘un o‘xshatishlarni to‘plash hamda ularning ma’nolarini izohlashni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yib, boshqa tillardagi o‘xshatishlar lug‘atlarini tuzish tajribasini sinchiklab o‘rganib chiqqanlar va barqaror o‘xshatishlarni belgilashning maqbul variantini tanlab olganlar. Kitobning “Lug‘atning tuzilishi haqida”gi qismida ta’kidlanishicha, lug‘atda o‘xshatish etalonlari lug‘at maqolalarining sarlavhasi sifatida berilgan. Chunki “xalqning dunyoni tasavvur etishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni shu o‘xshatish etalonida tajassum topadi”[3] “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”ni lingvokulturologik xarakterdagi lug‘at sifatida ham baholash mumkin. Chunki lug‘atda izohlangan o‘xshatish etalonlari xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va obrazli fikrlashi mahsuli. Jami 530 dan ortiq turg‘un o‘xshatishlarni o‘z ichiga olgan ushbu lug‘at – shu yo‘nalishdagi dastlabki urinish natijasi. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari bilan shug‘ullanib kelayotgan taniqli olim Nizomiddin Mahmudov va yosh tadqiqotchi Yorqinjon Odilovlar tomonidan nashr ettirilgan “So‘z ma’no tarqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tili enantiosemik so‘zlarining izohli lug‘ati”da bir lug‘aviy birlik doirasidagi antonimiya hodisasini ham nazariy, ham amaliy o‘rganish nuqtayi nazaridan o‘ziga xos dastlabki asar bo‘lib hisoblanadi. [4]

Ana shunday ob’ektiv ehtiyojlar hisobga olingan holda o‘zbek tilshunosligida bir qancha lug‘atlar yaratildi:birinchi marta “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” (-Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015) yaratildi. Lug‘atda lingvokulturologiyaga oid asosiy terminlarning ma’nosi izohlangan. Bu lug‘at lingvokulturologiya alohida fan sifatida shakllanayotgan bir davrda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. A.Hojievning “Tilshunoslik atamalarining ruschao‘zbekcha qisqacha lug‘ati”hamda . – Toshkent: Fan, 1993; Hojiev A. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”. – Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2002; Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013; A.Madvaliev, N.Mahkamov, E.Panasenko va b.) “Ish yuritish atamalarining ruscha-o‘zbekcha qisqacha lug‘ati” (Tuzuvchilar: A.Madvaliev, N.Mahkamov, E.Panasenko va b.) – Toshkent: Fan, 1994; Qisqacha ruscha-o‘zbekcha-inglizcha ish yuritish lug‘ati (Tuzuvchilar: A.Madvaliev, N.Mahkamov, E.Panasenko va b.) – Toshkent: O‘zbekiston, 1995; Mahmudov N., Saidqulov Z. Ma’naviyatdan o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha-arabcha lug‘at. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012;

O‘zbek lug‘atchiligida ham ilk bor shu turdagi lug‘at D.Lutfullaeva, R.Davlatova, B.Tojiboyevlar tomonidan yaratildi (“O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar)”. – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019). Ayniqsa,mazkur lug‘at so‘zlar orasidagi assotsiativ munosabatni aks ettiruvchi lingvistik lug‘at (stimul so‘z javob reaksiyasi tipidagi lug‘at) o‘qitishda ahamiyatli sanaladi. Unda o‘zbek tilidagi 100 ta milliy-madaniy birlik bo‘yicha til egalari xotirasida tiklangan 42645 ta javob reaksiyasi (assotsiatsiyalar) o‘rin olgan bo‘lib, unda o‘zbek tilidagi milliy-madaniy birliklarning leksik-semantik, assotsiativ ma‘nosi, boshqa birliklar bilan semantik-mantiqiy bog‘lanishi hamda nutqda qanday qo‘llanishi, haqida ma’lumot beruvchi ilk yangi turdagi lug‘at bo‘lib hisoblanadi.

NATIJALAR. Ma’lumki, jamiyat a’zolarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy taraqqiyoti, shuningdek, falsafiy dunyoqarashning o’zgarishi ham leksikografiya taraqqiyotiga zamin hozirlaydi, leksikografik semantizatsiya – mavjud izohli lug‘atlardagi so’zlar izohiga yangicha yondashuvni taqozo qiladi. O‘zbekistonda o‘quv leksikografiyasi istiqbollari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

1) zamonaviylik – jahon o’quv leksikografiyasining so’nggi yutuqlariga asoslanib o’quv lug‘atlarining yangi avlodi – bosma va elektron shakldagi lug‘atlarni tuzish, o’quv lug‘atlarining lingvometodik ta’minotini zamon talablariga moslashtirish;

2) takomillashganlik – axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter

lingvistikasi sohasi yutuqlariga tayanib mavjud bosma o’quv lug‘atlarini elektronlashtirish, ta’limning turli bosqichlari, xususan, yuqori sinf o’quvchilari, oliy ta’lim tizimida tahsil oluvchilar uchun turli fanlar bo’yicha terminologik lug‘atlar, o’quv ensiklopediyalar, katta o’quv lug‘atlarini yaratish, izoh tipidagi lug‘atlarda leksikografik semantizatsiyani zamon talablari nuqtai nazaridan qayta ko’rib chiqish;

3) kompyuterlashganlik – umumiy lug‘atlar negizida elektron lug‘at turlarini boyitish, turli elektron qurilmalarda ishlashga mo’ljallangan interaktiv lug‘atlar, korpus lug‘atlarni tuzish; imlo, talaffuz meyorlari, tarjima, tilning turli leksik sistemalar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, omonimlar, graduonimlar, uyadosh so’zlar kabi)ini o’rgatishga xizmat qiluvchi mukammal mobil ilovalarni yaratish;

internet saxifalarida bolalar uchun mo’ljallangan elektron o’quv lug‘atlarining maxsus saytlarini yaratish;

4)leksikografik kompetentlik – foydalanuvchilarda o’quv lug‘atlarining zamonaviy ko’rinishlari bilan ishlash ko’nikmasi, lug‘atlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida leksikografik kompetentlikni shakllantirish. Bu o‘z o‘zidan kompyuter savodxonligi bilan ham bog‘liq. Chunki lug‘atlarni kitob holatida chop etishdan ko‘ra elektron lug‘atlarni yaratish va keng foydalanuvchilar uchun taqdim etish ham ancha qulay hisoblanadi. Mobil ilovalar sifatida yaratilgan lug‘atlar yoshlarda leksikografik kompitentlikni rivojlanishga ancha yordam beradi.Ushbu vazifalarning amalga oshilishi mamlakatimizda axborot texnologiyalari taraqqiyoti, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvodidaktika, lingvopedagogika, pedagogik leksikografiya kabi fanlarning rivoji bilan bog‘liq. [5.36]

Dastlabki tuzilgan ta’limiy lug‘atlarlarga e’tibor bersak, u asosan imlo savodxonligi amalga oshiruvchi vosita sifatida qo‘llanildi. Keyinchalik, universal xususiyatga ega bo‘ldi. Tilning lug‘at boyligini rivojlana borishini hisobga olsak, u vaqt o‘tgan sayin boyib borganligini ko‘rish mumkin. Hayot o‘zgarib, kashfiyotlar ixtiro qilina borgan sayin yangi so‘zlar, paydo bo‘ladi. O‘z o‘zidan ma’lumki, bu jarayonlarda lug‘atshunoslik sohasida rivojlanish sodir bo‘ladi. Demak, leksikografiya sohasi ehtiyoj tufayli rivojlana boradi.

Shuni aytish lozimki bugungi kunda jadal rivojlanayotgan o‘zbek leksikografiyasi ona tili o‘qitishda qanday qulayliklarga ega, degan savol tug‘iladi.Hamma mamlakatlarda ham insonni kamolotga yetkizishda, unga berilayotgan ta’lim mazmunini o‘quvchining amaliy faoliyatida qanday foydalana olish darajalari bilan baholanmoqda. Davlatning taraqqiyoti uning yoshlariga berilayotgan ta’lim sifati, o‘quvchilarining egallagan ko‘nikma va malakalariga bog‘liq bulib qolmoqda.Ta’lim sifatini baholashning xalqaro talablari orasida o‘qish savodxonligi, matnni tushunish ko‘nikmasiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan, xalqaro baholash tadqiqotlari o’quvchida hayotiy kunikmalarning shakllanganlik darajalarini turli tomondan, matnlar va ular bilan ishlash orqali tekshirib ko‘riladi. Jumladan, uquvchilarning o’qish, yozish, gapirish savodxonligini shakllantirishda lug‘atlarning o‘rni benihoyadir. Demak, yuqorida ta’riflangan lug‘atlarni o‘rganish, undan amaliy foydalanish masalalari haqida fikr yuritar ekanmiz, baholashning to‘rt darajasi bo‘yicha ishlashni tashkil etish, lug‘atlardan

ana shu ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha foydalana olish yo‘llarini izlash muhim hisoblanadi. Ma’lumki, ukish savodxonligi matn ustida ishlashni takozo kiladi. Jahon tajribasida matnlar bilan ishlashga mo’ljallangan o’quv topshiriqlari ko’pincha o‘quv lugatlariga boglanadi.

MUHOKAMA. Ma’lumki, mamlakatimiz xalqaro baholash dasturida qatnashishi ko‘zda tutilmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi bugungi kun ona tili va adabiyot ta’limining asosiy maqsadiga aylanib bormoqda. O‘quv lug‘atlaridan ona tili ta’limi jarayonida samarali foydalanish kutilgan natijani beradi.Tavsiya etilgan Milliy o‘quv dasturi hamda unga qo‘yilgan talablarni o‘rganar ekanmiz, albatta, matnning turli mavzularini ifoda etuvchi, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matn bilan ishlash ko‘nikmasining rivojlantiruvchi lug‘atlar yaratishni taqozo etadi.

Umumta’lim maktablaridagi «Ona tili», oliy ta’limdagi “Ona tili o‘qitish metodikasi”fanlarini o‘qitishda o‘quv lugatlaridan foydalanilmas ekan, kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan unumli foydalanish, o‘zbek tilidagi ona tili darsliklarida berilgan atamalarning izohli lug‘ati, o‘zbek millatiga xos bo‘lgan so‘z va atamalar lug‘ati, butun bo‘lak munosabatlarini aks ettiruvchi o‘quv lug‘ati,o‘zlashma so‘zlar lug‘ati kabilarni yaratish o‘quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Chunki hozirda mamlakatimiz ta’lim tizimida ona tili o‘qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi, tayanch kompetensiyalar negizida har bir fanga doir kompetensiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinmoqda. Tilning barcha sathlari bo‘yicha nutqiy va lingvistik kompetensiyalarga asoslanuvchi o‘qitish tizimi tashkil etildi. O‘quvchilarning ona tilidan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini xalqaro baholash tizimlariga xos ravishda tashkil etish uchun ona tilidan korpus yaratish ishlarini jadallashtirish darkor.

XULOSALAR. Ona tili o‘qitish metodikasida keyingi yillarda bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, ona tili ta’limini zamonaviylashtirish, ukuv materiallarini takomillashtirish, ukuv lugatchiligi ustida ishlashga doir B.Mengliev, B.Baxriddinova, Sh.Shahobiddinova Sh.Xamroeva, U.Xolyorov, G.Hamroev, Sh. Yuldasheva kabilar kator ilmiy-metodik tadkikotlar olib borgan. Biroq zamon shiddat bilan rivojlanayotgan ayni paytda yaratilgan darslik, metodik qo‘llanma va metodik tavsiyalarda o‘quv topshiriqlari mazmunini takomillashtirish, zamonaviylashtirishni taqozo qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduvahob Madaliyev. “Лингвистический энциклопедический словар”, Moskva,1990, 57-bet
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850 рақамли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони //Халқ сўзи, 2019 йил 22 октябрь.
3. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. “Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати” . -Тошкент: Маънавият, 2013) 10-бет.
4. Маҳмудов Н. Одиловлар Ё. “Сўз маъно тарққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати”.-Тошкент: Академнашр, 2014.
5. Неъматов Ҳ., Турсунова О. Ахборот асрининг тилшуносликка талаби // Филология масалалари: Илмий ва илмий-методик маколалар тўплами. –Тошкент: Фан, 2013. – Б 36.
6. Абдураҳмонова Н. Замонавий лингвистик корпусларнинг компьютер моделлари. Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2020, № 1(30), 50-58
7. O‘zbekiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli qarori va unga ilova qilingan Davlat dasturi
8. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5 jildli. “O‘zbekiston nashriyoti” 1 -jild. Toshkent, 2020.
9. Normamatov S. “ Leksikografiya asoslari “ “Nodirabegim “ nashriyoti. Toshkent- 2021
10. Fattohov H. “ O‘zbek leksikografiyasi tarixiga bir nazar “ // O‘zbek tili va adabiyoti . Toshkent. 1981. 3 –soni.

BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI KORREKSION ISHLARNI LOYIHALASHTIRISHGA O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHGA QO‘YILGAN PEDAGOGIK TALABLAR

Zakirova Sarvinoz Baratovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi kunda bo‘lajak logopedlarni korreksion ishlarni loyihalashtirishga o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning oliy ta’lim muassasalarida Nutq o‘stirish maxsus metodikasi va Logopedik ishlarni rejalashtirish va loihalashtirish bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari mazmunida bo‘lajak logopedga qo‘yiladigan malaka talablari asosida ixtisoslik fanlari namunaviy o‘quv dasturlari, sillabus, o‘quv-metodik kompleks, mashg’ulotlar o‘quv qo‘llanmalarning mazmuniga intelektual- kognitiv yondashgan holda takomillashtirilib ommalashtirish lozim. Jumladan, bo‘lajak logopedlarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda «Logopedik ishlarni rejalashtirish va loihalashtirish» fanining imkoniyatlari kengligi aniqlandi. Tahlillar natijasida bo‘lg‘usi logopedlarning korreksion ishlarini loihalashtirish uchun dars mashg‘ulotlarida talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash kreativ g‘oyalari haqida ilmiy asoslangan.

Kalit so`zlar: korreksiya, metodika, loyixalashtirish, kompetentlik, “shaxsning” integratsiyalashish “qobiliyati”, metodologiya, kasbiy faoliyat, metodik konpetensiya, diagnostik, konsultativ.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕТОДОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ЛОГОПЕДОВ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ КОРРЕКТИРУЮЩЕЙ РАБОТЫ

Закирова Сарвиноз Баратовна
преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета имяни Низами

Аннотация. Данная статья в настоящее время адресована будущим логопедам в условиях специальной методики развития речи в высших учебных заведениях и государственного образовательного стандарта планирования и проектирования логопедической работы с учетом квалификационных требований, которые необходимо совершенствовать и популяризировать. Примерные программы обучения, учебная программа, учебно-методический комплекс, тренинги с интеллектуально-познавательным подходом к содержанию учебных пособий. В частности, определен объем возможностей «Планирования и проектирования логопедической работы» в совершенствовании методической подготовки будущих логопедов. В результате анализа научно обосновано развитие компетенций учащихся и творческих идей критического мышления на занятиях по проектированию коррекционной работы будущих логопедов.

Ключевые слова: коррекция, методология, планирование, проектирования. компетентность, интегрирующая способность «человека», методология, профессиональная деятельность, «компетенция», методическая компетентность, диагностическая, консультативная.

PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR IMPROVING METHODOLOGY FOR TRAINING FUTURE SPEECH THERAPISTS FOR DESIGNING CORRECTIVE WORK

Zakirova Sarvinoz Baratovna
lecturer at Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Annotation. This article is currently addressed to future speech therapists in the context of the Special Methodology for Speech Development in Higher Educational Institutions and the State Educational Standard for Planning and Design of Speech Therapy Work, taking into account qualification requirements that need to be improved and popularized. sample training programs, curriculum, educational and methodological complex, trainings with an intellectual and cognitive approach to the content of teaching aids. In particular, the scope of opportunities for “Planning and designing speech therapy work” in improving the methodological training of future speech therapists has been determined. As a result of the analysis, the development of students’ competencies and creative ideas of critical thinking in classes on designing correctional work for future speech therapists is scientifically substantiated.

Key words: correction, methodology, planning, design. competence, integrating ability of a “person”, methodology, professional activity, “competence”, methodological competence, diagnostic, advisory.

I.P. Pavlov ta’limotida muvofiq nutq bosh miyaning murakkab psixologik funktsiyasini, uning ikkinchi signal tizimini o‘zida namoyon etadi. Bu esa signallarning signali sanaladi. Birinchi va ikkinchi signal tizimlari bir-biri bilan uzviy bog‘langandir. Ikkinchi signal tizimi birinchi tizim asosida shakllanadi. Ammo keyinchalik ikkinchi signal tizimining birinchi signal tizimiga tartibga soluvchi ta’siri namoyon bo‘ladi. So‘z alohida xususiyatning signali, umumlashtirish, mavhumlashtirish qurolidir. Birinchi va ikkinchi signal tizimlari orasidagi o‘zaro murakkab aloqalarni hisobga olish nutq buzilishini tuzatish, buzilgan nutq va nutqsiz funktsiyalarning o‘rnini bosish ustida samarali logopedik ish olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Bu nazariyalar OTMlarida bo‘lajak logopedlarni tayyorlashdagi o‘quv rejalarida ham aks etilgan bo‘lib, 5111900-Logopediya bakalavriat ta’lim yyonalishida, umumiy o‘rta ta’lim, maktab ta’lim tashkilotida, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan, sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi muassasalar, nodavlat ta’lim tashkilotlarida mutaxassislikka oid mashg’ulotlarni o‘rnatilgan tartibda o‘tish metodikasiga qaratilgan modullarda ifodalangan.

Nutq o‘stirish bo‘yicha bilimni qonuniyatini tadqiq qilish, korreksion fikrlash va nutqning rivojlantirish, to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, eshitish idrokini rivojlantirish masalasini xal etadi. “ Nutq o‘stirish” , “Savodga o‘gatish” fani, mashg’ulotlari “Ilk qadam” davlat dasturlari asosida bir-biridan maqsadi, vazifalari va mazmuni davrlar kesimida tarbiyalanuvchilarning umumiy va nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olingan holatda jihatidan tafovutlanadi. Shu sababli Bo‘lajak logopedlar bir davrda o‘qitilayotgan murrakab nutq nuqsonli tarbiyalanuvchi va nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olishi, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Nutq o‘stirish maxsus metodikasi”, “Logopedik mashg‘ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish” silabusi, mashg’ulotlarii bir-biridan farq qiluvchi maqsadi, vazifalari o‘ziga xosligi asosida quyidagilarni rivojlantirishni ta’llim maqsad siftida o‘zida ifodalaydi:

1. Nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyatining ontogenezini o‘rganish.
2. Nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, alomatlari va darajalarini aniqlash.
3. Nutqiy faoliyati buzilgan bolalarning o‘z-o‘zidan va biror maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojpanishiga, turli ko‘rinishdagi faoliyatlarini namoyon qilishga, o‘zlarini tutishlariga ta’sirini aniqlash.
4. Rivojlanishida turli xil farqlar bo‘lgan bolalarda (eshitish, ko‘rish, fikrlash qobiliyatining hamda tayanch harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va nutq buzilishlari xususiyatini o‘rganish.
5. Nutq buzilishining kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi va alomatlarini aniqlash.
6. Nutq buzilishlarining pedagogik tashxisi, metodlarini ishlab chiqish.
7. Nutq buzilishlarini tartibga solish.
8. Nutq buzilishini bartaraf etish tamoyillari , differentsiyalashgan metodlari va vositalarini ishlab chiqish.
9. Nutq buzilishining oldini olish myetodlarini takomillashtirish
10. Logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Mazkur metodika bo‘lajak talabani og‘zaki nutqiga oid nutqiy material, so‘zlashuv, hamda bog‘langan nutqni asosidagi nutqiy lug‘atni shakllantirish, rivojlantirish, o‘qishga va yozishga o‘rgatish o‘rgatish, ongli, to‘g‘ri, ifodali va tez o‘qish, o‘qilgan matn mazmuni bayon etish, o‘qilgan asar vositasida ko‘rgazmali faoliyatni amalga oshirish bo‘lajak uslubiyati aniq usullar haqidagi mukammal bilimlar shakllantiridi, hamda murrakab nutq nuqsonli bolalarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi mexanizmlarni shakllantiradi. Bo‘lajak logoped, logopsixologiya, logodiagnostika, nutq o‘stirish maxsus metodikasi, nutqida nuqsoni bor bolalarni maktabga tayyorlash fanlariga doir ma’lumotlar asosida dastur va mashg’ulotlarni tahli qilish malakasini samarali egallashi, hamda uzluksiz, muntazam o‘z ustida ishlashi, o‘quv jarayonini loyihalashtirib borishi talab qilinadi.

“Loyihalash” (loyihalashtirish) termini turlicha talqin qilinadi, chunki mazkur jarayon boshqaruv faoliyati, amaliy yo‘naltirilgan fan hamda ta’limda innovatsiyalarning madaniy shakli kontekstida qaraladigan alohida ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida gavdalanadi [71].

V.I.Slobodchikov loyihalashning quyidagi tiplarini farqlaydi:

ta’lim institutlari (maktab, universitet va sh.k.) hamda rivojlantiruvchi ta’limiy muhitlarni ijtimoiy-pedagogik loyihalash;

insonning o‘z hayoti va faoliyatining asl subyektiga aylanishi uchun sharoit yaratadigan ma’lum yosh davri oralig‘idagi rivojlantiruvchi ta’limiy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik loyihalashtirish;

pedagogik loyihalash – rivojlantiruvchi ta’limiy amaliyot, ta’lim dasturlari va texnologiyalari, pedagogik faoliyat usul va vositalarini yaratish.

Vaqt oralig‘i doirasida pedagogik loyihalash jarayonini ko‘rib chiqamiz. Real pedagogik jarayonni amalga oshirishdan oldin o‘qituvchi faoliyatida kelgusi o‘quv mavzusini o‘zlashtirish loyihasini ishlab chiqishga qaratilgan loyihalash jarayonini ajratish mumkin.

Bunday loyiha mazmuni o‘rganishning maqsadli, mazmunli va protsessual (jarayonga oid) tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olishi hamda turlicha shakllarda (reja-konspekt, texnologik xarita, diagnostik materiallar, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish uchun topshiriqlar tizimi va sh.k.) bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchining o‘quv mavzusini loyihalash jarayonidagi harakatlari quyidagilardan iborat:

1. Darsni tashkil etishning asosiy mazmunini belgilab beradigan me’yoriy hujjatlar va metodik qo‘llanmalarni: o‘quv dasturi, ta’lim stanlarti, darslik, o‘qituvchilar uchun qo‘llanma, metodik maqolalar va sh.k. ni o‘rganish.
2. O‘quvchilarning mazkur mavzuni o‘rganishga tayyorlik darajasini kirish (dastlabki) nazorat qilish uchun materiallar tayyorlash. O‘quv muvaffaqiyatlarini baholashning ko‘pballi tizimi sharoitida diagnostik materiallar turli darajali bo‘lishi va o‘rganiladigan materialning predmetli-mazmunli tomoni bilan birga uning mazmunli-faoliyatli tomonini ham aks ettirishi lozim.

OTM ni bitirish vaqtiga kelib shakllantiriladigan asosiy kompetentlik turli darajada murakkablikdagi kasbiy muammo va vaziflarni hal qilish qobiliyati hisoblanadi.

Loyihani tayyorlash quyidagilarni nazarda tutadi:

-g‘oyani shakllantirish;

-ehtimoliy (mumkin bo‘lgan) harakatlarn rejalashtirish;

-faoliyat dasturini ishlab chiqish.

Tajriba g‘oyani amalga oshirishni sinab ko‘rish, dastlabki amalga oshirishni nazarda tutadi. Namoyish qilish g‘oyani yakuniy amalga oshirish, o‘ylangan va amalga oshirilgani o‘rtasidagi aloqadorlik haqidagi o‘ziga xos hisobotni nazarda tutadi. Bu o‘z g‘oyasi asosliligini baholash bosqichidir.

Ta’lim oluvchilarning tadqiqotchilik va loyihalash faoliyati

Loyihalash faoliyati individual (yoki guruhli) mustaqil ijodiy topshiriqlar shaklida amalga oshiriladi.

Loyiha g‘oyasi o‘quv faoliyati ichida o‘quv fanining (ta’lim sohasining) mantiqiy davomi sifatida yuzaga keladi.

Loyihalash metodini qo‘llashga oid talablar:

ahamiyatli, loyihabop muammoning mavjudligi;

kutiladigan natijalarning amaliy, nazariy jihatdan ahamiyatliligi;

talabaning loyihalash subyeki sifatida namoyon bo‘lishi;

talabaning xato qilishga haqliligi;

loyiha a’zolarining mustaqil faoliyat olib borishi;

Loyihaning tarkibiy qismlari (komponentlari):

- ehtiyojlarni o‘rganish va vazifani qisqacha rasmiylashtirish;
- loyiha g‘oyasini shakllantirish;
- g‘oyalarni baholash;
- tadqiqot (tahlil);
- loyihani batafsil ishlab chiqish;
- “mahsulot”ni rejalashtirish va tayyorlash;

Ishlab chiqilayotgan loyihani ma’lum mezonlar bo‘yicha baholash;

Natijani baholash.

Talabalar faoliyatining loyihalash shakli va pedagog ishining loyihalash shaklini bir necha yillar uchun oldindan bir martada ishlab chiqish mumkin emas. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi zaifligi sababli o‘qitishning loyihalash texnologiyasida majburiy o‘quv materialining qisqartirilishi kompetentliklarni shakllantirish vazifasini to‘liq hal etishga imkon bermasligi xavfi mavjud. Ehtimol, o‘qituvchilar o‘quv jarayonini tashkil etishning chiziqli tizimidan boshqalariga, jumladan, loyihalash faoliyatiga o‘tishga tayyor emas. Ular loyihalash faoliyatini tashkil qilish shakllari va metodlarini egallamagan bo‘lishi mumkin.

Guruh ishini tashkil etish, loyiha qatnashchilarininng aloqasi va kommunikatsiyasini tashkillashtirish, tezkor rejalashtirish, ishlarni bajarish, ishning borishi ustidan nazorat tizimining faoliyati, muammolarni hal qilish. Bunda natija konsepsiya qanchalik puxta ishlab chiqilgani va ishlab chiqilgan, qabul qilingan ish metodlari qanchalik samarali amalga oshirilishiga bog‘liq.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyarbda ―O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta‘limi Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‗g‗risida‖gi PF-5847-son Farmoni.
2. Azizxodjaeva N.N. O‗qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T., 2000.
3. Amirsaidova Sh. Bo‘lajak pedagogika taraqqiyotida Sharq mutafakkirlari g‘oyalarining o‘rni. Ped.fan.nomz. diss. avtoref. –T.: 2006. -21 b.
4. Ayupova M.Yu. Logopediya. “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati” nashryoti ., Toshkent - 2011y.
1. 5.Выготский Л. С. Проблемы дефектологии. — М.: Просвеще¬ние, 1995. — 527 с.
2. Гребенев, И. В. Методическая подготовка студентов университетов / И. В. Гребенев // Педагогика. - 1996. - № 1. - С. 37-40
3. 7. O.Y.Bozorov Bo‘lajak logopedlarni metodik kompetensiyalarni rivojlantirish Ped. fanl. nom. diss… - T., 2021.
4. 8.Зимняя, И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании / И. А. Зимняя. — М. : Исслед. центр пробл. качества подгот. специалистов: 2004. - 56 с.
5. Ковалева, И. В. Развитие научно-методической компетентности педагогов в условиях образовательного выбора : автореф. дис. ... канд. пед. наук / И. В. Ковалева. - Мурманск, 2007. - 18 с
6. Круглов Ю. Г., Пивоварова Н. П. Проблемы подготовки учи¬телей-дефектологов в педагогических институтах // Дефектология.1996. — № 1. — С. 4—10.
7. Ландшеер, В. Концепция «минимальной компетентности» /І В. Ландшеер // Перспективы. - 1988.-№1.- С. 27 — 28.
8. Лебедева, О. В . Развитие методической компетентности учителя каксредство повышения эффективности учебного процесса в общеобразовательной школе ,: автореф. дис канд. пед. наук / О. В. Лебедева. ГОУ ВПО «НГАУ», 2007. - 6 с
9. Леонтьев, А. Н. Общее понятие деятельности / А. Н. Леонтьев // Хрестоматия по возрастной психологии : учеб; пособие для студентов / сост. Л. j М. Семенюк ; под ред. Д.И. Фельдштейна. — М; : Международная педагогическая академия, 1994. - С. 112-121.
10. Лукьянова, М. И. Профессиональная компетентность педагога : теоретический анализ понятия / М. И. Лукьянова // Управление Дошкольным Образовательным Учреждением. - 2007. - № 1 (35). - С. 8-15.
11. Чичерина, Д.Нуркельдиева ва Е.Бондареваларнинг “Бўлажак дефектолог-кадрларни тайёрлашда инновацион ёндашувлар” номли монографияси Т., 2016. – 82 b.

ISLOM MADANIYATI TASAVVUFIY MEROSINING SHARQ RENESSANSIDA TUTGAN O`RNI VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI

Jumayeva Feruza Faxriddinovna,
Buxoro davlat pedagogika institut tayanch doktoranti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu maqolada islom madaniyati, uning Sharq renessansiga ta'siri, tasavvuf ilmi namoyandalarining qarashlari va ularning hozirgi kundagi ahamiyati izohlangan.

Tayanch so`zlar: Islom madaniyati, Sharq renessansi, uyg`onish davri madaniyati, ilomiy manbalar, tasavvuf tariqat, so`fiy, solik, inson kamoloti, axloqiy fazilatlar.

Tarixdan ma'lumki insoniyat taraqqiyoti doim ham bir xilda tadrijiy kechmagan. Insoniyat hozirgi kun madaniy rivojiga erishguncha juda ko`p to`siqlarni, inqiroz va tanazzullarni boshdan kechirdi. Jamiyat a'zolarining faol harakati, hamda intilishi evaziga ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat kabi sohalarda yutuqlarga erishib borildi. VII-VIII asrlarda shakllana boshlangan islom madaniyati IX-XII asrlarda Movarounnahr hududida o`zining jadal taraqqiyotni boshdan kechirdi. Musulmon dunyosida sodir bo`lgan yuksalishda IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan mutafakkir, muhaddis va mutasavviflarning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda bir qator tadqiqotchi va tarixchi olimlarning asarlaridan Markaziy Osiyo xalqlarining nihoyatda boy va o`ziga xos madaniyatining guvohi bo`lamiz. Davlatimiz rahbari SH.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko`plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan".[1]

Ilm-fanning rivojlanishi oqibatida islom dunyosida ilmiy fikrlilik vujudga kelib Ispaniyadan Movarounnahrga qadar mamlakatlar xalqlarining diniy va madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, o'simlik va hayvonot dunyosiga qiziqish ortib bordi. Bu esa tarix, falsafa, tilshunoslik, madaniyat, etnografiya, fizika, geografiya, sanoat kabi fanlarning rivojlanishida sezilarli ahamiyat kasb etadi. Mazkur ilmiy yutuqlarni musulmon xalqlari tomonidan mamlakat va viloyatlarda insonparvarlik g`oyalarining shakllanishida, harbiy ish, dengizchilik, xo'jalik va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda tadbiq etilganiligida ko'rinadi. Amerikalik sharqshunos F. Rauzental o`zining "Bilimlar tantanasi" monografiyasida "IX-XIII asrlar musulmon ma'naviy va ijtimoiy hayotida bilimlarning yuksalgan davri bo`lib, boshqa davlatlar sivilizatsiyasida bunday yuksalish kuzatilmaydi. Ushbu sivilizatsiya o`zidan oldingi xalqlar sivilizatsiyasini o`rganib chiqib, ularni tikladi va o`z davri uchun g`oyatda yuksak musulmon sivilizatsiyasini yaratdi" – deb ta'kidlaydi.[2]

Yevropalik tadqiqotchilar Sharq Uyg'onish davrining Yevropaga ta`sirini ko`p hollarda inkor qilishadi yoki Yevropa Uyg'onish davrining ustunlik jihatlarini isbotlashga urinishadi. Akademik M.Xayrullayev "Yevropa va Sharqdagi Uyg'onish davri madaniyatiga ma'lum farqlar bo`lishiga qaramay, ular orasida g`oyaviy bog'lanish bor va ular yaxlit bir butun bosqichning jahon madaniyati, jahon falsafasining umumiy jarayonining turli javhalari, jihatlari sifatida namoyon bo`ladi" – deb ta'kidlaydi. F. Sulaymonova Sharq va G'arb Uyg'onish davrining bir-biriga ta`siri g`oyasiga qo'shilgan holda "Sharq Renessansi" g`oyasiga qo'shilmaydi. Shu o'rinda olima "Sharqda Yevropadagi kabi sakkiz-o'n asrlik diniy zulmat hukmronligi, badaviy hayot, madaniyat "uyqusi" bo`lmagan, madaniyat, ilm-fan tadrijiy rivoj etgan" – degan fikrni ilgari suradi.[3] Darhaqiqat, Markaziy Osiyo tarixida ilmiy turg'unlik, cherkov mutaassibligi yoki ilm-fandagi "uyqu" bo`lmagandan keyin, "uyg'onish" ga ehtiyoj qolmaydi. Markaziy Osiyoda yuksak ilm-fan, madaniyat har zamonda rivojlanib kelgan. Ushbu madaniyatni bo`lganligining isboti "Avesto", zardushtiylik ta'limoti va ularning g'arb mamlakatlari falsafiy ta'limotlariga ta`siridir. Ellinizm davri madaniyatiga yoki arablar bosqini davridan keyingi madaniyatning taraqqiy etishiga Markaziy Osiyoning ta`sirini inkor etib bo`lmaydi. Bu jarayonda ta`sir ikki yoqlama bo`lgan.[4]

Dunyo madaniyatini yaxlit olib o‘rgangan olimlarning ishlari Shuni ko‘rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnaxr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9— 12-asrlar) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergan, ilm fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida «Musulmon Renessansi» (A. Mets)[5] yoki «Sharq Uyg‘onishi» (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg‘onish davrida Yevropa Uyg‘onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo‘shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani Shundan dalolat beradi. Sharq Uyg‘onish davri ham ulug‘ allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad alFarg‘oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug‘bek jahonShumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqdi.

Markaziy Osiyoda 9—13-asrlarda o‘z xalqining qadimiy asliyatitiga murojaat qilish orqali Avesto falsafasini Qur'on ma'rifati bilan uyg‘unlashtirib, qayta tiklashga intilish tasavvuf ta'limoti, «ishroq» falsafasida namoyon bo‘lgan. Shu asosda turli nazariyalar, ta'limotlar yuzaga kelib, fikriy xilma-xillik rivojlandi. Tasavvufiy orifona ta'limotning qaror

topishi, tariqatlar ham, aslida, hurfikrlik va inson kamolotiga bo‘lgan ishonchning nishonasi edi. Uyg‘onish davri vakillari dinga emas, balki dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar.

Tafakkurdagi ikki: aqliy (ratsionalizm) va vajdiy (irratsionalizm) yo‘nalish namoyandalari zohiran o‘zaro kelishmay kelgan bo‘lsalarda, amalda Yevropa Uyg‘onish davrida bo‘lganidek, inson ongini bedor etish, uni aqidaparastlik (taqlidchilik) g‘uboridan tozalashda hamkorlik qildilar. Shu bois hurfikrli mutafakkirlar orasida ratsionalist olimlar bilan birga, orif sufiylar ham bor edi.

Tasavvuf namoyandalarining asarlarida poklik, xalollik, to’g’rilik, mexr-shafqat, o`z kuchi, peshona teri va xalol mexnati bilan kun kechirish, Allox taolo visoliga yetishish yo’lida insonni botinan va zohiran xar tomonlama takomillashtirish kabi ilg’or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan. Huddi Shunday yuksak g`oyalar Kubroviya, Naqshbandiya singari tariqatlarning mazmuni, mundarijasini tashkil etadi. Mamnuniyat bilan tilga olish lozimki, Najmiddin Kubro qalamiga mansub “Favo’ix al-Jamol va fatvotix al-Jalol”, “Al-Usul al-ashora”, “Risolotut-turk” kabi 30 ga yaqin noyob asarlar mavjud. Uning tariqatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas bog’lanib ketgan. Uning asarlaridagi kishilarning halollik, odamiylik, molu-dunyoga hirs o’ymaslik, o`z nojo’ya ishlaridan tavba qilishdek axloqiy-g`oyaviy, tarbiyaviy talab-qoidalar bizning kunlarimizda ham g`oyatda muhim ahamiyatga molikdir.O`z davrining komil insoni Bahouddin Naqshband haqida gapiradigan bo`lsak, avvalo u asos solgan Naqshbandiylikning asosiy mohiyati “qo’l ishda, Alloh dilda”, “Kam yegil, kam uxla va kam gapir!” degan ulug’ nasihatlari o’ta hayotiydir. Naqshbandiya ta’limoti halol mehnat qilishga, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-ma’rifat, xattotlik, badiiy adabiyot, musiqa bilan shug’ullanish kabi foydali kasb-hunarli va xayrli ishlar sari da’vat etadi. Jumladan xojagon tariqati namoyandasi Xoja Muhammad Orif Ar-Revgariy o`zining “Orifnoma” asarida inson kamoloti uchun unga berilgan tabiiy in’omlardan tashqari uning o`zidan faol sa’y-harakat va ichki hayoti motiv talab etilishi alohida ta’kidlanib quyidagi fikrlar keltirilgan: “Inson xulqi, tabiati va hol-ahvolidagi narsalar Alloh taolo tomonidan berilgandur, lekin kasb-hunar maqomiga erishmoq uchun tolib bo‘lmoq zarur. Shu toliblik jarayonida say’-harakat va tavajjuh, ko‘plab riyozat chekish va jiddu jahd ila yomon illatlarni yo‘qotish oqibatida pokizalik va nek xislatlar hosil bo‘lgay va daraja badaraja taraqqiy etib, kamolot martabasi va ta¬rifu visolga erishgay. Ammo bu o`rinda solik uchun birlamchi vajd (zavq-shavq, hayajon) lozimdurki, ul - kashfning muqaddimasi va kashf-ma’rifatning va ma’rifat - mushohadaning muqaddimasidur”.[6] Darhaqiqat, piri komilning yuqoridagi fikrlari hozirgi kunimiz uchun ham juda ahamiyatli hikmatdir. Chunki barkamol avlod tarbiyasi Yangi O`zbekiston barpo etish yo`lidagi islohotlarning bosh mezonlardan biri hisoblanadi. Bunda inson kamoloti uchun nafaqat sog`lom tana va fikr hamda yaxshi fazilatlar egasi bo`lishi uqtirilgan, balki ma’lum bir kasb-hunar, ilm egallash uchun doimiy harakat va istakda bo`lishi uning tafakkur dunyosiga , ma’rifatga oshno bo`lishi muhim hayotiy haqiqat ekanligi ta’kidlangandek go`yo.

Кроме того, писатели У. Хамдам и С. Афлатуни известны своим мастерством в сочетании литературных и культурных стилей Востока и Запада. Нарратив этих авторов интегрирует восточную повествовательную традицию с современными западными литературными техниками, отражая гибридность и многообразие современного глобализованного мира. Это объединение не только делает их произведения уникально привлекательными для мировой читательской аудитории, но и представляет яркий пример культурного симбиоза.

Использованная литература:

1.Аминева В.Р. Теория литературы. Конспект лекций. – Казань: Казанский (Приволжский) федеральный университет. 2014. С. 106. URL: https://dspace.kpfu.ru/xmlui/bitstream/handle/net/21754/10_154_kl-000632.pdf. Дата обращения: 17.12.23

2.Афлатуни С. Стихи/Журнал Дружба Народов. 2021. № 1. URL: https://magazines.gorky.media/authors/a/suhbat-aflatuni. Дата обращения: 17.12.23.

3.Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов/пер. Г. К. Косикова//Зарубежная эстетика и теория литературы XIX–XX вв.: трактаты, статьи, эссе. М.: МГУ. 1987. С. 387–422.

4.Белинский В.Г. Полн. собр. соч.: В 13 т. М.: 1953-1959. Т. 4. С. 496–497.

5.Бокарева М. Постреализм как новая парадигма художественности//Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 160-167.

6.Бокарева М. «Игра в текст» как способ построения постреалистического художественного дискурса//Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 407-413.

7.Боковели О.С. Мифопоэтический подход в изучении русской литературы: учебное пособие/Кызыл: Изд-во ТувГУ. 2017. 55 с.

8.Гаспаров Б.М. Литературные лейтмотивы. Очерки по русской литературе XX века. М.: Наука. Издательская фирма «Восточная литература». 1993. 304 с.

9.Деррида Ж. О грамматологии/Пер. с фр. и вст. ст. Н. Автономовой. М.: Ad Marginem, 2000. 512 с.

10. Зикириллаев Б.Н. Особенности жанра макамы в творчестве Сухбата Афлатуни/Вестник Московского городского педагогического университета. 2015. С. 114–119. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-zhanra-makamy-v-tvorchestve-suhbata-aflatuni. Дата обращения: 17.12.23.

11.Каримов О. История новой узбекской литературы. Ташкент, 2006

12.Кессиди ,Ф.Х. Сократ/Ф.Х. Кессиди. – Ростов-н/Д: Феникс, 1999.

13.Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. М.: 1972.

14.Осипова Н.О. Мифопоэтический анализ поэзии Серебряного века/Журнал Наука о литературе в XX веке: (История, методология, литературный процесс). 2001.

15.Раджабова Г.А. Творческая биография и художественный мир Субхата Афлатуни/Гуманитарный научный вестник. 2021. №3. URL: http://naukavestnik.ru/doc/2021/03/Radjabova.pdf. Дата обращения: 17.12.23.

16.Руднев В. П. Словарь культуры XX века. - М.: Аграф, 1999. 384 с.

17.Рязанов И.В. Сакрализация образа земли в архаической картине мира/ Журнал Вестник Пермского университета. Философия. Психология. Социология. 2013. Выпуск 2 (14). С. 84–92. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sakralizatsiya-obraza-zemli-v-arhaicheskoy-kartine-mira. Дата обращения: 17.12.23.

18.Хамдам У. Художник. // Звезда Востока. 2021. № 2.

19. Хамдам У. Равновесие. Ташкент: Шарк, 2007

20. Hamdam U. (2006). Bunt i smirenie [Rebellion and Humility]. Tashkent: Zar qalam. 323 p. (In Russ.).

21. Юхнова И.С. Русский культурный код в повести Сухбата Афлатуни «Глиняные буквы, плывущие яблоки»/Журнал Мировая литература на перекрестье культур и цивилизаций. №2 (10) 2015. С. 81–88. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/russkiy-kulturnyy-kod-v-povesti-suhbata-aflatuni-glinyanye-bukvy-plyvuschie-yabloki. Дата обращения: 17.12.23.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA TO‘SIQLAR

Safarova Nigora Nasilloyevna,
O‘zbekiston respublikasi Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi o`qituvchisi, p.f.f.d.,(PhD).

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi institutsional omillar, kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish tashabbuslari natijalari bo‘yicha amaliy tadqiqotlar va tadqiqot natijalari. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning mavjud holatini yaxshilash uchun berilgan tavsiyalarni amalga oshirish borasida fikr yuritilgan.

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning hozirgi holatini tushunish, muammolarni aniqlash va samarali strategiyalarni o‘rganish orqali o‘qituvchilarning ta’lim dasturlarini yaxshilash mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, institutsional, imkoniyat, texnologiya, individual, interfaol, metodologiya, integratsiya, samaradorlik.

ПРОБЛЕМЫ И ПРЕПЯТСТВИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Сафарова Нигора Насиллоевна
преподаватель Бухарского академического лицея МВД Республики Узбекистан, д.ф.п.н.,(PhD).

Аннотация: В статье рассмотрены институциональные факторы, препятствующие развитию профессиональной компетентности будущих учителей, рассмотрены конкретные примеры и результаты исследования результатов инициатив по развитию профессиональной компетентности. Рассматривается реализация данных рекомендаций по улучшению современного состояния развития профессиональной компетентности будущих учителей.

Понимание современного состояния развития профессиональных компетенций, выявление проблемы и изучение эффективных стратегии поможет в будущем улучшить программы подготовки учителей.

Ключевые слова: Компетенция, институциональная, возможность, технология, индивидуальная, интерактивная, методология, интеграция, эффективность.

PROBLEMS AND OBSTACLES IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Safarova Nigora Nasilloevna
teacher of the Bukhara Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.

Abstract: The article examines institutional factors that impede the development of professional competence of future teachers, considers specific examples and results of a study of the results of initiatives to develop professional competence. The implementation of these recommendations to improve the current state of development of professional competence of future teachers was discussed.

By understanding the current state of professional competency development, identifying challenges, and exploring effective strategies, teacher preparation programs can be improved.

Key words: Competence, institutional, opportunity, technology, individual, interactive, methodology, integration, efficiency.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish turli muammolarga duch keladi, masalan, cheklangan amaliy tajriba, etarli darajada murabbiylik imkoniyatlari, texnologiyaning etarli darajada integratsiyalanmaganligi va samarali kasbiy rivojlanish tashabbuslariga to‘sqinlik qiluvchi institutsional omillar. O‘qituvchilar ta’limi dasturlarining umumiy sifatini oshirish uchun bu vazifalarni hal qilish zarur.

Umumiy to‘siqlardan yan biri - o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari davomida amaliy tajribaga ajratilgan vaqtning cheklangan miqdori. Nazariy ishlar ko‘pincha birinchi o‘ringa ega bo‘lib, haqiqiy sinflarda amaliy mashg‘ulotlar uchun kam joy qoldiradi. Bundan tashqari, izchil baholash va fikr-mulohazalarning yo‘qligi kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilar uchun takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash qiyin bo‘ladi.

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi institutsional omillar. Institutsional omillar ham bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Cheklangan resurslar, masalan, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini moliyalashtirish, o‘qituvchilarning o‘z fanlari bo‘yicha eng yangi pedagogik yondashuvlar va yutuqlardan xabardor bo‘lish qobiliyatiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Qolaversa, ta’lim muassasalarida

yetarlicha qo‘llab-quvvatlash va kasbiy kompetentsiyaning o‘sishiga to‘sqinlik qilishi mumkin, O‘qituvchilar tajribali o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish uchun yo‘l-yo‘riq va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish uchun o‘qituvchilar ta’limi dasturlariga amaliy tajribalarni kiritish juda muhimdir. Bu tizimlashtirilgan sinf kuzatuvlari, amaliyot va talabalarni o‘qitishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu tajribalar bo‘lajak o‘qituvchilarga nazariy bilimlarini qo‘llash, muhim ko‘nikmalarni rivojlantirish va tajribali o‘qituvchilardan konstruktiv fikr-mulohaza olish imkoniyatini beradi.

Mentorlik va amaliy tajribalar kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga quyidagicha hissa qo‘shishi mumkin.

Mentorlik dasturlari intiluvchan o‘qituvchilarga yo‘l-yo‘riq, qo‘llab-quvvatlash va fikrlash va o‘sish imkoniyatlarini taqdim etadi. Amaliy tajribalar, masalan, sinfda kuzatish va o‘quvchilarga dars berish bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini real sharoitlarda qo‘llash, pedagogik mahoratni rivojlantirish va o‘qituvchilik kasbi haqida bebaho tushunchalarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Mentorlik dasturlari bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu dasturlar intiluvchan o‘qituvchilarga o‘qituvchilik kasbining mukammal egallashga harakat qilish uchun zarur bo‘lgan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi hamda yordam beradi. Ajam o‘qituvchilarni tajribali professorlar bilan birlashtirib, ular bilim almashish, malaka oshirish va kasbiy o‘sish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ajam o‘qituvchilar qo‘llab-quvvatlash va yo‘l-yo‘riq uchun murojaat qilishlari kerak bo‘lgan odam borligini bilish orqali taskin topishlari mumkin, bu izolyatsiya va noaniqlik tuyg‘ularini kamaytiradi. Bunday qo‘llab-quvvatlovchi muhit ularga o‘zlarining kasbiy rivojlanishiga e’tibor qaratishga imkon beradi va o‘qituvchilar sifatida umumiy vakolatlarini oshiradi.

Mentorlik dasturlarining kasbiy kompetentsiyaga ta’sirini ortiqcha baholab bo‘lmaydi. Mentorlar bebaho manbalar bo‘lib xizmat qiladi, o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashadi va sinfni boshqarish strategiyalari, o‘qitish usullari va kasbiy axloq bo‘yicha maslahatlar beradi. Muntazam uchrashuvlar va munozaralar orqali mentorlar yangi o‘qituvchilarga o‘z tajribalari haqida fikr yuritishlari, muammolarga yechim izlashlari va o‘z qobiliyatlariga ishonch orttirishlari uchun imkon beradi.

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish dasturlari samaradorligini quyidagicha baholash mumkin.

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish dasturlari samaradorligini turli usullar, jumladan, o‘z-o‘zini baholash, tengdoshlarni baholash, ustozlik yoki rahbarlarning fikr-mulohazalari, o‘qitish amaliyotini kuzatish va talabalar natijalarini tahlil qilish orqali baholash mumkin. Ushbu baholash usullari kuchli, zaif tomonlarini va yaxshilash sohalarini aniqlashga yordam beradi. Natijada o‘qituvchilar ta’limi dasturlari sifati va ta’sirini oshiradi.

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish dasturlari samaradorligini baholash ularning kelajakdagi o‘qituvchilarning o‘sishi va samaradorligiga ta’sirini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturlarning samaradorligini baholash uchun turli usullar va ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Baholash usullaridan biri bu ishtirokchilar, jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini yig‘ishdir.

So‘rovlar va suhbatlar ularning dasturning dolzarbligi, foydaliligi va ularning kasbiy malakasiga ta’siri haqidagi tasavvurlarini qamrab olishi mumkin. Ishtirokchilarning fikr-mulohazalari dasturning kuchli tomonlari va takomillashtirish sohalari haqida qimmatli fikrlarni berishi mumkin.

Yana bir yondashuv - bu kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish dasturlaridan o‘tgan bo‘lajak o‘qituvchilarning natijalari va faoliyatini baholashdir. Ularning ish faoliyatini nazorat guruhi bilan solishtirish dastur ularning o‘qitish ko‘nikmalari, o‘qitish amaliyoti va o‘quvchilar natijalariga ta’sirini aniqlashga yordam beradi.

Kasbiy kompetentsiya dasturlari samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari sinfdagi kuzatishlar, o‘quvchilarning baholashlari, o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomalari va akademik yutuqlar ma’lumotlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘qituvchilarning malakasi va samaradorligining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlashi mumkin.

Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish tashabbuslari natijalari bo‘yicha amaliy tadqiqotlar va tadqiqot natijalari. Ko‘plab amaliy tadqiqotlar va tadqiqot natijalari professional malaka oshirish tashabbuslari natijalarini yoritib berdi. Ushbu tadqiqotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning malakasi, o‘qitish amaliyoti va talabalar natijalariga doimiy ravishda ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Misol uchun, Smit va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot dasturining yangi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasiga ta’sirini o‘rganib chiqdi. Topilmalar shuni ko‘rsatdiki, dastur ishtirokchilari ishtirok etmaganlarga nisbatan yuqori darajadagi o‘ziga ishonch, sinfni boshqarish ko‘nikmalarini yaxshilash va talabalarning faolligini oshirish haqida xabar berishdi. Ushbu tadqiqot mentorlik dasturlarining kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga ijobiy ta’sirini ta’kidlaydi.

Xuddi shunday, Jonson tomonidan o‘tkazilgan amaliy tadqiqot o‘qituvchilar ta’limida amaliy tajriba dasturining natijalarini o‘rganib chiqdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, dasturni tamomlagan bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining ta’lim strategiyalarida, inklyuziv ta’lim muhitini yaratish qobiliyatida va talabalar ehtiyojlariga javob berishda sezilarli o‘sishni ko‘rsatdi. Ushbu amaliy tadqiqot kasbiy kompetentsiyani oshirishda amaliy tajribalarning afzalliklarini ta’kidlaydi.

Birgalikda ushbu amaliy tadqiqotlar va tadqiqot natijalari professional kompetentsiyani rivojlantirish tashabbuslarining ijobiy natijalarining empirik dalillarini beradi. Ular kelajakdagi o‘qituvchilarning uzluksiz o‘sishi va samaradorligini ta’minlash uchun ushbu dasturlarga sarmoya kiritish muhimligini kuchaytiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning mavjud holatini yaxshilash uchun quyidagi

tavsiyalarni amalga oshirishni ko‘rib chiqishlari kerak:

1. Tegishli resurslarni taqsimlash: o‘qituvchilar ta’limi dasturlarida mentorlik dasturlari va amaliy tajribalar mavjudligini ta’minlash uchun etarli mablag‘ va yordam ko‘rsatilishi kerak. Bunga moliyalashtirish, murabbiylar uchun malaka oshirish imkoniyatlari va amaliy tajribalar uchun resurslar kiradi.

2. Sifat standartlarini o‘rnatish: izchillik va samaradorlikni ta’minlash uchun mentorlik dasturlari va amaliy tajribalar uchun sifat standartlarini belgilashlari kerak. Mentorning o‘zaro munosabatlariga oid taxminlarni va amaliy tajribalarning ta’sirini baholash mezonlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

3. Hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash: olimlar ilg‘or tajribalarni almashish va birgalikda kasbiy malaka oshirishni yaxshilash uchun ta’lim muassasalari va amaliyotchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirishlari kerak. Bunga bilim almashinuvi va doimiy takomillashtirishga yordam beruvchi konferentsiyalar, seminarlar va hamkorliklar orqali erishish mumkin.

Ta’lim muassasalari, o‘qituvchilar uyushmalari va ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar o‘rtasidagi hamkorlikdagi sa’y-harakatlar va sheriklik kasbiy kompetentsiya tashabbuslarini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Birgalikda ishlash orqali manfaatdor tomonlar ushbu tashabbuslar samaradorligini oshirish uchun o‘z resurslari, tajribalari va tajribalarini birlashtirishlari mumkin. OTMlar va maktablar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish ana shunday hamkorlikka misol bo‘la oladi. OTMlari bo‘lajak o‘qituvchilar uchun pedagogik dasturlari va amaliy tajribalarni taqdim etish uchun hududiy maktablar bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Ushbu hamkorlik OTMlarga tajribali o‘qituvchilarning tajribasidan foydalanish imkonini beradi, maktablar esa OTMlarning eng so‘nggi tadqiqot va pedagogik yondashuvlaridan foydalanishlari mumkin.

Bundan tashqari, o‘qituvchilar uyushmalari kasbiy kompetentsiya tashabbuslarini kuchaytirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Ushbu uyushmalar bo‘lajak o‘qituvchilar va pedagoglar uchun malaka oshirish seminarlari, konferentsiyalar va tarmoq imkoniyatlarini taklif qilishlari mumkin. Hamkorlik va bilim almashish uchun platforma yaratib, o‘qituvchilar uyushmalari o‘zaro hamkorlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish yuqori sifatli ta’limni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning hozirgi holatini tushunish, muammolarni aniqlash va samarali strategiyalarni o‘rganish orqali o‘qituvchilarning ta’lim dasturlarini yaxshilash mumkin bo‘ladi. Uzluksiz o‘rganish, pedagogik tajribani, muloqot qobiliyatlarini, etakchilik fazilatlarini, baholashni, texnologik savodxonlikni, axloqiy xulq-atvorni va o‘z-o‘zini aks ettirishni rivojlantirish orqali o‘qituvchilari yuqori sifatli ta’lim berishda o‘zlarining qobiliyatlarini oshirishlari mumkin. O‘qituvchi dasturlari va amaliy tajribalar bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning ajralmas qismidir. Mentorlar yo‘l-yo‘riq va yordam beradi, amaliy tajriba esa bilimlarni qo‘llash va muhim ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu elementlar birgalikda samarali o‘qitish va umrbod kasbiy o‘sish uchun mustahkam poydevor yaratadi. O‘qituvchilar ta’limida professional kompetentsiya tashabbuslarini kuchaytirish uchun hamkorlikdagi sa’y-harakatlar va hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ta’lim sohasidagi manfaatdor tomonlarning jamoaviy tajribasi va resurslaridan foydalangan holda, biz bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun qo‘llab-quvvatlovchi va mustahkamlovchi muhitni yaratamiz.

O‘qituvchilar amaliy tajribalari va ishonchli baholash usullaridan foydalanib, biz bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘z rollarida ustunlik qilish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar berishimiz mumkin. Olimlar tavsiya etilgan yaxshilanishlarni amalga oshirish uchun hamkorlik qilishlari va kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish kelajagiga sarmoya kiritishlari zarur. Shunday qilib, biz ta’lim manzarasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan malakali va fidoyi o‘qituvchilar avlodini tarbiyalashimiz mumkin.

Foyalanilgan adabiyotlar:

1.Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

2.Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики. Альманах современной науки и образования. - № 5 (36). - С. 133-135.

3.Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.

4.Митина Л.М. (2004). Психология труда и профессионального развития учителя. - М.: Академия. - 320 с.

5.Қораев, С. (2016). Фанлараро узвийлик ва узаро алоқани таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари. “Таълим, фан ва ннновация”, 2(2), 45- 50.

6.Elmurzaeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. Psychology and Education Journal, 58(1), 1078-1084

7.Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. “Education, Science and Innovation,” 2 (2), 45-50.

8.Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 1281-1286.

MATEMATIKA DARSLARIDA “BUMERANG” TEXNOLOGIYASI

Azimova Dilnoza Orifovna,
Buxoro davlat pedagogika institute “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/ 0009-0006-0277-1513

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda ilg‘or pedagogik texnologiyalar (interfaol usullar) mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi. Bu matematika fani darslarini o‘tishda juda muhim hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarning tayyorgarliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi. Ta`limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o`qitish tizimida o`quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqishi, avtomatik tarzda takrorlashlardan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatni rivojlantirish darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Maqolada “Kompleks sonlar” mavzusini “Bumerang” texnologiyasi yordamida o‘qitish usuli yoritilgan. “Bumerang” texnologiyasi turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishda qulay bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan talaba yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi, talabalarni mashg‘ulot jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Kompleks sonlar, “Bumerang” texnologiyasi, dars, talaba, o‘qituvchi, mavzu, baholash, gurux, o‘quv materiallari.

ТЕХНОЛОГИЯ «БУМЕРАНГ» НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Азимова Дильноза Ориповна
Бухарский государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры «Точные науки»

Аннотация: В настоящее время существует множество видов обучения современным педагогическим технологиям (интерактивным методам), которые подбираются в соответствии с особенностями предмета урока и поставленными целями и готовятся соответствующим образом. Это очень важно при прохождении уроков математики. При этом к подготовке студентов предъявляются особые требования. Основная цель педагогических технологий в образовании – поставить ученика в центр учебного процесса в системе обучения, отвратить его от автоматических повторений, развить самостоятельную и творческую активность, стать активным участником урока. В статье описана методика обучения теме «Комплексные числа» по технологии «Бумеранг». Технология «Бумеранг» удобна для изучения тем различного содержания и характера (проблемных, спорных, разнообразного содержания), включает устную и письменную формы работы, и в течение одного занятия каждая позволяет участнику выполнять различные задания, попеременно находиться в роли. студента или преподавателя, набирает необходимые баллы, позволяет студентам работать с различной литературой и текстами во время обучения, вне занятий, запоминать изученный материал, направлен на умение давать обратную связь, уметь выражать свое, свободно высказывать свое мнение и иметь возможность оценивать всех учащихся в течение одного урока.

Ключевые слова: Комплексные числа, технология «Бумеранг», урок, ученик, учитель, предмет, оценка, группа, учебные материалы.

«BOOMERANG» TECHNOLOGY IN MATHEMATICS LESSONS

Azimova Dilnoza Oripovna
Bukhara State Pedagogical Institute
Teacher of the «Exact Sciences» department

Abstract: Currently, there are many types of training in advanced pedagogical technologies (interactive methods), which are selected in accordance with the characteristics of the subject of the lesson and the intended goals, and are prepared accordingly. This is very important when passing math lessons. In this case, special requirements are placed on the students’ preparation. The main goal of pedagogical technologies in education is to bring the student to the center of the lesson process in the teaching system, to turn him away from automatic repetitions, to develop independent and creative activity, and to become an active participant of the lesson. The article describes the method of teaching the topic «Complex numbers» using the «Boomerang» technology. «Boomerang» technology is convenient for learning topics of different content and nature (problematic, controversial, diverse content), includes oral and written forms of work, and during one session, each allows the participant to perform various tasks, alternately be in the role of a student or a teacher, collect the necessary points, allows students to work with various literature and texts during

training, outside of class, to remember the learned material, It is aimed at being able to give feedback, to be able to express one’s opinion freely and to be able to evaluate all students during one lesson.

Key words: Complex numbers, «Boomerang» technology, lesson, student, teacher, subject, assessment, group, educational materials.

1.Kirish.Bugungi kunga kelib ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan talablardan biri bu ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay , qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdan iboratdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o`quvchilarga yetkazib berish,ularda ma`lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarni hosil qilish shuningdek,o`quvchilarning faoliyatini nazorat qilish,ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma va malakalarning darajasini baholash uchun o`qituvchilardan yuksak pedagogik mahorathamda ta`lim jarayoniga nisbatan yan’gicha yondashuvni talab etadi. Nimaga aynan qisqa vaqt? Chunki o`qituvchi diqqatini juda uzoq vaqt davomida darsga qarata olmaydi, tezda zerikib tezda chalg`ib qoladi.Shu sababli o`qituvchi dastlab o`qituvchi dastlab o`quvchi diqqatini o`ziga jalb qila olishi, qisqa muddat ichida mavzuning mazmun mohiyatini o`quvchiga tushuntirib bera olishi kerak .

«Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo`lmaydi.Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta`lim dasturlarini yaratib, o`qituvchilarni qayta tayyirlash zarur. Metodika shunday bo`lishi kerakki, u o`quvchilarda matematikaga muhabbat uyg`otsin. Buning uchun o`quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o`ziga kerakligini anglashi zarur. Yoshlar imtihondan o`tishi uchun emas, bilimli mutaxassis bo`lish uchun o`qishi lozim» - deydi davlatimiz rahbari. Bu fikrdan kelib chiqadiki biz pedagoglar o`zimizga nisbatan yanada talabchan bo`lishimiz kerak. Ta`limda pedagogic texnologiyalarning asosiy maqsadi o`qitish tizimida o`quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqishi, avtomatik tarzda takrorlashlardan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatni rivojlantirish darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir.

Hozirgi vaqtda ilg‘or pedagogik texnologiyalar (interfaol usullar) mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi. Bu matematika fani darslarini o‘tishda juda muhim hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarning tayyorgarliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi. Xususan: mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalar ... .

Adabiyotlar tahlili.

[3] maqolada matematika darslarida ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

[4] maqolada o‘quv fanlarini o‘rganishda tarixiy yondashuv ma’lum darajada o‘quv jarayonini ilmiy bilimga yaqinlashtirishi hamda o‘qituvchining matematika tushunchalari bilan tanishar ekan, dars jarayonida ularning tarixi va rivojlanishi (asosan, buyuk ajdodlarimiz xizmatlari) haqida so‘z yuritishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishi, ona Vatanga muhabbatini tarbiyalashi haqida fikr yuritilgan.

[5] maqolada matematika fanini o‘rgatish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanilanish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o‘qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog‘liqligi qayd qilingan. O‘quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbiq eta olishga tayyorlanashi haqida so’z yuritilgan.

[6] maqolada bugungi fan va texnika rivojlangan davrda talabalar bilimini mustahkamlashda mustaqil ta’limning o‘rni alohida ahamiyat kasb etishi qayd qilingan. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta’limni bajarishda talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, mustaqil bilim olish, mustaqil ishlanish va mustaqil o‘z ustida ishlashga o‘rgatish bugungi kunda juda muhimligi ta’kidlangan. Hamda talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar, talabalarga berilishi kerak bo‘lgan ko‘rsatmalar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

[7] maqolada ishga doir mantli masalalar va ular qanday turlarga bo‘linishi, ularni yechish bosqichlari, bu kabi masalalarda uchraydigan asosiy qonuniyatlar haqida qisqacha tushunchalar keltirilgan. Ishga doir matnli arifmetik masalalarni yechishda qanday tasdiqlarga e’tibor berishimiz kerakligi haqida mulohazalarni umumlashtirib, mavzu bo‘yicha masalalar yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Keltirilgan tasdiqlar va mulohazalar bilan yechilgan masalalar o‘quvchilar hamda fanni mustaqil o‘rganuvchilarga matnli masalalarni qiyinchiliklarsiz o‘zlashtirishga yordam berishi ta’kidlangan.

[8] maqolada talabalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun bir qator nazariy va mantiqiy asoslar taqdim etilgan, ularsiz ko‘rsatkichli tenglamalar va tengsizliklarni to‘g‘ri yechish imkonsizligi ta’kidlangan. Ko‘rsatkichli tenglamalarning tipik variantlari va tengsizliklar, shuningdek, bunday muammolarni hal qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

[9] maqolada ta’lim sohasini rivojlantirishda ilg‘or tajribalardan foydalanib tengsizliklarni yechishda asosiy bilimlarga ega bo‘lish va yechimlarni umumlashtirishda xatolikka yo‘l qo‘ymaslik uchun nimalarga e’tibor qaratish lozimligi to‘g‘risida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Algoritmik usul yordamida kasr-ratsional, irratsional, logarifmik va trigonometrik funksiyalarga doir tengsizliklarga oid misollarning yechimi keltirilgan.

[10-11] maqola o‘quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar samaradorligini tahlil

qilishga bag‘ishlangan. Bugungi kunda o‘quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, bu esa o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Interfaol usullar katta vaqt va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi, o‘quvchiga nazariy bilimlarni o‘rgatish, muayyan faoliyat turlari bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, o‘quvchi bilimini nazorat qilish va baholash katta mahorat va epchillikni talab qilishi haqida so‘z yuritilgan.

Asosiy qism.

Otilgan buyumning otuvchiga qaytib kelishini ta’minlovchi o‘roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta’limda bumerang metodining ma’nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan holda o‘qituvchiga og‘zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1. Darsda o‘rganiladigan mavzuning rejasida 4 ta qism mavzular bo‘lsa, o‘quv xonasidagi talabalar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi qism mavzu o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh talabalarining har biriga taqdim etiladi. Shu tariqa rejadagi boshqa qism mavzular ham javoblari bilan birgalikda o‘ziga mos nomerdagi guruhlarning talabalariga tarqatiladi. Har bir guruhdagi talabalar o‘zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta qism mavzuni o‘qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o‘rganib chiqadilar.

2. Shundan keyin 4 guruh talabalari aralashtirilib, yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarning har birida dastlabki 4 guruhlarning barchasidan bir nechtadan talabalarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o‘quv materialini yaxlit jamoa bo‘lib o‘rganish imkoniyati tug‘iladi. Muhimi, talabalarda o‘quv materialini mustaqil o‘rganish, hamkorlikda ishlash, bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko‘nikma va malakalari shakllanadi.

3. O‘qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo‘lib o‘rganish yakunlangach, talabalar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O‘qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o‘zlari tanlagan bir talaba sheriklarining to‘plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o‘qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o‘tkaziladi. Bunda qo‘yilgan savolga to‘g‘ri javob bergan talabaga 3 ball, to‘g‘ri qo‘shimcha qilganga 2 ball, to‘g‘ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo‘yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo‘yicha o‘zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To‘g‘ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo‘shilib, boshqalarga 0 ball qo‘yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o‘zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo‘shib qo‘yiladi.

5. Endi har bir talabani baholash uchun ularga mavzu bo‘yicha oldindan tayyorlangan test topshiriqlari tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa talabalari tayyor javoblar asosida tekshirib, o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo‘yicha ball qo‘yiladi.

6. Dars o‘qituvchi tomonidan talabalar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va talabalarga to‘plangan ballar e’lon qilinib, rag‘batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo‘ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh talabalarining tayyorgarlik darajasiga, o‘quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog‘liq ravishda dars vaqtida yetishmovchilik kutilsa, to‘rtinchi bosqichni o‘tkazmaslik mumkin.

Bumerang texnologiyasini o‘tkazish bosqichlari

1 – bosqich. Guruh talabalari 4–5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘linadi;

- o‘qituvchi har bir guruh va uning har bir a’zosiga mustaqil o‘rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida–alohida aniq yozma tarqatma material beradi. Ularning soni guruhlar va talabalar soniga bog‘liq. Agar 5 ta kichik guruh bo‘lsa, u holda umumiy mavzu 5 ta kichik matnlarga bo‘linib har bir guruhga beriladi;

- faoliyat samarali bo‘lishi uchun har bir guruhga berilgan matndan har bir talabaga beriladi. Shunday qilib, 5 ta guruh umumiy mavzu asosida 5 xil matnga, har bir talaba esa o‘z guruhiga tushgan matnga ega bo‘ladi.

Namuna sifatida “Kompleks sonlar” mavzusini 5 ta qismga ajratib kichik guruhlarga tarqataylik:

1. Kompleks son va uning algebraik, trigonometrik, ko`rsatkichli shakllari hamda ular ustida amallar.
2. Algebraning asosiy teoremasi.
3. Kubik tenglama
4. Kardano formulasi.
5. Yuqori darajali tenglamalar.

2 - bosqich. Guruhlarga berilgan matnni guruh a’zolari yakka tartibda alohida o‘rganishlari, matnni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo‘lsa boshqalarga yoki o‘qituvchiga gapirib berishlari, iloji boricha matnni o‘zlashtirib olishlari kerakligini o‘qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta yoki kichikligiga qarab 10-15 daqiqacha vaqt beradi. O‘zi esa guruh va talabalarning ish faoliyatini kuzatadi.

3 - bosqich. O‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan raqamlar yozilgan kichik qog‘ozlar bilan xar bir guruh yoniga kelib guruh a’zolaridan ushbu qog‘ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so‘raydi (qog‘ozlar soni guruhdagi talabalar soniga bog‘liq, masalan guruhda 5 kishi bo‘lsa, qog‘ozdagi raqamlar 1,2,3,4,5 etib tayyorlanadi. Kichik guruhlardagi barcha talabalar raqamlar yozilgan qog‘ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo‘lsa, shuncha guruh a’zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog‘ozlar tayyorlanadi.

O‘qituvchi raqamlar bo‘yicha talabalardan yangi guruhlar tuzishlarini so‘raydi. Masalan, hammada 1-raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2-raqamlilar ikkinchi, 3-raqamlilar uchinchi guruhni, 4-raqamlilar to‘rtinchi guruhni, 5-raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini so‘raydi. Guruh a’zolari yangi guruhga o‘zlari bilan o‘rgangan matnlarini ham olib o‘tishadilar.

4 – bosqich. Raqamlar bo‘yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o‘z–o‘zidan to‘planib qoladi, ya’ni 5 xil matn o‘rganilgan bo‘lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to‘planadi, umumiy mavzu bo‘yicha 5 talaba va 5 xil matn to‘planadi.

5 – bosqich. Yangi tuzilgan guruhning har bir a’zosi endi o‘ziga 2 ta vazifa, ya’ni o‘qituvchi va talaba vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko‘rsatadi:

-o‘qituvchi (o‘rgatuvchi) sifatida, o‘zi avval o‘rgangan materialni gapirib beradi, o‘zi mustaqil o‘rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a’zolarining tushunish va o‘zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

-talaba sifatida, guruh a’zolarining navbatma–navbat so‘zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

-o‘qituvchi esa ularga o‘z matnlarini faqat so‘zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqacha vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

6 – bosqich. Guruhdagilar bir–birlariga o‘z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o‘qituvchi o‘rganilgan material guruh a’zolari tomonidan qanchalik o‘zlashtirib olganini tekshirib ko‘rish uchun har bir guruh a’zolarining bir–birlariga o‘z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichida ichki nazorat, ya’ni savol–javob orqali o‘tkaziladi. Bu esa guruhdagi talabalarni bir–birlariga so‘zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, o‘zining bilimini yanada mustahkamlashiga yordam beradi.

7 – bosqich. O‘qituvchi barcha talabalarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so‘raydi, ya’ni talabalar yana mashg‘ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

8 – bosqich. O‘qituvchi o‘quv xonasidagi talabalarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganliklarini hisobga olgan holda, har bir talabadan o‘rganilgan materialni so‘rashi mumkinligini aytadi.

9 – bosqich. Talabalarga tarqatilgan o‘quv materialining ular tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi talabalarning nazorat savollariga bergan javoblarini reyting ballari orqali baholashini tushuntiradi, masalan, savollarga berilgan javoblar– agar to‘liq javob bo‘lsa – 3 ball, qo‘shimcha qilinsa – 2 ball, o‘tirgan joydan luqma tashlansa – 1 ball, javob berilmasa – 0 ball qo‘yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida - to‘liq javob uchun 5 baho, qo‘shimcha uchun 4 baho, luqma tashlansa 3 baho, javob bermasa 2 baho qo‘yishni belgilash mumkin.

Guruh a’zolarining javoblarini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo‘yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o‘ziga guruh qatnashchilaridan birini “hisobchi” etib tayinlashi mumkin (“hisobchi” ham davrada bo‘layotgan savol–javoblar muloqotida ishtirok etadi).

10 – bosqich. O‘qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5–6 ta) bilan talabalarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo‘lgani ma’qul, shuningdek, o‘qituvchi o‘quv xonasidagi barcha talabalarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Savollardan namunalar:

1. Kompleks son deb nimaga aytiladi?
2. Kompleks sonning algebraik shakli qanday bo`ladi?
3. Kompleks sonlarning yiђindisi, ayirmasi, ko`paytmasi va bo`linmasi qanday topiladi?
4. Kompleks sonlarning trigonometrik ko`rinishi qanday?
5. Muavr formulasi nimadan iborat?
6. Eyler formulasi qanday?
7. Algebraning asosiy teoremasi nimadan iborat?
8. Kardano formulasi qanday?
9. Yuqori darajali tenglamalarni yechishning qanday usullarini bilasiz?

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o‘qituvchi doskaga guruhlar tomonidan to‘plangan ballarni yozadi va mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi.

11 – bosqich. O‘qituvchi har bir guruhni o‘z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlarga savol tuzishlari uchun 5 – 7 daqiqa vaqt ajratadi.

12 – bosqich. Guruhlar bir–birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a’zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, savol bergan guruh javobni to‘ldirmaydi.

13 – bosqich. O‘qituvchi guruh a’zolari to‘plagan ballarni yana bir marta doskaga yozadi va to‘plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymatini aniqlaydi. To‘plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymati barcha guruh a’zolariga teng bo‘linadi (kelishganlik asosida).

Izoh: agar to‘plangan ballarni guruh a’zolariga teng bo‘lishda talabalar tomonidan norozilik bo‘lsa, ya’ni ba’zi guruh a’zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo‘lgan bo‘lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo‘lishsa, bunday holatda vaziyatni yechishni guruh a’zolariga yuklatiladi. Guruhning yechimi to‘g‘ri hisoblanadi, yoki o‘qituvchi o‘z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida talabalarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar talaba faollik ko‘rsatmagan, yoki savol – javoblarda ishtirok etmagan bo‘lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani eslab qolib o‘zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu talabani keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo‘lishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uning yechimini har bir o‘qituvchi sharoitga qarab o‘zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba’zida guruhning “hisobchilari” ballarni qo‘yishda noaniqlik yoki qo‘shib yozishlari mumkin, natijada, ba’zi guruhlarning umumiy to‘plangan ballari boshqa guruhlarnikidan juda kam farq qilishi mumkin. Talabalarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlangan “hisobchi”lariga bog‘liq ekanligini o‘qituvchi oldindan eslatib o‘tadi. Agar umumiy to‘plangan ballarni guruh a’zolariga taqsimlaganda shu mashg‘ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan bo‘lsa, u holda shu mashg‘ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg‘ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o‘tkazish mumkin.

14-bosqich. Har bir talabaga ballar qo‘yilgach o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Talabalarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o‘z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

-bugungi mashg‘ulotdan nimalarni bilib oldingiz?

-nimalarga o‘rgandingiz?

-nimalar siz uchun yangilik bo‘ldi?

-yana nimalarni bilishni istar edingiz?

15-bosqich. O‘qituvchi talabalarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan.

Xulosa

Maqolada keltirilgan texnologiya yordamida darslarni samarali tashkil qilish mumkin[3-11]. O‘quv mashg‘uloti davomida o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish maqsadida turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviyo ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradib balki ularning chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Educating teachers of science, mathematics, and technology : new practices for the new millennium / Committee on Science and Mathematics. Copyright 2001 by the National Academy of Sciences. Constitution Avenue, N.W. Washington

2. Djurayev R.X va boshqalar. Pedagogik atamalar lug‘ati. –T.: “Fan nashriyoti”, 2008 yil. – 94-bet

3.A. Sh. Rashidov Matematika darslarida ta’limning shaxsga yo ‘naltirilgan texnologiyasi. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet

4.A.Sh. Rashidov Ijtimoiy-gumanitar ta’lim yo’nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo’yicha amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish. Science and Education №9. C 283-291

5.О.О.Халлоқова. А.Рашидов Пороговое собственное значение модели Фридрихса. Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3

6.A. Sh. Rashidov Interaktivnyye metody pri izuchenii temy «Opredelennyy integral i yego prilozheniya». Nauchnyye issledovaniya. № 34:3. C 21-24

7.A. Sh. Rashidov Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o‘rni. Pedagogik mahorat 2021 yil №7. 114-116 bet.

8.A.Sh. Rashidov.Matematika fanlaridan talaba yoshlar ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Fan va jamiyat №3. C 45-46

9.A.Sh. Rashidov замонавий таълим ва инновацион технологиялар соҳасидаги илғор тажрибалар. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet 8-14

10. A.Sh.Rashidov. M.F.Faxridinova. O‘quvchilarning bilimini baholashda xalqaro baholash dasturlari. “Fizika, matematika va informatsion texnologiyalarning innovatsion rivojlanishdagi o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman. Buxoro. 222-227 bet.

11. A.Sh.Rashidov. S.A.Mehmonova. Matematik analiz fanini o`qitishda interfaol metodlar: “KEYS-STADI” metodi “Fizika, matematika va informatsion texnologiyalarning innovatsion rivojlanishdagi o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman. Buxoro. 165-169 bet.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUV LUG‘ATLARINING MAZMUNI VA AHAMIYATI

Ergasheva T.Sh.,
BuxDPI Boshlang’ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ona tili ta’limda o’quv lug’atlardan foydalanish uning mazmuni boshlang’ich sinf o’quvchilarining so’z boyligini oshirishdagi ahamiyati to’risida fikr yuritilgan

Аннотация: В статье рассматривается значение использования словарей в обучении родному языку и его содержание в увеличении словарного запаса учащихся начальных классов.

Annotation: The article discusses the importance of using dictionaries in teaching the native language and its content in increasing the vocabulary of primary school students.

Kalit so‘zlar: Boshlang’ich sinf,ona tili, lug’at,o’quvchi,dars,maktab

Ключевые слова: Начальный класс, родной язык, словарь, ученик, урок, школа

Keywords: Primary class, native language, dictionary, student, lesson, school

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lum madaniy qadriyatlarni o’zlashtirishi uchun mazkur yosh sezgir davr hisoblanadi.Bolaning so’z boyligini boyitish va faollashtirish shaxs rivojlanishining umumiy ko’rsatkichlaridan biri sifatida axloqiy, ma’naviy, intellektual jihatdan rivojlanadi. Bundan tashqari, nutq qobiliyati har qanday inson faoliyatining asosiy negizidir.

Kichik yoshdagi o’quvchilarning so’z boyligini oshirish va faollashtirish bo’yicha ishlar boshlang’ich maktabdagi barcha darslarda olib borishda, ona tili darslari yetakchi rol o’ynaydi, shuning uchun o’qituvchi ushbu darslarni qiziqarli va mazmunini tashkil etish kerak.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutq faolligini shakllantirish muammosiga doimo alohida e’tibor berilgan. Hozirgi vaqtda kichik yoshdagi maktab o’quvchilarining so’z boyligini oshirish va faollashtirishning umumiy tendentsiyalari aniqlandi, nutqni rivojlantirish muammolari maktab o’quvchilarining til kompetentsiyasini shakllantirishning mumkin bo’lgan usullari aniqlanib, nutqning monologik va dialogik shakllari tahlil qilindi. Shuningdek, kichik yoshdagi maktab o’quvchilarining og’zaki va yozma nutqini shakllantirishning psixologik xususiyatlari aniqlandi.

Boshlang’ich maktab uchun ona tili dasturi boshlang’ich maktab o’quvchilarining nutq qobiliyatlari doirasini belgilaydi, ular fonetika, grammatika, imlo va nutqni rivojlantirishni o’rganishda to’rt yillik o’qish davomida shakllanishi kerak. Maktabga kirgan bolalar kundalik nutqda so’zlashadi, lekin ularning so’z boyligi ko’pincha zaif, maktabda o’qish jarayonida olgan barcha g’oyalar va tushunchalarni ifodalash uchun etarli hisoblanmadi.Ulkan lug’atlarning assimilyatsiyasi o’z-o’zidan sodir bo’lmaydi. Maktabda nutqni rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri lug’at ishini tartiblash, uning asosiy yo’nalishlarini aniqlash va ularni asoslash, maktab o’quvchilarining so’z boyligini oshirish jarayonini boshqarishdir. Shuni ham hisobga olish kerakki, o’quvchi so’z va iboralarni tushunishi mumkin, lekin ularni o’z nutqida ishlatmaydi.

Ona tili darslarida kichik yoshdagi o‘quvchilarning leksik fondini boyitish tizimida so‘z ustida ishlash, uning ma’nosi, qo‘llanilishi, boshqa so‘zlar bilan qo‘shilib, sinonimik va antonimik munosabatlarga kirishish imkoniyatlari katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, maktabda lug’atlar bilan ishlash, qoida tariqasida, har bir holatda, vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi. Lug’atlarga murojaat qilganda ham, o’quvchilar lug’at yozuvida mavjud bo’lgan so’z haqidagi barcha ma’lumotlarni har doim ham hisobga olmaydilar. Odatda ular faqat ma’no bilan qiziqadi, lekin so’zning semantik va stilistik xususiyatlarini ham bilishlari kerak. So‘zning ma’nosi, nutqdagi vazifasini bilmay turib, o‘quvchi grammatikani yaxshi bilsa ham, uni o‘z nutqida to‘g‘ri ishlata olmaydi.

Demak, o‘quvchining aqliy va nutqiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri uning so‘z boyligi, o‘z fikrini to‘g‘ri, izchil va hissiy ifoda eta olishidir. O`quvchining faol so`z boyligi qanchalik boy bo`lsa, uning og`zaki va yozma nutqi shunchalik mazmunli va rang-barang bo`ladi. Tilni ravon bilishga erishish uchun o‘qitish jarayonida, jumladan, ona tili darslarida o’quv lug‘atlardan unumli foydalanish orqali so’z boyligini oshirish zarur.

O’quv lug’atlari bilan ishlash didaktika va o’quv leksikografiyasining muhim muammolaridan biridir. Sinfda lug’at bilan ishlash qobiliyatini o’zlashtirgan holda, kichik yoshdagi o’quvchi o’z-o’zini tarbiyalash va o’z-o’zini nazorat qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Boshlang’ich sinflarda o’quv lug’atlardan foyalanish o’quvchilarning savodxonligini oshirish uchun, grammatik qonun-qoidalarni puxta bilish uchun, nutqni o’stirish uchun va mantiqiy fikrlash malakasini egallashda muhim ahamiyatga egadir. Lug’at ishi bolalarni ko’p gapirtirish, o’qiganlarni ongli ravishda o’zlashtirish, shuningdek, sinonim, omonim, antonim jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo’lishini ayniqsa, bog’lanishli matnlarda so’zlarning yangi ma’no kasb etishini tushunishga o’rgatiladi.

Dasturning murakkab talablarini amalga oshirishda, o’quvchini juda yoshligidan boshlab so’z ustasi sifatida tarbiyalash alifbe davridan boshlab olib boriladigan lug’at ishlarini o’qish darslarida murakkab tarzda davom ettirish kerak. Bu esa o’qituvchidan yuksak mahorat talab qiladi. Boshlang’ich sinf o’quvchisi darslik bilan ishlar ekan, so’zlar ifoda va iboralar ustida ishlab berish orqali tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf dasturida lug'at ishiga katta e'tibor beriladi. Chunonchi, o'quvchilarning har bir so'zini tushungan holda o'qishlari va o'z nutqlarida bu so'zni o'rinli ishlatishlari uchun birinchi sinfdanoq lug'at ustidagi ishlar avval og'zaki, o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab esa, jadal ravishda yozma ifodalab borilishi kerak. O'quvchilar shakl jihatidan turlicha bo'lgan so'zlar bir xil yoki yaqin ma'no bildirishini ba'zi so'zlarning ma'no jihatidan bir-biriga qarama- qarshi bo'lishini, ayniqsa, bog'lanishli matnlarda so'zlarning yangi-yangi ma'no kasb etishini tushunishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi maktabga kelar ekan, u sinfdagi ko'pgina buyumlarni ko'radi, lekin ularning ayrimlarini nomi nima, qanday belgisi bor, turmushda qanday ahamiyat kasb etadi, ayrim narsalar hakida aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. Bunday narsalar o'qituvchi tomonidan shu kunning talabi asosida asta- sekinlik bilan o'rgatib boriladi. Og'zaki suhbat jarayonida tushunishi o'yin notanish so'zlar, so'z birikmalari tushuntirib beriladi. Masalan, o'qituvchi sinf xonasidagi stol, stul, parta, doska, shkaf va turli xil stendlarda aks etgan ko'rgazmalar orqali o'quvchilarga lug'at ustida ishlash imkoniyatlari yaratiladi.

Shu bilan birga o'quvchilarni so'z boyligini oshirishda tarqatma materiallardan unumli foydalanish yangi uchraydigan so'zlarni lug'at daftariga yozib qo'yish, ma'nosini izohlash, yangi uchraydigan so'zlarga gaplar tuzish, ma'no va mohiyatini anglab etish orqali o'quvchilarda lug'at boyligi oshib boradi. O'quvchi to'g'ri yozish malakasini egallagach, ularga o'rgangan predmetlarining nomlarini notanish va noaniq so'zlarni lug'at daftarga qayd ettirib boriladi.

Kun sayin o'zbek tilimiz yangi-yangi so'z va iboralar bilan o'z davrasini kengaytirib bormoqda. Shakli har-xil bo'lsa ham, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarni katta, buyuk, ulug', qarama-qarshi ma'noli so'zlarni baland-past, katta-kichik, yosh-qari, oq-qora, yaxshi-yomon, achchiq-shirin kabi so'zlardagi grammatik qonun-qoidalar bilan isbotlash uchun o'quvchilarga misollar topish o'rgatib boriladi. Biroq yuqoridagi fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarli bo'lavermaydi. Shuning uchun lug'at ustida ishlash talab qilinadi.

Lug'at ustida ishlash og'zaki va yozma shaklda olib boriladi. Og'zaki shakldagi mashg'ulotda o'quvchi uchun o'qish, yozish qiyin bo'lgan so'zlarning mazmuni tushuntiriladi, talaffuzi va yozilishi o'rgatiladi. O'quvchilar ana shu so'zlardan foydalanib, mustaqil gap tuzib o'rgatiladi. Yozma shakldagi mashg'ulotda esa, qiyin so'zlar ustida yozma ishlar olib boriladi. Matnni diqqat bilan kuzatish natijasida tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ajratib olinadi. Yangi, qiyin so'zlarni yakka-yakka yozdirish, ularni konteks ichida qo'llash yo'li bilan shu so'zlarning imlosi o'rgatiladi. Lug'at ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning bilim doirasini hisobga olish matndagi murakkab so'zlarni belgilash zarur. Masalan: ulgurji, marketing boj, valyuta, ayriboshlash, raqobat, auktsion, a'yon, sarbon, karvon, qofiya, xavf va boshqalar. Shu so'zlar ishtirokida ikki uchta gap tuzib o'tilgan mavzuga bog'lab tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darsi tashkil etilgandan so'ng, hilma-xil mashqlar, savol javoblar orqali qiyin so'zlarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklari tekshirib ko'riladi. O'quvchini doskaga chiroyli avvalgi darslarda o'tilgan so'zlardan ikki uchtasining ma'nosi qanday o'qilishi so'raladi. Bunda kesma harflardan foydalaniladi. O'quvchi notanish so'zni aytganda o'qituvchi va sinfdagi barcha o'quvchilar so'zning talaffuzini diqqat bilan eshitadilar. Doskadagi o'quvchi so'ralgan ikki uch so'zni ikkilanmay dadil misollar bilan aytib bersa o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Ikkinchi o'quvchidan so'ralganda, so'zlarni ikkilanib aytsa avval noto'g'ri aytib, so'ngra uni o'zi tuzatib to'g'ri talaffuz qilsa o'qituvchi uning u yoki bu so'zda ikkilanganligini eslatib kelgusi darsga puxta o'zlashtirib kelishni topshiradi.

Xulosa qilib aytganda,ta'limning quyi bosqichida o'quvchilarni o'qish,yozishga o'rgatish, tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor berish zarur. Dars davomida lug`atlar bilan ishlash, o`quvchilarga so`zlarning yamgi ma`nosini tushuntirish o`quvchilarning so'z boyligini orttiradi, fikrlashini kengaytirib, ularning ijodkorligini rivojlantiradi. Lug'at ustida ishlash ona tili darslarida ham, o'qish darslarida ham reja asosida olib borish zarur. Boshlang'ich sinflar uchun izohli, imlo lug'atlarining yaratilmaganligi lug'at ustida olib boriladigan ishlarni to'g'ri uyushtirishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lug'at ishi qat'iy reja asosida izchil amalga oshirilsa,o'quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e'tibor, qat'iyatlik va sabot bilan ishlash zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni https://lex.uz/pdfs/5841063.

2. Azimova.I, Mavlonova .K, Quronov.S, Tursun Shokir, Ona tili va savodxonligi 1-qism 1-sinf uchun darslik. T: Respublika ta'lim markazi, 2021.-104 b.

3. Azimova.I, Mavlonova .K, Quronov.S, Tursun Shokir, Ona tili va savodxonligi 1-qism 2-sinf uchun darslik. T: Respublika ta'lim markazi, 2021.-120 b.

4. Fuzailov.S, Xudoyberganova.M, Yoldosheva.Sh, Shodmonqulova.D, Ona tili:umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. T: O'qituvchi,NMIU, 2019.-152 b.

5. Ikromova.R, G'ulomova.X, Yoldosheva.Sh, Shodmonqulova.D, Ona tili -Qayta ishlangan va to'ldirilgan 9-nashr 4-sinf uchun darslik. T: O'qituvchi,NMIU, 2020.-160 b.

TASVIRIY SA’NATDA KOMPOZITSIYA ASOSLARIDAN BIRI MANZARA KOMPOZITSIYASINING IJODIY QOBILIYATINI O‘STIRISHDAGI AHAMIYATGA

Botirov Jaxongir Sobirovich
Buxoro davlat universiteti
https://orcid.org/ 0009-0001-8131-097X

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda yesh avlodni san’atga kiziktirish, jumladan qalamtasvir va rangtasvir mashg‘ulotlarini o‘qitishning va metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo‘li, shakli mazmuni hamda metodlarini shakllantirish, dolzarb muammolardan hisoblanadi. Talaba yoshlarni qalamtasvir va rangtasvir orqali ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish lozim. Tasviriy sa’natdagi kompozitsiya asoslari, manzara kompozitsiyasi qonuniyatlari haqidagi bilim va ko‘nikmalarini boyitish uchun to‘la ma’lumotlar berishda talabalarining pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini, qobiliyatlarini o‘stirishda katta ahamiyatga egadir.

Kalit suzlar: san’at, qalamtasvir, rangtasvir, mashg‘ulot, metod, talaba, ijod, qobiliyat, tasviriy san’at, kompozitsiya, manzara kompozitsiyasi, bilim, pedagog.

ОДНОЙ ИЗ ОСНОВ КОМПОЗИЦИИ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ ЯВЛЯЕТСЯ ЗНАЧЕНИЕ ПЕЙЗАЖНОЙ КОМПОЗИЦИИ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ

Джахонгир Собирович Ботиров
Бухарский государственный университет

Абстрактный. В настоящее время одной из актуальных задач является заинтересовывание нового поколения искусством, в том числе разработка методических основ обучения рисованию и живописи, а также формирование научно обоснованного нового способа, формы, содержания и методов. Необходимо дальнейшее развитие творческих способностей учащихся посредством рисования карандашом и живописи. Для обогащения знаний и навыков основ композиции в изобразительном искусстве большое значение имеет развитие педагогической активности и художественного творчества и способностей учащихся.

Ключевые слова: искусство, рисунок карандашом, живопись, обучение, метод, ученик, творчество, способности, изобразительное искусство, композиция, пейзажная композиция, знания, педагог.

ONE OF THE FOUNDATIONS OF COMPOSITION IN VISUAL ARTS IS THE IMPORTANCE OF LANDSCAPE COMPOSITION IN DEVELOPING CREATIVE ABILITY

Jakhongir Sobirovich Botirov
Bukhara State University

Abstract. At present, it is one of the urgent problems to interest the new generation in art, including the development of methodical foundations of teaching pencil and painting classes, as well as the formation of a scientifically based new way, form, content and methods. It is necessary to further develop the creative abilities of students through pencil drawing and painting. In order to enrich the knowledge and skills of the basics of composition in visual arts, it is of great importance to develop the pedagogical activity and artistic creativity and abilities of students.

Key words: art, pencil drawing, painting, training, method, student, creativity, ability, fine art, composition, landscape composition, knowledge, pedagogue.

Kirish. Yosh avlodni badiiy jihatdan barkamol vatanga va milliy sa’natga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy sa’nat xususan, qalamtasvir va rangtasvir predmetining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida oliy o‘quv yurti fakutetida olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo‘lishi taqazo etilib, pedagog va olimlar zimmasiga katta vazifalarni belgilaydi.

Inson sa’nat bilan juda qadim zamonlardan shug‘ullana oshlagan. Sa’nat qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi.[1]

Insonning mehnat jarayonida, ov paytlarida idrok etgan dastlabki obrazlari inson qo‘li, yovvoyi hayvonlar obrazi bo‘lgan edi. Sa’nat inson ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismi va ehtiyojiga aylangach, u o‘z asarlarida jamoa, jamiyat intilishlarini ifodalaydigan bo‘ldi.

Sa’natning yuzaga kelishi insoning obktiv voqelik to‘g‘risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o‘z avlodi tajribalaridan bahramand bo‘lishga olib keldi.

Sa’nat hayotni bilishi, uni alohida vositalar yordamida aks ettirishi va jamoaga muayyan ta’sir ko‘rsatishi natijasida ijtimoiy formalaridan biriga aylanadi, unga faqat borliqni o‘zlashtiruvchigina emas, balki insonni yangi bilim va obrazli tasavurlar bilan boyituvchi qudratli bir kuch deb qaraladi.

Sa’natning, shu jumladan, tasviriy sa’natning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u hayotni aks ettiradi, dunyoni bilishda insonga yordam beradi, uni g‘oyaviy va estetik jihatdan tarbiyalaydi. Tasviriy sa’nat asarlari inson uchun bitmas-tuganmas ma’naviy boylikdir. [2]

Sa’natning turlari juda ko‘p. Shulardan biri tasviriy sa’natdir. Tasviriy sa’nat rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kabi turlarga bo‘linadi. Tasviriy sa’nat turlarining yana biriga xos xususiyatlarini bilish, badiiy asarni tushunish, tasviriy sa’nat asarlarini o‘qish suratni tomosha qila bilish usulini egallashning boshlang‘ich bosqichidir.[3]

Tasviriy sa’nat tushunchasiga nafis sa’nat grafika, haykaltaroshlik, amaliy sa’nat kiradi.[4]

Tasviriy sa’nat turlarining har biri ijodkor tanlagan voqelikni g‘ziga xos vositalarda, o‘ziga xoos badiiy tilda tasvirlaydi.

Bu sa’nat turlari ichida eng keng tarqalgani rangtasvirdir. Rangtasvir sa’natida real hayotdagi narsa va hodisalar buyoqlar yordamida mato, qog‘oz, fanera va boshqa maxsus usullar yordamida jismning qabariqligini, makoni, hajmini yaratadi.

Rangtasvir asosan beshta unsur (element) dan iboratdir. Bu unsurlar buyum shaklini, rangini yoritishini, yasalgan materialini, tasvirlanar hokazolar ham katta ahamiyatga ega.[4] Rangtasvir sa’natining jonidir. Badiiy asarning hissiy, ma’naviy emotsional tasvirini oshirishda rangning roli nihoyatda kattadir.

Rangtasvir bu haqiqatni anglash bo‘libgina qolmay inson hissiyotini shakllantiradi, sa’nat olamini ko‘rishga o‘rgatadi. Tasviriy sa’nat estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan biridir. Shuning uchun ham hunar maktablari, o‘rta maktablarda o‘quv rejasi va dasturi buyicha tasviriy sa’nat asarlari to‘g‘risida suhbat dars mashg‘ulotlari ko‘zda tutilgan. Tasviriy sa’natning negzi qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyadan iborat. Tasviriy sa’nat kursi ikki qismdan: Nazariy va amaliy mashg‘ulotlardan iborat. Qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya haqidagi ma’ro‘zalar, amaliy mashg‘ulotlarni ongli bajarishda nazariy tayyorgarlik vazifasini o‘taydi.

Qalamtasvir, rangtasvirning negizi bu kompozitsiyadir. Kompozitsiya asoslarini o‘rganishdan maqsad amaliy mashg‘ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo‘naltirish, va mustaqil tasviriy sa’nat ustida ishlashni shakllantirishdan iboratdir.

Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari, uslubiy shartlari bo‘lgan soya-yorug‘ rang yechimi hamda uning jozibadorligi chiziqlar, tus dog‘larini ketma-ket takrorlanib uzviylik hosil qilishi, katta va kichik o‘lchamlar bilan belgilangan nisbat va perspektiva o‘zgarishlar munosabatlari, ko‘rish burchagi birgalikda asar mazmunini ochib beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Muhokama va natija. Har qanday ijodkor o‘tmishdagi rangtasvir sa’nati ustalari merosini va tajribalirini o‘rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta’sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o‘rganadi.

Amaliyotda kompozitsiyaning zaruriy unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o‘xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuvni va g‘oyaga bo‘yso‘nish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi.

Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi konuniga rioya qilinganligi sababli, sa’nat asari bo‘linmas bir butun bo‘lib ko‘rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, hajm, “dog‘”, oraliq xarakter nusxa, imo- ishora bilan ifodalanadi.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biri kontrastlik qonunidir. Leonardo da Vinchi “Rangtasvir qonunlari” ilmiy asarida o‘lcham qaramaqarshiligi haqida, katta-kichik, past-baland, yupqa-qalin, xarakter, faktura, materiallar kontrasti to‘g‘risida yozadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratamiz.

- Kompozitsiya qonunlari.
- Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiyaning asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish. Ritm hayotda va sa’natda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir. U bir elimentni oraliqda galma-gal qaytarishidir.

Asar g‘oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazi tasavvur rolini o‘ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Uzoq kenglikni ochiq manzarada gorizantal holatda tasvirlansa, kenlik bepoyon, katta bo‘lib tuyuladi. Kompozitsiyani paralel, vertikal yo‘nalishda bo‘lishi tantanali ulug‘vor, ko‘tarinki ruh holatini anglatadi.

Chiziq shtrix, rangli va tusli dog‘ (surtma) soya-yorug‘, rang, chiziqli, havo va rang perspektivalari kompozitsiyaning vositalaridir.

Kompozitsiya amalda dastlab qalamtasvirda bajariladi. Keyingi bosqichda shtrix chiziqlarni qalinligi orqali predmetlarni soya, yorug‘ joylariga shakl berib, chuqurlik, masofani ifodalashga yordam beradi.

Rang va tus kompozitsiya tuzishda muhim rol o‘ynaydi. Asarda plastik hajm, chiziqli, havoyi rangli perspektivalarni roli kattadir. Kompozitsiya kursinining asosiy vazifasi talabalarda, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni, sa’natni idrok etishni va tahlil qilishni, hayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy-pedagogik faoliyatga tadbiq qilishdir.

Kompozitsiya amaliy hamda nazariy qismdan iborat. Nazariy ma’ro‘zalar auditoriyadagi amaliy mashg‘ulotlarni, uy vazifalarini ongli ravshda bajarishni talab etadi.

Amaliy qismda asosiy maqsad talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishiga, hayotni kuzatish, uni tasviriy vositalar bilan aks ettirish, bosqichma-bosqich eskizni ohirigacha yetkazishdan iboratdir. Kompozitsiya eskizini mazmun g‘oyasini maqsad va vazifalarini ongli ravishda idrok etish muhimdir.

Har qanday sa’nat asarining negizini kompozitsiya tashkil etadi. Ijodiy jarayonda rassomning didi, layoqati kompozitsion madaniyati, bilim saviyasi namoyon bo‘ladi. Kompozitsiya o‘quv predmeti haykaltaroshlik, me’morchilik, grafika, qalamtasvir, rangtasvir, sa’nat tarixi kabi mutaxasis fanlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Natyurmort kompozitsiyasi, interyer kompozitsiyasi, manzara kompozitsiyasi, portret kompozitsiyasi, maishiy janrdagi tematik kompozitsiya, dastgohli va kitob grafika kompozitsiyasi, plakat kompozitsiyasi mahobatli bezak sa’nati kompozitsiyasi kompozitsiya sa’natining asosiy qonun qoidalariga binoan tuziladi. Hozirgi zamon sa’nati rivojlanishiga, rassomning ijodiy izlanishi yangi mazmunli g‘oya, insonlarning ma’naviy-ma’rifiy talablarini qondirish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi yechimi, murakkab ruhiy holatni topish rassomdan kundalik hayotidagi guzallikni aks ettirish muammolarini, zamondoshlarning ichki his-tuyg‘ularini sezishni, to‘g‘ri chuqur tasavvur etishni talab qiladi. Shuning uchun rassom o‘qituvchilardan kompozitsiya fanining eng murakkab va muhim fan sifatida o‘rganish talab etiladi.

Manzara janri tabiatdagi turli ko‘rinishlarning tasviriy sa’natda aks ettirishidir. Tog‘, o‘rmon, dengiz shahar va qishloq manzaralarining, obidalarning manzarada ko‘rinishlari aniq bir mazmunni berib hayotiy ma’noni anglatsa va shu ko‘rinishda maqsad mazmunga ega bo‘lsa bunday asar- manzara janriga tegishlidir.

Manzara janrining mohir ustalari Klod Leron, Shishkin, Levitan, Karaxan, Tansiqboyev va boshqa mashhur rassomlarni bu borada misol keltirish mumkin.[5]

Manzarachi rassomning shakllanishida ham o‘ziga xos sirlar bor. Buning uchun tabiatni sevish, uni kuzata bilish ayniqsa, rang-lavhalar, ya’ni etyudlar ustida ishlay bilish talab qilinadi. Bu borada O‘zbekiston tabiatining sermazmun manzaralarini tasvirlagan Nikolay Karaxan ijodi diqqatga sazovordir. Manzara-tasviriy sa’natning qadimiy janrlaridan bo‘lib, tarixiy maishiy asarlarda ham vosita fon sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Qadimiy Xitoy sa’natida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.

Yevropada manzara janri tarixi XVI-XVII asrlarda taraqqiy etdi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o‘xshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqqiyatlarga erishdilar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga to‘g‘ri keladi. Moskva, Petrburg arxitektura yodgorliklari F.E.Alekseyev tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Manzara sa’nati tashqi dunyoning guzalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta’sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tiniq holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo‘lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg‘ularini ta’sir orqali qo‘shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I.Levitanning “Oltin kuz”, “Abadiy sokinlik”, I.Shishkinning “O‘rmon yiroqlari”, V.Meshkovning “Ural haqida o‘ylar” asarlarini keltirish mumkin.

Tasviriy sa’natda manzara asarlari insonda tabiatga munosabat, muhabbat va guzallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo‘shimcha fon vazifasini o‘taydi.

V.Vasnetsovning “Alyonushka” asari bunga misol bo‘la oladi. Tabiiy guzalligini, zamonasiga xos yangilik o‘zgarishlarni K.Yuon, G.Nisskiy kabi rassomlar ham o‘z asarlarida tasvirlab namoyish etadilar. 50-70-yillarda O‘zbekistonda manzara janrida ijod etgan rassomlar U.Tansiqboyev “Issiq kul”, “Nanay yo‘li”, ”Sijjakda bahor”, P.Temurov Samarqand arxitektura manzaralari turkumini yaratdilar.

Hozirgi vaqtda ko‘plab, A.Nuritdinov, O.Qozoqov, A.Muminov, A.Mirsoatov kabi mustaqil O‘zbekiston guzal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: Shahar (Arxitektura), qishloq (tog‘) manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoat qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko‘rinishida) manzaralari shular jumlasidandir.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, bularning har biri negizida ifodalovchi mazmun, g‘oya yotadi. Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog‘liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar oromgoh bog‘lar hamda yer osti o‘tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo‘la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog‘ manzarasi, yaylovlar, qoya toshi, o‘simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko‘prik, metro qurilishi, texnika qurilishi vositalari bilan bog‘langan.

Lirik manzarada tabiatni “Erta tong”, “Bahor” kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go‘zalligini, uning uyg‘otish holatini aks ettiruvchi, insonga olam-olam quvonch baxsh etuvchvi asarni ko‘z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilar): joyni tanlash, ko‘rish no‘qtasi, ko‘rish chizig‘i, fazoviy masofa, format, perspektiva, ritm, nolarit, yorug‘, refleks, kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo‘lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizig‘i rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo‘lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo‘lsak avval tabiatda quyoshni, bulutli kunlar, peshin oqshom holatini xarakterli xususiyatlarni sinchiklab kuzatish lozim.

Formatni aniqlab, ufq chizig‘i, ko‘rish no‘qtasini belgilab olish kerak. So‘ngra havo yerni tekislikda nisbatlarini belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko‘mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi.

Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritini aniqlashga yordam beradi.

Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyasini yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Uni qog‘oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybuyoq orqali amalga oshiriladi. Bo‘lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдирасилов С., Толипов Н., ОриповаН. Рангтасвир. Т., Узбекистан, 2006у. В 17-18
2. Бойметов Б. «К,аламтасвир». Дарслик 1 - кием. Тошкент, 2006, В.23
3. Абдирахмопов G’. M. Kompositsiya asoslari.“ Iqtisod- moliya” Toshkent, 2008,B.34-35
4. Boymetov.B “Qalamtasvir asoslari” Toshkent 2001. B.7
5. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. Toshkent, “Fan nashriyoti 2004 y, B.53.

O'QUVCHILARDA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIIY IDROK ETISHNI SHAKLLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV YO'LLARI

Shirinov Alisher Latipovich
Buxoro davlat universiteti, Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi o'qituvchisi
https://orcid.org/ 0000-0001-7657-8712

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishga innovatsion yondashuv yo'llari,tasviriy san'at fani o'qituvchisini sinf doskasida juda chiroyli ishlay olishi va ko'rgazmali sinf doskasini tashkil qilish va o'quvchini tasviriy san'atga qiziqtirish haqida to'liq bayon etilgan. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida bolaning ko'rish a'zolari takomillashib boradi. Chunki har bir mavzuga doir mashg'ulotda narsalarni e'tibor bilan kuzatishga va ularni idrok etishga o'rgatib, o'z diqqat e'tiborini bir nuqtaga qaratish malakasini ham beriladi. Bu jarayon bolaning ixtiyoriy diqqati barqaror bo'lishini ham ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, mashg'ulot, malaka, ko'rgazma, sinf, o'quvchi, san'at, dars.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВОСПРИЯТИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ У СТУДЕНТОВ

Ширинов Алишер Латипович
Бухарский государственный университет, преподаватель кафедры изобразительного и прикладного искусства

Абстрактный. В данной статье рассматриваются инновационные подходы к преподаванию изобразительного искусства в общеобразовательных школах, умение учителя изобразительного искусства красиво работать на доске, организация визуального классной доски и интерес учащихся к изобразительному искусству. .интерес полностью объяснен. На занятиях изобразительным искусством у ребенка совершенствуются зрительные органы. Потому что на занятиях по каждому предмету учат внимательно наблюдать за предметами и воспринимать их, а также прививают умение концентрировать внимание на одной точке. Этот процесс также обеспечивает устойчивость произвольного внимания ребенка.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, обучение, мастерство, выставка, класс, ученик, искусство, урок.

INNOVATIVE APPROACHES TO FORMING ARTISTIC PERCEPTION OF FINE ART WORKS IN STUDENTS

Shirinov Alisher Latipovich,
Bukhara State University, teacher of the Department of Fine and Applied Arts

Abstract. In this article, innovative approaches to the teaching of visual arts in secondary schools, the ability of the visual arts teacher to work beautifully on the blackboard, and the organization of a visual classroom blackboard and the student's interest in visual arts are discussed in this article. interest is fully explained. A child's visual organs improve during visual arts classes. Because in training on each subject, one is taught to observe things carefully and perceive them, and one is also given the skill to focus one's attention on one point. This process also ensures that the voluntary attention of the child is stable.

Key words: Fine art, training, skill, exhibition, class, student, art, lesson.

Kirish. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida bolaning ko'rish a'zolari takomillashib boradi. Chunki har bir mavzuga doir mashg'ulotda narsalarni e'tibor bilan kuzatishga va ularni idrok etishga o'rgatib, o'z diqqat e'tiborini bir nuqtaga qaratish malakasini ham beriladi. Bu jarayon bolaning ixtiyoriy diqqati barqaror bo'lishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'uloti o'quvchilarni e'tiborli zehn bilan faoliyat ko'rsatishga o'rgatib, ularni barcha his-tuyg'ularini jamlagan holda, o'ziga bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni ishga soladi. [1]

Umumta'lim maktablari o'quvchilari orasida san'at asarlarini badiiy idrok etish ko'nikmalarini shakllantirish borasida olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at ta'limida badiiy ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda o'quvchilardagi individuallikni o'stirishga alohida ahamiyat berish zarurligi, chunki u umumiy badiiy qobiliyatning tarkibiy qismi ekanligi;

- maxsus va ijodiy qobiliyatning psixofiziologik asosi har xil ekanligi;
- badiiy ijodiy qobiliyat turli yosh bosqichida turlicha ifoda etilishi;
- tadqiqotda qo'llanilgan tashxis metodikalari orqali o'quvchidagi individuallikning turli qirralarini aniqlash;
- tashxis metodikalaridan umumiy rivojlanish darajasi, tasviriy san'at faoliyati uchun zarur bo'lgan, ammo o'quvchida yetarli rivojlanmagan tomonlarni aniqlash va shu asosda tegishli rivojlantiruvchi, korrektsion dastur ishlab

chiqish va maqsadli faoliyat olib borish;[2]

Bilim, ko’nikma va malakalar ta’limning yakuniy maqsadi bo’lmasdan ular o’quvchi shaxsidagi individuallikni rivojlantirish vositasi ekanligi, ijodkor shaxs kelgusida barcha faoliyatda ijodiy yondashuvni namoyon qiladi. Olimlarning fikricha, rassomlardagi individuallikdan ularning ijodiy va kasb faoliyatida janr kelib chiqadi, ya’ni ijodkor o’ziga mos bo’lgan alohida mehr qo’ygan janrini belgilab oladi va ijodining asosiy qismini shu janrga bag’ishlab, eng yaxshi asarlarini ham shu janrda yaratadi.

Rassomlar ijodiy faoliyatidagi individual uslub psixologik-pedagogik tavsifnomasini, ijodkorlar ijodiy faoliyatida zarur bo’lgan sifatlarni tarkibi va yetakchiligiga ko’ra uch guruhga bo’lish mumkin. Birinchi guruh sifatlarni neyrofiziologik tug’ma layoqat, tashqi muhit bilan o’ziga xos muloqot, uzoq vaqt irodani safarbar qilib, bir yoki turli ijodiy faoliyat olib borishga bo’lgan ehtiyoj va qobiliyat tashkil qiladi. O’quvchilar shaxs sifatlari jihatidan turlicha bo’lganligi sababli ba’zilar uchun topshiriq oson bo’lsa, faoliyatga qiziqish yo’qoladi, ba’zilarga vazifa murakkabroq tuyulsa, muvaffaqiyatsizlikdan o’zini olib qochib, faoliyatini to’xtatadi, “bu menga to’g’ri kelmaydi”, “bu men uchun qiziq emas” kabi vajlar bilan ijod qilishdan yoki vazifa bajarishdan bosh tortadi. Bunday o’quvchilarga tegishli suhbat, rag’batlantirish, psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash, stimullardan foydalanish kerakligi uqtirib o’tiladi. [3]

Ikkinchi guruh sifatlariga tug’ma layoqat inkor etilmagan holda bilish jarayonlari, emotsiya, hissiyot singari xususiyatlar kiradi.

Uchinchi guruh sifatlarining shakllanishida ijtimoiy muhit katta rol’ o’ynab, ular natijasida tarkib topgan shaxsning dunyoqarashi, e’tiqodi, qiziqish-havaslari, hayotiy qadriyatlari, atrofdagilarga bo’lgan munosabati muhim o’rin tutadi.

Ijodkor shaxs individualligidagi sifatlarni uch guruhga bo’lishdan maqsad o’quvchida qaysi guruh xususiyatlari etakchilik qilganda tasviriy san’at yaxshiroq o’zlashtirilishi, idrok etilishi va kimga qanday pedagogik ta’sir qilish zarurligini ko’rsatishdir. [4]

Shu boisdan tasviriy san’at fani o’qituvchisini sinf doskasida juda chiroyli ishlay olishi, uni chizgan rasm-tasvirlari, yozuvlari qoyil qoladigan darajada bo’lishi bilan birga, o’qituvchi har qanday mazmundagi kompozitsiyalarni osonlik bilan, juda aniq ishlashi va dars jarayonida sinf doskasida chizayotgan rasmi og’zaki bayoni bilan bog’lanib borishi lozim. Bunday jarayon o’quvchilarni diqqatini o’ziga tortib, san’at asarlarini badiiy idrok qilish ko’nikmasini shakllanishiga hissa qo’shadi, uning barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, o’quvchilarning o’qituvchilarga bo’lgan hurmat-e’tibori va hatto rassomchilik kasbiga bo’lgan mehr-muhabbati ham orta boradi.

Muhokama va natijalar. Tasviriy san’at fanini ko’rgazmalarsiz o’qitish mumkin emas. Buning uchun maktablarda tasviriy san’at kabinetini tashkil etish didaktik materiallarni tayyorlash kabinet ko’rgazma materiallaridan dars va boshqa mashg’ulotlarda foydalanishni kengaytirish o’qitish samaradorligini oshiradi.

Darhaqiqat, umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san’at o’quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo’ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko’nikmalarini takomillashtirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Bunda badiiy ta’lim bosqichlarining o’zaro mazmunan bog’liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash, tasviriy san’at o’quv jarayonini tashkil etishning ilg’or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o’quv uslubiy majmualar sifatini ta’minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda o’qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo’yicha savodxonligini doimiy oshirib borish, umumiy o’rta ta’lim maktablarida axborot resurs va zamonaviy o’quv adabiyotlari bilan ta’minotini yanada rivojlantirish, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishlarida ilg’or xorijiy tajribalarni o’rganish oliy ta’lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo’nalishlari tarkibini belgilaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki, umumiy o’rta ta’lim maktablar tizimini xususan, tasviriy san’at ta’lim tizimini modernizatsiyalash o’quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san’at ta’limga innovatsion yondashuv fikri ta’lim mohiyati va natijalarining shaxsga yo’nalganligi, ta’lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so’nggi yutuqlari, ilg’or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg’unlashtirishga qaratilganligi bilan an’anaviy yondashuvdan farq qiladi.

Ta’lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta’minotning mavjudligini ko’zda tutadi. Shuning uchun, tasviriy san’at o’quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg’or pedagogik tajribalarni o’rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o’quv jarayonlari mazmuni va metodlarini rivojlantirish asosiy yo’nalishlardan sanaladi.

O’qituvchining jadal faoliyati o’quv faoliyatining muhim ko’rinishi sifatida paydo bo’lib, u ushbu harakatning sub’ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko’rsatadi, o’quv faoliyatining muhim negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub’ekti o’quvchi hisoblanadi;muvaffaqiyatli o’quv faoliyatining asosiy ko’rsatkichi, uning natijasi o’quvchining fikrlash usullarini o’rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat; o’quv faoliyatning asosiy ko’rsatkichi o’quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta’lim jarayonining asosiy sub’ekti bo’lgan o’quvchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o’qitish taktikasi muhim o’rin tutadi, o’quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni o’quvchidan o’zining shaxsiy bilish mahorati va

ko’nikmalarini o’zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Xulosa. Professional san’at va san’atkorlar shu davrda paydo bo’ldi. San’at esa o’zining o’ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon qilib, hukmron sinfning ideologiyasini targ’ib qiluvchi kuchli g’oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste’dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go’zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini yaqqol ko’rsatib beruvchi asarlar yaratdilar.

Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag’lubiyatlari ularning asarlarida o’z ifodasini topdi. Har bir davrda bor bo’lgan ana shunday san’at hayot go’zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak hislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da’vat qildi.

REFERENCES

1. B.N.Oripov. Tasviriy san’atni o’qitish uslubiyoti.O’quv qo’llanma. N., 2001.
2. I.Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbonova“Tasviriy san’at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo’llari”O’quv uslubiy qo’llanma.
3. Boymetov B, Abdirasilov S. Chizmatasvir. O’rta maxsus kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma.T., 2004.
4. Hasanov R. Tasviriy san’atni o’qitish metodikasidan amaliy mashg’ulotlar. O’quv qo’llanma. 1,2 qismlar. – T:TDPU, 2006.

TALABA SHAXSIDA O‘Z-O‘ZINI ANGLASHNING RIVOJLANISHIGA TALIM JARAYONI VA MUXITNING TASIRI

Egamberdiev Jamol Berdimurodovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayoni va uning atrofidagi muhitning o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi. Bu turli xil ta’lim strategiyalari, o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro ta’siri, tengdoshlarning ta’siri va atrof-muhit omillari o’quvchilarning o’zini idrok etish usullarini qanday shakllantirishini o’rganadi. Tadqiqot ijobiy o’zini o’zi anglashni rivojlantirishda qo’llab-quvvatlovchi va boyituvchi ta’lim muhitining muhimligini ta’kidlaydi, bu esa o’z navbatida akademik natijalarga va umumiy farovonlikka ta’sir qiladi.

Kalit so‘zlar: o’z-o’zini anglash, ta’lim jarayoni, o’qituvchi va talaba munosabatlari, tengdoshlarning ta’siri, ta’lim muhiti, faol ta’lim, o’z-o’zini hurmat, talaba-markazli ta’lim

ВЛИЯНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ НА РАЗВИТИЕ САМОЦЕНЦИИ СТУДЕНТА

Джамал Эгамбердиев Бердымуродович
преподаватель Государственного педагогического института Шахрисабза.

Абстракт. В данной статье рассматривается влияние учебного процесса и окружающей среды на развитие самосознания студента. В нем рассматривается, как различные стратегии обучения, взаимодействие учителя и ученика, влияние сверстников и факторы окружающей среды формируют то, как учащиеся воспринимают себя. Исследования подчеркивают важность благоприятной и обогащающей среды обучения для развития позитивной самооценки, что, в свою очередь, влияет на успеваемость и общее благополучие.

Ключевые слова: самосознание, образовательный процесс, отношения учитель-ученик, влияние сверстников, образовательная среда, активное обучение, самооценка, личностно-ориентированное обучение.

THE INFLUENCE OF THE EDUCATIONAL PROCESS AND THE ENVIRONMENT ON THE DEVELOPMENT OF SELF-CONCEPTION OF THE STUDENT

Jamal Egamberdiev Berdimurodovich
teacher of -Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines the influence of the educational process and the surrounding environment on the development of the student’s self-awareness. It examines how different instructional strategies, teacher-student interactions, peer influence, and environmental factors shape the ways in which students perceive themselves. Research highlights the importance of a supportive and enriching learning environment in developing positive self-concept, which in turn affects academic performance and overall well-being.

Key words: self-awareness, educational process, teacher-student relationship, peer influence, educational environment, active learning, self-esteem, student-centered learning

Kirish. O’z-o’zini anglash yoki o’z-o’zini anglash kontseptsiyasi inson psixologiyasini tushunish uchun asos bo’lib, ayniqsa, shaxsiyatning shakllanishi va shaxsiy rivojlanishi eng dinamik bo’lgan ta’lim yillarida. O’z-o’zini anglash insonning o’zi haqidagi e’tiqodlarini, jumladan, uning fazilatlarini, kim va nima ekanligini va umumiy o’zini o’zi baholashini o’z ichiga oladi. Bu ichki tushunish xulq-atvorga, motivatsiyaga va hissiy farovonlikka chuqur ta’sir qiladi.

Ta’lim nafaqat bilimlarni uzatish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishdir. Ta’lim muassasalarida o’tkaziladigan shakllanish yillari davomida talabalar sezilarli kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishni boshdan kechiradilar. Bu davr o’z-o’zini anglashni shakllantirish uchun juda muhimdir, chunki o’quvchilar doimiy ravishda tengdoshlari, o’qituvchilari va kengroq ta’lim muhiti bilan o’zaro aloqada bo’lib, ularning barchasi o’z-o’zini anglashda muhim rol o’ynaydi.

Ta’lim jarayoni o’quv rejasini tuzish, o’qitish metodologiyasi, sinfni boshqarish va baholash amaliyoti kabi turli elementlarni o’z ichiga oladi. Ushbu komponentlar, samarali tarzda birlashtirilganda, o’quvchining ijobiy o’zini o’zi anglashiga sezilarli hissa qo’shishi mumkin. Masalan, faol o‘rganish, mustaqillik va hamkorlikka yo‘naltirilgan o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zini o‘zi qadrlashi va o‘z-o‘zini samaradorligini oshirishi ko‘rsatilgan.

O’z-o’zini anglashning rivojlanishida atrof-muhit omillari ham hal qiluvchi rol o’ynaydi. Ta’lim muassasasining jismoniy, ijtimoiy va hissiy muhiti o’quvchining o’ziga bo’lgan qarashini qo’llab-quvvatlashi yoki to’sqinlik qilishi mumkin. O’qituvchi va o’quvchining qo’llab-quvvatlovchi munosabatlarini, tengdoshlar bilan hamkorlikni va inklyuzivlikni rivojlantiruvchi ijobiy muhit o’z-o’zini anglashni kuchaytiradi, bu esa yaxshi akademik natijalarga va umumiy farovonlikka olib keladi. Aksincha, qo’rqitish, kamsitish yoki qo’llab-quvvatlanmaslik bilan tavsiflangan salbiy muhit o’quvchining o’zini o’zi anglashiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Talabaning umumiy rivojlanishida o’z-o’zini anglash muhimligini hisobga olgan holda, ta’lim jarayoni va atrof-muhit ularning shaxsiyatining ushbu muhim jihatiga qanday ta’sir qilishini tushunish juda muhimdir. Ushbu maqola ta’lim muassasalarida o’z-o’zini anglashni shakllantiradigan omillarni har tomonlama tushunish uchun miqdoriy va sifat ma’lumotlariga asoslanib, ushbu ta’sirlarni chuqur o’rganishga qaratilgan. Ushbu omillarni aniqlash orqali o’qituvchilar

va siyosatchilar ijobiy o'z-o'zini anglash va natijada o'quvchilarning natijalarini yaxshilash uchun ko'proq qo'llab-quvvatlovchi va samarali ta'lim muhitini yaratish strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'z-o'zini anglash yoki o'z-o'zini anglash ko'p qirrali konstruktsiya bo'lib, u shaxsning o'zini o'zi idrok etishini aks ettiradi, o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini o'zi tasavvur qilish va ideal o'zini o'z ichiga oladi. O'z-o'zini anglash turli xil hayotiy natijalar, jumladan, akademik ko'rsatkichlar, ijtimoiy munosabatlar va psixologik farovonlikning hal qiluvchi omilidir. Marsh va Xetti (1996) fikriga ko'ra, ijobiy o'zini o'zi anglash yuqori akademik yutuqlar, yaxshi ruhiy salomatlik va rivojlangan ijtimoiy o'zaro ta'sirlar bilan kuchli bog'liqdir. Aksincha, Baumeister va boshqalar. (2003) salbiy o'z-o'zini anglash akademik past natijalarga, o'zini past bahoga va tashvish va depressiya kabi psixologik muammolarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu sababli, o'quv yillarida o'z-o'zini anglashga ta'sir qiluvchi omillarni tushunish talabalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Ta'lim jarayoni o'qituvchilarning o'rganishni osonlashtirish uchun foydalanadigan usullari va strategiyalarini o'z ichiga oladi. U o'quv dasturlarini loyihalash, o'qitish metodologiyasi, baholash strategiyalari va sinfni boshqarishni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faol o'rganish, avtonomiya va hamkorlikni ta'kidlaydigan talabalarga yo'naltirilgan yondashuvlar o'z-o'zini anglashga ijobiy ta'sir qiladi. Deci va Rayanning (2000) O'z-o'zini aniqlash nazariyasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'z ta'lim muhitida avtonomiya, kompetentsiya va o'zaro bog'liqlikni his qilsalar, ularning ichki motivatsiyasi va o'zini o'zi anglash sezilarli darajada yaxshilanadi. Loyihaga asoslangan ta'lim va hamkorlikdagi faoliyat kabi faol ta'lim strategiyalari o'quvchilarga material bilan chuqur shug'ullanish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda malaka va o'z-o'zini samaradorligini oshirish imkoniyatlarini beradi.

O'qituvchi va talaba munosabatlarining sifati o'quvchilarning o'zini o'zi anglashini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hamre va Pianta (2001) iliqlik, qo'llab-quvvatlash va o'zaro hurmat bilan tavsiflangan ijobiy o'qituvchi va talaba munosabatlari yaxshi akademik va ijtimoiy natijalar bilan bog'liqligini aniqladi. Sinfda qo'llab-quvvatlovchi va tarbiyalovchi muhitni yaratadigan o'qituvchilar o'quvchilarga tegishlilik va tasdiqlash tuyg'usini rivojlantirish orqali ijobiy o'z-o'zini anglashni rivojlantirishga yordam beradi. Aksincha, tanqid va qo'llab-quvvatlanmaslik kabi o'qituvchi va o'quvchining o'zaro salbiy munosabati o'quvchilarning o'zini o'zi qadrlashiga va o'zini o'zi qadrlashiga putur etkazadi, bu esa salbiy o'z-o'zini anglashiga olib keladi.

Maktab yillarida o'z-o'zini anglashni rivojlantirishda tengdoshlar muhim rol o'ynaydi. Tengdoshlarning o'zaro ta'siri o'quvchilarga ijtimoiy taqqoslash, fikr-mulohazalar va ijtimoiy o'rganish imkoniyatlarini beradi. Wentzel va Caldwell (1997) ga ko'ra, do'stlik va qo'llab-quvvatlovchi tengdoshlar guruhlari kabi ijobiy munosabatlar hissiy qo'llab-quvvatlash, tasdiqlash va tegishlilik tuyg'usini ta'minlash orqali o'z-o'zini anglashni kuchaytiradi. Boshqa tomondan, qo'rqitish va ijtimoiy chetlanish kabi salbiy o'zaro munosabatlar salbiy o'zini o'zi anglash va turli xil psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Jismoniy, ijtimoiy va hissiy iqlimni o'z ichiga olgan kengroq maktab muhiti o'quvchilarning o'zini o'zi anglashiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Xavfsizlik, inklyuzivlik va qo'llab-quvvatlash bilan ajralib turadigan ijobiy maktab muhiti o'quvchilarda ijobiy o'zini o'zi anglashni rivojlantiradi. Ekkls va boshqalar. (1993) ta'kidlaganidek, qo'llab-quvvatlovchi maktab muhiti xavfsizlik va tegishlilik hissini ta'minlash orqali o'quvchilarning akademik motivatsiyasi va o'z-o'zini anglashiga yordam beradi. Aksincha, adovat, kamsitish va qo'llab-quvvatlanmaslik bilan ajralib turadigan salbiy maktab muhiti o'quvchilarning o'zini o'zi anglashini va umumiy farovonligini buzishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar ham o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolga tushib qolgan talabalar ko'pincha o'z-o'zini anglashlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qo'shimcha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Sirin (2005) ijtimoiy-iqtisodiy holat akademik muvaffaqiyat va o'zini o'zi anglashning muhim bashoratchisi ekanligini aniqladi, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy muhitda bo'lgan talabalar odatda ijobiy o'z-o'zini anglashlarini namoyish etadilar. Madaniy omillar, jumladan, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va umidlar ham o'z-o'zini anglashga ta'sir qiladi. Madaniyatlararo tadqiqotlar (Chen va boshq., 1995) shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini anglashdagi madaniy farqlar kengroq ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllanadi va madaniy jihatdan sezgir ta'lim amaliyotlari zarurligini ta'kidlaydi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot miqdoriy so'rovlarni sifatli intervyular bilan birlashtirgan aralash usulli yondashuvdan foydalanadi. So'rovlar o'rnatilgan shkalalar yordamida o'z-o'zini anglashni o'lchaydi, intervyular esa o'quvchilarning shaxsiy tajribalari haqida chuqurroq ma'lumot beradi.

Natijalar

Talabalar o'rtasida o'z-o'zini anglashning rivojlanishiga ta'lim jarayoni va atrof-muhitning ta'sirini baholash uchun mo'ljallangan bir nechta namunaviy anketa savollari. Turli jihatlarni har tomonlama qamrab olish uchun savollar turli bo'limlarga guruhlangan.

Javoblar tahlili

Demografik ma'lumotlar

Yosh:

O'rtacha yoshi: 18-20

Jins:

a) Erkak: 50%
b) Ayol: 48%

Daraja darajasi:

a) Boshlang'ich: 20%
b) O'rta maktab: 30%

c) Oliy maktab: 40%
d) Kollej/Universitet: 10%

Maktab turi:
a) Umumiy: 60%
b) Shaxsiy: 30%
c) Nizom: 8%
d) Boshqalar: 2%

O’z-o’zini anglash

Umumiy o’z-o’zini hurmat qilish (1-5 shkala):

O‘rtacha ball: 3,7

Akademik muvaffaqiyatga erishish qobiliyatlariga ishonch:
a) Hech qachon: 5%
b) Kamdan kam: 10%
c) Ba’zan: 30%
d) Ko’pincha: 40%
e) Har doim: 15%

Akademik natijalardan qoniqish:
a) Juda norozi: 5%
b) Qoniqarsiz: 10%
c) Neytral: 25%
d) Qoniqarli: 45%
e) Juda mamnunman: 15%
f) Ta’lim jarayoni

Faol ta’lim strategiyalaridan foydalanish:
a) Hech qachon: 5%
b) Kamdan kam: 10%
c) Ba’zan: 25%
d) Ko’pincha: 40%
e) Har doim: 20%

Tanqidiy va mustaqil fikrlashni rag’batlantirish:
a) To’liq qo’shilmayman: 5%
b) Qo’shilmayman: 10%
c) Neytral: 20%
d) Qabul qilaman: 45%
e) To’liq qo’shilaman: 20%

Ochiq savollarni tahlil qilish

O’z-o’zini anglashning ijobiy ta’siri:

Annotatsiya. Mazkur maqolada aqli zaiflikning kelib chiqish sabablari, nogironlikning klinik xususiyatlari, rivojlanishdagi nuqsonlar gametopatiyalar, blastopatiyalar, embriopatiyalar va fetopatiyalarning shakllanishi masalasi tahlil qilingan. Doun sindiromining nazariy xususiyatlari, o'ziga xos ko'rinishlari yuzasidan fikrlar umumlashtirilgan. Aqliy qoloqlik haqidagi ta'limotning nazariyasi muhokama qilingan. Ota-onalarga bo'lajak nogironlikning oldini olish bo'yicha maslahatlar berilgan.

Kalit so'zlar: nogironlik, aqli zaiflik, xronogen omil, aqliy qoloqlik, oligofreniya,endogen, ekzogen.

ПРИЧИНЫ И ОСОБЕННОСТИ ИНВАЛИДНОСТИ У ДЕТЕЙ

Лайла Нурмухамедова
доцент Ташкентского государственного педагогического университета имени Низоми, к.п.н.

Аннотация. В статье анализируются причины умственной отсталости, клинические особенности инвалидности, пороки развития, гаметопатии, бластопатии, эмбриопатии и фетопатии. Обобщены теоретическая характеристика синдрома Дауна и его специфических проявлений. Обсуждается теория учения об умственной отсталости. Родителям даются советы о том, как предотвратить будущую инвалидность.

Ключевые словы: инвалидность, умственная отсталость, хроногенный фактор, умственная отсталость, олигофрения, эндогенный, экзогенный

CAUSES AND CHARACTERISTICS OF DISABILITY IN CHILDREN

Laylo Nurmuhamedova
associate professor of Nizomi Tashkent State Pedagogical University, Ph.D.

Abstract. This article analyzes the causes of mental retardation, clinical features of disability, development defects, gametopathies, blastopathies, embryopathies and fetopathy. The theoretical characteristics of Down's syndrome and its specific manifestations are summarized. The theory of the doctrine of mental retardation is discussed. Parents are given advice on how to prevent future disability.

Key words: disability, mental retardation, chronogenic factor, mental retardation, oligophrenia, endogenous, exogenous

Kirish.

An'anaga ko'ra aqliy qoloqlik bosh miyaning organik shikastlanishi natijasida kelib chiqadi deb hisoblanar edi. Bu bilan bir qatorda shu narsa ham ma'lumki, bosh miyaning organik yetishmovchiligi asosan og'ir aqliy qoloqlik darajasidagi bolalarda uchraydi, yengil aqliy qoloqlik darajasidagi bolalarda esa bunday holat nisbatan kam kuzatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. D.N.Isayev [6] tekshiruvlariga ko'ra bunday shikastlanish aqliy qoloq bolalarning faqat 20—25 foizida uchragan. Bu nimani bildiradi? Aqliy qoloqlik shakllarining patogenezi har xil bo'lishini bildiradi. G.E.Suxarevaning ko'rsatishicha [11. 7], patogenezda ta'sir ko'rsatayotgan zararning sifati va ta'sir ko'rsatish sur'atigina emas, balki "xronogen omil" deb nom olgan omil ham muhimdir. Ya'ni, aniqroq aytganda, dizontogenezga olib keladigan zararning shikastlovchi ta'siri ontogenezning qaysi bosqichida sodir bo'lishi muhimdir. Odatda rivojlanishdagi nuqsonlar gametopatiyalar, blastopatiyalar, embriopatiyalar va fetopatiyalarga bo'linadi. Embiron va homilaning shikastlanish darajasi, va shunga muvofiq uning klinik manzarasi ham, ko'p jihatdan shikastlanish muddatlariga bog'liq. Ilk bosqichlarda odatda og'ir va qo'pol shikastlanishlar yuz beradi va ular homilaning hayotiga kuchli xavf soladi. Homiladorlikning ikkinchi yarmida homilaning qo'pol shikastlanishlari kam uchraydi, biroq aqliy qoloqlikning patogenezi murakkabroq bo'ladi, chunki ko'p hollarda rivojlanishdagi buzilishlar qatoriga mahalliy yallig'lanish jarayonlari qo'shiladi. Ular esa keyinchalik nekrozlar, to'qimalarning qo'shilib ketishi, chandiqlar hamda miyaning va miya qobig'ining boshqa turdagi shikastlanishlariga olib keladi. Aqliy qoloqlik haqidagi ta'limotning hozirgi holati aqliy

qoloqlikning sabablari va patogenezini ayniqsa konkret holatlarda hamma vaqt ham yetarli darajada to‘g‘ri aniqlash imkonini bermaydi. Aqliy qoloqlik patogenezining murakkab jihatlari retardatsiya va asinxroniya mexanizmlari bilan, shubhasiz, cheklanmaydi. Buning ustiga G.I.Kaplan va B.Dj.Sedoklar [6] “aqliy qoloqlik” atamasini retardatsiyaning (rivojlanishning sustlashishi, kechikishi) sinonimi sifatida olib qaraydilar hamda aqliy qoloqlik yagona etiologiya, mexanizm, dinamika va prognozga ega bo‘lmagan “fe’l-atvor sindromi” bo‘lib, u ushbu shaxslar guruhiga nisbatan jamiyatda qaror topgan munosabatni ifodalaydi xolos deb hisoblaydilar. So‘nggi 30-40 yillar davomida aqliy qoloqlik haqidagi ta’limotda qarashlar va yondoshuvlarda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bosh miyaning organik shikastlanishida etiopatogenetik omilning tan olinishi bilan bir qatorda ijtimoiy madaniy omillarning, shuningdek bolalarni atrof muhitga moslashtirish omilining ahamiyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratila boshladi. Garchi yengil darajadagi aqliy qoloqlikning patogenezi hali ham ancha mavhum bo‘lsa-da, garchi intellekt va miya strukturasining buzilishlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik to‘liq ochib berilmagan bo‘lsa-da, yuqorida aytib o‘tilgan o‘zgarishlarning ta’siri yengil darajadagi aqliy qolqolikka yondoshuvlarda ayniqsa kuchli sezildi.“Aqliy qoloqlik” atamasi mazmunan ancha keng va umumlashtirilgan tushincha bo‘lib, intellektning turg‘un buzilishlarini, ya’ni markaziy nerv tizimining kuchayib boruvchi kasalliklari keltirib chiqargan intellektual rivojlanmaganlikning har xil klinik shakllarini o‘z ichiga oladi. Aqliy qoloqlikning klinik shakllari orasida oligofreniya va demensiya ajralib turadi.

“Oligofreniya” atamasi ham turg‘un intellektual buzilishlarning bir nechta guruhini o‘z ichiga oladi. Bu buzilishlar avvalam bor bosh miyaning bachadon ichida rivojlanmay qolganligi yoki uning shakllanishi ilk postnatal ontogenezda (bola hayotining dastlabki uch yilida) turg‘un buzilganligi tufayli kelib chiqadi.

Shunday qilib, oligofreniyada bosh miyaning erta ontogenezi sodir bo‘ladi. Bunda keyinroq shakllanadigan miya strukturalari va, avvalam bor, bosh miyaning peshana qobig‘i rivojlanmay qoladi [7]. Aqliy qoloqlikning sabablarini bilish faqat uni diagnostika qilish uchun emas, balki konkret bolaning kasallik dinamikasini kelgusida bashorat qilish uchun ham g‘oyat muhimdir. Kasallik dinamikasini bashorat qilish esa bolaning kompleks psixologik-tibbiy-pedagogik reabilitatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasi uchun kerak.So‘nggi yillarda aqliy qoloq farzandga ega oilalarga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bunday oilalarni o‘rganish jarayonida aholining kam ta’minlangan qatlamlarida yengil darajadagi aqliy qoloq bolalar ko‘proq uchrayotganini tasdiqlovchi dalillar soni ortib borayapti. Aqliy qoloqlikning og‘ir va chuqur darajalaridagi bolalar soni esa aholining hamma qatlamlarida deyarli teng. Bunday holat jahonning iqtisodiy jihatdan rivojlangan barcha mamlakatlarida kuzatiladi.Aholining kam ta’minlangan qatlamlarida yengil darajadagi aqliy qoloq bolalar ko‘proq uchrayotgani ko‘p sabablar bilan izohlanadi. Bunday sabablar qatorida odatda quyidagilar keltiriladi: bolalarning sifatsiz ovqatlanishi, oilalarning nomaqbul iqtisodiy va maishiy turmushi, bolalarning tez kasallanishi va yetarli darajada davolanmasligi, bolani o‘rab turgan eng yaqin muhitning past ijtimoiy-madaniy darajasi (aholining boshqa qatlamlariga nisbatan) va bu bilan bog‘liq holda bolalarda yuqoriroq turmush darajasiga intilishning yo‘qligi. Oiladagi salbiy psixologik muhit, oila a’zolari o‘rtasida tez-tez bo‘lib turadigan kelishmovchiliklar va emotsional tanglik ham go‘dakning psixik rivojlanishiga yomon ta’sir ko‘rsatishi hech kimda e’tiroz tug‘dirmaydigan haqiqatdir. Bolaning, ayniqsa go‘dakning, normal psixofizik rivojlanishi uchun uning hayoti emotsional iliq sharoitda kechishi muhim. Bola doimo atrofdagilarning muhabbati, g‘amxo‘rligi, xayrixohligiga muhtoj bo‘ladi. U doimo onaning mehrini, o‘zining himoyalanganini sezishi lozim. Shuningdek bola atrof olam bilan munosabatga kirishish, muloqot qilish, o‘zini shaxs sifatida namoyon etish, ya’ni, bir so‘z bilan aytganda, o‘zining asosiy psixik ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli imkoniyatga ega bo‘lishi lozim. Afsuski, real hayotda bunday imkoniyatlar oilalarda hamma vaqt ham yaratilavermaydi, va bunday holatlarda bolaning hayoti psixologik deprivatsiya (yakkalanish) sharoitida kechadi.Psixik deprivatsiyaning shakllari va darajalari turlicha. Uning oqibatlari ham turlicha namoyon bo‘ladi: nutqiy rivojlanishning kech qolishi, bolaning shaxs sifatida shakllanishida kuzatiladigan chekinishlar, fe’l-atvoridagi chekinishlar (ko‘proq hollarda tajovuzkorlik kuzatiladi), autizm, intellekt normasining pastligi, aqliy qoloqlikning yengil darajalari va h.k. Kelib chiqishiga ko‘ra endogen yoki ekzogen omillar bilan qo‘shilgan psixik deprivatsiyaning salbiy oqibatlari yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Aqliy qoloqlik haqidagi ta’limot uzoq rivojlanish tarixiga ega ekaniga qaramay, aniq bir bolada uning sabablari nimada ekani haqida so‘z yuritish hamma vaqt ham oson bo‘lavermaydi. Ko‘proq hollarda aqliy qoloqlikni keltirib chiqargan sabablar psixik ontogenezning turli bosqichlarida o‘zaro murakkab bog‘liqlikda bo‘ladi. Aqliy qoloqlikning qolgan barcha holatlari uning differensiallashmagan (yoki ideopatik) shakllariga mansub deyiladi.Aqliy qoloqlikni keltirib chiqaradigan

barcha sabablarni 2 guruhga bo‘lish mumkin: 1) endogen (ichki), ko‘proq irsiy, va 2) ekzogen (tashqi) – erta ega bo‘lingan (3 yoshgacha bo‘lgan davrda). V.P.Efroimson va M.G.Blyuminlarning [6] ma’lumotlariga ko‘ra aqliy qoloqlikning differensiallashgan shakllarining 50-70 foizi genetik darajada o‘tar ekan. Asab va psixik kasalliklarning (shu jumladan aqliy qoloqlik ham) tahminan 1500tasi nomaqbul gen mutatsiyalariga va tahminan 300tasi xromosom mutatsiyalariga (fenilketonuriya, L.Daun kasalligi, J.Lejen sindromi, homila alkogol sindromi, neyrofibromatoz va b.) bog‘liq ekan. Biosferada sodir bo‘layotgan salbiy ekologik o‘zgarishlar, ayniqsa yoshlar o‘rtasida giyohvandlik, alkogolizm va chekishning (bular ham giyohvandlikning bir turi) keng tarqalishi sababli aqliy qoloqlikning differensiallashgan shaqliga ega bolalar sonining ko‘payish ehtimolini inkor qilib bo‘lmaydi. Bu guruhga mansub bolalarda aqliy qoloqlikning o‘rta va yengil darajasi ham uchrashi mumkin, ammo og‘ir va chuqur darajalari ancha ko‘p uchraydi, ayrim hollarda esa bosh miya rivojlanmay qolishining shunday ko‘rinishlari ham uchrab turadi. So‘nggi yillarda aqliy qoloqlikning irsiy shakllari tobora faol o‘rganilmoqda. Y.M.Shipitsinaning so‘nggi yillarda olib borgan kuzatishlariga ko‘ra, chuqur aqliy qoloqlikning eng ko‘p uchraydigan sabablaridan biri xromosom anomaliyalari bo‘lib, ular aqliy qoloq deb topilgan bolalarning 15 foizida uchraydi [11]. Xromosom aqliy qoloqlik shakllarining diagnostikasi klinik va sitogenetik tekshiruvlar paytida olingan ko‘rsatkichlar yig‘indisiga asoslanib amalga oshiriladi. Xromosom chekinishlar ham autosomalarning, ham jinsiy xromosomalarning soni yoki strukturasidagi o‘zgarishlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Autosomalar sistemasida anormal hollar yuz berganida, aqliy qoloqlik ancha kuchli ifodalangan bo‘ladi hamda ko‘p hollarda bir talay rivojlanish nuqsonlari bilan birga keladi. Bu nuqsonlar sirasiga yuz va bosh suyagi tuzilishidagi anormal holatlar, tana tuzilishidagi buzilishlar, ichki organlar, suyak tizimi, eshitish, ko‘rish organlaridagi nuqsonlar kiradi. Autosomalar sonining o‘zgarishi bilan bog‘liq barcha xromosom anomaliyalari orasida Daun sindromi hammadan ko‘proq uchraydi. Uning chastotasi 1:700ni tashkil etadi. Hozirda Daun sindromida aqliy qoloqlik mexanizmlari o‘rganilmoqda, bunday bolalarni, ular hayotining dastlabki oylaridanoq, kompleks reabilitatsiya qilish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Boshqa xromosom anomaliyalar, Daun sindromiga qaraganda, ancha kam uchraydi.Aqliy qolqolikni moddalar almashinuvining irsiy buzilishi keltirib chiqargan hollarda, uni erta diagnostika qilish katta ahamiyatga ega. Hozirda olimlar tomonidan bunday buzilganliklarning 600dan ortiq turiga tavsif berilgan. Ularning ko‘p qismida markaziy nerv tizimining shikastlanishi kuzatiladi. Bu murakkab deb ataluvchi defektni yuzaga keltiradi. Bunda intellektual yetishmovchilik harakat tizimining shikastlanishi, nutqiy rivojlanmaganlik, ko‘rish, eshitishdagi nuqsonlar, hissiy-xulq-atvor buzilishlari yoki pay tortishish bilan kechadigan tutqanoqlar bilan birga qo‘shilib ketadi. Aqliy qoloqlikning genetik shakllarini o‘rganishda hozirgi paytda aqliy qoloqlik bilan chambarchas bog‘langan X-xromosomaga, xususan sinuvchan X-xromosoma sindromiga ayniqsa katta e’tibor qaratilmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu kasallik juda ko‘p uchraydi, uning uchrash darajasini faqat Daun sindromi bilan qiyoslash mumkin.Aqliy qoloq bolalarning rivojlanishini dinamik o‘rganish defekt strukturasini aniqlash imkonini berdi. Uning strukturasida o‘ziga xos nevrologik, psixopatologik va somatik simptomatikaning o‘zaro birikib ketgani ko‘zga tashlanadi [8]. Irsiyat turi aniqlanmagan endogen genezisli aqli zaiflikning har xil shakllarini klinik-genetik jihatdan o‘rganish ham katta ahamiyatga ega. Bunday kasalliklar orasida so‘nggi paytlarda Rett sindromiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Uning tavsifi birinchi marta 30 yil avval avstriyalik psixiatr A.Rett tomonidan keltirilgan edi.Homilaning ilk rivojlanish davridayoq erkak embrionlarining xalok bo‘lishiga olib keladigan X-xromosomada joylashgan dominanta geni bu kasallikni keltirib chiqaradi degan nuqtai nazar ham mavjud. Bu bilan bog‘liq holda kasallik faqat va faqat ayollarda uchraydi. Bunda bemor qizlarning onalari hamma vaqt sog‘ bo‘ladilar. Nomaqbul irsiy omillar o‘zlari mustaqil tarzda ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ammo ko‘proq hollarda tashqi muhit omillari bilan murakkab tarzda chatishib ketgan holda ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni nomaqbul atrof muhit har xil kasalliklarga nisbatan irsiy moyillikni kuchaytirishi mumkin. Endogen va ekzogen etiologik omillarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Ekzogen etiologik omillar juda ko‘p. Ularga, jumladan, onaning homiladorlik paytida va emizayotganda homila rivojlanishini buzadigan surunkali kasalliklari kiradi (diabet, gipertoniya, yurak-qon-tomir kasalliklari, gepatit, spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish, chekish, giyohvand moddalarni iste’mol qilish, bronxial astma, emfizema va homila gipoksiyasiga olib keladigan boshqa kasalliklar; ayrim dorilarni qabul qilish, kasbiy intoksikatsiyalar va h.k.). Patologik kechayotgan homiladorlik (masalan, og‘ir toksikoz, bola tushish havfi va h.k.), patologik tug‘ruq – bularning hammasi

aqliy qoloqlikning yoki bolaning psixik rivojlanishidagi boshqa biron buzilishning sababi bo‘lishi mumkin.Ona homiladorlik paytida boshidan kechirgan virusli infeksiyalar (qizilcha, OITS, sitomegal inklyuzion kasallik, gripp), mikrobli (yiringli infeksiya, sifilis),eng sodda mikroorganizmlar keltirib chiqargan kasalliklar (toksoplazmoz, brusellez, listerioz) ham aqliy qoloqlikka olib kelishi mumkin. Bu kasalliklarning homila yoki tug‘ilib bo‘lgan go‘dak uchun oqibatlari turlicha bo‘lishi mumkin: aqliy qoloqlikning eng yengil darajasidan eng og‘ir darajasigacha, homilaning o‘z-o‘zidan tushishi yoki bolaning tug‘ilganidan sal o‘tmay nobud bo‘lishi kuzatiladi. Biosfera (atmosfera, suv, tuproq, o‘simlik va hayvonot olami)dagi yuqori radioaktivlik ham homilaning yoki bolaning, u tug‘ilganidan keyin, psixofizik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi noxush oqibatlarning sababchisi bo‘lishi mumkin. Embrion hujayrasining genetik va xromosom apparati radioaktiv nurlanishga ayniqsa ta’sirchan bo‘ladi. Aqliy qoloqlikning yuqorida aytib o‘tilgan ko‘pchilik sabablari bola tug‘ilganidan keyin ham, u tahminan uch yoshga yetgunga qadar, o‘z kuchini saqlaydi, chunki mana shu muddat mobaynida inson miyasi intensiv rejimda rivojlanishni davom etadi. Xatto rivojlanayotgan miyaga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan eng kichik miqdordagi zarar ham bolaning rivojlanishida ancha jiddiy noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bolani tasodifiy yiqilishlar, ziddiyatli vaziyatlar (stul, arg‘amchidan yiqilish, bolalar bilan mushtlashishdagi miyaning jarohatlanishi, ota-onalar jazavasi tutgan holatda bo‘lgandagi jismoniy jazolar) natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan miya jarohatlaridan saqlash nihoyatda muhim. Ota-onalar farzandini har xil infeksiyalar, intoksikatsiyalar, boshining jarohatlanishidan saqlasa, uni o‘z vaqtida davolasa, bu bilan uning normal psixofizik rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratib bergan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi /O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: “O‘zbekiston” 1992

2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent:. “O‘zbekiston”, 2017

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”-2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. «Erkin va farovon. Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.» T: “O‘zbekiston”-2017

5. Nurmuxamedova L.Sh. Sharq mutafakkirlarining oilada farzand tarbiyasiga oid qarashlari.

6. Шерязданова Х.Т., Аралбаева Р.К. Современное состояние семи и 8.причины неблагополучия.

7. Nurkeldiyeva D.A., Arslanova M.M., Azimova N.M. Alohida yordamga muhtoj bolalar oilasidagi muammolar.

8. Nurmuxamedova L.Sh. Nogiron bolalar va ularning ota-onalari o’rtasidagi o’zaro munosabatlar

9. Axmedova Z.M. Rivojlanishda nuqsoni bor bolalarni tarbiyalashda oilaning o’rni.

10. Xamidova M.P. Aqli zaif o’quvchilarni oilada tarbiyalash asoslari

11. Muminova L.R. Oilada nogiron va yordamga muhtoj bolalar xaqida. Oila kutubxonasi. T., 1999.

KO‘P DARS QOLDIRGAN O‘QUVCHILARNI O‘QISHGA MOTIVATSIYALASHDA O‘QITUVCHINING TUTGAN O‘RNI

Norkulova Nargiza Tashpulatovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, (PhD).

Almatova Visola Muhammad qizi,
Xalqaro Nordik universiteti, “Psixologiy va maktabgacha ta’lim” kafedrasi, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabdagi dolzarb muammolardan biri, ko‘p dars qoldiruvchi o‘quvchilar muammosi ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil etilgan. O‘quvchilarda affiliatsiya motivatsiyasini shakllantirish mazkur muammoni hal etuvchi yechim sifatida taklif etilgan. Ushbu muammoni davlat darajasida hal etish maqsadida o‘qituvchi faoliyati borasida ijtimoiy-psixologik yechimlar keltirib o‘tilgan.

Kalitli so‘zlar: o‘qituvchi, o‘quvchi, ko‘p dars qoldirish, o‘quv motivlari, bulling, affiliatsiya motivatsiyasi.

РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В МОТИВАЦИИ УЧЕНИКОВ, ПРОПУСКАЮЩИХ МНОГО УРОКОВ В ШКОЛЕ

Норкулова Наргиза Ташпулатовна
доцент Ташкентском университете прикладных наук. (PhD)

Алматова Висола Мухаммад кизи,
магистрант 1-го курса Международного университета Нордик, кафедры «Психология и дошкольное образование»

Аннотация. В статье проанализирована одна из актуальных проблем в школе — проблема учеников пропускающих много уроков в школе. В качестве решения этой проблемы предлагается формирование у учащихся мотива аффилиации. Для решения этой проблемы на государственном уровне были разработаны социально-психологические решения в области преподавательской деятельности.

Ключевые слова: учитель, ученик, пропускать много уроков, мотивы обучения, буллинг, мотивация аффилиации.

THE ROLE OF THE TEACHER IN MOTIVATING STUDENTS WHO MISS MANY LESSONS AT SCHOOL

Norkulova Nargiza Tashpulatovna,
Doctor (PhD) in psychological sciences, associate professor of the Department of Psychology at the Tashkent University of Applied Sciences

Almatova Visola Muhammad qizi,
1st year master’s student at Nordic International University, Department of Psychology and Preschool Education

Annotation. The article analyzes one of the current problems in school - the problem of students missing many lessons at school. As a solution to this problem, it is proposed to form an affiliation motive among students. To solve this problem, socio-psychological solutions in the field of teaching have been developed at the state level.

Key words: teacher, student, skipping a lot of lessons, learning motives, bullying, affiliation motivation.

Kirish. Karantin, globallashuv sharoitlari hozirgi alfa avlodda ta’lim olishga yetarli darajada istak, ishtiyoq yo‘qligini ko‘rsatmoqda. Zamonaviy o‘quvchi olayotgan axborot ko‘lami shu darajada kengki, bilimlarni maktabga qatnab egallash istagi hozirgi kun yoshlarida tobora so‘nib bormoqda. Bugungi kunga kelib internet tarmoqlariga ulangan telefon, kompьyuter, planshet, aypat, gadjetlar maktab berayotgan axborot, bilimlarni qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Sababi, guglga istalgan savol berib, 100 xil javoblar olish imkoniyati mavjud. Ya’ni, maktabga axborot yoki bilim olish uchun borish kerak bo‘lmay qolyapti. Bu esa o‘quvchilarni darslarni yanada ko‘proq qoldirishlariga sabab bo‘lyapti. Kasalmisan – uyda qol, olimpiada yoki sportakiada – darslardan ozodsan, ukangga qarashga odam yo‘qmi – uyga boraqol va bunday bahonalarning son sanog‘iga yetish qiyin. Lekin eng xavfli dars qoldiruvchilar bu besabab dars qoldiruvchi o‘quvchilardir. Ota-onalar bu borada hech nima qilisholmayyapti yoki umuman chora ko‘rishni istashmaydi. Bunday holatda maktab ma’muriyati, o‘qituvchilar ham qanday chora ko‘rishni bilishmayapti.

Asosiy qism. Xorij maktablari kabi, biz ham maktablarda nafaqat havfsiz muhit, balki maktabni ikkinchi oilasidek idrok etishlariga, maktablarda nafaqat bilim, balki hayotga juda kerakli bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni

beruvchi maskanga, hayotiy tajriba orttiruvchi dargohga aylantirishga harakat qilishimiz muhimdir.

O‘zbekistonda bolalarning ta’lim-tarbiya olishi, har tomonlama komil inson bo‘lib yetishishi, Vatan ravnaqiga munosib hissa qo‘shishi uchun barcha sharoit yaratilgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik ota-onalar o‘z zimmalariga yuklatilgan mas’uliyatni ado etishmayotganliklari, farzandlarining maktabga borishiga jiddiy e’tibor qaratishmayotganliklari tobora jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, Davlatimiz rahbari boshchiligida 2024 yilning 5 fevral kuni o‘tkazilgan ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda maktablardagi o‘quvchilar davomatini yaxshilash maqsadida, maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazilganligi aytib o‘tildi. Inspektor-psixologlarning asosiy vazifasi, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasini tashkil etishda maktab jamoalariga yaqindan ko‘maklashish, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilarning ota-onalari bilan ishlashdan iborat. Shu maqsadda darslarga muntazam (uch o‘quv kuni va undan ortiq) sababsiz qatnashmayotgan o‘quvchilarning yashash manzillariga tezkor ravishda “Ogohlantirish xati” yuborilmoqda. Unda o‘quvchilarning ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi MJTKning (O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks) 47-moddasi mazmun-mohiyati tushuntirib o‘tilgan.

«Dunyoning boshqa mamlakatlarida uchramaydigan 11 yillik bepul majburiy ta’lim ham davlatimiz nazoratidadir. Ularning ta’lim olishlarini ta’minlashga ota-onalar mas’uldirlar. Bu yurtimizda qator qonun va hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan». Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi hamda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning 51-moddasida, birinchisida shunday deyiladi: ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanliklari hamda ikkinchisida ota-onalarning huquq va majburiyatlari ko‘rsatilgan. Unga quyidagilar kiradi:

- o‘z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashi;
- bolalarining umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim yoki boshlang‘ich professional ta’lim olishini ta’minlashi;
- bolalarining o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishini ta’minlash va o‘zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- o‘z bolalarining intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi;
- ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etishi;
- jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudda maxsus vakolatlarsiz o‘z bolalarining ta’lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;
- ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Undan tashqari, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi[1].

Ushbu muammoni hal etish maqsadida 2024 yilning fevralь oyidan e’tiboran Milliy gvardiya hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan maktablarda davomat muammosi bilan shug‘ullanuvchi maxsus ishchi guruh tuzildi.

Davomat.uz E-maktab ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda (jami o‘quvchilarning 99 foizi qamrab olingan) maktablardagi o‘rtacha davomat 83,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga (98.8 foizi qamrab olingan) kelib 82,5 foizga tushgan.

O‘quvchilarni dars qoldirish sabablarini o‘rganish tahlillari, ota-onalar orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, betob bo‘lib qolishi (75,4 foiz), ota-onasiga ishlarda yordam berishi (8,9 foiz), ota-onasi ishga chiqishi kerakligi, 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarga qaraydigan boshqa odam yo‘qligi (3,1 foiz), xususiy o‘qituvchi/repetitor bilan o‘qishi (1,7 foiz), maktabga borishi uchun qo‘shimcha xarajatlarga mablag‘ yetishmasligi (1,1 foiz) o‘quvchilarning dars qoldirishidagi asosiy sabab sifatida ko‘rsatilgan.

Albatta, hech bir besabab qoldirilgan dars e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Darslarni muntazam qoldiruvchi o‘quvchilarni qattiq nazorat qilish va bunday xulq atvorni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni o‘rganish darkor. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, agar bunga jiddiy e’tibor qaratilmasa, o‘quvchilar o‘zlarini jazolanmasliklarini his etishlari va shu yo‘sinda yashashni davom ettirishlari mumkin. Oxir oqibat bu ularning doimiy, surunkali dars qoldiruvchilar, keyinchalik o‘z vaqtlarini ko‘cha-kuyda bekor o‘tkazuvchi, jinoiy guruhlarga kirib qoluvchi deviant xulq-atvor egalariga aylanishlariga olib kelishi mumkin. Bunday bo‘lmasligi uchun bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar bilan birgalikda biz tomonimizdan keltirib o‘tiladigan takliflarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

 Ba’zi fanlar o‘quvchiga tushunarsiz, shu sababdan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari past, fanga qiziqishi yo‘q bo‘lgan holatlarda bunday o‘quvchilarga fan o‘qituvchilari, ota-onalar hamkorligida yordam qo‘lini cho‘zish muhimdir. Bunda o‘qituvchi bola bilan qo‘shimcha ishlashi, yangi materialni qaytadan tushuntirib berishi va

topshiriqlar belgilashi muhimdir. Shu orqali o‘qishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tib, bolada o‘qishga nisbatan qiziqishni saqlab qolish imkoniyati paydo bo‘ladi.

 O‘quvchilarda dars qoldirishlarni yo‘qotish uchun sinfdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni yaxshilash darkordir. Sinf jamoasi ahil, jipslashgan va har bir o‘quvchi o‘zini ushbu jamoaning a’zosi sifatida his etishi uchun bizga affiliatsiya motivatsiyasi (ing. to affiliate – birlashmoq, birlashtirmoq, insonni boshqa odamlar davrasida bo‘lishga intilishi ma’nosida) [4;11] yordamga keladi.

Birgalikdagi faoliyatga urg‘u berishimizdan maqsad, aynan birlashish, muayyan shaxsning boshqalar davrasida bo‘lishga intilish ehtiyoji, buni sof ijtimoiy-psixologik tilda affiliatsiya motivatsiyasi (ing. to affiliate – birlashtirmoq, birlashmoq, insonni boshqa odamlar davrasida bo‘lishga intilish ehtiyoji, motivi) fenomeni deb ataymiz, unda havotirlanish darajasining pasayishiga, bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri psixologik stress holatining oldini olishga yoki yumshatishga olib keladi. Affiliatsiya motivatsiyasining qondirilmasligi esa insonni yolg‘izlik, begonalashish, bu esa tushkunlik va depressiyaning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi [4;10; 12].

Bizning ta’rifimizga ko‘ra, affiliatsiya (aloqa, muloqot) deganda, insonlar bilan muloqot o‘rnatish(tanish, notanish va kam tanish insonlar), natijasida har ikkala tomonda birday qoniqish hosil qilishga, muloqot jarayonini mazmun bilan boyitishga va unga kirishib ketishga undovchi ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning ma’lum bir toifasi tushuniladi [8].

Ayniqsa, affiliatsiya motivini o‘qish va o‘qitish motivatsiyalari doirasida o‘rganilgan ishlar kam. Fikrimizcha, affilatsiya motivi deyarli barcha o‘quv mashg‘ulotlarida ahamiyatga ega, chunki u o‘qitish, o‘qish motivatsiyalarining tarkibiy qismi, elementi hisoblanadi[5;7].

Yoshlarda affiliatsiya motivini o‘rgangan olimlar O.S. Grebenyuk va T.B Grebenyuklarning fikricha, yoshlarni o‘quv faoliyati davomida aqliy muloqotga chorlovchi maqsadlar, ehtiyojlar (muloqotga intilish yoki muloqotdan qochish) va motivlar (bilishga intilish, o‘zini ta’kishlashga ehtiyoj, hamkorlikka intilish, muloqot uchun muloqot) tizimi affiliatsiyadir [1;3].

Fikrimizcha, o‘quv faoliyatida sodir bo‘luvchi affiliatsiya jarayonini ijodiy, shaxsiy yoki o‘yin kabi turlarga bo‘lish noo‘rindir, sababi o‘qish jarayonidagi muloqot bu ijodiy, shaxsiy va o‘yin muloqotining birligi, uyg‘unlashuvi natijasidir. Yana shu yo‘nalishda o‘z ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan G.S. Abramova [5], V.A. Kak- Kalik [3], T.A. Matis va A.K.Markova [6] ishlari bizda katta qiziqish uyg‘otdi.

Ushbu affiliatsiya motivining tarkibi o‘qitish motivatsiyalarini to‘ldirib kelib, bizningcha, umumiy o‘rta ta’lim tizimining etalon maqsadiga aylanishi kerak.

Biz affiliatsiya motivatsiyasini o‘quvchilarni ta’lim tizimiga jalb etuvchi omil sifatida o‘rganishga qaratilgan tadqiqot olib bordik. Odamlarga intilish, aniqroq aytiladigan bo‘lsa, o‘ziga o‘xshash bolalar bilan birlashmoq, birga bo‘lmoq, o‘zgalar davrasida bo‘lishga intilish ehtiyoji shaxsdagi affiliatsiya, ya’ni “a’zolikka qabul qilinish” deb nomlangan motivga bog‘liq bo‘lib, biz psixologik eksperimentda aynan buning tabiatini o‘rgandik.

Tadqiqotimiz davomida 443 nafar maktab o‘quvchilari qamrab olinib, mamlakatimiz yoshlarida affiliatsiya motivatsiyasining nechog‘lik rivojlanganlik darajasini o‘rganishga qaratilgan A. Megrabyan va M. Magomed-Eminovlar tomonidan ishlab chiqilib, ko‘plab o‘quvchilarda sinovdan o‘tkazilgan “Affiliatsiya motivatsiyasi” so‘rovnomasidan [2] foydalanildi. Undan tashqari, jamoada affiliativ munosabatlarni qurilishida shaxsdagi xavotirlanish darajasining ahamiyati bormi, bo‘lsa qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida, Spillberger va Xaninlar tomonidan ishlab chiqilgan, o‘quvchilar xavotirlanish darajasini o‘rganish metodikasi [2] bo‘yicha quyidagi natijalar olindi. Reaktiv va shaxsiy xavotirlanish darajasini hamda guruhni idrok etish xususiyatlarini o‘rganish metodikalarining ko‘rsatgichlariga ko‘ra, individuallikka yo‘nalganlik reaktiv xavotirlanish darajasini kuchaytiradi. Jamoaviylikka yo‘nalganlik esa reaktiv xavotirlanish darajasini kamaytiradi, ya’ni jamoa suyanchiq, tirgak vazifasini o‘taydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Reaktiv va shaxsiy xavotirlanish darajasini o‘rganish hamda guruhni idrok etish xususiyatlarini o‘rganish metodikalarining ko‘rsatgichlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari (Spirmen mezoni)

	Individualistik yo‘nalganlik	Jamoaviylikka yo‘nalganlik	Pragmatik yo‘nalganlik
Reaktiv xavotirlanish	0,260**	-0,286**	0,059
Shaxsiy xavotirlanish	0,083	-0,09	0,022

Izoh: ** - p<0,01.

O‘quvchilardagi affiliatsiya motivatsiyasining shaxsdagi o‘z vakillik guruhi, bizning misolda o‘quvchilar guruhini idrok qilishi asosida yo‘nalishiga qay darajada bog‘liq ekanligini ham solishtirib o‘rgandik. Statistik ma’lumotlar Spirmen mezoni asosida tahlil qilinganda o‘quvchilardagi rad etilishdan qo‘rqish motivatsiyasi yuqori ortib borgan sari (0,253**) individuallikka yo‘nalganlik ham ortib borganligini, ular o‘rtasida ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. O‘z navbatida rad etilishdan qo‘rqish ortgan sari jamoaviylikka yo‘nalganlik (-0,335**) kamayib bormoqda. Demak, o‘quvchilarda jamoaviylik, birlashish ruhini shakllantirish uchun qabul qilinishga intilish motivatsiyasini ularda kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yuqori affiliatsiya ehtiyojini namoyon etgan shaxslar ijtimoiy munosabatlarni

oson o‘zlashtiradilar, odamlarga sezgirroq va muloqotga moyilroqdirlar. Demak, qadriyatlarning e’zozlanishi bola ongida “o‘zining” hamda “begona” guruhlarni aniq differentsiatsiya qilish psixologiyasini shakllantiradi. Bu biz, tarbiyachi-o‘qituvchilar uchun muhim bo‘lib, ma’naviy qadriyatlarimizni, avvalo oila qadriyatlariga nisbatan farzandlarda to‘g‘ri munosabatni shakllantirishimiz, yoshlar ongida va mustaqil shuurida ularga faqat yaxshilikni ravo ko‘ruvchi insonlarni qadrlash, ularni hamisha e’tirof etish psixologiyasini kuchaytiradi.

Shunday qilib, ko‘p dars qoldiruvchi o‘quvchilarda affiliatsiya motivatsiyasini amaliyotda shakllantirish borasida quyidagi tavsiyalarimizni berishni joiz deb topdik:

1. Ta’lim jarayonida bevosita o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarda affiliatsiya motivatsiyasini shakllantirib borish uchun, ta’limning interaktiv usul va shakllari, maxsus vaziyatli topshiriqlar, guruhiy topshiriqlarni, o‘quvchilarni jamoa bo‘lib ishlash malakasini ta’minlab beruvchi ijtimoiy-psixologik treninglarni, o‘quvchi muvaffaqiyatining individual xaritasi kabi o‘z ichiga mulьtimedia, attraktsiya va boshqa texnik usullarni qamrab oluvchi kompleks ijtimoiy-psixologmk, pedagogik vositalardan faol foydalanishni tavsiya etamiz.
2. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni o‘qishga jalb etish, ulardagi hamkorlik, uyushganlik muhitini yaratish maqsadida turli loyihaviy ishlarga jalb etish. Bunda o‘quvchilar muammolarni aniqlash, maqsadlarni qo‘ya bilish, axborot izlash, harakatlarni to‘g‘ri rejalashtirish, tahlil etish hamda xulosalash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, loyihaviy ishlar odatda o‘quvchilarda jamoada ishlay bilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.
3. O‘quvchilarni maktabga borishini ta’minlovchi yana bir muhim omil bu – hayotiy muhim ko‘nikma va malakalarni dars davomida berishdir. Musiqa darsida ularni sevimli musiqasini eshitib ko‘rish, chiqindilarni saralashni o‘rgatish yoki oddiy etiket qoidalari, ko‘pchilik orasida o‘zini tutish madaniyatidan saboqlar berish va hok. Hayotiy dolzarb muammolar odatda kitoblarda berilgan misollardan ko‘ra o‘quvchilarga ancha qiziqarliroq bo‘ladi darslarga qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Основы педагогики индивидуальности.- Калининград: Янтарный сказ, 2000.- С.79-85.
2. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер. 2008.- с-378.
3. Как-Калик В.А. Основы профессинально-педагогического общения.- Грозный, Чеч-Инг.ун-та, 1979.-с.138-140.
4. Карпенко Л.А. Краткий психологический словарь / Под общ.ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского.- М.: Политиздат, 1985.-с-9.
5. Кузнецова И.В. Мотив аффилиации в межличностных отношениях:Дис. ... канд. пс. н.: 19.00.05 СПб., 2006.- 200 с.
6. Маркова А.К., Матис Т.А., Орлов А.Б. Формирование мотивации учения.-М., 1990.-С.192-195.
7. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология: Учебное пособие.- СПб.: Питер,2010.- С. 90-93с.
8. Норкулова Н.Т. Ёшлар маънавиятида аффилиация мотивацияси психологияси. – Т.: «Fan va Texnologiya», 2015, Б-107.
9. Платонов Ю.П. Социальная психология поведения: Учебное пособие.- СПб.:Питер, 2006.-464 с.
10. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность, т.1. СПб.: Питер – 2003.- С. 347-370.
11. Шапарь В.Б. Новейший психологический словарь \В.Б. Шапарь, В.Е.Россоха, О.В. Шапарь; под общ.ред.В.Б. Шапаря.- Изд.3-е-Ростовн\Д.: Феникс, 2007.-с-43.
12. Buunk B. Affiliation and helping interactions within organizations: a critical analysis of the role social support with regard to occupation stress. \\ inStroebe W., Hewstone M. European Review of Social Psychology, - Chichester: John Wiley, 1990, 1, p. 293-322.

ПСИХОКОРРЕКЦИОННАЯ РАБОТА, ПРОВОДИМАЯ С ДЕТЬМИ С НАРУШЕНИЕМ РЕЧИ

Назира Юсупова
Доцент кафедры олигофренопедагогики Ташкентского государственного педагогического университета имени Низоми

Аннотация. Психокоррекционная работа, рассматривается как одно из средств коррекции и развития устной речи детей с нарушением интеллекта, что, в свою очередь, способствует активизации познавательной деятельности этой категории детей.

Ключевые слова: коррекция, интеллект, сенсорика, психомоторика, познавательные функции

PSYCHOCORRECTIONAL WORK WITH CHILDREN WITH SPEECH IMPAIRMENTS

Nazira Yusupova
Associate Professor, Department of Oligophrenopedagogy, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi

Annotation. Psychocorrectional work is considered as one of the means of correction and development of oral speech of children with intellectual disabilities, which, in turn, helps to enhance the cognitive activity of this category of children.

Key words: correction, intelligence, sensory, psychomotor, cognitive functions

NUTQI OQSAGAN BOLALAR BILAN PSIXOKORREKSION ISHLASH

Nazira Yusupova
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Oligofrenopedagogika” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Psixokorreksion ishlar aqliy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalarning og’zaki nutqini tuzatish va rivojlantirish vositalaridan biri sifatida qaraladi, bu o’z navbatida ushbu toifadagi bolalarning bilim faolligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so’zlar: korreksiya, aql, hissiy, psixomotor, kognitiv funktsiyalar

Введение. Коррекционная – система психолого-педагогических мероприятий в сочетании с медицинской помощью, направленных на преодоление или ослабление недостатков психического и физического развития человека (минимизация дефекта – сведение последствий нарушений к минимуму).

Коррекция может быть прямой и косвенной. Прямая коррекция заключается в проведении тренинга с использованием учителем специальных дидактических материалов и приемов воздействия, планирования содержания и прогнозирования результатов коррекционной работы во времени. При косвенной коррекции предполагается, что в процессе обучения наступает продвижение в развитии ребенка, корригируется его психомоторная и мыслительная деятельность. В первом случае имеется в виду работа с неглубокими нарушениями (чаще поведенческие отклонения), во втором случае – глубокими, т.е. с теми, которыми занимается сурдопедагогика, тифлопедагогика, олигофренопедагогика и логопедия. В последние десятилетия сложился принцип коррекционно-развивающего обучения, который предполагает слияние коррекционной работы с учебным процессом. В учебных планах всех типов специальных школ, кроме базового и школьного компонента, выделяются коррекционные блоки предметов. Это может быть развитие слухового восприятия, ориентировка в пространстве, социально-бытовая ориентировка, логопедические занятия и др. Современные авторы нередко представляют коррекцию как совокупность коррекционно-воспитательной и коррекционно-развивающей деятельности.

Основные направления коррекционной работы:

- коррекция сенсорики (деятельность анализаторов);
- коррекция моторики (физическое развитие);
- коррекция познавательных функций (мышление, память, речь

• коррекция эмоционально-волевой сферы;

• коррекция личности. Средства коррекции условно можно разделить на традиционные и нетрадиционные (альтернативные).

Однако вторичные отклонения у детей, связанные с речевым нарушением, требуют особого подхода к деятельности психологической службы дошкольного учреждения.

Во-первых, педагогу-психологу, работающему с детьми с речевой патологией, необходимо владеть знаниями о речевых нарушениях, их механизмах, тяжести, структуре, а также знать классификации речевых нарушений. На наш взгляд, логопедические знания в работе педагогов-психологов способствуют эффективной коррекционно-развивающей работе по развитию эмоционального, когнитивного и поведенческого компонентов.

Во-вторых, педагог-психолог должен знать особенности психического развития детей с нарушениями речи. Основными особенностями познавательной сферы детей с речевыми нарушениями являются: недостаточная сформированность и дифференцированность мотивационной сферы, недостаточная концентрация и устойчивость внимания, слабость в развитии моторики, пространственные трудности. Без направленной коррекционной работы эти имеющиеся у детей трудности в дальнейшем могут принять большую выраженность и привести к отсутствию интереса к обучению, снижению объема памяти, ошибкам запоминания, трудностям в овладении письмом (дисграфии), дислексии, несформироаанности счетных операций, слабому овладению грамматикой. Для обеспечения нормального развития ребенка в целом в программу обучения включается комплекс заданий, направленных на развитие когнитивных процессов: памяти, внимания, мышления, воображения и предпосылок их нормального развития (формирование мелкой моторики, зрительно-пространственного и слухового гнозиса, познавательной активности, мотивационной сферы).

Указанные особенности в развитии детей требуют специальной работы по их коррекции, учитывающей сильные и слабые стороны развития психики. Особое внимание при обучении уделяется развитию произвольной, осознанной деятельности, умению контролировать свои действия и достигать требуемого результата.

Если на основании результатов психологического обследования у ребенка выявлено недоразвитие какой-либо функции, следует орган изовывать специальное обучение, направленное на развитие этой функции или на формирование компенсаторных механизмов.

Упражнения, направленные на развитие познавательной сферы, должны быть включены в структуру логопедического занятия и осуществляться параллельно с реализацией учебных и воспитательных целей или в форме самостоятельных упражнений в виде игры, беседы или зарядки.

В-третьих, педагог-психолог должен владеть психокоррекционными методами в работе с детьми с нарушениями речи.

Психокоррекция - это система мероприятий, направленных на, исправление недостатков психологии или поведения человека с помощью специальных средств психологического воздействия.

Так, наиболее популярными методами в копилке психолога являются такие методы психокоррекции как ифотерапия, психогимнастика, арттерапия. музыкотерапия, библиотерапия.

Наиболее часто с детьми применяются следующие методы психокоррекции: игровая терапия, арттерапия, музыкотерапия, библиогерапия, психогимнастика.

Наиболее распространенные (традиционные) – это игра, учеба, труд, внеклассная работа, общественно-полезная деятельность, режим, лечебно-профилактические мероприятия (сбалансированное питание, витаминизация, закаливание, медикаментозное и физиотерапевтическое лечение) и др.

При этих средствах коррекция в основном достигается косвенным образом. В последнее время приобретают популярность такие средства коррекции, как сенсорный и психомоторный тренинг, леготека (лего – игры конструктивного содержания), ароматерапия, иппотерапия (от греч. слова «иппо» – лошадь), арттерапия, музыкотерапия и др. Присутствие во многих названиях слова «терапия» подчеркивает лечебный, но не медикаментозный эффект. В современной отечественной практике перечисленные средства выступают как (нетрадиционные). Очень важно при выборе средств коррекции делать опору на социально значимое содержание материала. Принципиально

значимыми положениями в программе коррекционно-развивающего обучения и воспитания являются следующие:

• принцип единства диагностики и коррекции отклонений в развитии;
• анализ социальной ситуации развития ребенка и его семьи;
• включение родителей в коррекционно-педагогический процесс
• расширение традиционных видов детской деятельности и обогащение их новым содержанием;
• формирование и коррекция высших психических функций в процессе специальных занятий с детьми;
• активизация эмоционального реагирования и эмоциональных проявлений в практической деятельности, общения детей и формирования адекватного поведения;
• расширение форм взаимодействия взрослых с детьми и создание условий для активизации форм партнерского сотрудничества между детьми;
• определение базовых достижений в каждом возрастном периоде.

Реализация принципа коррекционной направленности деятельности в специальном учреждении возможна при следующих педагогических условиях:

1. Целостное воздействие педагогического процесса на личность ребенка.
2. Адаптация средств педагогического процесса к особенностям познавательной деятельности и направленность этих средств на максимально возможную мобилизацию способностей учащихся, на овладение элементами социальной культуры в неадаптированном виде.
3. Ориентация на формирование высших психических функций с акцентом на их осознанность и произвольность.
4. Опора на предметно-практическую деятельность учащихся с обеспечением ее интеллектуализации и вербализации на уровне внешней и внутренней речи.
5. Использование специальных коррекционных приемов в процессе обучения.
6. Выполнение учащимися заданий, соответствующих по уровню трудности зоне их ближайшего развития.
7. Специально организованный процесс познания ребенком своих слабых и сильных сторон.

Таким образом, коррекция достигается посредством адаптации содержания обучения к особенностям познавательной деятельности учащихся, учета актуального уровня и зоны ближайшего развития, использования наглядности, замедленности процесса обучения, повторения тренировочных упражнений, структурной простоты материала, индивидуального подхода. Значение ранней коррекции в формировании и развитии личности ребенка с дизонтогенезом огромно. Чем раньше будет начата коррекционная работа, тем с меньшими затруднениями будет идти двигательное, речевое и интеллектуальное развитие. Оказание ранней комплексной помощи позволяет более эффективно компенсировать отклонения в психическом развитии ребенка «группы риска», тем самым смягчить вторичные отклонения.

В результате коррекции в раннем возрасте до 30% детей к 6 месяцам достигают показателей нормы, у 90% детей наблюдается стойкий положительный эффект. Это помогает сократить число детей, которые по достижении школьного возраста будут нуждаться в специальном образовании в условиях специализированных учреждений. Своевременная помощь и коррекция дает исключительную возможность «сгладить» недостатки и проблемы в развитии, а в ряде случаев даже устранить их, обеспечив тем самым полноценную жизнь ребенка. Элементы психотерапии в работе логопеда как средства коррекции.

Литература:

1. Варенова, Т.В. Теория и практика коррекционной педагогики / Т.В. Варенова. – Мн.: ООО «Асар», 2003.
2.Калягин, В.А. Логопсихология / В.А. Калягин, Т.С. Овчинникова. – М.: Академия, 2006. – 320 с.
3.Дети-сироты: консультирование и диагностика развития; под ред. Е.А. Стребелевой. – М.: Полиграф сервис, 1998.

ER-XOTIN O‘RTASIDA OILA-NIKOH MUNOSABATLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi
“International School of Finance Technology and Science” instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh er-xotin munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, oila va nikoh aloqalarining ahamiyatli jihatlari, er-xotin munosabatlarida sevgi tuyg’usining ijtimoiy-psixologik omillari keng yoritilgan. Shuningdek, oilaviy munosabatlarga doir xorij psixolog olimlarining tadqiqot ishlaridan olingan ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Shaxslararo munosabatlarda ayrim alohida ziddiyatlarning bo‘lib turishi tabiiy xoldir. Shaxslararo nizolar o‘smirlar tomonidan emotsional affektiv ravishda qabul qilinadi. Bu xolat ularni psixologik jihatidan etuk shaxs bo‘lib ulg‘ayishiga xalaqit beradi. Shuning uchun tadqiqotimizning asosiy vazifasi sifatida sibling maqomidagi farzandlarning nizoli vaziyatlarda xulq atvorini baholash sifatida belgilab oldik. Shu maqsadda tadqiqotimizda Amerikalik sotsiolog K.N.Tomasning “Shaxslararo munosabatlarni aniqlash metodikasi” so‘rovnomasidan foydalandik. Bu so‘rovnoma nizoli vaziyatlarda shaxs o‘zini qanday tutishini aniqlab beradi. Uning yordamida shaxsning raqobatga yoki kompramisga moyilligi, nizolardan qochish yoki ularga intilish darajasini aniqlashimiz mumkin bo‘ladi. Shuningdek mazkur metodika jamoaning xar bir a’zoning xamkorlik foaliyatidagi ijtimoiy psixoligik moslashuvchanlik darajasini aniqlash imkoniyati beradi. Ushbu tatqiqotda mazkur metodika xar bir sibling maqomidagi farzandlarning nizoli vaziyatlarda xulq atvor xislatlarini aniqlashga imkon beradi. Metodika davomida sinaluvchilarga 30 juft muloxaza matni beriladi. Biz tatqiqot ishimizdan kelib chiqib o‘smirlarga oila a’zolari bilan bo‘ladigan nizolarni tasavvur qilgan xolda javob berishini taklif qilib ko‘rdik. Bunda sibling maqomiga ega bo‘lgan farzand va ularning ota-onasi nizoli tortishuvli va munozarali vaziyatlardan birini tipik xulq atvoriga mos keladiganini tanlab oladi.

Metodika natijalaridan o‘smirlarning nizoli vaziyatdagi xulqi (raqobat, hamkorlik, murosalik (kelishuvchanlik), tortishuvdan qochish, moslashuvchanlik) bo‘yicha xulosa chiqariladi. K.Tomas va R. Kilmenn nizoli vaziyatlar uchun quyidagi beshta asosiy xulq shakli yoki uslublarini ko‘rsatib o’tadi:

- Raqobat;
- Hamkorlik;
- Murosalilik, kelishuvchanlik;
- Tortishuvdan qochish;

- Moslashuvchanlik.

Tavsiflovchi statistika

Ko'rsatkichlar	N	Minimal qiymat	Maksimal qiymat	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Ekses s
Raqobat	66	2,00	10,00	6,2879	1,69855	-,177	-,212
Hamkorlik	66	2,00	9,00	6,1061	1,71086	-,037	-,632
Kelishuv	66	3,00	10,00	5,8182	1,78807	,449	-,769
Vaziyatdan qochish	66	3,00	9,00	5,0758	1,47085	,763	,122
Moslashish	66	2,00	11,00	6,7273	1,82753	-,268	,324

Biz tomondan olib borilgan tadqiqotda foydalanilgan K.Tomasning "Shaxslararo munosabatlarni aniqlash metodikasi" statistik ma'lumotlariga ko'ra sinaluvchilarimizda sibling munosabatlarda xulq-atvorda raqobatchanlik ko'rsatkichi minimal ball 2, maksimal ball 10 ball , o'rtacha ball 6,28 standart og'ish 1,69 ya'ni 6,28 ±1,69 qiymatlar bilan oilada sibling munosabatlarda raqobatchalikning o'rtacha ekanligini 1-jadvaldagi qiymatlardan ko'rishimiz mumkin. Assimetriya A=-,483 qiymat bilan minimal va maksimal ballning kam uchraganini, ekstsses E=,032 qiymati bilan bir xil ballarning me'yorda ekanligi aks etgan.

Keyingi hamkorlik shkalasi bo'yicha minimal ball 2, maksimal ball 9 ball , o'rtacha ball 5,25standart og'ish 2,17ya'ni 5,25±2,17qiymatlar bilan me'yoriy ballar bilan oilada sibling munosabatlarda hamkorlikning o'rtacha ekanligini izohlashimiz mumkin. Assimetriya A=,078 qiymat bilan minimal va maksimal ballning kam uchraganini, ekstsses E=-,992 qiymati bilan bir xil ballar me'yorda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Huddi shunday vaziyatlarda kelishuvchanlik minimal ball 4, maksimal ball 9 ball , o'rtacha ball 6,1875 standart og'ish 1,51ya'ni 6,1875±1,51 qiymatlar bilan oilada sibling maqomida kelishuvchanlikning o'rtacha kuzatilishi mumkin deb izohlashimiz mumkin. Assimetriya A=-,229 qiymat bilan minimal va maksimal ballning kam uchraganini, ekstsses E=-,541qiymati bo'yicha bir xil ballarning me'yorida ekanlligi aniqlangan. Nizoli vaziyatlarda vaziyatdan qochish shkalasi bo'yicha minimal ball 2, maksimal ball 10 ball , o'rtacha ball 5,8750 standart og'ish 1,746 ya'ni 5,875±1,746 qiymatlar bilan oilada aka-uka munosabatlarida vaziyatdan qochish holati o'rtacha kuzatilishi mumkinligini aniqladik.


Assimetriya A=,217qiymat bilan minimal va maksimal ballning kam uchraganini, ekstsses E=2,217 qiymati bilan o'rtacha ballar ko'p uchragan deb izohlay olamiz. Moslashuvchanlikning namoyon bo'lishiga ko'ra minimal ball 4, maksimal ball 10 ball , o'rtacha ball 7,1875 standart og'ish 1,83ya'ni 7,187±1,83 qiymatlar bilan sibling munosabatlarida moslashuvchanlik holati ham o'rtacha kuzatilishi mumkinligini aniqladik. Assimetriya A=-,241 qiymat bilan minimal va maksimal ballning kam uchraganini, eksess E=-1,215 qiymati bo'yicha me'yoriy bir xil balni kamroq ekanligi aniqlandi. Demakki 1-jadvalda moslashuvchanlik va jipslikda qoniqishi, nizoli vaziyatlarda namoyon bo'luvchi xulq-atvorlarning o'rtacha namoyon bo'lishi mumkin ekanligini jadvalimizdagi sinaluvchilarimizdan olgan natijalarimizdan bilishimiz mumkin.

2. jadval

Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarda o’tkazilgan metodikalarning jins tafovuti bo’yicha tahlili (N=66)

Ko’rsatkichlar	Jinsi	N	O’rtacha qiymat	Standart og’ish	t	p
Raqobat	Erkak	28	6,2500	1,55456	-,154	,878
	Ayol	38	6,3158	1,81741		
Hamkorlik	Erkak	28	5,6786	1,51666	-1,771	,081
	Ayol	38	6,4211	1,79536		
Moslashish	Erkak	28	6,1786	1,78582	-2,151	**,035***
	Ayol	38	7,1316	1,77324		

Jins bo’yicha keyingi farq ko’rsatkichi moslashuvchanlik shkalasi bo’yicha olingan natijalar e’tiborimizni qaratdi. Bunga ko’ra, o’g’il bolalarda va qiz bolalarda farq ko’rsatkichi aniqlandi (t=-2,452;p<0,017). shkalasi bo’yicha o’g’il bolalarda o’rtacha qiymat ko’rsatkichi 109,0714 ballni, standart og’ish ko’rsatkichi 27,04582 ballni tashkil etgan bo’lsa, qiz bolalarda o’rtacha qiymat ko’rsatkichi 124,5789 ballni, standart og’ish ko’rsatkichi 24,11082 ni tashkil etdi. Natijalar tahlili diagrammalarda ham o’z aksini topgan.



5-diagramma. Moslashish bo’yicha jins jihatdan farq ko’rsatkichi.

Xulosa: Oilada milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish muhim rol o‘ynaydi. Agar ota-onalar jamiyatimiz tomonidan oilaga, o‘sib borayotgan avlod tarbiyasiga qo‘yiladigan talabni bilsa, axloqiy tarbiya samarali bo‘ladi; axloqiy tarbiyalash jarayonida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy o‘zbek an’analaridan foydalaniladi oiladagi sibling munosabatlarini to’g’ri tashkil etishga harakat qilishimiz kerak.

Ilmiy ishimizning maqsadiga quyidagi vazifalarni hal qilish orqali erishildi:

1. Oilada sibling munosabatlarni tarixiy va nazariy asoslarini tarkib toptirish.
2. Oilada sibling munosabatlarning farzandlar xulq-atvoriga ta’sirida ota-ona rolining ahamiyatli ekanligini empirik tahlil etish.
3. Sibling munosabatlarning farzandlar xulq atvoriga ta’sirini korreksiya qilish.

Ish jarayonida biz oldimizga qo‘ygan maqsadga erishdik, dissertatsiya ishimizdagi vazifalar hal qilindi, yani, Oiladagi farzandlarning kattasi, odatda ota - onasining umidi bo‘lib, ota-onalar undan ko‘p narsalarni kutadi va odatda u bu umidlarni oqlaydi ham. Undagi muvaffaqiyatlarga bo‘lgan intilish, o‘qish va kasb-hunar egallash yo‘nalishidagi yutuqlari va unga erishish imkoniyatlari ham odatda yuqori bo‘ladi. Uning muvaffaqiyatlari nafaqat ota-onaning kutishlariga bog‘liq, balki ma’lum vaqt erkalatilgan bolaning, keyinchalik «taxtdan tushishi», mavqening birdan o‘zgarishi va kutishlar tizimining ham shunga yarasha boshqacha bo‘lib qolishi bilan bog‘liqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, bizning ishimizning gipotezasi isbotlangan: yani,oilada farzandlar o’rtasida raqobat, hamkorlik, kelishuvning yo’lga qo’yilishi oilada sibling uchun sharoit yaratib berishi mumkin bo’ladi.

ADABIYOTLAR.

1. Ғозиев Э., Жабборов А. Фаолият ва ҳулқ-атвор мотивацияси: (Университетларнинг психология мутахассислиги учун ўқув қўлланма). – Тошкент, 2003.
2. Karimov X.K. O’zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilga dissertatsiya. – Farg’ona. 1994.-310b
3. Isaqova M.T Milliy an’analar va ijtimoiy omillar ta’sirida ilk o’spirinlarda ma’naviy tasavvurlarni shakllantirish: Psixol. Fan.nomz. dis.- Toshkent: TDPU,1999.-208b
4. Salayeva N. O’zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o’zaro munosabatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixol.fan.nom.dis. –Toshkent.2002-180b
5. Abdusattorova O.A. Oila muhitida o’zbeklarda shakllangan jinsiy identifikatsiyaning gender xususiyatlari. Psixol.fan.nomz.dis. avtoref. Toshkent.-2007.-22b
6. Abdullayeva R.M. Talabalardagi oila-nikoh ustanovkalarining psixologik xususiyatlari. Psixol. fan.nomz.dis avtoref. Toshkent- TDPU. 2010-23b
7. Niyozmetova G. O’zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixol.fan.nomz. dis avtoref. Toshkent. TDPU. 2010-24b
8. Botirov B.M. O’zbek milliy xarakteri shakllanishiga qadriyatlar ta’sirining psixologik xususiyatlari. Psixol.fan.nomz.dis avtoref. Toshkent TDPU. 2010-23b

SHAXSNING O‘Z INDIVIDUAL IMKONIYATLARINI RO‘YOBGA CHIQARISH HODISASINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti “Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobsha chiqarishning psixologik imkoniyatlari xususida nazariy bilimlarni qamrab oladi. Xorij olimlari tomonidan shaxs o‘z individual imkoniyatlarini namoyon bo‘lishiga doir qarashlarining tahlili keltirilgan. Shuningdek, o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning tavsifnomasi, funksiyalari hamda xarakterli jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘zini o‘zi baholash, salohiyat, o‘zini o‘zi namoyon qilish, o‘zini o‘zi anglash, maqsad ko‘zlash.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ФЕНОМЕНА РЕАЛИЗАЦИИ ИНДИВИДОМ СОБСТВЕННЫХ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Туляганова Гульноза Олимджановна
Старший преподаватель кафедры «Социальные науки, педагогика и психология» Ташкентского педиатрического медицинского института

Аннотация. В статье освещаются теоретические знания о психологических возможностях индивида реализовать свои индивидуальные способности. Представлен анализ взглядов индивида на проявление его индивидуальных способностей зарубежными учеными. Также указаны описание, функции и характерные аспекты реализации их индивидуальных возможностей.

Ключевые слова: личность, реализация собственных индивидуальных возможностей, самооценка, потенциал, самовыражение, самосознание, целеполагание.

THE PSYCHOLOGICAL ESSENCE OF THE PERSON’S REALIZATION OF HIS INDIVIDUAL OPPORTUNITIES

Tulyaganova Gulnoza Olimjonovna
Senior teacher of the Department of «Social Sciences, Pedagogy and Psychology» of the Tashkent Pediatric Medical Institute

Abstract. The article covers theoretical knowledge about the psychological possibilities of realizing one’s individual potential. An analysis of the views of a person on the manifestation of his individual capabilities by foreign scientists is given. Also, the description, functions and characteristic aspects of realizing one’s individual capabilities are shown.

Key words: personality, realization of individual potential, self-evaluation, potential, self-expression, self-awareness, goal setting.

Shaxsning o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish unda inson o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish jarayonining oqibati natijasi uning ichki “Men”iga o‘tadi. Shunga muvofiq ravishda shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning mohiyati – inson o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchida namoyon bo‘ladi. Shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning dastlabki sub’yekti bu insonni bir o‘zi, ammo hamjamiyatlar, insonlar, guruhlar, xalqlar ham o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi mumkin, biroq jamoaviy o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish alohida shaxslarni o‘z-o‘zlarini namoyon qilishidan kelib chiqadi.

Psixologik lug‘atda “o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bu insonni o‘zgalar va o‘zi tomonidan yuqori bahoga intilishi” deb ta’riflanadi. Mazkur ta’rif ko‘rilayotgan tushuncha yuzasidan tor doirada fikr yuritishga olib keladi. Chunki o‘zini o‘zi baholashni o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonining yakuniy bosqichi sifatida ko‘rib chiqish kerak [6].

G.A.Korchagina o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish- shaxsning o‘zini o‘zi anglashida o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning muayyan pozisiyasini egallash zarurati sifatida boshdan kechirilgan, faoliyatning turli sohalarida muhim kuchlarni taklif qilish uchun uning o‘ziga xos turi sifatida belgilaydi [2].

Psixologiya fanida inson o‘zini o‘zi tutish uslublarini yoki o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish strategiyasini tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan hodisaning faqat tashqi tomoni ko‘pincha ko‘rib chiqiladi. Biroq, E.N.Nikitin va N.Ye.Xarlamenkova o‘z tadqiqotlarida shuni ko‘rsatadiki, dastlab odam

allaqachon o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun ma’lum bir potensialga, turli xil strategiyalarga ega. Ular o‘zlarining “Shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish fenomeni” asarida har bir insonda hayotning turli sohalarida namoyon bo‘ladigan uchta o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish strategiyasi - konstruktiv, destruktiv va voz kechish mavjudligini ta’kidlaydilar [5].

V.G.Maralovning fikriga ko‘ra, o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish - bu shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini, xarakter sifatlarini, o‘zini tutish va faoliyat usullarini kashf etish va tasdiqlash maqsadida o‘zini o‘zi rivojlantirish doirasidagi faoliyatning o‘ziga xos turi [3].

N.F.Kaluginaning ta’kidlashicha, o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish-bu shaxsning o‘ziga xos fazilatlari, xususiyatlari va sifatlarini kashf etish va uni o‘zi va atrofidagi jamiyatda tasdiqlash uchun o‘ziga xos faoliyat [2].

E.P.Nikitin, N.Ye.Xarlamenkovalar tomonidan o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning strategiyalaridan biri, “o‘zini” kuchaytirish, unga kuch berish yoki kuch va ahamiyatni saqlab qolish usuli deb biladi. O‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish -bu shaxs ehtiyojidan kelib chiqqan xatti-harakatni yuqori baholash va o‘zini o‘zi qadrlash istagi [5].

Mazkur muammo yuzasidan fikr yuritgan ayrim mualliflarning fikriga ko‘ra, shaxsda o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayoni insonda o‘ziga nisbatan qadr-qimmat hissini vujudga keltiradi.

Shaxsning o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tushunchasiga nisbatan eng aniq va to‘liq izohlangan ta’rif R.Alberti tomonidan ilgari surilib, unga ko‘ra, “o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bu o‘zining mavjudligini saqlab qolish yoki inson shaxsiy borlig‘ini kengaytirish va hayot mazmunini topishdir” [1].

Shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tushunchasiga doir qator ta’riflar tahlillarini izohlashga harakat qildik. Keltirilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tushunchasini mualliflik nuqtai nazarida quyidagicha ifodalashga mumkin: “o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bu - shaxs o‘zini o‘zi adekvat baholash orqali o‘zidagi mavjud layoqat, qobiliyatlarini faoliyatlar jarayonida yuzaga chiqara olishidir”.

Ma’lumki, o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayoniga qarama-qarshi tushuncha o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishdan voz kechishdir. Mazkur jarayonlar bir-biriga juda o‘xshash bo‘lib, inson tomonidan ularning har ikkisi ham amalga oshiriladi. Natijada, bu jarayonlar uning “Men”ida ro‘y beradi, lekin uning natijasi ham o‘z imkoniyatlariga qarama-qarshi bo‘ladi.

R. de Charms, Uayt tomonidan o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish fenomenini motivatsiya nazariyasi nuqtai nazardan yoritishga harakat qilingan. Unga ko‘ra, R. de Charms o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning asosi motiv bilan bog‘liqligini aniqlashtirishga harakat qilgan [7]. Uning ta’kidlashicha, tashqi muhit ta’siri, qo‘llab-quvvatlashlar jazolar o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish kechinmalarini susaytirib, insonda to‘liq qaramlik hissi paydo bo‘lishigacha olib kelishi mumkin ekan. Agar inson bu jarayonga qarama-qarshi tura olsa, shunda u har qanday faoliyatdan bahramand bo‘lib, o‘ziga nisbatan ishonchi ortadi va hokazo. Shuningdek, Uayt o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni kompetentlik bilan birlashtiradi [8].

Xorijning yetakchi olimlari tomonidan shaxs individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish muammosi keng doirada o‘rganilgan bo‘lib, uning o‘ziga xos tavsifnomalari ishlab chiqilgan. Xususan, Ye.P.Nikitin tomonidan shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning asosiy tavsifnomalarini ajratib ko‘rsatadi:

I.Fazoviy tavsifnoma. Bu o‘zidagi har bir imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga nisbatan harakatda bo‘lgan inson faoliyatining ma’lum bir sohasiga taalluqli bo‘ladi

II. Energetik yoki quvvatli tavsifnoma. O‘z ichiga quyidagilarni oladi:

1.O‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga turtki (impuls), o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ichki ehtiyoj: a) umumiy yoki barqaror turtki; b) vaziyatli yoki o‘zgaruvchan turtki;

2. O‘z individual imkoniyatlari salohiyati – insonning faoliyatga nisbatan qobiliyati, u yoki bu turtkini o‘z individual imkoniyatlarini tasdiqlash yo‘lida qondirish.

a) umumiy salohiyat – umuman qobiliyatsiz yoki har tomonlama qobiliyatga ega bo‘lgan inson xususida fikr yuritiladi;

b) o‘ziga xos salohiyat – vaziyatli turtkini o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida qondirish qobiliyati [4].

Ye.P.Nikitinning ta’kidlashicha, shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida insonda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar bu:

-o‘z individual imkoniyatlarining yetishmovchiligi:

-shaxs o‘z individual imkoniyatini ro‘yobga chiqarishda salohiyatning yetishmovchiligi;

-shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish turtkisining yetishmasligi.

Shunga muvofiq ravishda shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayoniga qator mualliflar tomonidan berilgan tasniflarini ko‘rib chiqamiz. O‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida maqsadga yo‘nalganlik darajasini hisobga olib, uning uchta turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1.O‘z maqsadlari asosida o‘zining individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish. Bunda o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ichki maqsadga aylanadi. Bu toifadagi imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun maqsadning aniq va yorqin ifodalanganligi, shuning bilan birga ma’lum shaklga egaligi, biroq, juda noaniq va mavhum mazmunga egaligi xarakterlidir. Odatda bunday vaziyatlar insonning o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish kuchli darajada turtki bo‘lganda lekin uni amalga oshirish uchun hech qanday maxsus salohiyatga ega bo‘lmaslik sharoitida vujudga keladi.

2.Maqsadga yo‘naltirilgan o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish. Avvalgilardan farqli ravishda mazkur toifadagi inson nafaqat anglangan holda o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni maqsad qilib qo‘yadi, shuning bilan birga maqsadni amalga oshirishning yo‘llari, usullari va vositalariga ega bo‘ladi.

O‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayoni klassifikatsiya bo‘yicha ilgari surilgan ta’riflarni tahlil qilishga harakat qildik. Shunga muvofiq qator olimlar tomonidan o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning qator klassifikatsiyalari ishlab chiqilgan. Agar o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonini klassifikatsiyalashda ularning maqsadga qaratilganlik darajasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning uch turini ajratish imkoniyatiga ega bo‘lamiz:

1. Birdan-bir maqsadga qaratilgan o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish. Bu o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda asosiy maqsadga aylanib qoladi. Mazkur tip o‘z individual imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun maqsad aniq va aynan belgilangan shaklga ega bo‘lishi bilan xarakterlidir. Shuning bilan u mavhum xarakterga ega. U asosan insonning o‘z individual imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishda yuqori darajada o‘ziga xos salohiyatga ega bo‘lmagan vaziyatlarda paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdan maqsad ushbu maqsadni amalga oshirishda yorqin namoyon bo‘luvchi ustanovka bilan bog‘liq emas. Bog‘liq bo‘lgan holatlarda ham juda nozik aloqadorliklar bilan birlashib, ular mustahkam bo‘lmaganliklari uchun boshqalari bilan almashib ketishi va o‘zgarishi mumkin.

2.Maqsadga yo‘naltirilgan o‘z individual imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish. Yuqorida keltirilgan tipdan farqli ravishda inson nafaqat o‘z maqsadlarini ro‘yobga chiqaradi, balki qaysidir faoliyat sohasida ushbu maqsadni amalga oshirishga, unga erishish yo‘lidagi muammolarni turli xil usullar bilan hal etishga harakat qiladi. Bunday qayta namoyon bo‘lish boshqa aniq faoliyatdagi maqsad bilan tavsiflanadi.

Ma’lumki, maqsadga yo‘nalgan o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning ikkita: konservativ va progressiv tiplari mavjud: Konservativ o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, inson o‘zi erishgan pozisiyasini saqlab qolishga intilishi bilan tavsiflanadi. Progressiv o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda tanlangan zina bo‘yicha yuqoriga chiqish imkoniyati yoki undanda yuqoriroq pog‘onalarga ko‘tarilish maqsad qilib olinadi.

3.Maqsadga intilishga qaratilgan o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish. Bu jarayonda o‘z oldiga hech qanday maqsad qo‘yilmaslik va intilish bo‘lmagan holatlar ko‘zga tashlanadi. Bunda faqatgina o‘zi yoki boshqa insonlar tomonidan ijobiy baholanadigan natijaga erishiladi. Shu orqali o‘zi individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdagi natijaga ega bo‘linadi.

Shaxsning o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni klassifikatsiyalash jarayonida ular tomonidan amalga oshiriladigan vositalarni asos qilib olinsa, ikkita tipni ajratish mumkin, ya’ni tashqi va ichki. Tashqi o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish. Bu atama yordamida mavjud predmetlar orqali o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tushuniladi. Bunday predmetlar o‘rnida turli qiymatga ega har xil narsalar bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda asosan jonli narsalar ahamiyatli hisoblanadi. Ichki o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish. Mazkur tipdagi vositalar sifatida eng oddiy narsalar bilan bir qatorda jonli vositalar ham bo‘lishi mumkin. Lekin bu vaziyatda ular o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi ob’yekt sifatida namoyon bo‘ladilar. Bu yo‘l orqali o‘zining ichki imkoniyatlarini amalga oshirish shakllanadi.

O‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonini klassifikatsiya qilishda uning natijalarini asos sifatida olsak, ikkita tipga ajratish mumkin: shaxsdan oldingi va shaxsiy. Shaxsdan oldingi tipda inson oxir oqibat o‘zini biror narsaning qismi emasligini ta’kidlaydi. Shaxsdan oldingi o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning o‘zi inklyuziv va tortishuvli kabi ikkita tipga ajratiladi. Inklyuziv tipdagi inson o‘zining biron bir butunlikning ajralmas elementi sifatida ta’kidlaydi. Shunga qarmay u o‘zini boshqa bir qator elementlar, jismlar qatoridan chiqarmaydi. Bu jarayon shundan iboratki, o‘ziga xos bo‘lgan yaxlitliklar orasidan yaxshisi ajratib olinadi. Tortishuvchi tipdagi shaxsning o‘z individual

imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda inson ko‘pchilikni tashkil etuvchi insonlardan o‘zining zo‘rligini isbotlamoqchi bo‘ladi. Shaxsiy tip shaxs nafaqat ko‘pchilikni tashkil qiluvchi chegaralangan imkoniyatlar doirasidan, balki insoniy bilish, noyob mikroqism sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tipning vazifasi-xuddi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan mikroqismni yaratishdan iborat.

O‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish klassifikatsiyasida mexanizmlarni asos qilib olsak, uning ikkita tipi vujudga keladi. Unga ko‘ra, boshqa insonlardagi “Men” i rad etishi orqali o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va o‘zini o‘zi anglash, belgilash orqali o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish. Boshqa insonlar “Men” ini rad etish orqali o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida “Men” turli shakllarda namoyon bo‘ladi. O‘zini o‘zi anglash, belgilash orqali o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish borasida fikr yuritilganda, birinchi navbatda ularning boshqa insonlarni “Men” ini rad etish orqali, ikkinchidan boshqalarning ustidan hukmronlik qilish orqali ularning o‘xshash jihatlarini ham e’tibordan chiqarish mumkin emas.

O‘zini o‘zi anglash orqali o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish mexanizimida ham inkor etish akti mavjud. Ko‘p hollarda u o‘zining emas, balki boshqa “Men” larga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Inson yanada yuksalishi va kattaroq mavqega ega bo‘lishi, ko‘tarilishi uchun o‘zining kechagi holatini ertangi kuni uchun inkor etadi. Tillix o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ma’naviy va axloqiy turlarga ajratgan. Insonlarga xavf solayotgan mavhumlik ularda xavotir turini paydo qiladi. Shu xavotir o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning tarkibiy qismiga aylanib boradi.

A.Alberti va L.Emonsi shaxsdagi o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishning quyidagi turlarni ajratib ko‘rsatganlar:

O‘zini o‘zi bosish. Bunday tipdagi insonlarga o‘zining salbiy his-tuyg‘ularini hayrihohlik ortiga berkitish xos. Ular uchun o‘z zimmasiga mas’uliyatni olishi kerak bo‘ladigan vaziyatlardan qochish xarakterlidir. Noaniq va kam rivojlangan muloqot shakllarida o‘z fikri va adekvat emosional reaksiyalarini yashirish an’anasi mavjud [1].

Agressiv strategiya yoki ustun bo‘lgan strategiya. Bu tipga suhbatdosh o‘z fikrini tugatmasdan avval javob berish xos: ushbu tip kuchli ovoz toni bilan gapirish, boshqa insonlarga yuqoridan turib qarash, o‘z fikrini ochiq bayon etish va boshqalarning fikrini eshita olish, ularning fikrini tanqid qilmasligi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida keltirilgan barcha klassifikatsiyalar shaxsning o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonini faqatgina bir tomonlama o‘rganib, tavsiflash imkonini beradi. Shunday ekan, bu jarayon ko‘p qirrali bo‘lgani uchun uni yanada kengroq tasniflash maqsadida turli xil klassifikatsiyalarni o‘rganish va ularni o‘zaro solishtirib ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish tushunchasiga doir ilgari surgan ta’riflarni tahlil qilgan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

1. O‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish shaxs o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi baholash tizimi xususiyatlarini namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

2. Shaxs o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ularni kelajak hayotlari uchun ilgari surilgan maqsadlari va unga erishish yo‘llari bilan izohlanadi.

3. Shaxsning ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatlarini oqilona va samarali tashkil qilish, nazorat qilish va boshqarish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, muvaffaqiyatga intilish, kasbiy faoliyatda yuqori cho‘qqi va marralarga erishishda o‘z individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алберти Р., Эммонс М. Самоутверждающее поведение. – СПб.: Гуманитарное агентство «Академический проект», 1998. – 188 с.

2. Калугина, Н. Ф. Психологические условия позитивного самоутверждения студентов - будущих журналистов: дис... канд. психолог. наук : 19.00.07/ Наталья Филиповна Калугина – Череповец, 2007. – 181 с.

3. Маралов, В. Г. Основы самопознания и саморазвития / В. Г. Маралов. – М.: «Академия», 2003. – 256 с

4. Никитин Е.П, Девятова С.В., Кезин А.В., Кузнецова Н.И., Купцов В.И., Маркова Л.А, и др. Философия и методология науки: Учебное пособие 1996 место издания Аспект Пресс Москва

5. Никитин Е.П. Харламенкова Н.Е. Феномен человеческого самоутверждения – СПб: Анстения 2000 г 224

6. Психология. Словар / Под обш. Ред А.Б.Петровского, М.Г.Ярашевского-2-э изд, испр.и доп.-М.” Политиздат, 1990-494 с

7. Психология: Биографический библиографический словарь / Под ред. Н. Шихи, Э. Дж. Чепмен, У. А. Конрой. СПб.: Евразия, 1999. 832 с.

8. Хекхаузен, Хайу Мотивация и деятельность - М.: «Педагогика», 1986г. 392 с., 2 том.

MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI AGRESSIVLIK XUSUSIYATLARINING O’ZIGA XOSLIGI

Xamidova Fariza Shuxrat qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir xaqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Kalit so‘zlar: Mehribonlik uyi, agressiya, yetimlik, tajovuzkorlik

ОСОБЕННОСТИ АГРЕССИВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ОПЕКУНОВ

Хамидова Фариза Шухрат қизи
стажер-преподаватель Национального университета Узбекистана

Аннотация: Будущее нашей страны, завтрашний день нашего народа, репутация нашей страны в мировом сообществе зависят, прежде всего, от того, какими вырастут и станут людьми наши дети. Мы никогда не должны забывать такую острую истину.

Ключевые слова: Дом Милосердия, агрессия, сиротство, агрессия.

CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE CHARACTERISTICS OF CAREGIVERS

Xamidova Fariza Shuxrat qizi
an intern-teacher at the National University of Uzbekistan

Abstract: The future of our country, the tomorrow of our people, and the reputation of our country in the world community depend primarily on how our children grow up and become human beings. We should never forget such a sharp truth.

Key words: House of Mercy, aggression, orphanhood, aggression

Kirish. Agressiya – bir kishi tomonidan ikkinchi bir kishiga ko‘rsatilgan jismoniy harakat yoki tahdid bo‘lib, u ikkinchi kishining erkinligiga tahdid soladi (L.M.Semenyuk, 1996).

A.Bandura, R.Uolterslarning (2000) aytishlaricha, agressiya motivlangan harakatdir, unda me’yor va qoidalar buziladi, u og‘riq va azob chekishga olib keladi. Bu yerda qasddan qilingan va instrumental agressiya farqlanadi. Instrumental agressiyada inson o‘z oldiga agressiv tarzda harakat qilishni maqsad qilib qo‘ymaydi, lekin “shunday bo‘lib qoladi” yoki “boshqa iloji bo‘lmaydi”. Bunday harakatda motiv bor, lekin to‘la tushunilmagan. Qasddan qilingan agressiv harakatda esa zarar keltirish motivlangan holda amalga oshiriladi.

Biz ham mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi o‘spirinlar agressiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida tadqiqotlarimizning keyingi boblarida A.Bass-A.Darkining, Assingerning agressiyani o‘rganishga bag‘ishlangan metodikasidan foydalandik, chunki bu metodikalar psixologik tadqiqotlarda, tashxis amaliyotida eng ko‘p ishlatiladigan klassik metodikalar sirasiga kiradi va o‘spirinlik agressiyasi bo‘yicha to‘la ma’lumot bera oladi. A.Bass-A.Darki metodikasi esa horijiy va mahalliy psixologlar tomonidan shaxsdagi emotsional jihatlarni, ya’ni agressivlikni, salbiy hissiyotlarni diagnostika qilish uchun keng qo‘llanilgan.

Mazkur metodika 75 ta mulohazadan iborat bo‘lib, respondentlarning javoblari maxsus kalit yordamida ishlab chiqiladi va kalitga asosan sakkizta ko‘rsatkich bo‘yicha ma’lumotlar olinadi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy agressiya – boshqa bir shaxsga nisbatan jismoniy harakatlar qilish.
2. Bilvosita agressiya (kosvennaya agressiya) – to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, boshqa yo‘llar bilan (chetdan, orqa-varotdan) amalga oshiriladigan agressiya
3. Jahldorlik – arzimagan bahona yoki sabab bilan ham salbiy hissiyotlarini ko‘rsatish (qo‘pollik, tez jahl chiqishi).
4. Salbiy munosabatlar (negativizm) – oppozitsion (muxolifatchilik) xulq, odatda biror-bir avtoritetga yoki rahbariyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi, bu xulq talab etilgan qonun va odatlarga qarshi

passiv qarshilikdan to faol kurashgacha o‘sishi mumkin.

5. Alamzadalik – atrofdagilarga hasad qilish va ulardan nafratlanish, arzimagan ko‘ngilsizliklarda ranjish, g‘azablanish va “butun dunyoni ayblash”.

6. Badgumonlik – atrofidagi insonlarga bo‘lgan ishonchsizlik va ehtiyotkorlik, fikricha, atrofdagilar ularga ataylab yomonlik qilishadi.

7. Verbal agressiya – negativ hissiyotlarini so‘z yordamida ifodalash (baqirish, janjallashish, tahdid qilish, so‘kish, qarg‘ash).

8. Aybdorlik hissi – sub’ekt o‘zining yomonligi, atrofidagilarga zarar keltirishi haqidagi o‘y-fikrlari hamda vijdonan qiynalishi.

Hozirgi kunda g‘arb psixologlarining ishlarida o‘spirinlik davri agressiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar tobora kengayib, ko‘payib bormoqda.

Mehribonlik uylarida shaxs kamoloti o‘ziga xos tarzda kechishi bilan boshqa muhitdagi tendoshlaridan keskin faqlanadi. Atrof-muhitga munosabat ijobiy va salbiy ko‘rinishga ega bo‘lib, ular ko‘p jihatdan vujudga kelgan vaziyatga bog‘liq. Guruhlarda va guruhlararo munosabatlar ham ijobiy moslashuv qay yo‘sinda kechishi bilan, shuningdek, o‘zaro tushinish, o‘z o‘rnini topish, o‘zini shaxs sifatida tan olishga intilish jarayonlari ahvoli bilan belgilanadi. Bu o‘rinda agressiv xususiyatlar psixologik kategoriya tariqasida alohida ahamiyat kasb etadi hamda faoliyat, xulk, munosabat maxsuldorligi, maqsadga muvofiqligi iliq psixologik muhit yuzaga kelishini ta’minlaydi. Tarbiyalanuvchilarning o‘zaro va ularning murabbiylararo munosabatlari agressiv xususiyatlarni qanday kechishiga bog‘liq. O‘zaro ishonch, o‘zaro ta’sir, o‘zaro hurmat xukm sursa, individual va ijtimoiy xulk-atvor nuqsonlarsiz kechishi, amalga oshishi kuzatiladi. Xar xil tarzdagi ichki noroziliklar, nizoli vaziyatlar ijtimoiy moslashuv jarayonidagi kamchiliklar maxsuli sifatida gavdalanadi. Hissiy va aqliy jabhalardagi qusurlar ham muloqot jarayonining amalga oshishiga salbiy to‘siq vazifasini o‘taydi va agressivlikni keltirib chiqaruvchi motivlar bo‘lishi mumkin.

I.P.Shkuratovaning ta’kidlashicha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari muloqotidagi qiyinchiliklarni o‘rganishda uning rang-barangligini, muloqotga kirishuvch ilarning o‘zaro ta’sir etish texnikasini yaxshi bilmasliklari, ijtimoiy perseptiv funksiyalarning yaxshi rivojlanmaganligi kabi xolatlarni e’tiborga olish zarur. I.P. Shkuratova tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, muloqot jarayonidagi qiyinchiliklar insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishiga xalaqit beruvchi omillardan biri hisoblanadi.

T.V.Ivanovaning ta’kidlashicha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari qiyinchiliklarga duch kelganlarida labil, senzitiv, astenonevrotik xarakter komplekslari mavjud bo‘lib, bu ularning xaddan ziyod ta’sirlanuvchan ekanliklarini bildiradi. Bunday kishilar do‘stona munosabatlarga juda katta ehtiyoj sezsalar ham o‘zlarining uyatchanligi va tortinchoqliklari tufayli uni amalga oshira olmaydilar. Dastlab ular o‘ta sovuqqon, qat’iyatli va jiddiy kishi bo‘lib taassurot qoldiradilar.

Bunday tarbiyalanuvchilarda xavotirlanish, agressiya, hissiy beqarorlik, o‘zini-o‘zi nazorat qilish darajasi yuqori bo‘ladi. O‘tkazilgan so‘rovlarda ular o‘zlarining tajavuzkorligi, odamoviligi, introvertligi, tortinchoqligi, bo‘ysunuvchanligi, konformli ekanliklarini ta’kidlashgan.Ijtimoiy yetimlikning asosiy fojiali oqibatlaridan biri – internat tipidagi muassasa, ayniqsa ota-ona g’amxo’rligini ko’rmagan, erta yoshdan bolalar uyida tarbiyalangan tarbiyalanuvchilarning jismoniy, psixologik xamda ijtimoiy noqobilligi hisoblanadi. 1951 yildayoq, ingliz olimi J.Boulbi o’zining tadqiqotlarida internat tipidagi muassasalarning salbiy oqibatlari mavjudligini isbotlagan. 1951- yilda Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti tomonidan nashr etilgan

M.I.Lisina “Puti vliyaniya semi i detskogo uchrejdeniya na stanovlenie lichnosti doshkolnika” asarida cheklangan aloqa doiralari tengdoshlar va kattalar bilan samarali muloqot ko’nikmalarini shakllantirishga to’sqinlik qiladi, va bu ularning jamiyatga moslashishiga, integratsiyasiga katta to’sqinlik qiladi. Bolaga kattalar bilan aloqaning vyetishmasligi gipertrofiya yani ushbu ehtiyojning oshib ketishiga olib keladi. Bolaning emotsional farovonligi kattalar bilan munosabatiga bog’lanib qoladi. Bir vaqtning o’zida kattalar bilan muloqot ehtiyojining yuqoriligi va bog’lanib qolishning ortib ketishi kattalarga nisbatan agressiv munosabatni yuzaga keltiradi kabi fikrlarni keltirgan. Professor Muhinaning tadqiqoti shuni ko’rsatadiki, deprivatsiya holatidagi bolalar kattalar va tengdoshlari bilan ziddiyatlarni bartaraf etishda ijobiy natija ko’rsata olmaydilar. Ular agressiv bo’lib, ziddiyat yuzaga kelganda u holatdan u holatdan konstruktiv chiqib keta olmaydilar. Nizoli vaziyatlarda o’z ayblarini ko’ra bilmaydilar va boshqalarni

aybdor qiladilar.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqotlar natijalarining tahliliga asosan Mehribonlik uylarida tarbiyalanauvchi bolalarning ba’zilarida buzilishlar mavjud bo’lib, bu shaxslararo munosabatlarda o’z-o’zini boshqarishning sustligida namoyon bo’ladi. Muloqotda tajribaning yo’qligi va noto’g’ri o’zini talqin qilish tufayli ular atrofdagilarga agressiv va negative munosabatda bo’ladilar. Muvozanatlashmagan emotsional holati esa shaxsiy munosabatlardagi affektiv buzilishlarga olib keladi. Deprivatsiya sharoitida bo’lgan bolalar uchun do’stlikning ahamiyati zaif ko’rinadi, ularda vaziyatli harakterga ega bo’lgan diada va triadalar mavjud bo’lmaydi. Kattalarga nisbatan munosabat ularning bolaning hayotidagi samaradorligi bilan belgilanadi. Bunday bolalar hayotida shaxsiy muloqot emas, funksional-rolli muloqot amalga oshiriladi degan xulosani berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Реан А.А. Агрессия и агрессивность личности. - СПб, 1995.18 б.

2. Захаров Л.И. Психотерапия неврозов у детей и подростков. Москва 2012.239б.

3. Змановская Э.В. Девиантология (психология девиатного поведения)- М.: Академия,2004.-288 б.

4. Психология агрессивного поведения, Ильин Е., Питер, 2014. 35-б.

5.Аракулов, Г. (2022). Pedagogik va psixologik mashg ‘ulotlar maktabgacha yoshdagi bolalarda muhim fenomen sifatida.

6.Аракулов, Г. (2022). Факторы, влияющие на формиро

вание агрессии у подростков/Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире,1(3), 106-109.

7.Yuldashev, S., & Arakulov, G. (2023). ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN FAMILY DISPUTES. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 81-88.

8.Холова, М., & Аракулов, Г. (2022). Zamonaviy bilimlarni egallashda pedagogik psixologiyaning ahamiyati.Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4), 219-221.

9.Yuldashev, S. (2021). THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER IN MILITARY EDUCATION. International Journal of World Languages, 1(2).

10.Sunatullaevna, K. A., & Axmedovich, R. O. (2022). Internet is a depression.The benefits and harms of cyberspace on the human psyche.Eurasian Scientific Herald, 5, 69-73.

O‘SMIRLIK DAVRIDA O‘Z-O‘ZIGA BO‘LGAN ISHONCHNING SHAKLLANISHIGA O‘Z-O‘ZIGA BO‘LGAN MUNOSABATNING TA’SIRI

G‘aybullayeva Dilnoza Muxammadjon qizi
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada o‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllanishiga o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchning ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Unda o‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni namoyon bo‘lishiga doir nazariy qarashlar ilgari surilgan. Ayniqsa, o‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni shakllanishiga o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchning ta’siri empirik ma’lumotlar asosida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smir, shaxs, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z-o‘ziga baho berish, o‘z o‘ziga bo‘lgan munosabat, o‘z o‘ziga hurmat, autosimpatiya, boshqalardan kutilgan munosabatlarning ko‘lami, o‘z o‘ziga qiziqish, o‘z-o‘ziga ishonch, boshqalarga munosabat, o‘zini o‘zi qabul qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi ayblash, o‘z o‘ziga qiziqish, o‘zini o‘zi tushunish.

ВЛИЯНИЕ САМООТНОШЕНИЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ УВЕРЕННОСТИ В СЕБЕ В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ

Гайбуллаева Дилноза Мухамаджоновна
базовый докторант Института семьи и гендерных научных исследований

Аннотация. Целью статьи является изучение влияния уверенности в себе на формирование уверенности в себе в подростковом возрасте. В ней изложены теоретические взгляды на проявление самоотношения в подростковом возрасте. В частности, на основе эмпирических данных изучено влияние уверенности в себе на формирование отношения к себе в подростковом возрасте.

Ключевые слова: подросток, личность, самоотношение, уверенность в себе, самооценка, отношение к себе, самооценка, симпатия к себе, степень реляционных ожиданий от других, самооценка, самооценка, самооценка, отношение к себе. другие, самопринятие, самоконтроль, самообвинение, корысть, понимание себя.

THE INFLUENCE OF SELF-ATTITUDE ON THE FORMATION OF SELF-CONFIDENCE IN ADOLESCENT PERIOD

Gaybullaeva Dilnoza Mukhammadjonovna
basic doctoral student of the Scientific Research Institute of Family and Gender

Abstract. The article aims to study the influence of self-confidence on the formation of self-confidence in adolescence. In it, theoretical views on the manifestation of self-relation in adolescence are put forward. In particular, the influence of self-confidence on the formation of self-attitudes during adolescence has been studied on the basis of empirical data.

Key words: adolescent, personality, self-attitude, self-confidence, self-esteem, attitude towards self, self-esteem, self-sympathy, extent of relational expectations from others, self z self-interest, self-confidence, attitude towards others, self-acceptance, self-control, self-blame, self-interest, self to understand.

O‘smirlik davrida bolaning shaxsini rivojlantirishning eng muhim daqiqalaridan biri bu uning o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini shaxs sifatida tushunish zarurati hisoblanadi. O‘smirda o‘ziga, uning ichki hayotiga, shaxsiy fazilatlariga qiziqish, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini boshqa odamlar bilan taqqoslash zarurati paydo bo‘ladi. U o‘ziga qaray boshlaydi, shaxsining kuchli va zaif tomonlarini bilishga intiladi. O‘zini o‘zi anglash zarurati hayotdan, amaliy faoliyatdan kelib chiqadi va guruhning katta yoshli kishilarining o‘sib borayotgan talablari bilan belgilanadi. O‘smir jamoada o‘z o‘rnini topish uchun o‘z imkoniyatlarini baholashga muhtoj bo‘ladi.

Dastlab, o‘smirning o‘zini o‘zi anglashiga asoslanib, u haqida boshqalarning g‘oyalari yotadi – ota-onalar, o‘qituvchilar, maktab sinfi, guruh, do‘stlar. O‘smirlar o‘zlariga boshqalarning ko‘zi bilan qarashadi. Kattaroq bosqichga o‘tish bilan o‘zini mustaqil tahlil qilish va baholash tendensiyasi shakllana boshlaydi.

Ammo o‘smirning shaxsi hali o‘zining individual namoyon bo‘lishini to‘g‘ri tahlil qilish uchun yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi sababli, bolaning takabburligi, uning da’vo darajasi va guruhdagi haqiqiy mavqei o‘rtasidagi ziddiyat tufayli u tengdoshlari bilan ziddiyatlarga duch kelishi mumkin.

Xorijiy psixologiyada o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat ko‘pincha shaxsning o‘zini anglashining muhim hissiy tarkibiy qismi sifatida belgilanadi. Bu, birinchidan, o‘zini o‘zi bilishga tayanadi, ikkinchidan, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi anglash va o‘zini rivojlantirish uchun asosiy shart - sharoitlarni yaratadi.

Adekvat faoliyatda shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabatining asosiy pozitsiyasi rus psixologlar tomonidan belgilanadi: B.G.Ananev, R.Berns, A.A.Bodalev, L.I. Bojovich, L.S.Vigotskiy, I.S.Kon, A.N.Leontev, M.I.Lisina, A.I.Lipkina, N.A.Menchinskaya, S.R.Panteleyev, A.M.Prixojan va boshqalar.

Rus psixologiyasida shaxs insonning atrofdagi voqelikka munosabati tizimi sifatida namoyon bo‘ladi, unda uchta bo‘g‘in ajralib turadi – o‘ziga munosabat, boshqalarga munosabat va umuman dunyoga munosabat [1]. Birinchi bo‘g‘in eng muhimi, chunki u insonning ijtimoiy sub’ekt sifatida har qanday namoyon bo‘lish jarayonida ishtirok etadi.

N.F.Kravsova o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni o‘zini o‘zi anglashning ko‘p o‘lchovli tarkibiy-darajali tarkibiy qismi, nisbatan barqaror va shaxs tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanadigan shaxsiy xususiyat sifatida ko‘rib chiqadi [5].

A.D.Astresov buni inson uchun “Men” ma’nosining ifodasi, o‘ziga nisbatan barqaror ijobiy yoki salbiy tuyg‘u sifatida tushunadi, unda ikkita quyi tizim mavjud o‘zini o‘zi hurmat qilish tizimi va hissiy-qadriyatlar munosabatlari tizimi [2].

N.N.Krilova, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatning rivojlanishi insonning shaxs sifatida shakllanishi jarayoni bilan uzviy bog‘liqligini aytadi.

U asta-sekin, uning atrofidagi odamlarning munosabatlar tizimiga qo‘shilishi va o‘z faoliyati natijasida shakllanadi [6]. Bolaning o‘ziga bo‘lgan munosabati bevosita uning yaqin atrofidagi unga bo‘lgan munosabatning xususiyatiga bog‘liq. Ijtimoiy doiraning yetukligi va kengayishi bilan, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat mazmuni oilaviy aloqadan tashqari jarayonda to‘ldiriladi. Asta-sekin, ijtimoiy muhit bilan munosabatlar orqali o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat shakllanishining shartlanishidan shaxsning yetakchi hayotiy pozitsiyasini va uning xulq-atvor uslublarini shakllantirishdagi hal qiluvchi roliga o‘tish mavjud. O‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat murakkab tuzilishga ega ekanligi ham umume’tirof etilgan.

V.V.Stolin o‘ziga qarshi yoki unga qarshi umumiy, global tuyg‘uni ham, ko‘proq farqlangan tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi: o‘zini o‘zi hurmat qilish, o‘zini o‘zi shubha ostiga qo‘yish, autosimpatiya, boshqalardan kutilgan munosabat va boshqalar.

S.R.Panteleyev o‘z-o‘ziga munosabatning baholovchi (o‘zini o‘zi baholash, kompetensiya hissi, samaradorlik hissi) va hissiy-qadriyatli (autosimpatiya, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi qabul qilish, o‘zini o‘zi qadrlash) kabi quyi tizimlarini ajratadi. N.I.Sarjveladze o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat tuzilishini kognitiv (o‘zini o‘zi bilish jarayonida), hissiy (o‘zini sevish yoki nafratlanish) va konativ (harakatlarda, o‘ziga nisbatan ichki harakatlarda yoki ularga tayyorlikda) xususiyatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqadi.

A.S.Kuzmina o‘z-o‘ziga munosabat parametrlarini o‘rganar ekan, o‘smirlik davrida birinchi navbatda o‘ziga nisbatan hissiy va qadriyatli munosabatga asoslangan aloqalar shakllanadi. Bu shaxsning haqiqiy muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklariga bog‘liq emasligi kuzatiladi. Shuningdek, u ongsiz ravishda muhim bo‘lib, kattalarning munosabatlarini tanqidiy ravishda ko‘rib chiqish jarayonida sodir bo‘ladi.

